

Alisher Navoiy



MAKTAB
KUTUBXONASI

XAMSA



Alisher Navoiy

XAMSA



YANGI ASR AVLODI

TOSHKENT

2016

UO'K: 821.512.133

KBK: 84(50')1

N-14

Navoiy, Alisher

Xamsa / Alisher Navoiy. Qisqartirib nashrga tayyorlovchi A.Hojiahmedov; mas'ul muharrir V.Rahmonov. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 496 b.

ISBN 978-9943-27-356-6

Mazkur kitobda Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi barcha dostonlarning mazmuni bayon qilingan. Ularda shoir tomonidan tasvirlangan turli voqea-hodisalar aks ettirilgan, faqat kirish qismlari, me'yoridan cho'zilib ketgan manzaralar, monologlar biroz qisqartirilgan. Navoiy dostonlarining ushbu nasriy talqini alloma shoirimizning turkiy she'riyat gultoji hisoblanmish «Xamsa» dostonlarini anglab olishingizga yordam beradi, deb o'ylaymiz.

UO'K: 821.512.133

KBK: 84(50')1

Qisqartirib nashrga tayyorlovchi:

Anvar HOJIAHMEDOV

Mas'ul muharrir:

Vahob RAHMONOV



ISBN 978-9943-27-356-6

© Alisher Navoiy. «Xamsa». «Yangi asr avlodi», 2016-yil.

BUYUK BADIY OBIDA

O'rta asrlar Sharq adabiyoti, xususan, forsiy va turkiy she'riyat rivojida xamsachilik an'anasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu an'ananing boshlanishiga buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asr boshida yaratgan «Maxzan ul-asror» (1174 – 1177), «Xisrav va Shirin» (1181), «Layli va Majnun» (1188), «Haft paykar» («Yetti go'zal», 1197) hamda «Iskandarnoma» (1199 – 1201) dostonlari asos bo'lib, ular keyinchalik ijodkor vafotidan so'ng «Xamsa» (arabcha «beshlik» degani) yoki «Panj ganj» (forsiy tilda «Besh xazina» ma'nosida) nomlari bilan yaxlit kitob holida juda keng tarqalgan, turli tillarga tarjima qilinib, shuhrat topgan edi. Mazkur kitobdan o'rin olgan alohida dostonlar bir necha shoirni shu mavzudagi yirik poetik asarlar yozishga ilhomlantirgandi.

1253–1325-yillarda yashab ijod qilgan Xisrav Dehlaviy o'zining fors-tojik tilidagi «Matla ul-anvor» («Nurlarning boshlanishi»), «Shirin va Xisrav», «Majnun va Layli», «Hasht bihisht» («Sakkiz jannat») va «Oyinayi Iskandariy» («Iskandar oynasi») nomli beshta dostonini yaratib, Nizomiy «Xamsa»siga to'la javob yaratdi va bu an'ananing boshlovchisi bo'lib maydonga chiqdi.

XV asrda yashagan aksariyat shoirlar «Xamsa»ga o'xshatma bitishga harakat qilgan bo'lsalar ham, ko'plari bir yoki bir necha asar yaratishga

erishdilar. Chunonchi, Mavlono Ashraf, Mavlono Abdullo, Kotibiy Nizomiyning bir qator dostonlariga javob bitgan bo'lsalar, Mavlono Faseh Rumiy uning «Maxzan ul-asror»iga, Xoja Hasan Xizrshoh «Layli va Majnun» dostoniga o'xshatma dostonlar yozishgan. Lekin ikki buyuk ijodkor: Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiygina to'liq «Xamsa» yaratishga erishdilar.

Jomiy asari beshta emas, yetti dostonni o'z ichiga olib, «Dengizlar siri», «Lujjat ul-asror» (875 – 876 h.), «Tuhfat ul-ahror», «Sabhat ul-abror» (887 h.), «Yusuf va Zulayho» (888 h.), «Layli va Majnun» (889 h.), «Xiradnomayi Iskandariy» («Iskandar hikmatnomasi») (890 h.) dostonlaridan iborat bo'lib, «Haft avrang» («Yetti taxt») deb ham ataladi.

Yuqorida nomi keltirilgan asarlarning barchasi o'sha davr an'anasiga muvofiq fors-tojik tilida bitilgan edi. Natijada ularni shu tilni biladigan kitobxonlargina o'qib, boshqa xalqlar vakillari ulardan bebahra qolar, ba'zan tarjima orqaligina bu go'zal obidalardan bahramand bo'la olardilar.

Alisher Navoiy 1483-yilda bu murakkab ishga kirishib, ikki yarim yil ichida «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ayi sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlaridan tashkil topgan «Xamsa» kitobini eski o'zbek tilida yaratib, jahon adabiyotini bezavol va betakror buyuk asar bilan boyitdi.

Nizomiy «Xamsa»siga javoblar yozish, hech bo'lmaganda, undagi ayrim asarlarga o'xshatma tatabbu'lar bitish an'anasi keyingi davrlarda ham davom etdi. Taniqli adabiyotshunos Y.E.Bertelsning bergan ma'lumotlariga qaraganda, «Layli va

Majnun» Xusrav Dehlaviydan boshlab jami 24 shoir yaratgan fors, o'zbek va ozarbayjon tillaridagi dostonlar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Mazkur asarlarda Nizomiy dostoni aynan takrorlanmay, har qaysi davrga xos ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy masalalar o'z aksini topgan, asar voqealari, timsollarga ba'zi o'zgarishlar kiritilgan, tasviriy-uslubiy tamoyillar ham bir qator yangiliklar bilan boyitilgan, badiiylik g'oyat rivojlantirilgan, har qaysi milliy til boyliklari va go'zalliklaridan yanada unumliroq foydalanilgan.

Alisher Navoiy qalamiga mansub besh doston, shoirning ta'kidiga qaraganda, jami 30 oy – ikki yarim yil ichida yaratilgan bo'lsa-da, bu asarlarning har birini ko'p yillik ijodiy mehnatning natijasi deb qarash kerak. Zero, yoshlikdan shu ulug' maqsadni o'z oldiga qo'ygan shoir «Xamsa» yaratish ishiga avvaldan kirishgan, shu maqsadda yuzlab tarixiy, ilmiy va adabiy kitoblarni o'rganib chiqqan va ularni tadqiq etgan, bir-biri bilan qiyoslab, o'z xulosalarini ko'plab ustozlari va fikrdoshlari sinovidan ham o'tkazgan edi. Shuning uchun uning besh dostoni butun xalq manfaatlarini aks ettirgan, omma uchun asrlar davomida sevikli bo'lib qoladigan o'lmas qahramonlar qiyofalari bilan limmo-limdir.

Navoiy o'z «Xamsa»sini yaratar ekan, Nizomiy va Dehlaviylar yaratgan ayrim ijobiy qahramonlar qiyofasini keskin o'zgartirish, aniqrog'i, qarama-qarshi xosiyatlar sohibi sifatida gavdalantirish usulini ham qo'llaydiki, buni jahon adabiyoti uchun ham yangilik deb qabul qilish mumkin. Chunki

tarixiy shaxslarni shu xilda talqin qilish G'arb adabiyotida, masalan, Shekspir ijodida ham uchramaydi. Biz bu o'rinda, avvalo, «Farhod va Shirin» dostonidagi Xusrav qiyofasini nazarda tutyapmiz. Navoiy o'z ustozlari «Xamsa»larida ijobiy fazilatlar egasi tarzida gavdalantirilgan shoh Xusravni zolim, bosqinchi, makkor, nomard hukmdor sifatida tasvirlab, tarix haqiqatiga zid keladigan qiyofada aks ettirib, o'quvchilar ommasida unga nisbatan kuchli nafrat hisini uyg'otadi.

Salafar tasviridagi toshkesar Farhodni chinakam ma'nodagi xalq qahramoniga, sadoqatli oshiq, insonparvar, mard va qahramon yigit sifatida tasvirlanishi ham adabiyotimiz uchun yangi badiiy usul ifodasi edi. Asarda tasvirlangan barcha voqealarning yangicha mazmun kasb etishi ham doston g'oyaviy-badiiy qimmatini g'oyatda oshirib yuborgan.

Navoiy «Xamsa»si qahramonlari asrlar davomida necha-necha avlodlar uchun ma'naviyat va odobda, odamiylik va jasoratda, xalqparvarlik va saxovatda o'rnak bo'lib xizmat qiladigan yorqin badiiy siymolar bo'ldi. Farhod va Qays, Suhayl va Sa'd, Axiy va Farrux, Muqbil va Jo'na kabi betakror qiyofalar, Shirin va Layli, Mehr va Mehinbonu, Dilorom va boshqa ma'naviy barkamol ayollar timsollari Navoiy asridan boshlab hanuzgacha yoshlarimizni oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalab kelmoqda. Daho ijodkorimizning Navoiy va asar qahramonlari nomidan aytilgan:

*Odami ersang, demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.*

*...Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.*

*...Jahonda neki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.*

*...Birovkim, jahonda so'zi rostdir,
Erur dol angakim o'zi rostdur.*

*...Ki har kim ayon etsa yaxshi qilig',
Yetar yaxshiliqdan anga yaxshilig'*

kabi dono fikrlari mustaqillik davrida ham hayot darsligi bo'lib xizmat qilib, yoshlarimizni barkamol insonlar sifatida tarbiyalashimizga yordam bermoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy o'z salafлари dostonlariga yuqori baho berar ekan, har bir asar muqaddimasida ulardagi jiddiy nuqsonlarni ham alohida ta'kidlab o'tib, ushbu kamchiliklarni keskin tuzatish yo'lini qo'llaydi. Masalan, Nizomiy va Dehlaviylar Bahrom, Xusrav kabi shohlarni tasvirlaganda, ularning dabdabali hayotlari, mol-u dunyosi-yu qo'shini, toj-taxti-yu hashamati, qudrati-yu imoratlarini rosa maqtab, odamlarga, masalan, Bahrom o'z malikalariga nomunosib ishlar buyurgani haqida to'xtalib, chinakam muhabbat tasviridan xoli bu asarda har ikki ijodkor xatolarini shunday deya alohida ta'kidlagan edi:

*«Bo'yla nodon uchun yozib avsof,
Anga qilgaylar o'zlarin vassof.
Madhini behisob yozgaylar,
Balki mavzun kitob yozgaylar.*

*Har bir o'z ganjida ko'rub ko'p ranj,
Qilg'ay o'z «Panj ganji»din bir ganj.
Alloh, Alloh! Ne ganj bo'lg'ay bu!
Sarbasar elga ranj bo'lg'ay bu!»*

Alisher Navoiy dostonlari esa puxta tuzilishi, voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi bilan ajralib turadi. Shoir o'z asarlari qahramonlarining har bir xatti-harakatini, ichki olamini ijtimoiy va ruhiy jihatdan asoslashga alohida diqqat qiladi. Har qaysi asarning boshlanish qismida qahramonlarning kelajakdagi voqealarga, qahramonliklarga, sevgi-sadoqatga, sabr-qanoatga, ilmiy-muhandislik muammolarini hal qilishga, hunar sohasiga tayyorlaydi, shuning uchun ularning faoliyatlari o'quvchida ishonch hosil qiladi. Farhod, Qays, Iskandar, Suhayl, Sa'd, Axiy kabi qahramonlar shunday fazilatlar bilan o'quvchi muhabbatini qozonadi.

Navoiy, ayniqsa o'zi yaratgan qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiyatini to'laqonli aks ettiradi. Farhodning Salosil qal'asidagi kechinmalari, Majnunning dasht va sahroda chekkan iztiroblari, Ka'ba huzuridagi nolishlari, Laylining alamli dil so'zlari, Iskandarning onasiga maktubi kabi o'nlab tasvirlarda qalb kechinmalarining dardli ifodalari g'oyat ta'sirchan ifodalangani ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Shoir «Xamsa»da tabiat va inson munosabatlarini eng jozibador, eng nafis, eng ta'sirchan aks ettiradi. Tabiatdagi har bir mavjudot, burjlar-u fasllar, oy-u yulduzlar, har qaysi o'simlik, samovot Navoiy qahramonlari tarafdori, ular uchun g'am

chekadi, iloji boricha madad qo'llarini cho'zadi, qiyinchiliklarni yengib o'tishga hamdamlashadi.

Majnun bog'da behush yotar ekan, gulzordagi barcha o'simliklarning uning holiga munosabatlari manzarasini eslaylik: yoridan ayrilib gulzorda tanho yotgan Qays ko'zini ochib qarasa:

*Ko'rdi o'zini chaman ichinda,
Sarv-u gul-u yosuman ichinda.
Bulbul boshi uzra nag'ma pardoz,
Ahvolig'a navha aylab og'oz.
Gul holig'a chun nazora aylab,
Gulgun yoqasini pora aylab.
Nargis shabnamdin ashk etib fosh,
Ahvolig'a yummayin to'kub yosh.
Chun ko'ksida hajrdin ko'rub dog',
Ko'ksi uza lola kuydurub dog'.
Zaxmi ko'kidin binafshada g'am,
So'ziga kiyib libosi motam.
Sunbul qilibon qaro uzorin,
Ochib qora zulfi mushkborin.
So'giga oqar su zor yig'lab,
Un tortib so'gvor yig'lab.
Sarv o'lmay mehnatidin ozod,
Qolmay shamshod dardidin shod.*

Bu xil samimiy va ta'sirchan tasvirdan tabiatning inson zotiga hamdardligi, unga cheksiz mehribonligi mohirona chizilgani ko'zga tashlanib turadi. Shoir insonning ham tabiatga mehr-u shafqatini ko'p o'rinda san'atkorlik bilan ta'kidlaydi. Jumladan, Farhod o'z o'limi oldida jabrdiyda tog'ga murojaat qilib deydiki:

*...Sanga mandin yetibdur oncha yotliq,
Ki yuzungdin uyotlig'man, uyotlig'.
Gahi bag'ring bo'lub tesham g'ilofi,
Gahi jismingda metinim shikofi.
Yuzung yoshimga xunolud gohi,
Damimdin boshing uzra dud gohi.
Bori jurmumg'a tig'i afv surg'il,
Borur chog'imda afv aylab kechurgil.*

Tabiat bilan Inson orasidagi bu xil do'stona munosabat, sadoqat, shafqat Navoiyning barcha ijobiy qahramonlariga xosdir.

Alisher Navoiy mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanib kelgan turli xil uslublardan o'rni bilan unumli foydalanaveradi. Shuning uchun «Xamsa» dostonlarida sof realistik hayotiy hodisalar, manzaralarni ham, romantik ko'tarinki, kuchaytirilgan tasvirlarni ham, xalq og'zaki ijodiga xos xayoliy fantastik lavhalarni ham aralash holda uchrataveramiz. Masalan, Farhodning tog'dan suv chiqarish faoliyatida rejalashtirish, ariqni tayyorlash lavhalari haqqoniy tasvirlansa, ba'zan Farhod kuch-qudratini dalillash uchun romantik manzaralarga murojaat qiladi. Uning dev va ajdaho bilan jang ko'rinishlari esa g'oyat bo'rttirib tasvirlanadi. Boshqa dostonlarda ham shu to'rt usul birgalikda qo'llanaveradi. Bu xil sinkretik aralashlik realistik hayotiy tasvirni yorqinroq aks ettirish maqsadini ko'zlaydi.

«Saddi Iskandariy» dostonidagi qo'shinlarning to'qnashuvi, ayniqsa, yakkama-yakka olishuvlar, shohlar aro munozaralar, Iskandar devorining qurilishi o'quvchini hayotiy tasvirga ishontiradi.

«Sab'ayi sayyor» dostonidagi ko'plab hikoyalar ham voqealarning rostligiga shubha uyg'otmaydi. Birinchi hikoyada Axiyning o'z xotinini Farruxga berib yuborishi har qancha g'ayritabiiy tuyilmasin, Axiyga xos yuksak insonparvarlik, uni o'limdan qutqarib qolish uchun shunday ishga qo'l urishi ham aql bilan fikr yuritgan kishiga o'ta g'ayritabiiy tuyulmaydi. «Suhayl va Mehr» hikoyasi ham haqqoniyligi bilan ko'zga tashlanib turadi.

Navoiy «Xamsa»sida yaqqol ko'zga tashlanib turadigan kashfiyotlardan yana biri dostonlarda ilmiy-hayotiy timsollarga keng o'rin berilishidir. Ilm va fan bilan bolalikdan qiziqib kelgan shoir «Farhod va Shirin» dostonida robotlar sistemasini yovuz kuchlar quroli sifatida tasvirlab, inson tafakkurining, Farhodning bu ilmiy-xayoliy jismlar ustidan g'alabasini tasvirlagan edi. «Sab'ayi sayyor» dostonida Navoiy soatiga 35–45 kilometr yuradigan «Sariyus sayr» nomli ulov haqida fikr yuritadi. Bu asboblarga odamlarga tez harakat qilishga imkon beradi.

«Saddi Iskandariy» dostonida esa jahonni yorituvchi Jamshid jomi, Çin olimlari ishlagan ikki ajoyib ko'zgu, Rum donishmandlari yaratmish ajoyib jom va usturlob asboblari tasvirlanadi. Malu qo'shinlariga qarshi Iskandar olimlari tomonidan ishlangan sirli qurol atom bombasini eslatadi.

Bunday tasvirlarni biz boshqa shoirlar ijodida uchratmaymiz. To'g'ri, shoir salafлари Iskandarning shisha idish yasatib, unga arqon ulab, suv ostida yuz kun baliqlar hayotini o'rganganini ta'kidlashgan edi, lekin Navoiy bu xil tasvir ilmiy-xayoliy timsolga nisbat berilsa, o'quvchini

ishontirmasligini his etib, shohning bu xil faoliyatini uning payg'ambarlik quvvati ifodasi sifatida ko'rsatishni ma'qulroq ko'radi.

Alisher Navoiy «Xamsa»sini tashkil qiluvchi dostonlarning har biri katta hajmga ega bo'lgan, yuksak ma'naviyat va badiiyat qonunlariga to'la amal qilingan holda yozilgan hamda boy va go'zal o'zbek tilining bor nafosatini o'zida ifoda qilgan mukammal badiiy asardir. XV asr adabiy tilida yaratilgan va hozirgi zamon o'quvchilari uchun anchagina tushunilmaydigan, aniqrog'i, eskirgan so'zlari bo'lgan, xilma-xil til san'atlari va uslublari qo'llangan bu obidalarni Navoiy tilida tushunish ancha mehnatni, lug'atlar ustida tinimsiz ishlashni talab qiladi. Kitob yozib tugallangan XV asrda va undan keyin ham dostonlarni o'qib anglash oson bo'lmagandirki, keng xalq ommasini qiynalmasligi uchun «Xamsa»ning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan xalqona nasriy nusxalari yaratilgan. Adabiyotshunos Maxzun, Umar Boqiyning kitoblari shunday asarlardan edi.

Navoiy «Xamsa»si dostonlarini osonroq tushunish uchun o'tgan asrda ham bir necha harakatlar qilindi. O.Sharafiddinov, Y.E.Bertels, V.Zohidov, A.Qayumov, P.Shamsiyev, O'.Karimov, S.Mutallibov, A.Rustamov, S.Erkinov, N.Mallayev va boshqalar tomonidan Navoiy «Xamsa»si dostonlarining mukammal nasriy matnlari tuzilib, ko'p nusxada nashr qilindi. Ammo o'quvchilar, litsey va kollej talabalari hamda ulug' shoirning ko'p sonli muxlislari uchun bu mukammal nasriy nashrlar ham og'irlik qilyapti, shekilli. Har holda yoshlarimizning ko'plari «Xamsa» dostonlari mazmunidan yaxshi

xabardor emaslar. Maktablar, litsey, kollejlarda bunga imkoniyat topilmaydi – kitoblar yetishmaydi.

Shularni hisobga olgan holda biz Navoiy «Xamsa»si dostonlarining asosiy mazmunlarinigina ixcham tarzda bayon qilingan kitobchalar va ularning barchasini to‘plab bitta kitob holda tajriba sifatida taqdim etishni ma’qul ko‘rdik. Nashr etilgan asarlarning kirish va xulosa qismlari tushirib qoldirilgan, asardagi cho‘zilib ketgan ba’zi o‘rinlar: manzaralar, monologlar ixchamlashtirilgan. Bu xil yondashish dostonlarning to‘liq tushunilishiga imkon bermaydi. Ular haqida keng ma’lumotga ega bo‘lish uchun dostonlarning to‘liq nasriy bayoni, qolaversa, Navoiy dostonlarining o‘zi bilan to‘liq tanishish lozim. Qo‘lingizdagi kitob esa dostonlar mazmunini osonroq tushunib olishingizga yordam beradi, xolos.

Kitob tajriba holda nashr etilayotgani uchun unda ayrim kamchiliklar bo‘lishi ham mumkin. Olimlarimiz, navoiyshunoslarimizning o‘rinli maslahatlari, Navoiy «Xamsa»sining shu xil nashrini yanada mukammalroq nashr etishimizga yordam beradi, deb ishonamiz.

Anvar HOJIAHMEDOV

NAVOIY O'Z «XAMSA»SINING YARATILISH TARIXI HAQIDA

Go'zal so'zlovchilarning boshidagi toji, haqiqat ganji tojining gavhari, fazilat koni javharining saqlovchisi, yetuklik dengizining qimmatbaho duri bo'lgan ganjalik ma'noli so'zlar ijodkori¹ o'y-fikri mezoni bo'lgan «Xamsa», «Beshlik» emas, «Panj ganj» («Besh xazina») deb atashga arzirlidir. So'z durlarining bu ajoyib nozimini falak «Nizomiy» deb atagan edi. Bu nomdagi besh harfni qo'shib hisoblaganda, Allohning ming bir nomiga teng son paydo bo'ladi. Uning asari durlaridan yer yuzi lim-lim bo'lib, balki falakning qimmatbaho buyumlar solinadigan qutichalari ham to'lib toshgandir.

Hind chavandozi² she'riyatida yaratilgan dostonlarning har biri go'yo Hindistonning bir viloyatiga o'xshaydi. U xazina sochuvchi Ganja shohiga payrov bo'ldi, Nizomiy so'z iqlimining shohi bo'lsa, bu Xusravi bo'ldi. Ganja quyoshi o'z bayrog'ini ko'targach, so'z mamlakatini yakkaqalam qilib, qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsa, o'sha o'lkalarga Xisrav ham sipoh tortdi.

*Qaysi shabistong'aki ul qildi azm,
Bazmi yerida bu dog'i tuzdi bazm.
Ul bezabon «Maxzani asrori»din,
Bu yorutub «Matlayi anvor»idan.
Ko'p kishi ham qildi tatabbu' havas,
Sarv-u gul o'trusig'a kelturdi xas.*

¹ Nizomiy Ganjaviy nazarda tutilyapti.

² Xusrav Dehlaviy demoqchi.

*Bir kishidin o'zgaki, andoq kishi,
Bermadi yod eski falak gardishi.*

U bugun so'fiylar peshvosi, haqiqat sirlarining ochuvchisidir, ko'ksi nozik ma'nolar xazinasining duri, ko'ngli ma'nolar yuzining oynasi, nazmlari jahon iqlimlarida mashhur, nasriy asarlari jon mamlakatlarini egallagan. Lutf-karami, in'om-u ehsoni shoh-u gadolar o'rtasida shuhrat topgan, uning xizmatini ado etganlar bir umr faxrlanib yuradilar. Lekin ul zot menga alohida e'tibor bilan qaraydi, yozgan har bir asari men ko'rganimdan so'nggina elga yetib boradi.

Bahorning fayzyob kunlaridan birida shoirlar-u allomalar, xonanda-yu sozandalar davrasida o'tgan buyuk zotlar she'riyati haqida, jumladan, payrov xususida bahs borar ekan, gap Nizomiy bilan Xusravga taqaldi. Ikkala ijodkor asarlarining jahondagi shon-u shuhrati, ular yaratgan «Xamsa»larning olam ahliga manzurligi haqida e'tiborli fikrlar bildirildi. Ayniqsa, jami o'nta doston ichida dastlabki ikki durdonaning o'zgacha o'rni borligi, ularning ma'naviy yuksakligi, badiiy barkamolligi to'g'risida bir-biridan purmazmun gaplar aytili.

Oradan bir-ikki oy o'tgach, ul tabarruk zot uyimga mehmon bo'ldilar. Qo'llarida bir necha kitob bor edi. Ulardan birini qo'llariga olib, kulib turib, menga tutdilar.

*Kim: «Olibon boshtin ayog'iga boq,
Qil nazar avroqig'a boshtin-oyoq.
Olig'a jon naqdini sochtim ravon,
Oldim-u o'ptum, dog'i ochtim ravon.*

*Boshtin-ayoq gavhari shahvor³ edi,
Qaysi go'har «Tuhfat ul-ahror»⁴ edi.
Chun o'qimoq zamzamasi⁵ bo'ldi bas,
Ko'nglum aro dag'dag'a soldi havas.
Kim bu yo'l ichraki alar soldi gom,
Bir necha gom o'lsa manga ham xirom.
Forsi o'ldi chu alarg'a ado,
Turki ila qilsam ani ibtido.
Forsi el topti chu xursandliq,
Turk dog'i topsa barumandliq.
Yo'ldasa bu yo'lda Nizomiy yo'lum,
Qo'ldasa Xusrav bila Jomiy qo'lum.*

Dilni shodlantiruvchi bog'larning devorlari ham to'rt paxsali bo'ladi. Ularning o't-u suv-u havosi yoqimli bo'lganidek, tufrog'i ham muattar bo'lishi muqarrar. Sarv-u gul va lolaning xaridori borligi aniq, lekin o'tinning ham bozori bo'ladi-ku. Atlas bilan qora rangli ipak kiyim yoqimli bo'lsa, it yungi ham palos qilishga yaraydi-ku. La'l bilan yoqut va dur qimmatli hisoblansa, nega kahrabo somonni o'ziga tortadi? Shoh uch xil may bilan xursandlik topsa, qolgan loyidan, hech bo'lmasa may quyqasini ichuvchi mayxo'r ichib shodlanadi-ku. Men ham o'zimning it kabi pastligimni anglab yetdim-u, o'zimni ulug'lar ipiga bog'ladim. Ular yo'qlik dashti tomon yo'l olsalar, men ham soya kabi ularga hamqadam bo'lg'umdir.

³ Shahvor – shohona.

⁴ «Tuhfat ul-ahror» – «Do'stlar sovg'asi».

⁵ Zamzama – xirgoyi.



HAYRAT UL-ABROR



Birinchi maqolat

IMON HAQIDA

Kimki bu jahonga inson bo'lib kelgan ekan, uning asosiy sharti imondir.

Demak, sabr, shukr va hayodan iborat bo'lgan odamlargina Inson degan sharafli nomga munosibdirlar, imondan uzoq bo'lgan kishilarni esa bu nom bilan atab bo'lmaydi.

Inson kimligini bildik, endi imon nimaligini kengroq sharhlaylik. Imon olti qismdan iborat. Kim bu olti to'siqqa ega bo'lsa, ular har bir kishini olti jihatdan himoya qiladilar.

Oltidan birinchisi – maqsud, ya'ni Haqning mavjudligini bilmakdur. Hamma narsa qoyim – mavjud, faqat Allohgina abadiydir. Barcha jahon ahliga uning zoti, ismlarning paydo bo'lishi, jahon sifati nihondur.

Barchani nobud qiluvchi ham, barcha o'tib ketib mavjud bo'lg'uvchi ham O'zidir. Ikki jahon mulki unga bo'ysunadi, o'zga jahon ham unikidir.

Oltidan ikkinchisi – farishtalar. Yaxshi bilib olgin-ki, ular barcha falak ziyoratchilaridir, ular nafsning barcha chirkinliklaridan pokdirlar. Barchasining javharlari pok-u ozod, tuprog'-u suv-u yel-u o'tdin xoli. Barchalari yaratilganlaridan beri dam olishni bilmay xizmat qilishadi. Jannat qushlaridek shavq-nok, qilayotgan ishlaridan zavqqa to'ladilar.

Faqat bir qulgina ular ichida bu zavqni topolmaydi, uning bo'ynida zanjir. U halqada uchta

harf oshkor yozib qo'yilgan, har birining domonasi halqavor, har birining halqasi o'zaro tutashib la'ndagi yozuvda bulfuzul o'qiladi.

Uchinchisi – osmon kitoblari, barchasini hech shubhasiz Tangri so'zlari deb bilgaysan. Kitob emas, har biri chuqur bir daryo, har so'zi esa shu bahrning go'zal durdonasidir. Dengiz emas, balki har biri ajoyib bir kon, boshdan oyoq la'l ila gavharga makondir. Agar uchtasi uch nurli sham bo'lsa, lekin biri Sharq quyoshidir. Uchovi ham tug'ilgan bo'lsa-da, bunisi yetti ota-boboning ishini qilg'uvchidir. Balki bo'lsa ham, sabki masoniy, ya'ni fotiha surasi shu kitobda yangraydi. Uning boshidagi har bir surasi zarhallangan, tartib koshiy bilan pishirilgan, har bir sahifasi gulshanga, jadvali atrofidagi chiziqlar ravshan zulollarga o'xshaydi. Bog' dema, balki falak, shunday bir falakki, satrlari har tarafga saf-saf bo'lib tizilgan. Uning sahifalari atrofidagi o'nta doiracha martabada har qaysisi bir lojuvard falakka o'xshaydi. Har juzvi varaqlaridagi so'zlar asli haqiqat, balkim barchasi haqdir.

To'rtinchi – payg'ambarimiz ma'shari, har biri bir safo bahrining gavhari.

Bu so'zlarning barisi Haq amri va uning tomonidan man qilingan haqiqatlarni bari elga ko'rguzub berdi. Har bir bilimsiz odam hujjat istasa, har qaysisiga mo'jizot ko'rsatildi. Barcha haqiqiy holat ayon bo'ldi, nuqsonlarga, illat, yolg'onlarga ehtiyoj qolmadi.

Payg'ambarlar uch qism bo'lib, avvalo, avliyo anbiyo guruhi keldi, so'ng Haq rasullari. Ular Allohning barcha so'zlarini xalqlarga yetkazadilar.

So‘ng Haq rasuliga rosix bo‘lib, dini rasul diniga nosix bo‘lib, kufr qarshisida har mursal dili bilan mash‘al yoritdi. Uning shar‘i quyoshi zuhur topgach, boshqa mash‘alalar ichida nur qolmadi. Unga yetganda payg‘ambarlar kelishi tugallandi. Din uning islomi bo‘lib qoldi, bas vassalam.

Beshinchisi – qiyomat. Hisob kuni, hisob kuni dema, azob kuni deyaver. U kuni bo‘lishi uchun qiyomat bo‘ladi, elga qilganidan nadomat yoziladi, yozish uchun qog‘oz sahifalari yetishmay qoladi.

Shimol ahli ichida janjal ko‘tarilib, nomalari yuzlaridek qorayib ketadi. To‘g‘ri tarozuning ikki boshi bo‘lib, biriga gavhar, biriga tosh solinadi.

Ko‘prik ustida xalq tashvishda bo‘lib, biriga qat-tiq, biriga oson bo‘ladi. Do‘zax o‘ti cheksiz yonib, xalqni o‘ldirishda ajdaho qatnashadi. Uning yetti boshi aylana gumbazdek bo‘lib, yetti og‘zining har biri g‘ordek keladi. Go‘yo yetti do‘zax eshigini ochib, yetti og‘zidan o‘tlar sochilib, firdavs gul-shanida ozuqa mo‘l bo‘lsa ham, olovlar orasida nasim esayotgan bo‘lsa ham o‘tish qiyin bo‘ladi. Uning huri ruhi musavvar kabi bo‘lib, qadd-u, labi to‘bi-yu kavsar kabi bo‘ladi.

Oltinchisi qadar haqida bo‘lib, oldin yozilgan barcha yaxshiliklar-u yomonliklar: may ichib mast bo‘lishlar, hammani mast-behush qilish, yig‘inlarda bo‘lgan barcha yaxshi-yomon voqealar, mastning noxush sado tortishi-yu mutribning qilgan dilkash navosi, ba‘zilar Ka‘baga qarab yo‘l olgan bo‘lsa-yu, ba‘zilar mayxona ichida bazm tuzgan bo‘lsa, biri sahroda yarim-yalang‘och uxlab, yana biri vayronada yashayotgan bo‘lsa, mast mug‘bacha – may quyuvchi bola saloh ahlini bevaqt uyg‘otgan bo‘lsa,

zohid agar ertalabdan dardnush bo'lib olib, fosiq o'zini xirqa kiyib masxarabozlik qilsa,

*Barchasi haq ilmida ma'lum edi,
Lavhayi mahfuzda marqum edi.*

Yaxshi amal qilganlar omonlikdan behishtga tushishi ham, yomon fe'li tufayli do'zaxdan o'rin olishi ham noma'lum. Tangriga ming yil sujud qilgan odam ham jannatdan o'rin ola olmasa – foydasi yo'q. Mug'bachalar dayrda halok qilgan saidi abadiy bo'lsa, ne ajab?

Kimdaki mana shu olti narsaga e'tiqod bor ekan, men ham shunday odamlardan ta'lim oldim. U har qancha nomasiyah bo'lsin, g'arqayi daryoyi gunoh bo'lsa ham, Allohim afviga muyassar bo'lsa, ne ajab?

Lekin bu dard o'ti jonni iztirobga soladi, uning ichida qancha-qancha ahli roz kutib ado bo'lgan. Bittasi o'z holiga motam tutsa, ikkinchisi olam tark aylagan. Men tasvirlagan zinalarga kim yetadi-yu, kim yetmaydi – u hech kimga ma'lum emas. Yetmagi ham noaniq, yetishi ham mumkin.

Bu xil tashvish kofir-u mo'min uchun ham barobar, har ikkisining ham ko'ngli shu dard bilan band, kim to'q-u, kim och bo'lsin, shu g'avg'odan xoli emas. Barcha bir niyatda, Alloh shafqat-ma'rifatini topmoqda. Topmoq lekin mashaqqatdadir, istakda, xohishda, irodadadir.

Shayx Boyazid haqida hikoya

Shayx Boyazid bir kuni g'amgin bo'lib o'tirgan edi, muridlaridan biri uning bu noxush kayfiyati sababini so'radi: «Ey, osmonning eng yuqori qism-

larida yuradigan, qadamlaring esa falakning eng yuksak manzillarida – Arsh fazosiga to‘g‘ri keladigan ulug‘ zot! Ko‘ngling nimadan bu xil tashvishga muhtalo bo‘ldi, chekayotgan mashaqqatlarning boisi nedur?». Shunda pir o‘tli ko‘z yoshlarini to‘kdi-da, oh-fig‘on chekdi: «Chekayotgan iztiroblarimning boisi shuki, odamlar o‘z dardi bilan to‘s-to‘polon, shikoyat-u norozilik ko‘tarishadi-yu, har biriga o‘zi qilayotgan ishi maqbul ko‘rinadi. Ulardan birontasini ham chinakam inson deb bo‘lmaydi. Bo‘lsa ham, o‘tib ketganlar ichida bo‘lishi mumkindir». Savol bergan murid iztirob bilan dediki: «Bu olamda haqiqiy inson qolmagan, deding, axir sen o‘zingni bu el ichiga qo‘shmading-ku?!». Shayx javob berdiki: «Ey ishi gumrohlik, nodonlik bo‘lgan kishi, men aytayotgan sirdan ogoh bo‘lmagan odam! Men kabi yuz ming sargashta, ko‘z yoshi jigar qoniga belanganlar, imon bilan ketishni bilmasa, bunday gaplarni aytadigan odam bo‘lmasa, olamdagi sen-u menga o‘xshagan kichig-u katta odamlar – hammamiz bu g‘am tig‘idan abgormiz, barchamiz bu g‘amga giriftormiz. Bu alam-tashvish bilan kimning ichi qon bo‘lmadi, kinga bu nuqta ayon bo‘lmadi?»

*Kim chu vido' aylagusi jon anga,
Hamroh o' lur yo'qsa yo'q imon anga.*

Agar jahon ahlining barchasi shu dard bilan iztirob cheksa, mening so‘zlarim xatomi, axir?!».

Shu so‘zlarni aytib tugatgach, pirning og‘zi xomush bo‘ldi.

Ikkinchi maqolat

ISLOM BOBIDA

Alloh taolo bu olam xalqlarini najot – qutulish ahli va halok ahli – halok boʻluvchilar qilib yaratdi, pirlarini butlarga ibodat qiluvchilar, boshqalarini islom jamoati qilib yaratdi. Kofirlar malomat-obroʻsizlikka yoʻl topdi, islom guruhi esa salomatlik-omonlik, tinchlik, sogʻlomlik sari yoʻl topdi. Biriga doʻzax uyi – oh-voh chekish manzili tayinlanib, islom guruhiga behisht nasib etdi.

Kishvari islom chegaralangan boʻlib, bir necha din ahli aralash yashaydilar. Boshdan oyoq barcha musulmon emas, musulmon boʻlganlar buni yolgʻon demaslar.

Islomning oʻz shartlari boʻlib, oddiy odamlarning koʻpchiligi ularni bilavermaydilar. «Man salimul muslimin – men solim musulmonman» degan kishilargina yuzi, qoʻl-oyogʻi, tili bilan ojizlik koʻrsatgan kishilar shular jumlasidandir.

Musulmonlik shartlarini Tangri taborak besh turli qilmishdir. Ularning barchasi muborakdir.

Avvalo, «La ilaha illalloh» kalimasi mohiyatini angla, soʻng Muhammadni bil, uni tanishingni aytib qabul qilgil.

Ikkinchisi namozni ado etmoqdir. Lekin uni bajarishda baʼzi qiyinchiliklar ham bor. Avvalo, tahorat qilmoq, tahorat qanday qilinishini bil-makdir. Oʻylamakim, suvga kirib ul suv bilan bir aʼzongni yuvgaysen. Bu xil tahoratni har bir ochkoʻz, tamagir ham qila oladi. Yana boshqacha bir nafis tahorat ham boʻlib, uni bajarganda, avvalo, safo chashmasidan xursandlik bilan xotiring tax-

tasini poklaysan. Tanni e'tibor bilan yuvib, shu tarzda jonni toza qilasan. Jonni shunday tahorat ichiga solib, tan yuzida nuqtacha qaro qoldirmay, ko'zdan yoshingni ariqdek oqizib, balki ko'ngildan boshqa barcha o'y-fikrlarni chiqarib tashlab, o'zlik uyini o'zingga harom qilib, Tangri sari yo'l olgandek o'ng oyoqni oldin tashlab uy ichiga qadam tashlaysan. Uy egasi bilan ikki kishi bo'lib namoz o'qimoq – yaxshiroq. Sajdada titrab yerga bosh qo'yib, quyosh kabi yuzni sarg'aytirib, vojibi farzini bajo qilasan, sunnat adosini ado qilasan.

Shu xil namoz qilsang, pok yuz bilan quyosh kabi yerga kirasan, tong chog'i boshdan oyoq nurga to'lib uyg'onasan.

Uchinchisi o'zingga berilgan hamma narsadan zakotni ado qilishdir. Bu yerda ham ikki turli farqli tomon bor. Biri ko'plashib, biri yakka holda berishdir. Alohidaligi shuki, rasul shar'ini qabul qilsang, zakot beruvchi esa sohib nisob, ya'ni zakotni ado eta oluvchi bo'lsa, qirq diramdan birini hisoblab beradi. Ixtiyoridagi oltinlari-yu do'konlari, xizmatkorlar (xodimlar), tuyoqli hayvonlar, mato-yu mollaridan shariat bo'yicha to'lanadi. Don-dunlar miqdori ham belgilab qo'yilgan.

To'rtinchisi ro'zadir. Uni tutgil, lekin foydasi haqida og'iz ochmay qo'ya qol. Ro'za haqida ba'zi munozaralar ham bor. Chunki Haq ro'zani «Assavmu li!» deb ta'kidlagan. Alloh tutiladigan ro'za miqdorini ham belgilab qo'yan. Xudo taolo «12 oyning har birida ro'za tutasen» deb amr qilsa, nima qilarding. Shuncha kun tutsang ham sazovor bo'lardi, lekin jafosini sen tortarding.

Ro'zada ham uch e'tiborli jihat bordir. Sahargacha Alloh o'z ruxsorini G'arbga burgunga qadar

ko'rsatadi. Aqlini ishlatmagan ro'zador ikkinchisi-ga e'tibor beradi: a'zolaringga xalal yetmasligi va shar' xilofiga yo'l qo'yilmasligi zarur. Har bir a'zo o'z vazifasini bajarmagi, ya'ni bormasligi, ko'rmasligi, tutmasligi, aytmasligi, eshitmasligi zarur.

Beshinchisi qiblaga qadam tashlab, Ka'ba tomon yo'lga tushmoqdir. Bunday saodatga yetgan odam sahroni ikki safar kesib o'tib, sog'lig'i imkon bersa, yo'llar tinch bo'lsa, yoniga bir do'stini olib, farzligini his qilgani holda farz adosi uchun yo'l oladi.

Ikkinchi bir narsa ham borki, kambag'al xalq ham do'sti xotiriga tushib, do'st yodi xotiriga shavq-u talab o'tini solsa-yu, foil kabi yo'lga tushsa, ishq o'tidan telbalangan el kabi ehromini beliga bog'lab, ming yog'och yo'l yursa, ne anga markab kerak bo'ladi-yu, ne do'st, ne karvon kerak bo'ladi.

*Dasht unga gulshan-u, nasrin – tikan,
Yo'liki yonida mug'ilon chaman.*

Samum esgandagi qizil rang shamol gul-u lola uchirgan shamol rangini eslatadi. Haq unga rahmatini dalil qilib, shu'lada Xalilni eslatib, barcha shartini yaratib beradi. Borgan odam do'sti uyiga mehmon bo'lgandek rohatlanadi. Mezbon hamma narsani tayyorlab qo'ygan. Balki bu mehmonni o'zi hamroh bo'lib uyigacha yetkazib qo'yadi.

Xullas, sahiro xalqi qancha-qancha mol sarflasa, kambag'allarning borishida o'zgacha bir holat bordur. Boy odamning topgan noz-u niyozini o'z-gina niyozi bilan g'arib ham topa oladi.

Ibrohim Adham haqida hikoya

Ibrohim Adham shahzodalikni tark etgach, Alloh uning boshiga fano tojini qo'ydi. U o'z mamlakat-u saltanatini fano yeliga berdi-yu, sahro tomon joynamoz bilan yo'lga tushdi va har qadamda ikki rakat namozga bosh qo'yib, o'zi yoqtirgan Makkani madh etib, o'n to'rt yil yo'l bosdi. Makkaga yetib kelgach, uni o'z o'rnida ko'rmay hayron bo'ldi-da: «Yo Alloh, bu qanaqasi bo'ldi?» – deb fig'on chekdi. Masjid ichidan ovoz eshitildi: «Bir ojiza shu sahroda yayov yurib kelayotib, shavq-muhabbat yukidan bukchayib notavon bo'lib qolgan ekan, Ka'ba uni ziyorat qilish uchun ketdi».

Bu voqeaga hayron qolgan Ibrohim Adham orqasiga qarasa, Robiyaning kelayotganini ko'ribdi. Dedikim: «Sening ziyorat makoning Arsh, osmonning yuqorisi bo'lsa, Ka'ba tomonga azm etib ko'rki, jahonni ne holatga qo'yibsan?» – deb so'radi. Robiya dediki: «Dag'allik qilma. Sahroda o'n to'rt yil yo'l yurib, sening o'zing olamga g'avgo solibsan». Ibrohim dedi: «Ey pokiza, balki farishtalar ahlidek falakda kezuvchi ayol, nega men ming ranj chekib, ganj senga tegyapti?» Robiya unga: «Ogoh bo'l, necha yil sen sahroda namoz o'qish bilan band bo'lgan esang, men yolborish, o'tinish, umid bilan o'tkazdim. Sen namozi riyo mevasidan bahramand bo'lgan esang, bizni niyoz-u fano umidimizga yetkazdi».

*Boqma, Navoiy, yana noz ahlig'a,
Arzi niyoz ayla niyoz ahlig'a.*

Uchinchi maqolat

SALOTIN BOBIDA

Alloh senga mehribonlik soyasini solib, Xilofat taxtini senga ro'zi qildi – nasib etdi. Oldingda buyuklarni past aylab, olam zabardastlarini senga mag'lub qildi. Xalqni oldingda ojiz etib, qadlarini oldingda buktirdi.

Lekin shuni bilgilkim, sen ham bir bandasan, hatto ko'prog'idan ojizroq hamsan. Ular tuprog' bo'lib, sen nuri pok emassan, sen ham, ular ham tuprog'dan yaratilgansiz. Barcha tana a'zolarida hamma bilan tengsan. Lekin hunarda ham, kamolotda ham, yaxshi xulq-u yaxshi so'zlashda ham, yurish-turishing-u adl va insofda ham, shariat qonunlariga amal qilishda, Alloh yo'lida taqvo va toatda ham sen to'g'ri yo'ldan yurmay, ko'prog'i bu yo'ldan yaxshiroq yuradi.

Senga Tangri imtiyoz berib, saltanatning eng yuksak cho'qqisiga chiqarib qo'ydi, shaxsinga taxtni makon qilib, mamlakatda hukmingni yur-gizib qo'ydi. Raiyat go'yoki gala-yu, sen cho'pon bo'lding. Bo'ldi raiyat gala-vu, sen shubon, ul shajar-u musmir-u – o'sib turgan daraxt-u, go'yo sen bir bog'bon bo'lding. Qo'yni cho'pon oy-u yil asramasa, u och bo'rilarning yemishiga aylana-di. Dehqon bog'ini tun-kun parvarish qilmasa, bog'ning qurigan o'tindan farqi qolmaydi. Bo'ri-ni galadan uzoq tutib, bog'ingga esa suv berib ma'mur (obod) qil. G'am yesang, u gala foyda beradi, bog' gul-u mevadan foydali hosil yetkazib beradi. Gala bo'rilarga yem bo'lib tugab, daraxt-lar esa qurib tamom bo'lsa, senga ham foyda-yu hosili qolmaydi.

Alloh topshirgan ne'matlarining javobini so'rasa, u kuni nima deb javob berasan? Aqling bo'lsa, hozirdan ko'zingni ochib, har bir ishingni o'ylab qil!

Necha-necha kishilar sening hukmingga bo'ysunadi. Zulm qilsang ham, bechora mazlum bo'lib turaveradi, chidaydi, garchi martaba-yu pul-dunyosi bo'lmasa ham uning poyasi sendan ham ortiqroq. Qiyomat kuni Yaratgan zolimni ham, mazlumni ham so'roq qiladi. U qomatini rost tutib tursa, sen sharmanda holatda bo'lsang, u tik tursa, sen qomati egilgan bir darajada turasan, mazlum Haqning savollariga po'lat xanjardek ochiq, dadil javob qilsa, sen uyatdan bosh ko'tarolmay qolasan-ku! Har bir qilgan xatong hisob qilingach, har biriga yuz azob belgilanadi-ku!

Mazlumlar, sendan zulm ko'rganlar gunohlarini kechirishmasa, vataning muttasil do'zax bo'lib qoladi-ku!

Ey podshoh! Alloh qo'lingni quvvatli qildi-yu, lekin sen zulm yo'lini tanlading. Zulming xaloyiqqa kam emas edi, endi sen uni o'zingga ham qilayotirsan. Ey hushyor, zulm o'zingga fisq (gunohdir), agar senga hush yor bo'lsa, ulardan voz kech, chunki shodlik, xursandlikga berilib, aysh-u ishrat yo'liga kirishib ketding. Bazming bo'layotgan qasrda jannat ziynatlari bilan o'yashil pardalarining iplari el jonidan, la'li-yu shingarfi – oltinrang bezaklari xalq qonidan. U yerdagi g'ishtlar machitlarni buzib keltirilgan, toshi xalq qabrlaridan yetkazilgan, shift o'rtasidagi quyoshsimon yaltiroq kungira elning dur-u la'li bilan oltinrang qilib bezatilgan. Shunday manzilda shohlarga xos oliy ziyofat uyushtiriladi, aysh-u

ishrat uchun bor narsa muhayyo qilinadi. Bazmda may quyuvchilar tabassum bilan xilma-xil maylar tutadilar, ashulachi – hofizlar har sohadan doston to‘qiydilar. Tillar deyilishi mumkin bo‘lmagan so‘zlarni so‘zlab, ko‘zlar ko‘rishi mumkin bo‘lmagan narsalarni ko‘radilar.

Bazmdagi har bir qari-yu har bir yigit maydan har biri quturgan it bo‘lib kechasi bilan shu xil sharmandalik davom etib, tong otishi bilan yana har biri bir zulmga mashg‘ul bo‘ladi. Har kuni shu xildagi yaramaslik tungacha davom etadi, har kecha shu g‘aflat kun bo‘yi davom etadi.

*Qoida mundog‘mu bo‘lur, de, axi,
Biro‘z ishingni g‘ami ham ye, axi.
Necha bu behudlik ila yil-u oy,
Voy, agar kelmasang, o‘zungga voy!*

*Zulmni tark ayla-vu, dod aylagil,
Marg kunidin dog‘i yod aylagil.*

*Zulmung erur kecha-yu fisqing necha,
Zulm ila fisqing necha, bo‘lg‘ay necha?*

May jism uyini vayron qilish uchun otilgan o‘qdan boshqa narsa emas. Balki jism uyiga balo selidir. Qanday qilib endi u jism uyi, jon uyi bo‘lsin, jism uyi, demaki, imon uyi ham bo‘lolmaydi-ku!

Sel qaysi tomonga qarab o‘zini urib tug‘yon solsa, shoh bilan darvesh uyi ham yakson bo‘ladi.

*Bodag‘a ko‘rguzsa kishi xiraliq,
Aql charog‘ig‘a berur tiraliq.*

Agar chirog' o'tiga bir tomchi suv tomsa, unda yorug'likdan qo'lingni yuvib qo'ya ber. Alohida bir chiroqqa bir odam tongdan kechgacha may suvidan ketma-ket jom quyib turar ekan, mash'al o'tiga bir qadah suv quysa o'chadi-yu, bu xil chirog'ning holi ne kechadi? Suv bilan mash'al o'ti, mash'al o'tigina emas, manqal o'ti. Manqal o'timi, qo'ra o'timi, tandir o'timi – suv yetib borgach, unda tob-u nur qolmaydi. Yonayotgan suv ichra majusiy dinidagi odamning holi ne kechardi, sandal daraxti bir damda obnus daraxtiga o'xshab qop-qorayib ketadi-da! Har kishikim bu suvdan bir idish tanovul qilsa, xonaning siyohga aylanishi ajab emas.

*Suv dema oniki, bir o't erur,
Kim yeti ko'k xirmanini kuydurur.*

U shu'la tushsa, xas-u xashak nima emish, osmonni o'rtasa, uni kuydirib kul qiladi. Vujuding uyi bir xashak bo'lsa, zor taning xuddi bir hovuch kulning o'zi-ku! Bu xashakka necha o't uraverasan? Bu tufrog'ni necha sovuraverasan? May suvi dard o'tining o'zidir, yo'q, u do'zax o'ti-yu, to'fon suvidir. U o'tni xas-u xashagingga uraverma, quyma, bu suvni bir hovuch xokingga quyaverma!

Shohi G'oziy haqida hikoya

Shohi G'oziy mamlakat toj-taxtini egallash maqsadida yuz-ikki yuz kishi bilan goh Xorazm, goh Adoq yerlarida dushman bilan qattiq urushlar olib borib, oxiri o'z murodiga erishdi va taxt ustida o'tirib, xalqning arz-u dodlarini eshitishga

kirishdi. Vayronalarni obod qildi, zulmni adolat bilan daf etdi, o'g'ri va iflos odamlar yo'qolib, shariat adolatining qo'lini uzun qildi.

Bir kuni mamlakatni kezib yurganida, bir parishonhol kampir etagini mahkam tutib, oh-u faryod qilib: «Ey shariat himoyachisi bo'lgan podshoh, adolat bilan ish tutadigan bo'lsang, bugun sen bilan shar'an da'volashaman. Shartim shuki, shu yerda javobini bermay, shar'iy mahkama – qozi oldida javob bergaysan», – dedi. Shoh unga: «Qonimga da'vogarlik qilsang ham, shar'an javob berishga hozirman», – deb javob qildi. Shu fikrga kelishib, islom qozisi huzuriga yo'l oldilar. Ikkovlari yonma-yon o'tirar ekanlar, barcha odamlar hayrat bilan tomosha qilishardi. Zol bilan Rustam tepasiga go'yo butun olam yig'ilgandek edi.

Kampir dediki: «Shoh hokimiyatni egallash uchun qon to'kib, jang qilarkan, yolg'izgina farzandim, bog'imdagi sarvi ravonim, qurigan daraxtimning yolg'iz mevasi shu janglarning birida halok bo'ldi. Jigarimni tig' bilan yorib, qonini yerga oqizdilar». Qozi: «Ikkita guvoh topib kelib, so'zlaringni isbot qil», – degach, kampir: «Ikki guvoh keltirishni istasam, podshoning adolati-yu insofi yetarli bo'ladi», – dedi. Shoh bu fikrga rozi bo'ldi. Qozi: «Adolat qonuniga muvofiq aybdor, ya'ni shoh o'lganning xunini to'lasin yoki o'zi qatl etilsin!» – deb hukm chiqardi. Shoh: «Shariat shunday hukm chiqarar ekan, bu hukm uchun jonim fido bo'lsin», – deb, bir ro'mol bilan o'z bo'ynini bog'lab, yana yuzta oltin tangalar to'ldirilgan xaltachalarning bo'ynini bog'lab, qo'rqinch bilmay kampir qo'liga xanjar tutqazdi-da, uning bir tomoniga yuz hamyonni to'kib, dedi: «Qasos olaman

desang, boshim oldingda turibdi, mol-dunyoni tanlasang, oltin-u kumushlarni olgin. O'sha paytlarda men qasddan o'linga buyurmagan bo'lsam ham, ixtiyor senda».

Kampir tig'ni qoshlarini chimirgancha diqqat bilan ko'zdan kechirdi-da, chirigan o'tmas tishlarini ko'rsatib, shoh oyog'iga boshini egdi va «Ey, lashkari yulduzlardan ham serob bo'lgan shahan-shohim! Bolam senga jonini fido qilgan bo'lsa, men keksaning joni ham qurbon bo'la qolsin. Men alam bilan g'azabli so'zlar aytgan bo'lsam, sen mening ahvolimni xarob qilmay afv eta qol», – dedi. Mana xijolat izhori-yu lutf-u adolat so'rash!

Kampir o'z da'vosidan, o'g'lininggina emas, o'z qonidan ham kechdi. Qizig'i shuki, odil shoh uni o'sha davrda adolat bilan badavlat qildi. Kampirni yulduzlardek kumushlar bilan bezab, falak zoli – quyoshdek yashartirdi. «Tilla kampir» deb laqab qo'ydi.

*Zoli falakdin necha ko'rsang alam,
Shah chu qilur adl, Navoiy, ne g'am.*

To'rtinchi maqolat

RIYOYI XIRQAPO'SHLAR HAQIDA

Ey, ustamonlik bilan darveshlar kiyimini kiyib olib, shom-u saharda bo'kirib, faryod urayotgan, xirqaning har chekkasiga shayxlik va taqvodorlik niqobida makr yamoqlarini tikib olib, unga yana yumaloq shaklli qog'ozlarni qadab, iplari makr rishtalari, ignasi esa iblisning mo'ylabi bo'lganlar.

Boshidagi **eski** sallasi buram-buram bo'lib ketgan, egri **hassasi** hiyla uyining ustuni, koshki u sinib, bu uy yiqilganida edi. Qo'lidagi tasbeh donalarini butparast yo'ngan.

Beo'xshov soqoli kulgu uchun osilgandek, ko'rinishi ham egri yog'och ustiga chiqib o'tirgan echkidek tuyiladi. Ishida echkichalik ham to'g'rilik yo'q, u o'g'rini tutsa, buning o'zi o'g'rilik qiladi. Echki ahliga yashil o't, yaxshilik tilasa, mingta echkiga ham peshvolik qila oladi. Tog'da ham, dashtda ham to'dani boshqarib, yo'l qiyinchiliklaridan omon olib o'tadi. Qop-qorong'i vodiya ham yo'l topib, to'g'ri yo'ldan adashtirmay galasini boshqaradi. Bu to'dasiga to'g'ri yo'l ko'rsatib borsa, bunisi to'g'ri jahannam o'ti tomon boshlaydi.

Ul ajoyib to'da zulmat vodiysi tomon yo'l olib, xonaqohga yetib borishadi-da, u yerga bo'yra to'shab, riyokor shayxni o'zlariga shayx deb ataydilar. O'zini orif deb, Xizr deb bilgan bu «pir» «muridlar»ni o'z usullariga o'ynatadi. Shayxga munosib riyo ahli gohi baland ovoz bilan baqirishib, gohida pirpirakdek charx urishib, o'rnidan turolmaydigan darajada behol bo'lib tiqilishadi. Keyin shayxni o'z sultonlari deb duo qiladilar-da, unga hadyalar, mol-dunyolar tortiq qiladilar. Bunday el yomonlarning yomonidurlarkim, ulardan yomonroq kishilarni topib bo'lmaydi. Bularga, hatto, do'zax ham xayf. Ular o'tga ham azob beradilar.

Ey ko'ngul, ikki jahondangina emas, hatto jonlaridan ham kechadigan, joniga jonini fido qilishga tayyor turuvchi elga jahonlar fido bo'lsin. Ular qay tomon nazar tashlasalar, Haqni ko'radilar, nabiyy sunnatiga amal qilib, jannat umidini ham,

do'zax vahimasini ham nazar-pisand qilmaydilar. Borliqni foniyl bilib, o'zlarini yo'qlik o'ti ichida kul aylaydilar. Ularga muhabbat lofi noravo.

*Eyki bu gavharg'a tilarsan makon,
Bilki, aning koni erur tobakon.*

Xoja Abdulloh Ansoriy haqida hikoya

Ul zoti bobarakotni Hirot ahli, ulargina emas, balki barcha koinot ahli solik qiblasida deb atagan. Abdulloh Ansoriy bir kuni dedilarki: «Mening ishim toatdir, Tangrining amriga itoatdir. Bundan maqsadim do'zax o'tining qo'rqinchi ham, jannat ham emasdir. Inson qo'rquv bilan Haqqa sig'insa, o'zining nafsini qutqarish uchun yengilgan bo'ladi. Kim horg'inlik chekar ekan, ravzadan o'rin olishdan umidvorlik qilgan bo'ladi.

Haqdan har ikkovini yashirin bajar, ish haqi uchun esa ikkalasini mardikorlik deb bil.

Mening ishim doimo topinish bo'ldi, qo'rquv-umid ikkalasida ham bo'ldi. Bandalik ishimga javobgarman, tun-u kun ishim bunday bo'lsa, uzrliman, toatim unga loyiq bo'lmasa ham, biron soatim usiz bo'lmasin. Qil dedi, har ishini qilmoqdir. Rad qilishi yoki qabulida bilan ishim yo'q».

*Uchmog'-u zohid, tomug'-u bulhavas,
Bo'lsa havas yor Navoiyg'a bas.*

*Yor yuzi yodi bila shod o'lay,
Do'zax ila ravzadan ozod o'lay.*

Beshinchi maqolat

KARAM, OLIYJANOBLIK, SAXOVAT HAQIDA

Ustingga saxovat kiyimi nasib etgan, qo'lingda pulning qiymati qolmagan inson! Panjang mag'rib-u mashriqda kumush sochish uchun ochildi. Kumush bilan qo'ling kelisholmaydi. Unda fano, munda esa saxovat – bir-biri bilan talashadi. Kafting chaqmoqdan ham tezroq oltin sochib turganida, chaqmoq uyalganidan terga g'arq bo'ladi. Boshing ustida saxovat jig'asi, uning ustida esa jo'mardlik gavhari yarqiraydi. Buki sanga Tangri ato ayladi, karam qismi bilan saxo ayladi. Jisimingdagi har bir tuk tilga aylanganida ham buning shukrini aytib, ado etib bo'lmaydi.

Endi saxovat jo'sh urgan chog'ingda shukr qilish kerak bo'lganda, baxillikka yuz tutmagil. Baxillik barcha sifatlarning eng xasisidir, saxovat hayot javharidir. Bu porloq durni xor aylama. Buxl hisobida haddan tashqari sarflayverma. Saxovat har qancha maqtashga arzirli bo'lsa ham, aql isroftarzida ko'p sarflama, aql bekorga isrof etishni baxillik bilan teng tutadi.

Ey sen, Tangri mol-u davlat nasib etgan ekan, kimlarga yaxshilik qilish haqida ta'lim ham berib qo'yan. Bilib ol: saxovat qilish uchun kimlar haqli, kimlarga oltin-u kumush hadya qilish mumkin?

Ot chiqarish, nom qoldirish, ismini ulug'lash uchun hatto qo'l bilan etaklab gavhar sochish aqlilarga munosib emas. Mast yoki jinni kishi bunday bema'ni ishga qo'l urishi mumkin.

Qo'lida jom tutgan kishi to'xtovsiz sochaversa, har qancha sochqini tugatishi hech narsa emas. Bu xil bema'nigarchiliklarni aholi saxovat deb atamaydi.

Shunday odamlarni ham saxiy deb bo'lmaydiki, isrof qilmaydi, lekin muhtoj bo'lmagan kishilarga o'z mol-mulkini bekorga sarflaydi: och bo'lmagan kishilarga dasturxon yoyadi, yalang'och bo'lmagan kishilarga to'n kiydiradi. Yuzta yilqisi bo'lgan boyga ot tortadi, yuz yilqisi bor kishiga kumush tortiq qiladi. Badaxshonga la'l yuborsa, Kirmonga zira olib kelib ulashadi. Xizrni ko'rib qolsa, unga hayot suvini tuhfa qiladi, Misrdagi shakarpazga donalab navvot sovg'a qiladi. Shamni kunduz behisob yoritib qo'yib, quyosh ziyosiga yordam ko'rsatmoqchi bo'ladi. Har kechasi qorong'ulik kuchaysin deb, to'xtovsiz mushk sochib chiqadi. Muhtoj el yuzlab non tilab tursa ham, birontasiga luqma ham tottirmaydi. Bunday odamlar quriyotgan bog' ustiga yog'may o'tib, suvini quruq cho'lga to'kkan bulutning xuddi o'zginasi.

Yana bir xil kishilar borki, ularni ham saxovat ahli toifasiga kiritib bo'lmaydi. Bundaylarning ko'zi hamisha xalqning molida bo'lib, ularni tortib olish – muddaosi. Zulm, turli firibgarliklar, va'da-yu aldashlar, guvohliklar vositasida bir musulmondan istaganini tortib oladi-yu, boshqa birovga berib, olish ham, berish ham uning maqsadi. Olishdan ham foyda yo'q, berishdan ham.

Hotami Toyi haqida hikoya

Bir pok tabiatli odam Hotami Toyidan so'radi: «Kaftlaring ishi saxovat bo'lganidan beri o'zing-

ga o'xshagan biron kishini ko'rdingmi?» U javob berib aytdiki: «Bir kuni katta bir bazm qurib, shu cho'lda yashayotgan barcha odamlarni mehmon qildim. Ziyofat uchun yuzta tuya, son-sanoqsiz qo'y-u qo'zi so'yilgan edi. Bir vaqt mehmonlar oldidan biroz dam olish uchun ochiqqa, sahroga chiqdim. Shu payt ko'z oldimda mashaqqat chekib, orqasiga tikanli shox-shabbalarni ortib, yuk ostida jismi uyi egilib, unga hassadan sutun tirkab olgan, har qadam yurganida to'xtab, har nafas olguncha damini rostlab borayotgan bir keksa namoyon bo'ldi. Uning chekayotgan iztiroblari mening ko'nglimga o't solgandek bo'ldi-yu, unga boqib, lutf-u rahmdillik bilan shunday xitob qildim: «Ey, qaddini mashaqqat yuki past aylagan, jismida g'am tikani azob berayotgan inson! Bugun Hotam uyida chaqiriq bo'layotganligidan xabar topmadingmi, uning dargohidagi ziyofatga bormadingmi? Hotam hammani mehmonga chorlab, barcha yaxshi-yomonning ko'nglini olyapti-ku! Tikaningni tashlagin-da, izzat gulshaniga yet, ko'p mashaqqat chekmay, o'rnindan turib, chaqirilgan manzil tomon yo'l olgin», – dedim.

Mening u haqida tashvish chekayotganimni anglagan kishi boshini ko'tarib kuldi-yu, shunday javob qildi: «Ey, oyog'ini hirs-ochko'zlik zanjirband etgan, bo'ynini esa tama-yu tilanchilik arqoni mahkam bog'lagan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan va himmat panjarasini kezib chiqmagan inson! Sen ham bu tikan azobini totib ko'r, shunda Hotam Toyi minnatini eshitmaysan!»

Uning bu so'zlari asosli bo'lib, mendan uning himmati yuksak edi».

Ey Navoiy, sening ham himmating bo'lsa, Hotami Toyi senga banda bo'lar edi.

Oltinchi maqolat

ODOB HAQIDA

Elga mol-u dunyo, sharaf-shon obro' bo'lmay, hayo bilan odobgina sharaf hisoblanadi. Chunki yog'inning boshlanishi hayo bo'lganidek, yog'inning har qatrasini tuprog'ni kimyoga aylantiradi.

Odobsiz kishilar izzatli bo'lmaydilar. Baland osmon bu xil kishilarni pasaytirib qo'yadi.

Odobsizlikning biri kulgu bo'lib, kulgu odobning yo'qligidan belgi, xolos. Qahqahasi tufayli kaklik qattiq sayrab, bu xil kulgu uning boshiga xilma-xil balolar keltiradi. G'uncha esa ovozsiz ochilib, ochilishi so'ngida sochilib ketadi.

Yashin o'z qahqahasi tufayli tog' ichida yiqilib, yer bilan yakson bo'ladi. Subh esa ovozsiz o'z jamolini ayon qilar ekan, quyosh nurlari o'z durlarini uning ustidan isiriq qilib sochadi.

Kulgu o'z hadidan oshgach, yig'lash undan ko'p yaxshiroq bo'lib qoladi, sham har tuni yig'lab, o'zini ayon etar ekan, uning ustidan kulayotgan g'unchalarni yel uchirib ketadi. Bulut past ovoz bilan ko'z yoshlarini to'kar ekan, yashin kulgusidan xokisor holatiga tushadi.

Odobli insonlar kulguga ko'p ham og'iz ochavermaydilar. Lekin hayo buluti qatrasiz ham bo'lmaydi. Qahqaha hazil bilan yor bo'lsa, ikkovining qiyofasi qurbaqaning kuyi bilan sakrashini eslatadi. Yuziga soqol bog'lab, elni kuldirishga intilgan odam o'z soqoliga o'zi kulgu keltiradi.

Masxaraboz kulgu uyg'otish uchun bir diram deb naq ikki shapaloq yeydi. Boyo'g'li ham o'z ko'rinishi jihatidan masxarabozga o'xshab ketgani uchun qushlar uni urmoq uchun hujum qiladilar. Bu masxarabozliklarning barchasi hayo va odob kelsa, darhol daf bo'ladi.

Quyosh ruxsori jilva qilgach, kecha zulmati yer tubiga kirishga majbur bo'ladi.

Har bir aql-hushli inson o'z so'zini aql bilan so'zlaydi. Mast odamgina shovqin-suron solib gapiradi. Tulki bilan it kulgu eshigini ochishsa, sher ko'ringach, bor ulus uyidan qochib chiqadi.

Tavozu' yoki adab deb atalgan narsa haqida aql faqat ularni maqtasa ham, ulus fikriga muvofiq birdek bo'lmaydi. Masalan, ularni har kishining tavriga – holatiga qarab ko'rinishi va holatiga muvofiq bajarishi zarur. Masalan, bek qulga uzoq hurmat ko'rsatsa, o'zini yaxshi, uni yaxshi hurmat qilmaydigan bo'ladilar, gadoyning oldida sajda qilish ehson emas, balki ehson unga dirham bermakdur. Bola uchun o'rindan turish ham adab hisoblanmaydi. Keksalar bunday ishni adabga nisbat bermaydilar. Bunday holda u mutakabbir-u, sen yengil tabiatli inson bo'lib qolasan. Shuning uchun ham el bu ikki xil ishni qilishni qoralaydi.

Odobda uning muayyan shartlariga amal qilmoq muhimdir. Har kishiga muomala qilinganda, uning senga nisbatan yoshi, obro'-e'tibori qandayligi hisobga olinishi kerak. Boshqalarning obro'yi senga nisbatan pastroq bo'lsa ham, baland bo'lsa ham, ularga yaxshi muomalada bo'lish kerak. Ular boshqacha ish tutsalar ham, sen hisob bi-

lan ish ko'rishing darkor. Bu xil ishingni javobini qiyomat kuni ko'rasan. Umuman, barcha bilan yaxshi muomala qilmoq vojibdur.

Biron kishi martabada sendan past bo'lib, sening hukming ostida bo'lsa ham, uning so'zi, shikoyatlari senga xush kelmayotgan bo'lsa ham, payg'ambarimiz hadislariga ko'ra yoqimli muomalada bo'lish, unga so'z odobi haqida o'git berishdan yiroq bo'lmoq lozim. Bunday odamlarga hamisha yaxshilik qilish, ayni chog'da ularning ahvollaridan xabardor bo'lib turish zarurdir. Bu ularga ko'rsatilgan ehtirom, ta'zim bo'lishidan umidvor bo'lish kerak.

Agar ahli ayoling bo'lsa, ularga ham xuddi shunday mehribonlik ko'rsatish lozim. Bolalarni kichiklikdan parvarish qilishda hikmat ko'p. Qatrani sadaf tarbiya qilib kelgani uchun u boshga chiqish sharafiga ega bo'ldi.

Yana biri farzandga yaxshi nom qo'ymoqdir. Shunday ism qo'yish zarurki, odamlar ataganlarida uyalib qolmasin. Ismlarda ham farq ko'p uchraydi. Biri Husayn bo'lsa, yana biri Yaziddir.

Yana biri bolaga ta'lim berish va ilm-u adab o'rgatish uchun muallim topishdir. It ta'lim o'rganib, shunday kamol topadiki, hatto og'zida keltirgan ovi halol bo'ladi, olim haromni halol qilishga o'rgatuvchi it bo'lsa, o'g'ling bilimsiz bo'lsa, uni bilimli qiladi.

Bolani tarbiyalashda unga shafqat ko'rsatish, uni taqdirlab borish ham darkor, lekin bu xil ishlar: maqtash, mukofotlash hadidan oshib ketsa, faqat ziyon bo'ladi. Bolaga mehrni ham, jazo berishni ham me'yorida oshirmaslik uning yaxshi odobi uchun xizmat qiladi.

Odobning eng muhim shartlaridan biri ota bilan ona ehtiromini bajo qilmoqdir. Bu ikki zotning xizmatlarini bir xil bajarish, bu xizmatlarni imkon boricha ko'proq ado qilsang ham, shuncha oz. Boshingni ota qoshig'a fido aylab, jismingni ano boshig'a sadqa qilgil. Ikki jahoningga rohat istasang, ushbu ikki zotning rizoligini olgil. Tun-u kuningni yoritmoq uchun birini oy, birini quyosh deb anglagil. So'zlaridan salgina ham chetga chiqmay, vasiyatnomalaridan bir qadam bo'lsin tashqari qadam qo'ymagin. Barcha xizmatlaring odob doirasida bo'lsin, qomatingni esa «adab» so'zidagi «dol» harfi kabi tutgil.

So'ngra silayi rahm – qarindoshlarga sadoqat, ularga mehribonlik, doimiy aloqada bo'lishni, o'sha doira odamlariga mehr-shafqatni o'zing uchun farz bil. Qarindoshlaringning barchasi bilan doimo munosabatni uzmay, ulug'rog'iga xizmat qil, kichikroqlariga shafqat ko'rsatgil. O'zing bilan tengqur deb hisoblaganlaringga ham ehtirom ko'rsatgil. Qilgan mehnatingni hech qachon yuziga solmagil, hurmat-sizlik qilib zinhor diliga ozor bermagil.

Nushiravonning uyalgani haqida hikoya

Nushiravon shahzoda ekanligida bir qizning ishqi bilan notavon bo'ldi, g'uncha kabi ko'ngli to'la qon edi. O'z yoriga yetishish yo'lida og'ir mehnatlar qilib, oxiri uning visoliga muyassar bo'ldi, bir chaman ichiga xilvat joy tayyorlatib, gulruh bilan ochiq suhbat qilmoqchi bo'ldi. U guluzor ham bunga qarshilik qilmadi. Shoh dilbari tomon qo'lini uzatgan edi, ko'zi bir buta nargizga tushdi, bundan uyalib

ketib, darrov qo'lini tortib oldi. Sumanbar hayron bo'lib dedi: «Bu xilda qo'l cho'zmoqning va darrov tortib olmoqning sababi nedur?».

Sababini shoh shunday tushuntirdi: «Mening bunday harakat qilishimga nargizning shahlo ko'zi sababchidir», – ayni hayo bilan futuvat bu ishda uni quvvatdan qoldirdi. Ko'zlarini yoshga to'ldirib, o'rindan turib ketdi, chunki uning bu pok niyati Nushiravonga xos bo'lgan hayo xosiyati ediki, jumlayi olamga uni shoh ayladi, adlini olamga panoah ayladi.

*Aysh, Navoiy necha dilkash durur,
Lek adab birla hayo xushdurur.*

Yettinchi maqolat

QANOAT BOBIDA

Kim uchun qanoat bir fan, odat bo'lib xizmat qilgan ekan, bilingki, boy qilgan ham ana shu qanoat bo'lgan. Oltin-kumushlar-u turli bezaklarni boylik deb hisoblamagin, chinakam boylik qanoat ganjidir. Agar qo'lingda qanoat naqdi yo'q ekan, harakat qilgin-u, naqdi qanoat bilan boylik topishga intilgin. Chunki tama – gadolar ishi, tamagir esa gadoning o'zidir. Shoh tama qilsa, jig'ildonga aylansa, qanoatli darvesh podshoh bo'lg'usidir.

*Shoh ul emaskim, boshig'a qo'ydi toj,
Shoh ani bilkim, yo'q anga ehtiyoj.
Shoh agar ul bo'lsaki, muhtojdur,
Harf ila muhtojda ham tojdur.*

Kim qanoatni hujjat deb bilsa, yaxshi-yomonga muhtojligi bo'lmaydi. Kimki qanoat sari yo'l topa olsa, bu yo'l bilan shoh ham bo'la oladi. Mol-u dunyo bilan o'zingni boshqalardan yuqori qo'yma, qanoat mulki bilan o'zingni mag'rur tut.

Sahroda suv istagan bir tashna inson uchun qo'lidagi oltun qadahdan ne foyda? Quruq suvga qattiq nonni to'g'rab yesa, suvni obi hayot-u, nonni quyosh deb bilsin.

Birov ziynat uchun oshiga sholg'om-u sabzi o'rniga oltin-u kumush solgan bo'lsa, suzganda oltin-u kumushlar yaraqlab tursa, o'zing ayt-chi, och bir odam uni tanovul qila oladimi? Uni yeyish tishlarga qancha ozor bersa, hazm qilish ham oshqozonga oson bo'larmikan? Hazm bo'lsa ham, insof yuzasidan qarasang, bekorchi sarf bilan isrofdan boshqa narsa emas-ku?

Insof eshigini ochib, bu foydasiz dur-u gavharlarni och-u yalang'ochlar ustidan sochib, ochga yemak, yalang'ochga to'n berib, yuz tilaganga – ming, bir tilaganga o'n bersa, o'zini haqiqiy qone' (qanoatli) inson deb bilsa, Tangri-yu xalq oldida ham uzrli bo'ladi-ku!

Ba'zi badavlat kishilar bo'ladi, o'zining shunday ehsonlaridan ko'ngli to'lmaydi. Kiyimi uchun egnida palos yo'g'-u, elga chiroyli, bezakli liboslar hadya qilishni o'ylaydi. Bu niyatni amalga oshirish uchun avval o'sha halol pulni mehnat chekib topishi kerak.

*Ikki qaro pulki, chekib dast ranj,
Yaxshiroq andinki, shoh in'omi ganj.
Tinch ko'ngul birla qatiqsiz umoch,
Behki birov minnati birla kuloch.*

Ba'zilar xayolda farovon hayotni, baland imoratlari-u, ko'rkam gulistonlarni orzu qiladilar. Uning o'rniga jahonni bir hovuch kulcha ko'rib, to'bi va sidra daraxtlarini xashakcha ko'rish, ko'k qasridan o'zining qiyshaygan ayvonini afzal bilish, kulbasi oy shamidan yoruq bo'lishi, eshigi yel qo'ldan ochiq bo'lishini yoqtirishi, egnidagi yamoqli ko'ylagini falak atlasidan afzal bilib yashash qanoatni shior qilib, tama bilan xor bo'lishdan a'lodir.

Ikki do'st haqida hikoya

Fors mamlakatida ikki do'st Chin sari yurish qilishni istab qoldilar. Biri azaldan qanoatli kishi bo'lib, ikkinchisi uning aksi edi. Yo'lda borar ekanlar, bir katta toshni ko'rdilar. Uning yarmi yerda-yu, yarmi yuqorida edi. Unga: «Kim mehnat qilsa, toshni aylantirib, o'z joyiga qo'ysa, yozilgan bir yozuvni ko'radi va bu vodiydagi bir ostona ostida katta boylik yashiringanidan xabardor bo'lib, unga ega bo'ladi. Kimki mehnat qilib, alam tortishni istamasa, uning uchun sabr-u qanoat baridan yaxshiroq», – deb yozib qo'yilgan ekan. Qanoatsiz odam bu xabarni o'qigach, boylikka ega bo'lish uchun tosh ostini qazishga tushdi, qanoatli beparvo bo'lib o'tirardi. U o'sha atrofni tomosha qilish bilan band bo'ldi. «Mening qanoat boyligidek boyligim bor, bu mehnatdan qanday naf tegardi? Tangri ehson beraman desa, tosh yorilib ham boylik chiqaveradi», – deb xayol surdi-da, erta turib shahar tomon yo'naldi, shaharga kiradigan bir necha darvoza bo'lib, shaharga birinchi bo'lib kirdi. Hamma o'sha darvoza – u birinchi bo'lib

kirgan darvoza tomon intilardi. Bu elda shunday bir odat bor ekanki, mamlakat podshosi narigi dunyoga rihlat qilgan bo'lsa, a'yonlar bu gapni shahar xalqidan yashirin tutishar ekan-da, kimki saharda shaharga hammadan burun kirsa, uni podshoh saylab, boshiga toj qo'ydirishib, bar-mog'iga oltin uzuk taqishar ekan. Bu safar ham xuddi shunday hol yuz berib, haligi musofirni shoh ko'tardilar.

Uning tosh ostini qaziyotgan do'sti esa og'ir mehnatni bajarib bo'lgach, toshni yoniga ag'darib qarasa, undagi xatda «Xomtama bu dun-yoda alam chekadi», – deb yozib qo'yilgan ekan. Xullas, qanoat qilgani podshoh bo'ldi, bunisini esa tama ranji xoksor qildi.

*Qilma, Navoiy, tama eldin diram,
Bor esa, bersang xud erur ul karam.*

Sakkizinchi maqolat

VAFO HAQIDA

Bas, kishiga hayotning lazzati yor ekan, umr degan yori vafodor ekan. Vafo odatidan uzoq odam ziyosi yo'q shamning o'zginasidir. Ziyodan ozuqasi bo'lmagan sham esa go'yoki o'tsiz ziyo, nuri bo'lmagan bir muz parchasidir.

Vafosi bo'lgan kishinigina yor desa bo'ladi. U xuddi umr kabi vafodordur. Har kishi olamda yor-siz bo'lsa, duri shahvorsiz bir sadafginadir, xolos.

Yolg'iz odam o'z kishing bo'lsa ham, qo'lidan biror ish, biror hunar kelmaydi. Yolg'iz kishi qa-chon kishilar soniga o'tadi? Yakka-yolg'iz inson

davrada ham har qancha qarsak chalsin, sado yaratolmaydi. Chunki yolg'iz, bir hovuchdan sado eshitish mumkinmi?

Yorsiz elning ohi g'am-anduh bo'ladi, xolos. Yog'och yolg'iz yonsa, tutashdan nariga bormaydi. Toq kishining uyi ham past bo'ladi. Qachon uyni bitta ustun ko'tarib turardi? Burgutning bir qanoti sinsa, tez uchgani bilan darhol charchab qoladi.

Agar nard taxtasida bittagina raqamli kub (ka'batayn) bo'lsa, bu o'yinni o'ynab bo'larmidi? Toshki chaqmoqdan uzoqroq tutilsa, ikkalasi ham uzoqdan tutab turaveradi-da! Bir-birlariga yaqin yetishsalar-gina ularning o'klaridan olam yorishadi.

Uchi ikkiga ayrilgan qalamning uchlaridan biri sinsa, yozayotgan kishi o'z xatini bitirolmay qoladi.

*Jumla jahon shohlig'idin ori bor,
Kimki gadodur, dog'i bir yori bor.*

Shohning yonida hamdamlar-u yorlari bo'lmasa, ko'nglida tashvishlar-u armonlari ham ko'p bo'ladi. Yor shundayin bir bebaho gavharki, unday yorga shoh ham, gado ham muhtoj bo'ladi. Men aytib o'tganimdek, sodiq yor bu davrda mutlaqo qolmagan. Topmoq agar mushkul bo'lsa ham, odamzod orasida topiladi. Bu xil do'stlar vaslidan bahramand bo'lgan kishining boshiga jonim isiriq bo'lsin. Kim vafo ko'rib, jafo qilmagan bo'lsa, ko'rgan vafosiga vafosizlik qaytarmagan bo'lsa, ey sabo, jonimni unga topshirayin, hech uyalmay unga yetkazgil. Mendin unga arzi duo aylagin, yo'lida jonimni fido qilgin. Chamanining atirgullaridan olib kel demayman, ko'zimga

yo'lining changlarini yetkazsang bo'lgani. Uning bilan suhbatlashishga imkonning yetsa, oldida mening holimdan so'zlab berarsan.

Avval oyog'iga tushib past bo'l – oyoqlarini o'pgil, tuprog' bilan teng bo'l. Subh nasimi kabi xomush turmasdan, shom shamoli kabi fig'on ayla. Aytkim, visolingni tilab yana qancha zor bo'lay, firoqingga necha giriftor bo'lay?

Seni istab shunchalik ko'p izladimki, har qaysi qadamim sening talabingda bir alam bo'ldi. Seni tilab har qancha shikanj ko'rgan bo'lsam, ranj dardidan boshqa biron ganj talab etmadim. Har kishiningkim oyog'iga bosh qo'ysam, mening boshimga jala kabi tosh yog'dirdi.

*Ham bu nafas boshima yet rahm etib,
So'ngra ne osig' kelurung men ketib.*

*Turmavu zinhor yetishgil menga,
Xizr hayoti bu xabar bil menga.*

*To chiqibon o'tru, yuz afg'on qilay,
Qaysi fig'on, balki fido jon qilay.*

*Tushsa ko'zum yig'lay-u jononag'a,
Jon berayin olida shukronag'a.*

*Jondin olib dard bu darmon bila,
Bormayin oxir dami armon tila.*

*Gar manga bu kom qariyb o'lmasa,
Davlati diydor nasib o'lmasa.*

*Dashti fano sori xirom aylasam,
Mulki adam ichra maqom aylasam.*

*Aylasalar ikki tomondin vafo,
Yetgay ular jonig'a oncha safo.*

*Kim sifati sig'magay avroq aro,
Demayin avroqki, ofoq aro.*

Ikki vafoliq yor xususida

Eshitishimcha, shohi komron, to'rt ulus xoni Amir Temur Ko'ragon iqlimlarni birin-ketin bosib olar ekan, Hindiston o'lkasida qattiq janglar bo'ldi. Sohibqiron g'olib kelib, bir necha hududlarni fath etdi va dushmanlar ko'ngliga kuchli dahshat soldi. Yovlar kofir bo'lib, shahanshoh ularning barchasini qirib tashlashga buyruq berdi. Har bir askar o'z xohishicha bosh kesishga kirishdi. Boshlar sellardagi toshlar kabi hamma yoqni to'ldirardi. O'tkir xanjarlar hamma yoqda bosh kesishdan bo'shamasdi. Shu mahal ikki bechora yor qotillarga duch kelishdi. Bir sipoh ulardan birining kallasini tanasidan judo qilmoqchi bo'ldi. Shohning buyrug'ini bajarmasa, o'zining o'ldirilishi aniq-ku! Yonidan xanjarini chiqarib, haligi hindning boshini chopmoqchi bo'lgan edi, do'sti boshining yov tig'i ostida turganini ko'rgan yo'ldoshi o'z boshini ochdi-da, dushman askariga tutib: «Senga bosh kerak bo'lsa, uning boshiga tegmay, mening boshimni kesaqol», – deb iltijo qila boshladi. Sipoh oldingi hindini qoldirib, keyingisini o'ldiray deb tig' ko'targan edi, o'rtog'i

qotil oyog'iga bosh qo'yib, o'zini o'ldirishini tilar-
di. Jahli chiqqan sipoh: «Mayli, ikkalangizning
kallangizni olaman», – deb, qay biriga xanjar
ko'tarsa, ikkinchisi iztirob chekib faryod urardi.
Ikki do'st o'z boshlarini oldin kestirish uchun
bir-birlari bilan talashishardi. Shu hol davom
etar ekan, el orasiga «al-omon», ya'ni «o'ldirishni
to'xtatib, qolganlarni omon qoldiringlar», degan
e'lon-buyruq eshitildi. Ikki do'st bir-birlari uchun
jonlaridan kechishgan edi, shoh ham xalq qoni-
dan kechishga farmon berdi. Ikki jonajon do'st
o'zlarining chinakam sadoqatlarini namoyon qili-
shib, o'zlari ham omon qoldilar, elning hayotini
ham saqlab qoldilar.

*Ey Navoiy, Xudo senga shunday yor bersa,
Sen ham unga boshing bilan joningni fido qilgin.*

To'qqizinchi maqolat

ISHQ O'TI TA'RIFIDA

Tuproqdan yasatilgan odamni tong saharlab
ruh mayi bilan mast qildilar – taniga ruh kirgizdi-
lar. Tuprog'ini hikmat qo'li bilan Eram bog'idek
yashnatdilar. Jannat bog'iga o'xshagan bu gul-
shan hurlar jilvagohining o'zi edi. Qushlari har
lahzada yuz afsona so'zlar, eshitganlar yana yangi
afsona so'zlab berishini qayta-qayta so'rashardi.
Falak bog'idek pokiza va sarishta bu bog'ning har
bir guli yangi chiqqan oyga o'xshardi. Yuzi eng
toza guldek bo'lib, chehrasi ustidagi qizillik uning
g'ozasi edi. Qomati savsandek tik, balki sarv ila
shamshod kabi edi. Zulfi mushkin bo'lib, yuz va

eng lola-yu nasrin kabi edi. Yuzida quyosh bulog'idan tomayotgandek suv-u o't toblanib turar, ko'zlari nargisi fattondek, lablari ochilgan g'unchadek edi. Mayin xat-tuklari juda chiroyli ko'rinar, ul sabza ustidagi shabnam terga o'xshardi. Xullas, husni jamolda tengsiz edi.

Ishq bulbuli doston kuylar ekan, bu bo'stonni tomosha qilishga kirdi. Nazari gulga tushib, shavq o'tidan joni xabardor bo'ldi. Joniga ishq o'tidan harorat tushib, ko'nglida g'am shu'lasidan iztirob paydo bo'ldi. Gul unga qarab izhori noz, jilva-tabassum qila boshlagach, bulbulning bag'ri kuyub, shunday faryod chekdiki, o'tidan chamanga g'ulg'ula tushdi-yu, oshig'-u ma'shuqlik ayon bo'ldi. Ishq tug'yoni tobora kuchayib, oshiqning shaydoligi osha bordi, shundan so'ng jahon mulkiga ishq g'avg'osi tushib, zamon ahlini talon-toroj qila boshladi.

Ruh bu gul tikaniga giriftor bo'lib, jon ham bu bo'y isidan mast edi. Ishq qaysi ko'ngilni makon etgan bo'lsa, uni ishq o'tdan la'lga kon ayladi.

*Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun.
Ishqsiz ul tanki, aning joni yo'q,
Husnni netsun kishikim, oni yo'q.*

Ishq bir dur bo'lsa, ko'ngil uning saqlanadigan qutichasidir, balki quyosh, ishq-u ko'ngil uning burjidir. Ishq husn ishidir, kishi sham bilan o't yoqqanidek, husn ham ishq ravshan ayon qiladi, lutf-u tarovat gulda qanchalik ko'p bo'lsa, hasratidan bulbulda g'ulg'ula ham shunchalik ko'p bo'ladi.

*Oshiq o'zin kim desa oshiq emas,
Barcha kishi ishqda sodiq emas.*

Hamma yoqni kezib, husnli biron go'zalni topib, **keyin** unga ko'nglini boylagan inson ko'nglini bir **pora** tosh, sham o'tidan qizigan bir qoya tosh deb **bildi**. Yolg'ondan o'zini dardli qilib ko'rsatib, motami **bo'lmagan** holda yoqasini chok etib, tashqarisidan hiylagar, yolg'onchi, makkor, ichkarisidan **iblisning** o'zginasi; tashqarisidan sadoqat ziynat, **ichkarisidan** buzuqlik, bezbetligi bo'lgan oshiq **chin** sevgi shaydosimi?

Yoridan ne-ne narsalarni istab, odobsizlikdan **tortinmay**, goh labi la'lidan jon tama qilib, jongi-**na** emas, istagan narsani tama qilib, gul tanini **vaf** etib, har bir a'zosini ta'riflab, so'zlari fahsh-u **makrga** to'la bo'lgan oshiqni o'ltursa, jismini boshdan oyoq kuydursa arziydi.

*Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko'zi-yu, ham ko'ngli pok.*

Ishq oshiqni o'zligidan poklagan bo'lib, balki **fano** o'tiga xashak etgan bo'lsa, dardini yashirganidan yuzi sarg'ayib, ko'z yoshini oqizaverganidan **ko'zi** arig' bo'lsa, dard yukidan qaddi egilib, qaddi «dol» harfiga o'xshab qolgan bo'lsa, xayolidan **boshqalar** xayolini chiqarib, jonini faqat jononi **xayoli** bilan to'ldirgan bo'lsa, yor nomidan boshqa **so'zi** bo'lmasa, jonida jonon g'amidan o'zga g'am bo'lmasa, har tarafga qaraganda, faqat yori jamolinigina ko'rsa, ana shunday oshiqnigina haqiqiy oshiq sanash mumkin. Hatto o'zligi ham bartaraf

bo'lib, ko'z tashlaganda faqat yorni ko'rsa, sevgida shu tarzda mag'lub bo'lgan oshiqqina muhabbatda sodiq bo'la oladi. Shunday muhabbatgina unga o'zligini unuttira oladi.

Bunday oshiq o'zligini unutib, uydan tashqari chiqqisi kelmay qoladi. Shunda uning do'stlari uydan tashqari chiqmayotgani uchun malomat qilsalar, jannat va'dasi bilan ovutib, ishq o'tidan ko'nglini sovutsalar, u guzar-u xiyobon sari yo'l olib, dashtda to'p-to'p odamlarni ko'rib, o'sha odamlar ichidagi go'zal chehrali sohibjamol o'zining parivash husni bilan uni o'ziga rom qiladi. May o'ti ruxsoridan yuz gul ochilib, birini dastoriga qistirib olgan, husni o'ti shu'lasiga gulzorga o'xshaydi. Gulzorining har tomonida gulnor ko'rinadi. Qoshlari hilolni eslatadi, ul hilollar oshiq ahlini devona qiladi. Haligi qoshlar ulusni qatl qilmoq uchun boshlarini yaqinlashtirib maslahat so'radilar.

Zulfining sunbullari ustma-ust tushgan. O'tli ko'zlari noz bilan har yonga boqadi. Lablarida hayot qatراسi qotib qolgandek, yo'q, balo chashmasidan jon tomib turgandek ko'rinadi.

Bu qanday jamol namoyishi, ey ko'ngil? Balki gulistoni Xalil, ey ko'ngil. Shunday jamol bilan javlon qilib oshiq boshiga yetib kelsa, tuproq bo'lishdan boshqa chorasi qolmaydi oshiqning. Ul chog' Shibli-yu Zunnun bo'lsa ham, ko'plarni majnun qiladi. Din ularning motamiga hoy-hoy chekib, aql piri bolalardek barmog'ini tishlab qoladi.

Ruhul-amin, ya'ni Jabroil ham unga boqib, og'zidan so'lakayi oqadi. Ko'rmagan el bu o'tdan omon qoladi-yu, ko'rib kul bo'lmoq ham yomon emas. Kimki kirlangan, nopok bo'lsa, bu tozalov-

chi o't orasiga kirsa, pokroq bo'lib chiqadi. Kimga bu xil kuyish odat bo'lsa, dunyoda saodat topadi.

O'ninchi maqolat

ROSTLIK TA'RIFIDA

Har kishinikim odati to'g'rilik bo'lsa, falak unga har qancha teskarilik, qaysarlik qilganida ham qo'rqadigan joyi bo'lmaydi. O'qning tayanch par-lari to'g'ri bo'lsa, yerning egriligi unga biron ziyon yetkazarmidi? Yo'l qancha to'g'ri bo'lsa, yo'lchi maqsadidagi manziliga tezroq yetib boradi. Shun-day vaqtlarda qing'ir-qiyshiqliги tufayli yo'lning uzayib ketishi aniq-ku!

Nay to'g'ri bo'lgani uchun ham odamlar uni tinglashni yoqtiradilar. Chang egri bo'lgani uchun qulog'ini burab jazo beradilar.

Ayvonda yonayotgan sham o'ti to'g'ri ko'tarilishi tufayli kechki bazm shohidi bo'ladi, ko'p aylanib uchavergani bilan parvonaning yetib borish joyi ma'lum.

Sarv qomati o'q kabi to'g'ri, shu tufayli shamol ham unga ziyon yetkazolmaydi. Bog'da chirma-shishdan boshqa ishni bilmaydigan sunbul egriligidan yuzlari qorayib ketgan.

Chang asbobi qili to'g'ri ekan, nafis ovozlari chiqaraveradi, salgina egri bo'lsa, soz chiqmaydi.

Nazari to'g'ri odam to'g'ri, pokiza kishi bo'ladi. Kimning qo'li egri bo'lsa, u o'g'ridir. Qo'l egrilikka moyil bo'lsa, uni kesibgina tuzatish mumkin. Har kimikim to'g'rilikni istasa, u ikki xususiyatni anglab olsin. Birinchidan, kishining so'zi to'g'ri bo'lsa, so'zigina emas, balki ham so'zi-yu, ham

o'zi to'g'ri bo'lsa, halol bo'lsa. Biri buki, yolg'on gapirib qo'yganida achinsa, to'g'ri so'zni chiroyli gapirsa. Avvalgisi yaxshi, lekin ikkinchisi ham yomon emas.

Yolg'onni kamroq gapiradigan kishilar koshki bizning davronda ham bo'lsa edi. Kimki bu davronda rostgo'y bo'lsa, ishi doimo kam-u ko'stlikdan boshqa narsa bo'lmaydi. Davr egrilikni talab qiladi, sen rostlikni tilasang, rozilik bildirmaydi. To'g'rilikni shon-sharaf deb bilgan kishilarga davron gardishi dushmanlik qiladi. Qalam to'g'rilikni talab qilgani uchun boshi kesiladi. «Alif» harfi to'g'rilikni yaxshi ko'rgani uchun «balo» so'zi uni oyoqlari ostiga olib majaqlaydi. Yangi oy egriligi tufayli hammaning diqqatini o'ziga tortadi. Salla chirmalib-chirmalib bosh ustiga chiqishga sazovor bo'ladi. Yo'q-yo'q, bunday emas, bu yozganlarim xato. Balki barchasi qalamning bitgan xatolari, egri bilan to'g'rining ta'rifi ayni haqiqatdir. Sham to'g'riligidan xursand bo'lib kuyadi-yu, lekin boshdan oyog'i nur bo'ladi. Chaqmoqning ishi egrilik bo'lgani tufayli ham, garchi u ham yoritisa-da, yer ichiga kirib yo'q bo'ladi. Dehqon reja chekmas ekan, bog' o'rniga changal unadi. Dehqon molasiz urug' sochsa, suvni teng ichmay qanchasi yakson bo'ladi. Ko'zgu yuzi qancha tekis bo'lsa, sahibjamollar yuzi to'g'ri bo'lib ko'rinadi. Uning yuzi sayqallanmagan bo'lsa, atrofidagi bezaklar uni mutavval – turli xilda: cho'ziq, yo'g'on va h.k. ko'rsatadi. Quyosh jim turgan suvda to'g'ri aks ko'rsatsa, suv qo'zg'alsa, egri ko'rsatadi.

Xato qilib bilmasdan yolg'on gapirib qo'yish yolg'onchi deb atashga asos bo'lolmaydi, chunki

bu xil odamlar xato qilganini anglagach, o'zlari undan voz kechishadi. Yolg'on gapirishni shior qilib olgan, doim yolg'on so'zlashga odatlangan odamlarni erkag-u musulmon deb bo'lmaydi.

Yolg'onchilikni kasb qilgan kishi har qancha harakat qilsa ham, bir-ikki ishi yurishadi-yu, uning yolg'onchiligini xalq bilmay qolsa ham, Alloh ogoh bo'lib, ko'rib turadi-ku! Ushbu sifatini eldan har qancha yashirmasin, yolg'on oxir o'zini bir kuni oshkor etadi.

Odamlarni har sohada aldab yurishdan ko'ra o'g'rilik undan yaxshiroqdir. Har kishi yomon, yovuz niyat bilan ont ichgan bo'lsa ham, niyati o'g'irlik bo'lsa, kaforat bilan daf qilish mumkin. Kimki o'z so'zini yolg'onga aylantirgan bo'lsa, u qolgan barcha so'zlarini har qancha rost demasin, el uning so'zlari rostligiga hech qachon ishonmaydi. Uni azobga solgan bu ziyon, zarar shu darajadaki, hatto kaforat bilan ham undan ozod bo'lish ilojsiz.

*Kimsaga yolg'onchi debon qolsa ot,
Bu ot ila chorlasalar o'z-u yot.
Siddiq xitobi yana yonmas anga,
Chin desa ham, xalq inonmas anga.
Kimki chini el aro yolg'ondurur,
Yolg'oni chinliqqa ne imkondurur?
Necha zarurat aro qolg'on chog'i,
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i.*

Yolg'onchi Durroj haqida hikoya

Bir o'rmonda yovuz bir ona sher yashardi. U vahshatda osmon yo'lbarsidan qo'rqmas edi. Bola ko'rganida zavqqa to'lib xursand bo'lar, ammo ko'pincha ularni chumolilar talab tashlashar, shu tufayli sher o'z farzandini og'zida ko'tarib olib yurardi.

O'sha o'rmonda bir durroj (qirg'ovul) ham yashab, hamisha g'azabkor sherdan qo'rqib hayot kechirardi. Sher dam-badam bolasini tishlaganicha o'rmonda har yonga qadam qo'yar ekan, nogahon durroj yotgan yerga borib qolsa, u parr etib uchib, sherni seskantirib yuborar, shunda u tishini qattiqroq siqib bolasiga azob berardi. O'z jigariga motam tutgandek bo'lardi. Ko'ngli bu ishdan ozor chekib, durroj bilan do'stlik chorasini izlay boshladi. Unga dediki: «Senda mening zarracha qasdim yo'q, bu so'zlarimga ishonch bilan qara. Mendan vahm qilmay, do'stim-u sirdoshim bo'lgin. Xursandchilik chog'larimda esa shodligimga sherik bo'lgin. Men ham sening ovozingni eshitib xursand bo'lay. Shart shuki, senga biron hayvondan zarar yetsa, ovchining to'riga tushib qolsang, yordam uchun darhol qo'limni cho'zay, dushmani bir panjam bilan yo'q qilay. Va'damga sodiq bo'lib, seni dushman tuzog'idan xalos qilay!».

Sher ko'p tushuntirib, o'z muddaosini bayon qilgach, durroj ham u bilan yurakdan ahdlashdi. Shundan keyin ikkovlarining o'rtalarida mehr-muhabbat paydo bo'lib, ko'rganlarning havasi keladigan darajaga yetishdi. Sher qayerda orom olib yotgan bo'lsa, atrofida durroj qo'rq-

may parvoz etar, xuddi sulton boshida humoy aylanib uchib turgandek, sher boshi atrofida parvozda bo'lardi. Sher uning sayrashini eshitarkan, ba'zan yolg'ondan yordam so'raganini eshitib qolib, unga: «Yolg'ondan meni yordamga chaqirma, yaxshi bo'lmaydi, to'g'ri so'z oldida yolg'on yomon qiliq sanaladi», – deb nasihat qilardi. Ammo hech qaysi hayvondan qo'rqmaydigan bo'lib qolgan durroj yolg'onchiligini tashlamay, hazillashgani-hazillashgan edi.

Bir kuni bir ovchi uni ushlab maqsadida o'z to'rini yoydi. Durroj donalarni yeb, suv tomon yurgan ham ediki, ovchi to'rini tortdi. Qush ovozi boricha o'zining tuzoqqa tushib qolganidan sherini: «Dod! Meni tutib olishdi!» – deb ogohlantirsa ham, sher uning so'zlarini har doimgidek aldanchiligi, hazili deb o'yladi. U durrojning bunday hazillarini, yolg'onchiligini ko'p eshitib aldangan edi. Shuning uchun bu safargi chin so'zlarini ham oldingi qiliqlaridan biri deb bildi-da, yordamga kelmadi. Oqibatda yolg'onchi qush ovchi qo'lida halok bo'ldi.

Har kishikim biron so'zni bexosdan yolg'on so'zlab yuborsa ham, xalq uni rost deb biladi.

*So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo, nag'maga tahsin degil.*

O'n birinchi maqolat

ILM VA OLIMLAR HAQIDA

Olamning ishi xalq bilan dushmanlik ekan, olim xor-u, johil (bilimsiz, nodon) aziz bo'laveradi. Toki jahon zulmdan voz kechmas ekan, daraxt baland bo'lib, meva yerga tushaveradi. Nokaslarga baland martabalar-u, bilim ahliga – azob-uqubat, toshlar tog' ustida-yu, boylik, konlar uning ostida bo'laveradi. Fe'li yomonlar yuksak mavqe'larni egallab, olamni hukmiga bo'ysundiraveradi. Xuddi baxtsizlik manbayi bo'lgan Kayvon (Zuhul) yulduzi osmonning yuqori qismida o'rnashib olgandek, «Sa'di Akbar» bo'lgan Mushtariy undan quyida, oltinchi osmonda joylashibdi. Falak hamisha yaxshini yomondan quyiga qo'yadi, bo'lmasa, yaxshi yomondan g'am-u ozor tortib, bog'da gulning hamnafasi tikan bo'larmidi? Qanchadan qancha sof, pok durlarni yashirgan sadafning qornini olmos bilan yorib, bag'rini chok qilisharmidi?

Bag'ir yormoq maqsadi bo'lgan qush shoh bilagi ustida orom oladi, chiroyli, dilkash navolar chekuvchi qush – bulbul esa kul ichida xor bo'lib yashaydi.

Bir notavon yigit shahridan ilm istab yo'lga tushadi, qashshoqligidan oyog'ida kovushi ham yo'q, to'ni ham yo'qligidan tanasi yalang. Oyoqlarini tikanlar ilma-teshik qilib yuborgan, boshida ikki-uch o'ralgan salla. Hayvonlar terisi kabi kiyimining boshidan oyog'i tilik-tilik. Maqsadi qushini qidirib ko'zda yoshi bilan shahar kezadi. Egnida kitob-u daftar, ilm olishga shoshiladi.

Qorni muhtojlik tufayli hamisha och. Jismi shunchalik zaiflashganki, savol berishga ham madori qolmagan.

Xalq ko'p bo'lgani bilan biron kishi unga do'stlik ko'rsatib, madad qilishni istamaydi. Bechora yigit o'z shahr-u diyorini yodiga olib, bu yerda qayerga borishni bilmaydi. Ko'cha, uy, bozor ko'p, lekin bu yigit qayerga borish, qayoqqa qadam urishdan o'zib. Oqshomgacha shu tarzda tentirab qorong'i tushgach, biron burchakni topib uxlab qoladi, lekin tonggacha uyqu kelmay behol yotaveradi.

Tong otishi bilan madrasama-madrassa yurib, o'z holini aytib, necha kunini bekorga o'tkazadi. Uning istagini eshitgan ba'zilar uni hazil-mazax qiladilar. Kunduz maskan, kechasi yotadigan bir joy topolmay, g'urbatda iztirob chekib, shuncha alam ko'radiki, til bilan ham bayon qilib bo'lmaydi.

Xullas, madrasalar burchagida o'n-o'n besh yil alam chekib, ham ishlab, ham bilim olishga tirishib, oxiri o'ziga bir-ikki sohib kamol do'st topib, turli bilimlarni, ibriy, yunon, suryoni tillarini, hind tilini ham puxta egallaydi. Uning ko'ngil uyi bir daryo bo'ldiki, uning har qatrasida bir dard nihon edi. Falak ilmlarini shunchalik keng va chuqur egalladiki, Abu Ali fikrlarini osongina yechib berardi.

Lekin uning dushmanlari, hasadgo'ylari ham yo'q emasdi. Ayrim johil, ilmsiz zolimlar uning to'g'ri ko'rgan narsasini egri deb, aytganlarini noto'g'ri, yoqimsiz deb ko'rsatishardi. Uni din-u diyonatsiz qilib ko'rsatuvchilar ham topilardi.

Hisobsiz boylikka ega bo'lgan, kiyim-u asboblari zarkash, yomonlikda itdan ham battar bir johil unga yomonlikni ravo ko'rib, olimning fazl-u fasohatli so'z va ishlariga qabohat va razolat bilan javob berardi.

Amir degan nomga ega bo'lgan bu johil xalqqa o'z aytganlarini qildira olardi. Unga haligi bilimli olimning xizmati kerak bo'lib, uni xizmatga olmoqchi bo'ldi.

Olim esa iltimos qila-qila, zo'rg'a bir marotabagina ruxsat olib, amir qabuliga kira oldi...

*Ilmni kim vositayi joh etar,
O'zini-yu xalqni gumroh etar.
Olim agar joh uchun o'lsa zalil,
Ilmi uning jahlig'a bo'lg'ay dalil.*

Olim ilmga sadoqat bilan xizmat qilishi kerak.

*Olim agar qat'i amal aylasa,
Ilmiga shoyista amal aylasa.
Solmasa ko'z jifayi dunyi sari,
Boqmasa tuz dunyiyi foniy sari.
Oni sharaf gavharining koni bil,
Gavhar-u kon, har ne desang – oni bil.*

Bunday olim atrofni cheksiz gavharlar o'rab olgan, o'zi osmon bo'lsa, har taraf uning yulduzlari bo'lgan; konidagi gavharlarining barchasi ham pok bo'lgan, yulduzlari ham haroratli, yaltiroq bo'ladi.

Kimga bunday baxt nasib bo'lib, dunyoga ko'z solmasa, egnidagi kiyimlari yuz yamoq bo'lsa ham, asal solingan idishdan yaxshiroq, mushki-yu no-fasi yo'q bo'lsa ham, durustroq bo'ladi.

*Er kishiga xil'at ila ne sharaf,
Durga ne nuqson yiroq o'lsa sadaf.
Qaysi chibin kisvati zarkordur,
Yeri durur qaydaki murdordur.*

Imom Faxr Roziy va Xorazm shohi haqida hikoya

Tasavvuf olamining eng zabardast allomalari-dan biri bo'lgan olam imomlarining imomi Faxri din bir mahal Xorazmga mehmon bo'lib keldi. Shunda Xorazm shohi uni ko'rishga kelmadi. Ilm shukuhi bunga ham yo'l bermadi. Shoh o'zining ushbu qilgan ishidan uyatda edi, lekin imom bunga parvo qilmadi. Voqeaning sababi ham ochilmaganicha qoldi.

Bir kuni imom hammomda edi, shoh ham noga-hon yuvinish uchun kelib qoldi. Bir-birlariga duch kelishganda shoh xijolat chekkan holda unga savol berdi: «Ey ilming bilan elni bahravor qilgan zot! Qiyomat ishidan bir savolinga javob bersang. Ul kuni odamlar ne holda bo'ladilar, kishilarning ahvoli ne kechadi?». Sohib kamol alloma shunday javob qaytardi: «Sening maqsading hashr so'zini eshitishdir. Bu so'zga shu hammom juda mos keladi. Mahshar kuni gado bilan shoh bir xil, bir ko'rinishda, ikkovi ham yalang'och bo'lib, davlat-u mol egalari sening kabi bor-u yo'g'i tashqarida qoladi. Menga o'xshagan ilm ahli esa yig'ganlari o'zi bilan hammom ichida ham birga hamroh bo'ladi. Sen sulton bo'lsang ham, yoningda foydali biror narsang bo'lmaydi, lekin menda ilm bilan foyda, najot juda ko'p bo'ladi», – dedi.

*Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil.*

O'n ikkinchi maqolat

QALAM VA QALAM AHLI HAQIDA

Bu qanday yoqimli suratki, uni chiroyli qilib, diqqat bilan kim yaratgan ekan? Uchligi – nozik ma'nolarni bezatuvchisi, tirnog'i – chizg'ichning qon tomiri. Qushdek yengil tuzilgan bo'lib, tumshug'idan har tomonga ma'no sochiladi. Ovqati – zulmat, vatani esa nur ustida. Oq sahifalar ustiga mushk sochadi. Harakatlari tez-u chaqqon, o'lchamli, lekin uchish uchun qanoti yo'q.

Qush dema, aytgil, xush ismi qora ilon, de, ilon emas, afsungar, nayrangboz ilon, de. Yaltiroqligi, uchqurligi, qo'l-oyoqlarining yashirinligi bu fikrga shohid. Tilini chiqarsa, undan afsunlar fosh bo'ladi. Bu jahonda kim ilonning afsungarligini ko'ribdi? Ilon dema, pullarni asrovchi degin. Uning idishlarida, kosalarida yuz xil dur-u javohir yashirin. Ajdar kabi og'zidan tutun chiqarib, tunni gavhar kabi yoritadi.

Ajdar emas, sog'lom ajdar, balki Musoning hasasi degil. Bo'lmasa, qanday qilib jahon sehrini, ma'nolar mulkini-yu bayon sehrini yutdi? Uning mavjudligiga muncha sharaf mavjud ekan, kotibi maqbul yoki mardud bo'ladi. Qancha-qancha yaxshi-yu yomon kotiblar kitob bitishga mayl qiladilar.

Avval qozixona kotibini kuzataylik. Shar'iy bo'lmagan ishlarga rizolik berish uning ishi. Adolatli shohid unga yolg'onchi guvoh, tuhmat qilish uchun pul olgan guvoh. Nohaq narsani uzundan uzoq qilib yozib, qog'oz yuzini ham o'z yuzidek qora qilib, barcha xiyonatni diyonat bilib, barcha diyonatda xiyonat qilib, Iso ham bo'ydoqlik

uchun pul to'lamasa, uning nomiga to'qqiz xotinni yozib, mahr to'lamagani haqida hujjat tilab, o'z daftariga bu haqda yozib ham qo'yadi. Kim uning yozganlariga qalam urisa, o'z yuzidek nomasini ham qoraytiradi.

Keyingisi hiylakor muftiy bo'lib, hiyla, makr va aldovdan boshqa ishi yo'q. Ko'ngliga kelgan har bir bo'lmag'ur gapni to'g'ri deb kitobiga yozaveradi. Cho'riga quyosh kiyimini kiydirib, xashanga Hasan kiyimini kiydirishga usta. Behuda navolar ichiga zahr qo'shib, sham tubiga quyoshni yashirib tashlay oladi.

Xohlasa Amr va Zayd haqida o'zaro maktub yozib, yo'q narsalarni yozib tashlaydi-yu, «Vallohu a'lam» deb Haq nomini ham kiritishdan qo'rqmay maktub «yaratadi». Safhasi shabiston kabi orasta, muhrlari betartib. Diqqat qilgan kishi har gul ichida yuz tikan topadi. Har bir so'zida qator-qator xatolar topadi. Bunday maktublarni yozadigan kotiblar bo'ynini qalamdek uzish kerak.

Yana biri olimi devon – devon amaldori bo'lgan kotibdir. Dev aning ishlarini ko'rib hayratda qoladi. Falak unga amaldor nomini bergan, shu dordan bahra olsin degandek. U bu amal bila jomi may ichib, hokim kabi mulkni g'orat etib yuradi.

Kosib-u dehqonga ham zulm qiladi, kosib-u dehqon nima bo'libdi, sultonga ham. Qaysi viloyatga borsa, odamlarning haram-u bog'ida bazm aylab, uy egasidan avval toza may talab qiladi. Uy egasining ahvolini buzgach, shohid uchun uning xotinini ham chiqarib yuboradi.

Omboridagi ekishga mo'ljallab qo'yilgan arpasi-ni oti yeb, tovuqlarini suruk toti yeb, o'sha uyga

balo kirgandek bo'ladi, balo emas, xuddi vabo tushgandek bo'ladi.

Kentning bir-ikki yordamchilari, zulmda bu xoja-yu, ular pahlavon bo'lishib, do'stiga shoh molini oltini-bir oltinga sotib, sarxat – ro'yxat tuzishib, tovon solishib, bir raqamga besh-o'n raqamni qo'shishib, sitam qiluvchi obod-u, sitam chekkan barbod bo'lib, o'z xatidagi varaqdek osilsin.

Yuqoridagilarni rad qilsak, yaxshilari ham bor. Avvalo, munshiy bo'lib, goh ruq'a, goh nishon yozish bilan shug'ullanishadi. Maktubidan firoq asiri shod bo'ladi, nomasi ruq'asidan ham yaxshiroq.

Nomasidan bulbul gul sahifasidan rohat olgandek huzur qilasan. Hajr qaro shomida subhi najot bo'lib, furqat zulmatida obi hayot – hayot suvi bo'lib tuyiladi bu maktublar. Bu xatlarning nishoni o'zi yaxshi xabardek bo'ladi, yozilgan ichidagi xatlari esa zavqdan nishon beradi.

Zulm haqida mazlumga xatti omon, ya'ni ozodlik xatidan zomin ko'rgan zamon vahmga tushadi. Foyda berishda porloq nurli quyosh shaklini eslatadi.

Agar bunday munshiylar kitob bitsalar, nazm bilan nasr durri xushob, ya'ni hidli dur bo'lib, safhalari har biri gulzordek, jadvali atrofidagi devordek chiqadiki, satrlar unda gul-u sarvi suman, har ikki satr o'rtasi esa dilkash chamanga o'xshaydi. Baytlari xuddi baytulharamdek, chiroyi esa savodi Eramdek tuyiladi. Bunday munshiylarni – xat bituvchilarni xato qilishdan Haqning o'zi asrasin.

Yoqut haqida hikoya

Hayot bog'ining gulshanida o'tirib shuhrat qozongan kishilarning guli mashhur mutasavvuf Shayx Suhravardiy edi. Bir kuni u Bag'dodda hukmronlik qilgan xalifa Mu'tasim saroyiga tashrif buyurdi. Hijoz aholisi Ka'baga e'tiqod qilgani singari xalifa unga ko'p hurmat ko'rsatdi. Uni taxtga chiqarib, keyin o'zi chiqdi. Shayx odamlarga va'z so'zlay boshladi, xalifa esa yerga ko'z tikib jim turardi. Shu payt Shayx hurmatli odamlar, shahzodalar va amirlar orasida turgan Yoqut nomli kishini ko'rib qoldi-da, hayajonlanib o'rnidan turib ketdi, hayratdan qotib qoldi. Uning bu holatini ko'rgan xalifa Shayxga muloyimlik bilan murojaat qilib: «Ey ne-ne oqil odamlar oyog'ing changi bo'lgan odam, shohlar ham senga qulluq qilib, u bilan faxrlanadilar. Bunday oliy martaba unga qayerdan kelganki, sen unga bu xilda ehtirom ko'rsatmoqdasan?» – deb so'radi. Shayx dedi: «Qaysi bir hurmat va martaba xudo unga bergan hurmat va martabadan yuksak bo'lishi mumkin? Uning ishi doim Qur'on ko'chirish bo'lib, hech kim u singari ko'chirolmaydi. U Xudoning so'zlariga ziynat bergani uchun uni hurmat qilish bizga vojibdur».

Tushungan odamlarning boshlig'idan Yoqutni bilgach, shoh unga o'z majlisiga kelib o'tirishni buyurdi. U qo'li pok odam xatining yaxshiligi tufayli mamlakat podshohi bilan hamsuhbatlikka muyassar bo'ldi.

O'n uchinchi maqolat

JUVONMARDLIK HAQIDA

Tong kabi kumush sochuvchi bo'lgan inson, mehring quyosh misoli el boshiga sochiladi. Subh kabi xalqning yuziga kulib boqib, falak-charx kabi el boshidan o'rgulasan.

Qilgan yaxshi ishlaring uchun xalqdan duo olasan. Sen odamlarga naf yetkazmakni shior aylading, u na'fni o'zingga yor aylading.

*Nafing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki bu naf o'zunga ko'prakdurur.*

Chunki bulut dengizga o'z qatralarini sochsa, bahr ham bu qatralarni pokiza durga aylantiradi. Dehqon niholni parvarish qilsa, u gul va meva beradi.

Kimki zarar keltirishga odatlansa, elgagina emas, o'ziga ham javr etadi. Chunki shishani bosib sindirgan inson o'z oyog'i yara bo'lishini o'ylayvermaydi. Xas-xashakka shu'la tushib alanga olsa, uni kuydirgach, o'zi ham o'chadi. Kapalakni tutmoqchi bo'lgan bola do'ppisini yerga uradi-da, o'z boshini ochiq qoldiradi.

*Eksa g'ani tuxm qilib elga zo'r,
Tuxmini toroj qilur xayli mo'r.*

Ya'ni biron badavlat kishi zo'rlik bilan xalqning urug'ini tortib olib, uni o'z yeriga eksa, bu urug'ni chumolilar talab ketishi muqarrar. Kimki falakka qarab tosh otsa, o'z toshi o'z boshini yaralaydi.

Pastkashlik belgisi yomonlikdir, Shu'laning tabiati haroratdir.

Lekin yomon odam ham o'zini yaxshi qilib ko'rsatsa, nima ham deyish mumkin. Ammo mushkni har qancha yashirib qo'yilsa ham, atri uni elga oshkor qilganidek, uning yomonligi ham yashirin qolmaydi. Aslida yaxshi odam ham boy-u kambag'al bo'lsa ham sezilib turadi.

Xudo birovning tabiatini pok qilib yaratgan bo'lsa, nopok odamlar uni sevmasa, hechqisi yo'q. Meva ostida danak ham, mag'iz ham bo'lganidek, har kimsaning do'sti ham, dushmani ham bo'ladi.

*Yaxshi-yamondin bari ermas jahon,
Lek yamon zohir-u, yaxshi nihon.*

*Chunki yamon ko'prak emish, yaxshi oz,
Jazmki, oz o'lg'usidur yaxshi roz.*

Chunki boshqalarni pisand qilmaydigan odamlar yaxshilarni aslo pisand qilmaydilar. Yomon qiliqlarni yoqtiradigan pastkashlar elning yaxshilarini yoqtirmaydilar. Xayoli yomon fikrlarga to'la insonlar barcha yaxshi fikrli kishilarga hasad qiladilar, ular toshlarni la'l hisobida bilib, barcha sadaf poralarni inju hisoblaydilar.

Birovning dasturxonida patir ko'rsalar, osmondagi to'lin oydek bo'lib ko'rinadi. Birovning zarhal ayvonini ko'rib qolsa, o'z ayvonini ko'rayotgandek tasavvur qiladi. Har kishi gul islasa, uning qo'liga tikon botgandek bo'ladi; el shod bo'lsa, u bundan alam chekadi, dard uni iztirobga soladi.

Nabi soʻzi bilan shod boʻlib, elga zarar yetkazish xafvidan ozod inson! Haq falak toqini bino aylar ekan, uning ichida ushbu foniyluk dunyosini ham yaratdi. Davron gulshaniga naqsh-u nur berib, har gulini toblanuvchi oftobga aylantirdi.

Xudo bu chamanni yaratar ekan, unga inson guli maqsad boʻlgan edi. Insonlar guruhi aro ham komili paygʻambarlar shohi Ahmadi mursaldir.

Paygʻambarlar quyoshini shunday yuksak va ulugʻligi bilan sening shomingni yorituvchi mashʼal, sening shoningni aytuvchi maddoh qildi, naf yetkazish oʻlchovini tuzib, shu oʻlchovga koʻra seni odamlarning yaxshisi qildi.

Sen ushbu ulugʻ martabaning qadrini bil va uning shukrini qil. Shukrni mumkin qadar koʻproq qilmoqlik – koʻproq yaxshi soʻz soʻzlamozlikdir.

*Xayr muyassar gar emas el bila,
Naf tegurmak ham oʻtur til bila.
Ganj berib boʻlmas ekin tutsa koʻz,
Ulcha qilur vaqtida bir yaxshi soʻz.
Ham soʻz ila elga oʻlumdin najot,
Ham soʻz ila topib oʻluk tan hayot.
Maʼdani inson guhari soʻzdurur,
Gulshani odam samari soʻzdurur.
Soʻz bila naf oʻlmasa el peshasi,
Yaxshi kerak koʻnglida andishasi.*

Har bir inson boshqa bir odamning xursandligidan shodlanishi, noxush boʻlsa – tashvishli boʻlish kerak.

*Odamiy ersang, demagil odami,
Oniki yoʻq xalq gʻamidin gʻami.*

Bir kishining o'lganini eshitib xursand bo'lgan inson go'rkov-u g'assol-u jalloddir. Uchovining qaysi birini tasavvur etsak, ta'bimizni jirkanish, nafratlanish qoplab oladi. Bu sifatlardan ham yoqimliroq yana bir ish bor, bu ham bo'lsa, elning berganini olmoqqa intilmoq. Bergan narsani esdan chiqarib yubormoq, berganni olmoqni xayol etmaslik yaxshidir. Bulut topganini el ustiga sochgani uchun ham Haq uni qudratli, dargohi keng hukmdorga aylantirdi. Odamlar sochgan narsalarni terib o'z makoniga tashuvchi chumolining ishi tiriklayin go'rga kirmoq bo'ldi. El boshiga sochilgan hamma narsani yig'ib yuradigan shamol shu ishi tufayli hamisha darbadar-u xoksor.

Shisha yuzlarga gulob sepgani uchun uni orzulanglab toq ustida asraydilar. Supurgi har uchragan narsani yig'ib yurgani uchun eshik oldida xor-zor bo'lib yotadi.

Sanamlarning zulflari mushk tarqatib yotadi. Shuning uchun ham quyosh yuzlilar ularni ruxsori ustida asraydi.

Yana bir muhim jihat chuchuk so'zlarni ochiq yuz bilan aytishdirki, buni achchiq bodani chuchuk so'z bilan tutmoqqa o'xshatish mumkin. In'om berishda bu yaxshilikni esdan chiqarmagan inson bir yo'la yana ikki go'zallikka erishadi. Oltin lagan diltortar meva bilan to'ldirilgan bo'lsa ham, uning ustiga gullar qo'yilsa, ortiqcha zeb bo'ladi. Oltin tojga ziynat bersa ham, ustida dur bo'lsa, yanada chiroyliroq ko'rinadi.

Bezalgan dasturxon har qancha hurmatga loyiq bo'lmasin, ustidan qand sepsalar yaxshiroq bo'ladi. Unday inson shu xil axloq bila yurib, jazoga qo'l ur-

may, jafo qilmasa, dilxiralikni shodlikka aylantirsa, har qancha jafo yetganda ham vafo aylasa:

*Oni bashar xaylining insoni bil,
Odamilar odamisi oni bil.
Angla kishilikni musallam anga,
Yuz kishilikcha ish esa ham anga.*

Hazrati Ayub va o'g'ri haqida hikoya

Bir kecha Ayub xalaf shamdek niyoz ko'z yoshlarini to'kardi. Ko'z yoshi durlari dengizga teng edi. Kuyishda u shamga sherik edi. Xilvatda, bir burchakda xuddi bebaho dur bir pana joyda turganday o'tirardi. Shu kechasi bir kisavur yer ostidan yashirin yo'l – naqb qazib, uning uyiga o'g'irlikka tushdi. Kechasi bilan yer ostini tekislab chiqdi. Ayub uni sezib tursa ham indamadi. O'g'ri shu naqb ichidan chiqib, uydan o'g'irlagan narsalarni orqasiga bog'lab olgan holda naqbgga kirmoqchi bo'luvdi, u yerdagi teshik torlik qildi, chunki yuki juda katta edi. Tor ini sichqonga ham kichiklik qilardi, quyrug'iga g'alvir ham bog'ladi.

Ayub ko'rdiki, uning (o'g'rining) kuchi yetmayapti. Shunda u o'rnidan turdi-da, eshikni ochib yo'l ko'rsatdi. «Yuking kattalik qilyapti, naqb teshigi esa kichik ekan. Eshikdan chiqib ketaver», – dedi.

Shayx shunday bir yo'l ko'rsatdiki, kim ham bunday yo'ldan chiqa olardi? O'g'ri bu holatni ko'rib hayron bo'ldi, og'ir yuk esa yelkasidan bosib turardi. Shunda bir dard, alanga joniga o't soldi-yu, undan osmoni ham kuyib ketdi. Egni-dagi yukni ham bu o'tga urdi, o'zligini ham yukini

kuydirib, ranj-u uyat-malomat uni sharmanda qilib, bu xijolat uni xas-xashak kabi yondirdi.

U na'ra chekib, sel kabi ko'z yoshlarini to'kdi, shayx oyog'iga boshini qo'ydi. Uning karam-u lutfi tilini lol etdi, shayx lutfi jismini behol etdi. Shayx karam qilib, ko'z yoshini artdi, boshini tuprog'dan ko'tardi. Uning dard-u ahvolini anglab yetgan shayx o'ylab ko'rishni maslahat berdi. Suluk o'tiga joni kuyib, nishoni mahv bo'ldi. O'zligi xas-xashakdek kuyib, o't bilan yorug'lik paydo bo'ldi. Komil imon uni parvarishladi. Bir afv bilan shuncha ish yuz berdi.

*Netti Navoiy, qo'yubon telbalik,
Sen dag'i ursang bir etakka ilik.*

O'n to'rtinchi maqolat

FALAK HAY'ATI SHIKOYATIDA

Olam bir nayrangbozdir, ey ko'ngil, uning makrlari, aldovlari bilan ranjiyverma. Balki bir qo'g'irchoqboz kabi hiylagar, tomosha pardasi – chodiridan ming xil o'yinchoqlarni namoyish etadi. Bir-biridan chiroyli qo'g'irchoqlarni elga ko'rsatishdan maqsadi esa elni aldashdan, azoblashdan iborat.

*Ham to'kib el qonini tadbir ila,
Ham olib el jonini tazvir ila.*

U, olam kelinini tomosha qilari ekan, makkoralik qilib, uni turli bezaklar bilan yanada go'zalroq qilishga intiladi. U go'zal kelinni erta tongdanoq

xushbo'y gullar bilan bezaydi, gul bilan yuziga g'oz surib, zulf hamda egnini sunbul bilan orasta qiladi-yu, lola bilan chehrasini qizil qilib, lola dog'idan ul chehraga xol yasaydi. Sabza bilan qoshiga o'sma qo'yib, shabnam bilan yuziga yopinchiq – me'jar tutadi. Sarvdan panjalariga nigor surma surtib, suvni unga oyinador qiladi. Og'zini g'unchalar bilan pinhon qilib, so'zlash chog'ida u g'unchani ochiladigan qiladi. Shahlo nargisdan unga ko'z yasab, savsan-u ra'nolar tilidan so'z o'rgatadi. Ko'zlariga g'amza bilan noz o'rgatib, g'amzasiga firibgarlik ta'limini beradi.

Shuncha go'zalliklar bilan u olam kelinini bezab, xalqni unga maftun etishga intiladi. Endi har kim u go'zalni ko'rib shaydo bo'lgach, o'zi dallolalik qilib, ikki toqdan juftlar yasaydi-yu, mahrga jon davlatini belgilaydi. Yigit va qiz bir-biriga oshiq bo'lgach, endi ularning jon bilan imoniga hujum qilib, dahr uyidan quvlaydi. Olam shunday davom etaveradi.

Insonlar tinmasdan bazmga kelgan odamlardek bu dunyoga kelib-ketaveradilar. Yuz ming falak odamlarni shu tarzda vayron qilgan, uning jafosidan oh, yuz ming oh! Jahondagi barcha jonli va jonsiz narsalar undan shikoyat qiladilar. Falakning to'xtovsiz aylanaverishidan tun bilan kun hayoti ostin-ustun bo'lib ketgan. Chekkan azoblari-dan quyosh yuzi sarg'ayib, yangi oy ham behol. Tong to'nini chok etib, uning g'ami bilan shom libosi motamiy rang. Falakning azob-uqubatlari-dan o'tni o'z isitmasi beqaror qilsa, yelni yugurmoqdan charchatadi. Dengiz unga alami borligi tufayli ichida zahar saqlaydi, kon falak zulmidan

baxti qaro, go'yo ichini laxta-laxta qon bog'lagan. U beixtiyor durga jafo qilib, ozor berganidan bu holatga chiday olmay ko'z yosh to'kadi. Bulut holining azobi uning dardiga bir qora oh bo'lib atrofida yuradi.

Chashma ham o'zi ko'rgan balolar tufayli bir ko'zini yo'qotgan holda ko'z yosh to'kadi. Bulbul uning alamidan diqqat, shu tufayli gul to'ni parchalari ham yerni qoplab yotadi.

Ammo falak el joniga har qancha o't solsa ham, berganlarini barcha odamdan qaytarib oladi. Falak ham o'zini elga yaqin tutib, mehribonlik qilib, bir necha kun nash'-u namo ham ko'rsatadi-da, bir necha-kun elni o'z maqsadiga erishtirgandek bo'ladi. Birovni mol-u davlat sohasida Qorun kabi boyliklarga ega qilsa, boshqasini Faridun kabi taxtga mindiradi.

Falak el holini sinovdan o'tkazib, pokni nopokdan judo qiladi. Yaxshi bilan yomon ma'lum bo'lgach, g'alvirini aylantirib, ko'proq yaxshilik qilganlarga lutf etib, yanada boyroq qiladi.

Ba'zan saxovatga noloyiq kishilarga, bilimsiz, odobsiz kishilarga oltin laganlarda kumushlar hadya qiladi. Pokiza deb bilgan gulni jannat gulzorining zevari deb anglaydi-yu, tikanga muhtalo etib, uzib-sovurib yuboradi. Rindlar ichkilik qadahi terisini Xo'tan mushki saqlaydigan qildi. Qilichni zolim podshoh yoniga osib qo'yib, ko'plab begunoh kishilar qonining asossiz to'kilishiga sabab bo'ldi. O'qdek to'g'ri yaxshi odamlar adolatni bilmagan podshohning saroyida eng tuban ishlarni bajarishga tayinlanganlari uchun boshqa mamlakatlarga qochib ketardilar.

Qizig'i shuki, yaxshi yoki yomon odamlar o'z muhlati bo'yicha yashab, taxt uzra yashaganlar kabi taxta ustida bu dunyoni tashlab ketardilar.

Falak taxt ustida podsholik qilgan ne-ne ulug' shohlarning birontasini ham omon qoldirmadi. Faridun-u Jamshid, Eraj-u Hushang, Zahhok-u Salm, Manuchehr-u Navzar, Bahman-u Skandar qani? Jahongir Chingizxon, jahon xoni Temur Ko'ragon qani? Bu charxi dun – pastkash olam bittasiga ham vafo aylagani yo'q. Kimni yuksakka ko'targan bo'lsa, yana pastga uloqtirdi.

*Davlat-u iqboli ila bo'lma shod,
Mehriga ham aylamagil e'timod.
Hechdurur hosil-u, boqiysi hech,
Kech boridin bot, vale qo'yma kech.
Seni ul etguncha zabun, sen burun
Ayla ani faqr ila xor-u zabun.*

Qo'lingda bor narsangni sochib, o'z qo'ling bilan falakni sharmanda qil.

*Panjayi xurshiddek ilgingni och,
Anda nekim siym esa, olamg'a soch.*

Iskandar haqida hikoya

Barcha iqlimlarni egallagan Iskandar butun jahon mulkiga sulton bo'ldi. U yurib olmagan biron yeri qolmadi. Hatto dengizlar-u ummonlargacha uning amriga kirdi. Qullig'ini shohlar ixtiyor qilib, qulluq qilish ularga iftixor bo'lib qoldi. Ham shoh, ham valiy, ham payg'ambar, bilimlar sohasida

tengsiz olim bo'ldi. Jamshid ishini davom ettirib, jahonni ko'rsatadigan jomlar ijod qildirdi. Yetti ko'k hukmi muyassar bo'lib, ham yetti iqlim unga bo'sundi. Shunchalik davlat, shon-u shavkat baxt bo'lsa ham, bu dunyoni tark etar ekan, ko'p ojizlig-u bechoralik ko'rdi, ko'plab o'voraliklar unga duch keldi, ketar chog'i oldida amirlari ham, xizmatchilari ham bo'lmadi. Ularning barchalari yashil bog'da qolib, o'zi qaro tuproq ichiga kirdi. Narigi olamga jo'nash chog'ida ichini bu xil so'zlar bilan bo'shatdi: «Kim bu nafas bejon holda jo'nar ekanman, shunday vasiyat qilaman. Mening jonim uzilgach, oh bilan olamni qaro aylab qabr tomon olib borar ekansizlar, tobutim yonidan bir qo'limni chiqarib qo'yinglar, to bu qo'lga kimning nazari tushsa, unga ibrat ko'zi bilan boqsin. Bilsinkim, yetti kishvar shohi, yetti falak mushkillarini hal qila olgan shoh bu makondan jismida jon yo'q holicha bo'sh qo'li bilan ketyapti. Jahon mulkini havas qilgan kishiga shu tajriba, ko'rgani yetarlidir».

*Tort, Navoiy, bu jahondin ilik,
Qaysi jahon, javhari jondin ilik.*

O'n beshinchi maqolat

J AHL MAYI HAQIDA

Xursandchiliging jomga hamrohlik, jahl xumori tufayli ishing doimo mastlik bo'lgan odam! Sening doimiy ayshing kamayishni bilmaydi. Sening muroding doimo jaholat jomi. May idishi sening ichingga boda lazzatini quyishi bilan o'sha lazzat

ko'nglingga g'avg'o soladi. Boda joningga g'urur hissiyotini urib, o'zingdan boshqa har qanday fikrni yo'q qilib tashlaydi. O'lmak g'ami motami ham, paymonang to'lishining g'ami ham qolmaydi. Ajal nazoratchisi yetib kelsa, nima qilasan, undan qutulish uchun ne chora topasan?

Muhtasib – nazoratchi jafo toshini bu kunga qarab urisa, har bir porasini parcha-parcha qilib tashlasa, jismingni boshdan oyog'inggacha dog' ustiga dog' o'rtab, mayingni qaro tuproqqa to'kib tashlasa, nima qila olasan?

Safoling zarfi – idishingni ushatgandek, maying la'lini yer qonidek qilsa, buki bilimsizlik mayini behisob ichasan, bu senga bir kuni ehtisob qilinsa-chi?

Sening mastliging necha oy-u necha yildan beri davom etyapti, oy bilan yil mastligingdin ayil!

Mastning bori muhmal – tuturiqsiz bo'ladi, ko'chaning bolalariga masxara, kulgi bo'ladi. Mast odam ko'chaning boshidan jinninamo yurib kelarkan, bolalar har tarafdin uni toshbo'ron qiladilar.

U to'yganicha ichib olib, mayxonadan ko'chaga mast bo'lib chiqar ekan, manglayi devorlarga urilib qon bo'lib, boshidagi sallasi chuvalib, har yoqqa yoyilib, elga quturgan itga o'xshab hamla qilib, qaysi yomon it, qopag'on itdek har odamga tashlanib, jismini mastlik holati, har sari qadam qo'ysa, o'sha tomonga yana bir qadam tashlasa, selning yerdagi ko'lmak suvini ichib, sharob xayol qilib shimirsa, soy toshini ko'rib qolib, qizil guldek hidlab rohatlansa, olam gul-u toshi ko'ziga uchraganda esa ularni bir yon otib yubormoqqa madori ham qolmagan bo'lsa, uning beso'naqay

otgan toshlaridan bolalar goh tarqab qochishib, goh unga o'xshash mast-mast o'ynashib yiqilishsa, yiqilib, goh turib, may uning holini behol qilib, soqolini iflos qilib, qusqi soqolini necha bor nopok etib, it yalab-yalab tozalab qo'yadi. Mastlik uyqusi kuchayib ko'chada uxlab qoladi-da, boshidagi sallasini ham, belidagi pulini ham topolmay, to'nini yana bir bor qaroqchi olib ketib, xuddi o'likdan kafanni sug'urib olganday qilishadi. Qin qolibdi-yu, qo'lidagi pichog'ini olib ketishibdi. Kovushning ham biri qolib, birini yo'q qilishibdi. To'n etagi balchiq bo'lib, oldi ho'l, oldi ho'l-u, ammo uning oldida ko'l.

Uyini topishga har qancha harakat qilsa ham, uzun ko'chadan uni har qancha izlamasin – topolmasdi. Butun a'zoyi badani titroqqa zo'rg'a chidar, og'zi esa ajab bemaza ta'm berardi. Har qancha qidirib o'z uyini izlab topolmadi. To'nini faqat o'g'ri yechib olgan bo'lmay, qolganini asas – tungi soqchi olgan edi.

Bu bechora mastning ahvoli yarasini tuza-tish uchun o'q zaxmini o'zi yorib ochayotgan odamning holini eslatardi. Boshi aylanib gandaraklar, hushi ozib behuzurlikdan azoblanar, qulog'ining osti – banogo'shi ham yashinib, egni ichiga kirib ketgandi. Har sari shu xildagi holat, shu shakl uning andomini tashkil qilgandi.

O'zining holatidan xijolatlik ustiga mastlik beholligi hamda maxmurlik, yana ichkilikka tashnalik qiynardi uni. Xumor dema, uni yuz balo degil. Bu balolar yog'ilib, joniga yuz bedod solgandi. Ko'rki, bilib turib shu ahvolga tushdi bu odam, ko'rki, qancha alam solyapti o'z joniga. Ko'rki, o'z

qoniga ham kirish, qonini ham buzish bilan birga o'z joniga zulm qilmoqda.

Buni ham qo'yavering-u, borgan sari o'z obro'sidan ajralib, e'tiborsizlikda qolib, yalqov, daydilik kasaliga ham muhtalo bo'lyapti. Bu malomatlarga zarracha parvosi yo'q, o'zining beta'sir qilmishlaridan aslo xijolat chekmaydi. Shuncha qabohatlari, bir-biridan xunuk, yaramas ishlaridan uyalish, or qilish kerakligini anglamaydi.

Qarigan kampir qanchalar xunuk bo'lmasin, uning ko'ziga jannat huri bo'lib ko'rinadi. O'jar bir shoir qayerda nima desa, buning oldida qanday bema'ni bir so'zni vaysayotgan bo'lsa ham, uning uchun sehrli bir asar. Itki qozon oshiga til tekizdimi, yuzi qarolik bilan har yerda yuzi qizil-da!

El-ulus qatliga jallod bo'lgan inson o'g'lini o'ldirsa ham xursand bo'laveradi. Ko'mir sochishni hunar qilib olgan kimsa yuzining qora bo'lishidan uyaladimi? Boyqush obod yerda har qancha nahsli ko'ringani bilan vayrona ichida tovusdek go'zal ko'rinishi shubhasiz.

May tanni vayron aylasa, ajablanarli joyi bormi? Sel uyni xarob aylashi ayon-ku. Sel uyni itqitib, elni selga giriftor qiladi, balo seli esa har qanday uyni vayron qilmay iloji yo'q.

O'n oltinchi maqolat

MAQTANCHOQ KISHILAR HAQIDA

Ey, mardlik ko'zguna otini shijoat maydoni aro surib yurgan, otini chaqmoqdan kam sanamay, ko'ziga Rustamni ham ilmay, hammasidan o'zini yuqori tutib, osmongacha «boshimdan to'rt

ilik, xolos» deb keriluvchi inson! Yurish chog'i oti kattalashib, ustida o'zini qoplon kabi pahlavon sanovchi, el oldida maqtanib, o'zingni zulmat g'ori ichidagi qora qoplon kabi sezasan. Kibr bilan qoshlaringni chimirib, atrofga zimdan gerdayib boqasan. Xayolida o'zgacha kibr – maqtanish. Gerdayishi har qoshi uchidagi girih – tugunlardan ham ko'rinib turadi. Quloqlariga temir qalpoqchalar kiyib olgan. Bularning maqsadi – odamlarda o'ziga ehtirom qo'zg'atish, zulmda Zahhokligini – zolimligini bildirish uchun ikki yelkasidan ikki ilon chiqarib qo'yan. Ikki mo'ylabi ikki yonga dahshat solayotgandek ko'rinadi, ular go'yo nafs-u havo qushlariga halqa – yumaloq ov sirtmog'ini eslata-di. Boshida o'tag'asi – jig'asi parpirab turadi. O'zi uni ruhul-aminning – Jabroilning shohpari deb maqtansa ham, aslida u iblisi la'inning tashlab yuborgan junidan. Boshiga taqib olgan parlarini boyqushdan uzib olgan bo'lsa ham, tovus toji deb da'vo qiladi. Sallasi oxirini yelkasiga tushirib qo'yanidan tebranganida gardaniga urilib turadi. Bo'rki uchini ichkari qilib tikdirgani hirs-u havo qushlariga oshyon qilmoqchi bo'lganidan – maqtan-choqligidan.

To'ni ipakdan tikilgan bo'lmasa ko'ngli to'lmaydi, eng nozik ipaklardan ko'ylak tiktiradi.

Beliga zarrin kamar, uning ostidan zarrin belbog' bog'langan, to'ni boshdan oyoq oltin bilan tikilgan, hatto, etigining taqasi zarga bo'yalgan, otidagi egarni ham zar qoplagan.

Dev jamolini parinikidek yasatib, tikanni yangi gulbargidan yasab, shohidi ra'nodek jilva qilib, bog'da ichib gulruhi zebo kabi maydonda namoyon

bo'ladi. Atrofida bir necha yalqovlar, birida bo'lsin aql-u idrokdan zarracha yo'q nojinslar gulxan atrofiga tekinox'rlardek, o'limlik atrofida to'plangan murdorlardek «bahodir»ni begim-u mirzam deb, o'zini chiroyli-yu zebo deb ertadan kechgacha xushomad qilishib, aslida o'zi o'rtada dev-u atrofida shaytonlar to'dasi ko'rinadi. Ichkilik icha boshlaganicha bu ifioslik darajasiga yetmagan edi, chog'irni mo'l-ko'l ichib, yeb-ichari harom-u harish, ichkilikni qadah-qadah ichib olgach, gurzi bilan Bahrom boshini yanchib tashlagandek bo'ladi xayolida. Filni pashshacha, ajdahoni chivindek ko'radi-da, odamlariga zo'rlik – zulm qilib, shohga ta'na qilardi: «Menga yuz ming beradi, yuz ming-ikki yuz ming menga loyiqmi? Holim bu holda kechadigan bo'lsa, boshqa mamlakat, boshqa shoh topilmaydimi?» – deb xafa bo'ladi.

*Arzi hunar bo'lsa yigitlar ishi.
Qilsa ayon o'z hunarin har kishi.*

Eyki, takabbur seni xarob etdi. Bir kishi ul safdagi yuz mingdan biri. Ikki Rustam ishini bir Rustam bajarolmaydi. Bu xil tasavvurlardan qutulib, barini fano o'tiga kuydirib tashlagil!

O'na yettinchi maqolat

BAHOR YIGITLIGI HAQIDA

Quyosh hamal burjiga kiringach, falak olamga o'z mehribonligini zohir ayladi. Tong paytlari sahar-ning mushk taratuvchi nasimi – mayin shamoli esib, bog'da farroshlik qila boshladi. Bulut ham

suvni saqqo - ~~suv~~ sepuvchidek sepushga kirishdi. Bog' ~~supurilib~~, ~~suv~~ sepilgach, rayhonlar xursandchilik bilan boshlarini ko'tara boshladilar. Keyin ular yer yuziga hujum boshlagan bo'lib, har biri bir yulduz kabi yer osmonini to'ldirib yubordilar. Chiroqli bolalarni eslatuvchi rayhonlar kulib yayrashar, atirlarini har yoqqa taratib, bog'dagi gullar bilan musobaqa qilishardi. Rang-barang gullar go'zal husnlarini ko'z-ko'z qilisharkan, shabnam ularning yuzlarini gulob bilan yanada nafisroq bezardi. G'unchalar bekinmachoq o'ynash bilan band. Ular ikki tomonda terilishib «Gulhocha gul» o'yinini o'ynashardi.

Bahor bolalari yog'och derazalardan gul va rayhonlar o'yinini zavq bilan kuzatishardi. Bir necha kun shu tarzda o'tgach, shoxlardagi gullar o'rnini yaproqlar egallay boshladi, bog' o'zining oq-u qizilni yashilga almashtirdi. Shoxlardagi durlar o'rnini zumradlar, la'llar o'rnini zabarjadlar egallay boshladi. Keyin daraxt tugmalari mevalarga aylanib, bog' mevalarga to'lib ketdi.

Bog'bon bu mevalarni yig'ib olgach, bog' yulduzi yo'q osmondek bo'lib qoldi. U go'yo mevasiz bir guliston edi, gavharsiz bir sadafdek bo'lib qolgandi. Mevalar o'z tojlariga qadash uchun durtopisha olmas, mevalardan ayrilgan shoxlar bemorlardek zaif bo'lib qolishgan, ularning shoxlari g'amgin oshiqlardek, yuzlari sarg'aygan dardli majnunlarga o'xshab qolgandi. Bog'dagi sariq rangli yaproqlarni ko'rgan odam bog'ni g'am o'ti kuydirayotgandek his etardi. Axir, yaproqdan bog'ga o't tushmagan bo'lsa, nega shoxlar o'tindek qorayib ketdi?

Bog'larda bu xil oh-u fig'on tugaganicha ham yo'q ediki, barg kesuvchi sovuq shamol esa boshladi-da, shoxlardagi barglarni uzib tashlashga kirishdi-yu, ularni barglardan judo qilib, har tomonga ota boshladi. Yaproqlarning rang-u safosi ham qolmay, o'liklardek bo'lib tuproqlar ustiga tusha boshladi. Yel askarlari bog'ni talab, meva daraxtlarigina saf tortgandek yalang'och, bosh-oyoq qora bo'lib, ariqlardagi suvlar zanjiri bilan bir-biriga bog'langan fig'on tortayotgan yalang'och asirlardek turishardi. Ularni barg deb emas, oshxona o'tini, shox emas, do'zax kundasi deb atash to'g'riroq bo'lardi. Go'yo do'zax jannat gulistoniga aylangan-u, do'zax uning oldida behisht bog'iga aylangandi.

Umr gulshanining kuz-u bahori ham shu gulistonga o'xshab ketadi. Insonning sharaf uyi vaqti yetgach umr quyoshi paydo bo'ladi. Ko'pdan ko'p g'unchalar kulib, hadsiz-hisobsiz gullar ochila boshlaydi. G'unchalar o'ynamoq va yemak bilan orom oladilar. Bilim shami ularning miyasiga aql nurini solmagunicha, ko'ngillarini idrok salohiyati bilan yoritmaguncha, yoshlar o'zining yetilgani, yuzi gulrang bo'lganini anglagach, jaf bilan jonlarini sayd etib, bazmlarda lablarni may bilan xursand qiladilar.

Bog' gul va chechaklarni tark etgach, navbat barg bilan mevaga yetadi. Har bir daraxt gulshan kiyimini kiyib, ilm-u adab mevasidan bahramand bo'ladi, ilm-kasb egallaydi. Biri tafsirlar ilmini o'rgansa, boshqasini hadislar qiziqtiradi. Yoshlar madrasalarni o'zlariga oromgoh qiladilar, boshqalari xonaqohlarni xilvatxona qilib tanlaydilar.

Yoshlik mevalari to'kilgach, baqo gulshanini go'zalliklar tark aylagach, yoshlik ayyomining

mevalari to'kilib, jahonning nafosat-u go'zalligi tugallana borgach, qadd-u qomat daraxti g'am yelidan egila boshlagach, guldek yuzlar xazon bo'lib sarg'aya boshlaydi. Tan daraxtida havas bargi qolmay, kuzning sovuq shamoli ularni uchirib ketadi. Ko'zlar uylar burchagini talasha boshlaydi, bolalar kulgusi yangrab, yuzlarni za'faron qiladi.

Ikki bukilgan qad hassaga tayanib asta odimlaydi. Og'iz ichidagi durlar to'kilib, bir dona ham tishi qolmaydi. Yuzdagi oq tuklar kafan iplarini xotirga soladi. O'limni o'ylayverganidan boshi quyi egilgan, xayrlashish uchun qaddi ham ikki bukilgan.

Bir necha kun shu ahvoldagi iztirob bilan qon yutish, oh-faryod ichida kechadi. Ajal xabarchisi farmon bo'lganida yetib kelib, uning ko'nglini hayot azoblari, keksalik alamlaridan qutqaradi. Bu bazmga yetib kelgan har bir odam navbat bilan bu qadah – o'lim qadahini ichadi. Bu achchiq qadahni totgan inson yo'qlik ko'chasi tomon mast holda yo'l oladi. Mast ekan, o'zini ham bilmaydi, borganidan so'ng xabari ham kelmaydi.

*Elni bu may ayladi bir-bir adam,
Navbat erur bizga dog'i dam-badam.*

Ohki, umrim bilimsizlik bilan o'tdi. O'lim vaqti yetganda xijolatlikda qoldim. Kerak vaqtda – umr kuni tamom uyquda qoldim, endi uyg'onsam, shom vaqti bo'libdi. Shu vaqtgacha qiladigan ishimni bilmadim. Ish qilish kuni yetganida ish qila olmas kunim kelishini bilmadim. Tiriklik chog'im bo'lur-bo'lmasga nobud bo'ldi, o'zimni o'ldirsam ham endi nima foydasi bor?

*Vaqt kam-u, yo'l uzun-u may achiq,
Asru qatig' hol yetibdur qatig.*

Agar Allohning o'zi rahm qilib kechirmasa, mening holimga ming qatla voy! Qazo umr kunlarini bo'laklarga bo'lib beradi, har biri bir narsaga mo'ljallangan: o'n yoshgacha – g'aflat, erkin hayot kechirishga, yigirmagacha – bilimsizlig-u mastlik bilan band bo'lish mumkin. O'ttiz bilan qirq ichida aysh qilish, vahki, u ham menga nasib etmadi. Inson ellik yoshga borganda taraqqiy qilishi mumkin emas, oltmish yoshida esa ishi tanazzulga – pastga tushish bo'lib qoladi. Yetmish yoshda turishing, saksonda o'tirishing farzdir. To'qson yoshda yiqilmoq, yuz yoshda jon tarkini qilish kerak.

*Umri tabiiy kishiga bo'lsa kom,
Istar o'lub, har sari qilg'ay xirom.
Umri tabiiy dema, gar umri Nuh,
Bor esa, tafviqdin o'lmay futuh.
Yaxshiroq ul umrdin o'lmoq yiroq,
Umr nekim, andin o'lum yaxshiroq.*

O'n sakkizinchi maqolat

FALAK G'AMXONASI HAQIDA

Aqlli kishilar uchun olam bir zindondir, unga maftun bo'lgan kishi esa nodondir. O'z qobiliyatini bu noma'lumlik bilan band etma. Bu yumaloq dunyo hammani oxiri tuproq ostiga jo qiladi. Shunday ekan, o'sha g'amdan iztirobga tushib, o'zingni o'limdan burun halok etishingning zaruriyati bormi? O'limni o'ylab muncha mo-

tam tutishing nimasi? Motamni senga amaki-yu tog'alaring tutaverishadi. Shunday ekan, joningga **alam solib**, bir g'amning o'rniga ikki g'am yemagil. O'y-fikrlaring bilan jismingni azobga tashlama, bir ranjingni ikki ranj aylama. Ko'ksingdagi dog' iztirobini kamaytirish o'rniga dog' ustiga dog' qo'yib nima qilasan?

Falakdan yetgan jafolarni unut, nimaki mushkul, og'ir bo'lsa – oson tut. Bu olamda g'am yemay yashaydiganlarni shod deb bil, chunki bu dahr ishi g'am yeyishga arzimaydi. Chunki jahon bog'i vafosiz, undagi umr guli baqosiz, vaqtincha. O'zining atirguliga vafo bo'lmagan bog'da atirgul ham bunday bog'ga vafodor bo'larmidi? Shunday bog' orom olishga loyiqmi? Bunday guldanda dimog' muattar bo'larmidi? Bu umrning o'tgan ishlari maqtanarli emas, o'tgan narsa uchun g'am chekish ham ortiqcha.

Oqil odam bu dunyoga kelish sababini ayta olmaydi, chunki ma'lum bo'lmagan narsa haqida gapirishning iloji yo'q. Kelishing-u ketmagingni bilish ilojsiz ekan, holingga rahm aylagin-u, azob chekaverma. Xursand bo'lish uchun qachon bir paytni topsang, g'animat bilib undan foydalanaber.

Har nafasing chiroyli bir javhardir. O'sha bir nafas sening yaqin bir do'sting. U hayot nafasigina emas, inson javhari, javhar emas, hayot suvi ushbu dir.

Shu bir nafas bo'lmasa, el qayoqdan tirik bo'lardi? Barcha zot uning bilan tirikdir, uni hayot suvi desam xato bo'lmaydi. Demak, uni muqaddas nafas degil, balki muqaddasgina emas, aqdas, ya'ni eng muqaddas narsa deb bil.

Shunday g'animat narsa senga hamnafas, biron nafas ham sen usiz bo'lolmaysan. Sening saboting – barqarorliging, yurish-turishing-u sening xayoling shu bir nafas tufaylidir. Sen uni ranj-u g'am bilan o'tkazib, yuz alam-u motam ila o'tkazib, e'tiborsizlik bilan uni xor qilib, har xil so'zlarga sarf etib yurding. Kel, endi bu johillikdan voz kechib, aqling bilan ish ko'r. Nafasingga boshqa zulm berma! Shunday ulug' ne'matni Alloh senga yaxshilik qilib berib qo'ygan ekan, bir nafas nasihatlariga quloq tutuvchi bo'l.

Ko'rgin, Haq senga qanday ajoyib ne'matlar baxsh etdi, qanchalik ehson-u armug'onlar berdi? Biri buki, olam sohibi seni hayvon yo o'simlik, yo biron jonsiz tabiat parchasi qilib yaratmadi. U senga yaxshilikni ravo ko'rib, inson qilib, din yo'li-da musulmon qilib yaratdi. Ko'rar ko'z, eshitur quloq, aytur til, atirni anglash uchun dimog' berdi; ovqat ushlar uchun qo'l, yurish uchun oyoq berdi. Yemoq-ichmog'ing uchun yuz xil ne'mat berib, ularning har birisiga ta'm-u shakl baxsh etdi. Sen uchun shuncha rango-rang liboslar berdiki, ularning sanog'iga ham yetib bo'lmaydi. Shuningdek, dala-qirlar, tog'-u cho'qqilarda minib yurish uchun turli ulovlar yaratdi. Oqar suvlarga serob bo'lgan jannat misol bog'larni ham senga armug'on etdi.

Bu in'om va atolar bir bo'ldi-yu, aql javhari yana bir taraf bo'ldi.

*Barcha jahondin qilib ashraf seni,
Ayladi rozig'a musharraf seni.*

Har qaysi ne'mat dasturxoni ochilarkan, barchasiga shukr aytish senga vojibdir. Allohning senga bergan barcha ne'matlari uchun shukrini ado aylamoqlikning imkoni yo'q. Hamma narsani qo'ya turaylik-da, nafas haqida o'ylab ko'raylik. **Kirishi-chiqishi** ham ulug' ne'mat.

*Biri erur quti hayoting sening,
Yana biri quvvati zoting sening.*

Ikkalasi uchun – hayoting va quvvating uchun har qancha shukr qilsang arziydi. Joningni fido qilganda ham bu ikki nafas shukrini ado etolmay-san. Haq nafasingni aziz etgan ekan, sen uni xor aylama, qadrini bilginki, nafascha ne bor?

*Har nafasing holidin ogoh bo'l,
Balki anga hush ila hamroh bo'l.*

*Boshdin ayog'igacha qil sarfi haq,
Tengri senga yor, o'qusang bu sabaq.*

*Yaxshilig'i aylamasang ish chog'i,
Aylamag'il bori yamonliq dog'i.*

*Anda qayu amrki, dilkashdurur,
Barchadin ahbob yuzi xushdurur.*

*Asra o'zungni birov ozoridin,
Kimsaga ozurdaliq izhoridin.*

El pokligi, ayoliga qasd qilma, uning joni-yu molig'a qasd aylama. Bir nafas qayg'udin ozod

bo'lib, yor-u musohiblar bilan shirin suhbat qurgin. Yaxshi do'stlarni chorlab, jonni ularning qadamidan gulshan et, ko'zni alar chehrasidan ravshan et. Saxovat rusumlarini shior aylab, har neki boringni ularning boshidan sochgil.

*Kim bu chaman ichra xiromon erur,
Barchasi bir-biriga mehmon erur.*

*Har kishikim, bor esa yore anga,
Har kishikim, yor esa bore anga.
Kom bila vaslini aylab havas,
Topsa bu komig'a dame dastras.*

*Bo'ynig'a qonim meni yod etmasa,
Ruhum o'shul yod ila shod etmasa.*

Vasl aro uning maqsadi amalga oshib, shu baxtini yana davom qildirishni istasa, Yaratganga shukrini yanada ko'proq aytsin.

*Komini qilsun haq aning bardavom,
Jonig'a bersun bu davom ichra kom.*

Chin go'zali haqida hikoya

Chin mamlakatida bir nozanin go'zal bo'lib, uning rasmini har qanday naqqosh chizishda ojiz edi. Yuzlari Xo'tan gulzoriga o'xshar, ko'zi bu gulzordagi mushkin kiyikni eslatardi. Chehrasi xuddi Chinning nurli quyoshi bo'lib, qop-qora Xo'tan mushki uning zulfi muanbaricha bor edi. Uning qo'rquv bilmas g'amzalari jonlarni asir

qilar, hatto Xitoy mulkidagi xonlar ham uning asiriga aylanishganini sezmay qolishardi. Uning g'amzasi talonchilari dastidan Chin xatar ostida qolgan, turmaklangan sochidan dinga xalal yetardi. Jahonning butun aholisi uning husni hayronasi, zamon shohi esa zulfining oshuftasi edi. Uni ko'rmay qolgan inson bir nafas ham nafas ololmasdi, nafas olmagandan so'ng jon qolarmidi?

Shunday go'zal gulruh maydonda go'y va chavgon o'ynab yurar, hech kim unga yaqin kelmasligi uchun xon maxsus odamlar belgilagan edi. Agar biron kishi uning tomon nazar tashlasa yo uning haqida biron so'z aytsa, unday odamning aybi aytilgach, hukm bo'yicha jazoga tortilardi. Har kuni qancha-qancha yigitlar shu xil ayb bilan halok bo'lardi.

Shu qizga ko'p yillardan beri oshiq bo'lib yurgan bir ishq-muhabbat shaydosi bir panada yashirib, o'z dildorini tomosha qilib o'tirarkan, qiz mast holidan uning ustidan chiqib qoldi. Boda ichib zai-flashgan oshiq o'ziga hujum qilgan dushmaniga bas kelolmadi. Shunda bir necha boshqa aybdorlar oldiga uni ham solib olib keldilar. Bu asirlarni ko'rgan darg'azab xon barchasini shahar devoriga qo'yib loy bilan chaplab tashlashga buyruq berdi, toki yuzlari loydan chiqib tursin, xalq ulardan ibrat olib, jazolanganlar ham ko'p azob chekib o'lsinlar. Hukm tezlik bilan ijro etildi. Qiz tog' ichiga yashirindi, xon dashtda sayr qilib yurgan bo'lsa ham, o'tlanib shahar tomon yo'l oldi. Ichib olgan xon ishq o'tida o'rtanib, shahar devori tomon yurdi-da, jazolanganlar ahvolini ko'rish uchun o'sha devor ostiga keldi. Hali devorga suvalmaganlar

oh-nola qilib yig'lasharkan, jazolanganlar tomon yurdi. Ular o'lim bilan jon talashishardi. Malikaga oshiq bo'lgan yigit esa devor orasidagi somondek azoblanayotgan, sarig' yuz bilan iztirob chekayotgan bo'lsa ham Tangriga har lahzada sano aytib, shukr izhor qilib turardi. Kim: "Bu nafas jonim chiqyapti-yu, yor g'ami bu ishni osonlashtiryapti". Umriga ikki-uch nafas qolganda yor so'zlarini zikr etarkan, tilida yor edi-yu, so'zida yor, og'zida yor erdi-yu, ko'zida yor.

Zolim hokim bu holatni ko'rgach, ko'ngliga ishq o'ti ta'sir qildi-yu, o'limdan uni xalos qilib, yori turgan tomonga yo'lladi. Ishq balosi aro shukr qilgan yigit shunday martabaga yetdi.

*Asra, Navoiy, bu nafas mug'tanam,
Lek degil, har nafase shukr ham.*

O'n to'qqizinchi maqolat

KUROSON BAYONIDA

Alloh jahon ashyosini vujudga keltirgach, charx - olamni paydo-yu nihon ayladi. Yetti falakni yumaloq qilib yasadi-yu, har birini bir sham bilan yoritdi. Oltitasi gar sham porlab turuvchi bo'lsa, lekin biri nurli mash'aldir. Uchtasini quyiga, uchtasini yuqoriga joylashtirdi. Mash'alani esa to'rtinchi uyga joylashtirdi. Mash'ala emas, porloq dur, durgina emas, yaltiroq quyosh degil. Ko'kning yetti iqlimida sulton ham ul, boshqalari tan bo'lsa, jon ham uldir.

Xuddi yulduzlar yetti taqsim qilingandek, jahon ham yetti iqlimga bo'lingan. Ular bir-birlaridan

quvvat oladilar, bir-birlarini tarbiya ham qiladilar. Quyosh bu olti duraxshandaga rahbar hisoblanib, iqlimi ham o'ziga xosdir. Quyosh o'z nurin orom aylasa, yulduz ko'zga ko'rinadimi? To'rtinchi falak uning maskanidir. Yerda bu iqlim yoqimli bo'lib, ko'kda quyosh gumbazidek tengsizdir. Yer o'lchashni ham alohida bir fan – masohat fani deb ataydilar, shuning uchun to'rtinchi iqlim deyishadi uni.

Go'zallikda jannat bog'idir u, jannat bog'ini ham qo'yaber, mulki Xurosondir u: maydoni to'rtinchi falakdan kengroq, darajasi yettinchi osmondan yuksakroq. Hududida shahr son-sanoqsiz, har birining bezaklari haddan tashqari ko'p. Shaharlari go'zallikda jannatning o'zginasi. Yaxshi odamlari u jannat bog'idagi hurlarning o'zginasi.

Tog'lari oldida falak sodda bir dashtga o'xshaydi, barchasining ko'ksida yuz xil kon, u konlarni rang-barang javohirlar o'ziga makon qilib olgandi, chashmasidagi suvni ko'rib ham bo'lmaydi, bu suvlar kondan oqib chiqqani uchun ham javohirga aylangandir.

Sabzasiga ko'kimtir osmon rashk qilsa, tuprog'idan toza anbar rashk qiladi. Yetti falagi boyliklarining xazinasi u, yetti iqlim tana bo'lsa, siyna – ul! Unga jahon ko'ksi sifat bo'lib kelgan, unda ko'ngil xittayi poki-poytaxti – Hirot.

Kimki bu shaharni ko'nglidan sevsa, dalil istassa, uni ko'ngil mulkiga sulton deb ataydi. Ulug'lar buni jahon kishvariga shoh deb tilga oladilar. Uni shoh desalar ajab emas, chunki shoh yeri qalbda emasmi? Hirot ko'ngil o'rnida ekan, undan ahli hech ko'ngil uzolmaydi ham.

*Ziynati andok qi, badan paykari,
Vus'ati andok qi, ko'ngul kishvari.*

*Aytma kishvar, deki bog'i Eram,
Dema Eram, aytki Baytulharam.*

Hirotning davrini xayolan yuz yilda ham kezib chiqish mahol. Qo'rg'onining ko'rinishi shunchalik balandki, osmon ham uning oldida uyaladi. Arki to'qqiz osmondan buyukroq. Devori kunguridagi mehr kabi dumaloq teshiklar go'yo barcha farishta ahliga mehroblar. Falak fili kirgucha darvozasi. Chuqur xandaqlari uni yerning ostki pardasidan ajratib turarli darajada.

To'rt tarafida bozor jadvali, kirgan barcha odamlar unga xaridor. Kirsa chiqar yo'lini topolmay barchaning aqli shoshadi.

Masjidi Jome' – yana bir olam, shahar bir jahon bo'lsa, masjid bilan shahar bir-birining ichida nishon. Masjidining minbari Mushtariygacha yetadi. Oy bu ajoyib shaharni qavsi naykamalak shakli kabi yoritib turadi.

Shahar ichida binolar behisob, qal'asining tashqarisida esa sonsiz-sanoqsiz uylar ko'pligidan ularni mahallalarga ajratib, ularning otini ham Hirotni deb qo'yganlar. Bunday shaharchalar ham yuz shahr keladi.

*Alloh-alloh, ne Hiri, bu Hiri,
Bir-biridan turfa aning har biri.*

Ikki turg'un yulduzi falakidan nishon bo'lsa, ikki xiyoboni – ikki somon yo'li.

Madrasalari biri birisidan ulug'vor. Mudarislari ajoyibotlar yaratishga mohir. Gunbazi koshisida kun aksi go'yo ko'k gumbazi ichidagi quyoshdek ko'rinadi.

Bog'larining har biri jannat misol, har manzil shodlig-u xursandchilik manzilidir. Barcha chamanlar gul-u gulzorlik, har chamanining yo'li girihlidir. Har girihida gul-u gulshan dog'i bo'lib, musaddas emas, musamman tarzidadir.

Gullarining navini sanash ham qiyin, ularning turlarini sanay olgancha sanash mumkin-da! Daraxtini dehqonlar doim parvarish qilishadi, bir shoxining o'ziga yuz mevani payvand etishadi. Har daraxt yuz xil gul ochadi, mevasi ham yuz turli bo'ladi. Har bir daraxt, yuz xil gul chiqarib, har gulining atri bir yog'och masofaga boradi.

Qushlari yuz nav'-u, barchasi xush sayroqi, barchasi sabza-u gullar ustini qoplab oladi. Suv shodiyona bir ovoz chiqarib shunday kuy chalib oqadiki, xuddi bulbul ovoziga o'xshaydi.

Qasrlari barchasi yuksak va mustahkam. Janub tomonida bir ajoyib hovuz bo'lib, hovuz emas, yashil charxning bir qismiga o'xshaydi. Shimol tomonidan esa ikki daryo oqib o'tadi, ulardan shahar suvga serob bo'ladi. Ikkala daryoda ham hayot zulolining ta'mi bo'lib, jannat bog'idagi to'rt narsa undan uyatli. Ariqlarida Xizr suvidek zilol suvlar oqib tursa, suvdan esib turadigan mayin shamol Masih nutqini eslatadi.

Misr bilan Samarqand unga go'zallikda teng kelishi amri mahol, Hirot zimnida yuzta Misr-u Samarqand bor desak xato bo'lmaydi. Uni Haq barcha ofatlardan asrasin, balolardan o'zi himoya qilsin.

Bu aytilganlar Xuroson ta'rifining o'ndan biri, xolos. Mamlakat shoh insofi tufayli shunday sharaf topdi, uning sifatlaridan aqllar lol qoladi. Hech so'zsiz, Xisravi G'ozī – Husayn Boyqaro adolatiga hamma lol. Uning adolatini Anushirvon o'rgansa, shogirdlikni havas qilib, yuz ishidan bir ishinigina – adolatnigina o'rganardi, lekin islomni o'rganmasdi.

Odamzod aro nomi qolib, oti yuzlarcha shohlar otidek qolsa ajab emas. Olam bani Odam bilan, bani odam olam ichida ekan, adl bilan olam yuzini obod qil:

*Adl ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil.
Hukmung aro olam-u odam dog'i,
Yo'qki bu iki yana olam dog'i.*

Yigirmanchi maqolat

SULTON BADIUZZAMONGA NASIHAT

Olamda zohir bo'lgan har bir narsaning paydo bo'lish siri bo'ladi. Mohiyati nimada ko'rinsa, xosiyati uning ichiga yashiringan bo'ladi. Quyoshning xosiyati nur va harorat ekanligi tufayli bulut nutfasi durri xushob bo'lmish. Yakka xalaf, ya'ni oilaning davomchisi pok bo'lgan yagona farzand ham konga o'xshaydi, anbar sifatida dengizga ham o'xshab ketadi.

Bu xalaf insonga ham insondir, shohga – shoh-u, xonga xon erur. Shahi ozodani kondek ko'rgan bo'lsak, shahzodani uning gavhari sifatida ko'rdik.

*Bilki erur moyayi amn-u amon,
Xisravi Jamqadr Badiuzzamon.*

*Ulki vale gavhari yaktodurur,
Barchasidin poyada a'lodurur.*

Uning poklikda zoti parilar singari, bunday pok sifatli biron zotni farishtadan, balki sifati bilan zoti farishtadan topib bo'lmaydi. Soflikda, muloyimlikda yaratilgan zot u, jahon xalqi ahliga Haqning rahmati u. Nutq ila vasfingni aytish oson emas, har qanday so'zamol ham sifatlaringni sanashda gung-u lol bo'lib qoladi. Quyoshni xalq maqtangani-maqtagan, lekin bu uning uchun qanchalik ta'rif bo'la oladi? Oyni yorug', osmonni baland deb ta'riflasang, bu xil maqto'vni el pisand qilmaydi.

Seni har qancha maqtasam ham, madhingni aytib tugallashim qiyin, shuning uchun senga boshqa jihatdan xizmat qilay.

O'zing voqifsanki, shahi komkorga ko'p maxfiy sirlar oshkor. Bugun bir narsa xayoliga kelsa, ertaga hammasi ro'yobga chiqadi, erta emas, indin bo'ladigan ishlar ham unga bugundan ayon. Muncha kamolot bilan, ko'nglingga neki yaxshi narsa kelsa ayt, deb hukm qilibdi. Shohga mening so'zim ham e'tiborlidir. Senga bir necha nasihat aytсам joizdir.

*Bil munikim, umr vafosizdurur,
Davlat ila joh baqosiz durur.*

Bu olamda hamma narsa ko'z yumib ochguncha o'tib ketadi. Davr binosini xarob deb bil, ko'ringan narsalarni sarob deb bilgil. Butun dunyo foni – aldanchidir, boqiyini tilasang, u faqat haq erur. Jismimiz uyini tarhini soluvchi ham, unga ruh berib olguvchi ham O'zi!

*Olam aro toki tirikdur kishi,
Haq bila bo'lmoq erur ansab ishi.*

Haq yodidan ogoh bo'lmagan har bir odam uchun ogohlik ham gadolikcha bo'lmaydi. Gado bo'lsa ham Tangridan ogoh bo'lsa, ikki jahon shohiga teng bo'la oladi!

*Oldinga kelsa tilamas ish base,
Haqdin erur, aylama nolish base.*

*Yetsa zafar, bilma ilik kuchidin,
Bil zafar-u fathni berguchidin.*

*Shohlig'inga aylamagil e'tibor,
Haq g'azab-u lutfig'a qil e'tibor.*

Fillar va ularning egalarini bir lahzada halok etilganini yodingda tut. Birgina qush donasi har birining manzilini yo'qlik olamiga aylantirgani esingdami? Zahhokning azob-uqubat bilan topgan xazinasi Faridunga qanday nasib etganini ham bilarsan? Qahridan sher yengilgan bo'lsa ham, oddiy sigir sutini ichgan bir yetim boshini uzdi-ya!

Bu ajoyib ishni ko'rki, Haq o'z ne'matlarini xalqqa berishda seni ~~sa~~ sabab qildi. Sen bu qismatni qanday o'zgartira olarding? Shu holatda bir necha nodon sening farmonlaringga bo'ysunmayotgan bo'lsa, barchasiga amaldagi qonunlarga ko'ra siyosat qilish zarur bo'ladi.

Senga Haq lutf qilib, toj-u taxtni in'om qildi, senga karomat, iqbol, baxt berdi. Hukmingga olamni zabun ayladi, el qaddini amringga bukdi – ta'zim qildirdi.

Muncha yaxshiliklar shukrini bilmasang, neki amr etgan bo'lsa, ado qilmasang, g'aflat-la qolib yo mag'rurlik qilib amriga bo'sunmasang, qahri keladimi, yo'qmi, ayt, men uni aytgunimcha o'zing aytaqol! G'azabning qattiq shamoli yetsa, nima qila olasan? Mulk uning mulki bo'lsa, qayoqqa ketasan? Unga qarshi dushmanlik qilib isyon, urush boshlasang, yengilib biron joyga yashiringan holingda ham Holiq buni ko'rib tursa, qanday holatga tushasan? Sening el oldida uyatli bo'lganing Tangriga ayon bo'lsa, ne hol yuz beradi?

Adolatli bo'lay desang, Muhammadning shar'iy nizomini tuz. Qaysi shoh najot uyiga panoh istassa, shu yo'l o'sha uyga olib boruvchi katta ko'cha vazifasini bajaradi. Shariat qonunlariga amal qilib, adolat bilan mamlakatingga mador qilgil.

*Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuq mulkni obod etar.*

Ya'ni shoh adolat bilan ish yuritsa, adolat uning vayron bo'lgan mamlakatini obod etadi. Adolat bilan mamlakatni boshqargan podshoning sirot ko'prigidan o'tishi ham oson bo'ladi.

*Koming uchun tuz bo'l-u, adl ayla ish,
O'qda agar adl yo'q etmas ravish.*

Ya'ni maqsadingga yetish uchun hamisha adolat bilan ish qil, yoy o'qi tekis, to'g'ri bo'lmasa ucholmaydi. Adlki, uch harfdan iborat bo'lib, har birida o'zgacha mazmun bor: «ayn»i uning mehri erur tobnok, ya'ni «ayn» harfi quyoshga o'xshash

porloqdir, u zulmning qaro shomini yorug'likka aylantiradi. «Dol»i davlat-u din tojidur, din bila davlat el muhtojidir. Tojni kiyib, mehr bilan ko'zni yorit, so'nggi mustahkam ishni qo'lingga tut.

Sening oldingda orzu bilan kelgan mazlumning so'zi har qancha uzun bo'lsa ham, uzoq umr ko'ray desang, gapini to'xtatma. Arz qiluvchi zulm o'tidan faryod qilayotgan ekan, adling soyasi unga panoh bo'lsin. Uni o'sha soyada ham qayg'uda qoldirmay, unga sham tubini qorong'i qilma.

Mazlum so'zini tugatgach, uning gaplari to'g'ri ekanligi aniqlangach, zolim nafsing bo'lsa ham, yuziga qarama, nafsiki, doimo oshyon istaydi, senga gunoh, o'ziga maqsad tilaydi. Ganj ustidagi ilon bahr topsam deydi, uning aytganini qilib, azob istama, tavba bilan unga loyiq jazosini bergil. Gunoh qancha ulug' bo'lsa ham, oh-u nadomat uni uchirib yuboradi. Jurm o'tining shu'lasini maromida bo'lsa, uzr yoshlarining suvidan past bo'ladi.

*Lutf-u karam garchi erur dilpazir,
Qahr-u siyosat ham erur noguzir.*

Olamdagi kishilarning barchasi yaxshi bo'lavermaydi, har kishining hamma ishi ham ma'qul bo'lavermaydi. Agar yaxshilikni barchaga baravar qilinsa, yaxshilik yomonga ko'p-u, yaxshiga oz bo'ladi.

Yaxshilikni tez-tez qilib tursang ham, siyosat tig'ini ham ba'zan o'tkir qilib tur. Necha kasalga qand foydali bo'lsa ham, shunday kasallar borki, ularga zahar foyda beradi. Tanadagi modda marham yordam bermasa, u fasodni nishtarning uchi bilan chiqarib bo'lmasa, badan undan igna bilan

qutula oladi. Zamon shohi aql bilan ish qilar ekan, **yaxshiga** – yaxshi-yu, yomonga – yomon boʻlmogʻi **kerak**. Ikkisiga bir xil munosabatda boʻlsa, mam-lakatda inqilob yuz beradi.

*Kimsani bot aylamagil arjumand,
Ham yana oz ish bila qilma najand.*

Odamlarni tezda mansabda koʻtarmagil, ham **ozgina** aybi uchun pastga tushirmagin – mansabini pasaytirmagin. Ustunga chiqmoq – is-tak, tilakdir, chiqmoq va tushmoq uchun poyadir. Poyadan tez tushib ketgan odam yiqilishi, ranj-u alam tortmogʻi mumkin.

*Kimniki inson desang – inson emas,
Shaklda bir, feʼlda yakson emas.*

Yaʼni har qaysi inson oʻz feʼl-u atvori, ruhiya-ti bilan bir-biridan farq qiladi. Mukofotlash yo **jazolashda** ularning bu xususiyatlarini ham hi-sobga olish kerak. Sham ila muz shishasi niholga oʻxshasa-da, muning – oʻt, oning suv erur xoʻshasi, yaʼni muz shishasi bilan sham oʻzaro oʻxshasa ham, ikkisining tabiati ikki xil.

*Kimniki aylay desang mahraming,
Koʻp sinamay, aylamagil hamdaming.*

Yaʼni birovni sinamay turib yaqin olma, unga **ishonma**.

Gʻafatda birovga baho berma, yaxshi koʻrin-sa, yaxshi dema. Aybini bilgach, soʻng pushay-

mon yeb yurma. Tushda hur bo'lib ko'ringan qiz uyg'qlikda shayton bo'lsa, ajab emas.

*Oz ish uchun tund itob aylama,
Qatl-u siyosatda shitob aylama.*

*Bok yo'q ar kechrak o'lur qatl ishi,
O'lsa, so'zing birla tirilmas kishi.*

*Suvda hubob o'lsa damingdin xarob,
Mumkin erurmu yasamog'lik hubob?*

Ya'ni o'lim jazosini berishda shoshilma, bunday hukmni kechroq chiqarsa, hech ziyoni yo'q, ammo o'lgandan keyin uni tiriltirib bo'lmaydi. Suvda hubobni yasagach, uchirib, yana yasab bo'ladimi? Yaxshisi siyosat chog'i, ya'ni hukm chiqarayotganda kechirish kerak, ammo bu o'rinda farosat bilan ish ko'rish kerak, albatta. Agar guvoh qilingan gunohni tasdiqlagan bo'lsa ham, shariatda yolg'on guvohlikning o'tgani vaqti kam bo'lganmi? Har kishining so'zi yolg'on bo'lsa, keyin har qancha rost gapirsa ham ishonma! Rost so'zlovchi odam qasddan yolg'on so'zlamaydi, ayni vaqtda yolg'onchi har qancha harakat qilsa ham, rost so'zlay olmaydi.

*Tutma tuzib kin-u adovat fani,
O'zga kishi jurmi bila o'zgani.*

Ya'ni birovning aybi uchun boshqa birovni ayblama. Qo'ychivon bo'lsang, har qo'yni o'z oyog'i bilan os. Xayolingga ne kelsa, savobga o'xshasa ham, maslahatsiz ish tutishga shoshilma.

O'z ixtiyoringga ko'p e'tiqod qilaverma, ishonchli kishilarning istagini ham hisobga olgin.

Shoh a'yonlarini ko'proq pisand etsa, a'yonlar ko'radiki, bu bilan el tiliga band soldi.

*Bo'lma malul o'lsa kengashda talosh,
Asru uzun dog'i kerakmas kengash.*

Ya'ni kengashda bahs ketsa, diqqat bo'lma, lekin kengash juda ham uzayib ketishi yaxshi emas.

Qiladigan (belgilagan) ishingni cho'zmay, vaqtidan bir nafas ham o'tkazmay boshla.

O'z ishingni har qancha istab turgan bo'lsang ham, Tangri ishi oldida undan voz kechib tur. Do'sting xato qilsa, u bilan yaxshilab kelishib ol, chunki faqat Tangrigina bexato.

Urush kuni dushman tomonga qarshi yurish boshlaganingda, tezda to'ra bilan yasolingni tuz (urush yarog'larini hozirla).

Urushda hujumga o'tib, bexato zarba ber. O'limdan qo'rqma, chunki taqdirsiz hech kim o'lmaydi.

Alam yetganda, ikki qadam chekinguncha harakat qilib, bir qadam ilgari qo'y.

Zafar Haq lutfidan bo'ladi, xatti-harakat, jasoratga ham ahamiyat ber.

Shunday yurish qilginki, sipoh cheksang, lashkar to'plasang, xalqning duosi senga panoh bo'lsin.

*G'olib esang razmda begonaga,
Qatliga sa'y etma bu shukronaga.*

Ya'ni urushda g'olib chiqsang, bu shukrona uchun mag'lublarni o'ldirishga qasd etma.

*Har neki bu nomada, mastur erur,
Barchaga shoh ishlari mastur erur.*

Har ishda otangga o'xshaydigan bo'lsang «Al valadu sirri abih» bo'lasen. Otangning har bir qadamiga qadam qo'ysang, shunda ranj-u qiyinchilik ko'rmagaysan.

*Zoda murid-u otani pir bil,
Har ishida hukmiga ta'sir bil.*

Ya'ni o'g'ilni murid-u, otani pir bil, har ishida aytgan hukmini bajarishni odat qil. Davlat va pirlilik istasang, bu pir oldida aybdor bo'lib qolma.

Xoja Abu Nasr haqida hikoya

Unga Porso laqab bo'lib kelgan, o'zi esa asr nodiri bo'lsa, uning o'g'li Xoja Abu Nasr edi. Otasi dunyoni sevmaslikda eng pokiza shohlardan bo'lsa, o'g'li xuddi shunday pokiza shahzoda edi.

Xoja Makka tomon yo'l olgach, Xoja Abu Nasr ham u bilan birga borishga jazm qildi. Ota soliki atvor – tasavvuf peshvolaridan shayxlik bilan shug'ullansa, o'g'li unga sirdoshlik qilardi. Ota sahroda qaysi tomonga qarab bir qadam tashlasa, o'g'il ham shunday bir qadam tashlab borardi.

Bir necha kun sahroda kezishgach, ko'zlagan maqsadlariga yetdilar. Xalq haj arkonlarini tamomlagach, yaxshi-yu yomon, murshid-u solik bir ulug' kishining xalq istaklarini ado etib, barcha xaloyiq nomidan duo qilishini istadilar. To'planganlarning barchasi Xojaga ko'z tikdilar. Bu ish Xoja zimmasiga yuklatilgach, Xoja Abu Nasrga ishora qilib aytdiki: «U menga ilmda teng, lekin bu xil baland ish unga loyiqdir. Yo'lda rahbari bo'lmagan har kishi adashishi mumkin.

Men hamrohsiz edim, Tangri menga uni yo'ldosh ayladi. U yo'l bo'yi meni parvarishlab keldi. Qiyin yo'llarimni osonlashtirib, bexatar ayladi. Men hayotimdan xavotir olsam, u men haqimda tashvish chekib, o'zida Haqni ham, meni ham fikrlar edi». Shunday dedi-da, u eliga ishorat qildi, uzr uchun yo'l qoldirmadi. Sham kabi ko'z yoshi to'kib, ichi kuygan chinordek bo'lib, rahmat-u afv istagini bayon qilib, Xoja o'rnidan turib omin qilib turardi. So'nggi duo bu bo'ldikim: «Yo Alloh, senga uyalganimdan panoh so'rab iltijo qilyapman, men tilak tilash ilmini bilmasam, mening ominimni zoye aylama. Bunda otamdek kishi zimmamga bu ishni yukladi».

*Yo rab, ul omin-u duo hurmati,
Yo ul o'g'ul birla ato hurmati.
Kim bu ato birla o'g'ulni mudom,
Davlat-u din taxtida tut mustadom.
O'zga o'g'illarni ham et muhtaram,
Unga o'g'ul, munga inilarni ham,
Jumlayi olamg'a alar ixtiyor.
Olam eli ichra shah-u shahriyor.
Shoh duosida tugandi kalom,
Emdi Navoiyg'a erur boda kom.*

Bir qul hikoyati

Xalqi yaxshiliklardan bahramand bo'lgan bir saxovatli podshoh bo'lib, uning bir xizmatchi quli bor edi. U ko'p yillardan beri podsho oshpazi bo'lib ishlardi. Bir kuni podsho shilon bazmi – umumiy ziyofat uyushtirganda shoh ishtahasi jo'sh urib turgan chog', baxtsizlik yuz berib, oshpaz shoh

uchun olib kelayotgan issiq oshni uning boshiga to'kib yubordi. Odamlar: «Podsho hozir uni o'linga buyuradi, chunki uning bu gunohiga shundayin jazo munosib», – dedilar.

Shoh xizmatkorga boqib, uni g'oyat g'amgin holda ko'rdi-da, unga lutf ko'rsatib – yaxshilik qilib ozod etib yubordi. Vazir dediki: «Sening marhamating cheksiz, xizmatkor o'z ishi uchun o'lingagina mahkum edi». Shoh xursandlik bilan tabassum qilib: «Birovni xijolat halok qilgan bo'lsa, uni yana bir o'ldirish yaxshi emas-ku! Shuning uchun uni yana bir jazolashga zarurat yo'q edi», – dedi.

Xalq vakillaridan biri gunohkorroq ekan, u avvalo afv-u mehribonlikka munosibroqdir.

Yo rab, uningdek karam etuvchi shoh huzurida boshqa yuz ming eshikda xizmatda bo'lishdan afzalroqdir. Mening gunohim har necha ko'p bo'lsa ham, shukrki, sendek ilohim bor. Xijolat ichida menga joy qolmadi, menga o'z ehsoningdan ehson qilishing mumkin. Lutf-u karaming qobili bo'lmasam ham, ulardan biryo'la noumid ham emasman. Men kim-u, yaxshilik dengizini bag'ishlashni havas qilsam? Menga baho qilingan bir qatraning o'zi yetarli.

*Shukrki, ehsoning bo'lib yovarim,
Topti nihoyat varaqin daftarim.*

*Hayrati abror ko'rib zotini,
«Hayrat ul-abror» dedim otini.*

*Kim o'qusa yo qilur ersa savod,
Ruhum agar qilsa duo birla shod...*



FARHOD VA SHIRIN



Chin mamlakati g'oyatda go'zal bo'lib, uni qudratli bir podshoh boshqarardi. Shohning osmondagi yulduzlardek behisob lashkari bo'lib, yuz mingta Qorun xazinasiga teng keladigan boylikka ega edi. Ko'pgina mamlakatlarning xonlari unga bo'ysunardilar. Shohning o'zi nihoyatda saxovatli, fuqarolariga g'amxo'r hukmdor edi. Uning farzandi yo'q bo'lib: «Men bu dunyodan ko'z yumsam, taxt-u tojim kimga qoladi?» – deb qayg'urardi. Bir o'g'il ko'rish orzusida yetimlarning boshini silardi, befarzand fuqarolarga ham mehribonlik ko'rsatardi. Nihoyat, orzulari ushalib, o'g'il ko'rish baxtiga muyassar bo'ldi. Xursandligidan ko'pdan ko'p javohir-u oltinlarni xalqqa ehson qildi, butun mamlakat bezatilib, bir necha kun bayram qilindi. Chin ahli uch yil davomida soliq to'lashdan ozod qilindi.

Shodligi ichiga sig'magan podsho farzandiga yaxshi bir ism qo'ymoqchi bo'ldi. Chaqaloqning yuzida «farri shohiy», ya'ni shohlik nuri porlab turardi. Bu nur soyasi ostida esa himmat, iqbol hamda davlat o'rin olgan edi. Shoh «far» so'ziga himmat, iqbol¹ va davlat so'zlarining bosh harflarini qo'shgan edi, Farhod ismi hosil bo'ldi. Bolani ana shu ism bilan atadilar-da, ipak matolarga o'rab beshikka beladilar. Lekin bu ismni otasigina qo'ygan emasdi. Chaqaloqning pokiza zotini ko'rgan ishq ham unga Farhod ismini qo'ygan va uni firoq, rashk, hajr, oh va dard so'zlarining bosh harflaridan tanlagan edi.²

¹ «Iqbol» so'zi arab yozuvida «o» harfi bilan boshlanadi.

² «Farhod» so'zi arabcha harf bilan yozilganida, qisqa «a» unlisi tushib qoladi.

Farhod o'z tengdoshlaridan boshqacharoq bo'lib, kechalari yaxshi uxlay olmasdi, doya unga ichirgan har qatra sut ma'no duri bo'lib singardi. Bir yoshga yetganida, u beshikni tark etib yura boshladi. Uch yoshida aniq, ravon so'zlaydigan bo'ldi. Lekin uning so'zlari asosan ishq afsonalaridan iborat edi. Uch yasharlik chog'idayoq o'zini o'n yoshli bolalardek tutar, bundan barcha hayron bo'lardi.

Otasi o'g'lining bu sifatlarini ko'rgach, unga ilm berish vaqti yetganini angladi. Bilimli, donishmand bir ustozni topib kelib, Farhodni o'qitishga kirishdi. Uch oy deganda bolaning savodi chiqdi. Shundan keyingi bir yil ichida, avvalo, Qur'onni yod oldi. Barcha o'qiganlari uning xotirasida qolar, bir varaqni ikkinchi bor ochmasdi. Muhabbat haqidagi asarlarni o'qiganida, qattiq ta'sirlanib, oshiq chekkan dard uning qalbiga alam-iztirob solardi. Bu kitoblardan ta'sirlangan Farhod biron kishining ko'zida yosh ko'rib qolsa, zor yig'lar, ustoz uning bu ishlaridan lol qolardi. Otasi bilan onasi uning bu holatini ko'rib, qanday chora topishni bilishmas, xalq ham shahzodaning ahvolidan xabar topib tashvishlanardi.

Shu tarzda uning yoshi o'nga yetdi. Jahonda u o'rganmagan, ma'nosini anglab o'zlashtirmagan biron ilm qolmadi. O'n yoshli Farhodda yigirma yashar yigit kuchi-qudrati bor edi. Endi u ilm olishni tugallab, harbiy hunarlarni kasb etishga kirishdi. Oz fursatda jangovar san'atlarni ham egallab, o'q otish, nayza sanchish, qilichbozlik, qalqon bilan jang qilish mahoratlarini egallab, el orasida tanildi.

Farhod ilm va harbiy sohada erishgan yutuqlariga qaramay, o'zini barchadan kamtar tutar, uning uchun podsholik bilan gadolikning farqi yo'q, hatto gadolikni podsholikdan yuqoriroq qo'yardi. Yigitchaning ko'ngli bilan ko'zigina emas, balki tili ham, so'zi ham, o'zi ham pok edi. Ana shu xislatlari uchun fuqarolar ham uni doim duo qilishar, u tomonga nogoh bir sovuq shamol essa, Chin mamlakatining barcha xalqi sovuq oh chekishardi. Nihoyat, Farhod o'n to'rt yoshga yetdi.

Shoh farzandi kamolini ko'rib, har kuni xursandchilik qilardi, ammo Farhod ishqiy dostonlarni o'qir ekan, oshiqlar chekkan dardlardan ko'ngli g'amga to'lar, ishqiy ashulalarni eshitsa, ikki ko'zidan yosh arimasdi.

Xoqon o'g'lining holini ko'rib, o'ylab o'yiga yetolmas, «Nega u hamisha g'amgin, nega doimo oh-u afg'on chekadi, ko'z yoshlariga sabab nima ekan?», – deb fikr qilar ekan, Xitoy mamlakatidagi bor go'zallar-u san'atkorlar, nayrangbozlar-u sehrgarlarni chaqirtirib, uni xursand qilishga intilar, ammo Farhod ularning ishlari sirini tezda anglab yetib, qiziqmay qolardi. Bularni kuzatib turgan otasi o'ylab-o'ylab, to'rtta ajoyib qasr qurishga ahd qildi, toki o'g'li har faslda bir qasrda yashab, aysh-ishrat bilan shug'ullansin.

Bahoriy qasr gulrang, yozgisi – yashil, kuzgi qasr za'faroniy, qishkisi esa oq, kofur rangida bo'lishi kerak edi. Xoqon ushbu qasrlar bitgach, ularni Chin mamlakatining eng go'zal qizlari bilan to'ldirishni, o'g'lining ana shu jannatmisol saroylarda lazzatlanishini orzu qilardi. Qurilishga taklif etiladigan hunarmand ustalar: sangtarosh-u

naqqoshlar qancha toshlarni yo'nib, hovuz-u gilamlar bilan bezatar, xilma-xil naqsh-u rasmlar chizar ekanlar, Farhod ham ularning hunarlari bilan qiziqib, har bir san'at bilan mashg'ul bo'lsa, qasr bitgach esa ulardan lazzatlansa, dilidagi g'am-u anduhlardan qutulsa, ayni muddao bo'lar-di, deb o'ylar ekan, xoqon dili yorishib ketdi-yu, ichi shodlikka to'ldi.

Uning Mulkoro degan bir dono vaziri bo'lib, xoqon har bir ishni u bilan maslahatlashib bajarardi. Mulkoro o'g'lining murabbiysi bo'lib, Farhod ham uni o'z otasidek ko'rardi. Shoh eldan yashirincha uni huzuriga chaqirtirdi-da, o'z fikrlari bilan tanishtirgach, shu ishlarni uning zimmasiga yukladi.

Mulkoro xoqon farmoyishini bajo qilish uchun ko'plab muhandislar-u me'morlarni chaqirtirib, mamlakatdagi eng ko'ngilochar viloyatlardan to'rt-ta mavze'ni tanladi. Har qaysi joy suvi va havosi bilan bir faslga mos bo'lib, shahzodaning orom olishi uchun maqbul edi. Shundan so'ng har bir qasrning rejasi chizildi, unda ekiladigan daraxtlarning ham o'rni belgilab qo'yilgan edi.

Xitoy mamlakatida egizak ikki usta bo'lib, birining laqabi Boniy, ikkinchisiniki esa Moniy edi. Boniy me'morlik bilan, Moniy esa naqqoshlik bilan shug'ullanardi. Boniy qurgan binolar g'oyat mustahkam bo'lar, Moniy chizgan rasmlar esa xuddi jonli siymolardek ko'rinardi.

Yana bir ustodning laqabi Qoran bo'lib, toshkesarlikda unga hech kim teng kelolmasdi. Mulkoro shularga o'xshash yana ko'plab ustalarni to'pladi-da, xoqon bu qasrlarni shahzoda Farhodning orom olishi uchun qurdirayotganini ta'kidlab,

har bir qasrning hajmi-yu rangi qanday bo'lishi lozimligini tushuntirdi. So'zi tugagach, son-sanoqsiz oltinlarni ularning oldiga to'kdi. Ustalar yenglarini shimarib ishga kirishdilar. Mulkoro ularni xursand qilgach, kerakli narsalarni to'plashga kirishdi. Bu ishga to'rt sarkorni tayin qilib, yuzta ishbilarmon ustaning har biriga mingtadan mardikorni biriktirib qo'ydi. Har bir tog' ustida yuz kishi tosh qo'porar, pastda esa mingta tosh pardozlovchi ish bilan band edi. Aravalarda qurilish joyiga tinmay oq-u qizil toshlar tashilar, hamma yoqda ish qaynardi.

Ishlar jadal borar ekan, osmono'par to'rt qasrning qad ko'tarayotgani haqida shahzodaga xabar yetkazib turardilar. Bajarilayotgan ulkan ishlarning haddan ziyoda ta'rifini eshitgan Farhod otiga mindi-da, qurilishlarni ko'rish uchun jo'nadi. U bilan yuzta kelishgan yigitlar birga borardilar. Qurilayotgan qasrlar oldiga yetib borgan shahzoda bir olam odamlarning jo'shqinlik bilan ishlayotganlari, to'rt ulkan bino osmonga tegay deb turganini, havozalarning bulutlarga qadar ko'tarilganini ko'rib hayratdan barmog'ini tishlab qoldi: Farhod ustalarning mahorat bilan tosh yo'nishlarini qiziqish bilan ko'zdan kechirar, o'tkir teshalari bilan qattiq toshlarni saryog'dek kesishayotganini ko'rib, ularga tahsin o'qirdi.

Qoran bajarayotgan ajoyib ishlarga ko'zi tushgan shahzoda uning san'atkorligini tomosha qilmoqchi bo'ldi. Otdan tushgach, uning o'tirishi uchun toshdan bir taxt tayyorlashdi. Farhod unga o'tirdi-da, ustozga murojaat qildi:

– Ey mohir va bilimdon ustoz! Yaratayotgan san'ating haqida bir oz so'zlab bergil, toki uning mohiyati va yashirin sirlari ayon bo'lsin. Ismingni

ayt hamda qanday qilib sening teshang toshlarni mumdek yengil yo'nayotganidan xabardor qilgil. Negaki, biz bunday ishni shu vaqtgacha ko'rmaganimiz uchun ushbu san'at oldida aqlimiz ojiz bo'lib turibdi. Axir, yog'och qattiqroq bo'lsa, unga pichoq ursang, o'tmaslashib arradek bo'lib qoladi-ku! Teshangga qanday tarzda suv bergansanki, toshni yo'nayotgan bo'lsa ham, zarar topmayapti. Sen toshga qayta-qayta urayotgan bo'lsang ham, o'tkirligini yo'qotmayotgan temir metining sirlarini ham aytib bergin!

Toshga naqsh chizuvchi usta yer o'pib, so'zini duo bilan boshladi: «Qof tog'i yaralibdiki, chaqmoqlar toshidan ozor chekadi. Falak toshlaridan boshing omon bo'lib, toshlaring dard-u g'am boshlarini maydalab tashlasin. Dushmanlaring nasibasi tosh bo'lsin-u, ular mashaqqat tog'ida ovora bo'lsin.

Otim Qoran, ishim ham ayon: qo'limda tesha-yu, oldimda toshlar. Metin bilan tesha nega doimo toshni yo'nsa ham, sinmayapti, deb so'rading. Buning siri shu asboblarga suv berishda, biz bu sirni elga oshkor qilavermaymiz. Usta o'z asbobiga shu tarzda suv bersa, yuz yil tosh yo'nsa ham ular zarar ko'rmaydi. Xitoy xalqi bu san'atni egallab, olam ahliga tanildi. Lekin hamma ustalar ham mening bilganlarimni bilmaydi, bu so'zga dalilim shuki, ular men qilgan ishlarni qilisholmaydi».

Donishmand usta so'zini tugatgach, shahzoda undan: «Oldimda o'z ishlaring bilan shug'ullangin, zero, bu san'at menga yoqib qoldi. Gohida tosh yo'ngil, goh toshga naqsh chizgin, men ishlaringni ko'rib o'tiray», – deb iltimos qildi. Usta shahzoda ko'nglini xursand etish uchun ishga kirishib, tosh

kesish va naqsh chizish bilan shug'ullandi. Uning ishlarini ko'rib turgan shahzoda tahsin aytishdan charchamasdi. Quyosh o'z nurlarini toshlar orasiga yashirgach, ya'ni oqshom tushgach, shahzoda tosh taxtidan turib, shahar tomon yo'l oldi.

Uyga qaytib kelgan shahzoda oromini yo'qotdi. Sangtarosh usta san'ati uning ko'ngliga bu hunarni o'rganish havasini solgan edi. Shuning uchun tong otishi bilanoq otiga mindi-yu, yana tomosha qilish uchun qurilish joyiga tomon shoshildi. Yetib borgach, xilma-xil hunarlar bilan shug'ullanayotgan ustalarning mahoratini kuzatarkan, har bir san'at siri bilan qiziqar, shirin so'zlar bilan ularning ko'nglini olardi. Bundan quvongan hunarmandlarning g'ayratiga g'ayrat qo'shilib, yanada yaxshiroq ishlashga harakat qilishardi.

Shahzoda Qoran sari yo'l olib, uning oldiga keldi-da, po'latdan tesha bilan metin yasashini iltimos qildi. Usta ishga kirishib, turli asboblari yasalar ekan, ularga suv berishi bilanoq tosh yo'nib ko'rardi. Farhod usta qilayotgan ishlarni kuzatarkan, suv berishning va tosh yo'nishning nozik sirlarini diqqat bilan o'rganardi. Shundan so'ng shahzodaning o'zi ham tosh kesish va yo'nish, toshga naqsh chizish bilan shug'ullanishga intilib, tez orada mohir usta darajasiga yetishdi. U ba'zan odamlardan andisha qilib, yashirincha qo'lga tesha olar va boshqalar bir oyda bajarishi mumkin bo'lgan ishni bir kunda qilib qo'yardi. Har kuni shu tarzda shug'ullanish tufayli uning hunari o'z kamoliga erishdi.

To'rt yildan so'ng to'rt hashamatli qasr qurib bitkazilgach, ularni bezashga kirishildi. Binolarning tashqi tomoniga chiroy berishda Qoran o'z san'atini namoyish qilgan bo'lsa, ich-

karida Moniy naqqoshlik qildi. Usta har bir uyga naqshlar va suratlar chizar ekan, uning yonida hozir turgan Farhod madadkorlik qilar, surat-larga rang berar, zarur bo'lganda tosh kesish va naqqoshlik ishlarini bajarardi. Ana shu ishlar davomida shahzoda mohir ustoz bo'lib yetishdi.

Buyuk qasrlar bitgach, ularning atrofida jan-natmisol bog'lar yaratildi. Har qaysi qasrga o'z rangiga mos chiroyli gilamlar solinib, shu rangda-gi buyumlar bilan jihozlandi. Ularning har birida xizmat qiluvchilar ham qasr rangiga mos kiyim-lar kiyib olishgan edi. Bahoriy qasrdagi hamma narsa: eshiklar-u derazalar, hatto, ostonalar ham gul rangida bo'lib, hovuz atrofiga la'l-u yoqutlar qadalgan, ichi esa gulrang may bilan limmo-lim to'ldirilgan bo'lib, ariqlarda ham shunday may oqib turar, chor atrofda rang-barang gullar ochilib yotar, har tarafda qimmatbaho gulrang kiyim-lardagi go'zal qizlar kezib yurishardi. Yozgi qasr va bog'da hamma narsa yashil rangga belangan bo'lsa, kuzgi saroy va guliston sarig', za'faron rangiga, qishki qasr oppoq rangga moslangan edi.

Mulkoro qasrlarning, bog'larning qurilishi tugallangani haqida xoqonga xabar yetkazgach, shoh uni tomosha qilish uchun otlandi. Uning chap yonida saroy a'yonlari, o'ng tomonida esa shahzoda Farhod borardi. Barchalari avval ba-horiy qasr bilan tanishib, undagi ajoyibotlar, bog'dagi yuz turlik go'zalliklardan bahra olishdi. Ikkinchi qasr yanada hayratomuz bo'lib, uchin-chisi undan ham go'zalroq, to'rtinchi qasrdagi chiroy oldingi uchala saroy va bog'lardan ham o'z nafosati bilan ajralib turardi. Bir-biridan latofatli ushbu qasrlar hammani lol qoldirdi.

Shoh ustalarga ularning o'zlari kutganlariga qaraganda yuz marta ko'proq in'omlar berdi, Mulkoroga alohida hurmat ko'rsatib, martabasini yanada yuqori ko'tardi, so'ng ana shu qasrlar-u bog'lar, go'zal qizlarning barchasini shahzodaga sovg'a qildi. Keyin Mulkoroga har qaysi qasrda uch oyga mo'ljallangan ziyofat uchun barcha kerakli narsalarni hozirlashni, yilning fasllariga ko'ra har qasrda uch oylik xursandchilik qilishga tayyorlik ko'rishni buyurdi. Donishmand vazir ishga kirishib tez orada bir yilga mo'ljallangan shodiyonalarga hozirlikni tugatdi. Har kuni yuzta ot va mingta qo'y so'yilishi mo'ljallandi, hisobsiz meva-yu shirinliklar, ichimliklar tayyorlab qo'yildi.

Go'zal bahor kelib, butun tabiat xilma-xil gullarning rangi-yu bo'yidan, bulbullar-u tong qushlarining huzurbaxsh kuylaridan latofat-u orom kasb etgan kunlarning birida shoh Farhod va o'z a'yonlari bilan gulgun qasr tomon yo'l oldi. Gul rangidagi qimmatbaho matolar bilan bezatilgan qasr ichida ajoyib bir taxt qurilgan edi, xoqon unga borib o'tirdi, yonidan Farhod joy oldi. Taxt oldidagi gulrang kursida Mulkoro orom topdi. Gul yuzli soqiy barchaga gulgun may tutar ekan, mug'anniylar bulbuldek kuylashardi. Farhodning ham gulrang may ichayotganini ko'rgan xoqon o'g'lining guldek yuziga boqib, behad shodlangani tufayli ko'zlaridan xursandlik yoshi arimasdi.

Shu tarzda uch oylik bahor fasli o'tdi-yu, yoz kelib xoqon, shahzoda va barcha a'yonlar yozgi qasrga yo'l olishdi. Hamma narsa yashillikka burkangan saroyda ham uch oy aysh-ishrat qilishdi. Hamma yoqni kahrabo rangiga bo'yagan kuz

fasli yetishgach, bazmlar kuzgi qasrga ko'chdi. Za'faroniy kiyimlar kiyib olgan shoh, shahzoda va barcha a'yonlar bu yerda ham uch oyni huzur qilib o'tkazishdi. Sovuq kunlar boshlanib, qish barcha olamni oq rang bilan bezagan ayyomda aysh-u ishrat to'rtinchi qasrda davom ettirildi.

To'rttala qasrda uyushtirilgan bazmlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad Farhodni xursand qilib, uning ko'ngliga o'rnashib olgan g'am-u qayg'ulardan qutultirish edi. Lekin shahzoda hanuz g'amginlik girdobida yashar, hamon biron kishining yig'isini ko'rsa, unga qo'shib yig'lar, el chekkan g'am-alam unga ham ozor yetkazardi. Xalq boshiga tushgan har qanday iztirob uning ko'nglini g'amnok qilar, yoqasi chok, ya'ni alam-qayg'uga muhtalo bo'lgan kishini ko'rganda, o'z yoqasini yirtib, unga hamdardlik bildirardi. Birov ishq haqida gap ochsa, uning hikoyasini qayta-qayta tinglar, oshiqlik belgilari-yu holatini anglab, yodida saqlar, oshiq visol haqida so'zlasa, sevinchlarga to'lar, hijron damlarini bayon qilsa, ikki ko'zidan tinmay yosh to'kardi. Bu holatlarni ko'rgan xoqon o'zining qilgan ishlari xato ekanini anglab, nima qilishini bilmay qoldi.

Xoqon shu xususda fikr yuritar ekan, nihoyat, yana bir ishni muvofiq deb bildi: o'zining qarib borayotgani, Farhod esa aqlli, mard va pahlavon yigit bo'lib, faqat Chin mamlakatida xoqonlik qilishgagina emas, balki butun olamga sulton bo'lishga ham loyiq ekanligi, shohlarga xos barcha fazilatlar unda jamuljamligi, bir necha hunarlarini bilishi, barcha ayblardan xoli ekanligi, yig'i va fig'on chekishdan o'zga biron kamchiligi yo'qligini

o'yladi-da: «Taxtimni unga bersam, davlatni boshqarish ishlari bilan mashg'ul bo'lib, o'z dard-u alamlarini unutadi», – degan qarorga keldi. So'ng davlat a'yonlarini yig'ib, yoniga Farhodni o'tqazdi-da, o'z maqsadini bayon qildi:

*...Qariliq dardi bedarmondur oxir,
Bu ish ko'nglimda ko'p armondur oxir.
Ki o'lmasdin burun ochib ko'zumni,
Sarir³ uzra yigit ko'rsam o'zumni.
Ki ya'ni toj-u taxt-u saltanat ham,
Sipoh-u mulk-u mol-u mamlakat ham,
Bori bo'lsa sening birla muzayyan,⁴
Seni o'z o'rnuma qilsam muayyan.
Sanga tutsam musallam podsholiq,
Xaloyiq ustida kishvarxudoliq.⁵
Manga shahlikda qulluq ham qil emdi,
Atoliq ham, o'g'ulluq ham qil emdi.*

Bu so'zlarni eshitib turgan shahzoda faryod urib o'zini yerga otdi-da, zor-zor yig'ladi. So'ng otasiga uzoq umr tilab, shohlik ishi og'irligini, bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olish uchun tayyor emasligini, shoh ruxsat bersa, bir-ikki yil xoqon yonida bo'lib, davlatni boshqarish sirlarini o'rganishi zarurligini, oldin kichikroq bir ishni boshqarib, keyin hukmdorlik bilan shug'ullanishga o'tsa, ma'qulroq bo'lishini odob bilan so'zladi.

Farhodning bu so'zlaridan shodlikka to'lgan xoqon o'g'lining boshidan zar-u javohirlar sochish maqsadida uning qo'llaridan tutib, har xil ajoyi-

³ Sarir – taxt.

⁴ Muzayyan – bezatilgan, ziynatlangan.

⁵ Kishvarxudoliq – hukmdorlik.

botlar bilan to'lib toshgan xazina ichiga olib kirdi. Xazina juda katta bo'lib, qirqta uyning har birida qirqtadan ulkan xum bor edi. Yana qirqta uy bir-biridan chiroyli matolar-u qimmatbaho buyumlar: xitoyi chinnilar-u ipaklarga chizilgan go'zal suratlar, kimxob to'nlar, behisob javohirlar-u qimmatbaho toshlar bilan lim to'la edi.

Shoh bilan shahzoda xazina boyliklarini tamo-sho qilishib qaytishmoqchi bo'lib turishganda, Farhodning ko'zi ajoyib bir sandiqqa tushdi. Toza billurdan yasalgan ushbu sandiq ichida nimadir ko'rinib turar, lekin qulflog'ligi tufayli u sandiqni ochib bo'lmasdi. Shahzoda sandiq ichidagi narsani ko'rmoqchi bo'ldi-da, kalitini topib ochishni buyurdi. Xoqon bundan ogoh bo'lib, bu sandiqni kaliti yo'qligi tufayli ochib bo'lmasligini aytdi-da, o'g'lini fikridan qaytarmoqchi bo'ldi. Sandiq ichidagi narsani ko'rishga g'oyatda qiziqib qolgan Farhod:

*Dedi: «Har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.
Ulum ichra manga to bo'ldi madxal,
Topilmas mushkile men qilmag'on hal.
Muning ham bilmaguncha asl-u budin,
Muayyan qilmog'uncha tor-u pudin,
Ne imkonkim, qaror o'lg'ay ko'ngulga,
Tasalli oshkor o'lg'ay ko'ngulga»*

– deb o'z so'zida turib oldi. Shoh qancha harakat qilsa, shahzoda shunchalik o'jarlik qilardi. Xoqon ilojsiz qolib, sandiqni ochish haqida buyruq berdi. Sandiq ichidan yaltiroq bir ko'zgu chiqdi, Sharq quyoshigagina emas, balki Iskandar oynasiga o'xshardi u. Ko'zguni bezagan usta orqasiga uni

ko'rish siri haqida shunday deb yozib qo'ygandi: «Bu ko'zgu jahonnamo bo'lib, Iskandari Rumiyning jahon ahliga qoldirib ketgan yodgorligidir. Har biri Aflotunga teng to'rt yuzta olim bir necha yil mehnat qilib bunday jahon hikmatini yasashgan. Unga tilsim yashirilgan bo'lib, ko'zguni ko'rmoqchi bo'lgan kimsa bu tilsimni yechib ko'zguni qo'liga olsa-yu, unga ko'z tashlasa, Tangri unga belgilab qo'yan taqdirdan ogoh bo'ladi. Lekin ko'zgudagi tilsim sirini ochish juda qiyin. Bunga erishmoqchi bo'lgan inson Yunon mamlakatiga borishi, o'sha manzilda uchta ofatni yengib o'tib, baland tog' oldiga yetib borishi kerak. Bu uch ofatning biri ajdaho, ikkinchisi Ahraman degan dev, uchinchisi oldingi ikkala ofatdan ham mushkilroq tilsimdir. Ana shu uch manzildan o'tib olgan kishi to'rtinchi manzil bo'lgan tog' ichiga kirib, g'orda maskan tutgan Suqrot degan donishmand olimni topishi kerak. U dono mo'ysafid agar tirik bo'lsa, borgan kishini murodiga yetkazadi. Agar u hayot bo'lmasa, uning ruhiga iltijo qilinsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi».

Bu yozuvni o'qigan shahzoda ko'zgu sirini ochishga qiziqib qoldi. O'z maqsadiga yetish yo'lida o'g'li chekayotgan iztiroblardan xabar topgan xoqon uni bu muddaosidan qaytarishga har qancha urinsa ham, Farhod o'z orzusidan voz kechmasdi. Ota ham, o'g'il ham qiyin bir ahvolda qolgan edilar.

Farhod ko'zguda o'z taqdirini ko'rish orzusida hatto es-hushini yo'qotish darajasiga yetib qolgandi. Oxiri Mulkoroni yashirincha chaqirtirib, o'z ko'nglidagi gaplarni unga oshkor qildi:

– Shoh ham, gado ham o'z taqdiridan qochib qutulolmaydi. Har kim peshonasiga yozilganni

koʻrmay iloji yoʻq. Mening ahvolim elni xavotirga solayotgan boʻlsa ham, taqdirimni bilish orzusi-dan kecha olmasman. Shuning uchun otamga ahvolimni tushuntirib, Yunon mamlakatiga borishimga ijozat olib bersang, menga oq yoʻl tilab, duo qilib tursa, maqsadimga yetishishim shubhasizdir. Otam ruxsat bermasa, boshimni olib, maqsadimni roʻyobga chiqarish uchun sa-farga yoʻl olishim tayin. Binobarin, otam mening joʻnashimga ruxsat bersa yaxshiroq boʻlardi.

Mulkoro shahzodaning ushbu soʻzlarini eshit-gach, qaygʻuga botdi. Nasihat qilay desa, Farhodga taʼsir qilmasligi aniq. Koʻzlaridan oqayotgan yoshni arta-arti xoqon huzuriga yoʻl oldi-da, hech kim yoʻqligida uning qoshiga kirib eshitganlarini soʻzlab berdi. Shoh bu mojarodan yoqasini yirtib, koʻksiga urardi. Ikkovlari rosa yigʻlashdi. Xoqon ahvolini koʻrgan Mulkoro asta nasihat qilishga tushdi-da, uni taqdirga rozi boʻlishga daʼvat etdi. Shoh oʻgʻli-ga yana nasihat qilib koʻrish, buning ham foydasi boʻlmasa, safarga rozi boʻlishni maqbul deb bil-di. Lekin shoh bilan Mulkoro qilgan nasihatlar shahzodaning orzusini yanada kuchaytirdi, xolos. Xoqon oʻgʻlini qamab qoʻymoqchi ham boʻldi, yana bu fikridan voz kechib, shahzoda koʻngliga ozor yetkazmaslik uchun Xito va Chin mamlakatlari-dan lashkar toʻplab, Yunonistonga yurish qilish, oʻsha yergacha unga hamrohlik qilib, oʻgʻlining ah-voidan xabardor boʻlib turishni maqbul deb bildi. «Yunon mulkiga yetib borguncha shahzoda balki oʻz orzusini unutar, buning iloji boʻlmasa, boshi-ga tushganni koʻradi-da», – deb oʻylagan xoqon Mulkoroni shahzoda huzuriga yoʻllab, oʻz qarorini unga aytishni buyurdi. Shahzoda otasining rozilik

berganidan xursand bo'lib, vazirga safar tayyorgarligini ko'rishni topshirdi. Har tomonga jar solinib, lashkar to'plashga kirishildi.

Tez orada mamlakatning har tarafidan behisob lashkar yig'ildi. Xoqon Yunon mulki sari yurishni boshladi. Shoh yo'l-yo'lakay bir necha o'lkalarni, dengizlarni egallab borarkan, u yerdagi aholi xoqonni ko'rishga turli-tuman sovg'alar bilan kelib turishar, hukmdor ham ularni mo'l-ko'l sovg'alar bilan siylardi. Shoh o'z huzuriga yig'ilgan olimlarga murojaat qilib: «Bu safarimizdan maqsad mamlakatlarni fath etish emas, balki Yunonistondagi mashhur tog'dagi g'orda yashayotgan Suqrot ismli donishmand bilan ko'rishishdir. U tog' qaysi tomondan ekanini, masofaning qanchaligini, qaysi yo'ldan borish lozimligini bilsangiz, aytinglar», – dedi. Olimlar yer o'pib, o'rinlaridan turdilar-da, shohga qarab: «Olampanoh o'zlari tilagan maqsadlariga yetsinlar. Mamlakatimizda yoshi besh yuzdan oshgan Suhaylo hakim degan keksa donishmand yashaydi, barchamiz uning shogirdimiz. Shoh so'ragan narsalardan bizlar ham xabardormiz, olampanoh nimaniki so'rasalar, javob bera olamiz. Lekin bu masalalar haqidagi puxta javobni uning o'zidan eshitganingiz ma'qul. Bu qiyin jumboqni uning o'zi hal qilib bera oladi. Agar u bilan ko'rishishni istasangiz, biz oldiga boshlab borishimiz mumkin», – dedilar. Shoh bilan shahzoda bu so'zlardan shodlikka to'lib Yunon olimlari bilan birgalikda donishmand Suhaylo huzuriga qarab yo'lga tushdilar. Ancha yo'l yurishgach, dasht o'rtasida bir tepalik ko'rindi. Suhaylo hakim shu yerdagi g'orda yashar ekan. Hammalari otlaridan tushib g'or tomon yurdi-

lar. Olimlardan biri g'or ichiga kirib, donishmandni shoh bilan shahzoda uning huzuriga qadam ranjida qilishganidan ogohlantirdi. Suhaylo bu so'zlarni eshitgach, ularning kirishlariga ishora qildi.

Shoh bilan shahzoda kirishgach, Suhaylo o'rnidan turib, ikkovi bilan kulib ko'rishdi, ular ham xursand bo'lib, donishmandning qo'lini o'pishdi. So'ng alloma ota bilan bolani o'tqazib, o'zi ham o'tirdi-da, ular bilan suhbatni boshladi. Yo'ldagi qiyinchiliklar haqida so'ragach, shuncha masofani bosib kelishdan maqsadlari nima ekanini bilmoqchi bo'ldi. Xoqon shahzodaning ko'zguni ko'rgandan keyingi holati haqida mufassal gapirib berdi. Bilimdon alloma ahvolni anglagach, shod bo'ldi-yu, ayni vaqtda unga g'amginlik ham yuzlandi. Quchoqlab shahzodani xursand qilgan Suhaylo: «Sening oting Farhod!» – dedi, bu ismning ma'nosini aytib bergach, bir necha savol bergan edi, Farhod bariga javob berdi. Donishmand uni peshonasidan o'pdi-da, sajda qilib: «Alhamdulillah, o'z murodimga erishdim. Necha yuz yildan beri shu g'or ichida yashadim, qancha-qancha ranj-u alamlar chekdim. Jomosb o'z kitobida: «Mendan so'ng ming yil o'tgach, Chin mamlakatidan Farhod ismli bir shahzoda kelib Iskandari Rumiylar tilsimini ochadi. Lekin u ikki manzilda qahramonlik ko'rsatishi, avval ajdarni o'ldirishi, so'ngra esa Ahramanni yengishi kerak. Mening so'nggi farzandim bo'ladigan Suhaylo duo bilan salomimni qabul etib, Farhod bu diyorga yetib kelganida, unga yordam ko'rsatsin. Farhod ajdarni o'ldirganida, katta boylikni qo'lga kiritadi, devni yengganida esa Sulaymon payg'ambarning uzu-

giga ega bo'radi. Tilsim ochgan kuni esa Jamshid jomini ko'radi. Bularni qo'lga kiritgach, barchasini xoqonga hadya qilsin. Unga esa dono Suqrot bilan ko'rishish hamda Iskandar oynasi yetarli. Suqrot bilan suhbatlashgach, darhol ko'zguni ko'rish uchun Chin tomon jo'nasin. Ko'zguda nimaniki ko'rsa, bu voqealar uning hayotida yuz beradi», – deb yozgan ekan. Men bu xabardan faxrga to'lib, necha yuz yildan beri senga muntazir edim. Sening boshingga tushadigan barcha mushkilotlarning chorasini topib qo'yganman», – dedi-da, Suhaylo g'or oldiga borib, bir idishni olib chiqdi va: «Bu idish samandar⁶ yog'i bilan to'la. Men uni ko'pgina otashgohlardan yig'ib to'plaganman. Ajdar bilan olishish chog'ida bu yog'dan badaningga va qo'llaringga surib olsang, u seni ajdar og'zidan otiladigan o'tdan himoya qiladi. Ahramanni o'ldirganingda, devning burniga osig'liq bir taxtachani ko'rasan. U tilsim ochishda senga yordam beradi, tilsim ichida esa Jamshid jomini topasan. Uning atrofiga yozilganlarni o'qisang, Suqrotni topish yo'lidan xabardor bo'lasan. Suqrotni ko'rgach, ko'zgu sirini bilasan-u, Vatanning sari yo'l olasan», – deb qo'lidagi idishni Farhodga topshirdi. U duch keladigan manzillar haqida yana maslahatlarni bergach: «Endi yo'lga tushgil, hamma mushkullaring hal bo'ladi, deb umid qilaman», – dedi-da, bu hayotdan ko'z yumdi. Donishmandni yuvib, o'sha g'orga dafn etdilar-da, barchalari yo'lga tushdilar. Anchagina yo'lni bosib o'tib, ajdaho manziliga yetib keldilar. U yerda dam olib, oqshom tushgach, aysh-u ishrat bilan mashg'ul bo'ldilar.

⁶O't, olov ichida yashaydigan afsonaviy bir jonivor.

Tong otgach, Farhod poklanib, Xudodan zafar tilab, otasining oyog'iga bosh qo'ydi-da, undan duo tiladi. Shoh va barcha ayonlar shahzodaga g'alaba tilab, duo qilishgach, barchalari ajdar makoniga qarab yo'l olishdi. Ajdar makoni uning nafasidan qorayib ketgan dasht bo'lib, unda badbo'y bir shamol esardi. Lashkarning ko'pchiligi bu shamoldan esi og'ib, otdan yiqildi.

Farhod ajdahoning qorong'i g'ori ko'ringach, u tomon yurdi. Odamlarning isini sezgan ajdaho haybat bilan chiqib keldi. Uning tanasi balo tog'idek, og'zi esa tog'ning g'oridek edi. Ikki ko'zi xuddi neft o'tiga mo'ri edi. Har qaysi panjasi beshta olmos o'roqqa o'xshardi. Og'zidan o'tlar sochib g'ordan chiqib kelgan ajdaho shahzodaga ko'zi tushgach, og'zini balo darvozasidek ochib, uning sari yurdi. Avval o't sochib, pishirib, oldin shahzodani, so'ng esa barcha lashkarni yutmoqchi bo'ldi.

Shahzoda esa aslo qo'rqmasdi, chunki u Suhaylo aytganidek, badan-u qo'llariga samandar yog'ini, ya'ni olovdan himoya qiluvchi dorini surtib olgandi. Ajdaho uni yutish uchun og'zini ochganida, Farhod Xudodan zafar tilib, qo'liga yoyini oldi-da, unga xanjardek o'qni joylab, raqibi og'ziga qarab otdi. O'q ajdar tanasini teshib o'tdi-yu, uni halok qildi. Farhod ajdaho g'ori ichiga kirdi. U yerda bir taxta osilgan bo'lib, unda: «Ajdahoni o'ldirgan bahodir, jasoratingga bu yerdagi xazinani mukofot deb bilgil. Doira shaklidagi bu g'or markazida ming botmondan og'irroq bo'lgan bir tosh bor. Qiliching uchi bilan uning atrofini ochib, o'rnidan qo'zg'atsang, Haq taolo qudratini tomosha qilasan», – deb yozib qo'yilgandi.

Shahzoda yozuvda tayinlangan ishlarni birin-ketin bajo qilib, Faridun⁷ to'plagan benihoya boyliklarga: oltin-u kumushlar, turli javohirlar to'ldirilgan bir necha ming xumga ega bo'ldi. Xazina to'rida bezakli bir taxt bo'lib, uning ustida ajoyib bir dudama tig'li qilich va uning yonida quyoshdek yumaloq shakldagi qalqon turar, unga: «Kimningki baxti yor bo'lib, ushbu qilich bilan qalqon uning qo'liga tushsa, birini beliga bog'lab, birini osib olsa, yuzta dev bilan jang qilsa ham, yengib chiqadi. Chunki Sulaymon payg'ambar qalqon qubbasiga «Ismi a'zam»⁸ni yozdirgan, buning xosiyati shuki, yuz mingta dev makr-hiyla qilmoqchi bo'lganida ham, bu ismlarni ko'rgach, yer bilan yakson bo'ladi. Qilichda ham bu ism yozilgan bo'lib, shu ism unga o'tkirlik bag'ishlagan. Bu qilich bilan jang qilgan insonga dushman tig'i ta'sir qilmaydi, raqib la'nati shaytonmi, Ahramanmi, kim bo'lsa ham ikkiga bo'lib tashlaydi», – deb yozib qo'yilgan ekan.

Farhod bu ikki sovg'ani topgach, yaratganga sajda qilib, shodligi ichiga sig'may ketdi. Shahzoda qilichni beliga bog'ladi, qalqonni bo'yniga osdi-da, lashkarlar turgan joy tomon yo'l oldi. Uni ko'rgan shoh bilan Mulkoro yig'lab ko'rishishdi, a'yonlar ham uni omon ko'rganlaridan shodlikka to'lib, duo qilishdi.

Quyosh ko'tarilgach, vodiy-u tog' yorishib, ajdaho g'ori, undagi ajdaho tanasi ham namoyon bo'ldi. Xoqon bilan Farhod, a'yonlar butun dasht ajdar qoni bilan bo'yalganini ko'rishdi. Shahzoda xazinadagi barcha boyliklarni otasiga sovg'a qil-

⁷ Faridun – qadimda o'tgan shoh.

⁸ Ismi a'zam – Alloh ismlari.

di, qilich bilan qalqon xosiyatlarini soʻzlab berdi, xoqon ularni xazinadan ham qimmatliroq deb bildi. Soʻng lashkarlarga dam olish uchun ruxsat berildi, xoqon hammani ziyofat qilishga buyurdi.

Ertasi kuni tong otishi bilanoq Farhod jang kiyimlarini kiyib, qilich bilan qalqonni osib, Ahraman dev makoniga qarab yoʻl oldi. Xoqon ham lashkarlari bilan uning izidan kelar ekan, qattiq xavotirda edi. Shahzoda qoʻshindan yarim yogʻochcha oldinda il-damlab borar ekan, roʻparasida bir oʻrmon koʻrindi. Bu – Ahramanning bogʻi boʻlib, behad katta edi. Yuz minglab keksa daraxtlarining boshi osmondan oshar, har bir bargi vasvasa koʻzgusi boʻlib, aqldan ozdirar, oʻrmon ichi turli koʻrinishdagi devlar bilan toʻla boʻlib, soylari shaytonlar ovozidek hayqirar, ariqlar ichidagi har qaysi tosh kesilgan boshni es-latar, shamoli devlar naʼrasiga oʻxshar, chinorlari qoʻllarini har tomonga tebratib, «Orqangga qayt!» deyayotgandek boʻlardi.

Farhod Haq taologa tavakkal qilib, ushbu oʻrmon sari ot surdi. Koʻp oʻtmay, bir ulkan qasr koʻrindi. U yerda dev istiqomat qilardi. Ot tuyoqlari ovozini sezgan Ahraman boshini chiqarib uzoqda bir otliq yigit beparvo holda uning qas-riga qarab kelayotganini koʻrdi. Chavandozning koʻrinishidan devlarni ham halok qiladigan qudratga ega ekanligi sezilib turardi. Shunda Ahraman momaqaldiraqdek qah-qaha urdi-da, qoʻliga minordek katta bir ustunni koʻtarib, qas-rdan chiqib keldi va Farhodga qarab: «Ey gʻaflat bosgan odamzod, farishta oʻtsa, jonidan ayril-adigan, burgut uchib oʻtsa, qanoti kuyadigan bu vahimali oʻrmonga kirib kelishingdan maqsading

nima, nahotki, o'lmoqni istab qolgan bo'lsang!» – deya hayqirdi-da, Farhod boshiga gurzisi bilan hamla qildi. Shahzoda uning gurzisini qilichi bilan ikkiga bo'lib tashladi. Dev qasriga qaytib kirib, oldingisidan ham kattaroq gurzini ko'tarib chiqib, Farhodga yana hujum qilgan edi, shahzoda uning bu qurolini ham kesib tashladi. Bu holat bir necha bor takrorlangach, Ahraman g'azablanib tog' tomon yo'l oldi-da, ulkan toshlarni raqibi tomon otishga tushdi. Shahzoda qalqon bilan o'zini himoya qildi, shunda ismi a'zamga ko'zi tushgan devning darmoni ketib, yerga quladi. Farhod bu holatni ko'rib, Ahraman ustiga yetib bordi-da, qilich bilan uni halok qildi.

Shahzoda devning hashamatli qasri ichiga kirib qarasa, hamma tomonda qator-qator eshiklar bo'lib, barchasi qulflog'lik ekan. Ularning tepasiga uy ichida qanday boylik borligi yozib qo'yilibdi. Bu yozuvlarni birma-bir o'qib borayotgan Farhod oltin-u javohirlar bilan bezatilgan, atrofiga turli yozuvlar bitilgan ajoyib eshikka duch keldi. U yozuvlarda eshikning qulfi osonlikcha ochilmasligi, yaxshisi, bunday orzudan voz kechish kerakligi aytilgan ekan. Bu sirni aniqlashga qiziqqan Farhod eshikni sindirib, ichkariga kirdi. Xonaga ko'z yugurtirib, osib qo'yilgan bir yoqut qandilni ko'rdi. U nur sohib, xonani yoritib turardi. Qandilni tushirib ochgan edi, unda Sulaymon uzugi turganini ko'rdi. Qandilga: «Bu uzuk kimga muyassar bo'lsa, unga yozilgan ismni o'qib, Iskandari Rumiyl tilsimini ochadi va bu ish qiyinchiliklarini yengib o'tish yo'llarini bilib oladi», – deb yozilgan ekan. Farhod uzukni o'pib, sajda qildi-da, xudoga shukronalar aytib, otiga

mindini va o'rmondan chiqib, lashkar turgan joyga yo'l oldi. Barcha sipohlar Ahraman xafvidan qo'rqib turishgan ekan, shahzodani ko'rib o'zlariga keldilar. Xoqon Farhodni shod ko'rib xursand bo'lib ketdi. Shahzoda lashkarni boshlab o'rmonga olib kirdi. Ularni qasr eshigi oldida otlaridan tushirib, xoqon va Mulkoro bilan qasr ichiga kirdi. Xazinani ikkovlariga taqdim etdi va uzuk haqidagi gaplarni ularga so'zlab berdi. Ikkovlarining ko'ngillari shodlikka to'lib, kechagidek aysh-ishrat boshlanib ketdi.

Quyosh ko'tarilib, olam munavvar bo'lgach, Farhod harbiy anjomlarini rostlab, otasining duosini oldi-da, Iskandar tilsimini ochish yo'lidagi keyingi ishni bajarishga kirishdi. Otiga minib yo'lda borar ekan, bir go'zal maysazor namoyon bo'ldi. U yerda hayot chashmasidek ajoyib bir buloqdan zilol suvlar otilib turardi. Qirg'og'idagi yamyashil daraxt ko'kka bo'y cho'zib turar, buloq bilan daraxt hayot suvi-yu, Xizr payg'ambarga o'xshardi. Bularni ko'rib ko'ngli yayrab ketgan shahzoda otini daraxtga bog'ladi-da, chashmaga tushib cho'mildi, keyin murodiga yetkazishni tilab, sajda bosh qo'ydi. Ibodatini tugatib, boshini ko'targan ediki, ro'parasida yashil kiyingan nuroniy bir mo'ysafidga ko'zi tushdi. Farhod hayron bo'lib turganiga e'tibor bergan otaxon so'z boshladi: «Ey farzand, murod-maqsadlaringga yetib, baxtiyor bo'lgil. Men – Xizrman, senga madad ko'rsatish uchun keldim bu yerga. Iskandar bilan obi hayot – hayot suvini topish uchun zulmatga kirganimizda, men o'sha suvdan ichib, abadiy hayotga erishdim-u, Iskandarga nasib bo'lmadi, u tashnaligicha qaytib ketdi, keyinchalik munajjimlikka

qiziqib, yulduzlarni o'rgandi, tilsimlar yaratdi. U bog'lagan tilsimlarni men ochishga o'rgandim. Ushbu vodiya ham tilsim mavjud bo'lib, uni ochishda senga yordam bermoqchiman. Tilsimni ochish uchun hozirdan boshlab har bir qadamingni sanab bosishing kerak. Sening yo'lingda bahaybat bir tilsim uchraydi, uning devorlari osmonga tutashib ketgan. O'sha joydan o'n ikki ming qadam yurasan. Yo'ning ikki chekkasida keskir qilichga o'xshash toshlar o'rnatilgan bo'lib, yo'ldan salgina chiqqan odamning oyog'ini kesib yuboradi-da, u o'zini yana ushbu chashma oldida ko'radi.

Yana o'n bir ming qadam bossang, yo'lda bir darband (darvoza) ko'rinadi, oldida bir sher temir zanjir bilan bog'lab qo'yilgan. Uning oldidan o'tgach, qo'rg'ongacha yana ming qadam yo'l qoladi. To'qqiz yuz qadam bosganingda, bir tosh taxtaga ko'zing tushadi. Uning ustiga chiqib tepsang, qal'a darvozasi ochiladi-da, ichida temirdan odamga o'xshatib ishlangan bir jism ko'rinadi. U qo'lga temir yoy ushlab turgan bo'ladi. Yoyga o'tkir bir o'q qadalgan. Ushbu jism boshdan oyoq temir sovutda bo'lib, ko'ksiga bir oyna qadalgan, u quyoshdek yarqirab turadi. Odam yuz qadam yerdan unga o'q otib, oynani teshib yuborsa, haykal ham, devor ustida turgan yuzta shunday jism ham qulab, yerga yiqiladi. Shunda tilsim ham ochilib, ichkariga qo'rqmay kirish mumkin bo'ladi. Lekin o'q xato ketib, haykal ko'ksidagi oynani sindirolmasa, u bilan devor ustida turgan yuzta haykallar otgan o'qlar o'sha odamga tegib, iltimos qilish qilib yuboradi. Mening so'zlarimni uqib olgan bo'lsang, ularni esingdan chiqarma, qadamingni sanab bos, ismi a'zamni tilingdan qo'yma. Sher

og'zini ochganida, uzukni uning og'ziga ot, uni daf qilgach, yana uzukni olib, men aytgan toshgacha yurib borgin-da, tosh ustiga chiqib, uni tepib, darvozani ochgach, darhol qo'lingga o'q-yoyni ol, ismi a'zamni aytib turib haykalga o'q ot». Bu so'zlarni tugatgach, Xizr: «Endi hech qo'rqmay, yo'lga tush», – dedi. Farhod uning oyog'ini o'pib, mo'ysafid aytgan ishlarni bajarishga jo'nadi. Sher og'ziga uzukni otib, nobud qildi, yana uzukni olib, sanab qadam tashlab, Xizr aytgan tosh ustiga chiqib, qattiq tepgan edi, qal'a ichidan qattiq sado – kuchli ovoz eshitildi-yu, darvoza ochilgach, ovoz yo'q bo'ldi. Ichkaridan temir sovut kiygan jism chiqib keldi, shu payt devor ustida unga o'xshagan yana yuzta shunday haykal paydo bo'ldi. Barchasi o'z yoylaridagi o'qlarni Farhodga otish uchun tayyorlanib turardi. Shahzoda ehtiyotkorlik bilan o'q va yoyni qo'liga oldi-da, darvoza oldidagi haykal ko'ksida turgan oynaga qarab otdi. Temir haykal, u bilan birga devor ustidagi yuzta o'qchi ham yerga yiqildi. Farhod yaratganga shukrona aytib, darvoza tomon yurdi. Qal'a ichiga kirganda, hamma tomonda hadsiz-hisobsiz boyliklarga ko'zi tushdi. Iskandar yetti iqlimni egallaganda topgan davlatining barini shu yerga to'plagan ekan.

Qal'a markazida bir imorat bo'lib, undan nur taralib turardi. Farhod uning ichiga kirib, butun jahonni ko'rsatadigan yaltiroq bir jomni ko'rdi. Bundan shodligi ichiga sig'magan shahzoda o'z safdoshlari tomon jo'nadi, chashma oldiga yetib kelib, otiga mindi-da, xoqon huzuriga qarab yo'l oldi, otasi bilan lashkar ahlini qayg'u-g'amdan ozod qilib, ko'ngillariga shodlik bag'ishladi. Barchalarini chashma oldiga boshlab kelib, askarlar-

ni otlardan tushirdi-da, xoqon va Mulkoro bilan birga qal'a tomon yurishdi. Farhod u yerdagi barcha boyliklarni, jumladan, Jamshid jomini ham xoqonga tuhfa qildi. Oqshom tushgach, yana aysh-u ishrat boshlandi.

Ertasi kuni tong otgach, Farhod Suqrot g'ori bo'lgan tog' tomon shoshildi. Xoqon va lashkarining bir qismi uning izidan yo'lga tushdilar. Ancha masofa bosib o'tilgach, bahaybat tog' oldiga yetib keldilar. Uning bag'ridan yuz mingta tiniq chashma otilib turar, necha ming xil giyoh behisob kasalliklarga davo edi. Tog' bag'ridan juda ko'p g'orlar joy olgandi. Xoqon bilan lashkar bu manzaradan lol qolib turisharkan, Farhod: «Jomi Jamni keltiringlar, ko'nglimizdagi tashvishdan u xalos qilsa kerak», – deb buyurdi. Tezda jomni olib kelishdi. Unga boqib, barcha jahon yaqqol ko'zga tashlanib turganini, yetti iqlimning barchasi unda namoyon ekanligini ko'rishdi. Jomda Yunon mamlakati ko'rinib turardi. Keyin unda g'or ichi aks etib, Suqrot yashab turgan manzil ko'zga tashlandi.

Shundan so'ng qidirib g'or og'zini topishdi-da, avval jahonnamo jomni unga olib kirishdi. Jom mash'aldek nur sochib, qorong'i g'or ichini kunduzdek yoritdi. U yerdagi yo'lni aniqlab, Suqrot makonini izlay boshladilar. Nihoyat, yo'l tugab, g'orning kengroq bir yerida hamma otdan tushdi. O'sha joyda toshdan yasalgan bir pillapoya ko'rinib turardi. Shoh, vazir va Farhod besh-olti poya ko'tarilishgan edi, bir ayvon namoyon bo'ldi. Shoh, Mulkoro va shahzoda o'sha tomonga qarab yurishganda, uy to'ridan ularni ichkariga da'vat qilgan ovoz eshitildi.

Uchovlari kirgan uyda bir parcha nur porlab turar, nuroniy bir mo'ysafid o'tirardi. Bu zotni ko'rgan shoh bilan shahzoda ta'zim qilib, oldida yer o'pdilar. Mo'ysafid ulardan: «Yo'l azobidan charchamadinglarmi, yo'ldagi balolardan qiynalmadingizlarmi?» – deb so'radi. Uchovlari boshlarini quyi solganlaricha lol bo'lib jim turishardi. Shunda Suqrot xoqonga qarab: «Sen ko'p azob chekding, buning evazini Tangri bergusidir. Biz tomon kelishda alam tortib, behisob boyliklarni, Sulaymon uzugi-yu, Jamshid jomini qo'lga kiritding. Biz ham senga ikkita hadya beramiz. Bulardan biri yaxshi xabar, ikkinchisi bir javhardir. Xabar shuki, umring uzun bo'ladi, ko'p mamlakatlarni qo'lga kiritasan. Ikkinchisi bir muhra – munchoqdirki, ko'p yashash davrida biron kasallikka yoki qarilik zaifliklariga duch kelsang, muhrani og'zingga olib suvini yutasan-da, darddan xalos bo'lasan, zaiflik quvvat bilan almashadi, qarilikdan qutulib, yashargandek bo'lasan».

Suqrot Mulkoroga boqib, shunday bashoratni aytdi: «Sen ham ko'p azoblar tortib bu tomonlarga kelibsan, shoh qancha vaqt taxtda o'tirsa, o'shan-cha vaqt uning vaziri bo'lgaysan. Har qachon senga biron dard yo'liqsa, shoh haligi muhrani berib, dardlaringga shifo bag'lashlaydi. Lekin ikki narsadan: shamol bilan suvdan ehtiyot bo'lsang, ulardan senga biron kasallik yetganda Xudo senga madadkor bo'lsa, yana besh yuz yil yashaysan». Shoh bilan Mulkoroga bu so'zlarni aytgach, uzr so'rab ularni uydan chiqarib yubordi-da, Farhodga yaqinroq kelishini buyurdi, uning yuziga sinchkovlik bilan tikilib, ba'zi narsalar haqida so'radi, so'ngra shahzodaga qarab: «Huzurimizga

xush kelibsan, qorong'i uyimni ravshan qilding. Men bu tog' ichida seni ming yildan beri kutib, qadamingga intizor edim. Alhamdulillah, yuzingni ko'rdim. Vaqtimiz oz, chunki abadiylik ko'chasiga yo'l olishim kerak. Bilginki, jahon azaldan vaqtinchalik, foniydur. Hayotdan maqsad esa ikkitadir, biri o'zlikdan qutulish, ikkinchisi esa Alloh visoliga yetishishdir. Xudoni topish uchun esa o'zlikdan voz kechish zarur. Buning eng yaxshi chorasi esa majoziy ishqdir. Ana shunday ishq sening oldingda turibdi. Unga erishsang, haqiqiy ishqqa ham yetishasan. Otangga o'xshagan yuz ming xoqon-u podsho unutilib ketadi, lekin sening yaxshi noming ishq olamida mangu qoladi», – dedi-da, unga turli balolardan asraydigan bir duoni o'rgatdi.

«Seni bu tomonlarga kelishing uchun sabab bo'lgan ko'zgu masalasiga kelsak, – dedi Suqrot, – Iskandar tilsimini ochib, temir haykal ko'ksidagi oynani sindirgan chog'ingda o'sha ko'zguning tilsimi ham ochilgan edi.

Bu yerdan jo'nab, Chin mamlakatiga yetib borganingdan keyin ko'zguni ko'rishni istaysan, albatta. Shunda orqasiga yozilgan gaplar uning yuzida namoyon bo'ladi. Uni ko'rar ekansan, ishq ko'nglingdan o'rin olib, oshiqlik davring boshlanadi. Keyin ko'zguga har qancha qarasang ham, unda aks etgan narsalarni qayta ko'rolmaysan. Ishq o'tidan ko'ngling o'ti osmongacha yetadi, lekin hech kim senga yordam berolmaydi, ammo oxiri o'z murodingga yetasan, shunda meni ham yod etishni unutmaysan, deb umid qilaman».

Suqrot shu so'zlarni aytib tugallagach, hayotdan ko'z yumdi. Farhodning dili qayg'u-iztirobga

to'lib, xoqon bilan Mulkoroni chaqirdi. Ular ham alam chekishib, donishmand aytgan gaplardan xabardor bo'ldilar. Bir necha dono kishini chaqirib, Suqrotni dafn etdilar. Ertasiga ertalab barchalari Chin sari yo'lga tushdilar.

Xoqon, Farhod, Mulkoro va lashkarlar kechani kecha, kunduzni kunduz demay, to'xtovsiz yo'l bosib, nihoyat Chin diyoriga qadam qo'yishdi. Xoqon o'z taxtini egalladi, Farhod esa oromini yo'qotib, xazina kalitlarini oldi-da, eshiklar ochilishi bilanoq beqaror bo'lib, sirli ko'zgu sari yugurdi. Billur sandiqni kalit bilan ochdirdi-yu, ichidagi ko'zguni qo'lga olib, unga nazar tashladi. Ko'zguda ajib bir dasht namoyon bo'ldi. Xilma-xil gul-u lolalarga, sunbul-u binafshalarga, ko'm-ko'k maysazorlarga to'la bu dasht oxirida bir tog' osmonga bo'y cho'zib turar, uning ichida son-sanoqsiz odamlar ariq qazish bilan ovora edi. U odamlar orasida Farhodning o'ziga o'xshagan bir yigit ham tog'ni kesish bilan band edi. Bir payt tog' ichiga bir-biridan go'zal bir to'da go'zal qizlar kirib kelishdi. Ularga gul yuzli bir qiz rahbarlik qilardi. Boshqa qizlar oy bo'lsalar, bu ular ichidagi quyoshga o'xshardi. Ot ustidagi bu sohibjamol qiz Farhodga o'xshagan yigit oldiga qarab yurdi. Shahzoda timsoli qizning yuziga boqdi-yu, yaralangan ohu kabi nola qilib, yerga yiqildi. Bu holatni tomosha qilayotgan Farhod ko'zguni yaqinroq keltirib, unda ko'ringan qiz jamoliga diqqat bilan boqdi-yu, o'z timsoliga o'xshab hushidan ketib yiqildi. Shahzodaning ahvolini ko'rgan xizmatkorlar darhol xoqonga xabar yetkazishdi. U esa yoqasini yirtib, faryod urib xazinaga qarab yugurdi.

Onasi o'g'lini o'lib qolgan deb o'ylab, sochlarini yoyib yig'lashga tushdi. Mulkoro bilan uning o'g'li, shahzodaning yaqin do'sti Bahrom Farhodning holiga boqib, ko'ksilarini pora qilishdi. U esa o'chgan sham kabi hushsiz yotardi. Bir kecha-kunduz o'tgach, bog'dan esayotgan tong shamoli isidan o'ziga kelib, boshi ustida yig'lab turgan otasi bilan onasi, Mulkoro bilan Bahromlarga ko'zi tushdi. Bundan uyalib ketgan shahzodaning yana hushidan ketib yiqilishiga oz qoldi. Ko'pdan ko'p uzr so'rab, o'rnidan turdi-da, ularning oyoqlariga yuzini surtib, yer o'pdi va:

*Dedi: «Bilmon, ne holat dast bermish,
Ki sizga mujib ushbu motam ermish.
Bu ish gar xo'b, agar zisht erdi bori,
Manga, billah yo'q erdi ixtiyori.
Tutung ma'zurkim, rasvo bo'lubmen,
Demay rasvo bo'lubmenkim, o'lubmen.
Bo'ling xush botin-u zohirda mendin,
G'ubore asramang xotirda mendin».*

Farhod xijolat chekib, bu so'zlarni aytayotgan bo'lsa ham, uning joni bilan ko'ngli ko'zguda edi. Barchalari uylariga tarqalgach, Farhod yana ko'zgu yuziga boqdi. Lekin endi hech narsa ko'rinmasdi. Chunki ko'zguni yasagan olim undagi manzara faqat bir marta ko'rinadigan qilgan edi. Bu holatdan mahzun bo'lgan shahzoda: «Boshimga og'ir tashvish tushdi. Lekin o'zimni pora-pora qilib tashlasam ham, maqsadimga yetolmayman. Shunday ekan, aql bilan ish ko'rishim va otamni xursand qilishim zarur. Agar betoqatlik qilib bi-ror tomonga boshimni olib ketsam, xoqon o'sha

zahotiyoq meni izlab topish uchun yuz mingta lashkarini jo'natadi. Ular butun Chin mamlakatini qidirib, ikki-uch kun o'tmay meni topishadi. Sipohlar bilan jang qilsam, ko'p begunoh odamlar halok bo'lishi aniq. Axir Chin xalqi menga qanday yomonlik qilibdiki, men shunday yo'l tutsam?! U holda qaysi ko'z bilan shoh ko'ziga boqaman-u, el yuziga qarayman? G'am-alamimdan xabar topgan xoqon meni asrash uchun atrofimga soqchilar qo'ysa, ahvolim yanada og'irlashadi. Es-hushini yo'qotib devona bo'libdi deb, oyog'imga band solib, uzoq bir joyga jo'natsa, holim ne kechadi? Shuning uchun o'zimni ehtiyotlab, aqlni yuritib ish qilganim ma'qul», – degan qarorga keldi. Ammo kunlar o'tar ekan, quvvati ketib, jismi turli kasalliklarga chalina boshladi. Ta'bida jinnilik alomatlari paydo bo'lib, savdoyilarcha so'zlar ayta boshladi. Ko'nglida sabr-u qaror tugab, qilayotgan ishlarini bilmaydigan bo'lib qoldi. Bu ahvolni ko'rib turgan shoh bilan vazirning dard-u alami kundan kunga ortib borardi. Ularning shahzodaga qilayotgan pand-u nasihatleri foyda bermas, qanday chora topishni bilmay iztirob chekishardi. Farhodning holati borgan sari og'irlashayotganini ko'rgan shoh tabiblarni to'plab, ular bilan maslahatlashdi. Ancha tortishuvlardan keyin tabiblar bir fikrga kelishib, shohga shunday dedilar:

– Olampanoh, shahzodaning mijozida issiqlik ko'proq edi, shuning uchun mayni ham yoqtirardi. Ikki-uch yoshidan o'n bir-o'n ikki yoshiga qadar o'qish bilan band bo'ldi, ikki-uch yil kasblar bilan shug'ullandi, buning ustiga uzoq yo'lni bosib o'tdi. Tilsim ochishni orzu qilib ajdar-u dev bilan olishdi. Shularning barchasi sabab bo'lib, mijoz-

ini issiq va quruq qilib qoʻygan. Hozirgi kunlarda havo nihoyatda isib ketdi. Hatto, buloqlar qaynab ketyapti. Bunday ayyomda faqat salqin havoli joylarda nafas olish shahzodaga davo boʻlishi mumkin. Dengiz bilan borilsa, besh kunlik yoʻlda bir ajoyib orol bor. Unda baland bir togʻ mavjud, uning ustida esa yetti-sakkizta buloqdan muzdek suvlar otilib turadi. Orol atrofidagi dengizdan yoqimli shamol essa, togʻ choʻqqisidan sovuqlik ufurib turadi. Hattoki, sovuqdan chashmalar muzlaydi. Shahzoda ana shu yerga borsa, koʻngli ochilib, muborak jismi quvvat topadi.

Tabiblarning bu soʻzlari shohga maʼqul boʻldi, darhol Mulkoroga dengiz safari uchun hozirlik koʻrishni buyurdi. Vazir tez orada barcha tayyorgarliklarni nihoyasiga yetkazgach, shoh Farhodni ogohlantirish uchun odam yubordi.

Boʻlib oʻtgan gaplardan, dengiz safari boshlanayotganidan xabar topgan shahzodaning koʻngli shod boʻlib: «Shoh oldida mening ushbu soʻzlarimni ayting. Shohning istagi mening istagimdir. U qayoqqa borishni istasa, men u bilan doim birgaman», – deb buyurdi. Bu soʻzlarni xoqonga yetkazganlarida, uning koʻzi yoshga toʻlib, duoga qoʻl ochdi. Soʻng kemalarga barcha kerakli narsalarni ortishga farmon berib: «Men ham ertaga dengiz safariga chiqaman», – dedi. Bu xabarni eshitgan shahzoda benihoya shod boʻldi. Uning maqsadi ham xuddi shunday edi.

Ertalab shoh bilan shahzoda otlariga minib, dengiz sohiliga yetib kelishdi. U yerda yogʻochdan yasalgan bir shahar koʻrindi. Behisob kemalar safarga tayyor boʻlib turardi. Ularning baland

yelkanlari ko'zni qamashtirardi. Har qaysi ke-
maning ichi bir uydek kelardi. Katta kemalarning
soni ikki yuzta bo'lib, uch yuz-u ellik kemacha
ham falak dengizidagi yangi oy-hilollardek ko'zga
tashlanardi. Yana ko'plab tez suzuvchi qayiqlar
ham bo'lib, kemalarning umumiy soni bir ming
besh yuztaga yetardi.

Xoqon bilan Farhod o'zlariga mo'ljallangan kemaga chiqishdi-da, u yerda qurib qo'yilgan shohona taxtlarga o'tirishdi. Necha ming mohir kemachilar ishga kirishib dengiz tomon yo'lga tushishdi. Orzulari bo'lgan orolga qarab ikki kecha-kunduz suzishdi. Shamoldan dengiz mavjlanganda, yuz turli baliqlarga ko'zlari tushdi. Suv ustida har biri tog'dek keladigan ulkan baliqlar uyoqdan buyoqqa suzib yurishar, orqalari umr daraxtini kesish uchun yaratilgan arraga o'xshardi. Nahanglar kichik baliqlarni ov qilishar, bir-biri bilan urishib ketsa, ikki tog' to'qnashgandek ko'rinardi. Xilma-xil jonivorlar behisob edi. Shoh bilan shahzoda har tarafga boqishib, bu ajoyibotlarni to'ymay tomosha qilishardi.

To'satdan dengiz ustida kuchli shamol esa boshladi-da, kemadagi kishilarning yuraklariga qo'rquv soldi. Qari dengizchilar: «Bunday shamol har yuz yilda bir marta yuz berardi, u yaxshilik keltirmaydi», – deb vahima qilib, yoqalarini yirtishardi. Shamol yanada kuchaymasdan turib shoh bilan shahzoda omon qolishlari uchun kema oldiga tez suzadigan bir qayiqni keltirishdi, Farhod unga tushib olgan ham ediki, katta bir to'lqin kelib urilgach, kema bilan qayiqni bir-biridan ajratib tashladi. Ota kemada oh chekkancha

qolib, o'g'il tushgan qayiq dengiz to'liqlari uzra suzib borardi. Ikkovlarining oralariga ko'rishish nasib etmaydigan ayriliq tushdi.

Shundan so'ng to'fon yanada kuchayib, ketma-ket ko'tarilayotgan tog'dek to'liqlar ko'pchilik kemalarni bir-biriga urib parchalab tashladi. Qorong'u tushguncha to'fon tinmadi. Nihoyat, shamol to'xtab, dengiz tinchlandi. Tong otgach, kemalardan ko'pchiligining suvga cho'kib ketgani, odamlarning aksar qismi halok bo'lib, anchasi baliqlarga yem bo'lgani, taxta parchalarini ushlab olib omon qolgan odamlarni to'liqlar har chekka-ga uloqtirib tashlagani ma'lum bo'ldi. Lekin shoh bilan Mulkoro katta kema ichida omon qolishgan ekan. Ichidagi odamlarning ba'zisi o'lib, ba'zilari esa behush yotardi. Xoqon kemasi bir qirg'oqqa yetib borgach, shu atrofdagi odamlar yetib kelib, to'fondan alam chekkan kishilarga yordam ko'rsatishdi, behush yotganlar asta-sekin o'zlariga kelishdi.

Shoh Farhodning g'oyib bo'lganidan qattiq iztirobda qoldi, keyin: «Balki to'liqlar uni biron qirg'oqqa olib borib tashlagandir», – deb tirik topishga umid qildi-da, Suqrot aytgan so'zlarini esladi. Omon qolganini g'animat bilib, o'z mamlakati tomon yo'l oldi. Dengizda kuchli shamol ko'tarilgan chog'da Farhod tushib olgan qayiq to'fon yuz bergan paytda dengizga g'arq bo'ldiyu, shahzoda bir taxtaga mahkam yopishib olib omon qoldi. To'liqlar bu taxtani u yon-bu yon otar ekan, Farhod jonidan umid uzib qo'ygan edi.

Dengiz taxtani Yaman mamlakati tomonga surib ketdi. Shahzoda taxta ustida behush yotarkan, Yamanga qarab borayotgan tez suzar bir kema

ustidagi savdogarlar ko'rib qolishdi-da, dengizchilarni shahzoda tomonga yuborishdi. Yigit taxta ustida o'likdek yotardi. Qutqaruvchilar nafas olayotganini ko'rib, tirik ekaniga ishonch hosil qilishdi-da, kemaga olib chiqishdi. Kema ahli turli hidli moddalarni burniga tutishgan edi, Farhod ko'zini ochdi. Sharbat va ovqatlar berib, uni o'ziga keltirishdi. Nihoyat, shahzoda turib o'tirdi-da, o'zi bilan nima ahvol yuz berganini so'radi. Savdogarlar bo'lgan voqealarni so'zlab berdilar, keyin yigitning kimligini so'radilar. Farhod: «Biz, bir guruh savdogarlar Xo'tandan Yaman tomon kelayotgan edik, to'fon kemamizni dengizga cho'ktirib yubordi. Men mana shu taxta ustida omon qoldim. Goh hushyor, goh behush yotardim. Hushimni yo'qotgan vaqtda sizlarga duch kelibman. Men hayotdan umidimni uzib qo'ygandim. Sizlarning yaxshiligingiz tufayli o'limdan qutulib qoldim. To tirik ekanman, sizlarning xizmatigingizdaman», – deb javob qaytardi. Bu so'zlarni eshitgan kema ahli uni yoqtirib qolib, to quvvatga kirgunicha unga mehribonlik ko'rsatishdi.

Bir kuni kemadagilar o'zlari tomon suzib kelayotgan bir necha qayiqni ko'rib qolishdi-yu, hammalari oh-voh qila boshlashdi. Farhod buning sababini so'ragan edi, ular yig'lab: «Sen dengiz ustida ko'rayotgan bu qayiqlardagi odamlar orollarda yashaydigan qaroqchilardir. Bittami, ikkitami yoki uchtami kemani ko'rib qolishsa, har tomondan o'rab olishib neftli shisha idishlarni yondirib turib, kema tomon otishadi-da, odamlarni o'ldirib, mollarini egallab olishadi. Biz dengizdagi to'g'ri yo'ldan adashib, to'fon mahali shu yerga kelib

qolibmiz. Ularga duch kelgan odamlarda qutulish umidi qolmaydi», – dedilar. Savdogarlarning bu soʻzlarini eshitgan Farhod ularning koʻngillarini shod qilib: «Sizlar hecham qaygʻurmanglar, Xudo sizlarni har qanday ofatdan omon saqlaydi. Sizlarda koʻproq oʻq bilan kuchli yoy topiladimi?» – deb soʻradi. Uning gaplariga hamma hayron boʻldi-yu, lekin soʻragan narsalarini tezda topib kelishdi. Yoy Farhod istaganicha boʻlmasa ham, oʻqlar yoyga mos edi. U yoy-u oʻqlarni hozirlaguncha, har tomondan qaroqchilar yetib kelishdi-da, kemaga oʻt yogʻdirish uchun neftli shishalarini hozirlay boshlashdi. Kemani ularning shishalari yetmaydigan joyda toʻxtatishni buyurgan Farhod shishadagi neftni yoqib, savdogarlar kemasiga otmoqchi boʻlib turgan qaroqchini nishonga olib, shunday oʻq uzdiki, neftli shisha parchalanib, qayiqqa oʻt ketdi-yu, undagi barcha qaroqchilar yonib ketishdi. Yana bir qayiqqa qarab oʻq otgan edi, u ham yonib ketdi. Ikkita qayiqdagilar kuyib ketgach, qaroqchilar qochishga kirishishdi. Ular oʻz kemalari boshini orqaga burgunicha, Farhod yana oʻn-oʻn besh qayiqni shu tarzda kuydirib yoʻq qildi. Qaroqchilarning baʼzilari oʻlib, baʼzilari kuydi, qolganlari qochib qoldi. Bu ishlarni koʻrib turgan kema ahli xursand boʻlishib, unga mol-u jonlarini berishga tayyor edilar. Farhod esa hamon oʻz dard-u alamlari bilan band edi. Bir necha kun oʻtgach, ular koʻzlagan manzil koʻrindi. Kema Yaman bandargohi tomon yoʻl oldi, hamma sohilga chiqdi. Dengizdagi minglab balolardan omon qolgan barcha savdogarlar gʻoyatda xushnud edilar. Shahardagi bir manzilda joylashib,

safar kiyimlarini yechdilar. So'ngra may topib kelib, ichishga kirishdilar.

Maydan boshi qizigan Farhod taxti, qasrlari va sipohlari yodiga tushib, dengizda qolgan otasi-yu ozor chekayotgan onasini eslab, o'zining bu tarzda ovora bo'lib yurgani, ko'nglidagi yoriga yetisha olmayotganidan xafa bo'lib, ko'z yoshi to'ka boshladi. Savdogarlar uning bu holatini ko'rib biri yig'lasa, boshqasi lol-u hayron bo'lardi.

Bu yerga to'plangan odamlar ichida bir hunarmand naqqosh bo'lib, uning chizgan suratlari jahon xalqlari e'tiborini qozongandi. U olamdagi barcha mamlakatlarni kezib chiqqan, Xitoyda ham bo'lgan, Moniy bilan suhbat qurgan inson bo'lib, nomi Shopur edi. Sayohat qilib yurar ekan, savdogarlar kelayotgan kemaga tushib qolgan Shopur Farhod qilayotgan ishlardan hayratga tushar, lekin bu holatlar sababini o'ylab topolmasdi. Dengizda ko'rsatgan jasorati, quruqlikdagi ushbu ahvoli: ko'z yoshlari bilan chekayotgan nola-yu zorlarini kuzatarkan, o'ylab-o'ylab uning ko'nglini ishq tig'i yaralaganini anglab yetdi. Bu haqda so'z ochilganda esa Farhod beparvodek ko'rinardi. Yigit dilidagi dardni so'rab bilolmagan naqqosh ishq dardi haqida so'z ochdi. Uning hikoyalari Farhodga ta'sir qilayotganini ko'rgandan keyin Shopur ishqiy afsonalarni ko'proq so'zlab beradigan bo'ldi. Shu tarzda ikkovlari do'stlashib qolishdi.

Farhod Shopurni bir dam ko'rmasa, darrov uni izlab topar va muhabbat haqidagi afsonalaridan aytib berishini iltimos qilardi, ularni eshitar ekan, yig'idan tinmasdi. Nihoyat, Farhod Shopurning o'z ahvoli haqidagi savollariga javob beradigan bo'ldi.

Bir kuni Shopurning: «Ota-onang, mamlakating hamda o'z hayoting haqida so'zlab bergin», – degan iltimosiga: «Bu gaplardan foyda yo'q, yaxshisi, senga bir voqeani aytib beray. Bir kuni bir ajoyib mamlakat tushimga kirdi. Unga o'xshash o'lkani ko'rgan emasman», – dedi-da, ko'z oldida namoyon bo'lgan manzaralarni birma-bir so'zlab berdi. Gap o'zi sevib qolgan qizga taqalganida esa oh tortib, hushidan ketib qoldi. Shopur uni zo'rg'a hushiga keltirdi. Atrofdagi odamlar esa to'xtovsiz may ichish bilan band bo'lib, ikkala do'stning gaplariga parvo qilishmasdi. Shunda Shopur: «Do'stim, men senga hamsuhbat bo'lib, yashirin sirlaringdan ogohlik topdim. Sen endi g'am yemagin, chunki sen belgilarini aytib bergan yer jahondagi eng go'zal joy bo'lib, men uni ko'rganman. Havosi rohatbaxsh, gullari hisobsiz, go'zallikda Bog'i Eramdek bu joyning nomi Armandir. Sen u yerga bormoqchi bo'lsang, men hamrohlik qilay», – dedi.

Bu gaplarni eshitgan Farhod o'z baxtiga ishonmas edi. Buni ko'rgan Shopur: «So'zlarimga ishonmayotgan bo'lsang, dalil keltiray», – dedi-da, qog'oz-u qalamini qo'liga olib, o'zi aytgan diyorning suratini chiza boshladi. Shunday bir tasvir yaratdiki, Farhod ko'zguda ko'rgan manzaradan bironta ham farqi yo'q edi. Suratni tomosha qilgan shahzoda do'stining so'zlari rost ekaniga ishonch hosil qildi-yu, mastlardek yiqildi.

Farhod uyqudan ko'zini ochishi bilanoq Shopur aytgan so'zlar, u chizgan ajoyib surat yodiga tushib o'rnidan turdi-yu, Shopur oldiga yugurdi. Uning tovushidan uyg'onib ketgan Shopur bu kelishdan uning maqsadi nima ekanligini so'radi. Farhod uning oyog'iga boshini qo'yib: «Bergan va'dangga

vafo qilgill!» – deb iltimos qildi. Shopur rozilik bildirgach, ikkala do‘st yo‘lga tushdilar. Manzilma-manzil dam olmay borishar ekan, Shopur bilan Farhod shirin suhbatlashar, do‘stlik, hamdardlig-u hamkorlik haqida fikrlashishar, Arman diyori tasvirlangan surat to‘g‘risida so‘z yuritishardi.

Shu tarzda ancha yurib, Arman mamlakatiga qadam qo‘ydilar. «Sen tushingda ko‘rgan mamlakat mana shu. Atrofni aylanib tomosha qilgin-da, o‘zing tilagan joyni topgin», – dedi Shopur. Farhod shu diyorni ikki-uch kun kezgach, o‘zi tushida ko‘rgan dasht uning ko‘z oldida namoyon bo‘ldi. O‘sha maysalar, o‘sha savsan, o‘sha gullar, atrofida o‘sha bulbullar... Qayoqqa qaramasin, o‘ziga tanish gullar, tikanlar, giyohlarni ko‘rardi. Bulardan ko‘ngli hayajonga to‘lib, bezovtalanardi. Shunda Shopurga qarab: «Ey hamdam do‘stim, tushimda ko‘rgan hamma narsa bu yerda ko‘rinib turibdi. Endi menga yaqinroq yurib, holimdan xabardor bo‘lib turgin. Bu yerda tosh qaziyotgan odamlarning shovqinlari eshitilyapti, jonim esa o‘sha tomon borishga intilyapti», – dedi.

Ikkala do‘st o‘sha tarafga yo‘l oldilar. Ko‘p o‘tmay, tog‘ ichida ariq qazish bilan mashg‘ul bo‘lgan ikki yuzga yaqin odamlarni ko‘rdilar, hammalarining qo‘llarida tesha bo‘lib, uni toshga urishar, lekin qattiq toshlarni kesish shunchalik qiyin ediki, yuz marta tesha urilganda ham no‘xatcha, hatto ko‘knor urug‘icha toshni ham kesib olisha olmasdi. Ikki yuzta usta uch yil davomida to‘xtovsiz metin ursalar ham, faqat ikki-uch yuz qari⁹ yerdagi toshnigina qazib olishgan bo‘lib,

⁹ Qari – 75 sm ga teng bo‘lgan uzunlik o‘lchovi.

ularning ham ko'pi chala holicha yotardi. Tosh kesuvchilar bu xil azoblardan alam chekishar, lekin ish boshilar ularni tinimsiz jazolashardi. Bu ahvolni ko'rgan Farhod ustalar oldiga keldi-da: «Ey jafo chekkan odamlar, chekayotgan azobingizning sirini ayting, nega bunchalik alam chekyapsiz, bu balo sizning boshingizga qachon tushdi? Sizlarni ko'rib ichimga o't tutashdi», – dedi.

Tosh kesuvchilar uning bu so'zlaridan hayron bo'ldilar-da, so'ng yuzidan nur tomib turgan Farhodni duo qilishgach, javob qildilar: – «Jannatning rashkini keltiruvchi bu mamlakatga Afridun nasabidan bo'lgan, fazilatda esa Jamshiddan ham yuqoriroq turuvchi malika Mehinbonu hukmronlik qiladi. Uning go'zal bir jiyani bo'lib, husn-u jamolini tasvirlab berishga ojizmiz, chunki biron-ta odam ham uning yuzini ko'rgani yo'q. Uning chehrasi guldek, kipriklari tikandek deyishadi. Mehinbonu bu qizni yaxshi ko'rganidan doim o'z yonida olib yuradi.

Biz qaziyotgan ushbu tog'ning bir boshi sharqqa, ikkinchi boshi esa g'arbga tutashadi. Sharq tomonida bir chashma bor bo'lib, uni «Aynul – hayot», ya'ni «Tiriklik chashmasi» deb atashadi. Uning suvini ichgan o'lik ham tirilib ketadi. Malikaning jiyani ham ba'zida ushbu buloq oldiga kelib, dugonalari bilan o'yin-kulgi qilishadi. Tog'ning g'arb tomonida esa u qiz yashaydigan mamlakat – Armaniya joylashgan. Oy yuzli sohibjamol o'zi yashayotgan manzilda muhtasham bir qasr qurdirishni xohlayapti. U yer juda chiroyli, xushhavo bo'lsa ham, suvi yo'q. Shuning uchun muhandislar ariq qazib, chashma suvini qasr tomon oqizishni ma'qul

ko'rishgan. Chashmadan qasrgacha o'n yig'ochga yaqin masofa bor. Lekin tog'dagi toshlarni teshalar, hattoki, metinlar bilan ham parchalab bo'lmayapti. Uch yildan beri azob tortib kelyapmiz, sinmagan metin-u tesha qolmadi. Bu og'ir mehnatdan yigitlar chollarga o'xshab qolishdi. Qazigan yerimiz esa ikki-uch yuz qaridan oshmaydi. Bu ahvolda Nuh payg'ambardek uzun umr ko'rsak ham, bu ishni tugallashimizning iloji yo'q».

Bu so'zlarni eshitgan Farhodning ko'ngli no-shod bo'lib:

*Dedi: «Bu necha mazlumi sitamkash,
Falak bedodidin bo'lg'on alamkash.
Ki vayronlig'larida yuz xalaldur,
Agar qilsam madad voqe' mahaldur.
Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir».*

So'ngra temirchidan dam bilan ko'ra so'rab oldi-da, beliga charm peshband bog'lab, dam uchini ko'raga mahkamladi, ko'mirni to'kdi va dam berib, uni cho'g'ga aylantirdi. Shundan keyin bor tesha-yu metinlarni yig'dirdi-da, har o'n-o'n besh metinni o'tga solib eritib, ulardan bitta metin yasadi, shuncha teshani ham bitta teshaga aylantirdi. Yana tog' qazishda ishlatiladigan gurza, qayroq kabi asboblarni yasab, ularning barchasiga xalqdan yashirin holda Qorandan o'rganganidek suv berdi. Odamlar uning ishlarini hayratlanib kuzatishar, savol berishni lozim topmay, jim turishardi.

Farhod o'zi hozirlagan asboblar bilan ariq qazishga kirishib, toshlarni xuddi sel qumni o'yan-

dek osonlik bilan ko'chira boshladi, so'ng bahaybat toshlarni metin bilan urib maydaladi. Tesha urganda sachrayotgan tosh parchalari bir yig'och¹⁰ yerga borib tusharkan, qarab turganlar ulardan boshlarini olib qochishga majbur bo'lishar edi.

Farhod o'sha kuniyoq toshlarni kesib, ariqning bir qismini tayyor qildi. Ikki yuzta toshkesar usta uch yil ichida bunday ishni bajara olmagan edilar. Uning qilgan ishlari elga ovoza bo'lib, Mehinbonuga qadar yetib bordi.

Armaniyaga borib, Mehinbonu huzuriga kirgan bir guruh kishilar: «Ariq qazilayotgan tog' ichida bir pahlavon yigit paydo bo'lib, tosh kesishda shunday ishlarni qilyaptiki, odamzod ularni bajarishga qodir emas», – deyishdi-da, ko'rganlarini to'la-to'kis aytib berishdi. Mehinbonu ularning so'zlarini tinglab, hayratlandi, avvaliga ishongisi kelmasi, o'ylab-o'ylab go'zal jiyani huzuriga bordi-da: «Senga ajoyib bir xabar keltirdim: sening istagingga ko'ra ariq qazilayotgan tog' ichida bir yigit paydo bo'lib, ajoyib ishlar qilayotgan emish. Uch yilda bitgan ishni o'zi bir kunda bajaribdi», – dedi. Mehinbonudan bu so'zlarni eshitgan Shirin noma'lum yigit qilayotgan ishlarni borib ko'rish istagini bildirdi. «Ariqni qazish uchun ko'p mablag' sarf qildim-u, tosh kesuvchilarning mehnatini eshitib, uning bitishidan umidimni uzgan edim. Endi shunday ajoyib mehmonni bizga yo'llagan Xudoyimga shukrona aytib, uning ishlarini ko'rishga borishimiz kerak. U bizga kerak odamga o'xshaydi, shunday ekan, biz ham unga mehribonlik ko'rsataylik», – dedi go'zal qiz.

¹⁰ Bir yig'och – 12 km masofa.

Mehinbonu bilan ikkovlari otlarga minib, tog' tomon yo'l olishdi. Ular bilan birga to'rt yuzta kanizlar ham borishardi. Gulgun ot ustida borayotgan parivash g'oyatda sohibjamol edi:

*...Yuzi atrofida durri laoli,
Quyosh davrida axtarlar misoli.
Iki qoshi hiloli fitna angez,
Yozilg'on ko'p ul oy boshida xunrez.
Ne ikki anbar oso zulf, vah-vah,
Ne ikki jonfizo lab, ollah-ollah.
Og'iz ustida burni turfa timsol,
Tutub yonida manzil hinduyi xol.
Qadi avzoda jannat savsanidek,
Yuzi gul, lek yuz gul xirmanidek.
Qad-u oraz bila shamshod-u gulfom,
Ne shamshod-u, ne gul, sarvi gulandom.
Labidin jon tomib bisyor-bisyor,
So'zidin shahd oqib xarvor-xarvor...*

Mehinbonu bilan jiyani tog' qaziyotganlar makoniga yetishgach, Farhod ishlayotgan joy yaqiniga borishdi-da, yuqoriroq bir tepalikdan turib tomosha qilishdi. Ularning ko'zi oldida tosh kavlayotgan bir yigit metin bilan ariq qazir, toshlarni parcha-parcha qilar, qoshi chimirilgan, sultonlik nuri balqir, peshonasidan muhabbat dardi, yuzidan esa uzoq yurtidan kelganligi ayon bo'lib turar edi.

Bu manzarani ko'rib turgan Shirin hayrat, taajjub bilan yigitga qarardi. Unga nisbatan yuragida mehr paydo bo'ldi-yu, yuziga parda tutib Farhodga yaqinroq borib so'z ochdi: «Ey nodir

yigit, biz aytmasimizdan bu ishlarni bunyod qilib, ko'nglimizni g'oyatda shod etding. Sening qo'llaring hunar emas, mo'jiza yaratdi. Har qancha minnatdorlik bildirsak ham, bir kunlik mehnatingga arzimaydi. Qilayotgan ishlaringga bizdan qaytmasa, Tangridan qaytsin». Keyin Shirin bir laganda qimmatbaho javohirlar keltirishni buyurib, ularni yigitning boshidan sochdi. Qiz o'zining bu ishidan mamnun bo'lsa, Farhod o'zini yo'qotib, zo'rg'a oyog'ida turardi. Shirinning nafasi uning ko'ngliga iztirob solgan, tani titrab, oromidan judo bo'lgandi. Keyin qizga boqib: «Nafasingdan o'zimni o'lgan hisoblayapman, ovozingdan esa hayot azoblaridan qutuldim. Kimligingni qanday qilib bilay? Balki ichimni qonga to'ldirgan sendirsan? Meni begona yurtlarda ovora qilgan, diyor-u mulkimdan ayirgan o'zingdirsan? So'zlaringni eshitgach, jonimdan ayrildim, oh, yuz ohki, yuzingni ko'rmay o'lyapman!» – dedi-da, shunday bir oh tortdiki, Shirin yuzidagi parda uchib ketdi. Qizning olamni bezatuvchi jamolini ko'rgach, o'zini ko'zguda maftun aylagan va es-hushidan ayirgan parivash shu ekanligini bilgan Farhod fig'on chekib yerga yiqildi.

Uning bu holatini ko'rgan Shirin o'ldi deb o'ylab, qattiq oh chekdi. Do'sti qoshiga darhol yetib kelgan Shopur Farhod boshini ko'ksiga bosganicha, zor yig'lashga tushdi. Uning yonida Shirin yig'lab turardi. Birozdan so'ng Mehinbonu bilan Shirin Shopurni oldilariga chaqirdilar-da, Farhod haqida so'radilar. U o'z do'sti haqida bilganlarini so'zlab bergach, Mehinbonu bilan Shirin zor-zor yig'lashga tushishdi. Keyin Farhodni podshohona taxtiravonga solishib, saroy tomon yo'l olishdi.

Manzillariga yetgach, Mehinbonu dargohining bir burchagida taxt ustiga shohona o‘rin solib, u yerga Farhodni yotqizib qo‘yishdi. U esa xalq ahvolidan ham, o‘z holidan ham bexabar bo‘lganicha behush yotardi. Farhod ikki kecha-yu ikki kunduz goh-gohida nafas olib, behush yotdi. Uchinchi kechada saroy ahli uyquda ekan, o‘ziga keldi-da, atrofiga boqib, shohona taxt ustidagi o‘rinda shoh kabi yotganini ko‘rdi. Bu yerga qanday qilib kelib qolgani haqida o‘y surib, go‘zal qizning yuzini ko‘rib, so‘zlarini eshitar ekan, o‘zidan ketib qolganini esladi. Uyalganidan terga botdi-da, uydan chaqmoqdek sakrab chiqdi-yu, sevinganicha tez-tez yurib, biyobondan o‘tib, ariq qazilayotgan manzilga yetib bordi, metin bilan teshasini topdi-yu, o‘ziga o‘zi: «U parichehra go‘zal men majnunga shuncha mehr ko‘rsatib, hushimdan ketganimda e‘zoz qilibdi, uning yaxshiligiga qanday javob qaytarsam ekan? Uning tilagi shu arig‘ bo‘lib, tugallanishini besabrlik bilan kutayotgan ekan, menga muhlat bersa, shu niyatiga yetkazib, dardiga davo qilayin», – deganicha, tosh chopishga shunday qattiq kirishdiki, tog‘ faryod qilib yubordi. Metinni toshga urganida chaqmoq chaqqandek bo‘lar, qattiq toshlarni osonlik bilan parchalardi. Tun-u kun tinmay ariq qazir ekan, dam olishni bilmas, uning ishlarini tomosha qilishga kelgan to‘da-to‘da odamlarning keti uzilmasdi.

Farhod hushiga kelib, o‘z ish joyiga qaytgan kecha o‘tib, tong otgach, saroy ahli ham, Shopur ham uni topisholmay g‘amga botishdi. Shopur uni izlab kelib, ishlayotganidan xabardor bo‘lib g‘amini unutgan bo‘lsa, Shirin ayriliq o‘tida yonardi. Oxiri bir bahonani o‘ylab topdi. Mehinbonuga:

«Men ariq qazishga buyurganimda, taqdir u yigitni biz tomonga yuborgan ekan, agar uni qidirib topmasak, bu ish chala qolib ketadi, chunki ustalar har qancha harakat qilmasinlar, yuz qari ham qaziy olmaydilar. Shuning uchun har tomonga odamlar yuborib, uni albatta topishimiz zarur», – dedi. Mehinbonu uning bezovtaligini ko‘rib iztirob chekayotganini, qalbidan Farhod muhabbati joy olganini payqadi-da, nasihat qilish befoyda ekaniga ishonch hosil qilib, Farhodni izlab topishga buyruq berdi. Yuborilgan odamlar yigitni topib, u avvalgidek ariq qaziyotgani haqidagi xabarni Mehinbonu bilan Shiringa yetkazishdi. Shirin nihoyatda shodlanib, quvonchlarga to‘ldi-da, Farhodni yana bir bor ko‘rishga chora izlay boshladi. Bir pana joyda turib yigitga boqsa, bu ko‘radi-yu, u esa buni ko‘rmaydi. Chunki Farhod uni ko‘rib qolsa, yana betoqatlik qila boshlaydi-da, ularning sirlari ko‘proq oshkor bo‘ladi.

Mehinbonu ham Farhodning oldiga borib, ahvolini so‘rash, dilidagi yashirin g‘amlardan ogoh bo‘lishni istar, «Qani endi shunday yigit mening farzandim bo‘lsa edi», – deb orzu qilar ekan, yigitga bo‘lgan mehri tobora ortib borardi. Lekin Shirin ayriliq dardidan azoblanar, kechadan tonggacha uxlamay chiqardi. Dardlarini aytishga biron hammadard topolmas, sevgisini izhor qilishga nomusi yo‘l qo‘ymas, oldiga boray desa, Farhodning bezovta bo‘lishidan cho‘chirdi; bormay desa, joni firoq o‘tida qovrilardi.

Farhod toshlarni yorib, ariq qazar ekan, bu ish tugallansa, Shirin tomoshaga kelishi, uning jamolini yana bir marta ko‘rib shodlikdan joni chiqsa, jahonda armoni qolmasligiga umid qilardi. Shu

orzu bilan tongdan shomgacha tosh chopishdan charchamasdi.

U muhandislar kabi avval ariqning ikki yonini chizib olardi. U chetidan bu chetigacha uch qari bo'lib, chuqurligi ikki qari edi. Har bir chizig'i ming qaridan ortiqroq edi. Ming qari ariqni pardoqlab bo'lgach, yana ming qaridagi ishni boshlardi. Har ming qari qazilganda chiqitga chiqqan tosh parchalarini ikki yuzta tosh ko'chiruvchi tashib ketar, ular ariq ichini tozalagunlariga qadar teshasini yana qo'liga olib, sayqal berardi. Biron yerda tosh tugab, tuproq chiqib qolsa, ish ko'payib, uni tosh bilan qoplaguncha ancha zahmat chekardi. Ariq ichini bezab turgan toshlar biriktirilgan joylardan bironta ham yoriq topilmasdi. Yo'lida tog'lar uchrasa, ularning tepasiga chiqib olib, toshlarni parchalar, metinidan uchgan tosh bo'laklari to'lin oygga qadar yetib borganida, u o'z shu'lasini bilan yuzini to'sib olar, mayda toshlarning o'zlariga tegishidan hayiqqan yulduzlar boshlarini har tomonga olib qochardi. Farhod shu tarzda shijoat ko'rsatib, bir tog'ni ikki-uch kunda qo'porib tashlar, uning o'rnini tekislab ariqni davom ettirardi. Oz fursat o'tib arig'ning boshi qasr quriladigan joyga yetdi. U yerda Farhod toshlarni kesib, to'rt tomoni oltmish qariga teng bo'lgan hovuz qurdi.

Qasr quriladigan maydonda katta bir tosh bo'lib, aylanasi besh yuz qari kelardi. Uning chor atrofini yo'nib, keyin ichini kavlay boshladi-da, baland gumbazli, ayvoni suv tomonga qaragan, uch tomonida esa toq-u ayvoni bo'lgan ajoyib qasrni bunyod etdi; devorlariga taxtda o'tirgan Shirinning va uning xizmatida bo'lgan parivash qizlarning tasvirini chizdi. Minglab shu xil timsol-

lar orasida Shirin ro'parasida behol turgan Farhod ham aks ettirilgan edi. Qayerda Shirin qiyofasi gavalantirilgan bo'lsa, unga mahliyo bo'lib turgan Farhod timsoli ham tasvirlangan edi.

Bu ishlarning barchasida Shopur unga madadkor bo'ldi... Hovuzdan ariqlar tortilib, ular qasr atrofini aylanib oqadigan qilindi. Ariqlar saroy ro'parasida shalolalar hosil qilib shahar tomon yo'l olar, har bir shalolaning balandligi ikki ming qari kelardi. Shahar aholisi bu suvlardan foydalanib, bog'-u bo'stonlar yaratishi mo'ljallangan edi.

Ana shu ishlarning barchasi tugallangach, Farhod suv boshiga borib, ariqqa suv ochish tayyorligini ko'ra boshladi. Bundan xabar topgan mamlakat-u shaharga suv ochilishini ko'rish istagi tushib, barcha odamlar tog' tomon yo'l oldilar.

Farhod esa: «Shuncha xalq ichida Shirin ham bormikan, tomosha qilishga oy yuzli go'zalim ham kelarmikan, agar kelsa, shodlikdan o'lib qolishim aniq, kelmasa, uning visoliga zorligim tufayli halok bo'lishim ham muqarrar», – deb xayol surardi.

Odamlar uning bezovtaligini ko'rib, sababini bilisholmay g'am chekardilar. Farhod ikki qu-log'ini yo'lga tutib Shirinning kelishini intizorlik bilan kutar ekan, xalq uning holini ko'rib, ko'z yoshlarini to'xtatolmasdilar. Farhod qaysi tomonga qarab yursa, el unga ergashib borardi. Shu holda barchalari suv boshiga yetdilar. Shirinning yetib kelishini kutayotgan Farhod bir oz dam olmoqchi ekanini aytdi. Bu bir bahonagina bo'lib, aslida yigit ko'zi to'rt bo'lib, har tarafga boqib o'z dildorini izlardi.

Farhodning suv ochish uchun tog' tomon yo'l olganini eshitgan Shirin: «Tezda ot keltiringlar!», – deb chopar yo'lladi. Shirin so'zlarini eshitib xursand bo'lib ketgan malika Farhodga yaqinlashdi-da: «Bir oz damingni olib tur, Shirin bu tomonga kelayotgan ekan», – dedi. Farhod bu so'zlarni eshitgach, qalbi shodlikka to'ldi. Mehinbonu shu yerda bir taxt qurishni buyurdi, unga gilamcha ham soldirdi, o'zi o'sha yerdan joy olib, Farhodni ham o'tirishga taklif etdi. Toshkesar yigit Bonu ro'parasiga kelib o'ltirdi. Malika unga Shirin haqida so'zlar aytib, xursand qilishga intilardi. Farhod uyalganicha yerga ikki ko'zini tikib o'tirardi. Ba'zan Mehinbonuning savollariga odob bilan javob qaytarar ekan, so'zlari uning aqli va ziyorakligidan dalolat berardi, yuzida esa fahm-u farosati aks etib turardi.

Bir payt uzoqda to'tiyorang chang ko'tarildi. Ko'rganlar bu gard go'zallar sultoni Shirinning ot choptirib kelayotganidan darak ekanligini aytishdi. Odamlarni suv boshidan, malika bilan Farhod oldidan nari surishdi. Farhod jismiga titroq tushib, bezovtalana boshladi. Shunda Mehinbonu unga yaqinroq kelib: «Ey farzandim, o'zingni tutib ol, ko'ngling bilan ko'zingni ehtiyot qil. Agar hozir hushingni yo'qotsang, bir necha yil qilgan mehning zoye ketadi. Devonalik seni mag'lub qilsa, pari paykar ham el ichida izza bo'ladi. O'zingni asra, yana g'oyib bo'lib qolma. O'zingni ham, meni ham, u hurni ham parishon aylama», – deb nasihat qildi. Farhod o'zini tutib olgunicha, uning oldiga Shirin yetib keldi. U yuziga niqob tutib olgan bo'lsa ham, beqiyos go'zalligi shundoqqina ko'rinib turardi.

Shu payt Mehinbonu Farhodga qarab: «Endi ishga kirish, ammo ko'zingni Shirin tomon boqish-

dan asra. Bu soʻzlarim senga maʼqul tushmasa ham, shunday qilsang yaxshiroq boʻladi», – dedi. U malika oldida yer oʻpib, Shopur qoʻlini tutgach, oʻrnidan turdi. Metinni qoʻliga oldi-da, suvni ochishga tushdi. Shirin uning yoniga borib, ariq ichini tomosha qilar ekan, kulimsirab har lahza boshini tebratib qoʻyardi. Farhod bunyod etgan har qaysi ishdan hayratlanib, toʻxtovsiz ofarin aytardi.

Farhod suvning eski yoʻlini toʻsib, yangi ariq tomon oqizdi. Xaloyiq ichiga gʻavgʻo tushib, suv bilan yonma-yon yugurishardi. Ariqning ikki tomonida cholgʻuchilar soz chalib borishardi. Mehinbonu bilan Shirin qasr oldiga suvdan oldinroq yetib borish uchun ot surib ketishdi. Lekin suv otlardan ham tezroq oqib borar, u bilan barovarlashishga intilgan qancha-qancha odamlar bir-birlarining ustlariga yiqilishardi. Xaloyiq orqasidan borayotgan Farhodning ikki koʻzi huri parizod – Shirinda edi. Goʻzal qiz togʻ va choʻlda oʻn yigʻoch yoʻl bosdi, keyin yana yetti-sakkiz yigʻoch masofani ot choptirib oʻtdi. Bir mahal uning charchagan oti yurmay toʻxtab qoldi. Shirin uni majbur qilsa, oyoqlari chirmashib, oʻzi yiqilishi mumkin edi. Shunda Farhod bu xafvni sezib tezda yetib keldi-da, engashib ot ostiga kirib, bir qoʻli bilan uning oldingi ikki oyogʻini, ikkinchi qoʻli bilan keyingi ikki oyogʻini mahkam tutganicha koʻtarib oldi-da, ikki-uch yigʻoch yoʻlni tezlik bilan bosib oʻtib, qasr va hovuz oldiga yetib kelib, otni yerga qoʻydi. Shirin otdan tushgach, unga taʼzim bajo qildi-da, zor-zor yigʻlaganicha orqasiga qaytdi. Togʻ ustiga chiqib olib, bahor bulutidek koʻz yoshlarini toʻka boshladi. Bu payt ariqdan kelgan moʻl-koʻl

suv hovuzni limmo-lim to'ldirdi-da, qasrni aylanib o'tib, shahar tomon yo'l oldi. Ariqqa «Nahr ul-hayot», ya'ni «Hayot daryosi» deb, hovuzga «Bahr un-najot», ya'ni «Najot dengizi» deb nom berdilar.

Suv hovuzda mavj ura boshlagach, odamlar ancha vaqt uni tomosha qilishdi. Mehinbonu bilan Shirin bu og'ir ishning tugallanganidan shodlikka to'lishdi. Bezatilgan qasrda shodiyonalar davom etardi. Lekin Shirin Farhod haqida o'ý surib g'am chekardi. Mehinbonu jiyanining bu holatidan xabardor bo'lgan esa-da, bu ishga qanday chora topishni bilmasdi. Shirinning dard-u alami tobora kuchayib borayotganini sezgan malika: «Bu shaydo yigit juda ko'p azob chekdi, unga har qancha boylik hadya qilsak ham oz. Lekin u boylikni xushlamayapti. Shuning uchun unga muruvvat ko'rsatib, so'z bilan ko'ngliga quvvat bersak, uni mehmonga chaqirib, shohona ziyofat uyushtirsak, nimani tilasa, bajo keltirsak», – dedi. Shirin bu so'zlardan xursand bo'lib, guldek ochilib ketdi.

Mehinbonu ziyofat uchun kerakli hamma narsani hozirlashni buyurdi-da, ikki-uchta dono mulozimni Farhodni olib kelishga yo'lladi. U Mehinbonu taklifidan shodlanib, mulozimlar bilan qasr tomon yo'lga tushdi. Farhod yetib kelgach, malika unga cheksiz hurmat ko'rsatib, kursiga o'tqazdi, yonidan Shopur joy oldi.

Mehinbonu, Farhod bilan Shirin suhbatlashib o'tirar ekan, dasturxon yozilib, shohona ziyofat boshlandi. Soqiylar to'xtovsiz may tutishar, hofizlar tinmay kuylashardi. Ziyofatda ishtirok etayotgan o'nta go'zal qizning barchasi biron sohada mohir edi:

*Biri ash'or bahri ichra g'avvos,
 Biri advor¹¹ davri ichra raqqos.
 Biri mantiq rusumida raqamkash,
 Biri hay'at¹² ruqumiga qalamkash.
 Birining shevasi ilmi haqoyiq,¹³
 Balog'atda biri aytib daqoyiq.¹⁴
 Biri tarixda so'z aylab fasona,
 Biri hikmat fani ichra yagona.
 Hisob ichra birining zehni borib,
 Muammoda¹⁵ birisi ot chiqorib.
 Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,¹⁶
 Yuz ul fanliq aro har qaysi yakfan.
 Dilorom-u Diloru-yu Diloso,
 Gulandom-u Sumanbo'y-u Sumanso.
 Parichehr-u Parizod-u Parivash,
 Paripaykar, zihi o'n ismi dilkash.*

Mehinbonu ularning har biriga savollar berar ekan, qizlar o'zlari biladigan fanlar haqida so'zlab berardilar. Ularning hikmatlarini eshitib turgan Farhod o'zi unutgan bilimlarini yodiga keltirdi. U ketma-ket ichilayotgan may ta'sirida jur'atlanib, o'nta qizga turli ilmlar bo'yicha savollar bera boshlagan edi, qizlar javob aytishga qiynalib qolishdi. Shunda bu savollarga Farhodning o'zi javob aytib, hammani lol qoldirdi.

Ilm ahlining shohi sarvari bo'lgan Mehinbonu uning bilimdonligini ko'rib, taxtidan tushdi,

¹¹ Advor – musiqa ilmi.

¹² Hay'at – astronomiya ilmi.

¹³ Haqoyiq – Alloh haqidagi ilm.

¹⁴ Daqoyiq – o'tkir fikrlar.

¹⁵ Muammo – she'rda yashirilgan so'zni topish ilmi.

¹⁶ Ahsan – yaxshiroq.

Farhoddan taxtga chiqib o'tirishini iltimos qildi. Farhod rozi bo'lmagach, malika taxt oldiga ko'rpa-cha solishni buyurdi-da, unga Farhodni o'tqazib, yonidan o'zi joy egalladi. Bu paytda pardaning orqasida o'tirgan Shirin barcha voqealarni kuzatib turardi. Ko'zidan tinmay yosh oqar, ba'zan hushidan ketib qolardi. Bularni boshqa odamlar ko'rmasdi. Lekin Mehinbonu jiyanining holatidan xabardor edi. Ko'nglida: «Shirin muhabbat o'tida kuyib, ado bo'lib boryapti. Agar bu yo'lda u halok bo'lsa, men gunohkor bo'laman», – deb o'yladi-da: «Shiringa aytinglar, u mezbonlik aylab, mehmonni xursand qilsin», – deb buyurdi. Shirin parda orqasidan asta chiqib kelar ekan, xuddi quyosh balqigandek qasr yorishib ketdi. Farhodning ko'zi unga tushgach, kuchli bir oh tortdi-da, behush bo'lib yiqilishiga oz qoldi. Mehinbonu Shiringa o'z yonidan joy ko'rsatdi. Soqiylar ularga may tutishar ekan, Shirin ham ichib, Farhod kabi sarxush bo'ldi, yuzidagi parda ham tushib ketdi. U Farhodga qilgan ishlari uchun minnatdorchilik bildirdi-da, may olib kelish uchun o'rnidan turdi. Haligi o'nta go'zal qiz javohirlar solingan laganlarni qo'llarida tutib uning yonida yurishardi. Shirin bu javohirlarni har tomonga sochib borardi. Keyin u Farhod oldiga kelib o'tirdi-da, qo'liga qadah tutib: «Men buni sening ishqingda ichaman», – dedi-da, simirdi, keyin idishni to'ldirib yigitga tutdi va «Sen ham mening ishqimda bu qadahni ko'targil», – dedi. Farhod uni qo'liga olib, shunday sipqordiki, piyola naqshlaridan nishona ham qolmadi. Qadahni qaytarib bergan Farhod o'z sevgilisi tomoniga sajda qilgandek yiqildi. Shirin

uning boshini ko'tarmoqchi bo'lgan edi, o'zi ham yiqildi. Ikkalasining og'ziga oyna tutishganda, nafasdan darak yo'q edi.

Farhod bilan Shirinning bu holatini ko'rgan odamlar oh-u nola tortishib, ikkovini ikki tomonga olib ketishdi. Ikkita xonada joy tayyorlab, ularni yotqizib qo'yishdi. Tong otguncha ikkovlari behush yotdilar. Saharda tong shamoli esgach, ular o'zlariga kelishdi. Xijolatdan boshini quyi solgan Farhod yana tog' sari yo'l oldi.

Mehinbonu ziyofatda ro'y bergan hodisalardan tashvishga tushdi. Shirin ahvolidan xafvsirayotgan malika uni ovutish uchun qanday chora ko'rishni bilmasdi. O'ylab-o'ylab bir necha kunda Farhodni qasrga chaqirtirib, uning Shirin bilan uchrashuvini tashkil qilishni ma'qul ko'rdi. Bunday paytlarda Farhod o'z sevgilisi qo'lidan may ichar ekan, ikkovi ham behush bo'lib yiqilishar, o'zlariga kelgach, yigit yana tog' sari yo'l olardi, Shirin esa qalbida dard-u g'am bilan iztirob chekib qolardi. Bu xil uchrashuvar bir necha bor takrorlandi.

Shunday kunlarning birida ularning boshiga bir tashvish tushdi. O'sha ayyomda Arab va Ajam mulkining Xisrav degan hukmdori bo'lib, Madoyin shahri uning poytaxti edi. Uning xotini ham, o'g'li ham bor edi-yu, Xisrav bu farzandini taxtga munosib ko'rmasdi. U o'z taxtini yaxshi bir farzandga topshirishni istab, bu maqsadga yetishish uchun o'ziga munosib qizni qidirishga tushgan edi. O'z mamlakatida qancha qidirtirsa ham, ko'ngliga yoqadigan biron go'zal topilmadi. Bu paytda Shirinning ovozi, uning husni, odobi haqidagi gaplar Xisravga ham yetib bor-

gan edi. Bu sohibjamol qizga tosh kesuvchi bir yigit shaydo bo'lib, uning ishqiy yo'lida ajoyib ishlar qilganidan ham u xabardor edi. Shirinning ishqiy Xisravni ham mast qildi-yu, Arman mamlakatiga odamlar yuborib, bu qiz haqida bor haqiqatni bilib kelishni topshirdi. Bu odamlar qaytib kelishgach, Shirinning tengsiz chiroyi-yu xulq-u odobi haqida shohga gapirib berishdi. Bularni eshitgan Xisrav tezlik bilan Armaniya sari yo'l olishga ahd qildi. Lekin mamlakatni qoldirib ketishdan xavotirlanib, Buzurg Ummid degan dono vaziri bilan maslahatlashdi. Vazir unga borishdan avval Mehinbonuga xat yo'llashni, bu xatga javob kelgach, qilinadigan ishlar haqida o'ylashib ko'rishni maslahat berdi. Buzurg Ummidning bu so'zlarini ma'qul ko'rgan Xisrav donishmand bir kishini topib, xatni uning qo'lga topshirdi-da, Mehinbonu huzuriga yubordi.

Xisrav yo'llagan elchi Arman mulkiga yetib borgach, Mehinbonuga Kisro mamlakatidan vakil kelganini xabar qilishdi. Uning sifatlarini eshitgan malika mehmonxonaga tushirishni buyurdi, keyin o'zining bir qancha dono mulozimlarini chaqirib, ularga elchining qanday maqsad bilan kelganligini aniqlash vazifasini yukladi. Mehinbonu yuborgan a'yonlar elchining maqsadini bilib, malikaga xabar qildilar. Shunda Mehinbonu: «Ertaga uni huzurimga olib kelinglar, u bilan suhbatlashay, muddaosi ma'lum bo'ldi, endi men javobimni aytishim zarur», – dedi. Mehinbonu o'ylab o'yiga yetolmasdi. Xisrav taklifiga rozi bo'lay desa, yodiga Farhod tushib, ko'ngli g'amga to'lar, rad javobini beray desa, bunga sabab topolmas, Shirinni zo'rlab Xisravga uzatsa, u rozi bo'larmidi, rozilik berganida ham,

buning natijasi nima bilan tugarkin?», – deb fikr qildi-da, oxiri bor gapni jiyaniga aytib berdi. Shirin o'zini yerga tashlab faryod ko'tardi:

*Boshimg'a tiyg'i g'am sursang ne bo'lg'ay,
Bu so'z deguncha o'tursang ne bo'lg'ay.*

*...Manga Farhod ishq'i tuhmati bas,
Ki chehram ko'rmayin ul zor-u bekas,*

*...Tog' ichra sel yanglig' oqizib yosh,
Urub tosh uzra har dam seldek bosh.*

*...Yuzumdin diydayi giryoni mahrum,
Visolimdan balokash joni mahrum.*

*...Manga na yor-u na oshiq havasdur,
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur.*

*Agar Bonu iloji bo'lsa qilsun,
O'zimni o'tturingmen yo'qsa bilsun.*

Bu so'zlarni eshitgan Mehinbonuning ko'zlari yoshga to'ldi, qanday chora ko'rishni o'ylab qo'ydi-da: «G'am yema, ko'nglingni xush tut. Men elchiga uzr aytib, jo'natib yuboraman», – dedi.

Malika va'dasiga muvofiq elchini qabul qildi, undan yo'l qiyinchiliklarini so'radi, Xisravga duolar aytdi, keyin uning sharafiga bazm uyushtirdi, ketishida ko'pdan ko'p sovg'alar berdi-da «Shohga mening duolarimni yetqizgil», – deb tayinladi. Elchi o'zi turgan joy tomon yo'lga tushgach, Mehinbonu bosh vazirni chaqirdi-da: «Elchining oldiga borib aytingki, u Xisravga mening mana bu so'zlarimni yetkazsin. Sening tilaklaring biz uchun sharaflidir. Lekin bizning bir uzrimiz bor: sen tilagan oy yuzli go'zalning bir aybi bo'lib, u

ham bo'lsa turmushga chiqishni istamasligidir. U, yigitlarga o'xshab ot choptirib yurishni, ov qilishni yoqtiradi. Sening uylanmoqchi ekanligingni ayta oluvchi kishi bu mamlakatda topilmaydi, chunki bu so'zni eshitsa, u o'z jonidan ham kechishi mumkin. Bunday sabab bo'lmaganida, u shu kungacha turmushga chiqmay yurarmidi? Ana shu aybimizdan shohni ogoh qildik. Endi nimaga hukm qilish shohning o'ziga havola», – dedi.

Mehinbonuning bu so'zlarini eshitgan bosh vazir hamma gapni elchiga aytdi. Elchi nima deyishni bilmay, o'z vataniga jo'nab ketdi-da, Xisrav oldiga borib malika so'zlarini unga yetkazdi.

Mehinbonu javobini tinglagan Xisrav uning uzriga ishonmay darg'azab bo'ldi. Keyin boshqa bir o'jarroq elchini Armaniyaga yo'llagan edi, u ham shu javobni keltirdi. Shu tarzda shoh yana bir necha elchini Mehinbonu oldiga jo'natgan bo'lsa ham, hech qaysisi yaxshi xabar bilan qaytmadi. G'azabga to'lib toshgan Xisrav bu gaplarning barchasi bahona ekanini ta'kidlab:

*Agar umr o'lsa ul ayyoralarg'a,
Demay ayyorakim makkoralarg'a.
Sitamdin yetkuray andoq sazoye,
Solay kishvarlari ichra baloye.
Ki qayda bor esa bir hiyla payvand,
Qiyomatga dekin bo'lg'ay anga pand, –*

deb xitob qildi-da, askarlarni to'plab, Arman diyoriga qarab yo'lga tushdi.

Xisrav Armanga yo'l olar ekan, lashkarining son-sanog'i yo'q edi. Ularning otlari tuyog'idan ko'tarilayotgan chang-to'zon osmon yuzini to'sib

qo'ygani edi. Bir necha kun yo'lida yurilgach, Xisrav qo'shini Armaniyaga yetib keldi. Bu xabarni darhol Mehinbonuga yetkazdilar. Malika bu so'zni xotirjamlik bilan tingladi. Xisravning bu o'lkaga hujum qilishi ehtimolligini oldindan ko'rgan olgan malika shaharni himoya qilish choralarini ko'rishga ulgurandi. Qal'aning baland devorlari mustahkamlangan bo'lib, har qaysi kungira yonida bahromsifat bir jangchi turardi. Ancha vaqtga yetadigan oziq-ovqat, kiyim-kechak hozirlab qo'yilgan edi. Mehinbonu bilan Shirin Farhodni voqeadan xabardor qilib, undan qo'rg'onga kirishini iltimos qilishdi. Farhod ularning so'zlarini yerda qoldirmay qo'rg'onga kirdi-yu, qal'a tashqarisidagi bir katta tosh ustida joylashib, jang bo'ladigan bo'lsa, Xisrav askarlari boshiga tosh yog'dirishga tayyor bo'lib turardi.

Xisrav o'z qo'shini bilan kelib qo'rg'ondan yarim mil narida joylashdi. Arman diyorini tomosha qilish uchun atrofiga ming otliqni olib yo'lga otlandi. U shahar devorlariga nazar tashlab borar ekan, tosh ustida turgan Farhodga ko'zi tushdi-yu, ko'ksiga xanjar urilgandek bo'ldi. Sarkardalarga qarab: «Bu odamni ko'rib ko'nglim xafa bo'ldi. Surishtirib bilinglar-chi, ishi dillarni hazin qilish bo'lgan bu inson kim ekan?» – deb buyurdi. Bir sarkarda otini u tomon surib, Xisrav nomidan Farhodning ismini so'radi. Farhod ichiga ishq o'ti tushgach otidan ham mahrum bo'lgani, asli ismi esa Farhod ekanini aytdi. Bu so'zni eshitgan Xisravning hushini yo'qotishiga oz qoldi. Chunki u bu nomni ko'p eshitgan edi. Shuning uchun: «U mening raqibim, binobarin, men undan qutulishim kerak», – deb

o'yladi-da, besh-o'n jangchini yuborib, uni o'z oldiga olib kelishga buyurdi. Farhod o'zi turgan manzilga yaqinlashayotgan dushman askarlarini ko'rib, ularga qarab xitob qildi:

«Ey baxtiyor shoh! Agar Xisrav esang ham, Xisrav bo'lmasang ham bu so'zlarimni eshitib ol. Meni o'z oldingga olib borishlarini istab, o'n-o'n besh pahlavoningni jo'natding. Maqsading meni o'ldirmoq bo'lsa, bundan menga ziyon ham, senga foyda ham yo'q. Shu odamlarning qoni sening bo'yingga tushadi, chunki sen o'z sipohlaringni o'z qo'ling bilan o'ldirding. So'zlarimga ishonmasang, Yaratganning qudratini tomosha qil: bosh kiyiming cho'qqisini uchirib yuboradigan mana bu toshni mening salomim deb qabul qilgin».

Farhod shoh turgan tomonga qarab yana bir toshni otdi-da: «Bu esa bayrog'ing uchidagi shaklni uchirgusidur», – deb xitob qildi. U otgan ikki tosh shohning dubulg'asi uchini va bayrog'i uchidagi shaklni uchirib yubordi. Shundan so'ng Farhod so'zini yana davom ettirdi: «Ey shoh yoki sarkarda, ishq ahlining mahoratini sen ham, sipohlaring ham ko'rdi. Endi ularni orqaga qaytar, bo'lmasa, bari o'lib ketadi. Men es-hushini yo'qotgan majnun qoyadan tosh olib sen tomon otsam, boshingni uchirib yuborishim aniq. Boshingdan kechganimni g'animat bilib, yo'lingga qayt. Men, ishqdan alam tortayotgan odam senga nima qilsam ham uzrli bo'laman. Agar Arman tog'ida turib qasos olishga otlansam, uning har bir toshi bir boshga aylanadi...

Sen xalq mulkini talab, taxt-u tojini tortib olish uchun bu tomon kelibsan. Mamlakatini barbod

qilib, nozanin ko'nglini xafa qilding. Eshitishimcha, ishqdan lof ham urayotgan emishsan. Dardi ishq rasmi shunday bo'ladimi? Vafo-yu mehr sharti shunday bo'ladimi? Birovning ishqida zor bo'lishmi bu? Uning g'amida beqaror bo'lishmi bu?!»

Bu so'zlarni eshitgan Xisrav ko'ngliga iztirob tushib, nima deb javob qilishni bilmay qoldi. Askarlari oldida ham, qal'adan qarab turgan odamlar oldida ham xijolat bo'lganicha, sayridan ko'zlagan maqsadiga erisholmay, qo'shini turgan manzilga qaytdi.

Xisrav diqqat bo'lib o'z qarorgohiga qaytgach, Buzurg Ummidni huzuriga chaqirib, undan maslahat so'radi. Vazir uning ko'nglini xursand qilib shunday dedi: «Es-hushidan judo bo'lgan bu yigitning so'zlaridan tashvish chekishning keragi yo'q. Bir odamimiz Bonu saroyiga borib, bu so'zlarni aytib bersa, balki o'ylanib qolib, niyatlarimiz amalga oshishi ham ajab emas. Bu qo'rg'on nihoyatda mustahkam bo'lib, oziq-ovqat ham mo'l-ko'l to'plangan ko'rinadi. Uni bosib olish qiyin bo'lsa ham, o'ylab ish qilsak, muddaomizga erishamiz. Axir afsungarlar rost-u yolg'on so'zlarni aytib, afsun bilan ilonni inidan chiqaradi-kul!».

Buzurg Ummidning bu so'zlarini ma'qul ko'rgan Xisrav bir so'zga chechan odamni topib, Mehinbonu saroyiga jo'natdi. U kishi qo'rg'on ichiga kirib, saroyga bordi-da, malikaga shunday so'zlarni aytdi: «Shohimiz bu yerga farzand bo'lish niyatida kelganlarini aytib yubordilar. Sizlar ul go'zalning turmush qurishdan bosh tortayotganini ta'kidlayapsizlar, lekin bir telba, so'zlaridan aqlga zahmat yetadigan yigit o'zini oshiq deb bilib, u qizni mahbuba hisoblar ekan, bundan barcha el xabardor emish.

Shunda ham parivash uning oldiga borib, mehribonlik ko'rsatib turar ekan. Ko'rinib turibdiki, u turmush qurishni istamayapti, degan so'zlaringiz yolg'on, bu xil bahonani biz kechirdik! Chunki har bir odam xato qilishi mumkin. Lekin biz yurtinigizga mehmon bo'lib kelgan edik, siz mezbonlikni ado qilib, o'rtamizdagi xafagarchiliklarni bartaraf etsak, ayni muddao bo'lar edi».

Mehmon so'zini tugatgach, Mehinbonu shunday javob qildi: «Xisrav Farhodni ko'rinishidan odamzodga o'xshamaydi debdi. Shuni bilinglarki, bizdek odamlar uning maqtovini yuz yil davomida aytsak ham, fazilatlarining mingdan birini ham ta'riflay olmaymiz. Shohingiz uni gado debdi, u shahzoda, sharafda undan-u bizdan ziyoda. Dunyoda u bilmagan ilm yo'q. U Shiringa shaydo bo'lsa ham, uni ikki yo uch martagina ko'rgan, xolos. Har safar ko'rganida hushidan ketib yiqiladi, o'ziga kelgach, dasht-u tog'lar sari yo'l oladi. Shirinning maqsadi ham u yigitni ko'rib turishdir. Shohing Farhodning jamolini jirkanch debdi, borib ko'r, Xisrav rost yoki yolg'on gapirganini o'z ko'zing bilan ko'rasan. Uning yuzi gulzoridan gullar terishing aniq». Bu so'zlarni eshitgan vakil Xisrav oldiga borib, barchasini gapirib berdi. Darg'azab bo'lgan Xisrav o'z qo'shinlariga shaharni bosib olish haqida buyruq berdi. Sipohlar qo'rg'onni qamab, unga hujumni boshlashdi. Shahar aholisi qo'rg'onni himoya qilishga kirishdi. Sipohlar kunduzi-yu kechasi hushyorlik bilan jangga hozir turishar, tunlari mash'alalar bilan qal'ani yoritishardi.

Farhod turgan tomonga dushman qo'shinlari yaqin kelolmas, ming qari yerdan buyog'iga

o'tolmas, pahlavon yigit otayotgan toshlar tegib halok bo'lishdan qo'rqishardi. Pashshaga ham ozor yetkazishni istamaydigan Farhod o'z jonini asrash uchun yov askarlarini qo'rqitardi, chunki bu jonda sevimli yor vafosi bo'lgani uchun uni dushmanga fido qilishni istamas edi. Xisrav esa qanday qilib bo'lmasin uni yo'q qilish chorasini izlardi. Undan qutulsa, qal'ani qo'lga kiritish oson bo'lishini bilardi. Buzurg Ummid bilan maslahatlashib, makkor afsungarni topishdi-da: «Agar sen devona yigitni yo'qotish chorasini topa olsang, hisobsiz oltinga ega bo'lasan», – deyishdi. Afsungar: «Uni makr bilan shunday aldayki, hushidan judo bo'lib, o'likdek yiqilsin. Lekin uni bu yerga qanday olib kelish chorasini topa olmayapman», – dedi. Xisrav: «Sen uni behush qilsang, yuzta sovut kiygan sipoh yashiringan joyidan chiqib, uni bu tomon olib kelishadi», – dedi. Xisravning bu so'zlarini eshitgan u makkor o'zini es-hushini yo'qotgan odam qiyofasiga kiritib, yashnab turgan xushbo'y gullardan uzib oldi-da, uning barglari orasiga behush qiladigan dori sepib, Farhod manzili tomon yo'l oldi. Devonalardek qadam tashlab, oshiqlardek faryod qilib kelayotgan bu odamning ovozini eshitgan Farhod uning yoydek egilgan qomatini ko'rib hushidan ayrilishiga oz qoldi. Ko'nglini iztirob o'rtab, unga: «Ey dard bilan o'rtangan oshiq, bu yerlarda nima qilib yuribsan, qaysi parivashni ko'rib, bunday devona bo'lding? Men falakdan zulm ko'rgan edim, sen nega fig'on chekyapsan?» – dedi. Hiylagar uning ishonganini ko'rib: «Ey ishq elining podshohi, men falon joydanman, bir go'zalning ishqini meni devona qilgan

edi. Sevgilimni goh yiroqdan, gohida oshkora ko'rib turardim. Xisrav qo'shini shaharni qamal qilgach, men qal'adan tashqarida qolib ketdim. Shaharga kirmoqchi bo'lib darvozaga yaqinlashsam, boshimga o'q bilan tosh yog'dirishmoqda. Bu xil qiyinchiliklardan o'lar holatga yetdim. Bir dardkashim ham yo'q edi, seni eshitib, ahvolimni so'zlab berish uchun qoshingga keldim», – dedi. Uning so'zlarini eshitgan Farhod oh tortib, ko'zlaridan seldek yosh to'kdi-da, tani zaiflashib yiqildi. Hiylagar uning holini ko'rib, dori sepilgan gulni dimog'ig'a tutdi. Keyin qichqirib, ishorat bilan sipohlarni chaqirdi.

Bu paytda bir tosh ustida yotgan Shopur yomon tush ko'rib, seskanib uyg'ongach, Farhod tomoniga qarab, do'stining behush yotganini, shaytonga o'xshagan bir kimsa sipohlarni chaqirayotganini, ular har tarafdin Farhodga yaqinlashayotganlarini ko'rdi va ish qo'ldan ketganini sezib, Farhodning holiga ko'z yosh to'ka boshladi. Tepalikda turgan Shopur pastda haligi hiylagarni ko'rib qolib, qoyadan bir toshni ko'chirib oldi-da, u bilan makkorning boshiga urib o'ldirdi. Sipohlar Farhodni ko'targanlaricha, Xisrav qarorgohi tomon yo'l olishdi. Bu hodisadan xabar topgan qo'rg'on ahli g'am-alamga muftalo bo'ldilar, ammo Shirin eshitsa, shubhasiz, o'zini o'ldiradi, degan xayol bilan unga bildirishmadi.

Sipohlar Farhodni ko'tarib, Xisrav dargohiga olib kelishgach, shoh o'zida yo'q xursand bo'lib, raqibining qo'l-oyoqlarini zanjirband qilishga buyurdi. So'ng tabibni chaqirib, Farhodni hushiga keltirishni topshirdi. Hushiga kelgan Farhod o'zining

jinnilar kabi kishanband qilinganini ko'rdi. Shohona yasatilgan xonadagi taxt ustida bir shoh o'tirar, boshidagi toj yarqirab turardi. Atrofda sipohlar tizilishgan, shoh unga taajjub bilan boqardi. Farhod o'rnidan turib, shu yerda hozir bo'lgan kishilarga qarab boshini egdi-da, yerga o'tirib, ko'zlarini quyi soldi. Xisrav uning jamoli-yu odobini ko'rib, jazolashni ham unutdi-da, unga qarab so'z ochdi; Farhod uning savollariga javob qaytara boshladi:

*Dedi: Qaydin sen, ey majnuni gumroh?*¹⁷

Dedi: Majnun vatandin qayda ogoh?

*Dedi: Nedur sanga olamda pasha?*¹⁸

Dedi: Ishq ichra majnunliq hamesha.

*Dedikim: Ishq o'tidin de fasona!*¹⁹

Dedi: Kuymay kishi topmas nishona.

Dedi: Qay chog'din o'ldung ishq aro mast?

Dedi: Ruh ermas erdi tanga payvast.

Dedi: Bu ishqdin inkor qilg'il,

*Dedi: Bu so'zdin istig'for*²⁰ *qilg'il!*

Bu so'zlarni eshitgan Xisrav uning oshiqligini sinamoqchi bo'lib yangi-yangi savollarni berar ekan, Farhod munosib javob bilan shohni hayratga solardi.

Dedi: Ishq ahlining nedur hayoti?

*Dedi: Vasl ichra jonon iltifoti*²¹

¹⁷ Gumroh – yo'ldan adashgan.

¹⁸ Pasha – hunar, kasb.

¹⁹ Fasona – hikoya.

²⁰ Istig'for – tavba.

²¹ Iltifot – mehribonlik.

*Dedikim: Dilbaringning de sifotin,
Dedi: Til g'ayratidin²² tutmon otin.
Dedikim: Ishqiga ko'nglung o'rundur?
Dedi: Ko'nglumda jondek yoshurundur.
Dedi: Ko'nglung fido qilsa jafosi?
Dedi: Jonimni ham aylay fidosi.
Dedi: Bu ishq tarki yaxshiroqdur?
Dedi: Bu sheva²³ oshiqdin yiroqdir.*

Farhodning berayotgan javoblari Xisravni lol qoldirar ekan, raqibining donoligini ko'rib toqat qilolmagan shoh do'q-po'pisa qilishga o'tdi:

*Dedi: Ol ganj-u qo'y mehrin nihoni!
Dedi: Tufroqqa bermon kimiyoni.
Dedikim: Shohga bo'lma shirkatandesh²⁴
Dedi: Ishq ichra tengdur shoh-u darvesh.
Dedi: Ishq ichra qatling hukm etgum!
Dedi: Ishqida maqsudimg'a yetgum.*

Farhod shohning har qanday qiyin savollariga osongina javob qaytarar ekan, Xisravning ichiga o't tushgandek bo'lib: «Mendek shohga boshdan oyog'igacha zanjirband bo'lib turgan bu devona ni-mani so'rasam dag'allik bilan javob qilyapti. Unga shunday bir jazo berayki, sultonlar oldida bunday so'zlashga jur'at qilolmaydigan bo'lsin!», – dedi-da, qal'a oldida bir dor tikishga, qadoqli qo'llarini mahkam bog'lab dorga osishga, keyin odamlar-ga buyurib, unga o'q yog'dirishga, xalqqa ibrat

²² G'ayrat – rashk, qizg'anish.

²³ Sheva – odat.

²⁴ Shirkatandesh – o'zini teng qo'ymoq.

bo'lsin uchun o'ligi bir necha kun davomida osig'liq turishiga, so'ng esa jasadini o't bilan kuydirishga va kulini ko'kka sovurishga buyurdi. Uning bu so'zlaridan xursand bo'lib ketgan Farhod kulim-sirab shunday javob qildi: «Ey darg'azab shoh! Dushmanimdan o'ch olayapman, deb o'ylamay qo'ya qol. Sen buyurgan bu jazolar mening tilagim edi. Yorim ishqida o'lishni istardim, bugun Tangri shu orzumga yetkazdi. Sen g'azablanganing sari men shodlanyapman. O'limga buyurganingdan xursandman, chunki jonim azoblardan qutuladi. Meni o'qqa tutish haqidagi farmoning ham mening asl muddaom edi, chunki bu jazo meni hijron alamlaridan ozod qiladi. Meni kuydirib, kulimni ko'kka sovurishga amr qilding. Sen firoq o'tida kuyib kul bo'lmagansan. Men esam hajr do'zaxidan xalos bo'laman, lekin shunisi qiziqki, shoh ishq o'tida kuyib, iztirob chekib yurgan bir bechoraning muhabbati haqidagi gaplarni xalqdan eshitib, unga raqib bo'lmoqchi. Yorni ko'rmay turib, o'ziga sodiq oshiq nomini berib, dahshatli qo'shin to'plab kelib, uning mulkini talon-taroj qilib, qancha odamni o'ldirgan bu hukmdor o'z raqibi bilan yuzma-yuz jang qilishga jur'at qilolmasdan hiyla bilan zanjirband etib, darg'azab bo'lgan holda uni savolga tutib, oshiqning bergan javoblariga chidamay, jazolashga buyruq beryapti. Shumi adolat, shumi shijoat? Agar hushyorligimda Xisrav menga ro'para kelsa edi, sipohlari hozirgisidan yuz marta ko'p bo'lsa ham, men yigitlikni ularga ko'rsatib, barchasining umr ipini uzgan bo'lardim. Shunda g'azabkor shoh ichidagi o'tlar so'nib, shijoat ilmini o'rgangan bo'lardi. Shoh men tomon sipohlar yo'llaganida men ularning qonidan

kechdim, Xisrav boshini ham omon qoldirdim. Endi u mening boshimga qasd qilyapti. Lekin Xitoy sari esgan shamol ahvolimdan xoqonga xabar yetkazsa, o'g'lining azoblab o'ldirilgani, o'tda kuydirilganidan ogoh bo'lsa, qo'shin bilan kelib, Madoyin shahrida tirik odamni qoldirmay, uning tuprog'ini Xitoy mamlakatiga tashitishi va Xisrav mulkidan asar ham qoldirmasligi muqarrar. Unda men begunoh bo'lib, Xisrav gunohkor bo'lishi va barcha vayronaliklarning sababchisi sifatida jazolanishi shubhasizdir. Men har qancha azob cheksam ham, bu so'zlarni ayt-magan bo'lardim. Lekin Xisrav Parvezning nodonligi ana shunday vayronagarchiliklarga olib kelishi mumkinligini o'ylab gapiryapman. Odamlar bu so'zlarim uchun meni qo'rqoqlik qilyapti, deb o'ylamasinlar. So'zimni qisqa qildim, bu jahondan yorim yodi bilan ketyapman», – dedi-da, qo'rg'on tomonga boqib yer o'pdi va u yerda turgan odamlar joniga o't soldi. Keyin Xisravning sipohlariga qarab: «Ana endi osasizmi, chopasizmi, bilganingizni qilavering», – deb xitob qildi.

Shundan keyin Farhodni dor ostiga qarab sudradilar. U yerda o't va o'tin tayyorlab qo'yilgan edi. Bu xabarni eshitgan qo'rg'on ahli faryod chekishar, lekin bo'layotgan voqealarni Mehinbonu bilan Shirindan sir tutishardi. Farhodning dor ostida bo'yniga arqon solingan holda turishini ko'rgan qo'rg'on ahlining dillari vayron bo'lib, o'lar holatga yetishgan edilar.

Dushman tomonida esa Xisravning sipohlari yigitning donoligi, o'lim oldida beparvo turishini ko'rib, uning begunoh ekanligi, jazoga loyiq emasligini bilib, yig'lab turishardi. Xisrav o'z ishidan afsuslanayotgan bo'lsa ham, o'z buyrug'ini bekor qilishga

nomusi yoʻl bermasdi. Barcha voqealarni kuzatib turgan Buzurg Ummid shohni xilvat bir joyga chaqirib: «Uni oʻldirishimizga asos yoʻq. Es-hushidan ayrilgan odamni zindonda ushlab toʻgʻriroq boʻladi. Farhodning gunohi ozroqqa oʻxshaydi, devonaga oʻxshab koʻrinsa ham, soʻzlari haqiqatga yaqinroq. Yaxshisi, baland togʻlar orasidan bir joy topib oʻsha yerga qamasak, ikki-uch oy zindonda yotsa, ikki-uch yuz sipoh uni nazorat qilib tursa maʼqul boʻladi. Rost soʻzlay boshlasa, tirik yursa ham uning ziyoni tegmaydi. Yolgʻon soʻzlayotganini sezsak, istagan ishimizni qila olishimiz mumkin», – dedi. Bu soʻzlar Xisravga ham maʼqul tushdi. Togʻlar ichida Salosil degan mustahkam bir qoʻrgʻonni topishib, Farhodni oʻsha qalʼa tomon joʻnatishdi-da, besh yuz sipohga uni koʻz qorasiday saqlashni buyurishdi.

Qoʻriqchilar Farhodni Salosil qoʻrgʻoniga olib borib, zindonga qamashdi. Uni qattiq nazorat ostida saqlashar, hatto qochib ketmasligi uchun yoʻliga olmos aralash qum toʻshab qoʻyishgandi. Xisrav Farhodni qochirib yuborganlarni kallasini chopib tashlash yoki qoʻrgʻon tepasidan uloqtirib yuborishga buyruq bergan edi. Qoʻriqchilar bundan qoʻrqib doim hushyor turishardi. Lekin yigit chekayotgan oh-u faryodlarni eshitarkan, unga maftun boʻlib qolgandilar.

Suqrot oʻrgatgan ismlar ichida bir ism boʻlib, uni oʻqilsa, kishanlar qayerga borsa ham xalal berolmay qolardi, yoʻlida har qanday mustahkam darvoza uchrasa ham ochilmay qolmasdi. Shu ismni tilga olgan Farhodning bandlari yechilib, darvozalar ochilib, har kechasi qalʼa va uning atrofida, togʻ-u dashtlarni aylanib kelardi. Soqchilar uygʻonmay turib oʻz joyiga qaytgan Farhod

kishanlarni yana taqib olardi. Chunki bu sirlar oshkor bo'lsa, soqchilar Xisrav tomonidan turli jazolarga giriftor etilishidan qo'rqardi u. Lekin sipohlar bu sirdan allaqachon ogoh bo'lishgandi. Farhodning sayrdan qaytgach o'zini yana bandga solayotganidan xabar topgan soqchilar bunday ishni qilmay, bemalol sayr etishiga ruxsat berishdi. Sevgilisidan ayrilib iztirob chekayotgan Farhod tog'-u dashtlarni kezar ekan, yirtqich va xonaki hayvonlar uning atrofini o'rab olishar, qushlar boshiga soya solisharkan, barcha hayvonlar-u qushlar bilan so'zlashib dardini bayon etardi. Ular ham oshiq yigit ahvolini ko'rib faryod chekishardi.

Tong asta-sekin yorishib borarkan, Farhod subhga murojaat qilib: «Sen ham menga o'xshaysan, yuzingda ko'z yoshlaring namoyon, iching ham menga o'xshab o'rtanadi.

*Chu sohib dardsen dardimg'a rahm et,
Tarahhum²⁵ aylabon faryodima yet.
Saharkim gulshan ichra gul ochilg'ay,
Gul uzra turrayi²⁶ sunbul sochilg'ay.
Chu gul termakka ul sarvi gulandom
Qo'yar gulshanda gulruxlar bila gom²⁷
Sovug' ohimni bilgurtub damingdin,
Ko'zum yoshini anglat shabnamingdin», –*

dedi. Quyosh ko'tarilib kelarkan, uning o'ziga o'xshashi, yuzlarining o'zidek sarg'aygani, o'zidek devona bo'lib tog'larda kezayotgani haqida so'zlab iltijo qilardi:

²⁵ Tarahhum – shafqat, rahm qilish.

²⁶ Turra – jingalak soch.

²⁷ Gom – qadam.

*Chu o'tsang mahvashimning maskanidin,
Tushub iqbol yanglig' ravzanidin.
Tariyqi mehribonlig'ni fan ayla,
Qoshida kuymakimni ravshan ayla.*

Kun yoyilib ketgach, tog'-u dashtda kezib, hijron alamiga chiday olmay g'am-anduh chekar, devonalardek ko'z yoshini to'karkan, fig'onidan tog'larni ham bezovta qilardi.

Farhod ayriliq o'tida iztirob chekib, olam ko'zlariga qorong'i ko'rinar, kunduzlari beorom bo'lib tog'-u dashtlarda kezib faryod chekardi. Shom boshlangach, sabr-u toqati qolmay, osmonga boqqanicha: «Ey zolim falak! Jafo-yu zulming shunchalik ham behisob bo'ladimi? Hijron alamida qiynaganingdan ko'ra o'ldirib qo'ya qolsang bo'lmaydimi? Mening boshimga qora kunlarni solib, o'limga ham zor qilding. Yoki necha ming yil sayr qilib endi charchab qoldingmi? Yo mening baxtinga o'xshab uyqudamisan? U oy yuzli go'zal hijronidagi holimga rahming kelsin», – deb nola qilardi.

Ko'kda oy paydo bo'lgach, Farhod unga ta'zim qilib, yerni o'pib:

*Dedi: «Ey tiyra shomim ravshan etgan,
O'lar holatda faryodimga yetgan,
Ne bo'lg'ay rahm etib jonimni olsang,
Ul oying ko'yi tufrog'ig'a solsang.
Bo'lurdektur adam sori xiromim,
Agar yetkursang oxir dam salomim», –*

deb yolborardi. Osmonda birin-ketin Atorud, Zuhra, Mushtariy kabi sayyoralar paydo bo'lar

ekan, ularning har biriga boqib yurak dardlarini izhor etar, madad so‘rab iltijo qilardi. Ishi kotiblikdan iborat bo‘lgan Atorudga boqib: «Ey do‘stlar ahvolini falak varaqlariga bituvchi, mening ko‘zlarim yoshini siyoh qilib, og‘ir ahvolimni xatda birma-bir bayon etgin-da, quyoshimdan nur kasb etishing chog‘ida uni ko‘rar ekansan, o‘sha maktubimni oldiga qo‘ygin», – deb iltimos qilgan bo‘lsa, Zuhroga nazar tashlar ekan: «Ey shodlik kuychisi, sening ovozing-u jonbaxsh kuylaring olamga mashhur. Bir zamon sozandalik torini uzgin-da, mening o‘limim haqida motam kuyini chalib, oy yuzli go‘zalim bazmida ishtirok etadigan bo‘lsang, mening halokatim haqidagi bu marsiyani ham qo‘shib kuylagin», – dedi. Keyin oltinchi osmonda turgan Mushtariyga, saodat yulduziga termulib nola qildi:

*«Ki ey burji sharaf masnadrinishini,²⁸
Saodat taxt-u tojining amini,²⁹
Duoye qilki, Haq bersun murodim,
Bu mehnat shomidin bo‘lsun kushodim.
Boshimdin hajr shomi dudi ketsun,
Ko‘zumga vasl subhi nuri yetsun».*

Yulduzlar charaqlay boshlagach, Farhod ularga ko‘zlarini tikib: «Sizlar mening ko‘z yoshlarimdan nishonasizlar. Ashkim durlari kabi yo‘lga tushing. Hazin ko‘nglim yuz ming pora bo‘ldi, har bir porasi g‘am-alam gulining bargidan bir belgidir. Har biringiz ularni yig‘ib olingiz-da, yorim ko‘chasiga yetkazing», – deb murojaat qildi. Farhod saharga-

²⁸ Masnadrinishin – taxtda o‘tiruvchi.

²⁹ Amin – saqlovchi, posbon.

cha shu tarzda dard-u g'am chekib, fig'on qilishlardan quvvati ketdi-da, hushini yo'qotib, o'likdek yerga cho'zildi. Uning bu holatiga osmon ko'k kiyib, falak yulduzlar duridan ko'z yosh to'kar, asta ko'tarilib kelayotgan quyosh ham bu oshiq yigit dardiga malham bo'lishga ojiz edi.

Farhod kishanlardan qutulib istagan tomonga borish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, nogahon Xisrav eshitib soqchilarni jazolamasin, degan fikr bilan o'z manzilidan ko'p uzoq ketmasdi. Lekin bu ishlarning bari shoh qulog'iga borib yetgandi. Darg'azab bo'lgan Xisrav soqchilarni qattiq jazoladi. Keyin Farhodning o'sha yerda ekanligi, o'z manzilidan yiroqqa ketmayotganini bildi-da: «O'zimni bilmaslikka olib, bu voqealarni eshitmagandek yurishim ma'qulga o'xshaydi», – degan qarorga keldi. Farhodni kishanda ko'rgach esa yanada xursand bo'ldi.

Shoh makkorlik bilan Farhodni qo'lga olgan paytda Shopur shaharga kirgan edi. U o'z do'stining ahvolini o'ylab nola-yu faryod qilar, ko'kragiga tosh urib iztirob chekardi. Farhodning hiyla bilan behush holda bandi qilingani, shoh savollariga oshiq yigitning qanday javoblar qaytargani, Xisrav gunohsiz raqibini qatl qilmoqchi bo'lgani, bunga parvo qilmagan Farhodning aslida Xito-yu Chin eliga xon ekani xalq orasida keng tarqalib ketgan edi. Shahar aholisi Xisravdan g'azablanib, Farhodga maftun bo'lgandi. Bu voqealar haqida, oshiq yigitning donoligi-yu jasorati to'g'risida shoirlar ko'plab g'azallar yozishar, xonandalar ashulalar kuylashardi.

Bo'lib o'tgan barcha hodisalar Mehinbonuga ham eshutilgan bo'lib, qanday chora topishni bil-

may yigʻlagani yigʻlagan edi, bu soʻzlardan Shirin xabar topsa, shubhasiz, oʻzini oʻldiradi, deb tashvish chekardi. Lekin Shirin oʻz yorining dushman qoʻliga tushganini sezgan boʻlib, goh oʻzida, goh behush edi. Parda orqasida oʻtirib cheksiz azob chekar, ayriliqdan nihoyatda gʻamgin edi.

Bir kuni u toza havodan bahra olish uchun qasr tomiga chiqdi. Atrofga boqib, bogʻdagi gullarni tomosha qilib turar ekan, qulogʻiga hazin bir ashula eshitildi. Dardli qoʻshiq soʻzlariga diqqat qilar ekan, har bir bayt Farhod haqida, Xisravning yigit boshiga solgan behad zulmi toʻgʻrisida ekani ni angladi-da, bagʻriga oʻtkir bir xanjar qadalgan-dek boʻlib kuchli bir oh tortdi-yu, boshini yerga urib, qonga boʻyaldi, gulgun yoqasini chok qilib, sochlarini yoyib, faryod chekib, hushini yoʻqotib, yerga yiqildi. Uning boshiga yetib kelgan Mehinbonu tinmay yigʻlab turar ekan, Shopur ham kelib, malika oldida yer oʻpdi va shunday dedi: «Malikam, yovuz Xisrav bechora Farhodni hiyla bilan band etganida, uni behush aylagan mak-korni tosh bilan urib oʻldirdim-u, keyin doʻstim oldiga borishni ham, sizning huzuringizga kelishni ham bilolmay, yigʻlab, iztirob chekib yurdim, bir vayronada behush yiqilganча ancha kun yotdim. Oʻzimga kelgach, qoʻrgʻondan tashqari chiqib, Xisrav lashkari orasida bekinib yurib, ularning soʻzlariga quloq tutdim. Ular Farhod haqida faqat yaxshi soʻzlarni aytishardi. Shuni ham eshitdim-ki, Farhod oʻzi zindonband etilgan qadimgi bir qoʻrgʻonda sogʻ-omon ekan. Xisravning soqchilarga: «Agar bu mahbus oʻzi turgan yeridan uzoq ketsa, hammangni oʻldiraman», – degan poʻpisasini eshitgan Farhod soqchilarga ozor yetmasin

deb, o'sha tog'dan uzoqqa ketolmay yurar ekan. Bu so'zlardan xabar topgach, uning tomoniga bormay, sizlar tomon yo'l oldim. Chunki el orasi-dagi gaplardan sizlarning ahvolingizni bilar edim. Shuning uchun ikkovingizni xursand qilishga shoshildim. Sizlarni ko'rib, keyin do'stim yoniga bormoqchiman. Yo so'zlarimni to'xtatib, hoziroq u tomonga jo'naymi?»

Bu so'zlarni eshitgan Mehinbonu: «Sen aytgan so'zlar jarohatli ko'nglinga malham bo'ldi. Seni topolmay juda noshod edik. Farhodning sog'-omonligini eshitib juda xursand bo'ldik. U yotgan qo'rg'on tomon boradigan bo'lsang, bizning aytmoqchi bo'lgan so'zlarimiz ko'p, Allohga shukrlar bo'lsinki, seni ko'rib Farhodni ko'rgandek bo'ldik», – dedi-da, Shirin ahvoli, hozirgina behush bo'lib yiqilganini aytib berdi. Shirinning dimog'iga turli xushbo'y isli tutatqilarni tutib hushiga keltirishdi. Ko'zini ochib, Shopurni ko'rgan Shirin yana o'z Farhodini yodga olib, faryod qildi:

*Ki «Ey Shopur, qaydin bo'yla yetting,
Kelibsan fard³⁰, hamrohingni netting?
Hamul kim mehr ko'sin³¹ urmish erdim,
Borur chog'da senga topshurmish erdim.
Rafiq-u yorlig' mundoq bo'lurmu,
Amonatdorliq³² mundoq bo'lurmu?
Manga o'z g'oyibimdan bir nishon ayt,
Desangkim, hajrdan o'lmay, ravon ayt».*

³⁰ Fard – yakka.

³¹ Ko's – nog'ora.

³² Amonatdorliq – topshirilgan narsani omon saqlash.

Shundan keyin Shopur Mehinbonuga aytganlarini birma-bir takrorladi-da: «Farhodning oldiga ketyapman, bundan sizni xabardor qilay, agar maktub yozib bersa, uni do'stinga yetkazay, degan maqsad bilan bu yerga kelgan edim», – deb qo'shib qo'ydi. Shirin darhol o'rnidan turib xoli bir joyda o'z sevgilisiga xat yozishga kirishdi. Shopur u maktubni olib, Farhodni izlab topish uchun jo'nadi. Odamlardan eshitgan yashirin yo'llardan yurib sahar paytida do'sti qoshiga yetib bordi. U behush holda yotar, atrofini bir to'da vahshiy hayvonlar-u qushlar o'rab olgandi. Buni ko'rgan Shopur do'stining boshini qo'yniga olib, faryod chekdi. Uning ko'z yoshlari Farhodning yuzlariga gulobdek yog'lgach, ko'zini ochib o'ziga keldi. Ik-kala do'st bir-birlarini quchoqlab rosa yig'lashdi. Bu holatni kuzatib turgan tog'-u vodiy ham ko'z yoshlarini to'ka boshladi. Keyin Shopur qo'ynidan maktubni chiqarib, do'stining qo'liga tutdi. Uni ochgan Farhod madori ketib Shirin maktubini o'qiy boshladi. Shirin maktubida uning Farhodga bo'lgan ehtirosli muhabbati, cheksiz sadoqati, chekayotgan alam-u iztiroblari, orzu-yu tilaklari otashin misralarga jo qilingan edi.

*Nedur ahvoling, ey zori g'aribim,
Visolim davlatidin benasibim?
Chekardin g'am tog'in holing nechukdur,
Bu yukdin jismi chun noling nechukdur?
Qatig' g'urbat aro holing ne erkin,
Achiq furqatda ahvoling ne erkin?
Firoq ichra nechukdur jismi zoring,
Ne yanglig' to'lg'onur o't ichra toring?*

kabi vafo to'la so'zlar bilan boshlangandi u. «Yashayotgan joying tog'mi yo sahromikan, to'shaging toshdanmikan? Yurgan yo'llaringda kiyiklar-u qulonlar hamrohlik qilarmikan? Yirtqich hayvonlar xizmatkorlaring-u qushlar qanoti sening soyaboning emish. Sen Sulaymon payg'ambar obro'sini topibsana, men esa Bilqis³³dek yoring bo'lolmasam ham, kanizing bo'lmoqqa tayyorman.

*Ne bo'lg'ay erdi charxi zulmpesha³⁴,
Meni sendin judo qilmay hamesha,
Xiroming chog'i yo'ldosh bo'lsam erdi.
Sukunung vaqti qo'ldosh bo'lsam erdi.
Quyosh yanglig' bo'lub kunduz qarining³⁵,
Bo'lub tun soya yanglig' hamnishining³⁶,
Tikan kirsak kafinga kiynasidin³⁷,
Chiqarsam erdi kirpik ignasidin,
Ko'rub xor-u xas o'ringda nihoni,
Sochim birla supursam erdi oni»*

– deb iltijo qilardi vafodor Shirin.

«Zolim falak bizni bir-birimizdan ayirdi, ko'ksimizni har qancha pora qilsak ham, biron chora topishning iloji yo'q. Sen balolar kishaniga muftalo bo'lib, cheksiz azob chekyapsan, lekin qo'lingda qattiq toshlarning mum kabi erigani jahon ahliga ma'lum. Mendan ayrilganingga alam tortayotgan bo'lsang ham, sen erkaksan va pahlavonsan, hijron qiynaganda, oh chekib, ko'nglingni bo'shati-

³³ Bilqis – Sulaymon payg'ambarning sevimli rafiqasi.

³⁴ Zulmpesha – zolimlikni odat qilgan.

³⁵ Qarin – yaqin do'st.

³⁶ Hamnishin – hamsuhbat.

³⁷ Kiyna – dushmanlik.

shing mumkin. Jismingni mashaqqat o'ti qiynasa, ko'z yoshlaringni to'kib taskin topa olasan. Lekin men zor-u zaifa qiz ayriliq tig'idan jonim yuz pora bo'lib, hajr o'tidan ko'nglum o'rtanib, jismim kulga aylanayotgan bo'lsa ham, bu dardlarimni aytishga biron do'st topolmayapman. Dushman mening mamlakatimni bosib olib, lashkarlarimni qirib tashlayapti. Arman diyoringning shohi ham, faqiri ham dushmanlar asiriga aylandi. Bularga mening ishqim sabab bo'lgani aniq. Shuning uchun xalqning qarg'ishiga qoldim. El oldida ham, Mehinbonu oldida ham uyatliman. Lekin bu azoblarim yana yuz marta ko'proq bo'lsa ham, ba'zi-ba'zida seni ko'rib tursam, bunchalik g'am chekmasdim.

*Hayotim vaslinga ummid ilandur,
Umid ul rahmati jovid³⁸ ilandur.
Agar hajringda yuz yil g'ussakashmen³⁹,
Agar vasling umidi bo'lsa xushmen.
Chu bo'lsang holima ogoh-u a'lam⁴⁰,
Javobin ham yubor, vallohu a'lam⁴¹»*

Maktubni o'qib chiqqan Farhod goh o'zini unutib fig'on chekar, turib olib uyoqdan buyoqqa sabrsizlik bilan yurib, gohida hushidan ketib qolardi. Oxiri u Shirin maktubiga javob yozishga ahd qildi, lekin qog'oz, qalami yo'q edi. Shopur buni oldindan o'ylab qog'oz, siyoh va qalamni o'zi bilan olib kelgan edi. Farhod o'zini qo'lga olib xatni yozib tugatdi-da, do'stiga topshirdi. Shopur shahar

³⁸ Jovid – abadiy.

³⁹ G'ussakash – g'am chekuvchi.

⁴⁰ A'lam – bilag'on.

⁴¹ Vallohu a'lam – Alloh bilguvchidir.

tomon yo'l olgach, Farhod yana dard o'ti ichida qoldi. Shopur qo'rg'onga yetib bordi va maktubni Shiringa topshirdi. U esa xatni o'qishga kirishdi. Bu oddiy maktub emas, balki g'am dostoni edi. Farhod o'z maktubini Alloh madhi bilan boshlagan bo'lib, yurak so'zlarini telbalik holatida yozayotganini ta'kidlaganidan so'ng Shiringa:

*Nigoro, mahvasho, iffat panoho,
Jahon mahvashlarig'a podshoho!
Sanga haddim yo'q, o'lmoq nukta pardoz,
Tilarmen itlaringg'a aytmoq roz.
Nedur ko'yung aro itlarga holat,
Farog'at birladurlar yo malohat.
Kecha ul ko'y aro qilg'onda faryod,
Qilurlarmi bu itgan itni ham yod, –*

so'zlari bilan murojaat qilib: «O'sha itlar yig'ilgan chog'larda meni yo'qlasharmikan, suv ichganlarida, mening ko'z yoshlarimni eslasharmikan, o'sha ostonaga bosh qo'rganlarida, menga ham joy qoldirisharmikan, menga qazodan yetgan azoblarni bilib, holimga aza tutib tunlari ulusharmikan, bo'yinlarini bog'lashganda, mening bo'ynimda yuzta kishan borligini bilisharmikan? Ularning ichida menga o'xshagan behol, qo'tir bir it ham bor bo'lib, men kabi joni o'rtansa ham, sening yuzingni ko'rishga ko'zlari to'rt bo'lib turardi. U bilan men senga vafodorlikda tortishardik. O'sha it menga doim mehribonlik ko'rsatar, ko'zim qonini ko'rganida, uning ham qoni oqar, bir do'st kabi men bilan yaqin edi. Uning ahvoli qandaykan, ostonangda panoh topganda, meni ko'z oldiga keltirarmikan?

Maktubingda har biri durdonaga teng yaxshi soʻzlarni yozibsan, ularning har biriga jonim sadqa boʻlsin. «Mening ham gʻam-u dardim koʻp», – degan gapingni oʻqib, jonim kuyib ketgandek boʻldi. Menga oʻxshagan yuz minglab oshiq oʻlganida ham, muborak xotiringga gʻam yetmasin. «Sen no-tavon boʻlsang ham, pahlavonsan, togʻ boʻlsa ham teshang oldida past, sher boʻlsa ham panjangan halok boʻladi», – debsan. Unday zoʻr shavkat-u quvvatim qolmagan. Hozir chumolidek ojizman. Ishq hatto ajdahoni ham chumolidek qilib qoʻyar ekan. «Taxt-u tojim, mamlakat-u lashkarim dushman qoʻliga tushdi, Mehinbonu bilan men qoʻrgʻonda qamalib, azob chekmoqdamiz», – deb yozibsan. Bu gaplaringning barchasi rost. Lekin boshga kelgan qazoga rozi boʻlishdan boshqa chora yoʻq. Mamlakating, sipohlaring, xalqing boshiga tushgan balolardan xabardorman. «Bu azoblarga sen sazovor eding-u, falak ularga zulm qildi», – desang, bu ojiz jonimni fido qilishga tayyorman.

Mening ham erkin diyorum, iqtidorli xalqim bor edi. Otam necha-necha iqlimga xoqon edi. Boshimda toj, oyogʻim ostida taxt bor edi. Xitoy bilan Chindagi oʻn ikki ming shahar hukmim ostida boʻlib, shunga yarasha sipohlar-u boyliklarga egalik qilardim. Boshimga ishq mojarosi tushib, diyorimdan ayrilib, bu yerlarda devona boʻlib yuribman. Otam bilan onam, necha ming shahar xalqi mening ahvolimdan iztirob chekmoqda. Bu ishlar uchun kimga taʼna qilay? Taqdirga tan berishdan oʻzga qanday chora bor? Bu nomani hushimdan ozgan holda yozdim. Shuning uchun nima yozganimni ham bilolmadim. Men devona oʻzimdan ogoh emasman: xato soʻzlar degan

bo'lsam, kechirgin, chunki majnunlarning xatosini hamma ham kechiradi».

Shirin ushbu maktubni iztirob chekib o'qir ekan, qalbi tirnalar, Farhodning tirik ekanidan shodlanib yerga bosh qo'yar, chekayotgan azoblarini anglab, nola qilib, ko'z yoshlarini to'kardi. Xat mazmunini Mehinbonuga so'zlab berganida, malika ham g'amga to'ldi. Keyin Shopurga o'z ehtimromlarini bildirib, izzat-ikrom ko'rsatishdi. Undan Farhodning ahvolini birma-bir so'rar ekanlar, ko'z yoshlarini to'xtatisha olishmasdi.

Shopur ikki sevishgan qalb sohiblarining maktublarini bir-birlariga yetkazib yurar ekan, Xisrav bundan xabardor bo'lib qoldi. Farhod bilan Shirinning o'zaro kelishib, biron yoqqa qochib ketishlari mumkinligini, ularni qidirib topishganda ham bu pahlavon yigitni qo'lga olish oson bo'lmasligini o'ylagan shoh o'ziga otilgan toshni esladi. Farhodning har bir qadamini kuzatib yurish foydasizligiga ko'zi yetgan Xisrav shahardan Salosil qo'rg'oniga qadar bo'lgan yashirin yo'llarga josuslarni qo'yib, har bir yo'lovchini tekshirib, kimdan bir maktub topilsa, tezlik bilan o'z huzuriga olib kelishni buyurdi. Ikki-uch kun o'tib, Shirinning maktubini olib kelayotgan Shopurni qo'lga olib Xisrav dargohiga keltirdilar. Xatni o'qigan shoh muhabbat dostoni bilan tanishgandek bo'lib, boshidan qora tutun chiqib ketayotgandek bo'ldi. Har bir so'z vafo nishoni bo'lib, cheksiz mehr-u muhabbat, ahd-u paymonlar ifodasidan darak berardi.

Maktubda Xisrav nomi ham tilga olingan bo'lib, uning Arman mulkini vayron qilgani, xalqqa ko'pdan ko'p jafolar yuzlangani aytilib, uni goh

zolim, goh qon to'kuvchi – xunrez kabi nomlar bilan atalgandi. Shuningdek, uning oshiqlik da'vosini qilib, lof urayotgani haqida yozarkan, Shirin:

*Chu ul maqsud bilmish ishqdin kom⁴²,
Mening vaslim xayolidur anga xom.
Erur bu ishda sa'yu ehtimomi⁴³,
Tamomi harzau⁴⁴ zoye' tamomi.
Mening jismimda to jondin ramaqdur⁴⁵,
Ishim qo'rg'onda o'zni asramakdur.
Qazo qilsa meni oning asiri,
O'lumdin chun kishining yo'q guziri⁴⁶.
Tanimni aylabon xanjar bila chok,
Ani qilmay visolimdin tarabnok⁴⁷.*

Bu so'zlardan xabardor bo'lgan Xisravning joniga o't tushib, titray boshladi. Shirinning barcha yozganlari to'g'riligiga tan bersa ham, saltanat obro'si, o'zining havoyi nafsini ustun qo'ygan shoh Shopurni zanjirband qilishga va zindonga tashlashga buyurdi-da, huzuriga Buzurg Umidni chaqirib, bor gapni unga so'zlab berdi va: «Bu ishlardan g'am-alam chekib, ko'nglim qonga to'ldi. Biron chora topib dardimni aritmasang, halok bo'lishim muqarrar. Bu holda el mening ustimdan kula boshlaydi, ularni jazolasam ham alamimdan qutulolmayman. Farhodning begunohligini ham bilaman, shuning uchun ham

⁴² Kom – maqsad; bahra olish.

⁴³ Sa'yu ehtimomi – harakat qilish.

⁴⁴ Harza – befoyda.

⁴⁵ Ramaq – oxirgi nafas.

⁴⁶ Guziri – chorasi, iloji.

⁴⁷ Tarabnok – xursand.

uni o'ldirishni to'g'ri deb o'ylamayman. Menga bu ishda bir yo'lni ko'rsatmasang bo'lmaydi», – deb iltijo qildi. Ikkovlari bu xususda fikrlashib, ba'zida tortishib, oxiri shunday qarorga kelishdi: odam o'ldirishni o'zi uchun savob deb biladigan bir qotilni topishadi-da, unga Farhodning oldiga borib: «Xisrav Arman shahrini bosib oldi, maqsadlari ro'yobga chiqib, hozir Shirin bilan davr surishyapti. Mehinbonu jiyanini shohga nikohlab berdi. Sevganing sendan Xisravni afzal ko'rgan ekan, endi oshiqligingdan nima foyda? Yaxshisi, uni tark etib, o'z yurtingga ketganing afzal», – deb aytishni buyurishadi. Bu so'zlarni eshitgach, boshini olib bir tomonga yo'l olsa, tashvishlardan qutulamiz. Shirin bilan Mehinbonu Farhodning ketganini bilishsa, undan umidlari uzilib, aytganimizga ko'nishlari aniq. Agar Shirin yoridan ko'nglini uzolmasa, yana boshqa bir tadbirni o'ylab toparmiz». Ushbu chorani o'ylab topishgach, bir hiylakor kampirni topib kelishdi. U qaddi ikki bukilgan bir makkora bo'lib, ko'p hiylakorlik qilganidan yuzini ajin bosgan, umrida biron marta ham rost gapirmagan, afsun-u hiyla bilan toshni ham yumshatib mumga aylantiradigan, otaga qizini, o'g'ilga onasini nikohlay oladigan, bir so'z bilan xonadonlarni vayron qiladigan, istasa, yuzta Buqrotni gum qilishga qodir, zulm tig'ini urib, Farhodga o'xshagan pahlavonlarning ham boshiga yeta oladigan berahm bir badbaxt edi. Unga bor gapni yashirincha bayon qildilar, hadsiz-hisobsiz mukofotni va'da qilib, Farhod tomon jo'natdilar. «Farhod bo'ladimi, po'lat tog' bo'ladimi, bir afsun bilan yo'q qilaman», – deb Xisravni ishontirgan

bu makkora bir necha kun mobaynida dasht-u vodiylardan o'tib Farhodning manzilgohi bo'lgan tog' oldiga yetib bordi. Uni ko'rgan Farhod darrov o'rnidan turib salom berdi-da, bu tomonlarga kelishidan maqsadi nima ekanini so'radi. Kampir: «Men el-u yurtimdan voz kechgan zaif, xasta jon bir odamman. O'n-o'n besh yildan beri bir xilvat joyda yashab, toat-ibodat bilan mashg'ul edim. Jahondagi biron kishi bilan ishim yo'q, Tangridan o'zga bir kishim ham yo'q edi. Arman mulkida tinchlik-omonlik bo'lganidek, mening holim ham xotirjam edi. Parvez otliq bir shoh kelib, elning tinchligini buzdi, sen bu haqda eshitgan bo'lsang kerak. Elning ahvoli ham, mening hayotim ham o'zgarib ketdi. U yerda toat-ibodat qilish qiyin bo'lib qoldi. Shunda kechiktirmay eldan yiroqroq bir yerda yashay, umrim ham oz qoldi, o'lsam o'sha makondagi g'or menga go'r bo'ladi, deb o'ylab bu tomonga yo'l oldim. Tog'da kezib yurib, shu manzilni yoqtirib qoldim. O'zim tog' ichida tirik bo'lsam ham, umrdan qo'limni yuvib qo'rganman. Odamzod – vafosiz, uni eslashdan foyda yo'q», – dedi.

Bu so'zlarni eshitgan Farhod xursand bo'lib, uning oldidagi tuproqni, keyin oyog'ini o'pdi-da, «Vafosizlik jahon ahlining odati. Biron ish seni xafa qilgan ko'rinadi. Arman diyoridagi ahvol tufayli ko'nglung g'ubor topdimi?» – deb so'radi. Makkora: «Ey o'g'lim, gaplaring rost, bu mamlakatdan omonlik ketib, o'rnini yomonlik egallagan. Mehinbonu bilan Xisrav yarashib, o'zaro yaqin bo'lib olishdi. Xisrav nikoh ishini oraga solgan edi, malika ham rozi bo'la qoldi. Katta to'y bo'lib,

mamlakat-u taxt may seli ostida qoldi. Solih odamlar shaharni tark etib, har yoqda zor-u sargardon bo'lib yurishibdi, Shirin esa juda g'amgin bo'lib, faryod chekib o'zini o'ldirdi. Ba'zilar zahar ichgandir, deyishyapti. Uning Farhod degan bir dardmand sevgilisi bor ekan. O'sha yigitdan ayrilganiga chiday olmay, uning ishqi bilan bu olamdan ko'z yumibdi. O'lim oldida ham Farhod nomi uning tilida ekan», – dedi. U ushbu so'zlarni aytar ekan, og'zidan «oh», «vo darig'» degan iboralar to'xtamay chiqardi.

Bu afsonani eshitgan Farhodning ko'ksiga yuz ming tig' urilgandek bo'ldi. Kampir nayrang ishlatib, oh-faryod qilar ekan,

*G'ireve⁴⁸ tortibon Farhodi mazlum⁴⁹,
Dedi: «Bas qilki, bo'ldi qissa ma'tum.
G'araz⁵⁰ gar jon edi, olding, ano, hoy,
O'luk tandin ne istarsen yano, hoy.
Ko'ngul qonin ichardin to'yug'il emdi,
Meni o'z mehnating'a⁵¹ qo'yug'il emdi,*

– deb o'rnidan turdi-da, jahondan qo'l siltab, ko'z yoshidan sellar oqizib, tog' ichiga yugurib ketdi.

Makkora kampirning hiylakorlik bilan aytilgan so'zlarini eshitib, bag'ri pora bo'lgan Farhod tog' ichida faryod chekib borar ekan, holsizlanib yiqildi, turishga necha bor harakat qildi-yu, har safar yiqilaverdi. So'ng qattiq tosh ustida talpinishga tushib, boshini toshlarga ura boshladi. Ajal

⁴⁸ G'irev – hayqiriq, qichqiriq.

⁴⁹ Mazlum – zulm chekkan.

⁵⁰ G'araz – maqsad.

⁵¹ Mehnat – mashaqqat chekish.

ko'ksini pora qilgan bu bechora yigitning ahvolini ko'rib turgan vodiy-u tog'lar zor yig'lashardi. Jis- midagi yaralar qip-qizil gullarni eslatar, atrofidagi gullar esa o'tlarga o'xshardi.

Farhod osmonga boqarkan: «Ey zarrin charx, boshimni yanch, u endi menga keraksiz; ey g'am tig'i, tilimni kes, endi so'zlashni istamayman. Ey g'am-alam toshi, oyog'imni sindir, ajal, ko'ksimni ilma-teshik qilib tashla, ey oh, yorim sari yo'lga tushgin-da, mening jonimni ham o'zingga hamroh qil!» – deb yolbordi.

Keyin sahroga boqib: «Sen mening oyog'im zarbidan ranj chekding, yoshim seli bilan bag'ring- ni yordim, yugurib gardingni chiqardim. Endi men bergan azoblardan qutulding, bergan alamlarim uchun meni kechirgin», – deya iltijo qildi. Tog'ga qarab vasiyat qilar ekan: «Senga mendan ancha ozor yetdi, yuzungdan uyatlikman. Tesham va metinim bilan bag'ring-u jismingni yordim, yuzing ba'zan ko'z yoshimdan qizarib, ba'zan ohimdan boshing ustida tutunlar paydo bo'ldi. Barcha ayblarimni afv etib, ketar chog'imda meni kechir- gin», deb fig'on chekdi.

Farhodning ko'zi metinga tushgach, u o'zining dil izhorlarini bayon qilib: «Mendan senga ko'p sarzanishlar yetgan bo'lsa, sendan men ko'p par- varishlar topdim. Sening boshingni kuch bilan toshlarga urardim. Sen bilan tesha ikkovingiz mendan ko'p alamlar chekdingiz. Bugun mening azoblarimdan ozod bo'lasiz. Mening bor qilmish- larimni kechiringlar», – dedi. Keyin o'z atrofida yovvoyi hayvonlar-u parrandalarni ko'rgach, Far- hod ularga qarab: «Sizning barchangiz mening hamdamim, suhbatdoshlarim edingiz, kecha-yu

kunduz men bilan ulfatchilik qildingiz. Qaysi tomon yoʻl olsam, menga hamrohlik qildingiz, boshimga soya solib, mehringizni bagʻishladiniz. Figʻon chekkan damlarimda menga hamdard boʻlib, birontangiz ham malomat izhorini qilmadingiz. Barchangizning oldingizda xijolatdaman, oʻz uzrimni qay til bilan bayon etishni bilolmasman», – deb nola qildi. Hayvonlar-u parandalar oʻz ovozlari baland koʻtarishib, motam tutayotganlarini bayon qilishardi.

Farhod umri tugab borayotganini sezgach, otasi bilan onasini koʻz oldiga keltirib, qonli koʻz yoshlarini toʻka boshladi-da, saboga xitob qilib: «Chin-u Xito mamlakatiga yetib borgin-da, yerini oʻpgach, xoqon qoshiga yoʻl olib bunday degin:

*Kim ul ovorayi bexonumoning⁵²,
Bagʻir xunobidin bir qatra qoning,
Itib⁵³, olamda hirmon birla oʻldi,
Yuzungni koʻrmay armon birla oʻldi.
Budur komimki, Bahromi dilovar⁵⁴,
Ki bor erdi manga ul yor-u yovar,
Cheriklar⁵⁵ jamʼ aylab bemadoro,
Buyon qilsa azimat oshkoro;
Qilichi toʻygʻarib Xisravni jondin,
Tilasa begunoh qonimni ondin.*

Soʻng onamning oldiga bor. Mening oʻlimimni eshitib, oh-u faryod ursa, yuzlarini tirnab, sochlarini yulsa, mening shu soʻzlarimni yetkaz: «Sen

⁵² Bexonumon – darbadar.

⁵³ Itib – yoʻq boʻlib.

⁵⁴ Dilovar – pahlavon, bahodir.

⁵⁵ Cherik – qoʻshin, lashkar.

bir yaxshi farzandga orzumand eding, lekin meni ko'rgach bir lahza ham xursandlik ko'rmading. Katta bo'lgach, o'z diyorimdan uzoqlarga ketib ovora-yu sarson bo'lganimda, ayriliqdan behad o'rtanding. Agar sen dardim tufayli g'amzada bo'lsang, iztirob-u alam chekkumdur. Meni roziligingdan noumid qilib, jonimga do'zax o'tini ravo ko'rmagin».

Mulkoro qoshiga borib, mening boshimga tushgan barcha ofat-u balolar taqdiridan ekanini uqdir. Bahromga, avvalo, salomimni yetkazib, so'ng ushbu so'zlarimni ayt:

*Ki ey jonim topib joningga payvand,
Ko'kaltosh-u ini, shogird-u farzand,
Gar istarsenki tekkay yerga yonim,
Bo'lub xushnud sendin xasta jonim.
Bu yon azm aylamak jazm ayla filhol,
Cherik jam' aylabon azm ayla filhol.
Bu ishdin rohati jonimni ista,
Topibon qotilim, qonimni ista.
Aning birla kelur xaylimga bir-bir,
Hadisim dafa-dafa ayla taqrir».*

Saboga murojaat etayotgan Farhod Xo'tan mulkida o'z ishtirokida qurilgan to'rt qasr tomon yo'l olishni, jannatmakon bu manzillarni tomosha qilib, har biriga o'z salomini yetkazishni, Moniyni ko'rib, qasrlar devoriga solingan Yunonistondagi qahramonliklarini aks ettiruvchi suratlarning barchasini yuvib, o'chirib tashlashni iltimos qilishini so'radi. So'ngra Qoranni uchratgach, toshlar ustiga ishlangan o'zi tasvirlangan naqshlar va yozilgan ismlarini metin bilan qirib tashlashni iltimos qilishini tayinladi.

Do'sti Shopurga so'nggi, vidolashuv so'zlarini yetkazishni so'rarkan, uning o'ziga hamisha sadoqatli hamdam bo'lganini aytib,

*Hamisha voqif o'l qabrim toshidin,
Ayog'ing chekma tufrog'im boshidin, -*

degan vasiyatini yetkazishini iltijo qildi. Farhod o'z dilidagi barcha so'zlarni aytib bo'lgach, joni og'ziga kelib, kalima keltirdi-da:

*Qilib jononi otin tilga ta'lim,
Tutub jonon otin jon etti taslim. -*

Bu holatni ko'rgan olamga g'avg'o tushib, ishq o'z bo'yniga qora kigiz tashlab motam tutar, dard-u balo o'z yorlarini yo'qotishganidan o'rtanishar, yirtqich hayvonlar makkora kampirni pora-pora qilib, tish-u changallari bilan yirtib tashlashdi, shugina emas, o'z tanlarini ham tishlab fig'on chekishardi. Ularning bu xil motami vafosiz odamzoddan vafodor hayvonlar yaxshiroq ekanini tasdiqlab turardi.

Farhod vafot etgach, atrofini o'rab olgan vahshiy hayvonlar-u qushlarning ko'pi alam chekib o'zlarini o'ldirishdi, yana ko'plari bu dard-u g'amdan kasal bo'lib qolishdi. Omon qolganlari uning azasini tutib, fig'on qilishardi. Barchalari uning atrofidan nari ketmas, shu tufayli odamlarning yaqin kelishlariga imkon yo'q edi.

Farhod o'lmasidan biroz ilgari o'sha yerlarda yashaydigan bir kishi uni ko'rish, xizmatini qilib ko'nglini olish maqsadida shu makonga qadam qo'ygandi. Farhodning ahvolini, uning tegrasidagi

hayvonlarning iztirobini ko'rgach, uzoqdan turib bo'lib o'tgan voqeani kuzatdi-da, avvaliga yigitni qabrga qo'yib, o'sha yerda mujovir-mozorga qarab turuvchi bo'lib qolishni o'yladi, lekin sher-u yo'lbarslar changalidan qo'rqib, bu hodisani tezlik bilan shaharga yetkazishga qaror qildi-da, qo'rg'on sari yo'l oldi.

Mudhish xabarni eshitgan shahar xalqi zor-zor yig'lar ekan, Xisrav ham, Shirin ham eshitishdi. Shoh o'z raqibidan qutulgani uchun shod bo'lsa ham, taqdirning undan o'ch olishini o'ylab g'am chekardi. Keyin: «Bo'lar ish bo'ldi, endi sust-kashlik qilish yaramaydi», – degan qarorga kelib, Mehinbonu qoshiga sovchilarini jo'natdi. Ular malikaga Xisravni ko'klarga ko'tarib maqtadilar va nikohga rozilik berishini so'radilar.

Mehinbonu saroyidagi a'yonlar ham Farhod vafotidan so'ng dushmanlikni davom ettirishdan ko'ra, uning aytganlariga ko'nish ma'qulligini ta'kidlashdi. Mazlum Farhod o'limidan xabar topib, unga onalardek aza ochgan malika Mehinbonu Shirin ahvolini o'ylardi. Jiyanining necha bor zahar ichmoqchi bo'lgani, uning atrofidagi odamlar bilib qolib, bunga imkon berishmagani, o'zini kuydirmoqchi bo'lganida ham, odamlar bunga yo'l qo'yishmagani, malika qo'ygan mu-lozimlar-u kanizaklar doim hushyor turib Shirin hayotini asrayotganlari unga ayon edi.

Bu payt qo'rg'ondagi bor oziq-ovqat tugab, xalq Mehinbonudan norozi bo'la boshlagan, mamlakatning ulug' kishilari malikaga elning sillasi qurib, toqati toq bo'layotganini, hatto shahar darvozalarini dushman qo'shinlariga ochib berishga ham tayyor ekanini aytishgan edi. Bu gaplardan so'ng

Mehinbonu Shirin oldiga keldi-da, unga xalq ichidagi mojarolarni soʻzlab berdi.

*Dedi Shirinki: «Ey quti hayotim,
Degumdur, garchi mone'dur uyotim.
Manga juft ul, ulusning fardi erdi,
Ne ko'nglum quti, oning dardi erdi.
Chu kechti juftdin ul toqi ofoq,
Nechuk men juft ko'zlay, ul borib toq?
Vafo ahli ishi mundoq bo'lurmu,
Vafo aylar kishi mundoq bo'lurmu?
Menga chun yo'q tiriklikning falohi,
Siz aylang ulcha bo'lg'ay el salohi.*

Shirinning ruxsatini olgan malika Xisrav elchilariga nikoh uchun roziligini aytdi, lekin qamal paytidagi qiyinchiliklar, hozirgi issiq kunlar tufayli Shirinning sog'lig'i yaxshi emasligini, shuning uchun biron xushhavo joyda dam olib, o'ziga kelishi lozimligini ham ta'kidladi. Shundan keyin darvozalar ochilib, Xisrav qo'shini shahar ichiga kirdi. Qamal paytida qiynalib ketgan aholi qafasdan qutulgan qushlardek shodlanishdi.

Xisrav buyrug'i bilan go'zal bir koshona barpo etilib, u yerda shoh bilan malika suhbat qurishdi. Shirin ahvolidan so'z ochilgach, Xisrav: «Bu o'lkaning bohavo va go'zal joylarini sizlar yaxshi bilasizlar, biron maqbul manzilni tanlanglar. Shirin o'sha yerda orom olib, sog'ligini tuzatsin», – degan taklifni bildirgan edi, Mehinbonu Arman diyorining shimol tomonida bir tog' bo'lib, Shirin istagiga ko'ra qasr va bog' qurilganini eslatdi-da, shoh farmon bersa, Shirin o'sha yerda dam olib, sog'ayishi maqbulligini izhor qildi. Buni eshitgan Xisravning ko'ngli no-

shod bo'ldi, chunki ushbu qasr-u bog' Farhodning mehnati bilan bunyod etilganidan u xabardor edi. Shuning uchun ham, Mehinbonu taklifiga zo'rg'a rozi bo'ldi. Malikaning buyrug'i bilan Shirinni o'sha ajoyib qasr tomon olib ketdilar.

Shirin o'z qal'asidan chiqib tog'dagi qasr sari yo'l olar ekan, Xisrav sipohlarining barchasi uni tomosha qilishga chiqqandilar. Ularning orasida shahzoda ham bo'lib, otasini uncha yoqtirmas, Xisrav o'z o'g'lining ko'ngliga qaramaganidek, o'g'ilga ham shohning fe'l-atvori ma'qul emasdi. Boshqalar qatori u ham Shirin borayotgan gulgun kajavaga mahliyo bo'lib boqar ekan, birdan boshlangan shamol pardani ko'tarib yubordi-yu, parivash qizning olamni o'rtovchi husn-u jamolini ko'rgan Sheruyaning ichiga ishq olovi tushdi-da, oromidan ayrilib, uyqusini yo'qotdi, iztirobi kun sari kuchayib, o'zi o'lar holatga yetdi. Qanday tadbir bilan Shirin visoliga yetishishi mumkinligini o'ylagan shahzoda otasini o'ldirish bilan bu orzusiga erishishga bel bog'ladi. Shunday xayollar bilan o'ziga yaqin kishilarga yashirincha va'dalar berib, Xisravning qarindosh-u amaldorlarini ham o'ziga qaratib oldi. Xisravning haddan oshgan zulmidan bezor bo'lgan saroy ahli Sheruyaga qasamyod qilishib, Xisravni zindonga tashladilar. Ko'p o'tmay, Sheruyaning buyrug'iga ko'ra zolim shoh qatl etildi. Taxtga chiqib, boshiga toj kiygan Sheruya bo'lib o'tgan bu voqeani Mehinbonuga so'zlab berib, Shiringa o'zi uylanmoqchi ekanini izhor qildi. Malika uning sog'ligi yomonligini aytib, sog'ayganida o'zi bilganicha ish qilishi mumkinligini ta'kidladi. Johil Sheruya Shiringa maktub yo'lladi. Unda shunday deb yozilgan edi:

*«Ki bir koʻrmak bila husnuningni, ey hur,
Ul oʻtdin koʻnglum andoq boʻldi mahrur.
Menga andoqqi ul oʻt soldi partav,
Ne Farhod ul sifat kuydi, ne Xisrav.
Dalil istar esang, daʻvo surubmen,
Ki ishqingda otamni oʻlturubmen.
Vafo qilmoq bila komim ravo qil,
Visoling vaʼdasi aylab vafo qil.
Ibo qilmoqliging ham gar bilurmen,
Yaqin bil, ne qila olsam qilurmen!»*

Sheruyaning bu dagʻal soʻzlaridan gʻamga toʻlgan Shirin: «Uni koʻrishdan menga oʻlim yaxshiroqdir», – deb fikr qilar ekan, shoh soʻzlarini oʻziga yetkazgan saroy aʼyoniga: «Soʻzlaringning barchasi maʼqul. Shohga mening duom bilan iltimosimni yetkazgin. Duodan soʻng mana bu soʻzlarimni unga bayon qil. «Qazodan kelgan har bir ishga rozi boʻlmay ilojimiz yoʻq. Xisravni oʻldirish qazo hukmi boʻlsa, sen nima ham qila olarding. Tangri bergan aql bilan ish tutganda, sening soʻzlaringga eʼtiroz bildirish xato boʻlur edi.

Sen meni sevib qolganing kabi menga ham Farhodning ishq tushgandi. Otangning adolatsizligi bilan vafot etgan Farhod barcha ishq ahlining yoʻlboshchisi edi. U mening ishqimda jonini qurbon qildi. Undan ayrilib, oʻzimni chala soʻyilgan qushdek his qilyapman. Mening bedorligim uning gʻamidandir. Ishqimda oʻshandek olam yagonasi koʻz yumdi. Unga aza tutmasam, koʻnglim xotirjam boʻla oladimi? Shuning uchun shoh ruxsat berib, Shopur ozod etilsa, unga bir guruh odamlarni qoʻshib joʻnatib, Farhod jasa-

dini shaharga olib kelishsa, men qora kiyib, aza tutsam-da, jonimdagi ishq balosidan qutulsam, jismimni uning azoblaridan, ko'nglimni firoqidan xoli aylaganimdan so'ng shoh so'zini bajarishga tayyorman. Agar shoh bu ishga rozi bo'lmasa, mening o'ligimnigina topadi», – dedi. Bu so'zlarni eshitgan Sheruya shod-u xurram bo'lib, darhol Shopurni ozod qilishga buyurdi va: «Shirinning ko'ngli nimani istasa, shuni bajarsin», – deb farmoyish berdi. Shirin huzuriga kelgan Shopur yerga bosh urib, ko'zidan qonli yoshlarini tinmay to'kar ekan, uni ko'rgan parizod Farhodni yodiga olib devonalardek faryod ko'tardi.

Shu tarzda bir zamon motam tutishgach, Shirin Shopurga Sheruyaning so'zlarini va o'zi o'ylagan tadbir mazmunini aytib berdi. Keyin Shopurga ikki-uch yuz mulozimni qo'shib berdi-da, ularni Farhod yotgan tog' tomon yo'lladi. Shopur bilan mulozimlar ko'zlangan manzilga yetib borishgach, halqa bo'lib Farhod jasadini o'rab turgan yovvoyi hayvonlar-u qushlarga ko'zlari tushdi. Jasadni ipak matolarga o'rab, shohona hurmat ko'rsatib, Shirin yuradigan kajava ichiga solib, yelkalarida ko'tarib yo'lga tushdilar. Bechora Shopur to'xtovsiz faryod urib, jismini yara qilib yig'lab kelardi. Farhod bilan fig'on chekib xayrlashayotgan hayvonlar-u qushlar yana u yotgan yer atrofiga to'planishdi.

Shopur va mulozimlar jasadni Armanga olib kelib, Shirindan yashirincha qasr ichiga qo'yishdi. Kerakli barcha ishlarni bajarib bo'lishgach, parivashga xabar qildilar. Shirin o'z qasriga qanday mehmon kelganini eshitib, guldek ochilib ketdi

va o'z mehmoniga mezbonlik qilishga shoshildi. Mehinbonuga: «Odamlarga ayting: meni bir dam xoli qoldirishsin. Men yetisholmagan, g'amida jonimdan to'yg'an yorim Shirin o'libdi, degan so'zni eshitib, mening dardimda hayotdan ko'z yumibdi. Endi navbat menga yetdi. Vafosini jonimga yashirib, jonimni uning oyog'iga nisor qilaman», – dedi-da, uzr so'rab uy ichiga kirdi va ichkaridan eshikni mahkamlab yopdi.

So'ngra kajava tomon yo'l oldi. Uning ichidagi mehmonning uxlayotganini ko'rdi. Boshiga quyosh kelganida ham uyg'onmayotgan Farhodiga boqib, u bilan birga uxlashni istagan Shirin yori yoniga yotib yuzini yuziga, ko'ksini ko'ksiga qo'ydi-da, ko'nglidan shu'lalik bir oh tortib uyquga, qiyomatga qadar uyg'onmaydigan uyquga ketdi.

Shirin uy ichiga kirib, eshiklarni mahkam bекitib olganini ko'rgan Mehinbonu bilan saroy a'yonlari uni shomgacha intizorlik bilan kutishsa ham, qaytib chiqmasdi. Sabrlari tugab, eshikni ochishmoqchi bo'lishdi, ochilmagach, uni buzib, ichkari kirishdi. Kajava pardasini ochib, Farhod bilan Shirinning yuzini yuziga, ko'ksini ko'ksiga qo'yib yotishganini ko'rishdi.

Mehinbonu ularga nazar tashladi-yu, fig'oni olamni buzib, jon taslim qildi. Chunki Shirin uning joni edi, uningsiz jonining keragi yo'q edi malikaga. Shu tufayli hayoti niholi sindi-yu, zamonaning ko'ngli ham undan tinchidi. Uch notavonning bunday o'limiga jonlarni fido qilsa arziydi.

Eshitishimcha, o'sha oqshom bu yerda hozir bo'lgan chiltanlar – qirq kishi bir xil tush ko'rishib-

di. Tushlarida jannat ichidagi katta bir bog'da ulkan bir qasr bo'lib, uning ziynat-u bezaklari haddan tashqari chiroyli emish. Shu qasr to'rida nurdan bir taxt qurilgan bo'lib, unga ipak-u baxmal ko'rpachalar tashlab qo'yilganmish. U taxtda Farhod bilan Shirin, ota-onalari va Mehinbonu o'tirishgan emish. Har birining jamoli bu olamdagiga qaraganda ming bora go'zalroq emish. Jannat xazinasining sohibi aytar emishki, Farhod o'z qalbidan joy olgan pokiza ishq tufayli xon-u sultonligidan, diyor-u xonumonidan, so'ngra jahongina emas, jonidan ham kechib, o'tar chog'i shunday foniy bo'ldiki, Haq uning ishqini boqiy ayladi, majoziy ishq haqiqiy ishq bilan almashdi. Baqo shahrida sultonlikka, haqiqat mamlakatida xonlikka yetishdi.

Uning dardiga hamdard bo'lganlar: Shirin, ota-onasi, Mehinbonu – barchasining gunohlari kechirilib, jannat bog'iga sazovor bo'ldilar. Tush ko'rganlar uning mazmunini olamga yoydilar. Farhodning oshiqlikda olamga mashhur bo'lgani haqidagi xabar Xito-yu Chingacha yetib bordi. Bu paytda o'g'li hajrini chekkan xoqon o'lib, taxtga uning ukasi chiqqan edi. Onasi ham vafot etgandi. Bahrom pahlavon lashkarboshi bo'lib yetishgan, jang qilganda Farhoddan kam emasdi. U sayyohlardan so'rab, bo'lib o'tgan voqealardan xabar topdi-da, xoqon huzurida unga Farhod bilan yuz bergan hodisalarni ma'lum qilib: «Ruxsat bo'lsa, Chin-u Xitodan lashkar to'plab, Arman mulkiga borib, Farhodni topsam-da, unga madadkorlik qilsam, bo'lmasa, taqdir buyurganini ko'rsam», – deb iltimos qildi. Bahromdan xafvsirab

yurgan xoqon ham: «U o'libdi, bu ham yo'qolsin, qayerni istasa, o'sha yoqqa jo'nasin», – deb o'yladi-da, ijozat berdi. Ruxsat bo'lganidan shodlangan Bahrom o'sha zahotiy oq qo'shin to'plab, Arman diyori sari yo'lga tushdi. Manzilga yetgach, Farhod haqida odamlardan surishtirishni boshladi. Xalq Farhod azasini tugatmay turib, yana ikki kishiga motam tutilayotganini aytib berdi. Bahrom bu voqealardan yaxshi xabardor bo'lgan odamni so'ragan edi, huzuriga Shopur kirib keldi. Bahrom uning Farhodga yaqin do'st ekanini, uning dardiga taskin berganini eshitgan edi. Ikkovlari bir-birlari bilan so'rashib, rosa yig'lashdi. Bahrom Farhod mozori ustiga qurilgan gumbazni ko'rib, ichiga kirdi-da, fig'oni osmonga yetdi. Bir kecha-kunduz o'sha yerda bo'ldi. Tinmay ko'z yoshini to'kayotgan Bahrom:

*Ko'zum chiqsin seni ko'rguncha mundoq,
Kesilsun til, so'zung so'rguncha mundoq.
Nelar kelmish boshingga g'urbat ichra,
Ne g'urbatlar chekibsan shiddat ichra.
Ko'zung ochib, ko'targil boshing oxir,
Ki kelmish bir hazin qo'ldoshing oxir.
Bu ishning toqati mendin yiroqdur,
Muni ko'rguncha o'lsam yaxshiroqdur...*

– deb nola qilardi. Taskin topgach, yer o'pib tashqariga chiqdi-da, Sheruyaga odam yo'llab: «Oldimga kelib, savollarimga javob bersin. Agar gunohsiz bo'lsa, unga yaxshilik qilay, begunohligidan shubhalanadigan bo'lsam, nima qilishni o'ylab ko'ray», – dedi. Sheruya bu gaplarni eshitgach, Bahrom-

ning o'ch olishidan vahimaga tushib, tavba-tazaru qilishga tushdi va kelgan odamga: «Farhodning o'limida gunohim yo'qligiga sen ham guvohsan. Otamning qotilligini bilib, uni o'ldirganimni ham bilasan. Bularni Bahromga aytib bergin. Men uning qoshiga borishdan qo'rqyapman, lekin uning xizmatiga tayyorman. Uni mendan qasos olish niyatidan qaytarsang, qiyomatgacha sendan minnatdor bo'laman», – dedi. Sheruyaning bu so'zlarini eshitgan Shopur ham uning gunohsizligini, kelishga esa o'zligini aytdi-da: «Sen aytgan barcha ishlarni bajarishga ahd-u paymon qilsin», – deb qo'shib qo'ydi. Shopurning fikrini eshitgan Bahrom uning kelishidan voz kechdi-da: «Xisrav bu xalqqa qancha ziyon yetkazgan bo'lsa, shuncha pulni to'lasin, manziliga qaytib borgach, yana shuncha mablag' jo'natishga qasam ichsin», – deb buyurdi. Sheruya bu gapdan xursand bo'lib, bor xazinasini xalqqa topshirdi, yana shuncha mol-u dunyo yuborishga ahd-u paymon qildi. Keyin Bahrom Arman elini yig'ib: «Kim Xisravdan zarar ko'rgan bo'lsa, o'z haqini olsin», – deb e'lon qildi. Bu so'zlarni eshitgan shahar xalqi: «Bizning har birimiz Farhod uchun jonimizni fido qilishga ham tayyor edik. Elning xohishi bilan taqdirni o'zgartirib bo'lmas ekan, endi uni duo qilish bilan mashg'ulmiz», – deb javob qilishdi.

Bahrom hisobchilarga buyurib, bor pullarni xalqqa bo'lib berishni tayinladi. Keyin Mehinbon uning yaqin qarindoshlaridan birini taxtga munosib ko'rib, podshohlikka tayinladi. Uning adolatidan vayronalar obod bo'ldi. Xisrav xarob qilgan barcha imoratlar tiklandi. So'ngra Bahrom

Chindan kelgan sipohlarga ko'pdan ko'p boyliklar berib, o'z vatanlariga qaytishga ruxsat berdi-da, xoqon huzuriga borib: «Farhod bilan Bahrom bir-biri bilan topishishdi», – deb aytishni tayinladi. Sipohlarni kuzatgach, Bahrom Shopur bilan birga Farhod qabriga mujovir bo'lib qolishdi.



LAYLI VA MAJNUN



Arablar diyorida shu o'lkaning boshlig'i bo'lgan bir ulug' hukmdor yashardi. Ko'pdan ko'p qabilalar unga bo'sunardi. Hamma uning baxtini tilashardi. Chunki u barcha bechora, muhtoj odamlarga mehribonlik ko'rsatuvchi, dasturxonni hamisha hammaga ochiq bo'lgan mehmonnavoz kishi edi. Qozoni ostidan olov hamisha o'chmasdan sahroda adashib qolgan insonlarga kechalari yulduz misoli doimo yo'l ko'rsatib turardi. Hukmdor ilmni e'zozlar, doimo o'z ilmini oshirib borardi. Ot-u tuyalarining, qo'y-u qo'zilarining hisobiga ham yetib bo'lmasdi. Mol-dunyosi mo'l-ko'l bo'lsa ham, uning farzandi yo'q bo'lib, shundan iztirob chekardi. Agar hayoti daraxti yiqilgudek bo'lsa, agar uning yonida bir yosh novda o'sib kelayotgan bo'lsa, u keksaygan daraxtga soya solgan bo'lardi. Bir vorisi bo'lganda edi, hukmdorning mol-dunyosi osmonga sovrulmasdi, umr quyoshi so'nsa, yangi tug'ilgan quyosh o'z nuri bilan qabilani yoritgan bo'lardi. Shular haqida o'ylar ekan, Tangriga to'xtovsiz tavba-tazarrular qilib, o'z orzusiga yetkazishini tinmay iltijo qilardi. Nihoyat, uning orzusi ushaldi: Tangri unga ajoyib bir o'g'il farzand berdi. Shodliklarga to'lib toshgan ota behad gavharlarni sochib, o'g'li bilan faxrlanib, farzandiga Qays deb ism qo'ydi. Bu uning otasining ismi edi.

Qancha-qancha doylar uni parvarish qilishga kirishishdi, qimmatbaho matolar, mo'yna-yu po'stinlarga o'rab uni beshikka yotqizdilar. Ular

bolani ko'z qorachig'idek asrashar, biror sovuq shamolning unga tegishiga yo'l qo'yishmasdi. Oylar, yillar o'tib, so'zlashni o'rgangach, aqlli fikrlari, dono so'zlari bilan odamlarni lol qila boshladi. Uning har bir so'zi elga maqbul bo'lib, dillariga yoqib tushardi.

Uning donoligi, dilga yoquvchi so'zlari qabilalarga tarqalib, odamlar uni ko'rishga kela boshladilar. Ba'zilar uning yuziga hayrat bilan boqsalar, boshqalari so'zlari mag'zini chaqishga intilishar, muhtojlar uni jonlaridan sevib, to'xtovsiz duo qilishardi. Otasi bilan onasi ham ikki oshiq kabi uni ma'shuqadek ko'rishar, yomon ko'zlardan asrash uchun uni jon pardasi bilan to'sib, ko'z qorachiqlarini isiriq qilishga intilishardi.

Qaysning yoshi to'rt-besh orasida ekan, otasi unga ta'lim berish vaqti yetganini angladi. O'g'lini o'qitish uchun qabilalar ichidan dono bir ustozni topib kelishga buyurdi. Toki uning farzandi ustoz ilmidan bahramand bo'lib, bor ilmlardan xabardor bo'lsin, ilm-u fanlarni o'zlashtirib elga tanilsin va olamda baland obro'ga ega bo'lsin.

Nihoyat, Qaysga ta'lim beruvchi donishmand bir muallimni izlab topdilar. Ammo u boshqa bir qabilada maktabdorlik qilib, har kuni dars bergani uchun o'zga biron joyga borolmasdi. U qabilaning sardori qabiladoshlariga har ishda mehribonlik ko'rsatuvchi, yuqori shon-sharafga ega bo'lgan hukmdor bo'lib, ochiqqo'llikda quyoshga monand edi. Ammo qahri kelganda sahroning issiq shamoli kabi rahmsiz bo'lib, qo'lida toshlarni mumdek eritishga ham qodir edi.

Sardorning behisob dur-u gavharlari bo'lib, ularning bittasi bilan alohida faxrlanardi. Bo'stoni-

da yuzlab chiroyli gullar bo'lsa ham, ulardan bittasi bilan dimog'i xush edi. Uchquni sharq quyoshidek bo'lgan bir mash'al bilan ko'zi nurli, olamni ravshan etuvchi bir shamdan xonadoni charog'on va chiroyli edi.

*Shame-yu ne sham, chashmayi nur,
Nureki yamon ko'z olidin dur.
Naxle-yu ne naxl, sarvi ozod,
Sarve-yu, ne sarv rashki shamshod.
Oye-yu ne oy, badri tole',
Badre-yu ne badr, mehri lome'.
Shahd ikki labi, vale ratabno'sh,
Badr ikki yuzi, vale qasabpo'sh.
Zulfi tunida uzori xurshed.
Xurshed uza zulfi shomi ummed...
...Yo'q ikki sochi tunig'a g'oyat,
Ya'ni iki layli benihoyat.
Andin bo'lub oti jilva oroy,
Andoqki barot-u qadr aro oy.
Kimniki bo'lub demakka mayli,
Malfuz o'lmay bag'ayri Layli.*

Otasi bu go'zal va dono qizi uchun bir uyni yasatib, unga maktab qilib bergan, hali aytib o'tganimiz donishmand ustoz unga ta'lim berar, go'yoki farishtadan hur ilm kasb etardi. Ushbu maktabda qabilaning ko'pgina bolalari ham ta'lim olishardi. Osmonni yulduzlar to'ldirganidek, maktab ham bolalar bilan to'la bo'lib, Layli shu yulduzlar orasidagi oyga o'xshardi.

O'g'lini o'qitish orzusida bo'lgan Qaysning otasi ham o'z qabilasida maktab va ustod bo'lma-

gani tufayli farzandini ushbu ustozga topshirdi. Qays g'ayrat bilan ta'lim olishga kirishib ketdi. U muallimning barcha topshiriqlarini to'la-to'kis bajo etar, hatto, ba'zi darslarni avvaldan o'rganib olib, do'stlarini hayratda qoldirardi. Ba'zi kunlarda besh-o'n dars topshiriqlarini o'zlashtirib olardi. Shu zaylda g'ayrat bilan o'qib, barcha bilimlarda yagona bo'lib oldi.

Qays maktabga qatnashni boshlagan vaqtda, Layli bir dardga chalinib, isitmadan azoblanib kasal yotgani uchun ta'lim olishga kelolmayotgan edi. Mizoji issiq bo'lgan Layli asal bilan xurmoni yaxshi ko'rardi. Buning ustiga sahroning issiq havosi ham qo'shib, uning isitmalashiga sabab bo'lgandi. Qizni isitma chog'ida titrash ham qattiq bezovta qilardi. Tabiblarning muolajalari ham foyda bermayotgandi. Ancha vaqt o'tgach, tabiatning o'zi madadkor bo'ldi-yu, qizning jismidagi dard asta chekina boshladi. Tabiblarning dorulari oxiri foyda berib, yuzlari, lablariga qizil yugurdi, parhezlardan ham qutulib, quvvati o'ziga keldi. Tamomila sog'aygach, bir kuni dugonalarini ergashtirib, maktabi tomon yo'l oldi.

Olam bezakchisi unga pardoz berib, jahon chiroyi bo'lgan bu husn zebiga yana zeb qo'shdi. Zulfi bilan yuzi «had» so'zini yozgandagi «dol» harfiga, «fam» so'zining nuqtasi esa og'zi ustidagi xolga o'xshardi. O'tdan gulistonga gul ochib, u gul bilan jahonga o't solgan edi. Farqi oldidagi zulfi anbarga o'xshagan qop-qora bo'lib, gulrang o'tiga anbar misol qora tutun sochib turardi. Yuzi ustidagi naqshli tillaqosh bu o't bilan tutunning uchqunlari bo'lib ko'rinardi. Peshonasi ham o't misoli bo'lib, olovrang labi bu

o'tning cho'g'i edi. Hindularga o'xshash qop-qora xoli labining o'ti ichiga suv yashirgan bo'lib, bu hayot suvi edi. Bu lab o'tidan jahon kuygudek, yo'q-yo'q jahongina emas, jon kuygudek ko'rinardi. O'tli ikki ko'zi surmalangan bo'lib, o'sha o'tlarga bu surmadan tutun taralib turar, bu o'tlar orasida yuzi g'arq bo'lib, jahonni o'rtaydigan chaqmoq misoli edi. Bu yuz oddiy chaqmoq emas, balki ofat chaqmog'i yoki latofat yashini edi.

Yuzi atrofidagi ikki gavhar go'yo oy bilan yulduzdek yarqirab turar, sochi ustidagi ro'moli noyob iplardan to'qilgan bo'lib, xuddi visol shomidagi oydingning o'zi edi. Husnda oyog'idan boshigacha go'zal bo'lib, boshdan oyog'igacha mahbub, suyuqli edi. Shunday jamoli bilan jahonga, sakkiz osmonga g'avg'o solib, bir nechta teng qomatli, gul yuzli, arg'uvon yanoqli kanizlari oldiga tushib maktabga yetib keldi. Hamdarslarini ko'rib ko'nglini shodlantirish, uni ko'rib xursand bo'lgan ustoz bolalarni ozod qilib yuborsa, qizlar bilan gulshanga borib o'ynab kulish uning muddaosi edi. Maktabga kirib kelgan go'zal Laylini hurmat bilan kutib olgan do'stlari nihoyatda shodlanishdi. Lekin bu hayotbaxsh bahor bir niholni xazon qildi. Yo'q, yo'q, u niholga boshdan oyoq o't tutashdi-yu, u o'tga, alangaga aylandi. Ya'ni qizning husni jamolini ko'rgan Qaysning chehrasi kahrabodek sarg'ayib jismi zaiflashdi-yu, hushidan ketish, yiqilish darajasiga yetdi. U yerga qulab tushmaslik uchun o'zini zo'rg'a tutib turardi. Sahibjamol go'zal qiz ham bu mahzun yigitni ko'rgach, uning kim ekanligini fahmladi-yu, joniga ishq o'ti tushib, nima qilishini bilmay qoldi, so'ng o'zini qo'lga oldi-da,

ikkovlarining sirlari oshkor bo'lmashligi uchun: «Yuringlar, bog'ga boramiz», – dedi-yu tez-tez yurib ketdi. Bolalar uning bu so'zlaridan xursand bo'lib, unga ergashishdi. Layli: «Kim maktab ahli bo'lsa, bir kungina dashtni tark aylab, bog'da gullar bilan gasht qilsin», – deb taklif qilgan edi, maktabdoshlar quvonchi ustiga quvonch qo'shildi. Bo'lgan voqealarni ko'rib turgan Qays ham ularga sheriklik qilishni lozim ko'rib, bog' tomon yo'l oldi.

Go'zal gulshanga yetib kelgan bolalar quvonishib rang-barang gullardan, maysa-yu rayhonlardan bahra olishib, bir-birlari bilan quvalashib shodlanishardi. Olam xuddi to'ti bo'lishni orzu etgandek, butun yer yuzini yashil rangga bo'yagan, sariq gullar ustidagi tonggi yomg'ir misli oltin laganlar ustidagi durlardek yaltirar, mevali daraxtlarni bezagan oppoq gullar kumush tangalar ichiga ko'milgandek ko'rinishardi. Dashtdagi lolaqizg'aldoqlarning barglari to'kilar ekan, ular shamol esgan payt xuddi uchib yurgan bag'ri qora qushlardek parvoz etar, nargis-u nasrin, binafsha-yu g'unchalar bog'ga ajib bir go'zallik bag'ishlagandi. Gulshanni kezib, turli o'yinlar bilan band bo'lgan bolalarning quvonchlari behad bo'lib, sho'x ovozlari yangrashdan to'xtamasdi. Ular g'unchalar orasida zavqlanishar ekan, Qays bilan Laylining g'unchadek yuraklari bezovta edi. Qalbini ishq o'ti band etgan go'zal qizning xayoli parishon bo'lsa, Qays aql-u hushidan ayrilgandek behol bo'lib, o'rtoqlarining bergan savollarini tushunmas, anglab yetgan chog'da esa nima deb javob berishga ojizlik qilardi. O'z ishqini yashirish uchun intilar ekan, goh ko'zidan tinmay yosh oqizar, goh beixtiyor oh tortar, sevgilisiga boqishni istar ekan, dilidagi o't kuchliroq

alangalanar, boqishga quvvati, boqmaslikka esa toqati yo'q edi. Ba'zida ko'z qiri bilan boqib qolsa, jonidan o'tli oh chiqardi.

Layli ham gohida Qays yuziga nazora qilar ekan, uning yuragiga tushgan o'tdan ogoh bo'lib, jismidan o'rin olgan iztiroblarini anglab yetar ekan, o'z qalbidagi ishq olovidan o'rtanar, bolalarga sezdirmay, bir fursat topib, yigit ahvolini so'rab, unga iltifot qilishni, ayni vaqtda o'z ko'nglidagi ishq dardini izhor etishni juda-juda istardi.

Bolalar o'yin-kulgi, gullarni tomosha qilish bilan band ekan, Layli sayr qilib yurib, bir gul chamani oldidan chiqib qoldi.

U chamanzorning to'rt tomoni gul butalari bilan to'silgan bo'lib, ichkaridagi odam ko'rinmasdi. Go'zal qiz o'sha butalar orasiga kirib qolgan edi, bir bulbuli zorning tikanlar orasida mahzun o'tirganini, o'z ahvoliga zor yig'latayotganini, yoriga yetisha olmasligi haqida afsus-nadomat chekayotganini ko'rdi. Layli xijolat cheksa ham, Qaysga murojaat etdi:

*«Key turfa yigit, ne holating bor,
Ne nav' g'am-u malolating bor?
Kim shodlig'ing yo'q o'zgalardek,
Obodlig'ing yo'q o'zgalardek.
As'hobg'a mayli bog'-u gulzor,
Ham tan sanga resh-u, ham ko'ngul zor.
Sen nola qilib g'amin nedin sen?
Ashking oqizib hazin nedin sen?
Ishrat chog'i mehnating ne ya'ni?
Sho'roba-vu hasrating ne ya'ni?
Bu g'am senga qaydin o'ldi hodis,
Kim bo'ldi bu shiddatingg'a bois?»*

Qays bu go'zal dilbar o'z ahvoli sababini so'ragach, kuchli bir oh tortdi-yu, uning shirin so'zlaridan lol bo'lganicha, yuziga o'z holatini qon yoshlari bilan yozdi. Yo'q, yo'q, tili bilan shunday sharh ayladi:

«Ey jonimga hayrat o'tini solib, bir ko'rishdayoq ko'nglimni olgan, jamolidan chaqmoq sochib, vujudimni o't ichiga g'arq qilgan, zulfini ochish bilan qarorimni olib, ro'zgorimni qora qilgan, avval afsona aytib ko'nglimni xarob aylagan parivash! Qilgan ishlaringsni yashirib, mendan so'rashing nimasi? Boshqalar sezib qolmasligi uchun bu xil o'yin qilmog'ing nimasi? Bu azob-uqubatlarni menga yetkazgan o'zingsan-ku! Bu tuhmatni kimga qilay?

Ko'nglimni yashirincha olding-u, men uni sendan qaytarib ololmayapman. Sen esa o'zingni soddalikka olib, lablaring afsona so'zlayapti. Jonimni o'tga yoq-qaning yetmaganidek, bunday so'zlar aytishingga hojat yo'q edi. O't ustiga yog' quymog'ing, kuygan varamga dog' qo'yishing ne edi?» Shu so'zlarni aytgan Qays behol bo'lib hushidan ketdi.

Layli esa oshiq yigit boshini qo'yniga olib, uning yuziga ko'z yoshlarini sochib, sevgilisiga achinganicha, Qays yuziga ba'zan gulob sepib, uni o'ldirib qo'ydim, deya yig'lab, motam tutardi.

Laylini qidirib bu yerga kelib qolgan bir-ikki dugonasi bu voqeani ko'rgach, olam ko'zlariga qorong'u bo'lib: «Bu qanday hol bo'ldi?» – deb qo'rquvga tushdilar. Go'zal dilbar o'ziga kelgach, bo'lib o'tgan voqeadan ularni xabardor qildi-da, o'z dardiga chora so'radi. Kanizaklardan biri Layliga hamdardlik bildirib: «G'am yemasang ham bo'ladi, hech kim ishq o'tidan halok bo'lgan emas. Sen

bu yigitni bizga topshirgin-da, tezlik bila qabilaga qayt. Toki odamlar bu ishdan ogoh bo'lishmasin. Biz biron chorani o'ylab toparmiz», – dedi. Layli ular aytganicha ko'nglini o'sha yerda qoldirib, uyi tomon yo'l oldi. Kanizaklar Qaysning do'stlarini topishib, ularning mehribonlik ko'rsatishiga ishonch hosil qilgach, o'zlari ham uy tomon yo'l olishdi.

Bu qorong'u kechani yulduz gullari go'yo bir gulistonga aylantirgach, bahor go'zali bo'lgan Layli ichi qonga to'lib tez-tez yurib o'z qabilasiga yetib bordi, lekin g'unchadek qalbi oshiq yigit ahvolidan tashvishda edi. Bu payt Qays hushidan judo bo'lganicha tuproq misoli yerda yotar ekan, jismida ruhdan asar ham yo'q edi. Yarim kechasi yoqimli shamol chamanzor bo'ylab sayr etar ekan, gullar atri dimog'iga yetib, g'arib yigit ko'zini ochdi-yu, o'zining chaman ichida, sarv-u gul-u yosumanlar orasida yotganini ko'rdi. Bulbul uning ahvolini ko'rib boshi ustida sayrab turar, gul holatiga nazar tashlab gulrang yoqasini pora qilgan, nargis shabnamdan ko'z yoshini to'kib tinmay yig'lar, ayriliq dardi dog'ini ko'rib turgan lola ko'ksida qora dog' paydo bo'lgandi. Dili yaralang'an binafsha g'am chekib ustiga motam libosi – ko'k kiyim kiyib olgan, bu azadan xabar topgan daraxtlar osmonga bo'ylarini cho'zib, motam bayrog'ini tikkan kabi g'am chekishar, suv motam tutib oqar ekan, ovoz chiqarib yig'lab borardi. Sarv-u shamshodlar ham yigit holiga chiday olmay iztirobda qolishgan, «Ishq uni bejon qildi» deb bilgan chirmovuq gul o'z-o'ziga chirmanib olgan, sabza-ko'katlar o'zlarini tilga aylantirishib, Qays g'ami haqida afsona to'qishardi.

Oshiq yigit bularning ahvoliga nazar tashlar ekan, o'lishdan boshqa chora topolmasdi. Atrofida biron do'sti ko'rinmas, ichidagi o't uni azoblar, qoshida sevgili yorini, do'stlarini topolmay dilida dard to'la edi. Quyosh botib, oqshom tushganda ham hajr o'tida o'rtanib, g'am-alam chekar, lekin dardiga davo topolmasdi. Shunda ko'z yoshlarini tinmay to'kib, ko'ylaklarini pora qilib, faryod urdi, ohidan osmon qorong'u bo'lib, falak ko'z yoshlarini to'ka boshladi...

Liboslari qizil qonga bo'yalgach, osmonga uning ohidan quyuc tutun yetishdi. Yo'q, yo'q, bu uning o'rtanayotgan jismi somonining tutuni edi. Bu oh yetgan osmonda goh shu'la, goh tutun paydo bo'lar ekan, undan jahonni somon o'ti tutuni qoplab, falakkacha yetib borar va osmonlar ko'zini yoshga to'ldirardi.

Qays o'z yuzlariga shuncha shapaloq urdiki, za'faronmisol chehrasi ko'karib ketdi. Bundan ko'ngli ozor topib, kulish o'rniga yig'lay boshladi. Ko'ksiga firoqdan tosh urib, yoriga mushtoqlikdan boshini yerga urardi. Dard-u alamlar uning ko'ngliga sipohlardek hujum qilar ekan, ohi o'ti ularning bayroqlaridek ko'kka ko'tarilardi. Bu sipohlar Qays ichiga o't solib, ko'ngli mamlakatini payxon qilib tepkilar, bu sipohlar sal uzoqlashgach esa yangi bir balo askarlari yetishib, u mamlakatni yer bilan yakson etardi. Oshiq hajrga muhtalolik tufayli shunday azoblar chekar ekan, tong quyosh o'tini pufladi.

*Ko'k gulshani gullari to'kildi,
Gullarki to'kildi, g'uncha kuldi.
Ko'k bog'ida gullar o'ldi nobud,
Yer bog'ida gullar o'ldi mavjud.*

*Ul bog'da har nekim sochildi,
Go'yoki bu bog' aro ochildi.
Bedil ko'ribon yorug' jahonni,
Chekti yana oh ila fig'onni.*

Boshida g'am chekib turgan gulga boqib «Qani u shakarxand gul, sening yuzing yorim chehrasiga o'xshar ekan?» – deb xitob qildi. G'unchaga boqib, uni sevgilisi og'ziga o'xshatolmadi. Sarv oyog'iga yuzini surib: «Bu uning tik qaddi bo'lmasa ham yorim qaddi-qomatidan nishon beryapti», – deb oh urdi. Gohida binafshaga o'z mehrini ko'rsatib, oldidan bosh ko'tarmay yori atrini izlar, goh sabza-o'tlarga yuzlarini surtib: «Gulshanda yurgan chog'da gul yuzli yorim oyog'i senga tekkandir», – deya fig'on chekar, nargis ko'zi dildori ko'zlarini yodiga tushirganda, yig'lab, ozor chekar, bemorlardek tani zaiflashardi. Tuproqda Layli oyog'i izlarini ko'rganda, Qays ularni ikkala ko'zi bilan berkitib: «Bu yerga yorim oyog'i yetgan ekan, tuprog'ini surma etgan ekan», – deb oh urar, gohida suvdan belgi so'rab, ko'z yoshlarini suvdek oqizib: «Chamanda yorim kezgan chog'da uning aksi shu suvga tushgan», – deya fig'on qilardi.

Bulbul bilan suhbatlashib, fig'oni uning navosini bosib ketar ekan, Qays unga murojaat etib: «Sening nola chekishingga sabab yo'q, axir sen yoring visolidan xushnudsan, go'zal gulshan – sening maskaning, gul butasi – makoning. Gullar bilan doimo suhbatdasan. Yoki yor visolidan bezor bo'ldingmiki, shomdan sahargacha elga ovozingdan ozor berib, o'z oshiqligingni oshkor qilasan. Sen visol ahlisan, shuning uchun hajr ahli qoshi-

da behuda so'zlar aytishdan to'xta. Mana men dardli, yuragi jarohatlangan, yor visolini izlab, topolmayotgan oshiqman. Jismi zorim g'am o'tida o'rtanmoqda, jon kabi sarvi gul uzorim yo'q, sen nola chekaverma, nola chekish menga munosib. Sening oldingda visol bog'i bo'lsa, mening bag'rimda esa firoq dog'i; sening yoningda guli bahori bo'lsa, mening ko'nglimda firoq toshi bor».

Shunday deb Qays yana hushidan ketdi-da, oh tortib joni chiqqandek yerga yiqildi.

Qizlar Qaysni bir do'stiga topshirib ketishgandi. U bir gul butasi ortidan do'stining ahvolini nazorat qilib turar ekan, uning holatini anglab yetdi-da, qabila tomon yo'l oldi. Tez-tez qadam bosib, qabilaga yetib kelib, hamma hayajonda ekanini ko'rdi. Chunki Qays o'sha tunda uyiga qaytmaganidan ogoh bo'lgan ota-onasi uni qidirish uchun har tomonga odamlar yo'llashgan edi. Qaysning do'sti bo'lib o'tgan voqealarni so'zlab bergach, hamma yigit yotgan joyga shoshildi. Ko'ylaklari pora-pora bo'lib, tuproqqa belanib, ishq azobidan behush yotgan Qaysni ko'rgan qabila ahli tuya ustiga kajava yasab, uni o'z manzili tomon olib ketdilar.

Qays o'z boshiga tushgan savdolardan bexabar, hushsiz yotardi. Bir zamon o'ziga kelib, ko'zini ochdi-yu, g'amga to'lgan, xuddi motam tutishayotgandek iztirob chekishayotgan ota-onasini ko'rdi. Otasi mehr bilan peshonasidan o'pdi, onasi esa boshida parvona bo'lardi. Bu voqealarni anglab yetgan Qays xijolat ichida qoldi. Uyalganidan yuqori boqa olmasdi. Otasi bilan onasi o'g'illarining bu holatini ko'rib, unga nasihatnamo so'z deyishdan ham hayiqishardi. «Agar uning bu ahvoli sababini surishtirishga tushsak, xijolatdan

nobud bo'lishi ham mumkin. Yaxshisi, bo'lib o'tgan voqealarni unutsin», – degan xulosaga keldilar. Barcha uy-uyiga tarqalar ekan, bir-birlariga turli fikrlarni bildirishar, biri: «Ajoyib holga tushibdi», – desa, boshqasi: «Qiziq xayol yuz beribdi»; – deb so'zlardi.

Qays uyida yakka qolgach, yuz bergan voqealar haqida o'yg'a botdi, o'z boshiga tushgan kulfatga chora izlab topolmasdi. Sevgilisini izlab vodi-yu tog'lar tomon yo'l olay desa, ota-onasining yana og'ir dard chekishini o'ylardi. Oqshom tushgach, ishq o'ti uning ixtiyorini qo'ldan oldi-yu, Layli g'ami ota-onasi haqidagi o'y-fikrlarini ham yodidan chiqardi, o'zini sevgan kishilarning holini ham unutib, mahbubasi uyini izlab yo'lga tushdi. Es-hushini unutib, beixtiyor, mast odamlardek yiqilib-turib borar ekan, ko'z oldida qabila o'ti paydo bo'ldi, uni ko'rishi bilanoq iztirobi qo'zg'alib, otashin bir oh urdi-yu, tutun misoli o't tomon yo'naldi. Alanga oldiga yetib borgan Qays unga qarab xitob qildi: «Ey hijron tunida ishq yulduzigin emas, ishq gavhari bo'lgan alanga, sen shodlik mash'alasi, gavhari shabcharog'san... G'am shomida qo'limdan tutib, hijron tunida ko'zimni yoritding. Sening maqtovingni qanday ayta olay, shukringni qaysi til bilan bayon qilay? Oy bilan kun senga ikki manqal – otashdon, o'tining ud bilan sandal bo'lsin. Hamisha shunday mehribonlik qilib, jahonni yoritaver!».

Qays bu so'zlarni aytib tugatgan ham ediki, qabiladan it ovozi eshitildi. Buni eshitgan oshiq yigitning jismiga kuchli bir alam, ko'ngliga iztirob tushdi. O'sha itdek fig'on chekdi-yu, karvondan qolib ketgan odam o'z do'stlarini bor ovozi bilan

chaqirayotgandek, ovoz kelgan tomon yugurdi. Uning tilida esa shu so'zlar yangrardi: «Ey hazin ovozing jonga xushxabar yetkizuvchi, ruhim ozig'i bo'lgan jonivor, sen g'am tuni vafo ko'rsatuvchi, yo'ldan adashganlarga rahnamolik, yo'l boshlovchilik qiluvchisan. Jonim ayog'laring fidosi bo'lsin. Men o'z maqsadimga erisholmay yurgan bo'lsam, sen o'sha joyning posbonisan. Sen bilan men ikki do'stmiz, lekin men xor esam, sen mukarramsan. Sen yor eshigida shod-u masrur bo'lsang, men undan mahrum bo'lgan g'arib-u mahjurman: Sen uning ko'chasida istaganingcha har tomonga sayr qila olasan, mening ko'zlarim esa faqat biyobonni ko'radi, xolos. Sen yorim ko'chasida toshga bosh qo'yib yotsang, mening boshimga mahbubadan ayriliq toshi yog'ilgani yog'ilgan. Sen vafoda ham, sadoqat-u safoda ham mendan ortiqroqsan. Shunday bo'lmasa, nega falak meni xor etdi-yu, seni hurmatga sazovor etdi? Qonxo'r sipehr seni muhtaram-u, meni xor qilgani shukronasi uchun fig'oningni mendan yaxshiroq sozlab, ba'zan men uchun o'sha ostonani o'pib qo'y!».

It bilan shu tarzda suhbatlashgach, ko'zi oldida Layli qabilasi paydo bo'ldi. Qabila qorasini ko'rgan Qays ichiga zaiflik yuzlanib, yurishga madori qolmadi, qadam tashlashga har qancha harakat qilmasin, oyog'i chirmashib, yiqilib tushdi. Bir necha bor yiqilib, bir necha bor turdi, go'yo har yiqilishi yer o'pish uchun bir bahona edi. Shu tarzda yiqilib, turib qabilaga yetib keldi-yu, joni og'ziga yetib, hushidan ketdi. Goh hushida, goh behush bo'lib, qabila atrofida aylanar, har lahzada jonni kuydiruvchi o'tli fig'on tortardi.

Yuqori martabali arab qizi Layli ham Qaysga muhtalo bo'lgandi. Ko'nglidagi yashirin siri dardini tortib, kechalarni uyqusiz o'tkazar, tun-u kuni uning xayoli bilan band bo'lib, murodi Qays visoliga yetishish edi. Oshiq yigit uning qabilasiga yetib kelgan kechada uning ham ko'ziga uyqu kelmay hijron alamini tortib o'tirar ekan, qulog'iga mungli, hazin bir ovoz eshitildi. Bu ovozdan ichiga o't tutashib, ko'ngliga iztirob tushdi. Oromidan ayrilib, o'rnidan turdi-da, eshikdan tashqari chiqdi. Qabila ahlining barchasi uyquda edi. Ishqi yo'q odamlarning maqsadi uyqu bo'lsa, ishq ahliga uyqu haromligi ayon-ku!

Laylining holatini kuzatib yotgan doya, qizning muhabbat o'tida qovrilayotganidan voqif edi. U Qaysga ham mehribon bo'lib, jon fido qilishga ham tayyor edi. Qays maktabda o'qir ekan, bu ayol o'zini uning ham doyasi kabi sevar, Qays ham o'zini unga farzand kabi tutardi.

Layli uyidan yugurib chiqqanida, doya ham soyadek uning ketidan ergashdi. Ishq o'tida qovrilayotgan Layli o'z sevgilisi turgan yerga yetib borgach, bir-birini ko'rgan oshiq bilan ma'shuqa shunday bir oh tortdilarki, o'tlaridan jahon yorishib, xirmonlariga shu'la tushdi. Hush xirmoni kul bo'lgach, ikkala hushsiz behush bo'lib yiqildi.

Doya bu pok ishqni ko'rib, dili o'rtandi. Ularning behush yotishini kuzatar ekan, Qays bilan Layli o'z hushida bo'lganida ham bir-birlariga dil so'zlarini aytaolmasliklariga ishondi. So'ng har ikkalasiga boqib, achchiq-achchiq yig'ladi-da, bularning ikkalasi o'ziga kelgunlaricha biron kimsa ko'rib qolsa, ikkovi uchun ham yaxshi bo'lmasligi, hatto, ikki yosh o'z muhabbatlari yo'lida halok bo'lish-

lari ham mumkinligini angladi. So'ng ularning birini, Laylini quyoshni charx zoli ko'targanidek, yelkasiga olib, qaddini egganicha olib kelib, o'rninga yotqizdi. Doya yana ortiga qaytib, Qays yotgan yerga keldi-da, onasi kabi joni kuyib, goh sudrab, goh ko'tarib qabiladan uzoqroq, elning vahm-u gumonidan chetroq joyga olib borib, biron gazanda tegmaydigan bir yerga yotqizdi-da, Laylining oldiga shoshildi va uning yoniga yotib, uyquga ketdi.

Qays kechasi Layli qabilasi tomon yo'l olib, u yerda aytib o'tilgan voqealar yuz bergan chog'da kunduzi o'z manzilida o'tirgan yigitning nogoh g'oyib bo'lishi uning qabilasi ahlini yana tashvishga soldi. Otasi bilan onasi yana yig'lashga tushishdi, har tomonga odamlar yuborib, uning biron belgisini topishni buyurishdi. Uning Layli qabilasi tomon ketgan izlarini ko'rishdi-da, qabilaga yetib borgach, u yerdan ikkita oyoq izi chiqib kelganini aniqlashdi, bu izlardan borib uch kishi uchrashgach, ikkitasi yerda yotganini, bir yotgan odam sudralib biyobon sari yo'l olganini, yana bir yotgan odam pari kabi yo'q bo'lib qolgani, yana bir iz qabila tomon ketganini ko'rishdi-da, sudralgan iz bilan yo'l tutib, Qaysning qumlarga ko'milib yotganini, shamol esib, uning jismini qum bilan ko'mib yuborganini bilishdi. Qays boshdan oyog'igacha tuproqqa ko'milib yotar, u bilan o'lik orasida farq qolmagandi. Qabila ahli bu holni ko'rib, yoqalarini yirtishdi, boshi ustida zor yig'lashar, uni o'ldirib ko'mib qo'yishgan, deb o'ylashib, tuproqni ochib, o'z boshlariga tuproq sochardilar. Ba'zan-ba'zan nafas olayotganini sezib qolishgach, shukr qilishib shodlandilar, so'ng uni birovgga ko'tartirib, tezlik bilan qabila sari yo'lga tushdilar. Qaysning ahvoli

ni ko'rgan otasi yig'idan behol bo'lib qoldi. Onasi fig'on chekib, ko'zidan to'kilgan qonli yoshlari yuzini yuvaradi.

Qays hushiga kelgach, barchaning oldida boshini quyi solganicha, indamay turardi. Odamlar chor atrofidan uni malomat qila boshladilar. Biri: «Sanga bu qanday havas bo'ldi?» – desa, boshqasi: «Havas bo'lsa ham yetar endi!» – deb nasihat qilardi. Har bir nasihat unga qon to'kuvchi bir nayzadek, devonalar boshiga otiladigan toshlardek tuyilardi. Birovi: «Uning qulog'iga nasihat kerak!» – desa, boshqasi: «Uning oyog'ini zanjirband qilish darkor», – deb so'z qotardi.

O'sha kun shunday so'zlar bilan kech bo'ldi. Lekin oshufta, oshiq yigit bunday gap-so'zlarga zarracha e'tibor bermas, ulardan xafa ham, xursand ham emasdi. Olam o'zining kun chirog'ini yashirgach, tun Qaysning dimog'ini yana bezovta qila boshladi. El uyquga yotar ekan, ishq uni uyda diltang qila boshlagach, u sakrab turib qabiladan tezlik bilan chiqdi-da, dilbari manzili tomon yugurib ketdi.

Ertasiga ertalab uning zor-u notavonlari yana har tomonga yo'l olishib, fig'on qilishib, uni oldingidan ham zor-u mahzun holda, dard-u g'ami esa burungidan ham kuchaygan bir holatda topib kelishdi. Har tun Qays shu tarzda qochib ketar, qabila ahlining qilar ishi uni qidirib topish bo'lib qoldi. Bu ishlardan elning sabr-u toqati tugab, ota-onasi-yu qarindoshlari nima chora qilishni bilolmay qolishdi. Qaysning ahvoli borgan sari og'irlashib borarkan, unga nasihat qiluvchilar ham tobora zabunroq bo'la boshladilar. Yigitning

es-hushi tobora zaiflashib, devonalik qiliqlari kuchayib borardi. Bolalar uning ketidan tinmay yugurib, «Majnun» deb baqirishar, u esa bunga parvo qilmay, har bir savollariga javob berardi. U qayerga borsa, el «Majnun keldi», «Majnun keldi» deya qichqirishardi. Qays esa ot nima ekanini ham, oʻz otini ham, qabilasi-yu qardoshlarining otini ham unutgan boʻlib, «Layli» degan nomnigina anglardi. Hamisha «Layli!», «Layli!» deb chaqirar, odamlar esa uning oʻzini «Majnundur bu, ushbu Majnun» deb xitob qilardilar. Shu holatda har tongda va har oqshomda Layli qabilasi tomon yoʻl olar, qabila atrofini bir necha marta aylanib chiqar, avval qadam qoʻyadigan joyiga bosh qoʻyib, keyin esa koʻksiga tosh urar, qabilani har safar aylanar ekan: «Qonim toʻkilsa, qabilasiga jonim sadqa», – deb soʻzlar, keyin koʻz yoshlaridan sel toʻkib, sahro tomon yoʻl olardi.

Majnun haqidagi gap-soʻzlar el ichida afsonaga aylanib, butun Arab mamlakatida mashhur boʻlib ketdi. Har kimsaning tilida Qays ishq haqidagi hikoya eshitilardi. Layli otasining bir-ikki mehribon kishisi unga bu voqealarni soʻzlab berishdi. «Omir qabilasida Qays degan dono, aqlli bir yigit bor edi. Eshitishimizcha, hozir es-hushini yoʻqotib hamisha dashtda oh-faryod urib kezib yurgan-mish. Parishonligining, devonaligining chegarasi ham yoʻq emish. Deydilarki, uning bu ahvoliga bir hursifat goʻzal ishq sabab boʻlganmish».

Laylining otasi bu soʻzlarni eshitib, gʻamgin boʻldi-da, barmogʻini tishlab: «Bechora! U yigitni koʻplar taʻrif qilib gapirishardi. Qobiliyatli, dono, pokiza yigit deb maqtashardi. Aqli komil, gap-

soʻzlari yoqimli boʻlgani uchun menga ham maʼqul edi u. Otasining holi qanday ekan? Bechora onasi gʻam-alamda azob chekayotgandir. Uning iztiroblariga qaysi qiz sabab boʻlgan ekan? Qaysi bir gul uni bunchalik tashvishga qoʻyibdi, qaysi sarv uning yigʻisiga bois boʻlibdi? U goʻzal qaysi qabiladan ekan?» – dedi. Soʻz boshlagan kishi javob berib: «Ey muhtaram zot! Soʻrayotganing uchun bor haqiqatni aytishim zarur. Odamlar, u yigitning koʻngli shu qabilaga mansub goʻzalda boʻlsa kerak, deydilar. Ularning bu xil soʻzlariga anchagina dalillar ham bor. Bu dashtda qabilalar koʻp boʻlsa ham, uning koʻngli birontasiga moyil emas. Lekin har sahar va har shom payti u ushbu qabiladan orom topadi. Jonining qiblasini ham, jon-u jahoni ham shu qabila. Uning or-nomus manzili mana shu uydur. Hamisha odob bilan soʻzlaydigan bu yigit yaxshi sheʼrlar ham yozadi. Nazmida birgina ismni tilga oladi. Bu ismni atashdan ojizimiz. Biz bilganlarimizning barini aytdik. Bu ish haqida qanday fikrga kelish oʻzingga havola».

Laylining otasi gap nimada ekanini anglab yetdi, alam bilan bir toʻlgʻanib olib, boshini ushlaganicha bir zamon oʻylanib qoldi, lekin yaxshi ham, yomon ham soʻz demadi. Ancha payt chuqur oʻylanib, soʻzlovchiga shunday dedi: «Tezlik bilan borib Omiriylar sayidi-qabila boshligʻiga shu soʻzlarimni yetkaz: «Bu xil gap-soʻzlar bizga ham, senga ham munosib emas. Odamlarning aytishlaricha, sen bor gapdan xabardor boʻla turib, shu chogʻgacha oʻgʻlingning jinniligini toʻxtatish uchun biron chora koʻrmabsan. Kim jinnilikka yuz tutsa, uning birdan-bir davosi zanjirband qilishdir. Sen mening

obro‘-e‘tiborimni, arablar o‘rtasidagi mol-dunyo-yu shavkatimni bilmaysanmi? O‘g‘lingga ham, senga ham nimani istasam qila olaman. Lekin sen bo‘layotgan ishlardan yaxshi xabardor bo‘lmaganing uchun haligacha chora ko‘rmagansan, deb o‘ylayman. Endi hamma gapdan ogoh bo‘lding, tezda biron tadbir bilan ahvolni tuzat. Bundan keyin farzanding o‘z ishida davom etadigan bo‘lsa, avval uni o‘ldiraman, keyin senga qahrim qudratini ko‘rsatib, qabilangni bu dashtdan yo‘qotaman!».

Yuborilgan odam Qaysning otasi oldiga yetib kelib, unga o‘z amirining topshirig‘ini to‘la-to‘kis yetkazdi. Tinglovchi javob uchun so‘z topolmadi. Bu xil muomala uni qattiq ranjitgan bo‘lsa ham, boshqa chorasi yo‘qligi tufayli barcha so‘zlarni qabul qildi. Xabar yetkazgan odam o‘z manziliga jo‘nab ketgach, bu qabila tashvish ichida qoldi. Barcha odamlar sahroga yoyilib, Qaysni izlashga tushishdi. Uni qumlar ichida, xuddi qaroqchi tunagan kishidek yotgan holda topdilar-da, ixtiyoriga qaramay uyga olib kelib, zanjirlar bilan bog‘lab tashladilar.

Qo‘l-oyoqlari kishanlangan telba yigit bir necha kun goh baland, gohida past ovoz bilan faryod qilib, kunduzlar-u kechalarni ovqatsiz-u uyqusiz o‘tkazdi. Ko‘ngli g‘am xanjaridan yarali, yaraligina emas, pora-pora edi. Ishq iztirobida cheksiz jaf o‘tkazgan yigitni davolash uchun otasi turli tabiblarni chaqirar, ishq balosidan bexabar hakimlar goh nasihatimiz fikrlar aytishar, sharbat ichishni, yig‘lamaslikni maslahat berishar, goh yog‘och bilan kaltaklashar, Qays esa bu ishlardan kulgisi qistab, gohida o‘z kulgisidan xijolat chekib

ko'z yoshini to'kar ekan, bedard hakimlar uning ahvolini ang'lay olmay, ba'zida tig' bilan davolashni afzal ko'rib, jismini har tarafdin kesishar, Qays esa goh behush, gohi o'ziga kelib, ko'zlaridan goh suv, goh qon to'kardi.

Bir necha vaqt shu tarzda o'tdi. Qaysning ahvoli tobora og'irlashib borardi. Bir tun nihoyat qorong'i, xuddi kun xazinasini ajdaho yutgandek bo'ldi. Shu kecha hijron tunining asiri bo'lgan Majnun o'z ahvoli haqida o'ylanib qoldi, g'am chaqmog'i uning vujudini kul qilib, faryod ura boshladi: «Bu dunyoga kelmasam yoki vujudim yo'q bo'lib ketsa bo'lmasmidi? Men xastani olamga keltirishdan qazoning maqsadi nima ekan? Jismimga ruh yo'ldosh bo'lganda, tug'ilgan zahotiy o'lib ketsam koshki edi. Ishqdan alam yetmay turib ikki ko'zim ko'r bo'lsa qani edi? Gadolik qilib eshikma-eshik yurib bir luqma ovqatga zor bo'lsam, ochlikda o'lib ketsam bu mashaqqatu balolarni ko'rmagan bo'lardim-ku! Hozir esa men ojiz bir xasman, jismim esa xascha ham emas. Bu holda umr ko'rgandan ko'ra dashtu tog'larda sarson yurib, tog' ustida nola ursam, cho'nlarda yugursam koshki edi! Qayg'u ko'nglim uyini zindonga aylantirdi. Eshigi ham, tuynugi ham ochilmaydigan bu zindonda tanim mahbus. Ichkaridagi uylarda esa furqat o'ti yanada kuchliroq. Bu o'tlardan ichim iztirobga to'ldi.

*Kulbamda-vu maskanimda bu o't,
Jonimda bu o't, tanimda bu o't.
O't ichra birovnikim solurlar,
Bandini oyog'idin olurlar.
O't band ila bo'ldi jilvagohim,
Mundoqmu azim emish gunohim?» –*

deb nola qilarkan, har tomonga talpinarkan, uning zaif jismi, kuchsiz qoʻl-u oyoqlari bir-biriga urilib, jon iplariga shunday kuch bagʻishladiki, bogʻlab qoʻyishgan yogʻoch, oyogʻidagi temir bandlar sinib ketdi. Ulardan qutulgan Qaysning koʻngli taskin topdi, oyogʻi, ikki qoʻli va boʻynini zanjirlardan xalos koʻrgan yigit yuz shukr qilib, yerga bosh qoʻydi va koʻzlaridan shodlik yoshlarini toʻkkancha asta turib eshikni ochdi-da, bor kuchi bilan yugurib ketdi. Shu yugurganicha odamlarning oyogʻi yetmaydigan bir dashtga yetib bordi.

Layli oʻsha oqshom bogʻdan qaytar ekan, chehrasidan olamga gullar sochilib, yuzidagi terlari yerga gulobdek tomardi. U gul bilan gulob ishq oʻti tufayli yanada goʻzalroq tus kasb etgan. Har bir qadam bosishida yuz latofat koʻzga tashlanardi. U goʻyo sarv ustida gul bargi manzil tutgandek goʻzal koʻrinar, yuz-u jamolini taʼriflashga soʻz topish qiyin edi. Lekin ishq gʻamidan tashvishlangan, parishon bir holda uyi tomon borardi.

Shu payt yoʻlda uni arablarning eng obroʻli kishilaridan biri boʻlgan bir yosh yigit koʻrib qoldi. Barcha ayblardan xoli boʻlgan bu kimsaning nomi Ibni Salom boʻlib, oti, qoʻylari son-sanoqsiz edi, togʻ bilan tenglasha oladigan tuyalari butun sahroni toʻldirib yuborgandi. Mol-dunyosi sonini hech kim bilmas, har qanday qiyin ishni hal qilish unga oson edi. Parivash goʻzal qizni koʻrib qolgan Ibni Salomning joniga ishq oʻti tushdi. Oʻz muddaosi-ga yetishni paysalga solmaydigan odam boʻlgani uchun unga uylanishga ahd qilib, qabilasiga yetib borishi bilanoq imkoni boricha koʻproq sovgʻa-salom toʻpladi-da, bir nechta obroʻli, donishmand

kishilarni yig'ib, o'z muddaosini bayon qildi. Ular Ibni Salom so'zlarini ma'qullashgach, barcha sovg'a-yu xazinalarni yuklab, Layli qabilasi tomon yo'l oldilar.

Laylining otasi bu so'zlardan xabar topgach, sevinib ketdi. Chunki u Ibni Salomni oldindan yaxshi tanir, u es-hushli, mol-u dunyosi serob odam bo'lib, Bani Asad qabilasining volisi – boshlig'i ekani, u qabila ahlining barchasida qancha mol bo'lsa, Ibni Salomniki undan yuz karra ortiqligini ham yaxshi bilardi. Shu tufayli mehmonlarni ehtirom bilan kutib olib, jon-dili bilan mezbonlik qila boshladi. Mehmonlar bu hurmatni ko'rib, nihoyatda shodlanib ketishdi, oldin olib kelgan sovg'a-salomlarni topshirishib, keyin asosiy muddaoga o'tib, Ibni Salom maqsadini bayon qilishdi.

Laylining otasi ularning so'zlarini fikrlab ko'rdi-da:

*«Ul qilsa o'g'ullug'um havosi,
Bo'lg'aymen-u men dog'i otosi.
Durrum anga zebi torak o'lg'ay,
Inshoalloh muborak o'lg'ay.
Lekin anga sabr ham kerakdur,
Kim shoxi gulum shikastarakdur.
Ham navras erur bu naxli ummid,
Ya'niki, hilol erur bu xurshid.
Ham tab'ida qolmasun maloli,
Ham sarvg'a yetsun e'tidoli.
Andin so'ng bu xujasta farzand
Ne komki bo'lmish orzumand,
Kelsun dog'i jomi vasl etib no'sh,
Sarv o'lsun-u gul bila hamog'ush», –*

deb javob qildi. Barcha mehmonlar shodlanishib uylariga ravona bo'ldilar.

Bu dam Layli uyda betob yotar ekan, ahvoli kundan kun zaiflashib borar, lekin yuragidagi ishq o'tini hech kimga oshkor etmay, bog'ga sayr qilgani borganida charchab qolganidan behol bo'lgani, isitmaga chalinganini o'z dardiga sabab qilib ko'rsatardi. Ko'pchilik qarindosh-u do'stlar bu so'zlarga ishonardi. Lekin ba'zilar uning bemorligi boshqa bir yashirin balo ekanini bilishib, g'am chekishardi. Qizning zaifligi boisidan yaxshi xabardor bo'lgan doya va ba'zi dugonalari Layli Ibni Salom haqidagi gaplarni eshitib qolsa, ahvoli yanada yomonlashishi mumkinligidan xavotirlanishardi. Shuning uchun to'y haqidagi gaplarni undan yashirishar, unga bildirmaslikka harakat qilishardi.

Bir kuni bir necha qarindosh ayollar uni ko'rish uchun kelib, dardini yanada og'irlashtirib ketdilar: mehmonlardan biri, qari, hushi kirdi-chiqdi bir kampir qizni xursand qilish maqsadida bo'lib o'tgan so'zlarni aytib yubordi: «Ey gul yuzli qizim, aslo g'am yema, erta-indin sihat topganingda baxting ochilib, barcha murodlaring hosil bo'ladi, sening yoring bo'luvchi yigit senga juda munosib. Dugonalaring hamma yoqda sening baxtingni orzu qilib gapirib yurishibdi», – deb Laylini quvontirishga intildi. Bu so'zlarni eshitgan bechora qiz ko'ngli buzilib, ahvoli yomonlashdi-da, hushidan ketib yiqildi.

Bir qancha vaqt behush bo'lib yotgan Layli o'ziga keldi-yu, kampirdan eshitgan gaplarni xotirladi; ahvoli yanada og'irlashib, o'zini o'lar holatga yetishgandek sezdi. Shundan keyin doyasiga yu-

zlanib unga yolbordi: «Sendan yashiradigan gapim yo'q. Bir so'zni eshitib, yuragim yonyapti. Bu so'z ma'nosi senga ham ma'lum, faqat sen ham bu gaplarni mendan yashiryapsan. Sen bu ishlarni to'xtatishga qodir emasligingni bilaman, shuning uchun sendan xafa emasman. Faqat bir iltimosim bor: bir dam eshik oldida bo'lib, huzurimga hech kimni kiritmay tursang. Ko'nglim bezovta, gap-so'zlarga toqatim yo'q. Odamlar bir zamon o'z holimga qo'yishsa». Doya qo'lini ko'ziga qo'ydi-da, tashqariga chiqib eshikni bekitdi va odamlarga: «Bu uydan nariroq turinglar, Layli uxlayapti», – deb e'lon qildi.

Layli uyni xoli ko'rgach, yoqasini yirtib, ko'ksiga urib, tirnog'i bilan badanini yulib, ko'zlaridan qonli yosh to'kib, oh-faryod cheka boshladi.

«Ey zolim falak, nega menga bunchalar ozor beryapsan? Mening niholim shoxlarini sindirib, tuproq bilan teng qilding, buning ustiga jafo teshasi bilan uni pora-pora qilishing nimasi? Endi bu nihol parchalarini balo o'txonasiga solishdan maqsading nima? Men bir yosh nihol bo'lib, shoxlarimda tikan-u, atrofimda xas-xashaklar yo'q edi. Shodiyona shoxlarim gul ochib, har tong boshim ustida gul sochilardi; barglarimga ofat kuzi yaqinlashmasdi. Kimning ko'ksiga tikan qadab, takabburlik qildimki, niholimni ishq shamoliga yo'liqtirding va sovuq yel bilan uni sindirding. Ishaq uni hammaning oldida parchalagach, hijron qo'liga topshirding-da, boshdan oyog'igacha yaralab, bo'laklarini ham pora-pora qilding. Bu bilan ham cheklanmay, ularni g'am do'zaxiga tashlading. Jonimga bu o'tdan yetayotgan uchqunlar ofat chaqmog'idir. Ofat o'tidan menga bir uchqun

tushsa, kul bo'lishdan boshqa choram qolmaydi. Bu uchqun jahonga ham tushib yondirib yuboradi-yu, tutuni osmoni falakkacha borib yetadi. U o't ichida bu zaif g'amzada xashak, chumoli kabi ojiz jismimga do'zax kelib tushsa, ey voh, holi qanday bo'lar ekan? Kimdan qasd olish uchun bu xil yurish qilib, ming chaqmoq bilan qasos olmoqdasan?

Men bu tarzda yuz azob-u mashaqqat asiriman, bechora zor-u zaifim, ya'ni mening asirim bo'lgan yorimning ahvoli nechuk ekan?

Menga bo'lgan muhabbati shavqi tufayli oh tortganida, bu oh uning somondek ojiz jismini uchirib ketarmikan? Sochim g'amida azob cheksa, har lahzada qanchalar jununi, devonaligi kuchayib ketarkin? Qaddim uchun nola qilganida, fig'oni qanchalar yuksaklikka ko'tarilar ekan? Faryod urib yuzimni ko'rishga intilganida, ko'z yoshlari qancha gullarni sochib tashlar ekan?... Lablarimni sog'inib ko'zidan suv oqizganida, suvdek o'zidan ketib qolarmikan? Qoshim egikligidan voy tortganida qaddi yoy kabi egilarmikan? Kipriklarim haqida o'y surar ekan, yuzlab tikanlar ichida qolgan ko'ngli ne holga tusharkin? Ko'zlarim haqida o'ylaganida, oq bilan qorani ajrata olmay qolarmikan? Qirg'ovul kabi yurishlarimni eslaganida, mening tuzoqlarimga asir bo'larmikan?

*Oyo, ne ekin g'amimda holi,
Chirmanmoq ila tani chu noli?
Ishqim o'tida yonarmu erkin,
Hajrim g'amida chidarmu erkin?
...Istarmu ekin yuzumni har kun,
Yo'qlarmu ekin sochimni har tun?
Bas yo'q anga muncha mehnat-u g'am,*

*Kim bilgusidur bu qissani ham.
Sog'ingay ul emgak oshnosi,
Mendin bo'lmoq bu ish rizosi.
Faryodki, o'lgudek g'amim bor,
Tong yo'q, gar o'zimga motamim bor».*

Uy ichida Layli shunday iztirob chekar ekan, bir chekkada uning nola-yu faryodini eshitib turgan onasi qizining dard-u alamlarini anglab, g'amga cho'mdi. Tun-u kun Layli holati haqida o'ylar, uning qayg'ulariga qanday chora qilish mumkinligi haqida fikr yuritardi.

Es-hushidan ayrilgan Qays qorong'i tunda devonasifat uyidan chiqib, dasht tomon qochganida, qabila ahli g'am chekib, otlig'-u yayov holda uni izlashib topisholmay qaytishdi. Ota-onasining g'ami yanada ziyoda bo'lib, nima qilishi kerakligi haqida fikrlashishdi. Oxiri Tangriga iltijo qilib, uni o'z panohida asrashni so'rash, muhtoj kishilarga ehsonlar qilishib, ulardan Qays haqiga duolar qilishni iltimos etishga qaror qilib, Tangrining mehribonligiga, o'g'illarini o'zlariga qaytarishiga umid izhor etishdi.

Haj mavsumi boshlangach, ota-onasi, qarindoshlari Ka'baga borishga tayyorlik ko'rib, odamlarni yana izlashga yuborib, Majnunni topib kelishdi-da, unga haj qilishi haqidagi niyatlarini bildirishdi. Bu ish unga ma'qul tushdi, chunki bu safar uning ham orzusi edi. Qaysni tuya ustiga o'rnatilgan kajavaga o'tqazib, Ka'ba tomon yo'l olishdi. Bir necha kun yurib, haramga yetib borishdi. Qarshilarida haram emas, arshi a'zam – osmonning eng yuksak cho'qqisi turardi.

Majnun bunday salobatli binoni ko'rgach, ko'nglida bir shukuh, shavq o'ti paydo bo'ldi-da, ko'z yoshlari yomg'irdek quyila boshladi, oh urdi-yu, chaqindek sakrab turib xuddi yer atrofida falak charx urgandek haram tegrasida aylanib yura boshladi. Yuzi bilan haram eshigini supurgach, halqasiga qo'lini qo'yib, faryod urdi: «Ey dono hakim, ey ishq o'tini jon-u tanimga urgan, bugun men, ishq ichida majruh bo'lgan, oyoqlari bog'langan asir huzuringga keldim. Ishq o'tini, uning halokatli g'amini bayon qilar ekanman, menga shodlik bag'ishla yoki ishq g'amidan qutqaz, deb aytmayman. Menga bu o'tni har dam ko'proq qil-u, zarracha ham kam etma. Ko'zlarimga ishq to'tiyosini surib, qalbinga ishq kimyosini ur! ...Yo Rab, ko'nglumni g'am bilan to'yg'izib, ishq ichra meni yo'q qilgin. Menga ishqni unut, Layli g'amidan o'zingni chetga tort, deyishadi. Alloh-Alloh, bu qanday so'z bo'ldi?! U odamlarni Tangrining o'zi kechirsin. Yo Rab, bu lazzatli mayni istagim jomiga to'ldirib quy, u maydan shunchalik ko'p tutginki, hushimni mutlaqo unutay.

*Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin ragimda qon qil.
Dardini najotim et, ilohiy!
Yodini hayotim et, ilohiy!
...Dardimga xayolini tabib et,
Jonimg'a visolini nasib et.
Jannat sari cheksa sarnavishtim,
Vasli haramini qil behishtim.
Onsiz meni bir dam etma mavjud,
Budumni qil onsiz o'lsa nobud!»*

Qays atrofida turgan hojilar bu munajatni eshitib, lol bo'lib qoldilar. Yuzlab kishilar g'amgin holda «omin» deb yubordilar. Bechora otasi hushini yo'qotgan, barcha yaqinlari hayron bo'lib turardilar. Bu nola-yu ko'z yoshlarining guvohi bo'lganlar uning ishidan qo'llarini yuvdilar – bu ishqdan hech qanday kuch Qaysni judo qila olmasligini anglab yetdilar. U esa bu dardli nolasini tugatgach, yana hushidan ketib yiqildi. Qarindoshlari-yu do'stlari uni ko'tarib, manzillariga ravona bo'ldilar.

Haj tavofiga borib qaytgan odamlar o'z vatanlariga yo'l olgach, Majnunning otasi o'g'lidan butunlay umidini uzib, har qanday davoning foydasizligiga ishonch hosil qilib, ko'z yoshi jahonni tutdi, barcha qarindosh-urug'lari ham qayg'u-alam girdobida qoldilar. Devona Qays ham tezlik bilan tog'-u biyobonlardan o'tib, har kuni va har tunda yana o'zi ardoqlaydigan tarafga qarab yo'l oldi. Uning yurishida ham, turishida ham qaror-u ixtiyori yo'q edi. «Layli»dan boshqa so'zni aytishni ham istamas, tilidan ham, fikridan ham shu so'z joy olgandi. Qaysi tomonga nazar tashlasa, Layli chehrasi jilvalanar, yuzi, qaddi, qiyofasi uning xayolidan aslo ketmas, ularni sarv ustidagi gul deb tasavvur qilib, ham sarv oldida bosh qo'yar, ham gul qoshida ko'z yoshlarini to'kardi.

Layli g'ami haqida tafakkur qilar ekan, har biri dur misoli yuzlab bayt-u g'azallar ijod qilar, ularning barcha qofiyalari dildorining sifati, barcha radifi uning otiga bag'ishlanardi. Ularni eshitgan odamlarning zavqlari oshib, tezda yodlab olishardi. Bu baytlarda alangali ma'no, har so'zida shavq harfi yashirilgan, har harfida ishq siri pinhon

edi. Hushi borligida duri gavhardek baytlar bitish bilan band bo'lsa, hushsizlik chog'larida og'zidan turli behuda so'zlar chiqar, odamlarning so'zlarini anglamas, o'z so'zini ham tushunmasdi. Tog' ichida vahshiy hayvonlardek kezib yurar, bolalardek yig'lab faryod qilar, ota-onasi-yu do'stlarini ham eslamas, hatto yeyish-ichishni ham unutgan edi. Atrofni kiyiklar o'rab olar, bu esa xuddi cho'pondek ko'rinar, goh birining peshonasidan o'par, goh boshqasining orqasini silardi. Atrofida bo'rilar posbon itidek, yo'q-yo'q, cho'pon itidek kezib yurishardi.

Bir kuni bu dashtga arablar diyorining obro'li sardorlaridan biri, jang qilish, o'q otishda tanilgan bahodir Nafvalning yo'li tushib qoldi. U har xil qabilalardan tanlangan do'st-yorlari bilan sahroda ov qilib yurardi. Bu payt Majnun ovchilar davrasi ichida qolgan bo'lib, atrofi kiyiklar bilan to'la edi. Nafval odamlarini ko'rgan barcha hayvonlar har tarafdin Majnun atrofiga yugurib kela boshlashdi. Barchasi unga yolvorishar, najot istab unga sig'ingandek boqishardi.

Bu hayratomuz holatni ko'rgan Nafval odamlaridan: «Bu ajoyib ishlar ko'nglimga qo'rqinch solyapti. Sizlar ham ko'ryapsizlarmi yoki yo'qmi, yo faqat mening ko'zimga ko'rinyaptimi?» – deb so'radi. Ovchilardan ba'zisi Majnun haqidagi voqealardan xabardor edi. Ular Nafvalga o'zlari bilgan-eshitganlarini so'zlab berdilar. Nafval ham ishq ko'rgan, g'am dashtida yugurgan odamlardan edi. Majnun haqidagi hikoyalarini eshitib zor yig'ladi-yu, ov qilishni ham to'xtatdi. «Ishq qanday kimyo, qandayin porloq nurki, har bir kishini

g'amnok qiladi-yu, qalbini g'amdan poklaydi. Qarangki, elga rom bo'lmaydigan vahshiy hayvonlar sahroda usiz orom topisholmayaptilar, ishq uning vujudini shunday poklabdiki, odamiylikni ham unutibdi. Shuning uchun vahshiy hayvonlar undan qo'rqishmayapti, chunki bunday insonda vahshat ham qolmaydi», – dedi u. Keyin hayvonlarga jafo qilishni to'xtatdi-da, odamlariga: «O'q-u yoylarni tashlab, itlaringizni mahkam qilib bog'langlar», – deb buyurdi-da, hayvonlar to'planayotgan tomonga yo'l oldi.

Majnun uning chehrasini ko'rib, kelishidan xursand bo'ldi. Yovvoyi va xonaki hayvonlar Nafvaldan cho'chib qochishgan bo'lsa ham, Majnun uni kutib turdi. Yetib kelgan Nafval unga salom qildi, Majnun ham unga ehtirom ko'rsatdi. So'ng: «Ey qutlug' chehrali zot, yuzingda poklik quyoshi namoyon, ruxsoringda safo nuri porlayapti. Yuzlab maqsadingga erishganing ayon. Ammo sening bir ishing menga g'alati ko'rindi. Bilimsiz odamlardek o'q otib, hayvonlar go'shti bilan o'zingni to'ydirmoqchisan. Bu xil ovqatga muhtojliging yo'g'-u, nega ta'bing ularga ozor yetkazishni istayapti? Nafsingni xursand qilish uchun odamlarni to'plab, ko'ngling qon to'kishni tilayapti. Shunday zulm qilib topganing ovqat bo'ladimi, senga bu ish munosibmi? Agar tikan oyog'ingga nish ursa, ko'ngling oyog'ing uchun alam chekadi. O'q otib, jonivorlarni o'ldirish senga martaba beradimi? Bularga jonni, hayotni Xudo bergan-ku! Bu bechoralarning jonidan kech, gunohsiz guruhning qonidan kechgin!»

Nafval bu oqilona so'zlarni eshitgach, yer o'pib, uning oldiga bosh qo'ydi-da: «Ey farishtasifat yigit,

sening fazilatlarining oddiy odamlarnikiga o'xshamayapti. So'zingdan ko'zlagan maqsadingni tushundim, barcha aytganlaringni qabul qildim. Qilich-u o'qni o'z jonimga ravo ko'rsam ko'raman-u, lekin bu hayvonlarga zulm qilmayman. Sen o'z so'zlaringni aytding, endi mening ham savollarim bor». Majnun: «Ey muborak chehrali zot, gapiraver!» – deya javob qildi. Nafval dedi: «Bu bechoralarga azob berma», – deb to'g'ri yo'lni ko'rsatding. Xohishingni inobatga olib, ularga dushmanlik qilishdan voz kechdim. Sen eldan ayrilib, ular bilan do'stlik qilyapsan. Odamlar bilan ulfatchiliging yo'q, axir bu xil yashash ham odatimizga zid emasmi? Inson – bilim chirog'i, undan cho'chib, hayvonlar orasidan orom topish menga sababsiz bo'lib ko'rinyapti, bu ishing boisini tushuna olmayapman. Eshitishimcha, bir gul yuzli go'zal sening yuragingga tashvish solibdi. Bu gaplar to'g'ri bo'lsa, ulardan voz kechib, bir necha kun men bila birga kezigil. Bu yerda zor-u muhtalo bo'lib, g'am tuzog'ida iztirob chekyapsan. Men imkoni boricha sevganing bilan nikohingni uyushtirishga harakat qilay. Agar ishimiz pul-u, mollar bilan hal bo'lmasa, urush qilib ham murodingga yetkaza olmasam, boshqa choralarni ham ko'raman. Bu bilan ham yoring visoliga yetkaza olmasam, boshqa tadbirga qo'l uramiz: seni o'zinga farzand qilaman. Lekin vahshiy va uy hayvonlari bilan yashashdan voz kechgil, chunki odam bilan hayvon yaqin bo'lolmaydi, odamning hamjinsi ham odam bo'lishi kerak. Agar muroding yor visoliga yetishish bo'lsa, bu ishda g'ayratli bo'lishing kerak».

Majnun vasl so'zini eshitishi bilan xursandligi avvalgidan ham oshib, shodlik uni behol qilib

qoʻydi, bu esa nutqini lol ayladi. Ancha harakat qilib soʻz ochdi-da, koʻzida suv, ogʻzida tabassum bilan dedi: «Menga aytgan gaplaringning har biriga javobim bor edi. Lekin visol haqida soʻz ochganingdan soʻng ularning barchasidan voz kechdim. Agar bergan vaʼdalarini bajo qilsang yoki ularni bajarishning iloji boʻlmay qolsa ham, yuzim oting tuyogʻi, boshim esa uning oyogʻi ostida boʻlsin», – dedi.

Ikkala tomon oʻrtasida mehribonlik paydo boʻlgach, bir-birlari bilan qizgʻin koʻrishdilar. Majnunni vasl vaʼdasi bilan suyuntirgan Nafval uni uyiga olib ketdi.

Ikkala doʻst Nafval uyiga yetib kelishgach, uy sohibi bir nechta soʻzga chechan, har qanday mushkilni hal eta oladigan donishmand olim kishilarni chaqirtirib, ularga Qays va Layli oʻrtasidagi munosabatlar haqida batafsil soʻzlab berdi-da, Layli otasi nomiga xat yozdirib, qizning qabilasiga joʻnatdi. Unda shunday soʻzlar bitilgan edi:

«Ey baxt-u toleʼyi porloq hukmdor! Arablar orasida tengi yoʻq Qays haqidagi hikoyatlardan xabardordirsan. Qizing Laylini sevib qolgan bu yigitning ishq pok boʻlib, unga nihoyatda orzumanndir. Odobi-yu hayosi ahvolini izhor qilishga yoʻl bermaydi. Muhabbat dardida qabilasi-yu yaqinlarini unutib, ishq oʻtida kuyib dashtda yurgan emish. Hushi parishon boʻlgan bu oshiqni «Majnun» deb atashibdi, u sening qabilangdagi maktabda oʻqib, olamda bor boʻlgan barcha ilmlarni oʻrganibdi. Sen ham bu ishlardan xabardor ekansan, uni maqtab gapirib yurar ekansan. Qays bu ishqqa muhtalo boʻlganida, uning otasi qanday

fikrlarga borgan ekan? U senga farzand bo'lmasa ham, farzanding darajasida edi. Sen bu ishlarni hal qilishdan o'zingni chetga olib, holatni yaxshi tushunib yetmay, uni g'amga qo'yibsan, shu tufayli u goh dashtda, goh tog'da kezib yuribdi. Muruvvat, odamgarchilik, oliyjanoblik shunday bo'ladi-mi? Mayli, o'tgan ishlardan shikoyat qilib, ularni orqaga qaytarishning iloji yo'q. Men uni dashtda ko'rib, uyimga olib keldim. Uni o'zingga farzand qilib oldim. U o'z hushida, oqil va dono bir inson. Endi shunday ish qilsak: ikkalamiz ularning nikohini uyushtirsak. Barcha rasm-rusumlarni o'rniga qo'yib ularning to'ylarini o'tkazsak. Toj ustidagi dur yoniga la'l qo'yilsa, yanada go'zalroq ko'rinadi. Agar bu ishlardan bo'yin tovtasang, ko'nglim qolishidan vahm qilgin!»

Bu xatga ko'pgina sovg'a-salomlar qo'shib, Layli qabilasi tomon yo'lladi. Laylining otasi xat olib kelgan kishilarni hurmat bilan kutib oldi. Mehmonlar o'zlari olib kelgan maktubni uning qo'lga topshirishgach, uni o'qib chiqqan mezbonga Nafvalning so'zlari qattiq botib, bir to'lg'anib oldi-da:

«Gap bunday: Layli boshqa bir kishining habibi bo'ladi, taqdir uni o'zga birovga nasib etdi. Bunday bo'lmaganda ham Nafval so'ziga itoat etishga zaruriyatim yo'q. U o'z maktubida ham umid bildiribdi, ham qo'rqitibdi. Umidi meni xursand qilgan bo'lsa, qo'rqitishidan ko'nglim ranjidi. Talabgorlari son-sanoqsiz bo'lgan Layli hozir birovga atalgandir. Bu javobim Nafvalga ma'qul tushmasa, yaxshiligiga ham, yomonligiga ham tayyormiz. Uning o'ch olishidan qo'rqadigan joyimiz yo'q. Urush ochsa, biz qasd olamiz, qasd qilsa, biz urush qilamiz», – dedi.

So'zini tugatdi-da, barcha mehmonlarga javob berdi. Mehmonlar xijolat bo'lib, o'rnilaridan turdilar va Nafvalga Layli otasining javobini yetkazdilar.

Nafval bu xabardan g'amga cho'mib, o'zi va'da qilgan ishni bajarishga kirishdi. Har bir qabiladan sipohlar to'plab, urushni boshladi. Majnunni yoniga olib, kiyimiga xushbo'y moddalar sepib, boshiga salla o'ratib, ot ustiga o'tqazdi. U bo'lsa nima qilishni bilmay, goh nola qilib, goh oh chekib, oti qayerga yo'l olsa ham indamay, bir yerda turib qolgan chog'da esa yurg'izishga e'tibor ham bermasdi. Sipohlar jangga hozir bo'lgach, Layli qabilasi tomon yo'l olishdi.

U qabila a'zolari ham yov kelayotganidan ogoh bo'lishgach, o'z jasoratlarini isbotlash uchun har tomondan sipoh yig'ib, bellarini mahkam bog'lashdi-da, jangga tayyorlanishdi.

Nafval lashkari ham saf chekib, mast tuyalardek og'izlaridan tupik sochishib turishardi. Shu tarzda g'azabli ikki qo'shin qon to'kishga bel bog'lab, bir-birlari bilan to'qnashdilar. Bahorda kuchli yomg'ir yog'ganidek, maydonga yoy o'qlari yog'ildirdi. O'tkir qilichlar ustara kabi el halokini istab, ustaradek tezlik bilan soch o'rniga boshlarni kesardi. Yoy o'qlari qushlardek havoga uchib, qanotlari ochilar ekan, dushman askarlarining hayoti o'char, nayzalar uchar yulduzlardek otilib borib, yov ko'kragiga o'rnatilgan sovutlarni igna ipak matoga sanchilgani kabi oson teshib o'tar, xanjarlar qon to'kaverganidan qip-qizil tilga o'xshab, odamlar bag'rini til bilan yaralagandek tilka-pora qilardi. Gurzilar el boshini yanchuvchilik vazifasini bajarardi. Qattiq jang oqshomgacha davom etdi.

Nafval lashkarining soni raqiblaridan ko'proq bo'lib, mardlik bilan jang qildilar. Dushmanlar bu holatni ko'rib, qo'rquvga tushdilar-da, himoyaga kuch berdilar. Kun kech bo'lgan esa-da, biron tomon mag'lub bo'lmadi. Nafval jang natijasidan xursand bo'lib, sipohni dam olishga buyurdi.

Tunda Nafval ertaga davom etadigan jangda g'alaba qozonish rejasini tuzar ekan, bu chog' raqib tomon mag'lub bo'lishdan qo'rquvda edi. Laylining otasi o'z lashkarining yaxshi urusha olmayotganini ko'rib, nima qilish haqida o'y surar ekan, barcha yaqinlarini to'plab, jang natijalari haqida fikr yuritishdi. Qabila boshlig'i so'zni qisqa qilib shunday dedi:

«Agar qo'shinimiz qochib, Nafval urushda g'olib keladigan bo'lsa, Laylini asira qilib o'z maqsadiga erishmoqchi bo'lsa, obro'yimiz yer bilan yakson bo'ladi, arablar orasida bosh ko'tarib yurolmagan bo'lib qolamiz. Bunday holat yuz beradigan bo'lsa, men bir fikrni ma'qul ko'ryapman: ertaga tongda Laylini chaqirtirib, o'ldiraman, qaddi niholini tuproqqa ko'mib, hilol qoshlarni yerga topshiraman. Garchi u ko'zimning nuri bo'lsa ham, ofat shamolidan chirog'im o'chib, bog'imni kuz quritsa, dushman o'z maqsadiga erishib, nomus menga harom bo'ladi». Bu so'zni eshitganlar Laylining otasi fikrini ma'qullab tahsin aytdilar, xursand bo'ldilar.

Ertaga bo'ladigan jangda Nafvalning g'alaba qozonishi shubhasiz bo'lib, sipohlarining ruhlari band edi. Lekin Majnunning ahvoli o'zgacha bo'lib, goh zavqlanar, gohida azob chekardi. Yori visoli haqida o'ylar ekan, ko'ngli umid bilan shodlanar,

ammo yorining qabiladoshlari magʻlub boʻlayotganlarini koʻrib ich-ichidan azoblanardi. Shunday qaygʻu chekar ekan, uning koʻzi uyquga ketdi-yu, bir tush koʻrdi.

Goʻzal dildori chiroyli kiyingan holda gulshanga qadam ranjida qilib, Majnun oldiga keldi va oyogʻini oʻpdi, soʻng qoʻllarini uning boʻyniga tashlab dedi: «Ey rafiqi jonim, otam el bilan kengashib ertaga meni oʻldirib, qonim bilan yerni boʻyamoqchi. Ishqing yoʻlida halok boʻlmoq mening orzum edi, davron bu murodimga yetkazdi. Endi sen yaxshi qol-u omon boʻl!». Layli shu soʻzlarni aytib, sevgilisi bilan vidolashdi.

Bu tushni koʻrgan Majnun: «Voy!» – deb qichqirgancha seskanib uygʻondi. Uning qichqirigʻini eshitgan barcha odamlar koʻzidan uyqu qochib: «Nima bu?» – deb hayron boʻlishdi. Majnun motamzadalardek oʻkirib, koʻz yoshi toʻkib, Nafval tomon yugurdi. Uning oldiga yetib borgach, yer oʻpdi-da, shunday dedi: «Ey raqiblar ustidan gʻolib boʻlgan yuksak martaba sohibi! Tangri haqi, endi tigʻ chekmagil, urushni toʻxtat, chunki sening tigʻing koʻngillarni chok qilyapti. Ertaga jangni davom ettirib, hayotim ipini uzmagin. Oʻch olish yoyini qoʻlingdan tashla, toki mening jonimga oʻq tegmasin!».

Nafval hayron boʻlib, Majnunning bezovtalik sababini surishtirdi. Oʻz tushining mazmunini aytganida, Nafval mahzun boʻlib: «Majnunning tushi haqiqatan ham yuz berishi mumkin», – degan xayolga bordi. Erta tongda bu xabar barcha lashkarlarga ham maʼqul boʻlib, ular Nafval chodiri oldiga kelib, Layliga ofat yetkizmaslikni iltijo qila boshlashdi. Majnun boʻlsa yana dasht tomon joʻnadi.

Nafval lashkarini o'z qabilasi tomon olib ketgach, Layli qabilasi ahli o'ylanib qolishdi. Chunki dushman qo'shinining g'alaba qilishi yaqin bo'lgani holda jang maydonini tashlab ketishi sababini bilolmay taajjubda edilar. Shuning uchun «Nafval hiyla qilayotgan bo'lishi kerak. Balki bizni aldab turib hujum qilib qolar», – deb xafvsiradilar-da, karvon haj tomon yo'l olganidek, u dashtdan tezlik bilan ko'chib ketdilar va boshqa bir joyni o'zlariga manzil qilib tanladilar.

Majnun o'ziga tanish dasht tomon borar ekan, nogoh unga hayotdan ozor chekkan dardli bir odam yo'liqdi. U g'amga muhtalo bo'lgan bu kim-sani ko'rib yuragi ezilib ketdi-da, so'radi: «Falak boshingga ne alamlar soldi? Ne uchun ko'ngling men kabi iztirobda, Tangri uchun ayt, nima seni shunchalik ranjitdi?» U kishi oh chekib javob berdi: «Ey mard yigit, men arablar ichidagi baxtiqaro, xoksor bir insonman. Yashash uchun gadolik qilib yuraman. Layli qabilasi mening panohim, u yerning tuprog'i esa mening suyanchig'im. Qabila ahli meni «Zayd» deb chaqiradilar. Qabiladagi bir ayol meni o'ziga band etgandi. Jafokor Nafval Majnunga yordam berish uchun urush boshlaganda, hech qaysi tomon zafar qozonmay turib, nimagadir o'z diyoriga qaytib ketdi. Laylining qabiladoshlari uning bu ishini hiyla deb o'ylab, bir yerga yashirindilar, kecha qop-qorong'i edi, men adashib u qabila turgan yerdan uzoqlashib ketibman. Quyosh endigina ko'tarilgan vaqtda tuya mingan ikki kishi yo'limni to'sishdi. Nafval o'z lashkarlarini uylariga tarqatib yuborganida, bu ikki odam ham manzili tomon yo'l olgan ekan. Ular

mening hamma yog'imni tintib, ikki-uch diram pulimni, yana boshqa ashyolarimni tortib olishdi-da, bu bilan kifoyalanmay: «Pullaringni qayerga ko'mgansan, ayt!» – deb urib, badanimni ilma-teshik qilib tashlashdi. Ular hech nima topolmay, o'tib ketishgach, men fursatni qo'ldan boy bermay, shu tomonga qarab yugurdim va ko'p o'tmay senga duch keldim. Sen ham ularning sherigi bo'lsang, sahroda odamlarni talovchilardan bo'lsang, kissamda pulim yo'q, kerak bo'lsa, jonimnigina olishing mumkin», – dedi. Majnun uning hikoyasini eshitib, otidan tushdi va u odamni quchoqladi-da, yig'lab turib shunday dedi: «Ey yarador do'stim, senga ruhimni fido qilsam arziydi. Jonim badaning shifosi, boshim qadaming fidosi bo'lsin. Nafval sipohlari qilgan barcha ishlarga asosiy sababchi Majnun bo'lgan bo'lsa, o'sha baxti qaro Majnun menman. Qo'lingga xanjar olgin-da, ko'ngling tilagan ishni qil. Xohlasang, jismimni istaganingcha tilgin, xohlasang, ko'nglimni pora-pora qilgin. Agar o'ldirishni istamasang, yo'qotgan puling o'rniga otimni, boshqa ashyolaring uchun esa kiyimlarimni olgin», – dedi va ustidagi kiyimlarini yechib, uning oldiga qo'ydi. Shuningdek, otini, qalqon-u qilichi, o'qi va yoyini unga tutdi. Shunday saxiyliklar qilgach, oyog'ini o'pib, kechirim so'rab dedi:

«Agar Layli qabilasiga yetib borsang, unga mening salomimni yetkaz va mana bu so'zlarimni ham unga aytib qo'y: men uning oldida ko'p xijolatdaman, holatim shu darajadaki, uni so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydi. Iltimosim shuki, yorim qabilasiga yetib borsang, uning ahlidan ayrilma, qayerga borsalar, orqalaridan qolma. Yuzingni

o'sha makondan, boshingni o'sha ostonadan olma». Zayd bu so'zlarni tinglar ekan, unga hayrat bilan boqib turardi. Uning kimligini bilib, so'zlari-ni eshitgach, yer o'pib, hurmatini ifoda qildi-da, dedi: «Sen sevgan u go'zal sening g'aming bilan yashaydi, og'zida hamisha sening so'zlaring, ko'nglida esa sening xayoling. Agar ruxsat bersang-u, sendan unga xabar yetkazsam, unga bu jonidan ortiq xushxabar bo'lar edi. Menga nimani munosib ko'rsang, u ikki marta ko'proq in'om qilardi. Hamma so'zlaringni men unga yetkazaman va buyursa, javobini keltiraman. Shunda ikki va-fodor maqsadlariga yetadilar, o'rtada menga ham foydasi tegadi».

Majnun dedi: «Ey do'sti hamdamim, jonbaxsh so'zlaring yaramga malham bo'ldi. Yorim hajri tilimni lol etgani uchun so'z aytish menga qiyin bo'lyapti. Sen hamma dardimdan ogoh bo'lding, ahvolimni ko'rding, otimni ham bilib olding. Sen menga do'stlik qilaman desang, unga nima deyishni o'zing bilasan. Vafo odati shioring bo'lsin, endi boraqol, Tangri yoring bo'lsin».

Zayd otga mindi-da, Layli qabilasi tomon yo'l oldi. Majnun ham tez-tez yurib, Layli qabilasi ko'chib ketgan manzil tomon yurib ketdi.

Majnun Layli qabilasi ko'chgan yerga yetishgach, u yerni takror-takror aylanib chiqar ekan, aqli ham, hushi ham o'zida emasdi. Barcha bu manzilni tark etgan bo'lib, uylarning o'rnigina ko'zga tashlanib turar, har bir uy nishoniga nazari tushgan yigit yuzi bilan har qaysi ostonani supurib borardi. Aylanib yurar ekan, ko'zi Layli uyi nishoniga tushdi-yu, ko'ngliga o't tutashib, joni mulkini vayron qildi. Jismi

oʻrtanib, koʻngliga iztirob tushdi. Tashlab ketilgan bu makon yorining yashash joyi ekani, bu yerning tuprogʻi uning joniga vatan boʻlganini eslar ekan, dilbarining isi dimogʻiga orom bergandek, muhabbat dogʻi yangilangandek boʻldi.

Bir dam koʻksidagi ishq oʻti taskin topgach, u yana oʻrnidan turib manzilni qadamba-qadam keza boshladi, har bir qadamda yuzini yerga qoʻyib sajda qilardi.

Oh urib har yonga yugurar ekan, nogoh bir qoʻtir itni koʻrdi. Uning etlari suyaklariga yopishib ketgan, aʼzosining u yer, bu yeridagina bir necha tuk qolgan, ular ham jismiga ogʻirlik qilayotgandek edi. Tanasi yaralarga toʻla boʻlib, ular qurtlarga serob edi. Jismidagi yaralarga qoʻngan koʻplab qushlarnigina emas, pashshalarni quvishga ham madori qolmagandi. Majnun bu itning bir vaqtlar mana shu hovlida posbonlik qilib, hatto, sher-u yoʻlbarlar, qoplon-u boʻrilar yuragiga ham vahi-ma solganini eslab, hozirgi ahvoliga achinib ketdi. Ojiz bu bechoraga hujum qilayotgan qushlarni oʻz faryodi bilan qoʻrqitib uchirib yubordi. Keyin uning oldiga keldi-da, yaralarini qondan tozalab, koʻylagini yirtib bogʻladi. Soʻng itga qarab: «Yo Rab, gʻamlaringga falak salomatlik bagʻishlab dard-u azoblaring daf boʻlsin. Oldingidan ham quvvatliroq, sogʻlomroq boʻlgin. Yana baxt hamdam boʻlsa, yana yorim eshigiga mahramlik qilsang, meni oʻzingga yot bilmay, men xastani ham unutmagaysan. Jonimni oʻsha tomonga olib borgin-da, koʻchasining tuprogʻi ustidan sochgin.

Agar senga tole yor boʻlib, jononim hovlisini qoʻriqlashga yoʻl topsang, biron kishi seni u yer-

dan «chiq» deb haydamasa, engakingni qo'llaring ustiga, tumshug'ingni o'sha eshikka qo'ysang, men uchun u eshikni yashirincha o'pgin, toki hech kishi buni bilmasin».

Majnunning it bilan qilayotgan bu suhbatini ko'rgan ba'zi o'tkinchilar uni tanishib, ko'ngillari buzilib zor yig'lar, tanimagan odamlar xayol surib, ahvoliga achinishar edi. Ko'ngli buzilgan bir kishi unga murojaat qilib: «Ey ishq o'ti ichra cho'g' bo'lgan, cho'g' emas, samandar bo'lgan yigit, seni farishta deb aysalar ajab emas. Chunki sening sifatlarining farishtaga o'xshaydi, zoting ham malak sifatidir. It bilan bunchalik ulfat bo'libsang, it bilan farishta o'rtasida qanday yaqinlik bor? Qaysi bir uyda it bo'lsa, o'sha uyga farishta tushmaydi-ku. Ular o'rtasida shunday ziddiyat bor ekan, ikkovin-gizning bu ulfatchiligingizga qanday sabab bor?» – deb so'radi. Majnun yig'lab, oh urib, shunday javob qildi:

«Ey ishqdan ogoh bo'lmagan inson! Seni ham farishta desam, ajablanarli joyi yo'q, chunki senga ishqdan nasiba tegmagan. Mendek odamni farishta deb atash aldoqchilikdir, chunki meni ko'rsa, dev ham qochib qoladi. Ishq vujudimni shunday o'rtaganki, butun borlig'im nobud bo'lgan. U o'tga diqqat bilan qarasang, badanimni bir to'da kuldek ko'rasan. It shu bir to'da kul ustida yursa, ajablanarli joyi yo'q. Chunki har qaysi itga bir yara chiqsa, shu kul uning taniga rohat beradi. Bu itning jarohati ko'p, shuning uchun unga: «Kul ustidan turib ket!» – deb bo'lmaydi. Yo'q, yo'q, itlik unda emas, itlik jahonda men bilan tugallangan. It menmen, xalqqa or menmen. Boshdan oyog'i

yarali – menmen. Bu yaralarimga shu it malham bo'lyapti. Menda yuz tuman jon bo'lsa ham, uni yo'lga sochgan bo'lardim».

Shu gaplarini aytar ekan, yana devonaligi qo'zg'ab, dashtdagi vahshiy hayvonlar, kiyik va quyonlar bilan qilgan xursandchiliklari yodiga tushdi-da, itning qo'l-oyog'ini o'pib, biyobon sayriga, o'z yaqinlari bo'lgan hayvonlar tomon yo'l oldi.

Zayd Layli qabilasiga yetib borgach, payt poylab qizga Majnun haqidagi xabarni yetkazdi. Layli uning so'zlarini eshitgach, joniga o't tutashib, boshidan oshdi. Zaydga yuzlanib, ko'zlaridan hasrat yoshlarini oqizib: «So'zlaring tanimga jon, jismimga ruh bag'ishladi. Sen jonim dardiga malham bo'lding. Sen odam emas, farishtasan!» – deb, yonida bor pulni unga tutqazdi-da: «Bir yaxshilik qilsang, men yozgan maktubni unga yetkangsang ham javobni olib kelsang». Zayd rozilik bildirgach, Layli siyoh-u qalam oldirib kelib tez-tez maktub yozdi-yu, qabiladoshlari bilib qolishidan xafvsiragan holda yashirincha Zaydga topshirdi. U darhol yo'lga tushib, dashtga yetib bordi-da, bo'lgan voqealarni so'zlab, o'zi olib kelgan xatni Majnunga topshirdi. Uni o'qigan oshiq yigitning majoli qolmay, yerga yiqildi. Maktubda shunday deb yozilgan edi:

*Ushbu raqamki naqshi Chindur,
Bir xastag'a bir shikastadindir.
Ya'ni meni zori muhtalodin,
Sengaki qutulmading balodin.
Ey ishq o'tida xasim, nechuksen,
Ey bedili bekasim, nechuksen?*

*...Holing nedurur firoqim ichra,
Fikring nedur ishtiyogim ichra.
Sochingg'a yopushsa xor-u xoshok,
Kim tortar ekin birin-birin pok?
Jismingki qonasa g'am toshidin,
Kim yur ekin oni ko'z yoshidin?
Xoriki kafingg'a borur erkin,
Kirpik bila kim chiqorur erkin?*

Hijron o'ti taningni kuydirgan chog'da, kim u o'tga tuproq sochar ekan? Jismi zoring qum uzra yiqilsa, kim senga mehribonlik qilar ekan? Koshki tun-u kun rafiqing bo'lsam edi, ikkimiz visol og'ushida bo'lsak edi. Ne qilayki, falak meni bu maqsadimga yetkazmadi. Mening dardim ham senikidan kam emas. Sen o'tli oh cheksang, men tutun chiqarmasdan o't yoqaman. Sen g'amim tufayli har qancha oh cheksang ham, Nafval bilan birga qo'shin tortib kelib, qabilamni talon-taroj qilding. Otam ham meni o'ldirishni istab, qonimni to'kishga qasd qildi. Shunday balolarga duchor bo'lsam ham, yorim yo'lida halok bo'lishdan xursand edim. Odamlardan eshitishimcha, Nafval bilan do'stlashib, uning qiziga uylanmoqchi ham bo'layotgan emishsan. Bu gaplar rost esa, baxt senga yor bo'lsin. Lekin men bu so'zlarga ishonmadim. Shuni bilki, sen nimani tilasang, menga ham shu maqbuldir. Bir kuni bog'da yurganimda, u qizni ko'rgan edim. Go'zal va elga mehribon, yaxshigina dilbar ekan. Bu ishingni Tangri qo'llab, muborak bo'lsin. U bilan shodlik kunlaringda men xastani ham ba'zan yod ayla. Insofdan uzoqlashib, meni unutib yuborma».

Majnun bu xatni o'qiguncha, tani qamishdek zaiflashib qoldi. Zayd oldida bosh qo'yib, seldek yosh to'kdi-yu: «Bu nomaga javob yozay desam, asboblarim yo'q», – dedi. Zayd buni oldindan o'ylab, kerakli narsalarni olib kelgan ekan, bar-chasini: qog'oz, qalam va siyohni uning oldiga qo'ydi. Majnun sevgilisi maktubiga javob yozdi-da, uni olgan Zayd yo'lga tushib, tez-tez qadam bosib qabila tomon jo'nadi. Borib, maktubni Layliga topshirdi. U esa hech kim yo'q joyga kirib, xatni o'qiy boshladi. Unda shunday so'zlar bitilgan edi:

*Ushbu g'am-u alam bayoni,
Jon safhasida bag'ir nishoni.
Mendinki ichim g'amingda qondur,
Sengaki g'aming tanimda jondur.
...Ey kishvari husn podshohi,
Husn ahli chu kishvaring sipohi.
Ey lutf jahonining bahori,
Yuzung bu bahor lolazori.
Bo'lg'onda sahar yeli gulafshon,
Zulfunimu aylamas parishon?
Noz uyqusidin ocharmusan ko'z,
Yuz noz ila elga dermusan so'z?
Bu ermish irodayi Ilohiy,
Kim sirrini bilmas el kamohi.*

Bexosdan yuzingga bir nigohim tushganga, men gunohkormanmi? Boshimga shuncha balo kelib, diyor-u xonumonimdan ajralib, olamda devona bo'lib yuribman. Har kuni vatanim boshqa bir vodiy, har tunni odamlar tashlab ketgan vayronalarda o'tkazaman. Do'stlarim yovvoyi

hayvonlar bo'lsa ham, gohida ular bilan ham orom topolmayman. Vahshiy jonivorlar mening xunuk ko'rinishimdan hayratda bo'lsalar, qushlar chekayotgan azoblarimni ko'rib iztirobga tushadilar. Shunday uqubatlarda alam tortar ekanman, yoding bilangina tirik ekanman, sening gavhar sochuvli nomang menga yetib keldi. So'zlarini o'qib ruh, har harfingdan yuz rohat topdim. Lekin undagi ikki so'z jonimga o't soldi. Sen Nafval qilgan ishlar haqida yozib: «Ikkovingiz qabilamga tig' tortib keldingiz», – debsan. Bu arqonni ajdaho deyishdek bir gap. Pashsha fil bo'lishni orzu etishi, chumoli sherlik da'vosini qilishi mumkinmi? Aslida ish mana bunday bo'lgan edi. Bir kuni atrofimni turli hayvonlar o'rab turganda, o'sha sarkarda mening beholligim, ishqingda bemadorligimni ko'rib, oldingga keldi-da, bir qancha so'zlarni aytdi. Men goh o'zimda, goh behush holda uning gaplarini tinglab, nima deb javob berganimni ham bilmayman. U meni uyiga olib ketdi. Keyin sen aytgan ishlar bo'lib o'tdi. Men uning o'ch olish maqsadida qon to'kayotganini ko'rib, qo'limdan kelgancha urushni to'xtatishga harakat qilganimdan so'ng u xanjarini qiniga solib uyiga qaytdi.

Men bilan so'zlashgan chog'da uylanish haqida ham so'z ochgan ekan, men uning gaplarini ham, unga bergan javobimni ham anglamadim. Bu so'zlar yodimdan ham chiqib ketgan edi, xatingni o'qiganimdan so'ng eslab qoldim. Men behad g'am chekib, vafo qilib yurgan bo'lsam-u, sen bunday xayollarga borsang? Lekin yozganlaringni rad qilolmayman, kim hushidan judo bo'lgan esa, shunday ishlarni ham qilar ekan-da! Jinnilik dardiga

mubtaloman, boshimdan oyog'imgacha xatoman, ko'nglim ham, ko'zim ham nomangga fido bo'lsin. Lekin senga aytadigan bitta so'zim bor. Sen Nafval qilgan ishlar haqida yozar ekansan, men jinnilik holatida ekanimda yuz bergan hodisalar, xususan, uylanish haqida menga ayb qo'yding. Lekin bunday ishni o'zing qilgan eding. Ibni Salom sening visolingni tama qilganida, otang uning so'zlariga rozi bo'ldi. Sen rozilik berdingmi, yo'qmi, bilmayman, shuning uchun bu haqda senga tuhmat ham qilolmayman. Hushimni jinnilik shamoli uchirib olib ketgan, aql bilan so'zlay olmayapman, shunday ekan, ey parisifat hur, meni ma'zur tutgaysan, sening g'amingda nobud bo'ldim, o'lgan odamning so'zlarini ham yo'q deb bilish kerak. Yo'qlik meni yo'ldan urgan ekan, sen bor bo'l-u, bu yo'q insonga yor bo'l. Iqbol-u baxt yoring bo'lsin, jonlar boyligi boshingga sochilgan nisor bo'lsin».

Layli bu maktubni o'qigancha, ko'p iztirob chekdi, undagi har bir so'z ustida fikr yuritar ekan, necha bor o'zini o'zi koyidi, alam chekdi. O'z maktubidan xijolat chekib, bu nomadan ko'ngli to'ldi-yu maktubni Majnunga o'xshab o'zi uchun tumor qilib oldi.

Majnunning g'amgin otasi, yuz alamga mubtalo bo'lgan onasi o'g'liidan ayrilgandan beri uning dardida iztirob chekishardi. Otasi bir kuni farzandini izlab topish, uning oldida zor yig'lab, nasihat qilish va uyga qaytishga ko'ndirish niyatini diliga tugib, sahro sari yo'l oldi. Dashtni bir necha kun kezib, oxiri uni bir vayrona ichidan topdi.

Majnunga bu vayrona uyidan ko'ra afzalroq bo'lib, o'zi esa undan ham xarobroq edi. Devonaligi

haddidan oshib ketgan, goh chumoli tutib o'ldirar, goh tuproqdan go'r yasar, goh boshiga tuproq sochib, goh tishi bilan tirnog'olar, goh eski devor ustiga minib olib, ot choptirgandek harakatlar qilar, goh yuzlarini chimdir, goh yenglarini chaynar, goh boyqush sayrog'iga qo'shilib kuylar, goh boyo'g'li yuzidagi changlarni artar, qonli ko'zini tikan bilan cho'p bosib ketgan, ular kipriklaridan ham ko'proq edi.

Otasi bu holatni ko'rgach, hayratdan qotib qoldi. «Subhonalloh, bu qanday ahvol? Odamga o'xshamaydigan bunday kimsani kim ko'rgan ekan?» – deb so'ylanar ekan, o'g'lining oldiga qarab yurdi. Majnun otasini ko'rgach, uni tanimadi-da, o'zini panaga oldi. Otasi yoqasini yirtib, faryod chekdi-da, so'ng Majnunga murojaat qildi: «Ey yuz yaralig' bag'rim porasi, nega mendin o'zingni chetga olyapsan?» Majnun uning o'z otasi ekani-ni bilib, oh urib oldiga yiqildi. Otasi uning boshini ko'tarib, bag'riga bosdi, ikkovlari bir-birlarini mahkam quchoqlashdi. Ancha vaqtdan beri ko'rishmaganlari uchun achchiq-achchiq yig'lashdi. Iztiroblari biroz taskin topgach, Majnunga qarab shunday dedi: «Ey alam chekkan farzandim! Ko'ksim yarasini tirnab, bag'rim qonini bunchalar to'kmagin. Sening taning g'amdan yarali bo'lsa, mening jig-arim alamdanda pora bo'lgan. Sen dunyoga kelmagan paytda Xudodan seni tilab, sadaqalar berib, duolar qildirdim. Ochlarni to'ydirib, yalang'ochlarni kiyintirdim va o'ldim deganimda, seni topdim. Uch-to'rt yoshga yetguningcha, men tortmagan alam qolmadi. Sen bir qatra sut emguningcha, men yuz qatra qon yutardim. Tovoningga bir tikon kirsa,

mening jigarimga xanjar sanchilgandek bo'lardi. Ilm va adab o'rganish uchun maktabga qatnay boshlaganingda, sening borish-kelishingdan bir dam g'ofil bo'lmay, ilm-u hunar, fazl-u kamolot egallashingga madadkorlik qildim. Vaqti kelib nariga dunyoga jo'nash fursati yetganda, qoshimda bo'lib, goh mening boshim ustida, gohi oyog'imda bo'lsang, hayotim shami benur bo'lganida, sen parvonadek iztirob chekasan, umrimni davom ettiruvchi bo'lib, sen tufayli qabilam yana yoriydi, el ichidan o'tim o'chmay, mol-u dunyom begonaga qolmaydi», – deb orzu qilgan edim. Endi shu ishlar boshimga tushdi. Ichimga yuz g'am yuz qo'yib, bu bir g'am-u, sening alaming yana yuz g'am bo'ldi.

Ishq o'ti qalbingga tushganda, sen beixtiyor eding, lekin har dardning bir davosi bor-ku! Jahonda oshiqnlarni ko'p ko'rganmiz-ku! Bunday holatda mag'lub bo'lish aqlga to'g'ri kelmaydi. Kim o't ichiga tushgan bo'lsa, qo'l-oyog'i bilan harakat qilib undan chiqishga intiladi. Cho'kib borayotgan odam talpinmasa, harakat qilmasa, o'lmay qolmaydi. Boshingga shunday balo tushgan ekan, sen ham o'zingni qo'lga olib, intilishing kerak. Billur qadah ichiga tushib qolgan chumoli undan chiqish uchun kuch ishlatishi emas, tadbirini topishi zarur. Tangri odamga har dardni bergan bo'lsa, unga o'zi davo beradi. Yaratgan senga shu baloni ravo ko'rgan ekan, davosini berishga ham ojiz emas. Sen ham bu alamlardan uzoqlashgin-da, o'z dardingga biron chora qidir. Davosini darhol topish qiyin bo'lsa ham, qadam-baqadam yaxshi natijaga erishish mumkin. Axir bola ham asta-sekin bilimdon bo'ladi, qamish ham bora-bo-

ra qandga aylanadi. O'ziga yuz yil umr tilagan kishi yuz yil sabr qilishi ham kerak. Minoraga bir xil zinadan chiqib tushiladi-yu, chiqish oson, lekin tushish qiyinroq bo'ladi. Sen ishq yo'lida shuncha yo'l bosib o'tding, qaytishing uchun ham shuncha yo'l bosib o'tishing lozim. Endi bu safaringdan qayt. Men sensiz zor-u mahzun bo'lsam, onang sensiz doim beqarordir. Oqshomdan tongga qadar joni iztirobda, tongdan oqshomga qadar gulgun yosh to'kadi. «O'g'lim!» deya chekkan oh-u voyi charx o'qining qaddini bukadi. «Bo'tam» deya azob chekkan dam ruhidan asar ham qolmaydi. Yig'lab boshiga tosh urarkan, tosh uning alamiga chidamay azob chekadi. Bu o't uning dimog'ini shunday qizitganki, oq sochi yuziga oq rang sochadi.

Sening dardingda shunchalik g'am chekkani-dan, bir-ikki kunlik umri qolgan. Men ham nihoyatda zaiflashib qoldim. Kel, ikkalamizga chora qil. Hayotimiz umidi so'nib, ketish paytimiz kelibdi. Begonani uyimizga yo'latma, issiq o'rningni sovutma. Ikkalamiz sening g'amingda o'lsak, sen o'lmay turib motamingdan halok bo'lsak, bu ishda Tangri xitob qilsa, o'ylab ko'r: nima deb javob berasan?».

Otasining bu so'zlarini eshitgan Majnun yig'lab otasining oyog'iga boshini qo'ydi. Kipriklari bilan yo'lini supurib, uning so'zlariga shunday javob qildi: «Ey qiblagohim, aytgan so'zlaring bilan kuygan ko'nglim o'tiga suv urding. Sening gaplaringga javob aytishga ham haddim yo'q. Sening hukming mening jonim orzusidir. Lekin senga yashirin emaski, taqdir mening boshimga bu tashvishlarni solib, butun olamga rasvo qilgan ekan, mening

ixtiyorimni qo'limdan oldi. Sening buyrug'ing qanday bo'lsa ham, men unga qarshi so'z ayta olmayman, chunki men Majnunmen-u Qays emasman. Sen sarv deb o'ylaganing xas-xashakka aylanib, bu dam kul bo'lgan. Bu yerga yetib kelib meni ko'rganingda sendan qochganim tanimaganimdan emas, balki tanishingga arzimastligimdan edi. Mening maqsadim sening iting bo'lish edi, lekin bunga ham qobiliyatim yo'q. It birovga bevafoq qilmaydi, boshini olib bir tomonga ketib qolmaydi. Men esa egasiga vafo qilmay, bu dashtda telba bo'lgan itman. Shuning uchun meni kechirishingni so'rayman». Shunday dedi-yu, tuya tomon tez yurib ketdi. Uning jihozlari ichidan bir arg'amchini oldi-da, uni o'z bo'yniga mahkam qilib bog'ladi. Arg'amchi uchini otasi qo'lga topshirdi va: «Menga nima desang, qo'lingdagi bo'yni bog'liq itingman», – dedi-yu, to'rt oyog'lik itga o'xshab qoldi. Otasi uning bo'ynidan arg'amchini yechdi-da, o'g'lini yetaklab vatani bo'lgan o'z qabilasi tomon yo'l oldi.

Majnun o'z uyiga yetib kelgach, u yerdagi barcha g'amgin odamlar shodlikka to'ldilar. Otasi ham sog'ayib, onasi jismiga yangidan jon kirgandek bo'ldi. Unga toza ipak matolardan tikilgan bezakli kiyimlarni kiydirishdi. «Qaysning hushi o'ziga qaytibdi», – degan xabar hamma yoqqa tarqaldi. Barcha bu so'zlarga ishonch hosil qildi. Bu xabar Nafvalga ham yetib bordi. U hamisha Qays g'amini yeb, nomini tilidan qo'ymay, hamisha uning haqida o'ylab, u bilan ko'rishgan chog'larini esidan chiqarmasdi. Oshiq yigit haqidagi oxirgi so'zlardan xabar topgach, xursand bo'lib, uni ko'rishni istab Majnun qabilasi tomon yo'l oldi. Qabila ahli

bundan xabar topishib, mehmonni ochiq yuz bilan kutib oldilar. Majnun bilan Nafval bir-birlari bilan quchoqlashib ko'rishdilar. Ziyofat oqshomgacha davom etdi. Osmonda yulduzlar yuz ochganda, Nafval mezbonlar bilan xayrlashib o'z manziliga yo'l oldi. U yo'lda xursand bo'lib borar ekan, uyda qolgan Majnun noshod edi. Lekin uning otasi g'oyatda xushnud edi. Chunki Nafval uning qabilasiga tashrif buyurishi bilan uni shod-u xurram qilibgina qolmay, aholi oldida uni aziz ko'rishini ham namoyish etgandi. U Nafvalning oldin ham Majnun bilan ko'rishib, uni maqsadiga erishtirish uchun Layli qabilasi bilan urush qilgani, o'g'li g'amini yer ekan, unga o'z qizini bermoqchi bo'lganini, bugungi tashrifi ham Majnunni ko'rishdan ko'ra, to'y haqida o'ylaganidan dalolat berishiga ishonch hosil qildi-da: «Endi men ham qabilam bilan birga uning manziliga tashrif buyurib, iloji bo'lsa to'y so'zini oraga solsak, rozi bo'lishsa, baxtidan quvonib, yo'q desa uyimizga qaytsak yaxshi bo'ladi», – deb o'yladi. Keyin elining ulug'larini chaqirib, ular bilan maslahatlashdi. Ular qabila boshlig'i fikrini ma'qullashgach, borishi zaruriyatga aylandi. Majnun kuyov bo'luvchi yigit ekanini hisobga olib, uni olib borishni ma'qul topishmadi. Hamma narsa tayyor bo'lgach, yarim kechada guruh Nafval uyi tomon yo'l oldi. Dashtdan o'tib ko'zlangan manzilga yetib kelganlarida, uy sohibi ularni izzat-ikrom bilan kutib olib, dam olishlari uchun joy ko'rsatdi. Mehmonlarni xursand qilish uchun borini ayamadi. Fursatni g'animat bilgan mehmonlar to'y haqida so'z ochdilar. Nafvalga ularning gaplari yoqib tushdi. Shuning uchun bu

takliflariga: «Men Majnun uchun g'am chekkanim tufayli uni farzandlikka ravo ko'rgan edim. Hozir ham o'sha so'zimdada turibman. Sizlar qabilangiz tomon yo'l olgan chog'dan boshlab to'ygga tayyorgarlikni boshlayman. Sizlar ham shunday qilaszlar, deb ishonaman. Men ortiqcha narsalarga orzumand emasman. Sizlar kuyovni olib, bizning manzilimizga yetib kelsangiz, hozirgi fursatni qo'ldan chiqarmasangiz bo'ldi. Shunday shart bilan Majnunni o'zinga farzand qilayin», – deb javob qaytardi. Nikoh muddati tayinlangach, mehmonlar shod bo'lishib o'z manzillariga qaytishdi. Zamona qiladigan ishlardan ular bexabar edilar.

Qaysning otasi tanlagan odamlar Nafval manzili tomon yo'l olishgan tunda Majnun ko'zidan gulrang ko'z yoshlarini to'kib o'tirardi. Bir payt hajr o'ti uni beqaror qildi-yu bexud bo'lib uydan chiqdi-da, dasht sari yugurib ketdi. Oh-faryod urib borar ekan, oldidan bir suruk qo'y chiqib qoldi. Ularni haydab kelayotgan cho'pon ham tanishroq ko'rindi. U Majnunni ko'rgach, muloyimlik bilan ahvolini so'radi. Majnun: «Ey qutlug' chehrali inson, Majnun seni qayerda ko'rgan ediki, yuzing oshno ko'rinyapti, so'zlaring unga davo bo'lyapti? Sen unga mehribonlik ko'rsatib, ardoqlayapsan?» – deb so'radi. Cho'pon uning oyog'iga boshini qo'yib, shunday javob berdi: «Mening ishim cho'ponlik bo'lib, qo'y-u qo'zilarni parvarish qilishdir. O'zim Layli qo'ylarini boqaman. Seni maktabda o'qiyotgan vaqtingda ko'rgandim. Ishqing alamlaridan ham xabardorman».

Majnun uning tovoniga bosh urib, etiklariga qoshlarini surtdi-da: «Sening so'zlaring tanimga jon bag'ishladi. Sen Isodek bo'lib o'lukni tiriltirib,

yaxshi mo'jizalar ko'rsatar ekansan. Yo'q, yo'q, cho'ponlikda Muso bo'lib, qo'lingdagi tayoq ham ajdarga o'xshaydi. Muso nima bo'libdi, sen g'am zulmatida panohim bo'lding. Endi meni hayot suvi tomon boshla: Laylimni uzoqdan bo'lsa ham ko'rayin. Hajrida juda bemorman, rahm aylagin, ko'p bemadorman», – deb iltijo qila boshladi. Cho'pon dediki: «Oqshomgacha menga suhbatdosh bo'lgin, biron chora izlab topib senga yordam ko'rsatay». Majnun uning aytganini qilib, bir yildek bo'lib ko'ringan o'sha kunni cho'pon yonida o'tkazdi. Quyosh g'arb tomon yuz qo'ygan chog' cho'pon qo'ylarini qabila tomon surdi. Bir qo'y terisini olib kelib, Majnunga: «Buni ustingga yopib ol. Qo'yg'a o'xshab bu terini o'zingga kiyim qilgin-da, qaddingni egib yur. Layli qizlar bilan birga qo'ylarni sog'ishni tomosha qilish uchun keladi. Senga yaqinlashganida, qancha xohlasang, shuncha ko'raverasan», – dedi.

Majnun terini ustiga mahkam qilib yopti-da, qo'ylar ichida qaddini egib, to'rt oyog'lab borar ekan, qabilaga yetishgach, qizlar xuddi yulduzlarga o'xshab yugurishib chiqib kelishdi. Layli ular ichida oydek bo'lib ko'rinib turar, yori ishqida ko'p iztirob chekkanidan sochlari parishon, hijron o'tidan yuzlari qizargan holda edi. U Majnun turgan joyga yaqinlashganda, Majnun qattiq bir oh tortib, qo'ylar ichida yiqildi. Bundan qo'rqib ketgan qo'ylar har tomonga qochishdi-da, uning o'zi yolg'iz qoldi. Layli bu o'tli ohni eshitib, ichi o'rtanib, kim ekanini bilish uchun unga yaqinlashdi. Ko'rsaki, qo'y terisi ichida o'zining sevgili yori yotibdi. Uni ko'rgan Layli ham oh urib, hushidan

ketdi-da, yerga yiqildi. Bu holatni ko'rib turgan qizlar qabila ahli bilib qolsa, ikkoviga ham yomon bo'lishini anglashdi-da, Laylini ko'tarishib, uyiga olib ketishdi. Ko'rgan voqealardan hayratda qotib qolgan cho'pon nima qilishini bilmay turarkan, tuyalarini tez yurgizib kelayotgan ikki kishiga ko'zi tushdi. Ular Majnunni ko'rib tuyaga ortishdi-da, oyoqlarini mahkam bog'lab qo'yib, tuyalarni tez yurg'azib, yigit qabilasi tomon yo'l olishdi.

Qaysni uyga olib kirishgach, u o'ziga keldi. Otasi yana yig'lab pand-nasihat qilishga tushdi. U esa xijolat bo'lganidan otasining yuziga ham boqolmasdan, yuzini yerga qo'rganicha – otasining oyog'ini o'pib turib, mehriboni so'zlarini eshitib: «Gunohimni kechir, sening yaxshiliging mening panohimdir», – deb iltijo qildi. Uning uzr so'rayotganini ko'rgan ota: «Qilgan barcha ishlaringdan qaytib, nima desam, shuni bajarsang, shariat amrini qabul etsang, meni rozi qilgan bo'lasan», – dedi. Majnun oliyjanob, ehson-u muruvat sohibi bo'lgan odamlardan bo'lib, hushi o'zida bo'lgan onlarida hech qachon odob doirasidan tashqari chiqmasdi. Shuning uchun Tangri va ota-onasi rizoligini tilab dediki: «Sening roziligingga qarab ish qilaman. Hukmingni ayt: uni bajarish shiorim bo'ladi». Otasi uning so'zlaridan xursand bo'lib, Nafval haqida so'z ochdi. Uning arablar orasida, faqat Arabistonda emas, hatto, olamda yagona zot ekanini aytgach: «U sen uchun ko'p alamlar chekdi, taqdir bo'lmagani uchun oldin bu ish bo'lmadi, endi undan kechirim so'rab, tilagini bajarish senga qarzdir. Nafvalning ham, otangning ham iltimosi sening unga farzand bo'lishingdir. Sohibjamol,

boshidan oyogʻi goʻzal va dilkash, odob-u hayoli qizi bor ekan, qabilasi ham unga zor-u shaydo ekan. Uning visoliga yetishni istaganlarning son-sanogʻi yoʻq ekan. Mening roziligimni istasang, shu qizga uylanishga rozi boʻlgin», – dedi. Majnun sukut saqlab, soʻzlamay turar ekan, otasi buni oʻgʻlining roziligiga yoʻyib xursand boʻldi-da, qabila ulugʻlarini uyiga chaqirtirdi. Nikoh uchun barcha narsalarni hozirlab, Majnunni yasatishib fursatni boy bermay, Nafval qabilasiga qarab yoʻl olishdi. U ham toʻyga tayyorlik koʻrib, xesh-u aqrabolarini chaqirtirgach, katta bazm uyushtirib, kuyov tomonni kutib oldi. Barcha shodlikka yuz burib, xursandchilik qilar, kecha-yu kunduz tinmay ichkilik ichishardi.

Toʻy ziyofati tugagach, kuyovni kelin bilan qovushtirishdi; taxt yasab, uning ustiga koʻrpatoshak solingan uyga ikkala yoshni olib kirishdi. Nafval uy yaqinidan odamlarni chetlashtirdi, atrofda hech kim qolmadi. Barcha uyquga yotgan mahal Nafvalning oʻzi uzoqroqda oʻtirib may icharkan, bir payt xayoliga turli fikrlar kelib, uy yoniga yaqinlashib, kigizini astagina kesib, qarab tursa, qizi oʻrnidan turib, Majnun oldiga keldi-da, uning qoshida yer oʻpib soʻz boshladi: «Ishq ichra yagonayi zamona boʻlgan yigit, yuzingda mehri safo, egningda nuri vafo koʻrinib turibdi. Layli ishqida notavonliging, uning ishqida jahonga doston boʻlganligingni el ham biladi, menga ham ravshan, koʻnglingdan u qizning gʻami mustahkam joy olgani, bu ishq dilingdan oʻchmasligi ayon. Uning borligida boshqa yorga, menga uylanayotganing koʻngling oʻtini sovutmoqchi boʻlganingdandir.

Otalarimizning roziligini olish uchun sen bu nikohga yo'l berding. Sen ishq mamlakatining shohi, ishq ahli o'tining ogohisan. Mening ham bir dardmand oshig'im bor, u ham dardim o'ti bilan kuyib yuribdi, men ham uni sevaman. Lekin qalblarimizdagi ishq o'ti yashirin bo'lib, mening ham, uning ham shaydologimizdan el bexabar. O'zing o'ylab ko'r: u yigit men bilan sening birga ekanligimizni eshitsa, bu kecha ahvoli qanday bo'ladi? Uning halok bo'lishi aniq-ku! Senga o'z sirlarimni ochdim, endi sen mening ham, bechora o'sha yigitning ham holimizga rahm qilib, xalq ichida meni sharmanda qilmay, bu yerdan chiqib ketsang. Bu voqeadan xabardor bo'lganlar ham sirimizdan ogoh bo'lishmasa, men xalq tiliga tushmasam, el menga ta'na qilmasa. Menga shunday yaxshilik qilsang, pok Tangrim Laylini ham pok saqlab, vaslini senga nasib etadi, deb umid qilaman».

Majnun diliga bu so'zlardan ozor yetib, oshiq-u ma'shuqalar ahvoliga zor yig'lab shunday dedi: «Ey pokiza ishq sahibasi! Ishq-u mahabbatingga xursand bo'laver. Yoringga vafo shioring bo'lsin, Tangri hamisha yoring bo'lsin. Mening ichingga g'am-alam tushib, vodiy-u tog'larni kezib yurardim. Men ham bo'layotgan bu ishlardan xursand emasdim. Sen menga yaxshilik qilding, ketish mening niyatim edi, ketsam ham senga minnatim yo'q», – dedi-yu, qiz bilan og'a-singil bo'lishni va'dalashib, singlisidan uzr tilab duolar qilgach, o'rnidan turdi, eshikdan chiqdi-da, g'am dashtiga qarab yo'l oldi.

Nafval bu ajoyib holatni ko'rgach, may ichib mast bo'lgan kishilardek u yon-bu yon tebranib,

uyga qarab yurdi, koʻrganlarini yodiga keltirar ekan, uyaliq, voqif boʻlgan ishlarni koʻnglida asrashga ham, aytishga ham ilojisiz boʻlib, gʻam chekardi. Uyning narigi tomonida esa qizning oshigʻi bekinib, qoʻliga oʻtkir xanjar tutganicha, kuyov bilan kelin qovushadigan boʻlsa, ikkalasini oʻldirib, oʻz koʻksini ham chok etishni poylab turardi. Uning ishq ham pok boʻlib, ishq unga oʻtni gulzor qildi. U Majnunning himmatiga ofarinlar aytdi, dilbarining vafodorligini koʻrgan oshiq yigit shodligiga chiday olmay, kelin turgan uyga kir-di-da yori bilan qovushdi. Ikki yor tongga qadar visol ogʻushida boʻlishdi. Tong qushi nola qilib, kun yorisha boshlaganda, yigit yori bilan xayrlashib chiqib ketdi. Nikohga kelganlar shodlik bilan qiz-u kuyov qoshiga qadam qoʻyganlarida uyda faqat qiz yolgʻiz oʻtirganini koʻrdilar – kuyov yoʻq edi. Majnun qabilasidan boʻlgan kishilar uyalganlaridan oʻlim-ga ham rozi edilar. Bor ahvoldan xabardor boʻlgan Nafval esa gapirishga tili lol boʻlib, Majnun eliga uzr aytib: «Bu Tangrining taqdiri, taqdirga esa tadbir qilib boʻlmaydi, hech kim taqdirni oʻzgartira olmaydi. Bu ish bizdan ham, sizlardan ham emas, oʻgʻildan ham, qizdan ham emas», – deb barchani uzatdi-yu, oʻzi yotib qoldi.

Hiylakor falak hazil qilgandek, hazil ham emas, behayolik qilib Majnunga kuyov boʻlishni buyur-ganida, Ibni Salom ham uylanishni niyat qilib, kerakli barcha narsalarni muhayyo aylab, Layli qabilasiga ot surgan edi. U yerdagilar Ibni Salom-ni uyda orom olishga taklif qilib, u bilan kelgan odamlarning ham hurmatlarini bajo keltirishdi: bazm tuzib, ichkiliklar keltirib ziyofat qilishdi.

Mehmonlar bir necha kun aysh-u ishrat qilishib, kuni bilan, hatto, tunlarda ham mayxo'rluk bilan band bo'lishdi. Nikohni boshlash muddati yetib kelgach, qabilaning barcha ahli jam bo'lishib, imom xatib kuyov bilan kelinni nikohlab qo'ydi. So'ng barchalari Layli uyi tomon yo'l olishdi va oyni ajdahoga topshirmoqchi bo'lishdi. Ibni Salom Layli qo'lini tutgan zahoti ajoyib bir ish yuz berdi – kuyov yurak o'ynog'i kasaliga muhtalo bo'lgan ekan, ichkilikni ko'p ichgan paytlarda jismiga iz-tirob tushib, nafas olishi qiyinlashib qolarkan. To'y chog'i haddan tashqari ko'p may ichgani tufayli shu dardi yana qo'zg'ab qolib, hushidan ketdi-yu, o'lik kabi yiqildi. U xuddi hayot bilan vidolashayotgan ahvolda yotar ekan, to'y motamga aylangan-dek bo'ldi. Odamlar uni o'lgan deb o'ylashib, bir uyga olib kirdilar. Hamma kuyov boshiga yig'ilib, kelin bilan hech kimning ishi yo'q edi. Bechora kelin lol bo'lib o'tirar ekan, xayoli yuz xil fikr bilan band edi. O'zini o'ldirishga ahd qilib, zaharli xanjarni qo'lida yashirib turardi. Raqib o'z mud-daosiga yetishmoqchi bo'lsa, so'zsiz o'ziga xanjar urishga tayyor edi u. Ammo bu kechada falak hayratlanarli ish qildi: ikki sevishganni ajratib, har birini birov bilan juft qilmoqchi bo'ldi-yu, hech bir durni teshmadi. Yana bir hayratli ish shu bo'ldi-ki, bu ikki hodisa bir kechada yuz berdi. Alqissa, kuyov behol bo'lib yiqilgach, Layli balodan ozod bo'lib ko'ngli shodlikka to'ldi va oldida hech kim qolmaganidan xursand bo'lib, tashqariga chiq-di-da, qumlar ustidan yurib ketdi. U asta qadam tashlab, lekin dam olmasdan borarkan, og'zidan Tangriga shukrona so'zlari tushmasdi. Ancha yo'l bosib, qabila ko'rinmaydigan joyga yetdi.

Bu chog' Majnun ham shu tomon kelardi. Bir-birlariga yaqinlashishgach, ikkalasining ko'ngliga iztirob tushdi. Layli o'z sevgilisini uning nolasidan anglab tanigan bo'lsa, Majnunga dilbari nasimi esib, firoq xafvidan qutuldi. Bir-birlari tomon yugurishib yetishdilar. Hayhot, bunday visolni kim ko'rdi ekan? Bir-birlarini tanigan chog'danoq ruhlari badan uyidan joy oldi, ya'ni badanlari zor-u majruh (yaralangan) bo'lsa, ma'lumki, o'sha badanga ruh bo'ladi.

*Ikki guhar¹ o'rni bo'ldi bir durj²,
Ikki quyosh avji³ bo'ldi bir burj⁴.
Bir sog'ar⁵ aro tushub iki mul⁶,
Bir g'uncha aro butub iki gul.
Bir jismda ikki ruh o'lub gum,
Bir ko'z arosida ikki mardum⁷.
...Bu qand edi, ul zulol⁸ monand,
Jazb ayladi⁹ ul zulolni qand.
Bir suv edi ul hubob¹⁰ hosil,
Bir oh ila bo'ldi anga vosil¹¹.*

Falak bir lahza ularga mehribonlik ko'rsatib, ikkovlari vasl bilan shod bo'lishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib berdi. Barcha hayvonlaru qush-

¹ Guhar – gavhar.

² Durj – quticha.

³ Avj – eng yuqori nuqta.

⁴ Burj – quyoshning yillik doirasidagi o'n ikki nuqtaning biri.

⁵ Sog'ar – may qadahi, may piyolasi.

⁶ Mul – may, sharob.

⁷ Mardum – qorachig'.

⁸ Zulol – tip-tiniq suv.

⁹ Jazb aylamoq – tortib, shimib olmoq.

¹⁰ Hubob – suv yuzidagi pufak.

¹¹ Vosil bo'lmoq – yetishmoq.

lar uyqu og‘ushida orom olishardi. Sayyoralar-u yulduzlar ikki sevishganning shodlik kechasini himoya qilib, ulardan ko‘zlarini uzishmas, subh sovuq nafasini urmas, butun olam uyquda edi.

Ikki vafodor esa bir-birlariga tan-u jon misoli chirmashishib, bir-birlarining yuz-u qo‘llari, oyoqlarini o‘pishib, biri qulochini ochsa, ikkinchisi qo‘liga yor sochlarini chirmab lazzatlanishardi. Ammo ne ish yuz bermasin, u poklikdan uzoq emasdi. U ikki dilband visol og‘ushida shunday shod ekanlar, tong yorisha boshladi. Layli: «Bu yerda bo‘lishni istasam ham, uyga borishim to‘g‘riroq bo‘ladi», – dedi-da, bir-birlarining oyoqlarini o‘pib xayrlashishdi.

Ikki dilorom bir-birining vasliga yetishib, murodlari hosil bo‘lgach, biri qabilaga yo‘l olib ketdi, ikkinchisi esa dashtda yolg‘iz qoldi. Layli hech kimga sezdirmay o‘z uyiga kirib oldi. Uning yori bilan topishganidan hech kim xabardor bo‘lmadi. Bemor kuyov ko‘zini ochib, boshi ustida turgan odamlarga amori, ya‘ni kajava keltirishini buyurdi, ular bu farmonni bajarishgach, unga o‘tirib o‘z uyi tomon jo‘nab ketdi. Kuyov o‘z kasalidan tuzalgach, yana kelib nikoh ishiga kirishishini bildirdi. Layli esa uyda qolib, yana hajr alamini torta boshladi. Dimog‘i yor isidan bahra topgani uchun uning rohati buzilgan, beholligi yanada kuchaygan edi.

Vasl davlatiga yetishgan Majnun shu choqqacha visol lazzatini totmagan, g‘am o‘tida kuyib, vasl otinigina eshitardi, xolos. Vasl bilan joni yangilangach, hayot suvini mo‘l-ko‘l ichgandek bo‘ldi. Lekin zamona bu hayot suvini to‘kib tashlab, yana zahar to‘la yuz jomni unga tutdi. Yana hajrga

mubtalo bo'lgan oshiqning holi avvalgisidan ham og'irlashdi. Ko'nglida yuz xil iztirob paydo bo'ldi-yu, yana Najd tog'i tomon yo'l oldi. Najd tog'ini yer ustidagi ikkinchi osmon deb atash mumkin edi. Cho'qqilari falakka yetadigan bu bahaybat tog' ustida daraxt-u ko'katlar ham o'smasdi, faqat toshlardan iborat bo'lib, oshiqlar uchun g'am-alam tog'i edi. Majnun uning ustiga yugurganicha chiqib bordi. Bu tog'ning cho'qqisini u o'ziga maskan qilib olgan bo'lib, u yerdan Layli qabilasi ko'rinib turardi. Ko'zi doimo shu qabilada bo'lib, u yerni tomosha qilish bilan o'z dardiga chora topar, u yerda ko'tarilgan tutunni ko'zlariga surma deb bilardi. Tog' cho'qqisidagi o'z manziliga olov tezligida yugurib chiqdi-yu, yana qabilaga ko'zini tikkanicha, o'z-o'zi bilan so'zlasha boshladi. Atrofida vahshiy hayvonlar, qushlar paydo bo'la boshladi. Ular ichida Majnun yoqtirgan bir jayron bo'lib, ko'zi bilan bo'yni nozik, jismi chaqqon, devona yigitga yor-u oshno edi. U Majnunga mehribonlik ko'rsatib, bo'ynidan quchar, yuzlariga yuzini surtib erkalanar, qulog'i bilan ko'z yoshlarini artib, tuyoqlari bilan jismini qashirdi. Jafokash yigit esa uni erkalar ekan, qulog'iga shunday deb so'zlar-di: «Sening ko'zlaring Layli ko'zidek sehrli, nozik oyog'ing uchi yorilgan qamish qalamning o'zginasi, tuyog'ing esa qalam uchidagi siyohga o'xshaydi. Xuddi xat yozish uchun bandlik qamish qalamni yo'ngandeksan. Ushbu qalaming bilan Layli qabilasi tomon yo'l olib, agar yorim bahor chog'i sayrga chiqqan bo'lsa, sen tomonga yo'li tushib qolsa, uzoqdan turib atrofidan aylangin-da, har o'n qadamda tuproqqa yuzingni qo'y. Men yuzimni

sening yuzingga surtay, ko'zimni ham ko'zingga surtay. Sayrda u bilan birga bo'l, qay tomon yo'l olsa, gul-u lolalar orasida bekinib, u yetib kelganida, oyog'iga yuzingni, qadami tuprog'iga ikki ko'zingni surtgin. Hazin yig'lab, mening g'amimni unga oshkor qil, dil dardlarimni mungli ko'z yosh to'kib unga bayon qill!».

Majnun kiyik bilan shunday so'zlashar, qushlar bilan boshqacharoq suhbatlashar, har bir hayvonga shu tarzda o'zining g'amgin qissasidan hikoya so'zlardi. Ko'nglida yor visoliga orzu havas yashar, lekin bu havas xayolgina edi. Layli bilan bo'lib o'tgan visol onlarini yodiga olar ekan, dili shodliklarga to'lardi.

Majnunning yarim kechada Nafval uyidan chiqib, dasht tomoniga ketganini bilgan ota-onasi el oldida uyalishganidan g'am ostida qolishdi. O'sha zahotiyuq uy tomon yo'l olishdi, yetib borishgach, otasini isitma tutib, to'xtovsiz terlab, to'shakka mixlanib qoldi. Har xil muolajalar qilishsa ham, foyda bermadi. Tabiblarning mahorati ham kor qilmay, isitmasi pasaymadi. Dardi og'ir bo'lgani sababli, ahvoli borgan sari yomonlashib, oxiri jon omonatini topshirib, qorong'i maskan sari yo'l oldi. Qabila ahli aza tutib, oh-faryod chekdilar. Bundan xabar topgan kekxa onasi bir tomondan o'g'lining dard-u g'ami, ikkinchi tomondan yostiqdoshining alami bilan iztirob chekib, eri ortidan boqiy dunyoga yuz tutdi. El unga ham aza tutib, qora kiydi. Ularni o'sha qabilaning go'ristoniga dafn etdilar.

Najd tog'ini o'ziga maskan qilib olgan Majnun ota-onasining vafotlaridan bexabar edi. Bir kuni ichini qayg'u bosib, ko'zi uyquga ketdi. Tushida

ajoyib bir voqeani ko'rdi: ikkita kaptar bir uyda bola ochibdilar, jo'jaga qanot chiqqach, u birdan havoga parvoz qilibdi. Buni ko'rgan ikkala kaptar uni uyasiga olib kelish uchun osmonga parvoz etishibdi. Jo'jani topgan bo'lsalar ham, u o'jarlik qilib uyiga qaytmas emish. Ikkovlari noumid bo'lib inlariga qaytayotganlarida, yuqoridan ikkita burgut uchib kelib, ikkovini yeb qo'yibdi. Bu tushni ko'rgach, Majnun ko'zini ochdi-yu, qonli ko'z yoshlarini to'ka boshladi. Tushiga ta'bir istab, uni o'z holatiga qiyosladi-da, ota-onasi o'lganini, hayoti quyoshi qora bo'lganini bildi. Tog'dan pastga qarab sel singari shoshilib, seldek ko'z yoshlarini to'kib, qabilasining mozorigacha oh-faryod urib yugurdi. U yerda yangigina yasalgan ikki qabrni ko'rib, jismi zorini chaqin urgandek bo'ldi. Boshiga tuproq sochib, ko'kragiga toshlarni ura boshladi. Otasining mozoriga boshini qo'yib fig'on chekdi: «Ey sahro ahlining azizi, faqat dasht emas, Makadan Shomga qadar barcha el sening rahmating dasturxonidan bahramand edi. Arablarning eng ulug' kishilari ham sening dastingdan shikast topardi. Lekin sen mendan shikast topding. Ko'ngling g'amimda noshod bo'lib, umring men tufayli barbod bo'ldi. Meni shodlik uchun tilagan eding, lekin men tufayli yorug' chirog'ing o'chdi. Meni tilab qancha diramlar¹² sochding-u, men tufayli alamdan boshqa narsa ko'rmading. Qaysi til bilan sendan uzr so'ray, sening aytganlaringni qilmadim, ruhingdan nechuk kechirim so'ray? Meni tashlab ketib, ustimga g'am tog'ini qo'yding. So'ngaklarimni bir-bir ushatib, tanimni tuproqqa qorishtirding. Yulduzim har qancha qora bo'lib,

¹² Diram – kumush tanga.

toleyim baxtsiz bo'lsa ham, saxovat ko'rsatib, meni kechirgil, ruhingni kechiruvchim qilgin!».

Keyin Majnun onasi qabri oldiga borib, yoqasi o'rniga ko'ksini pora qilib, yerni ko'z yoshlari bilan dengizga aylantirdi. Bahor bulutidek o'kirib, o'z yuzlariga ura boshladi. So'ng alam bilan shunday deb faryod urdi: «Ey jonim qiblası, qiblamning nuri! Jonimning shodligi, ko'zimning chirog'i, ko'nglimning rohati-yu, fikri xayolim oromi! Sen Ka'bam esang-da, men mayxonani istab, tavof qilmadim, atrofingda aylanib sayr etmadim. Qalbingga har doim iztirob solib, Ka'bamni xarob ayladim. Mening Ka'bam xarob bo'ldi, endi Tangriga ne deb javob beraman? Mehrimga ko'nglingdan joy berib, beshigimni qo'llaring bilan tebratding. Har kun meni o'ylab qayg'u chekding, meni deb tunlari uyqung harom bo'ldi. Kechalari tinmay yig'lab fig'on qilganim ko'zlaringga uyqu bermasdi. Kunduzlari-yu kechalari mening dardimda tinmay, yemak-ichmakni ham unutib qo'yarding. Bir luqma non yeganingda ham, uning menga sut bo'lishini o'ylarding.

Koshki edi chekkan bu azoblardan qadding egilib, ko'rpa-to'shak qilib yotganingda, men qaddimni egib qoshingda tursam edi, qul kabi o'g'illigingni qilsam edi. Bunday og'ir kunlarda boshingda hozir bo'lolmadim, shafqat bilan qo'llaringni silab, ko'zlarim bilan yo'llaringni supurolmadim. Sendan tun-u kun judo bo'lib, bevafoqlik qildim, dardingga davo bo'lolmadim. Janatdan joy olgan ruhing mendan shod emasligini bilaman, shu zulmning o'zi menga yetib ortadi. Bechoraman, boshqa nima qilay, dardimga qanday chora topay?!». Shunday fig'on qilganicha, boshini yerga urarkan, yana hushidan ketib yiqildi.

Hayot kuyi, go'zalligidan mahrum bo'lgan Majnun endi ota-onasidan ham judo bo'ldi. Uni yor dog'i o'rtab kelayotgan bo'lsa, ular ustiga ikki mehribonining dardi ham qo'shildi. Alam ustiga alam ichida qolgan bechora go'ristonni vatan qilib oldi. Yotadigan joyi xilxona bo'lib olam unga go'yo qorong'i go'rdek tuyilardi. Har kuni hushini yo'qotib nola-yu fig'onlar qilar, o'zini yuz g'amga duchor etardi. O'z joniga jafolar qilib, o'z-o'ziga aza tutardi. Ota-onadan ayrilish ikki dog' bo'lsa, hijron ushbu ikki o't ustiga quyilgan yog' edi. Muncha g'am-u balo yig'lgach, Majnun yotib qoldi. Dardi shunchalar kuchli ediki, u o'zi yotgan joyidan qo'zg'alolmasdi. Boshi ustiga yovvoyi hayvonlar-u qushlar, kiyiklar to'planib turishardi.

Bu payt Layli ham g'am-alam ichida iztirob chekardi. Majnun visolidan shodlikka to'lgan qiz yana hijronga duch keldi. Majnunning ota-onasi vafot etganini eshitgan Laylining dardiga dard qo'shildi. Chunki yuz bergan barcha voqealarga o'zi sabab bo'lganini yaxshi bilar edi. U tinmay yig'lar ekan, shunday so'zlar bila nola qilardi:

*«Ey kajrav¹³ sipehri¹⁴ xudroy¹⁵,
Zulmungdin voy-u yuz tuman voy!
Jonimg'a necha sitam qilursen,
Ko'nglumga nasib alam qilursen,
... Layliyi zaif-u benavoni,
Yuz dard-u balog'a muhtaloni
O'lturmak ila ham etmayin bas,
Hajr o'tig'a solmoq o'ylakim xas.*

¹³ Kajrav – teskari yuruvchi.

¹⁴ Sipehr – falak, osmon.

¹⁵ Xudroy – o'zboshimcha.

*Bu Layli edi, nedur xayoling,
Ermash edi hiylapesha zoling¹⁶.
Sovrug'asiz, ey ravanda¹⁷ aflok,
Qo'zg'alg'asiz, ey nujumi¹⁸ bebok¹⁹.
Jismimni qatil²⁰ qildingizla!
Jonimni zalil²¹ qildingizla!
Jismim gardin uchurdi ohim,
Ey charx, arimadimu²² gunohim?!*

Bu qayg'u azoblarim yetmagandek, yorimning iztiroblari ham boshimga tushdi. Uning ota-onasi o'lib, men ham motamda qoldim. Agar u qattiq alam chekayotgan bo'lsa, mening dardim unikidan ikki barobar kuchliroqdir. Unga ota-onasining g'ami yetgan bo'lsa, bu – mening ham g'amimdir. Laylini furqat balosi qiynayotgan bo'lsa, buning ustiga ikki Majnuncha mashaqqati ham bor. Unga umr zaruriyati qolmadi, shuning uchun jondan kechsam ajab emasdir».

Shunday so'zlarni faryod urib xitob qilar ekan, nola o'ti haddan oshib, jismida isitma paydo bo'ldi. U o't xuddi quyoshning botar chog'idagi haroratiga o'xshardi. Guldek yuzi terga botib, isitma o'tidan qizarib ketdi.

Onasi qizining bu ahvolini ko'rib, iztirob chekardi, jigari kabobga o'xshab kuyardi. U Laylining otasini xabardor qilgach, qizining holatidan u ham

¹⁶ Hiylapesha zoling – hiylagar keksang.

¹⁷ Ravanda – kezib yuruvchi.

¹⁸ Nujum – yulduzlar.

¹⁹ Bebok – beparvo.

²⁰ Qatil – o'ldirmoq.

²¹ Zalil qilmoq – xo'rlamoq.

²² Arimoq – pok bo'lmoq.

qattiq tashvishga tushdi. Ota-onasi, dugonalari tabiblar chaqirib keldilar. Iso nafasli hakimlar har qancha davo qilishsa ham, isitma pasaymasdi. Kundan kunga dardi kuchayib, bosh og'rig'i dam-badam zo'rayib borardi. Shu holda yotar ekan: «U motam asiri (Majnun) dard tufayli o'lim oldida emish. Go'riston ichida zor-u behol bo'lib o'lgan kishidek hayotdan uzoqlashayotganmish. Goh o'zida, gohida behush bo'lib, ko'zlari o'likdek nursiz ekan, o'z motami bilan jismi zaif-u, sening darding bu jismidan jonini tortib olayotgandek. Unga g'am ustiga motam qo'shilib, sensiz ishi motam ustiga motam ekan, joni g'am bilan darddan poymol bo'lib, holi haddan tashqari xarob ekan», – degan so'zlar qulog'iga chalindi. Bu gaplarni eshitgan Laylining bir o'ti ming bo'lib, o'limi yaqinlashardi.

Kuz shamolining ohi yetib, bo'stonlar yuzini sarg'aytirardi.

Yaproqlarning yuzlari sariq og'riqqa uchragan kishilarnikidek sariq tusga kirdi. Har qaysi barg bemorlardek yer to'shagiga yotib oyog'ini uzatib oldi. Daraxtlar ham titrashga tushib, kuchli shamollar chamanlarni talon-taroj qilishga kirishdi.

Layli husn bog'i bo'lib, boshidan oyog'igacha jannat guli edi. Uning dardi nasimi tezlashib, bo'stonning barglari to'kila boshladi. Kasallik husni shohini g'amgin qilgach, u o'z tutqunlarini ozod qilib yubordi. Faqat bitta kabutargina uchib ketmadi. Bu olamni tark etish onlari yaqinlashganini sezgan parivash uyni xoli qoldirishlarini so'radi-da, so'ng huzuriga onasini chaqirtirib unga shunday murojaat qildi:

«Ey joningni menga bag'ishlagan onajonim! Bu xasta jonim sening jonga sadqa bo'lsin. Mening bor mashaqqatlarimni o'z ustingga olib, ko'p dard-u alamimga qolding. Ming yil tirik bo'lib xizmatini qilsam ham, bu yaxshiliklaringni qaytara olmayman. Endi gulim xazonga uchrab, gulis-tonimga sovuq kuz shamoli yetishdi, bu chamanni tark etish zarur bo'lib qoldi. Vidolashish chog'i yetib kelgan ekan, dilimdagi dardlarimni sendan yashirishim to'g'ri bo'lmaydi. Bilganlaringga sen madoro, chora qilding. Endi men senga sirlarimni ochay. Omonatimni topshirib, tuproq sari yo'l olar ekanman, aza ochma, ko'z yoshlaringni ko'p to'kma, yuzlaringga urib yaralab, ruhingga azob berma, deb aytishim befoyda. Shuning uchun sendan bularni emas, boshqa bir narsani iltijo qilaman. Motam kunlari qattiq azob chekib, yuzingni tirnab qonga botirma, ko'p qora kiyim kiyma, iloji boricha, sabr qilishga intilgin, o'zingga dalda, taskin ber. Tangri senga sabr bersin». Onasiga ko'plab duolar qilgach, yashirincha bu so'zlarni ta'kidladi: «Bu motam elga oshkor bo'lgach, dasht-u sahro ahliga ham yetib boradi. Shubhasizki, mening tog'-u dashtlarda shamoldek kezib yurgan g'aribi zorimning qulog'iga bu so'zlar eshitilgach, hodisadan xabar topib, ruhi mening ruhimni istab, tezda buyoqqa keladi-yu, quyosh kabi mening boshimga yetadi. Ayriliq dardidan qutulib, elga ishq qanday bo'lishini ko'rsatib, tuprog'imga tuprog'ini qo'shadi. Ruhini menga topshirib, tani jonsiz bo'lib yerda jismi zori yotsa, hurmatini qilib yonimga yotqizgil. Uning sharif jismi pok bo'lgani uchun ko'z yoshlaring bilan yuvsang ham arziydi. Ginani

unutib, unga yaxshilik va mehribonlik ko'rsatgin-da, jon pardasidan kafan qilgin va ana shu kafanga meni ham o'ragin. Unga farzangdingdek munosabat ko'rsatib, farzanding bilan birga uyquga yotqizgin-da, ikki ruh bir-biri bilan qo'shilgach, bir tobutga solgin».

Layli ushbu so'zlarni tugatdi-yu, «Majnun» deganicha jon berdi. Onasi bu kunni ko'rib, bir ovoz chiqardiki, u osmonning bag'rini teshib o'tgandek bo'ldi. Qizining boshidan aylanib, tovoniga ko'zlarini surtar, go'yoki kipriklari bilan uni qitig'lab, «Uyqu vaqti emas-ku hozir, ko'zlaringni och, oyoqlaringni qimirlatib, so'zlagin», – degandek uyg'otmoqchi bo'lardi. Titrab, yig'lab qizini mahkam bag'riga bosib, yuzlarini yuzlariga qo'yar, ko'z yoshlaridan uning ruxsoriga suv urar, go'yo suv bilan seskanib, zora uyqusidan uyg'onib ketsa, degandek bo'lardi. Lekin uning barcha harakatlari zoye ketdi, oy yuzli go'zal qizi uyqudan ko'z ochmadi. Uyg'onishidan umidi uzilgan ona oppoq sochlarini yoyib, oh-faryod ko'tardi, sochlarini yulib, yoqalarini yirtar, tirnog'lari bilan yuzini o'yar, o'yilgan yaralar o'rnidan oqqan qonlar ko'z yoshlariga qo'shib buloq suvlaridek oqardi. Nola qilar ekan: «Juda qattiq uxlab qolding-ku, bo'tam! Ko'zingni och, havo musaffo, qizlar gulshanda sayr qilib yurishibdi, barchalari bog'da aylanib seni kutishmoqda. Turli taqinchoqlar taqib yasangan dugonalaring sening yo'lingga boqib turishibdi. Jingalak sochlaringni ochib, iforlarini olamga tarqatay, ko'zingga surma surtib, yuzlaringni qizil elik bilan gulgun qilay, shakardek lablaring ostiga, yuzingga xol qo'yay, ustingga gulrang ko'ylaklar

kiydirib, gulshanga yuboray, qizlar bilan u tomonga borgan. Senga Majnun ham intizor bo'lib, bog' ichida fig'on chekib turibdi. Sen kechgacha qolgach, u seni istab bu tomon kelib seni so'rasa, nima deb javob beraman? Ham meni, ham uni zor qilma, uning oldida meni sharmsor etma».

Ona bu so'zlari bilan jahonni g'am-g'ussaga botirdi-yu, ohi bilan osmonni qorong'i qildi. Tashqarida otasi boshyalang holda yoqasini yirtib, ko'ksiga toshlarni urar, yolg'iz otasi emas, qavm-u qarindoshlari, butun qabila ahli aza tutishib, oh-faryod chekishardi.

Bu payt Majnun yalang'och holda bir qabr ichida yotardi. Layli og'ir betob bo'lib qolgach, u ham kasal bo'lib yiqilgan edi. Ma'shuq bemor bo'lganda, oshiq halok bo'ladi. Majnun behol bo'lib yotarkan, Layli goh tushida, goh xayolida namoyon bo'lardi. Layli ajal qo'lidan qadah ichgan, ya'ni bu olam bilan vidolashgan chog'da ko'ngli birdan simob kabi titrab ketdi-da, qulog'iga shunday bir ovoz eshitildi:

«Ey dard-u balo askarlarining podshosi! Hozir yotishning vaqti emas, o'rningdan tur. Pokiza bog'ingga kuz keldi, chirog'ing tong shamoliga uchradi. Bulbulligingni ko'rsatmoqchi bo'lsang ham elga ko'rsat. Yoring safarga tayyor holda hamrohini kutib turibdi. Hamrohligingni ko'rsatanmi yo u oy sensiz safarga yo'l olaversinmi?».

Devona bu so'zlarning ma'nosini darhol anglab yetdi-yu, tani nihoyatda behol ekanligiga qaramay, yotgan joyidan qoplon kabi sakrab turib, qabila tomon tez yugurib ketdi.

Chaqmoq kabi yelib borarkan, visol kuyini kuylagan holda ko'z yoshlarini yomg'irdek sochardi. Mehri

o'ti jahonni yoritar, ko'nglida o'lim xafvi ham yo'q edi. Uning atrofida yovvoyi hayvonlar ham sakrab borishar, odamlarning ba'zilari Majnun holatidan, ba'zilari esa hayvonlar ofatidan qo'rquvda edilar. Majnun Layli eshigiga qadam qo'ygach, hayvonlar tashqarida qolishdi. Devona yigit ostonadan dadil kirdi va uy ichida yotgan sevgilisiga ko'zi tushdi, uning oldiga borib, yoniga yotdi-yu, jon taslim qildi. Uyga kirgan qabila ahli bu holatni ko'rib, hayratdan qotib qolishdi. Ularni dafn etish zaruriyati tufayli bu holatda qanday ish tutish haqida maslahatlasha boshladilar. Barchalari dedilarki:

*«Bu ikki g'amnok,²³
Har shoyibai²⁴ fasoddin²⁵ pok,
Kim umrlarida ishq qotil,
Qilmay nafase alarni xushdil.
Hajr ichra to'yub ramida²⁶ jondin,
Armon bila bordilar jahondin.
Chun ruhlarig'a dur nihoniy,
Jannatda visoli jovidoniy²⁷.
Netgay qo'shulub iki badan ham,
Go'r o'lsa alarg'a bir, kafan ham.
Vasl o'ldi chu ruhlarg'a hosil,
Tufroqqa tufroq o'lsa vosil²⁸».*

Bu fikr barchaga ma'qul tushdi. Laylining vasiyati ham shunday ekanligi ularga ayon edi. So'ng

²³ G'amnok – g'amgin.

²⁴ Shoyiba – kamchilik, nuqson.

²⁵ Fasod – buzuqlik.

²⁶ Ramida – hurkkan.

²⁷ Jovidoniy – abadiy.

²⁸ Vosil – yetishgan

kerakli hamma narsani tayyorlab, marhumlarni mashhur kishilardek yasatishib, ikkovlarini – jon-siz kelin-u o'lik kuyovni bir tobutga solishdi. Ikki jism bir kafanga, yo'q, yo'q, ikki ruh bir badanga kirdi. Bir tobut ichidagi ikki dilorom dugona bodom kabi, yo'q, yo'q, ikki dona emas, bitta dona kabi edi. Dugona ikki badan bo'lsa, har birining kafani boshqa-boshqa bo'lsa, bu dona ikki bo'lakdan iborat bo'lgan, shunday bir a'zo ediki, donadek ikki badan dona qobig'i kabi bir kafanga o'ralgan edi.

Shundan so'ng tobutni qimmatbaho chiroyli guldor matolar bilan bezatishib, mozorgacha boshlari ustida ko'tarib borishdi, so'ng tobut bilan ikki dilraboni qabr ichiga olib kirib, tuproqqa qo'ydilar-da, qorong'i uydan chiqdilar. Oy bilan kun yuzini bulut yashirdi, go'r bitta edi, shuning uchun bitta qabr yasashdi. Ishq ahliga umid shami o'chdi, chunki oy bilan xurshid yer ichiga kirishdi. Ishq eliga shoh ham qolmadi, husn ko'kida oy ham qolmadi. Laylining ota-onasi qabila ahli va qarindoshlari bilan har kuni ikki mahal yig'ilishib bu qabr boshida yig'i-sig'i qilishardi. Yillar o'tib, ular ham birin-ketin tuproqdan orom topishdi.



SAB'AYI SAYYOR



Shoh Bahrom Rum bilan Chinni o'ziga bo'ysundirgach, Chin xoqoni bilan Rum qaysari unga tobe bo'lib qoldilar. Keyinchalik yetti iqlim shohi unga boj to'laydigan bo'ldi. Farmonga ko'ra xiroj to'lashi kerak bo'lgan har bir hukmdor zarur mablag'ni har yili to'plab, poytaxtga o'z vaqtida yuborib turishlari shart edi. Tobe mamlakatlarda olingan hosildan ham to'xtovsiz sovg'a-salomlar kelib turardi. Shoh Bahrom esa ertadan kechgacha aysh-u ishrat bilan band bo'lib, musiqa va ashula tinglash bilan orom olardi. Uning saroyida eng mashhur sozanda-yu hofizlar to'plangan bo'lib, ular hamma joyda hukmdorga hamrohlik qilishardi.

Shoh Bahrom kunlari ovsiz o'tmas, kechalari esa xilma-xil soz, jonbaxsh ashulalarni tinglashni yoqtirardi. Ov vaqtida qaysi tomonga o'q otsa, albatta, biror hayvonni qulatar, ularning qoniga hamrang may ichishdan rohat olardi. Ov qilib borarkan, qayerda biron go'zal manzil duch kelsa, o'sha yerda dam olib qadah ichar, chang-u rubob kuylaridan huzur qilib, o'zi o'ldirgan hayvonlar go'shtidan kabob tanovul qilardi.

Bir kuni shoh ov mahali bir maydonda bazm tuzib, ishrat bilan band ekan, xonandaning so'lim ashulasi bilan o'z ko'nglini xush etarkan, o'zining butun olamga qiblagoh ekanidan shodlanib: «Xudoyim meni ahli olam hukmdori qilgan ekan, buning shukronasi uchun elni shod aylab, adolat bilan ish yuritishim, muhtojlarga mehribonlik ko'rsatib, beva-bechoralar dillarini xushnud etmog'im zarur», – deb xayol surar ekan, chor atrofni

tomosha qilib bahra olardi. Shu payt dasht bo'ylab tez-tez yurib borayotgan bir odamga ko'zi tushdi. Yayov yo'l bosayotgan bu insonga achingan shoh unga yaxshilik qilmoqni istab bir mulozimga: «Tezda otingga mingin-da, yana bir otni yetaklab, hu anavi musofirni to'xtatib, otga mindirgin va uni huzurimga olib kelgin», – deb buyurdi. Xizmatkor yigit shoh hukmini bajo qilib, yo'lovchini hukmdor oldiga boshlab keldi. Shoh Bahrom uni ochiq chehra bilan kutib olib, hol-ahvol so'radi. Biyobonda kezib yurgan kishi yer o'pib, ta'zim bajo keltirdi-da, o'rnidan turib nihoyatda yoqimli so'zlar bilan shahanshohga shunday maqtov yog'dirdi-ki, eshitganlar: «Ofarin!» – deb yubordilar. Hukmdor uni o'tirishga taklif qildi. Mulozimlar darhol xilma-xil taomlar-u, may to'la idishlarni keltirishib, mehmonni ziyofat qilishga kirishishdi. Musofirning boshi maydan qizib borar ekan, shoh unga ketma-ket savollar berar, u esa o'zining dono javoblari bilan mezbon ko'ngliga shodlik bag'ishlardi. Dasht kezuvchi bu odamning aql-u donishiga qoyil qolgan Bahrom unga murojaat qilib: «Seni ko'p ilmlardan xabardor ekanliging sezilib turibdi. Bu makonda kezib yurishing sababini, o'zingning kasb-u koring-u, qilgan ishlaringdan so'zlab bergil, biz ham ulardan bahravor bo'laylik», – dedi. Mehmon yer o'pib, shunday javob qildi: «Men bu dashtda musofirlardek kezib yurgan bo'lsam ham, o'z ishimda zamonaning yagonasiman. Do'st-u hamrohlarim yo'q, hech kimsaga yuragimdagi sirni oshkor qilmaganman. O'zimni ham, hozir aytib beradigan sirimni ham odamlardan pinhon tutib yurdim. Bu dashtda kezib yurishimdan maqsadim jahon podshosi bo'lgan shoh Bahrom huzuriga yetib borib, unga yashirgan sirlarimni so'zlab berish

edi. O'sha manzilga yetmasimdan bu so'zni so'rab qolding. Aytmay desam, maqsadim hosil bo'lmay qoladi. Sen ham shohga o'xshaysan, Bahrom bo'lmasang ham, maqoming unikidek baland. Sen unga juda ham o'xshab turibsan.

Ko'nglimni g'amga solib qo'yding: aytmasam ham yomon, aytsam ham». Shoh bu so'zlardan bog' kabi ochilib ketdi-da, chirog' shu'lasini kabi so'z boshlab, shunday dedi: «Ey dashtda shitob bilan kezib yurgan banda, sen o'z maqsadingga yetganingdan bexabarsan. Agar Bahromni qidirib yurgan bo'lsang, gapiraver: men sen izlab yurgan shoh Bahromman».

Musofir bu so'zni eshitib, sevinib ketdi-da, shukronasiga sajda qilib, mo'l-ko'l duo ayladi, yer o'pib, odob bilan o'tirib so'zga kirishdi: «Shoh mendan ahvolim haqida so'zlab berishni so'ragan edi. Meni jahon eli Moniy deb ataydi. Ko'pgina bilimlarni bilaman, lekin surat chizishda shuhrat qozonganman».

Shoh xuddi shunday odamga talabgor edi, Moniy so'zlaridan quvonchga to'ldi, o'lgan odam yana tirilgandek, xursand bo'lib ketdi. Mehmonni quchoqlab, hurmat ko'rsatdi, ko'p lutf-u ehsonlar qilib, u aytmoqchi bo'lgan sir mazmuni haqida savol berdi: «Men yetti iqlimni kezib chiqqanman. Jahondagi bor ajoyibotlarni ko'rganman. Bir mahal Xitoy tomonga yo'lim tushdi. U yerda bir savdogar bilan tanishib qoldim. Uning mol-u dunyosi son-sanoqsiz, puli yuz ming tumandan ham ko'proq bo'lib, dur-u la'llari dengiz-u kondek edi.

Ammo uning shunday bir bebaho duri bor ediki, har bir bazmni oy kabi yoritardi. U qiz asli xitoylik bo'lib, nihoyatda go'zal va xushovoz edi.

Qo'liga changni olib, navo cheksa, uni ko'rib, eshitgan har bir odamning joni mingta bo'lsa, bittasi ham qolmasdi. Mendek kimsa yuz ming til bilan yuz ming yil maqtasam ham, uning ta'rifini tugatolmayman. Qizning xojasi uning go'zalligini xalqdan asrash uchun sandal va ud daraxtlaridan kajava yasattirgan, unga xilma-xil qimmatbaho matolardan yopib, la'l-u durlar bilan bezagan. Men aytgan go'zalni o'sha kajava ichida olib yuradi. Unga atab sandal va uddan chang yasattirgan bo'lib, uni go'zal qiz chalib turadi.

Xoja u Zuhravash paripaykarni sotmoqchi ham bo'lgan edi, yuz minglab xaridorlar chiqdi-yu, biron-tasi ham so'ralgan narxni berolmadi, chunki uning bahosi Xitoy mamlakatining xirojiga teng edi. Avvaliga uni Xitoy xoqoni sotib olmoqchi bo'ldi, lekin a'yonlar bunga qarshi chiqdilar: «Bor davlatningni berib, u qizni sotib olsang, shoh Bahromga yuboriladigan xirojni qanday to'laysan? Qo'shin yuborsa, sipohing yo'q, qurollaring yo'q, unda holing ne kechadi? Yaxshisi, bu istagingdan voz kechgin, nafs deb iztirob chekma, mamlakatingni xarob etma», – deyishdi ular. Shundan so'ng xoqon o'z muddaosiga erishish tilagini unutdi. Men esam u go'zal haqida senga xabar berishga ahd qildim-da, huzuringga sovg'a bilan boray deb, u qizning suratini chizdim», – deb toza xitoy ipagiga ishlangan rasmni unga uzatdi. Shoh u pari tasvirini ko'riboq devona bo'ldi. Hech kimga birona ham so'z aytmay oqshomgacha rasmdan ko'zini uzmad. Ishq shohni bechoraga aylantirdi. Moniy bu holatni ko'rgach, Bahromga: «O'z ishingga biron tadbir o'ylab top. Toki biron hodisa yuz berib, u pari qo'ldan ketib qolmasin. Bunday hol yuz bersa,

ilojini kim topa oladi?» – dedi. Shoh unga: «Meni bu surat shaydo qildi. Bu dardimga o'zing davo topgin. Ayt, uning visoliga yetishish uchun nima qilay?» – deb iltijo etdi. Moniy dedi: «Ishbilarmon, aqli raso kishilardan yuborib, qiymatini to'lasang, o'zingga Xitoy xoqoni yuboradigan xirojdan voz kechsang, murod-u maqsadingga yetishasan. Yo Xitoy xirojidan kech, yo u parivash xayolini unut».

Shoh Bahrom buni eshitgach: «Bu holda qizga yetishish uchun Xitoy moligina emas, jahon molidan ham voz kechishga tayyorman», – dedi-da, donolik va poklik bilan tanilgan yuztacha kishini, ko'plab xizmatkorlar, kanizlarni tezlik bilan Xitoy tomon yo'llashga amr qildi. Xoqon nomiga ham xat yozib berdi. Ularning barchasi jo'nab ketishgach, Bahrom qo'lidagi surat, qoshidagi Moniy bilan joni notavon bo'lganicha qoldi.

Shoh Bahrom hukmiga ko'ra Xitoy sari yo'l olgan karvon o'zlari ko'zlagan manzilga yetib borgach, donishmandlar xoqon saroyiga borib, nomani hukmdorga topshirdilar va olampanoh maqsadi haqida unga so'zlab berdilar. Xon qo'lini ko'ksiga qo'yib, xizmatga kirishdi va u go'zal qizning xojasini o'z huzuriga chaqirtirdi-da, shoh Bahrom muddaosini bayon qildi. Xoja xoqondan o'zi talab qilgan bahoni – Xitoy mamlakatining bir yillik xirojini olgach, qizni saroyga olib kelib, Bahrom yuborgan elchilar qo'liga topshirdi. Ular fursatni boy bermay, qizni kajavaga o'tqazib, yurtlari tomon jo'nadilar. Karvon dashtlardan ildam yurib borardi.

Bu payt Dilorom ishq bilan o'rtanayotgan shoh Bahrom hijrondan oh tortib, o'z sevgilisini orziqib kutardi. Ishaq dardi uni behol qilib qo'ygan, har bir kun ko'ziga bir yilcha bo'lib ko'rinardi. Tun-u

kun fig'on chekib, yori visoliga intizor bo'lardi. Sabr-u qanoati tugab borayotgan shoh dildor suratiga qayta-qayta boqib, gohida behush bo'lib o'zini yo'qotar, bir joyda biron soat ham tinchib o'tira olmay, qasrda ham, bog'da ham kezib orom topa olmas, qasr ustida bazm uyushtirib, u yerdan yo'lni tinmay kuzatar, biron chang yo qora ko'rinib qolsa, taniga titroq tushib, hushidan judo bo'lar, o'ziga kelgach, yo'lga mulozimlarni chiqarar, sevgilisidan nishon topilmagach, yana o'tli fig'on chekar, saroyda kutishga toqati toq bo'lib, ov bahonasida otga minib, dasht tomon yo'l olar, Xitoy yo'li tomon yurib, yoridan xabar topish uchun duch kelgan kishilarni savolga tutar, Xitoydan kelayotgan odamlar uchrab qolsa, qayta-qayta murojaat qilib dilbari haqida biron xabar eshitishga orzumand bo'lardi.

Moniy shohning bu ahvolini ko'rib, uni yupatishga, ko'ngliga taskin berishga intilib, turli afsonalar so'zlab berar, lekin Bahrom uning rivoyatlariga e'tibor ham bermasdi. Xullas, shoh ancha vaqtni shunday beoromlik bilan o'tkazdi. Nihoyat, bir kuni shohga u orziqib kutayotgan parivash kelayotgani haqida xabar yetkazishdi. Bahrom u quyosh o'zining hajr shomiga nur sochishidan quvonchga to'lib, jismiga iztirob tushdi. Xitoy sari yo'l olgan karvon shaharga yetib kelgach, shoh yo'llagan kishilar Xitoy xonining maktubini, yuborgan sovg'a-salomlarini, gulchehra go'zalni topshirishdi. Shoh ularni qimmatbaho ehsonlar bilan siyladi va: «Sarvi ra'noni o'zi uchun hozirlangan haramdagi xos hujraga olib boringlar», – deb buyurdi.

Dilorom shoh tayinlagan uyga jannat bog'iga qadam qo'ygan hurdek kirib keldi. Birozdan so'ng

shoh Bahrom tez-tez qadam bosib uning huzuriga tashrif buyurdi. Shohning jismi betob bo'lib, ko'ngli haroratga to'la, o'zi ishqdan mast-u bodadan sarxush edi. Diloromga ko'zi tushgan shoh jannatda bezakdor qasr-u, uning ichida yana bir jannatni ko'rgandek bo'ldi. Bu jannat jonli hur, yo'q, hur emas, balki nur sochuvchi quyosh edi. Yuzi yonidagi qop-qora uzun sochlari go'yo Chin mamlakatidan mushk olib kelgan karvonga o'xshar, yuzi gulzordek go'zal bo'lib, ikki labi ajoyib ikki gulbargni eslatardi. Bu lablar so'zlash uchun ochilganida, har tarafga durlar sochilardi. Rangi la'l (yoqut)ni eslatuvchi bu ikki lab go'yoki jon bo'lib, «jon» so'zi oxiridagi nun harfining doirasi uning baqbaqasiga o'xshab ketar, go'yoki taqdir kotibi «jon» so'zini yozish chog'ida «nun» harfi sig'may qolib, uni pastga joylashtirgandek ko'rinardi. Tishlari la'l ichidagi durlar tizmasi yoki obi hayot (hayot suvi)dagi shudringga o'xshardi. Qoshlari payvasta-tutash bo'lib, ikki qulog'idagi ikki yaltiroq dur ikki yulduzdek nur sochib turar, qaddi jannat niholidek, beli esa xayol ipidek bo'lib, bu ipni topish juda qiyin edi. Ustida gulgun ipakdan tikilgan ko'ylak bo'lib, yuziga yashil ro'mol yopingan, binafsharang to'ni xilma-xil qimmatbaho toshlar bilan bezatilgandi. Ushbu ko'rinishdagi Dilorom hur emas, bashar ofati bo'lgan pari kabi go'zal edi.

Shoh kirib kelganida, u o'rnidan turib yer o'pdi. Shoh unga nazar tashlab, qizning suratdagiga qaraganda yuz bora latofatliroq ekaniga ishonch hosil qildi. Qog'ozdagi tasvirni ko'rib, jism-u jonidan ayrilgan shoh uning asliga boqa olgaymikan, boqqanida o'z hushidan ayrilmasmikan? Xullas, shoh o'z muddaosiga – Diloromiga yetishdi. Xonada ikkovi dan boshqa hech kimsa

yo'q bo'lib, Bahrom o'z sevgilisi bilan birga edi. Bu manzilda ne ishlar bo'lib o'tganini bayon qilishga esa ojizman.

* * *

Murodiga yetishgan shoh Bahrom yana ayshu ishratga berilib ketdi. Goh jannatmisol gulshanda, goh jannatga namuna bo'larli qasrda shohona bazm uyushtirar, go'zal Dilorom u bog'ni parixonaga aylantirardi. Gul yuzli sarvi qomat dildoriga shaydolik bilan boqarkan, shoh dam-badam aql-u hushidan ayrilardi, qiz changini qo'liga olib kuy boshlaganida, jon iplarini uzar, eshitganlarni aqlidan judo aylardi. Chang torlaridan taralayotgan ohanglar qaqnus degan afsonaviy qushning tumshug'i teshiklaridan chiqayotgan ajabtovur kuylar singari butun elni o'ziga maftun etar, navolardan bor olam o'rtanardi.

Shoh Bahrom o'z dilbari chehrasidan ko'zini uzolmas, navosini tinglab to'ymasdi.

*Bo'lubon jonsiz, o'lmayin onsiz,
Onsiz o'lg'on zamon bo'lub jonsiz.
Tun-kun lah¹ni birla boda yutub,
Yuzidin bazmi ayshini yorutub,
Ko'rmasa oni qolmayin joni,
Kiribon joni ko'rgach-o'q oni.
Shah tuzub bazm ul pari birla,
Charx xurshidi xovari² birla.
Ul navo cheksa, bu fig'on tortib,
Chu ul ruxsor ochib, bu jon tortib.*

¹ Lahn – ovoz, kuy.

² Xurshidi xovari – sharq quyoshi.

*Gah sahro navardu, dashtxirom,
Ichibon saydning nishotig'a³ jom.
Onda ham hajrin ittifoq etmay,
Oni o'zdin dame yiroq etmay.*

Shoh sahro kezib, ov qilib, o'z ko'nglini xursand etar ekan, bundan Dilorom ham huzur topardi. Shoh sayd etsa, oyga o'xshash pari shohni sayd qilardi. Shoh biron hayvonni halok etsa, Dilorom o'z ashulasi bilan jahonga g'avg'o solardi. Kuy bilan nag'madan lazzatlanayotgan Bahrom sevgilisi qo'lidan may ichishni istar, bu bilan go'yo o'z ko'nglidagi o'tni pasaytirmoqchi bo'lardi. Dilorom visoli uning joniga o't solar ekan, undan ayrilishni xayoliga ham keltirmas, yori ham, do'sti ham, hamrohi ham, suhbatdoshi ham shu pari edi. Bir dam usiz qolsa, yoqasi o'rniga ko'ksini chok qilardi. Oxiri shoh mamlakatni boshqarishni ham unutib qo'ydi. Davlat ishlariga ham, sipohlar ahvoliga ham e'tiborsiz bo'lib qoldi. Uch-to'rt yil shu holda kechgach, el bu ishlardan shikoyat qilishga tushdi, xalq ichida turli gap-so'zlar, hikoyatlar tobora ko'proq tarqala boshladi. Kimki ishq bilan oshno bo'lsa, mamlakatda tinchlik, xotirjamlik yo'qoladi. Ishaq seli koshonalarni yiqitar ekan, unga saroy bilan vayrona farqsizdir. Ishaq ajdahoni chumoliga aylantirib, shohni gado qiladi. Xullas, jahon shohi bo'lgan Bahrom ishq askarlariga asir bo'lib, sohibjamol yori bilan aysh qilishdan boshqa hamma narsani unutdi. Har kuni yangi makonda kuy va ashula eshitib, uning husn-u ovozidan bahra olib, boda ichish shohning odatiga aylandi.

³ Nishot – shodlik.

*Bodakim olsa ixtiyor eldin,
Ne ajab chiqsa har ne bor eldin.
Ishq ham mayg'a aylasa imdod,
Tong emas borsa bor-u yo'q barbod.*

* * *

Shoh Bahrom oshiqlig-u mastlik bilan mashg'ul ekan, g'aroyib ikki ish yuz bergan edi: birinchidan, u aysh-u ishrat bilan band bo'lib davlat ishlari-ni unutmagan, mamlakatda beboshlik boshlanib, xalq xohlaganini qilishga tushdi. Zolimlar bosh ko'tarib, xalq qora kunlarga qoldi. Qaroqchilar tobora ko'payib, barcha yo'llarda talonchilik qila boshlashdi; ichkilikbozlik kuchayib, din susaya bordi. Dashtlar bo'rilar bilan to'lib ketdi, ular-ga qo'ylargina emas, cho'ponlar ham yem bo'la boshladi. Bu hollardan ogoh bo'lgan a'yonlardan bir nechtasi mamlakat-u xalqning ahvoli haqida shohni yashirincha xabardor qilishdi. Bahrom ularning so'zlarini tinglagach, mulohaza yuritib, qanday chora topish haqida o'ylanib qoldi. Ni-hoyat: «Men shoh ekanman, bunday oy yuzli soqiylar topilaveradi, shoh bo'lmaganimda uning visoliga yetisha olarmidim?» – degan xulosaga kel-di. Uning ko'ngli mulk-u xazinani tanlagan bo'lib, ishqni tark etishga bahona izlardi.

Shoh shu xil xayol bilan yashasa ham, ha-nuz kunlari ov qilish va yor qo'lidan may ichish bilan o'tar ekan, toj-u taxt ishi uni tashvishga solib qo'ygan edi. Bir kuni shoh shirakayf holda ov qilar ekan, oy yuzli yori Dilorom ham yonida edi. Shu chog' dashtda tez yugurib borayotgan chiroyli bir g'azol-ohuni ko'rib qoldi. Shoh o'q

otishga shunday mohir ediki, yonidagi hamrohlari qanday xohlashsa, hayvonni ular istagandek qilib otib o'ldirardi. Saydning qaysi tukini nishonga olsa, o'qi o'sha joyga borib tegardi. Shoh Bahrom yonidagi gul yuzli go'zalga qarab: «Ey parivash, tez yugurib borayotgan bu g'azolning qaysi yeriga o'q otay, sen nimani buyursang shunday o'ldirayin», – dedi. Dilorom: «Oldin ikki qo'lini tushovla, toki u o'rnidan qo'zg'alolmay qolsin, so'ngra uning bo'g'ziga o'q ur», – deb javob qildi. Shoh o'z yori istagini bajo qilish uchun sadoqdan ingichka bir o'qni oldi-da, ohu tomon otib, ikki qo'lini biriktirib qo'ydi. So'ng yo'g'onroq boshqa bir o'qni shunday otdiki, ohuning bo'g'zi kesilib, qoni oqa boshladi. Dilorom nimani orzu qilgan bo'lsa, shoh barchasini bajardi: hech kim qilolmaydigan mohirlikning uddasidan chiqdi. U o'z ishi uchun parivashning tahsin aytishini kutgan edi, lekin o'z husn-u jamolidan mag'rur go'zal shohga tahsin uchun og'zini ham ochmadi, uning qo'lini ham o'pmadi-da: «Har kim bir ishda ko'p mashq qilsa, shunday natijaga erishadi», – deb qo'ya qoldi. Shohga «boplading, barakalla!» deyish o'rniga, uning mahoratini mashq natijasi deb atash bilan cheklandi. Dilorom o'z so'zini yana bir takrorlagan edi, shohning qoshi chimirildi, mahbubasi uning jahli chiqqanini sezib, o'z xatosini tuzatmoqchi bo'ldi-yu lekin:

*Dedikim: «Shohga ne itobdurur,
Kim bu so'z kim dedim, savobdurur.
Menki bir nag'ma soz qilsam chang,
Ruh chiqmoq sari qilur ohang.*

*Yo'q edi bu muloyamat⁴ birla,
Munga yetti mudovamat⁵ birla.
Shohkim bir kiyikka urdi xadang,
Desam idmonni⁶ ishga keldi batang».*

Bu so'zlarni eshitgan shohning g'azabi toshdi, parivashning ikkita gapi qahrini keltirdi-da, uni so'yib o'ldirmoqchi bo'ldi. Ba'zi a'yonlar: «Ayol kishini bu tarzda qatl etish yaxshi emas», – deyishgach, jallodlar Diloromni shoh amriga ko'ra kajavadan tushirib, bir biyobonga olib bordilar. Atrofi necha kunlik yo'l bo'lib, suv uchramaydigan bu dashtda zaharli giyohlardan boshqa hech narsa o'smasdi. Parivashning uzun sochlari bilan qo'l-oyoqlarini bog'lab, o'sha yerda qoldirdilar-da, shoh huzuriga qaytib, bo'lgan ishlarni so'zlab berdilar.

Bu payt shoh may bilan g'azabdan o'zida emasdi. Shu kuni oqshomgacha paydar pay may ichsa ham, g'azabi pasaymadi. Shomda mast bo'lib uxlab qoldi. Tong chog'i ertalabki mayni ichishni istab qarasa, yonida mahbubasi ko'rinmadi. «Mahvash qayerga ketdi?» – deb so'ragan edi, mahramlar kecha yuz bergan voqealarni aytib berishdi. Shohga yorug' olam qorong'u bo'ldi-yu, boshini quyi solganicha qilgan ishlarini eslay boshladi.

*Bildikim qahr sarsari esmish,
O'z qo'li birla o'z boshin kesmish.
Dedi: «Ushbu zamon o'zum borayin,
Ul biyobonni bir-bir axtarayin.
Qayda bo'lsa topay nigorimni,*

⁴ Muloyamat – muloyimlik.

⁵ Mudovamat – uzluksiz mashq qilish.

⁶ Idmon – mashq.

*Qilayin sadqa joni zorimni.
Tirik o'lsa bo'lay fidosi aning,
Beribon jon, topay rizosi aning.
O'lgan o'lsa, o'zumg'a tig' urayin,
Diyatig'a o'zumni o'ldirayin».*

Lekin toj-u taxt nomusi, odamlar oldidagi xijolat, aql-u farosati bu ishlarni qilishga yo'l bermadi. Xuddi bir chumoli ikki ajdaho orasida qolganidek, joni ikki balo o'rtasida iztirob chekardi: o'lik ham emasdi, tirik ham. Uni tirik deb bo'lmasdi.

XVI

Shoh Bahrom yig'lashga emas, kulishga munosib bo'lgan bunday ishni qilib qo'ygach, ikki kungacha o'ziga kelolmay, ko'nglini shu'la, jonini o'q qiynadi. Uchinchi kuni holiga qaytdi-yu, umrining yorug' kuni qora tunga aylanganini bildi. Tama uning ko'ngli mulkini barbod qilgan edi: ichiga chaqmoq tushib, vujudini o'tga g'arq qilgandek bo'ldi. Hajrdan joni og'ziga yetib, o'rnidan turdi-da, yo'lga tushib mahbubasi tashlab kelingan vodiy tomon ot choptirib ketdi. Yetib borgach, dasht-u sahroni kezib chiqdi-yu, o'zi izlagan sarvi ra'noni topa olmadi. Ma'yus bo'lib yuzlariga shapaloqlar urdi, baland ovoz bilan Shirinini topa olmagan Farhoddek faryod chekdi. Bemor oshiq kabi yerga yiqilib, chala so'yilgan hayvondek talpinar, ko'zidan qonli yoshlarini to'kib, falakning ko'nglini ham qon qilardi.

*Dedi: «O'z jonima ne qildim, voy!
Bo'lurin buyla ish ne bildim, voy!*

*Kim o'zi ko'ksin o'zi chok etgay,
O'zi jonin o'zi halok etgay?
Ulcha men qildim, aylagaymu kishi,
Bu ish ermas edi kishining ishi!
...Naylayin bu jahonni jonsiz men,
Bul jahon birla jonni onsiz men?
Jonni olg'ilki, to'ymisham billoh!
Ko'ngul o'lmakka qo'ymisham billoh!»*

Dashtda tinimsiz kezib, shu xilda fig'on chekar ekan, taxt-u mamlakatini butunlay unutgan shoh biyobonni o'ziga manzilgoh qilib oldi. Buni ko'rgan shahar ahli ham dashtni o'zlariga vatan qildilar. Oqshom tushgach, tun Bahrom diliga yanada kuchliroq iztirob solib, uning ko'ziga olam go'rga o'xshab ko'rindi. U tun zulmat emas, hajr o'tidan jahonni tutun tutgandek edi. Shoh ahvolini kuzatayotgan mulozimlar saropardali oq uy tikib uni uy ichiga olib kirdilar-da, odamlarni bu uydan uzoqroqqa surdilar. Kishilar o'z hukmdorlari ahvoli haqida turli rivoyatlar to'qishar, biri: «Uni dev chalg'itgan!» – desa, boshqasi: «Bu o'sha parivashning ishi», – deb afsona aytardi.

XVII

Shoh Bahrom o'sha tunda hajr o'tida o'rtanar ekan, bir xilvat uyga kirib, ichkaridan eshikni mahkam berkitdi-da, shunday fig'on-u oh-voh chekdiki, go'yo jahon ichra shovqin-suron ko'tarilib, balo tushgandek bo'ldi. Avval yoqasini chok qilib, o'zining barcha a'zolariga zulm ko'rsatib tishlab tashladi, boshini yerlarga urib yordi. Yarim kechaga qadar badanini tishlab, nola-yu faryod qildi.

O'ziga shunchalik ko'p ozor yetkazdiki, oxiri jismi holsizlanib qo'li toldi va madori ketib yiqildi. Lekin yana yori yodiga tushib, uning qop-qora sochi-yu qoshlari, ko'zi-yu kipriklarini eslar ekan, oh-u nola qilganida ko'kdagi quyosh ham, oy ham o'rtandi. Xoli-yu lablari, og'zi-yu tishlari, dilrabo changi-yu, jonbaxsh navolarini xotirlar ekan, fig'oni ko'kdan oshdi. O'zining oldingi savlati-yu qudratini xotirga olar ekan, hozirgi zaifligi-yu beqarorligidan nola qilib, sarkarda-yu mulozimlariga qarab:

Tig' ila ko'kragimni chok aylang,

Bir-iki zarb ila halok aylang.

Qutqaring joni notavonimni,

Bihil ettim borig'a qonimni.

O'ldurub g'avrima yeting oxir,

Ming o'lumdin xalos eting oxir! -

deb iltijo qilardi. Tong otgach, jismi zaiflashib, hushidan ketdi. Barcha a'yonlari beqaror bo'lib yig'lashga tushdilar, keyin o'zaro maslahatlashdilar-da, bu dashtda davolashni munosib ko'rmay, shohni kajavaga yotqizib shaharga olib ketdilar va gulshanga tushirdilar. Bahrom shomga qadar ham o'ziga kelmay o'rtanib yotdi.

Tun boshlangach, mushk isidan hushiga keldi-yu, ko'zini ochib biroz xomush bo'lib yotdi, keyin yana yorini eslab oh-faryod qilishga tushdi. Kechasi bilan hijron o'tiga qovrilib azob chekib chiqdi. Tong yeli jismini behol qilgach, shomgacha behush yotdi. Bir necha kun davomida shu holat takrorlandi. Oxiri tamoman zaiflashib, o'larga yaqinlashdi. Bexudlik boshlanib, goh o'zida bo'lsa, goh hushidan ketar, jinnilarcha so'zlar, fig'on

chekishga darmoni qolmaganidan, soʻzlarini odamlar ham eshita olishmasdi. Goh-gohida nolayi zor qilsa, jismi ozor topar, oʻzi aytayotgan gaplarni ham anglamasdi.

Bu ahvolni koʻrib turgan bilimli aʼyonlar koʻzyosh toʻkar ekanlar, shohdan qoʻllarini yuvib qoʻygandilar. Toʻrt yuz tabibi hoziqlar uni davolash chorasini izlab topisholmasdi. Ular derdilarki: «Ishq dardiga muhtalo boʻlgan kishini davolab boʻlmaydi, unga Yaratgangina shifo berishi mumkin». Shundan soʻng, barcha aʼyon-u mulozimlar toat-ibodat qilishib, nazrlar berishga, shohning tuzalishini tilab Xudoga yolborishga tushishdi. Yuz kishi esa jinlardan xalos qilish uchun har xil duolar oʻqib, turli tadbirlarni koʻrishar, yana boshqa hakimlar tib tarixi kitoblarini varaqlab, tajribalar oʻtkazib, davo izlashardi. Shu tarzda toʻrt yuz alloma ikki yil davomida yeyish-ichishni, uyquni unutib oʻz ishlarini nihoyasiga yetkazdilar. Oqibatda shohning beholligi-yu jinniliklari kamayib, ovqatlardan jismiga quvvat yetib, aql-u hushi ravshanlasha boshladi. Bulardan taskin topgan tabiblar «Endi shoh alamlarini unutishga yordam beradigan tadbirlarni koʻrishimiz, masalan, imoratlar qurishga kirishishimiz kerak. Toki shoh ularni tomosha qilarkan, oʻz dardlaridan qutula borsin. Mohir muhandislar xilma-xil shakllardagi imoratlarni ijod qilsalar, ayni muddao boʻlardi», deb maslahat berishdi.

Amaldorlar tezda bu ishga kirishib, kerakli barcha narsani muhayyo qildilar. Shoh Bahromga tobeʼ boʻlgan yetti iqlim xon-u xoqonlari va ularning barcha aʼyonlar-u mulozimlari olampanoʻh sogʻligini soʻrashga yigʻilgandilar. Tabiblarning

maslahatlaridan so'ng ularning har biri bittadan qasr qurib, bezatishga kirishishdi. Ular tun-u kun ishlashib, imoratlarni mumkin qadar tezroq qurib tugatishga harakat qilishardi.

Shoh taxtidan o'ziga tobe' bo'lgan yetti iqlim tomon olib boradigan keng ko'chalar – shohrohlar yaratilgan bo'lib, ulardan odamlar yurardi. Yetti iqlim xon-u xoqonlari o'z diyorlari tomon olib boradigan yo'llarda yetti ulkan qasr bunyod etdilar. Ular-ning har biri bir jannatga o'xshardi. Ushbu xilma-xil shakldagi binolarni qiziqib tomosha qilarkan, shoh Bahromning sog'lig'i kun sari yaxshilanib borardi.

Muhandislar ishlarini tugallab, binolarni bitkazishdi. Qurilish chog'ida ustalarning mahorati-yu, binolarning salobatini tomosha qilib, o'z dardiga shifo topayotgan Bahrom bunyodkorlik ishlari tugallangach, tomosha qilish imkoniyatidan mahrum bo'lib qoldi. Tabiblar bu holatdan ogohlik topgach: «Endi tezda mohir naqshband-u san'at-pardozlarni topib, qasrlarni xilma-xil ranglarda bezatishga kirishish lozim. Har bir qasrning ichi bilan tashqarisi bir xil rangda bo'lishiga alohida diqqat qilish zarur. Shunda ularni tomosha qilar ekan, shahanshoh tuzala boradi», – deb maslahat berdilar. A'yonlar Moniyni chaqirtirdilar-da: «Ey mohir ustoz, sen oldingi ishlaring bilan shohni xursand qilgan eding, endi bu qasrlarni ziynatlashga kirishib, yetti qasrni yetti rangga bo'yaginda, shohni shodmon aylab sihatiga madad qilgin. Naqshlarni o'zing tanla, ko'ngling tilaganicha bezat. Senga «Unday qil, bunday qil», deb aytmaymiz», – dedilar.

Naqqosh bu so'zlarni eshitgach, barmoqlarini ko'ziga qo'yib «Unday bo'lsa, sizlar kerakli

narsalarni keltirib bersangiz bas», – dedi-yu, ishni boshlab yubordi. Mamlakatdagi bor naqqoshlarni chaqirtirib, har qaysisiga bir ishni topshirdi. Ustalarni naqqshbandlik, zarkorlik kabi sohalar bo'yicha yetti guruhga ajratib, ularga ishboshilar tayinladi. O'zi esa ishlar rejasini tuzib, naqqoshlar ishini kuzatib turardi.

Shoh Bahrom ertadan kechgacha imoratlarni sayr etar ekan, har qaysi timsolni ko'rganda, unga maftun bo'larkan, xayol og'ushiga cho'mar ekan, ko'nglidagi tashvishlar ham unutilib borardi. Ko'p fursat o'tmay, qasrlarni bezash ishlari nihoyasiga yetdi. Yetti qasr yetti rangda ziynatlangan edi. Ularni tomosha qilgan shohning ko'nglida ishq o'tining ba'zi uchqunlarigina qolgan edi. Tabiblar ko'p maslahat qilishib: «Endi bu yetti qasrning har biri ichiga bittadan hurdek go'zal qizni keltirib qo'ysak, shoh butunlay tuzalib ketishi, quvvat topishi mumkin. Qaysi shohning hurvash qizi bo'lsa, uni shahanshohga nikohlab bersin», – degan qarorga kelishdi. Shohlar fikr yuritishib, bu muammoni ham hal qilishdi. Yetti shohning yettita parimisol qizlari bor edi. Har biri ham go'zal, ham oqila bo'lib, poklik pardasida olam quyoshi, husn burjida ravshan yulduz, lutf durjida pok gavhar bo'lib, shahanshoh nikohiga munosib edi. Shohona bazm uyushtirib, yetti go'zal shoh Bahromga nikohlandi-da, to'ydan so'ng kelinlarning har biri o'z otasi tomonidan qurdirilgan qasrni manzil qildi.

Tabiblar shoh Bahromning qasrlarga borib orom olish vaqtini belgilashib, haramlarga tashrif buyurishni yulduzlar amriga ko'ra shanba kuni-dan, mushkin (qora) rangli qasrdan boshlashga maslahat berishdi.

Shanba kuni erta tongda Bahrom mushkbo'go'zal bilan may ichish uchun qora qasrga yo'ldi. Bu yerdagi hamma narsa mushk rangida bo'lib, qop-qora, mushkin taxtda Chin g'azoli o'tirar, qora rangdan zulmat tusini olgan uyda oy yuzli go'zal zulmat ichidagi hayot suvi kabi ko'rinardi. Qora kiyimlar kiyib olgan Bahrom qasrga kiringach, mahvash tomon yurdi. U taxtga chiqib o'tirgach, yonidan quyosh rashkini keltiradigan sohibjamol mahbuba joy oldi. Soqiylar ikkovlariga mushk rangi qadahlariga mushk hidi anqib turgan may tutishdi. Shom mushk sohib, olam yuzini mushk rangiga bo'yaganiga qadar qasrdagi a'yonlar ishrat qilishar ekan, bu shanba Bahrom uchun azali kun bo'ldi. Hakimlar shohga bo'sadan boshqa ishlardan uzoq bo'lishni buyurishgan edi. Buni mahbuba ham bilar, shuning uchun o'zini shohdan yiroqroq tutardi. Shoh kunduzlari ishrat bilan band bo'lishi, kechalari esa ko'proq uxlashi zarur edi. Lekin ko'nglidagi alam-qayg'u ko'zidan uyquni o'chirgandi. Mahvash o'z pardasi ichiga kirib yotdi, lekin hijron shoh ko'ziga jahonni qorong'u qildi. U o'z Diloromining uzun sochlari xayoli bilan to'lg'anardi. G'am tuni azob berayotgani, uyqusizlik o'zini xarob qilayotganini sezgan shoh: «Bir-ikki xodimni qasr oldidagi yo'ldan borib, biron odam yo'liqsa, uni huzurim-ga olib kelishga buyuringlar, toki u odam o'zi ko'rgan-bilgan voqealarni yoki afsonalardan menga so'zlab bersa, shoyad ko'zimga uyqu kelib osoyish topsam», – deb amr qildi. Yo'lga tushgan xodimlar ko'p o'tmay shoh oldiga bir sayyohni olib keldilar. Parda oldiga kelib, yer o'pib ko'rpachaga o'tirgan musofir shohning biron qissa aytib berishi

haqidagi hukmini eshitdi va uni duo qilgach o'zi bilgan afsonani so'zlashga kirishdi.

Birinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning afsonasi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Hindiston mamlakatida bir shoh bo'lgan ekan. Uning askarlari cheksiz, xazinasi behisob bo'lib, Xitoy ham, Kashmir ham unga tobe' ekan. Sarandib shahri uning poytaxti bo'lib, ismi Jasrat, laqabi esa Xon ekan. Hashamatni sevuvchi bu shohni jahon eli Jasratxon deb atasharkan. Uning donishda yagona, husnda nodiri zamona bir o'g'li bo'lib, otasi ko'nglining sururi, hind xalqining ko'z nuri ekan. Uning lutf-u xulqi g'oyatsiz, fahm-u idroki nihoyatsiz bo'lib, ilm-u kamolda ham mohir ekan. Hech kimga ozor bermaydigan bu shahzodaning ismi Farrux bo'lib, olam eli unga banda ekan. Qirq yil sultonlik qilib, yoshi saksonga yaqinlashgan shoh o'g'liga mulk-u tojini, Hindistonning bor mol-u dunyosini ham, Xitoy mamlakatining xirojini ham berishni o'ziga faxr deb hisoblar, lekin Farrux saltanatni emas, faqirlikni xush ko'rar, shu tufayli otasining taklifini rad etib kelar ekan.

Bir kecha ibodat paytida sajdadan so'ng ko'ziga uyqu kelib, bir tush ko'rdi: shahzoda bir biyobonda behisob odamlar orasida yurganmish. Kishilarning barchasi bir tarafga qarab ketishardi. O'sha orada ustiga qora mato yopilgan bir mahmil – kajava ham bo'lib, bir mahal tong shamoli esdi-yu, kajava pardasini ko'tarib yuborgan edi, uning ichida bir pari, parigina emas, balki sharq quyoshi o'tirgani ko'rindi. U quyoshning alangasi

shahzoda jismini kuydirdi. Bundan behol bo'lgan Farrux kajava tomonga boqqan edi, dilini o'rtagan parivash boshqa ko'rinmadi: parda uning chehrasini to'sib turardi. Qulog'iga odamlarning: «Bu Quds yeri», – degan ovozlorigina eshitildi, xolos.

Farrux cho'chib uyg'ondi-yu, ko'zidan uyqusi o'chdi. Borgan sari harorati kuchayib, ko'nglidagi iztirobi ortar ekan, biron chora topmasa, ishq zulmidan o'zining halok bo'lishi muqarrarligini anglab yetdi. So'ng Quddus dashti tomon safar qilishga bel bog'lab, tong otgach otasi huzuriga yo'l oldi-da, yer o'pib, o'z muddaosini bayon qildi:

*«Kim jahongardlig' erur havasim,
Yo'q ani man' etarga dastrasim.
Xiradim qildi bu havas bexud,
Chun havas g'olib o'ldi, ketdi xirad.
Bu azimatda ixtiyorim yo'q,
Azm to qilmog'um qarorim yo'q.
Bo'yla ishkim manga tavallodur,
Shohdin ruxsat o'lsa avlodur.
Bo'lmasa ruxsat o'lgucha ogah,
Ketgudekman boshim olib nogah».*

Otasi bu so'zlarni eshitgach, yurak bag'ri kuyib, har qancha iltijo qilmasin, o'g'lini safardan voz kechdira olmadi. Ko'z yoshlarini to'fondek oqizsa ham, orzusi ushalmadi. Oxiri shahzodaning ishq o'tiga muhtalo bo'lganiga ishonch hosil qilib, qo'shinining yarmini ajratib, xazinasining yarmini ham berdi-da, o'g'liga ruxsat qilib, shod etdi va u bilan xayrlashdi.

Farrux yo'lga ravona bo'lib, hech yerda dam olishga to'xtamay, tun-u kun yurib, sha-

harma-shahar kezib borardi. U zamonda odamlar Ka'ba o'rniga Quddusni tavof qilishardi. Farrux u shaharga yetib borganida yuz minglab ibodatchilarning tavof qilish uchun yig'ilishayotganini ko'rdi. U ham pok ko'ngli bilan tavof etib, tufroqqa bosh qo'ydi-yu, sham kabi yig'lar ekan, Yaratgandan o'z murodiga yetkazishini iltijo qildi. U o'zi izlayotgan go'zal mahbubasini uchratib, visolidan murod hosil qilishga shoshilardi. Bir necha kun hamma yoqni aylanib chiqsa ham sohibjamol dilbardan xabar topolmadi. Bir necha kundan so'ng tavof uchun bu yerga kelgan odamlar o'z vatanlariga qayta boshlashdi. U g'amgin holda uyquga ketgan edi, tushida bir kishining: «Murodingga yetmoqchi bo'lsang, bu yerda turmay, erta tongda Halab tomon yo'l ol», – degan ovozini eshitdi. Uyg'ongach, toqati toq bo'lib, Halab sari yo'lga tushdi.

Halab tomon borayotgan yo'lovchilar g'oyatda ko'p bo'lib, yo'lda suv juda oz edi. Shuning uchun o'zi bilan ikki-uch yuz kishini olib qoldi-da, qolgan sipohlarga Hindistonga qaytishni buyurdi. Ular istar-istamas vatanlari tomon yo'lga tushdilar. Shahzoda Halab tomon ketayotgan odamlarga hamroh bo'lib borarkan, sirdoshi dardi, do'sti oh edi. Yo'lda bir necha bor dam olib, ancha yo'l yurib, nihoyat, shaharga yaqinlashdilar. Halab yaqinidagi dasht-u shahar ko'chalari odamlar bilan to'la bo'lib, hamma yoqdan shovqin-suron eshitalardi. Farrux ular orasida o'zi tushida ko'rgan qora pardali kajavani izlardi. Bir mahal ko'zi shahar darvozasi tomon yurib borayotgan tuya ustidagi qora rangli kajavaga tushdi. Shu dam shamol esdi-yu, kajava pardasini ko'tarib yubordi-da,

uning ichida quyosh misol go'zal bir parivash ko'rindi. Tushda ko'rgan sohibjamolni topganidan shodlikka to'lgan Farrux uni qayta ko'rmoq uchun boqqan edi, parda yopiqligini ko'rib, jahon uning ko'ziga qorong'i bo'lib ketdi. Ko'zida nur qolmay, hushini yo'qotgan shahzoda o'ziga kelganida dashtni barcha tark etgan bo'lib, safar ahli o'z vatanlari bo'lmish Halab ichiga kirib ketgandilar. Farrux iztirobga tushib, yana hijron alamini torta boshladi. Buni sipohlarga sezdirmaslikka intilsa ham, uning holatidagi o'zgarishni kuzatgan odamlari hayron bo'lib, shivirlasha boshlashdi. Ular shahar tashqarisidagi bir manzilga tushdilar. Xayolga botgan Farrux o'z sipohlari so'zlarini ham, o'z so'zlarini ham anglamasdi. Shahzoda holidan tashvishlanayotgan xodimlari uni o'rab olishdi, u esa o'zini uyquga solib yotaverdi. Buni ko'rgan sipohlar xotirjam bo'lib uyquga yotishdi. Odamlarining qattiq uyquda ekanliklariga ishonch hosil qilgan Farrux o'rnidan turdi-da, qo'lga qog'oz-u qalam olib, shunday maktub yozdi: «Bu olam turli hodisalarga to'la, taqdirda yozilganni ko'rmaslikning iloji yo'q. Mening taqdirimga o'voralik, ishq-u bechoralik yozilgan ekan, bu dardlarni tortish men uchun zaruratdir. Sizlar esa bu g'urbatda turmay, meni ham izlab yurmay, vatanga qayting, tirik bo'lsam, sizlar bilan o'sha yerda uchrashamiz». Bu xatni o'z o'rniga qo'ydi-da, shohona kiyimlarini yechib, ustiga qora rangli bir matoni tashladi va uydan ohista chiqib, shaharda ko'chama-ko'cha keza boshladi. Telbasifat har tomon yugurar ekan, bir gulxanni topdi-da, ustiga qora palosni yopganicha yana ishq o'tida iztirob cheka boshladi.

Ertalab tong otgach, shahzodaning odamlari uni topisholmay, har tomonga yugurib uni izlay boshladilar. Ikki kecha-kunduz qidirsalar ham, harakatlari bekor ketdi. Nihoyat, u yozgan mak-tubni topib olishdi-da, yig'lab-siqtab vatanlari tomon yo'lga tushdilar.

Farrux shohlikdan gado holiga tushgani, yuz baloga giriftor bo'layotganini, o'z ishiga chora to-polmayotganini o'ylab g'am chekar ekan, bir necha kun suv ham ichmadi, ovqat ham yemadi, oxiri: «Bu ahvolda yuraversam, ishim bitmaydi, yaxshisi, oyoqqa turib, yotib qolguncha yorimni izlay», – deb shahar ichiga qarab yo'l oldi. Bir-ikki kun ko'cha-ma-ko'cha sevgilisini izladi-yu, undan darak ham topolmay, behol bo'lib, bir vayrona ichiga kirib yotib qoldi, hayotdan to'yib, o'lar holatga yetishdi.

Halabda bir boy xoja bo'lib, mehmondorchilik uning odati edi. El orasida obro'-e'tibori yuksak bu odamning mol-u davlati hisobsiz bo'lib, uyi mehmonxonaga o'xshar, oshna-yu begonalar uchun bu uy doim ochiq edi. Rahmdil va saxiy bu xojaning ismi Axiy bo'lib, ba'zi-ba'zida ot surib, yo'l boshlari-yu vayronalarni ko'zdan kechirib yu-rarkan, mazlum va xastalarni ko'rib qolsa, darhol uning ko'ngli zaxmiga malham bo'lardi, shu tu-fayli ham shahar ahli uni g'oyatda hurmat qilardi.

Bir kuni shu odatiga ko'ra shaharni kezib yurgan Axiy Farrux behol bo'lib yotgan vay-ronaga nazar tashlar ekan, uni ko'rib qoldi-da, otidan tushib, xastaning oldiga kelib: «Ey rahm-u shafqatga muhtoj odam, kimsan, ahvolingni menga ma'lum qilgin», – deb murojaat qildi. Far-rux yuzini ochib, salom berdi va o'tirib: «Ey xoja, yo'lingdan qolma, mendan hol-ahvol ham so'ra-

ma, toki ko'nglingga g'amim asari yuqib, joningga o'tim uchqunlari tushmasin», – deb javob qildi. Uning pokiza yuzini ko'rib, ta'sirchan so'zlarini eshitgan Axiyni:

*Ham yuzi oni beqaror etdi,
Ham so'zi oni ashkbor etdi.
Ne ko'rub erdi uyla turfa jamol,
Ne bu yanglig' eshitmish erdi maqol.
Bildikim, bas aziz paykardur,
Angladikim, sharif gavhardur.*

Keyin qiyinchilik bilan uni otga mindirib, uyiga olib ketdi-da, aziz mehmondek ehtirom ko'rsatib, taom va sharbat bilan mehmon qildi. Farrux ham mehbonlik odobini namoyish etib, mezbon savollariga oqilona javoblar berar ekan, Axiyni lol qoldirardi. Mehmonga bir hujrada joy hozirlangandi. Lekin Farrux tuni bilan ishqdan nola qilib, g'am-anduh chekar, kunduzlari xomush bo'lganicha mehmonxonada o'tirardi. Axiy unga xilma-xil liboslar taklif qilsa ham, mehmon o'z palosidan ayrilmasdi.

Xoja o'z mehmoni yotgan hujra atrofiga bir necha mulozimni qo'yib, uning ahvolidan xabardor bo'lib turishni tayinlagandi. Bir kecha ular Farruxning yashirin oh-u ko'z yoshlaridan ogoh bo'lib, bu haqda Axiyga xabar yetkazdilar. Xoja barcha odamlar uxlayotgan mahal hujra yoniga kelib quloq soldi-da, mehmonning dard-u alamlari haddan oshib, uning ko'ngliga ajib bir o't tutashgani, elning eshitishidan andisha qilib, past ovoz bilan oh-faryod chekayotganini, goh dilbari, goh sipoh-u mamlakatini eslab nola qilayotganini anglab,

ko'ngli buzilib, ko'zidan yoshlar oqiza boshladi. Mehmonning shoh ekanligi, lekin bir narsa uni iz-tirobga solib, bu yerlarga kelib qolganini sezdi-da, unga biror chora topib yordam ko'rsatishni diliga tugib qo'ydi. Buning uchun esa, avvalo, dardi sirini bilish kerak. Bunday hollarda ishq o'tida qovrilayotgan oshiqlar ahvolini uni mast qilgan holda bilib olish mumkinligini eslagan Axiy shu yo'lni tutishga qaror qildi. Tong otishi bilan xoja mehmonxonaga yo'l oldi, ketma-ket u yerga Farrux ham kirib keldi. Yeguliklarga mo'l dasturxon atrofida ikkovlari tushga qadar qizg'in suhbatlashib o'tirdilar. Quyosh botishi yaqinlashgach, xoja may keltirishni va xonanda-yu sozandalarni chaqirib kelishni buyurdi. Bazm boshlanib, musiqa-yu ashulalar yangray boshlagach, ichayotganlar sarxush bo'ldilar. Shunda xoja qo'liga may to'la jomni olib, ta'zim bilan shahzodaga tutdi-da, o'zi ham qo'liga jom olib, ikkovlari ko'tarishdi. Soqiy barchaga qadah tutgach, o'zga bir soqiy yana qadahlarga may to'ldirib uzata boshladi. Shu tarzda qadahlar bir necha marta aylangach, bazm ahlining kayfi osha boshladi, hamma gapga tushib ketdi. Xoja esa Farruxni xonaga taklif etib, suhbat boshladi. Shahzoda ham kayfi oshgani uchun mamlakat-u davlati, amalga oshmagan orzularini eslab, ko'zlaridan yosh oqib, o'z boshidan o'tganlarni so'zlashga tushdi. Mayni oz ichgan Axiy xilma-xil savollar berib, mehmonning nasabi-yu davlatini, Jasratxondek otasi borligini, tushida bir parivashni ko'rib, oshiq bo'lganini, u parivash shaksiz Halabda yashashini bilib oldi. Xoja mehmon maftun bo'lgan go'zalning ko'rinishi qandayligi haqida savol berib, Farrux javoblarini

eshitar ekan, jismiga harorat, ko'ngliga iztirob tushdi. Chunki mehmon aytgan belgilar uning ayoliga xos edi. Demak, bu oshiq yigitning ko'ngli uning yostiqdoshiga tushib qolgan ekan. O'zicha: «Bu g'arib oshiq shohlig-u davlatidan voz kechib, o'limga ham rozi bo'lib, og'ir ahvolga tushib qolgan ekan, hijron dardida halok bo'lishi ham muqarrar. Uning dardiga mengina chora qila olaman.

*Qilmasam, o'lsa ul muruvvat emas,
Oni yaxshi muruvvat ahli demas.
Kishi bu ishga chora qilmasmu,
Manga ahli haram topilmasmu?» –*

deb o'yladi-da, mehmonga qarab: «Ey musofir yigit, g'am yema, men bu dardingga davo qila olaman, seni xonumoningdan ayirib sarson qilgan sohibjamol bizning eldan bo'lib, mening qarindoshimdir. Seni maqsadingga yetkazaman, lekin sen mening aytganlarimni qilishing kerak», – dedi.

Farrux shodlikdan ko'z yoshlarini oqizib, Axiy oyog'iga bosh qo'ydi-da: «Agar mening dardimga darmon qiladigan bo'lsang, nimani buyursang, albatta, bajaraman», – dedi. Ikkovlari kelishib olishgach, mast holda uyquga ketdilar. Tong otgach, shahzoda xojaga boqib: «Agar va'dangni unutmagan bo'lsang, menga ne ishni buyursang, tayyor turibman», – dedi. Xoja mehmonni hammonga, tanini chirkidan tozalashga yo'lladi. Qaytib kelgach, unga shohona kiyimlar kiydirishdi-da, qora palosidan ozod etishdi. Farrux shohona otga minib, qasrdek zarnigor uy tomon yurdi.

Uni eshik oldida qoldirgan Axiy haramiga kirdi, gulchehra ayoli niyoz-u noz bilan kutib oldi.

Ikkovlari o'tirishgach, xoja ayoliga murojaat qilib: «Tangri taqdiri bilan ikkovimiz shu paytgacha shod-u xurram yashab keldik, sening ishlaringdan mengina emas, balki xudo ham xushnuddir. Lekin bu ayyom ayrilish payti keldi», – dedi-da, hayratdan qotib qolgan parivashni taloq qildi. Axiy ayoliga hisobsiz mol-u pul, ko'pdan ko'p la'l-u durlar berdi-da, so'ng: «Seni bir shahzodaga nikoh qilaman», – dedi. Parivash har qancha faryod ko'tarib, yalinib-yolborsa ham, xoja o'z fikridan qaytmadi, nihoyat, rozilikdan boshqa chora yo'qligiga tan bergan go'zalni shohona to'y qilib, Farruxga nikohlashdi. Keyin Axiy o'z mehmoniga ko'plab yaxshi kiyingan qul-u cho'rilar, qimmatbaho matolar yopilgan tuya-yu xachirlarni hadya qilib, yo'lga uzatdi-da, bir manzil yo'lga hamrohlik qilgach, ular bilan xayrlashdi-yu, yodgorlik bo'lsin deb Farruxning qora palosini so'rab oldi.

Shahzoda yo'lda borar ekan, Axiyning qilgan ishlari haqida fikr yuritar, uning xayrlashish chog'idagi g'amginligidan iztirob chekardi. Dilidagi hijron o'ti alangasi pasaygach, Farrux o'z go'zali huzuriga kirgan edi, yori ko'zlari yoshli ekani, yuzlarini tirnoqlari bilan majruh qilganini ko'rib hayron bo'ldi. Shahzoda uning g'amginligi sababini so'ragan edi, gul yuzli mahbuba: «Har kimni taloq emas, nikoh xursand qiladi», – deb javob qildi. Farrux hayratga cho'mib: «Ey parivash hur, so'zlaringga tushunmadim. Taloq so'zini nega tilga olyapsan, vasl ichida firoq haqida gapirishing nimasi?», – deb so'ragan edi, oy yuzli sohibjamol ko'zlaridan yosh to'kib, shahzodaga o'z sarguzashtini so'zlab berdi. Uning gaplarini eshitgan Farrux o'zini halok qilishiga oz qoldi. Keyin u ham

tushda ko'rgan yori visoliga yetish yo'lida chekkan azoblarini to'la-to'kis so'zlab berdi. So'ngra:

*Dedi: «Dardimg'a gar davo ko'rmon,
Bo'yla zulmi sanga ravo ko'rmon.
Aylabon lutf behisob asru,
Qildi bizni Axiy xarob asru.
...Gar anga bu qadar muruvvat bor,
Bizda ham shammai futuvvat bor.
Sen ham endi shukufta dil bo'lg'il,
Manga ikki jahon singil bo'lg'il», –*

dedi-da, parivashni xursand qilib chiqib ketdi. Ular tun-u kun yo'l yurib, Hindistonga yetib bordilar. Bu vaqtda Jasratxon vafot etgan bo'lib, o'g'lini o'ziga valiahd deb e'lon qilgan ekan. Shuning uchun xalq uning istiqboliga chiqib kutib oldi. Farrux otasi taxtiga chiqib o'tirgach, o'ziga singil bo'lib qolgan parivashni xursand qilish uchun unga Axiy huzurida bo'lganidek qasr va bog' barpo qilishga buyruq berdi: «Yuzta mohir hunarmand o'zlarining bor mahoratlarini ishga solib, go'zal qasr bilan bog'ni tugallasinlar», – deyilgan edi farmonda. Ko'p o'tmay qasr bilan bog' tayyor bo'ldi. Ular Axiy dargohidagi shaklga ega bo'lib, g'oyat go'zal edi. Go'yoki Halab Hindga ko'chib kelganga o'xshardi. So'ng parivashga shu qasrga ko'chib o'tish hukm qilindi. Uyni va bog'ni ko'zdan kechirgan sahibjamol o'zini xuddi o'zining oldingi manzilidan chiqmagandek sezdi. U shohga singildek aziz bo'lib, yuzta go'zal qiz xizmatida edi. Noz-u ne'matlar esa behisob edi.

Hind diyorida ana shunday ishlar qilinayotgan vaqtda Halabda qolgan Axiyning holi ne

kechdi ekan? O'zining gul yuzli yoridan ko'ngil uzgan Axiyning tole' yulduziga zarar yetib, ekinlari ofatga uchradi, savdosi ham ziyon ko'rdi, qilgan choralari foyda bermay, ahvoli tobora yomonlasha boshladi. Dushmanlari buni ko'rib, shahar shohiga: «Axiy mamlakatni xarob qilish uchun boshqa bir shohning xizmatini qilib, unga ko'plab mol-u dunyo berib, Halabdan jo'natib, dushmanlarimizga qo'shildi», – deb arz qildilar. Hukmdor ularning so'zlariga ishonib, g'azab bilan Axiyni tutib, bor mol-dunyasini tortib oldi va uni o'ldirmoqchi bo'ldi. Haqiqiy ahvoldan xabarador bo'lgan zindonbonning unga rahmi kelib, qochirib yubordi. Shoh odamlari tutib olmasliklari uchun Axiy kiyimlari-yu ko'rinishini o'zgartirib, yalang'och bo'lib, gulxanlar atrofida devonalardek kezib yurdi. Farruxning qora palosini topib, uni ustiga yopib oldi-da, Farrux diyori tomon yo'l oldi. Bir qancha muddatda tog'-u dashtlarni bosib o'tib, Sarandib taxtiga yetib keldi. Uzoq safar uni holdan toydirgan edi, u bir vayronadan joy topib, faryod urgancha yiqilib qoldi.

Farrux Halabga qilgan safaridan qaytgach, Axiy ishini o'ziga odat qilib olib, katta bir mehmonxonona qurdirgan, g'arib-u musofirlar u yerdan o'ziga najot topardi. Shoh goh-goh ot minib, shahar atrofini kezar va muhtoj bechoralarni topsa, ularga mehribonlik ko'rsatardi. Axiy bu shaharga kelib, vayronada yiqilgan kuni ham Farrux shu maqsad bilan shaharda kezib yurardi. Bir vayronaga ko'zi tushgan shoh qora palos yopinib yotgan behol odamni ko'rib qoldi-da, o'zining Halabdagi ahvolini eslab: «Bu g'arib kim ekan, qanday mashaqqat bilan u bu yerga kelib qoldi

ekan?» – deb o‘ylar ekan, palosni tanib qoldi-da: «Ey g‘arib o‘rningdan tur», – deb unga murojaat qildi. Axiy uyg‘onib, boshini ko‘tardi-yu, shohni darrov tanidi. Farrux ham uni tanib, otidan oh tortib tushdi-da, ikkovlari quchoqlashib ketdilar. Zor-zor yig‘lashib, bir-birlaridan hol-ahvol so‘rashishga boshladilar. Shoh a‘yonlari-yu sipohlar bu uchrashuvdan hayratda edilar. Keyin barcha shoh saroyi tomon yo‘l oldi. Farrux Axiy qilgan ishni eslab, avval uni hammomga yubordi. Axiy u yerda yo‘l changlaridan poklangach, o‘ziga tayyorlab qo‘yilgan qimmatbaho kiyimlarni kiygach, mulozimlar uni shoh qoshiga olib keldilar. Farrux aziz mehmonga atab shohona bazm uyushtirdi. Ziyofat bir necha kun davom etdi. Bir kuni shoh bor davlat arkonlarini to‘plab, Axiyning Halabda o‘ziga ko‘rsatgan behad yaxshiliklarini so‘zlab berdi. Saroy ahli bu g‘aroyibotlarni eshitib, xojaga ofarinlar aytdilar, oyoqlarini o‘pib, ehtirom izhor qildilar. Shoh dediki: «Men podsho bo‘lsam ham, xojaning qilgan yaxshiliklariga munosib javob bera olmayman. Mening qarindoshlarim ichida iffatli bir qiz bor. O‘sha go‘zalni xojaga nikohlab berishni istayman. U o‘z juftini meni deb taloq qilgan edi, shu singlim endi unga juft bo‘lsa, men baxtiyor bo‘lardim».

Bu so‘zlar barchaga ma‘qul bo‘ldi. Shundan so‘ng shohona to‘y boshlandi. Shoh Axiyga mehribonliklar ko‘rsatib, bor-yo‘g‘ini, hatto o‘z mamlakati ixtiyorini unga taqdim qildi. Xutba o‘qilib, shoh o‘z singlisini Axiyga nikohlab bergach, xojani kelin o‘tirgan uyga boshladilar. Xojaga bu yerdagi barcha narsalar: osmono‘par qasr, darvoza-yu eshiklar, naqshlar – barchasi tanish bo‘lib ko‘rin-

di. Kelinning uyiga oyoq qoʻygan zamon barcha xalq tashqari chiqdilar. Kelin oʻz yuzidan pardani olgach, ikkovlari bir-birlarin koʻrib, oh-u faryod urishib, behush boʻlib yiqilishdi. Oʻzlariga kelishgach, koʻzlaridan yosh toʻkib, yana behush boʻlib yiqilishardi.

Hijron iztirobi taskin topgach, xoja oʻz dilbaridan: «Men hayratlanganimdan oʻzimga kelolmayapman. Bu holatni oʻzing tushuntirib bergin», – deb soʻradi. Shunda parivash xojadan ayrilganidan soʻng boshiga tushgan voqealarni, shoh Farruxning iltifoti-yu muruvvatini Axiyga mufassal soʻzlab berdi. Shundan soʻng ikkovlari baxt nashidasini sura boshlashdi. Ikkovlari ham oʻzlarini Halabdagi uylarida yurgandek his qilishardi. Axiy zarbof toʻn kiyib shoh yonida tursa ham, uyga kirganida safardagi qora palosga oʻranib yurardi. Qora polosni kiyib olgan Axiy: «Bor yaxshiliklar shu palos tufayli yuz berdi, uni tashlab yuborsam toʻgʻri boʻlmaydi», – deb shu kiyimda ibodat qilardi. Uning bu ishini koʻrgan shoh ham qora kiyim kiyib yuradigan boʻldi, shoh shu yoʻlni tutgach, xalq ham qora kiyishni odat qildi.

Bu afsonadan xushhol boʻlgan shoh Bahrom musofirning qayerlik ekani, ajdodlari kimligini surishtirdi. «Mening vatanim Hindiston, oʻzim Axiy avlodidanman, bu yerga koʻnglim amri bilan keldim, muddaom esa shohga xizmat qilmoqdir», – deb javob berdi. Shoh uni muhtojlikdan xalos qilib, oʻz saroyidagi xos nadimlik mansabiga tayinladi. Hikoyadan shod boʻlgan shoh yaxshi kayfiyat bilan uyquga ketdi.

Yakshanba kuni quyosh o'zining zarxal bayrog'ini ko'targach, osmon zarbof kiyimini kiydi. Ko'kning kelini to'nini zarkash qilib, oy yuzli go'zaldek chiqib keldi. Shoh Bahrom ham quyosh misoli boshidan oyog'igacha oltinga g'arq bo'lib, quyosh kabi behad oltinlar sochib, sariq gumbazni manzilgoh qildi. Rum shohining qizi sariq oltin ichidagi quyosh monand bo'lib, oltin qadahdagi sarig' mayni shohga tutdi. Qadahga qadah ulanib, saroy ahli oqshomga qadar bazm qilishdi. Qorong'u tushgach, barcha tarqalib, rumlik go'zal o'z pardasidan o'rin oldi. Zarrin taxtda orom olayotgan shohning uyqusi kelmay, kechagidek yo'lga chiqib biron musofirni topib keltirishni, uning afsonasi yoki boshidan kechirganlarini eshitish istagini bildirdi. Mulozimlar yo'lga chiqishib, tez-tez yurib borayotgan bir yo'lovchini to'xtatishdi-da, shoh xohishini unga aytishdi, u rozilik bildirgach, qasrga, Bahrom huzuriga olib kelishdi. Shohni uzundan uzoq duo qilgach, musofir o'z hikoyasini boshladi.

Ikkinchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofir hikoyati

Shoh Jamshidning zamonida Rum mamlakatida mohir bir zargar yashardi. Uning nodir ishlari xalqqa ma'lum edi. Shoh saroyida xizmat qiluvchi bu zargar oltin-kumushning soflik darajasini aniqlovchi sohib iyorlik hamda xazinadorlik vazifalarini bajarardi. Kondan olingan har oltin-u kumush uning oldiga olib kelinardi. Shu hunari tufayli uni Zaydi zahhob deb atashardi. U

tabiblik, muhandislik bilan ham shug'ullanardi. Tun-u kun shohning yaqin suhbatdoshi ham, poytaxtning asosiy tabibi ham u edi. Zaydning kunlari aysh-u ishrat bilan o'tar, shoh molini o'z moli hisoblar, lekin omonatga insofsiz bo'lib, shoh mulkiga xiyonat qilishdan ham toymasdi. U ko'p hunarlarga mohir bo'lgani uchun shoh ko'p yaxshiliklar qilib turar, Zaydni maqtagani-maqtagan edi. Hech kim uning aybini ayta olmas, biron gunohi shohga oshkor bo'lganida ham, unga e'tibor bermasdi. Mabodo e'tibor qilsa, Zayd o'z hunarini ishga solib, ajoyib asbob-uskunalar yasab, shohni tezda jahlidan tushirardi. Yuz xil makr-hiyla bilan shohni aldamay turolmasdi.

Bir kuni Zayd shoh huzuriga kirib, shunday dedi: «Olampanoh, shohning boshqa shohlardan farqi, avvalo, uning taxtidadir. Ko'p shohlarning taxti yog'ochdan yasalgan, sizniki ham shunday bo'lib, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, xolos. Aslida siz kabi baxtiyor shohlar oltindan yasalgan taxt ustida o'tirishlari kerak. Bunday taxt turgan maskan ko'zni ham ravshan qiladi. Xazinangizda oltin juda ko'p bo'lib, miqdori kundan kunga ortib bormoqda. Bu oltinlarning xazinada yotishidan hech qanday foyda yo'q. Bu yerda tursa, foydali ham bo'ladi, shohga o'zgacha savlat ham beradi». Bu so'zlar shohga ma'qul kelib: «Bu ishning xayolingga kelishi yaxshi bo'libdi, endi tezda ishga kirishib, o'z hunaringni ko'rsatgin», – dedi. Zayd bu taxtni yasash uchun ikki ming botmon oltin kerak bo'lishini aytganida, shoh rozi bo'ldi. Usta bu oltinlarni olib, o'z ishxonasiga eltib, ishga kirishdi. Zayd tun-u kun harakat qilib, taxtni bir yilda bitkazishga tirishardi. Shu fursat ichida taxt tayyor bo'ldi.

Bu g'aroyib taxt sakkiz poyali bo'lib, to'rttasi yuqoriroqda, yana to'rttasi pastroqda edi. Pastdagi to'rt poyada to'rtta gapiradigan to'ti, baland poyalardan esa to'rtta tovus o'rin olgan edi. Dur-ula'llar bilan bezatilgan bu taxtning zinasi ham sakkiz poyali bo'lib, shunday ishlangan ediki, shoh taxtga chiqmoqchi bo'lganida, u poyalar pasayib ustma-ust taxlanar, qadam bosgach, u poyalar ko'tarilib, shoh taxt ustiga chiqar, o'tirganida esa to'rt to'ti: «Shoh o'z maqsadlariga yetsin, bu taxt unga abadiy bo'lsin», deb gapirardi. Shu payt to'rttala tovus ham patlarini yoyib, Humo qushi kabi shoh boshiga soya solardi. Shoh qaysi tomon yurmoqchi bo'lsa, taxt salgina ishorat bilan yura boshlardi. Odamlarning «taxti ravon» – yuruvchi taxt deganlari shu bo'lsa kerak.

Ushbu taxt tayyor bo'lgach, shoh katta bir bazm uyushtirdi. O'z o'rniga chiqib o'tirgan shoh mohir ustaga ko'pdan ko'p sovg'alar berib, uning obro'-e'tiborini yanada ko'tardi. Lekin Zaydning qilmishlaridan xabardor bo'lgan ba'zi hunarmandlar taxtni faqat oltindan yasalishi kerak bo'lgan holda oltin bilan birga kumush ham ishlatilganligini bilardilar. Firibgar usta esa shoh o'zining xiyonatini sezib qolganida ham bu ajoyib taxtni buzib tashlamasligiga ishonardi. Dushmanlarining yomon maqsadlarini anglagan Zayd qo'rqayotgan bo'lsa ham, shohning o'ziga bo'lgan e'tiboriga ishonardi. Bu payt dushmanlari sirni shohga yetkazish yo'lini o'ylab topishdi. Taxt ustidagi to'tilarga o'xshash ikkita to'ti topdilar-da, ulardan biriga: «Taxt qalbakidir», ikkinchisiga esa «Ustasi xiyonatchidir», – deb gap o'rgatdilar. Taxtni asrab turuvchi kishiga ko'p pul berib, o'zlariga

sherik qilib oldilar-da, erta tong mahali ikki to‘tini almashtirib qo‘ydilar.

Ertalab shoh taxtga chiqqan chog‘da o‘rgatilgan to‘tilar haligi so‘zlarni aytdilar. Shoh bundan hayron bo‘lib: «Bu ishni kim qilgan bo‘lsa ham, u Zayd ishidan xabardor odamdir. Ustadan qo‘rqqanidan uning aybini qushlar tili orqali menga yetkazgan. Bu ishning haqiqatini aniqlash esa juda oson», – degan fikrga keldi-yu, qo‘liga egov olib taxtning bir poyasini ozgina egovlagan edi, oltin tagiga kumush ishlatilgani ayon bo‘ldi. Bu xiyonatni bilgan shoh Zaydga bo‘lgan mehr iplarini uzib tashlab, uning mol-u dunyosini tortib olib, o‘zini zanjirband qildi-da, zindonga tashladi. Ushbu zindon og‘zi tor, lekin tubi keng bo‘lgan chuqur-dan iborat edi. Undan qochib ketish esa mutlaqo mumkin emasdi.

Zaydga har kuni ikkita kulcha bilan bir obdasta suv berishardi. Qalloblikka qo‘l urgan usta bir kuni zindonga tashlanishi mumkinligini ham o‘ylab, oldindan tayyorgarlik qilib qo‘ygan, ya‘ni ko‘ylagi ostida ichiga egov solingan xanjarni doimo o‘zi bilan birga olib yurar edi. «Zanjir har qancha og‘ir bo‘lsa ham, tushkunlikka tushmay, qutulish chorasini o‘ylab ko‘rishim kerak», – deb fikr yuritgan Zayd zindondan qochish yo‘lini topdi. U har kuni non bilan suvni olar ekan, nonni bir chekkaga qo‘yib, xanjari bilan tuproq qazib, olgan suvi bilan loy qilib undan zina yasar edi. Egov bilan oyoqlaridagi zanjirni kesib tashlagan usta nonning isi bilangina yashardi. Har kuni suvga intizor bo‘lib kutar, uni olgach esa zina ishini davom ettirardi. Kun sayin madori qurib borsa-da, zina ham har kuni balandlashib borardi. Bir

necha oy davomida shu xilda qiyinchilik tortgach, oxiri zina zindon og'zidagi tuynukka yetdi, uning ustiga esa og'ir bir tosh bostirib qo'yilgandi. Zayd xanjari bilan tosh tagini o'yib, odam sig'adigan teshik ochdi-da, chuqurdan chiqib qochdi. Shoh bilib qolsa, tutib olib o'ldirishi muqarrarligiga ko'zi yetgan Zayd tez-tez yurib Farang diyoriga yo'l oldi.

Zindonbonlar mahbusning qochib ketganidan xabar topishgach, bu voqeani shohga ham yetkazishdi. Uning qanday qilib zindondan qutulib ketganini anglagan hukmdor Zaydning makr-u hiylalaridan hayratga tushdi. Bu payt Zayd jonini qutqarish uchun faranglar mamlakati tomon to'xtamay yo'l bosar ekan, ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Bir necha kun mashaqqat chekib, Qustantaniya shahriga yetib bordi. Shahar tashqarisida bir butxona bo'lib, odamlar bilan gavjum edi. Uning ichiga kirgan Zayd hamma narsa oltin-u lojuvard bilan bezatilganini, zarkor toqlariga ko'plab oltin butlar qo'yilganini, hamma devorlari qimmatbaho toshlar bilan bezatilgani, baland po'lat eshiklari qulflari ham oltindan yasalganini, ular kechasi berkitilib, elning ibodat qilishi uchun ochilishini bilib oldi-da, butxonani boshdan oyoq aylanib chiqqach: «Bu yerda shuncha tekin oltin bor ekan-u, men bo'lsam shohning oltiniga ko'z olaytiribman», – deb o'yladi-da, o'zini butparast qilib ko'rsatib, kofirlar bajarayotgan ibodatlar-u rasm-rusumlarni oz fursatda o'rganib oldi. U kecha-kunduz ibodat qilar, har bir butga ixlosini izhor qilib, o'z e'tiqodining mustahkamligini namoyish etardi. Uning bu xil makkorligi butxona ahlini shaydo qildi, barchalari murid bo'lish istagini bildirib, uning amri bilan ibodat

qila boshladilar. Ko'p o'tmay Zaydning maqomi yanada ko'tarilib, butxona ixtiyori tamoman uning qo'liga o'tdi, eshiklarning kalitlari ham unga topshirildi. Shundan so'ng Zayd o'zi o'ylab qo'ygan makkorlikni amalga oshirishni boshladi.

U kechalari odamlar uyquga ketgan paytda seldek yugurib har tomonni kezib chiqar ekan, dengiz sohilidagi tog' ichida bir g'or borligini ko'rdi. Safar chog'ida bir-ikki dindoshi bilan do'stlashgan bo'lib, butparast bo'lgach, hamrohlari undan uzoqlashishgan edi. Zayd ikkovini izlab topdi-da, g'or ichini o'zlariga manzil qilishga buyurib: «Zargarlik uchun qanday asboblarni zarur bo'lsa, ularni tezda topib yashirin holda g'or ichiga olib kelinglar», – deb topshiriq berdi. Hamrohlari bu asboblarni keltirishgach, Zayd el uxlagan chog'ida g'orga kelib hamrohlari bilan birga ibodatxonadagi butlarga, lagan-u qandillarga o'xshaydigan shakllarni temirdan yasab, ustini oltin bilan qoplashar, rangli shishalardan javohirlar tayyorlashar, so'ng kechalari yashirincha butxonaga kirib, o'zlari yasagan buyumlarni birma-bir almashtirishar, oltin butlar-u asl javohirlarni, oltin lagan-u qandillarni esa g'orga eltib yashirishardi. Bir necha muddat shu xil ishlarni bajarishdi, butxona ahlidan hech kim bu makkorliklardan xabar topmadi. Bor oltin buyumlar shu tarzda almashtirib bo'lingach, Zayd butxona ahlidan o'zining vataniga qaytish uchun ruxsat berishlarini iltimos qildi. Ular bunday tabarruk zotning o'zlarini tashlab ketayotganiga oh-u faryod ko'tarishdi. Zayd esa: «Men ham sizlardan ajralishni istamas edim. Afssuski, onam vafot etib o'zidan ko'p mol-u davlat qoldiribdi, mendan boshqa voris yo'q. Borib u

mol-dunyoni qabul qilib olaman-u, yana butlar oldiga qaytib kelib, barcha boyliklarimni butxonaga sarflayman», – dedi. Butxona ahli uning oyoqlariga bosh qo'yib: «Sen o'z yurtingga eson-omon borib kel», – deyishib unga ko'pdan ko'p sovg'a-salomlar yig'ib berishdi. Zayd ularni olib, g'or ichidagi butlarni qoplarga joylashtirishga kirishdi. Har ikki butni bir qopga solar ekan, jami ellik qopni butlar bilan to'ldirdi. Oltin lagan-u qandillarni ham qoplarga solib, oralariga matolarni joylab mustahkamladi. Bir katta kemani kira qilib, g'or ichida to'plangan barcha boyliklarni yashirin ravishda kemaga tashittirdi. Butxona ahlining sovg'alarini ham kemaga orttirdi. So'ng hammaning ko'nglini shod qilib, qavmi bilan xayrlashdi. Ayriliq o'tida kuyayotgan butparastlar uni quchoqlashib, zor-zor yig'lashardi. Zayd kema-ga qadam qo'yar ekan, ularga boqib: «Bir xat yozib butxonaga yashirib qo'ydim. Uni Lot buti oldidan topasizlar. Unda sizlar haqingizdagi gaplar bor. Barchasi sizlar uchun foydali», – dedi-da, kemani yurgizishga buyruq berdi. Kema ketib borar ekan, butxona ahli yig'laganlaricha xatni topdilar-da, ko'zlariga surtib o'qishga kirishdilar. Maktubda Zayd o'zi qilgan barcha ishlarni boshdan oyoq yozib qo'ygan edi. O'qiganlarning boshlari qotib, butxonadagi narsalarni ko'zdan kechirishgan edi, xatdagi barcha so'zlar rostligi aniq bo'ldi. Kofirlar orasida to's-to'polon boshlandi.

Bu payt Zayd dengizda o'z kemasi bilan yelib borardi. Bir necha kundan so'ng kema Rum mamlakati sohiliga yetib keldi. Rum shohi o'zining kezi-kezida qo'zg'ab, jismiga iztirob soladigan kasaliga chalinib, behol yotardi. Bu kasal xuruj qilgan oldingi yillarda unga Zayd o'zi tayyorlagan

doridan berib tuzatardi. Tabib qochib ketgach, bir necha fursat o'tib, shu kasallik shohni yana azoblay boshladi. Unga hech kim davo topa olmas, shohning dardi esa tobora kuchayib borardi. Zaydga bergan jazosidan pushaymon hukmdor og'riq kuchaygan paytda o'z tabibini esga olardi.

Zayd sohilga chiqqach, bu voqeani eshitdi va barcha mollarini uyiga eltib qo'ydi-da, shahar ichida yashirincha yurib, qochish paytida o'zi kesib tashlagan zanjirlarni qo'l-u oyog'iga soldi-yu, o'sha chuqur zindon ichiga tushib yotaverdi. Zindonbon Zaydning paydo bo'lib qolganini bilib qolib, tezda shohga xabar yetkazdi. Buni eshitgan hukmdor o'lik qayta tirilgani kabi xursand bo'lib ketdi va: «Uni tezlik bilan huzurimga olib kelinglar», – deb buyurdi-da, unga mo'l-ko'l ehsonlar, qimmatbaho kiyimlar va o'zining otini yo'lladi. Bularni Zaydga olib kelishganda, u zindondan chiqmay: «Men shoh g'azabi tufayli shu choh ichida juda ko'p azob chekdim. O'sha xiyonatni qilganim uchun undan o'n marta ko'proq oltin to'layman. Yana bir arzim shuki, shoh faranglarning butlarini sindirmoq, din ishida o'z ko'nglini qondirmoqchi bo'lib, ikki marta qo'shin tortdi-yu, o'z maqsadiga erisha olmagan edi. Men ularning butlarini parchalab, oltinlarini shoh xazinasiga topshiraman, bor javohirlarimni uning boshidan sochaman, og'ir dardini tezda tuzataman. Faqat bir shartim bor: shoh dushmanlarim oyog'iga zanjir solib mening oldimga olib kelsin-da, murodimga yetkazsin. Chunki men hozir shoh saroyiga boradigan bo'lsam, ular menga qasd qilishlari aniq. Shuning uchun bu maqsadimga erishmasam, chohdan chiqmayman», – deb javob qildi. Bu gaplarni

shohga yetkazishdi. Zaydning dushmanlari ko'p jinoyatlar qilishganidan shohning ko'ngli qolib, ularni zindonga tashlamoqchi bo'lib turganida kasallikka chalilib, bu maqsadini unutgan edi. Endi Zaydning so'zlari bahona bo'lib ularning barchasini qo'lga olish va zindonga tashlashni buyurdi. Zayd chohdagi o'z o'rnini ularga bo'shatib berdi-da, tashqariga chiqib, shoh yuborgan rang-barang kiyimlarni kiydi, saroyga borib, shoh ostonasini o'pib, ehtirom ko'rsatdi. So'ng hukmdor o'tirgan xonaga kirib, yerga tuproq kabi bosh qo'ydi. Shoh uni quchoqlash uchun taxtiga chiqardi-da, bag'riga bosib holini so'radi, keyin unga qo'lini uzatdi. Odatga muvofiq Zayd uning qo'lini o'pgach, tomir urishini ko'rdi-da, kasaliga qanday davo qilishni anglab, to'rt-besh kundayoq uni dardidan xalos qildi. Shoh butunlay tuzalib ketgach, o'zi olib kelgan oltin-u javohirlarning barchasini uning oldiga to'kdi. Hayratda qolgan shoh ko'zlariga ishonmasdi. Keyin: «Bo'lgan ishlarni hikoya qilib bergin», – deb so'radi. Zayd barcha voqealarni so'zlab berdi. Shoh uning hikoyasidan mamnun bo'lib, keltirilgan boyliklarni xazinaga yo'lladi va unga shuncha ko'p ehson berdiki, bu boyliklarni sharhlashning o'zi oson emas. Shoh hukmi bilan butlarning har birini yuz pora qilib, din ahliga taqsimlab berildi. Shundan so'ng shoh barchaga oltinrang kiyim kiyib yurishni buyurdi. Chunki oltin za'faron kabi elni kuldiradi. Bir necha vaqtdan so'ng shoh buyrug'i bilan zindon ahli ham ozod qilindi. Qutulib chiqqanlar ham el kiyimiga boqib kula boshladilar. Ularning ustidan esa xalq qah-qahlab kulardi.

Bahrom bu hikoyani eshitgach, shod bo'lib, musofirning vatani-yu ajdodlarini so'radi. «Vatanim – Rum mulki, ishim tib bilan hikmat.

Men aytgan Zaydning o'g'li menga ota bo'ladi. Bu tomon kelishimdan maqsad esa sening xizimatingni qilishdir. Shukrililloh, bu maqsadimga yetdim», – deb javob berdi musofir. Shoh bularni eshitgach, uni nadim etib tayinladi, hikoyadan huzur topgan Bahrom uyquga ketdi-da, quyosh chiqquncha ko'z ochmadi.

* * *

Dushanba kuni tong otishi bilan shoh Bahrom bo'ston sarvi kabi rayhon rang kiyimlar kiyib, yashil qasr sari qadam tashladi. U yerda shohni yashil rangli kiyim kiygan mahbuba kutib oldi. Qizning o'zi yashil sabzaga, tabassumi esa shakarga o'xshardi. U noz bilan shohga yashil jom tutdi. Bahrom o'z dilbari qo'lidan dam-badam zumrad rangli qadahni olib ichar ekan, ko'zini uyqu bosdi, lekin xayollar ichida qolgan hukmdor yana uxlay olmadi, shunda mulozimlar oldingi kunlardagidek yo'lga tushib, biyobonda ketayotgan bir musofirni shoh huzuriga boshlab keldilar. Bahrom: «Parda tashqarisida o'tirib, afsona boshlasin», – deganidan so'ng musofir avval olampahoga madh-u sano aytdi-da, so'ng duo qilib, o'z hikoyasini boshladi.

Uchinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir aytgan afsona

Bundan ancha muddat avval Misrda bir baddavlat va saxiy xoja yashardi. Mol-u dunyosi serob, o'zi hojatbaror va mehmonnavoz bo'lgan bu boyning jahonda tengi yo'q, barcha fazl-u hu-

narlarga mohir farzandi bo'lib, jamoli Yusufi misriydek go'zal, moli-dunyosi ham Misr shohinikidek behisob edi. Otasining moli ham uning ixtiyorida bo'lib, ilm-u fazl ahli uni g'oyatda hurmat qilishardi. Uning oti Sa'd bo'lib, otasi uni juda ham e'zozlar edi. Uning hashamatli bir mehmonxonasi bo'lib, u yerga tanishlar-u begonalar yig'ilishar, musofirlar kelib qolsa, Sa'd ularni turli ne'matlar bilan siylab, murodlariga yetkazar, kasb-u korlari, ko'rgan-bilganlarini surishtirib, o'ziga noma'lum narsalarni eshitsa, ularni o'rganib olishga intilardi. Shu usul bilan xilma-xil ilmlarni kasb etgan, hatto sehr-u nayrangni ham, kimyo bilimini ham o'rganib olgandi.

Bir kuni yashil kiyimlar kiygan ikki musofir shu manzilga kirib keldi. Sa'd ularni ochiq chehra bilan kutib olib, ziyofat qildi. Mezbanning o'zlariga ko'rsatayotgan hurmat-u saxovatini ko'rgan mehmonlar hayratda edilar. Bir kuni Sa'd ularni xursand qilish uchun bazm tashkil qildi-yu, may ichib shirakayf bo'lgan ikki musofir bilan xilma-xil mavzularda suhbatlasha turib: «O'zingiz qaysi mamlakatdan bo'lasizlar, nima sababli yashil libos kiyasizlar?» – deb so'rab qoldi. Mehmonlar: «Vatanimiz juda go'zal bo'lib, oti Shahrisabz yoki Kashdir. Hammayoq yam-yashil, o't-u o'lanlari ham suvi rangida. Ana shu diyori yurtimiz bo'lgani uchun yashil rangli kiyim kiyish odatimizdir», – deb javob qildilar. «Endi o'z hayotingiz davomida ko'rgan ajoyib hodisalardan gapirib bersanglar», – deb iltimos qildi mezbon. Mehmonlardan biri so'zga kirishib, shunday dedi: «Bizning diyorimiz tomonda bir ajoyib o'lka bo'lib, uni odamlar Kitvar deb atashadi. U yerda baland bir butxona mavjud

bo'lib, ichi-yu tashqarisi turli-tuman jonivorlar suratlari bilan to'la. Biron kishi u butxona ichida kechasi bilan qolib uxlasa, albatta, bir tush ko'radi, tushda uning oldiga g'alati qiyofadagi ikki surat kelib, uning yuziga ko'zlarini tikib turib, bittadan gap aytadi. Biri uyqudagi kishining kelajakda ko'radigan yaxshiliklari haqida xabar bersa, ikkinchisi uning boshiga keladigan ranj-u alamlar haqida so'zlaydi. Musofir ularning so'zlarini eshitishi bilanoq uyqudan seskanib uyg'onadi-da, o'rnidan tura solib yaxshi ish sari shoshiladi, yomon ishdan esa o'zini himoya qilishga intiladi».

Birinchi musofir shu so'zlarni aytgach, ikkinchisi davom ettirdi: «O'sha butxona ichida yorug' yuzli bir mo'ysafid pir ham o'tiradi. Kim tushida ko'ringan ishlarga yo'l topolmasa yoki mashaqqatga chorasi bo'lmasa, u pir bu ahvoldan xabardor bo'ladi-da, o'sha ondayoq unga tadbir ko'rsatadi. Shart shuki, tush ko'rgan odam bu pir oldiga borib, o'z holini unga bayon qilishi va u ko'rsatgan maslahatlarga amal qilishi zarur».

Bu afsonani eshitgan Sa'd o'sha ibodatxonaga borib, aytilgan sirlarni o'z ko'zi bilan ko'rish orzusunda hushidan ayrildi. Kechasi bilan savdoyi bo'lib yotdi-da, oxiri Shahrisabz tomon safar qilishga bel bog'ladi. Tong yorishgach, otasi oldiga borib, o'z muddaosini bayon qildi. Xoja uni o'z orzusidan qaytarishga har qancha harakat qilmasin, foyda bermadi. So'ng yig'lab, o'g'li g'amida oh urdi-yu, uni Tangriga topshirdi. Oldiga bor mol-u pullarni to'kib: «Ko'ngling istaganicha ol», – deb murojaat qildi. Sa'd safar uchun lozim bo'lgan narsalarni tayyorlashga buyurdi. Ishchilar o'n kun o'tib tinim bilmay ishlab, nihoyat, safar hozirligini tugatishdi.

Shohona bu karvonda qator-qator nor tuyalarga ortilgan behisob oltin-u kumushlar, kamarlari laʼl-u gavharlar bilan bezatilgan toʻrt yuz quldan tashkil topgandi. Safar uchun zarur boʻlgan hamma narsa muhayyo edi. Saʼd ikki yashil kiyimli musofirni oʻziga hamroh qilib, ikki koʻzlaridan yoshlarini toʻkib, otasi bilan xayrlashdi. Karvon manzilga tezroq yetib borish uchun har ikki manzilda bir toʻxtab borardi. Uning yashil kiyimli hamrohlari Saʼdga Xizr misoli yoʻl koʻrsatib borishardi. Ancha muddat biyobonni bosib oʻtishgach, istagan manzillariga yetib kelishdi. Ikki musofir Saʼdni oʻzlari tasvirlagan butxona tomon boshlashdi. Ibodatxona yaqinida otlaridan tushishgan Saʼd va hamrohlari, xushhavo joyda oʻtirib ovqatlanib olishgach, butxona ahliga koʻp ehsonlar tarqatdilar. Soʻng Saʼd butxonani tezroq koʻrishga shoshildi-da, ikki hamrohi bilan ichkari kirdi. U sayr qilib, hamma yoqqa nazar tashlar ekan, har qadamda hayratlanardi. Qorongʻu tushgach, Saʼd yana butxona ichiga kirishga intildi. Bundan xabardor boʻlgan karvon ahli odamlar bunday qiziqishidan koʻp zarar koʻrganlarini aytib, uni qaytarishga harakat qilishdi. Lekin havasi zoʻrayib borayotgan yigitga bu xil maslahatlar yoqmasdi.

Shundan soʻng Saʼd butxona ichiga kirdi va uning bir chekkasida uxlashga joy topdi. Barahman eshikni mahkam qilib berkitgach, uning koʻnglini vahm bosib, chiqib ketishni ham oʻyladi-yu, lekin oʻz maqsadiga yetishni afzal bildi. Uning koʻziga tongga qadar uyqu kelmadi, erta tongdagina koʻzlari yumilib uxlab qoldi. Tushida unga shu ibodatxona koʻrindi, oʻzi shu yerda sayr qilib yurganmish. Bir mahal oʻzi qushga oʻxshagan, lekin yashil rangli ikki yoqimli surat

sayrab baland ko'tarildilar-da, uchib kelib, uning boshidan aylanib o'tishgach, oldiga qo'nishdi. Biri: «Sening nasibang yuzi sharq quyoshidek go'zal pari bo'ladi», – dedi. Ikkinchisi esa qo'rqinchli qilib: «Seni dev asir qilib ikki oyog'ingga zanjir soladi», – deb aytdi. Bu ajoyib ishlardan hayratga tushgan Sa'd seskanib uyg'ondi-yu, fig'on chekib, har tarafga boqar ekan, tong otib, har tomon yorishib ketganini ko'rdi. O'rnidan tura solib, eshik tomon yugurgan edi, barahman eshikni ochdi. Sa'd tashqari chiqdi-da, o'zi haqida g'am chekisha-yotgan hamrohlarini ko'rdi. Tushida yuz bergan hodisalardan savdoyi bo'layozgan yigit kechgacha beqaror bo'lib, fig'on-u zor qildi. Mulozimlar yashil kiyingan musofirlarga murojaat etib: «So'zlaring rost bo'lib chiqdi, xojamiz telba bo'lib qoldi, endi o'zingiz chora topib bering», – deyishdi. Ikkinchi musofir esa: «Men senga Pir chorasini topib bera-di, degan edim-ku. Tura qol, uning oldiga boraylik, shoyad dardingga davo topilsa», – dedi. Sa'd ham-rohlari bilan birga pirni izlashga tushdi. Baland tog' tomon yo'l olishib, tog' ichidagi qorong'i g'or ichiga kirdilar. G'or ichida bir ayvon bo'lib, uni tog' qazuvchining teshasi hozirlagan edi. Uning to'rida mo'ysafid pir o'tirardi. Uning tanasi sochlari ichida yashiringan, go'yo jahon tun zulmati ichida edi. Ko'ngli ichida ilmlar yashiringan, misoli kon ichidan javohir koni o'rin olgandek edi. Yetti yuz yildan oshiq umr ko'rgan, hayotdan umidi ham, qo'rqinchi ham qolmagan bu kekxa otini xalq Paylaqus hakim deb atardi. Kirgan odamlar hayratdan qotib, qo'llarini qovushtirganlaricha jim turishardi. Ular kirib kelganlarini ko'rgan pir sochlarini ochib, yuzini ko'rsatgach, yuzining

nuri davronni quyosh nuri yoritgandek ravshan qilib yubordi. U mehmonlarga iltifot ko'rsatdi. Pirning shukuhini ko'rgan musofirlar tufroqqa yuzlarini qo'yishdi. Pir Sa'dga boqib: «Ey baxtiyor farzand, jamolingni ko'riboq barcha holingni fahmlagan edim. So'zlaringni o'zing boshidan oxirigacha aytasanmi yo men aytib beraymi?» – deb so'ragan edi, mehmon yer o'pib: «Hikmatni Luqmon aytgani yaxshiroq», – deb javob berdi. Donishmand tabassum bilan boshini egib yoqimli so'z boshladi-da, Sa'd bilan bo'lib o'tgan barcha voqealarni birma-bir aytib: «Yuzingni ko'rish orzum edi. Tushing ta'birini ham aytib beraman va uni amalga oshirishga ham tadbir ko'rsataman, lekin senga hozir aytishim kerak bo'lgan gaplarim bor», – dedi-da, o'zining azalda shu butxona peshvosi bo'lganini, bir kecha shu yerda qolib tush ko'rganini, undan ko'ngliga g'ulg'ula tushib, har qancha izlasa ham to'g'ri ta'bir aytuvchilarni topolmagani, oxiri bir Xizrga o'xshagan mo'ysafid maslahati bilan «Jomospnoma» kitobini o'qib, u yerda o'z taqdiri yozilganidan xabar topib, yuz yildan beri shu makonda ibodatxonada ko'rilgan tushlarga ta'bir aytish bilan shug'ullanayotgani, kitobdagi ta'birga ko'ra Sa'd ismli yigitni kutib intizor bo'lgani, nihoyat, uning visoliga erishganini batafsil so'zlab bergach, keyin o'z mehmoni tushini izohlab, birinchi qush bashorat qilgan pari yashil kiyinganlar shohining qizi bo'lib, nihoyatda go'zal va shirinso'z ekani, uning baland bir qasrda yashashi, qasr atrofini uch osmono'par qo'rg'on o'rab turishi, oldingi qo'rg'onni Qatron degan dev sifat zangi qo'riqlashi, ikkinchi qo'rg'onda bir kuchli olim bo'lib, uning savollariga to'la javob

bergan insongina keyingi, sehrli qo'rg'onga o'tishi mumkinligini, u yerda esa sehr sirini fosh etish zarurligini aytdi.

Sa'd pirdan shuni ham bilib oldiki, malika vasliga mushtoq bo'lgan oshiqlarning qaysi biri ana shu uch qo'rg'ondagi to'siqlarning birontasida mag'lub bo'lsa, darhol qatl etilib boshi qo'rg'on kungirasi ustiga qo'yilar ekan. Shu paytgacha ko'plab boshlar kungiralar ustidan joy olgan ekan. Pir o'z so'zining oxirida Sa'dga boqib:

*...Lek sen hech nav' qayg'urma,
Vahm dashtig'a markabing surma.
Kim ani haq sanga nasib etmish,
Vasli topmoqqa vaqt ham yetmish.
Har ne qilg'umdurur sanga ta'lim,
Andoq etmak kerak sen, etmay biym», –*

dedi-da, bir necha so'zlarni aytib: «Bularni yodingda tutishing kerak», – deb tayinladi. So'ng cho'ntagidan bir munchoqni chiqarib, qo'lga tutqazdi, bir maktubcha yozib, uni ham Sa'dga topshirdi va «Endi tezroq yo'lga tush, bu ikki hamrohing senga rahbarlik qilishsin. Shahrisabz tomon yurib, yo'lda to'xtamay u diyorga yetgin. Shu payt ikki hamrohing shoh oldiga borib, sen haqingda unga so'zlab berishsin. Shunda shoh sening kimligingni bilgach, avval Qatron bilan jang qilishga buyuradi. Senga yozib bergan bir necha so'zimni tinmasdan takrorlab yurgin. Muhra-munchoqni og'zingga solib, uning suvi-ni dushmaning tomonga qarab tuflla. Shunda u so'zlar senga quvvat berib, dushmaningning quvvatini ketkizadi va uning uyqusini keltiradi. Zangini

magʻlub qilgach, birinchi qoʻrgʻonni egalladim, deb hisoblagin-da, ikkinchisiga qadam qoʻy. U yerdagi Masiho nafaslik piri komil oʻz soʻrovlarini boshlamay turib, xatni unga tutqaz. Uni oʻqigach, pir senga eʼzoz bildirib, ishingni bitkazadi, chunki u mening shogirdim va farzandimdir. Senga gʻamxoʻrlik koʻrsatib, afsunga qarshi chora topib beradi. Sehrlar ochilgach, sening barcha muroding hosil boʻladi», – dedi. Shu soʻzlarni aytgach, quchoqlab manglayidan oʻpdi-yu, shod boʻlib «Bizni obod qilding, obod boʻlgil, hoziroq oʻrningdan turib kunni kech qilmay yoʻlga tush va yurishda toʻxtay koʻrma», – dedi-yu xayrlashdi, pir shod boʻlganicha qolib, Saʼd yaxshi kayfiyat bilan yoʻlga ravona boʻldi.

Saʼd oʻz hamrohlari bilan vodiylarni tun-u kun bosib oʻtar ekan, nihoyat, Kash shahrining devorlari koʻrindi. Yashil kiyimli ikki doʻsti saroyga borib, shohga oʻz xojalari haqida soʻzlab, uning kamolot-u fazilatlarini maqtadilar. Shoh ularni yaxshi tanir edi, chunki ular aslida shohning mahramlari boʻlgandilar. Shuning uchun ularning soʻzlari chinligiga ishondi-yu: «Ertaga uni huzurimga olib kelinglar», – deb buyurdi. Ertasi Saʼdni oʻz saroyida koʻrgan shoh u bilan koʻrishib, hurmatini joyiga qoʻydi va oʻtirish uchun taxt oldidan joy koʻrsatdi. Shohona taomlar tortilgach, tanishlaru begonalar Saʼdning suhbatlaridan bahramand boʻldilar. Hamrohlari oʻz doʻstlarining muddaosini shohga aytgan edilar. Shu tufayli u Saʼdga: «Yoʻldan charchab kelgansan, bugun damingni olgin-da, ertaga qoʻrgʻon tomon borgin», – deb buyurdi. Saʼd yer oʻpib, oʻrnidan turdi va oʻziga ajratilgan manzilga borib, bazmni davom

ettirdi. O'zi yetishmoqchi bo'lgan mahbuba yodi bilan ancha may ichdi, kayfi oshib, yori ko'chasi tomon yo'l oldi. Hamrohlari mast bo'lib, uxlab yotar edilar. Sa'd sevimli dildorini ko'rish istagida qo'rg'on ichiga kirmoqchi bo'lib, devorlar atrofi-da mast holda goh turib, goh yiqilib kezib yurar ekan, uning ovozi eshitib qolgan zangi Qatron kelib tutib oldi-yu, avval o'ldirmoqchi bo'ldi, keyin kechasi bilan uni zanjirband qilib ertalab odamlar oldida o'z kuchini ko'rsatib, dushmanlarini qo'rqitib qo'yishga qaror qildi. So'ng uni qal'a tashqarisidagi g'or ichiga qamab, og'zini katta bir tosh bilan berkitib qo'ydi. Ertalab o'ziga kelgan Sa'd kecha yuz bergan ishlarni eslab, tushida ko'rgan qush so'zlarini yodiga keltirdi, so'ng kekxa pir bergan xatni o'qiy boshlagan edi, taniga quvvat kirib, qo'l va oyog'idagi zanjirlarni sindirdi-da, g'or og'zidagi toshni ham olib tashladi, xanjarini qo'lga tutganicha Qatron bilan jang qilishi kerak bo'lgan maydon tomon yo'l oldi. U yerda barcha hamrohlari ma'yus bo'lib turishardi, Sa'dni sog'-salomat ko'rib, ko'ngillari taskin topdi.

Jangohda bahaybat zangi o'zini shohlardek tutib, mag'rur turar, shoh qizi o'z otasi bilan qasrning maxsus maydonchasida o'tirib tomosha qilishar, chor atrof yuz minglab aholi bilan to'la bo'lib, barchalari Sa'd g'alabasiga tarafdor edilar. Zangi g'ordan o'z tutqinini olib kelish uchun ketgan chog'da maydonga Sa'd kirib keldi. G'orga kirgan Qatron o'z bandisini topolmay g'azablanib, maydonga qaytib keldi-yu, Sa'dga hamla qildi. Kuch-quvvatda ikkala pahlavon teng edi. Shu payt Sa'd pir bergan munchoqni og'ziga soldi-da, suvini zangining kiyimiga tufladi. Shunda

Qatronning ko'ziga uyqu kelib, u behol bo'lib qoldi. Sa'd zangini yerdan ko'tarib olib boshi ustida tutib turar ekan, xalq qiy-chuv qilib yubordi. Yigit raqibini boshi ustida aylantirib turib, yerga shunday urdiki, u tuproqqa naqshlangandek bo'lib qoldi. Tomoshabinlarning tahsin ovozlari osmon-u falakka yetdi. Shundan so'ng Sa'd «Yana nima qilay, aytinglar», – degan edi, mulozimlar uni donishmand olim tomon olib borishdi.

Birinchi qo'rg'onni bosib o'tgan Sa'd ikkinchi qal'aga kirib borganida, uni ko'rgan hakim hayrat bilan boqar ekan, yigit Paylaqus hakim yozib bergan maktubni uning qo'liga tutqazdi. Donishmand xatni ochib, ustozining otini ko'rdi-da, o'pib yerga bosh urdi. Ustozi o'zining ahvoli va Sa'dning muammolari haqida yozgan, xususan, uchinchi qal'adagi sehrni fosh qilishda yordam berishini iltimos qilgan edi. Alloma: «Zol deb atalgan u sehrni men yasaganman. U yerda bir timsol bo'lib, uning atrofida ko'zga tashlanib turadigan turli narsalar aslida mavjud emas. Sen u yerga borgach, qo'rg'on ichidagi zol-kampir timsoliga bir o'q otsang, maqsadingga erishasan», – dedi. Sa'd shoh oldiga yo'l oldi-yu: «Endi qaysi ishni bajaray?» – deb so'radi. Mulozimlar uni uchinchi qal'adagi kampir timsoli tomon boshladilar. Sa'd kirgach, orqasidan ko'plab odamlar tomosha qilish uchun ergashishdi. Maydonda bir kampir timsoli vahimali qilib ishlangan bo'lib, uning atrofida bir necha ajdaho og'zidan o't sochib turardi. Sa'd qo'rquv bilmay ildam yurib bordi-da, kampir ko'kragiga zarb bilan tepdi. Timsol o'z yeridan tebranib, keyin butun a'zosi birma-bir to'kilib tushdi. Uning ko'rinishi odamga o'xshagan bo'lib,

lattalarni bir-biriga yopishtirib yasalgan ekan. Atrofidagi ajdaholar ham qalbaki bo'lib, og'zidan otilayotgan o'tlar qizil ipak matolar ekan.

Sa'd sehrlarni yo'q qilgach, shoh qoshiga bordi. Hukmdor uni quchoqlab, yuzidan o'pdi-da, farzand deb qabul qilgani, o'zini ota sifatida bilishini aytib, «Yashil jannat» degan gulshanga boshladi. U yerda «Yashil qasr» degan qasr mavjud bo'lib, shu yerda to'y boshlandi. Unga Shahrizabzning barcha xalqi qatnashdi. So'ng farishta bilan pari quyosh bilan tong yulduzi kabi visolga yetishishdi. Oradan ko'p o'tmay, shoh olamdan ko'z yumdi-yu, shahzoda uning taxtini egalladi. Sa'd kiyimlari va toj-u taxtini yashil rangli qilgach, yashil kiyimli ikki do'stini vazir qilib tayinladi. Bo'ston sarviga o'xshagan gul yuzli mahbubasining barcha kiyimlari ham rayhon rangidagi ipakdan edi. Ikkovlari shodlikda g'am bilmay yashadilar, ularning adolatidan mamlakatu xalq ham xursand edilar. Yashil rang-bahor rangi, sabzayu o'tloqlar rangidir. Xizrnning abadiy hayotga erishganligi sababi ham uning shu rangdan nishon topgani bo'lsa, ne ajab!

Musofir o'z qissasini tugatgach, shoh Bahrom undan vatani va ajdodlarini so'ragan edi, u: «Men Shahrizabzning taniqli odamlaridanman, Sa'dning sulolasidan bo'laman», – deb javob berdi. Shoh uning kimligidan xabar topgach, shaharga voliy etib tayinladi-da qayg'ulari unutilib, uyquga ketdi.

* * *

Seshanba kuni tong otgach, shoh Bahrom gulrang kiyimlarini kiyib, gulgun taxt turgan gulgun uy ichiga kirib, gulgun qasrda may ichish istagini

bildirdi. Gulgun ipak kiyimli, gul yuzli sarvdek go'zal mahbuba shohni ta'zim bilan kutib olib, ikkovlari gulrang taxtga chiqib o'tirishdi-da, la'l qadahlarda gulgun may ichib, yuzlari ham gulgun bo'ldi. Kuni bilan bazm davom etib, qorong'i tushgach, shoh ko'zi maydan qizargan bo'lsa ham, uyqu kelavermadi. Mulozimlar har kungidek yo'lga chiqib, so'zga chechan bir musofirni boshlab kelishdi. Bahrom: «Parda orqasida o'tirib, boshidan o'tgan voqealardan gapirib bersin», – deb buyurgach, mehmon oldin shohga hamd-u sano aytib: «Shohning baxti behisob bo'lib, yuzi iqbol jomidan gulgun bo'lsin», – deb duo qilgach, o'z afsonasini boshladi.

To'rtinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning rivoyati

Bundan bir necha yillar muqaddam Dehli shahrida juda badavlat shoh hukmronlik qilar, uning mulk-u davlati, qo'shinidagi sipohlari behad ko'p ekan. Jo'na otli bu shoh o'zining saxovati bilan mashhur bo'lib, xalqini mo'l-ko'l mol-u davlat berib xursand qilar ekan. Yuzlab, minglab muhtoj odamlar uning ehsoniga sazovor bo'lgan ekan. Bir kuni bir mehmon shohga ajoyib bir ko'zguni sovg'a qildi. Uning ro'parasida o'tirgan har bir kishi rost so'zlayotgan bo'lsa, yuzi nurli bo'lib ko'rinar, yolg'on so'zlayotgan bo'lsa, yuzi qora tusga kirardi. Ko'p kishi ko'zguga boqib turib so'zlar ekanlar, shu haqiqatga guvoh bo'ldilar. Bu sovg'adan mamnun bo'lgan shoh mehmonga ko'pdan ko'p mol-u davlat berib xursand qildi. U bilan suhbat qilib turib: «Sen olamda ko'p o'lkalar-

ni kezib chiqqan, minglab odamlar bilan suhbatlashgan inson ekansan. Ayt-chi, menga o'xshagan saxiy kishini eshitganmisan yoki huzuriga borib xizmatini qilganmisan?» – deb so'rab qoldi. Bu savoldan gangib qolgan mehmon qanday javob berishni bilmasdi. «Ha» desa, shohning ko'ngli ranjishi muqarrar, «yo'q» desa, yolg'on gapirgan bo'ladi. Oxiri yolg'on bo'lsa ham: «Yo'q, ko'rmaganman», – javob qildi. Shoh: «Shu gapirog rostmi?» – deb so'radi, mehmon: «Ha, rost», – deb ta'kidladi. Shoh: «Unga haligi ko'zguni tutinglar», – deb buyurgan edi, mehmonning yuzi qora bo'lib ko'rindi. U xijolat chekib, nima deyishni bilmay turarkan, shoh: «Ey pokiza inson, sen men tufayli shu holatga tushding. Yolg'on so'zlaganing uchun yuzing shunday ko'rindi, endi rost gapirgin, shunda yuzing ham pok bo'lib ko'rinadi», – dedi. Mehmon: «Ko'rganman», – degan edi, shoh unga yana ko'zguni ro'para qildi, bu safar uning yuzi oq bo'lib ko'rindi.

Shoh mehmonga yana murojaat qilib: «Mendek saxovatpesha inson kim ekan, aytib ber», – deb so'radi. Mehmon: «Haqiqatni aytishdan boshqa choram qolmadi. Faqat mening uzundan uzoq hikoyamni bir o'zing eshitsang, durust bo'ladi, deb o'ylayman», – dedi. A'yonlar-u mulozimlar ularni yolg'iz qoldirdilar. Mehmon so'z boshladi: «Hindistonda jannat bog'idek go'zal bir shahar bor. U sening mamlakating ichida joylashgan bo'lib, xazinangga har yili mol yuborib turadi. Maqtovga arzirli bu shaharning nomi Taroz bo'lib, o'zi majoziy ishq kabi dilkashdir. Balki u yerda sen ham bo'lgandirsan, hech bo'lmasa, uning maqtovini eshitgandirsan?» Shoh: «U shaharni

ziyosat qilmagan bo'lmam ham, xalqdan vasfini eshitganman. Sen o'z hikoyatingni davom ettirib, ko'rganlaringni bayon qilaver», – deb buyurdi. Mehmon o'z so'zini shunday davom ettirdi: «Tarozi jannatmisol shahar bo'lib, tubi kabi daraxtlari osmonga yetay deydi. Kavarsimon suvlari har tomonda oqib turadi. Havosi jannat bog'idagi kabi jonparvar o'rmoni bog'dan ham yaxshiroq, u shaharda bog'-bo'stonsiz kishi yo'q. Har bir kishining bog'i go'zallikda betakror. Shoh adolati tufayli xalq boy yashaydi. Shahar-u ko'chalar jannatdek obod, uylari bilan odamlari qasrlar-u hurlarni eslatadi. Xalqining mol-dunyosi shunchalar ko'pki, boyligini qo'yishga joy topolmaydi.

Mana shu shaharda ajoyib bir yigit yashaydi, uning maqtovini mingta so'zamol ham aytib tugatolmaydi. Husnda osmon quyoshiga, lutf-u ehsonda hayot suviga o'xshaydi. O'zi yosh bo'lsa ham, ilm-u kamoloti cheksiz. Har bir fanni shunday mukammal egallaganki, ko'p olimlar unga mulozimlik qilishadi. Baxt yulduzi bo'lgan bu yigitning oti Mas'uddir. U har kuni gulzorda kezib, gulrang boda ichishni yoqtiradi. To gul bor ekan, gulzorda do'stlari bilan bazm qilishadi. Boshlaridan oyoqlarigacha gul sochishib, gul ichiga g'arq bo'lishadi. Gul fasli tugagach esa bazm gulrang qasrda davom etadi. Gulrang kiyimlar kiygan barcha odamlarning aysh guli ochilib, boshlaridan gullar sochiladi. Uning bazmi firdavs bog'iga o'xshaydi. Mening bu gaplarim unga xos fazilatlarining yuzdan birigina, xolos. Uning saxovatini esa men emas, yuzta Hotam tirilsa ham, aytib ado qilolmaydi».

Bu so'zlarni eshitgan shohning sabr-u qarori qolmay, o'sha sohibkaram yigitni ko'rib, uning

hayoti bilan tanishishga ahd qildi-da, saroy ahliga: «Men bir hafta haramda orom olib, may ichmoqchiman. Xizmat ahlini ham bir haftaga ishlaridan ozod qilaman, ular uylarida rohat qilib, shod bo'lsinlar», – deb farmon berdi-yu, haramini maxsus odamlarga topshirib, ularga zarur vazifalarni yukladi.

Jo'naning yerda tez yuruvchi bir ulovi bo'lib, uni «Sari us-sayr» deb atashardi. Bir haftalik yo'lni bir kunda bosib o'tishga qodir bo'lgan bu ulovga tez yurishda chaqmoq ham bas kelolmas, osmondagi qushlar ham unga yetolmasdi. Shoh unga mindi-da, yuz yog'ochlik yo'lga ikki kunda yetib bordi.

Taroz shahri behisht bog'iga o'xshab, tuprog'idan atir isi ufurib turar, o'z mehmoni tasvirlaganidan yuz marta go'zalroq edi. Shoh odamlardan so'rab, Mas'ud yashaydigan manzilni tezda topdi. Uning ro'parasida baland bir darvoza turar, uning oldidagi maydon esa xalq bilan to'la edi. Eshik oldida musofirlarni kutib olishga qo'yilgan xodimlar hozir turishardi. Ular Jo'nani musofir deb xayol qildilar-da, hol-ahvol so'rashgach, mehmonxonaga boshladilar. Otini otxonaga bog'lab, o'zini qasrga taklif etdilar. Mehmonxona bir qasr bo'lib, undagi barcha narsalar shohona ko'rinishga ega edi. Bu yerda Jo'naga orom berishdi-da, oldiga xilma-xil taomlarni tortishdi. Ko'p o'tmay mehmon qoshiga mezbon kirib keldi. Uning xulqu kamoli Jo'nani hayratda qoldirdi. Mas'ud so'zlarini tugatguncha, mehmon taomlanib bo'ldi. U o'z mehmonidan: «Mizojingiz boda tilaydimi?» – deb so'rab, so'ng boda keltirishni va bazm tayyorgarligini ko'rishni buyurdi. Qasr yonida bir hammom qurilgan

bo'lib, undagi hamma ashyolar qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, hovuzlarda suv o'rniga gulob tayyorlab qo'yilgandi. Mas'ud mehmonni hammomga taklif etdi. Shoh ham hammomga kirib, yo'l gardidan tozalanishni istab turgan edi. Mezbon taklifini qabul qilib, hammomga kirdi-yu, u yerdagi narsalarni ko'rib hayratlandi. Bunday hammom uning saroyida ham yo'q edi: zarhal toslar quyosh kabi yaltirar, kumushdan ishlangan dastalari hilolga o'xshar, lungilardan mushk-u anbar hidi taralar, ularni tikishda ip o'rniga zarrin iplar ishlatilgan edi. Xizmatchilar yangi ochilgan gulga, yo'q, yo'q, hammom ichidagi parilarga o'xshashardi. Bu yerda yo'l changidan forig' bo'lgan Jo'na hammomdan chiqar ekan, unga gulrang ipakdan tikilgan kiyimlarni kiydirishdi. Shu xil rangdagi kiyimlarni kiyib olgan Mas'ud bilan ikkovlari bazmgoh tomon yo'l olishdi.

Bazm jannatni, hur va soqiylar kavсар bilan bodani eslatishardi. Mas'ud o'z mehmonini o'tqazib, keyin o'zi o'tirdi. Majlis ahlining barchasi gul yuzli bo'lib, kiyimlari gulnoriy rangda edi. Mezbon hukm qilgan edi, xushbichim bir soqiy kelib, mehmonga gulgun boda tutdi. Qadahlar pay-paydarpay aylanar ekan, may majlis ahlining boshiga chiqdi. Shoh ham bodadan boshi qizib, ixtiyorsiz har xil gaplarni so'zlay boshladi. Uning to'xtovsiz so'zlashini ko'rgan mezbon ham hayron bo'lib qoldi. Jo'na unga qarab: «Ey baxtiyor yigit, qiyofang ham isming kabi mas'ud ekan. Men Hind mamlakatini kezib chiqqan odamman. Lekin Tangri shu qadar donish-u salohiyatni, muncha jam'iyatu rafohiyatni nasib etgan boshqa bir kishini ko'rmagan edim. Bularning barchasi-

ga qanday qilib erishding? Shu savolimga javob berib, mening hayratimin bartaraf aylagil», – deb iltimos qildi. Mas’ud unga: «Ey muborak yuzli aziz inson, savolingga javob berish mening burchimdir. Bularning barchasi Yaratganning ne’matlaridir. Bizning shohimiz olam ahli boshidagi Tangri soyasidir. U nihoyatda odil, o‘z adolati bilan olam ahlini hayratga solgan hukmdor. U adolatni qaror toptirib, zulm torlarini shunday uzib tashlaganki, natijada butun mamlakatda tinchlig-u omonlik hukm suradi. Yurtda tinchlik bor ekan, mamlakat xalqi ahillikda yashaydi, ilm-u hunar ham rivoj topadi. Boshqalarga qaraganda mol-dunyomning ko‘proqligiga esa ikki ishim sabab bo‘lgan deb bilaman. Biri Yaratganning shukrini ado qilmoq bo‘lsa, ikkinchisi shohni doimo duo qilmog‘imdir. Ana shu ikki ishdan g‘ofil qolgan odamlardan nimanani kutish mumkin?» – deb javob qildi.

Bu so‘zlar shohni shunday xursand qildiki, faryod urishiga oz qoldi. Uning ko‘nglidan Mas’udga bo‘lgan mehr joy oldi. Xushhol bo‘lganidan har xil voqealarni yoqimli, ravon qilib so‘zlab berar ekan, bazm ahlini lol qoldirdi. Mas’ud o‘z mehmonining fazl-u donishda zamonaning yagonasi ekanligini ko‘rib, unga jonini fido qilgisi kelardi. Har tarafga ketgan savdogarlardan biri shu kuni hisobsiz foyda bilan qaytib kelgan edi, Mas’ud mamlakatning bir yillik xirojiga teng bo‘lgan shu foydani o‘z mehmoniga tortiq qildi.

Mezbon bazmni yanada bezatish uchun: «O‘nta hur shodiyona kayfiyat bilan rahba (shodlik uylarining) eshigini ochsinlar-da, xaloyiq boshiga gullar sochsinar», – deb buyurdi. Kuz fasli bo‘lishiga qaramay, esib turgan shamol gullarni socha bosh-

ladi. Yasalgan barcha gullar yoqimli hid taratib, bazmni behisht gulistoniga aylantirdi. Mas'ud bir tomonga qarab imo qilgan edi, bir gul yuzli go'zal kelib, tabassum bilan quyoshdek porlab turgan bir jomni to'ldirib shohga tutdi-da, uyni quyoshdek yoritib yubordi. Mezbon shohga qarab: «Bu jomning xosiyati shundaki, bir to'lgandan so'ng, hech qachon maydan bo'shamaydi, u o'ng tomonga qarab aylantirilsa, ichgan bilan undagi may aslo tugamaydi, to'ldirilgach, chap tomonga qarab aylantirilsa, ozozdan ichilsa ham kamayib boradi. Buni yasagan olimlar unga ana shunday tilsim bog'lashgan». Shu zahotiyoyq uni sinab ko'rishgan edi, mezbon aytgan fikrlar tasdig'ini topdi. U jom shohni bodaparast ayladi-yu, ichmasdan turib mast bo'ldi. Mas'ud uni ham mehmoniga hadya qildi. Shoh shodlik ichiga sig'may undan may ichar ekan, aql-u hushini ham yo'qotdi. Bazm tugagach, barcha uxlab orom oldi. Tong otgach, gulgun qasrda yana kechagidek bazm boshlandi. Mas'ud sharofati bilan ajoyib bir soz va uni chaluvchi dilnavoz go'zal kirib keldi. Sozning nomi «chang» bo'lib, sozanda yuziga gulrang ipak parda yopig'liq turardi. Mas'ud: «Sozini qo'liga olib, yuzini ochsin-da, o'tirib chalishga kirishsin», – degan edi, hur o'tirib, pardasini yuzidan oldi-yu, elni aql-u hushidan judo qildi. Chang torlarining fig'oni o'tirganlarning jonini olgudek yangrardi. Hur va uning ko'yiga asir bo'lgan shoh faryod chekardi. Mezbon ularni ham shohga armug'on qilib berdi. Mas'ud shu tarzda tun-u kun Jo'naga xilma-xil narsalardan tortiq qilib turdi. Bu kun shu xilda o'tib kech bo'lgach, bazm ahli uyquga ketdi.

Ertasi kuni tongdan avvalgi ikki kundagidan ham a'loroq bazm boshlanib, may ichish, gul

sochish, chehralarni qizartirish davom etdi. Zeb-u ziyofat-u aysh-u ishrat oldingi kundagidan ko'proq edi. Saxovatli mehmon yana amr qilgan edi, bir mulozim tezda borib chaqmoqdan ham tezroq yuguruvchi, nomi «Gulgun» bo'lgan gulgun rangli bir otni keltirdi. Yurishi boshqa otlardan o'n marta tezroq bo'lgan bu ot bir kecha-kunduzda yuz yog'och yo'lni bosib o'tar ekan. Mas'ud bu otni ham shohga tuhfa qildi. Jo'na barcha sovg'alarga qaraganda bu otdan ko'proq xursand bo'ldi. Mezbon unga oldingi ikki kundagidek tortiqlar qilib, mehmonining ko'nglini oldi. Shom bo'lgach, bazm ahlining barchasi mast bo'lib uxlab qolishdi.

Ertalab bo'lgach, Jo'na ko'z ochishi bilanoq mezbon o'z mehmoni tomon shodlikka to'lib kirib keldi. Ikkovlari suhbatlashib o'tirisharkan, shoh Mas'udga qarab: «Ey go'zal chehrali do'stim, ko'nglimizni juda xursand qilding, sen qilgan mehmondorchilikni o'lguncha ham unutmaysan. Sendan ayrilish har qancha og'ir bo'lsa ham, ruxsat bersang, biz yo'lga tushsak», – deb qoldi. Ayрилиq so'zini eshitgan Mas'ud:

*Dedi: «Ey rahnavardi kor ogoh,
Ne hadis erdikim, deding nogoh.
Suhbating birla bor eduk xushhol,
Bizga hajring qilur mushavvash⁷ hol.
Xizmatingda gar ayladuk taqsir⁸,
Sen karam birla topmag'il tag'yir⁹.*

⁷ Mushavvash – tashvishli.

⁸ Taqsir – ayb.

⁹ Tag'yir – o'zgarish.

*Shod eduk mehrvash jamolingdin,
Mutamatti'¹⁰ chuchuk maqolingdin.
Necha kun tursang o'lg'abiz masrur¹¹,
Yo'qsa taqsirimizni tut ma'zur¹².*

Shoh unga o'z uzrini aytib, xayrlashdi-da, poytaxti tomon yo'lga tushdi. «Gulgun»ga mingan Jo'na o'sha kuniyoq Dehliga yetib keldi. Mas'ud shohga bergan in'omlarini o'zining ishonchli mu-lozimlaridan berib yubordi. Bir necha kundan so'ng bu tortiqlar ham shoh saroyiga olib kelindi. Shoh Mas'udning qilgan ishlaridan, son-sanoqsiz bergan sovg'alaridan hamon hayratda edi. Uni esiga olib gulrang to'n kiydi-da, gulgun jomga may quyib ichdi.

Taroz shahrida himmati past-u, mansabi yuqori bo'lgan bir odam voliylik qilardi. U Junpur degan shahardan bo'lib, oti Jaypur edi, o'z zulmi bilan Hind mamlakatida mashhur bo'lgandi. Uning ustidan Jo'naga ko'p shikoyatlar kelib tushgan bo'lib, shoh qancha-qancha gunohlaridan ham xabardor edi. Shuning uchun shoh: «Hozirning o'zida farmon yozib Mas'ud tomon yo'llanglar: Mas'ud Taroz shahriga voliylikni qabul qilib olsin», – deb buyruq berdi. Lekin bu farmondan oldin ushbu xabar Jaypurga yetib borib, uni iztirobga soldi. Saltanati qo'lidan ketgani, shoh adolatni qaror toptiradigan bo'lsa, o'zining ko'plab ayblari ochilishi va hukmdor uni jazolashi muqarrarligiga ko'zi yetgan zolim voliy Mallu degan o'zidan ham zolimroq noibini chaqirib, shoh farmoni haqida

¹⁰ Mutamatti' – lazzat, bahra olish.

¹¹ Masrur – shodmon, xursand.

¹² Ma'zur – kechirmoq.

maslahatlashib: «Endi bu farmonga qarshi qanday chora topamiz», – deb murojaat qildi. Mallu: «Bu ishlarning barchasiga sababchi Mas’uddir. Shohga uning saxiyligi haddan ziyoda ekanligi, elga qilayotgan yaxshiliklari haqida xabar yetib borganga o’xshaydi. Shundan keyin u Mas’udni sendan afzal ko’rib, sen aytgan farmonni e’lon qilgan. Uni yo’qotsak, hamma narsa o’zingda qolaveradi. Mas’udning o’limidan iztirobga tushgan shoh ham o’lib, mamlakat seniki bo’ladi», – deb javob qildi. Jaypur: «Bu ishni qanday qilib amalga oshiramiz», – deb so’ragan edi, Mallu: «Oldin unga o’zingni do’st qilib ko’rsatib, uyingga chaqirib mehmon qil, keyin uning uyiga ham bor, ikki orada do’stlik qaror topgach, u yog’ini menga qo’yib berasan», dedi. Jaypur bu maslahatdan xursand bo’lib, Mas’ud bilan yaqinlashishga kirishdi, yuz xil hiylayu nayrang ishlatib, sirdosh do’sti bo’lib oldi. Bir necha bor uyiga chorlab mehmon qildi-da, o’zining sadoqatli do’st ekaniga ishontirdi.

Bir kuni Mas’udning uyiga mehmon bo’lib borgan Jaypur shomgacha uni mast qildi-da, o’zi ham ko’p ichib, gulzor ichida yotib qoldilar. Bu holatdan Mas’udning xodimlari bexabar edilar. Bir pana joyda bekinib turgan Mallu bir necha hamrohlari bilan mezbenni bog’ ichidan topdilar-u qo’l-oyoqlarini mahkam bog’lab, bir muttahamga ko’tartirib yashirincha yo’lga tushdilar va Mas’udni qop-qorong’i choh ichiga tashladilar.

Tong otgach, Mas’udning mulozimlari o’z xojalarining g’oyib bo’lganidan ogoh bo’lib, hammayoqni izladilar-u hech qayerdan topolmadilar. Barchaning iztirobi oshib fig’on ko’tardilar. Voliy o’zini g’am chekayotgandek qilib ko’rsatsa ham,

bu voqeadan juda xursand edi. Yetti oshi berilgach, Mas'udni azob bilan chohdan tortib bir uy ichiga olib kirishdi, so'ng Malluning amri bilan uning kiyimlarini yechib, yalang'ochlab, ikki kishi ushlab turib, yana ikkitasi kaltaklashga tushdi. Mas'ud har qancha yolvorib, mol kerak bo'lsa, berishini aytsa ham, to'xtovsiz kaltaklashda davom etishardi. Ikkala yog'och sinib, ikkov kaltaklovchi charchagach, Mallu: «Urishni bas qiling, uni azoblab o'ldirishimiz kerak», – deb buyurgach, boshi va oyog'ini bosib turgan ikki zolim uni qo'yib yuborishdi.

Azob chekayotgan Mas'ud turib o'tirdi-da, dedi:

*Ki: «Gunohim nedur, musulmonlar!
Qilmadi buyla zulmi yoronlar!
Zulm-u bedod rasmidin qayting,
Gunohe aylagan esam, ayting.
Odami joyizul xato bo'lmish,
Bu xato barchag'a ravo bo'lmish.
O'tkaray har ne tarjumon desangiz,
Moldinkim desunki, jon desangiz».*

Lekin har qancha iltijo qilmasin, zolimlar parvo qilmay, uni yana bog'lab, o'sha choh ichiga tashladilar. Necha kungacha Mas'ud shu xilda azob chekdi. Yuzida rang qolmay, ko'z yosh to'kib, jonidan umidini uzgan begunoh yigit: «Menga rahm qilib, tig' urib, o'ldiringlar», – deb fig'on qilardi. Oxiri zulmgar jaf o qilishdan to'yib, ertasi kuni uni o'ldirishga qaror qildi. Mallu choh boshiga bir kishini qo'yib, Jaypur huzuriga xursand bo'lib borib, Mas'udni o'ldirishga ruxsat oldi-da, uyiga kelib bazm tuzdi-yu, ketma-ket ichkilik ichishga kirishdi.

Malluning gul yuzli bir qizi bo'lib, Mas'udga oshiq edi. Bu ajoyib yigitning fazilatlarini eshitgan, uzoqdan turib uni ko'rgan ham edi. O'z sevgisi haqida hech kimga ayta olmay, pinhona kuyardi. Qiz uyda ekan, bir mazlumning qorong'i choh ichida yotganini eshitgan edi-yu, uning kimligini so'rashga qo'rqardi. Bu kecha otasi ham, qarindoshlari-yu mulozimlar ham, mast bo'lib yotishganini ko'rib, choh oldiga bordi. Qarasa, choh qorovuli ham mastlik uyqusida ekan. Mahvash nozanin choh boshini ochib, yoqimli ovoz bilan: «Ey g'am chekuvchi inson, sen qaysi mazlumsan, oting nima, bu payt o'likmisan yo tirikmisan?» – deb so'radi. Bu ovozni eshitgan Mas'ud jismiga joni qaytib kelgandek, nola qilib: «Otim Mas'ud, yuz tuman balo ostida azob chekyapman. Sen ayt: odammisan yoki farishtamisan? Ovozingdan tanimga jon keldi, qo'lingdan kelsa, qutqarish fikrini qilgin, bo'lmasa, meni o'lik deb bilgin», deb javob qildi. Qiz uning otini eshitgach, haya-jonga tushib, ko'ngli ishq o'tida o'rtandi. Ko'pdan beri uning hajrida qon yutib yurgan, necha kun davomida motam tutgan, g'oyib bo'lganini bilsa ham, o'lganini eshitmagan bu qiz otasining beshafqatligi, pastkashligini yaxshi bilardi. Ko'ngliga gumon tushib, mahbusga yana savollar berib, uning chindan ham Mas'ud ekaniga ishonch hosil qildi-da, qutqarish chorasiga kirishdi. Ikkita mahram kanizi parivash sevgisidan ogoh edilar. Uchovlari imkonlari boricha harakat qilib, yigitni choh tagidan chiqarib olishdi. Uning tanida ruhdan nishon ham yo'q edi. Qo'l-oyog'ini yechdilar-da, holini so'rash mahali emasligini, bu yerda uzoq qolib ketish foydasiz ekanini anglab,

ikki kaniz ko'tarib yashirincha uyga olib kirdilar. Mas'ud bu yerda qancha yotsa ham, hech kim gumon qilmasligiga ishonardilar. Tagiga bir necha qavat to'shak solib yotqizishdi-da, goh sharbat, goh taom berib, mehribonlik ko'rsatib, atrofida parvona bo'lishardi.

Tong otgach, Mallu Mas'udni o'ldirish uchun choh tomon yo'l oldi. Qarasa, zindon boshi ochiq, posbon esa mast bo'lib uxlab yotibdi, bandi esa yo'q. Posbonni darhol halok qilgan Mallu o'z jonini omon saqlab qolish maqsadida voliy oldiga qarab yugurdi va bo'lgan voqeani so'zlab berdi. Ikkovlari g'amga cho'mib, Mas'udni qidirishga tushishdi. Shahardan topolmagach, tog'-u dashtdan izlashga kirishishdi. O'n kun to'xtovsiz qidirsalar ham, undan nishon topolmadilar. Bu vaqt ichida Mallu qizining mehribonligi tufayli Mas'ud ham notavonlikdan qutuldi. Qiz ikkita ot olib keldi-da, ikkovlari tun qorong'usida qochib ketishdi. Malluning odamlari ertasi bu ishdan ogoh bo'lishib, ularni quvishga kirishishdi. Quvuvchilar bilan ularning oralarida bir yog'och masofa qolgach, ikki bechora qo'rquvga tushishdi. Shu payt dengiz qirg'og'ida bo'sh bir kema turganiga ko'zlari tushdi-yu, egasi bilan ijara haqini kelishib, dengizda tezlik bilan suzib ketishdi. Ikkovlari suvda o'n kecha-kunduz suzishgach, nihoyat, qirg'oqqa tushishdi va otlariga minib, shahar tomon yo'l olishdi. Kechasi bilan yo'l yurib shahar chekkasiga yetib kelishganda, bir eski qal'a ichidan chiqib kelgan qaroqchilar ularga hujum qilib, ot-u to'nlarini tortib olishdi-da, o'z qarorgohlariga qaytishdi. Ikkovlari ki-yimsiz qolib hayron bo'lib turisharkan, bir to'da otliqlar o'tib qolishdi. Mas'ud ularga yuz bergan

voqeani soʻzlab bergan edi, rahmlari kelib, bir-ikki eski kiyimni tashlab ketishdi. Ularni kiyib olgan ikki musofir bir vayronada kechani oʻtkazishdi. Yoʻlda toliqqanlari uchun shu yerda bir oz dam olishmoqchi boʻlishdi. Ovqatsiz qiynalib, ochlik azob bera boshlagach, Masʻud behol qizni vayronada qoldirib, biron yegulik topib kelish uchun shahar tomon yoʻl oldi. U bozor ichiga kirib borgan edi, shoh bazmi uchun mevalar sotib olayotgan mulozimlarga koʻzi tushdi. Ular meva va koʻkatlar solingan savatlarni saroyga eltib berish uchun hammollar yollashayotgan edi, Masʻud xodimning har bir savat uchun ikki diramdan toʻlashi haqidagi soʻzlarini eshitdi-da, bitta savatni koʻtarib hammollar safiga qoʻshildi va saroy tomon yoʻl oldi. Yoʻl ancha uzoq boʻlganidan, u holdan toygan ham ediki, shoh chorbogʻi koʻrindi. Masʻudning koʻzi gulshan ichida musiqa tinglab may ichib oʻtirgan Joʻnaga tushdi. Shoh Masʻud bilan boʻlib oʻtgan voqealardan xabar topib uni eslab, may ichib zor-zor yigʻlardi. Bogʻ ichida esa Masʻud otboqar oldida turgan «Gulgun»ni koʻrdi, uning tamgʻasiga boqib, oʻzi mehmonga taqdim etgan oti ekaniga ishonch hosil qildi, lekin: «U mehmon bu yerga kelib, otni shohga sovgʻa qilgan ekan-da», – degan xayolga bordi. Sal nariroqqa yurgan edi, qulogʻiga Joʻnaga oʻzi taqdim qilgan sozanda qizning kuyi va ashulasi eshitildi. U Masʻudga yaxshi tanish boʻlgan sheʼrni kuylardi. Koʻngliga iztirob tushgan holda: «Mehmon bu qizni sotib yuborgan ekan-da», – deb oʻyladi.

Masʻud shohona asboblar orasida turgan sehrli jomni ham koʻrib, ichi qonga toʻldi. U oʻzi bergan gulrang toʻnda, gulrang taxt ustida, gulrang toj

kiyib o'tirgan shohning o'z mehmoni ekanini darhol anglagan edi, lekin o'zini tanitish masalasida o'ylanib qoldi. «Agar o'zimni hozir tanitsam, qilgan yaxshiliklarim uchun sovg'a kutgandek bo'lib ko'rinaman», – degan xayolda edi Mas'ud. Savatni uning boshidan olishgach, ko'zlari yoshga to'lib bog'dan chiqish uchun darvoza tomon borayotgan chog'da huzuriga shoh bilan hamroh bo'lib borgan mulozimlar uni tanib qolishib, oyog'iga ta'zim qildilar-da, yig'lab ko'rishdilar. Mas'udning ham beixtiyor ravishda ko'zlaridan yoshlar oqa boshladi. Bu g'ala-g'ovurni shoh ham eshitdi va voqeani anglab ichkaridan yugurib chiqib keldi. Do'stini bu ahvolda ko'rib, yorug' jahon ko'ziga qorong'i bo'ldi. Bo'ynini quchib, yosh to'kar ekan, Mas'ud shoh oyog'iga bosh qo'ydi. U tarafdin esa chiniy kanizak ko'z yosh qilib chiqib, Mas'ud boshidan aylanib o'rgilardi.

Iztiroblari taskin topgach, shoh unga bir necha mulozimni tayinlab: «Uni hammomga eltinglar», – deb buyurdi, lekin Mas'ud o'z hamrohiga joni achib, u haqidagi gaplarni shohga bayon qildi. Jo'na bu so'zlarni eshitgach, bir necha ayolga gulrang kiyimlar hozirlab, qizni olib kelishni buyurdi. Mulozimlar va gulchehra xodimlar uni vayrona ichidan topdilar-da, boshidan oyog'igacha gulrang kiyimlar kiydirishib, kajava ichiga o'tqazib shoh turgan gulshanga yetkazdilar va qasr ichiga olib kirdilar.

Mas'ud issiq suvda yuvinib chiqqach, o'ziga tayyorlab qo'yilgan gulgun liboslarni kiydi-da, shoh huzuriga yo'l oldi. Jo'na uni o'g'lidek ko'rib, boshidan o'tgan voqealarni so'radi. Mehmon o'z sarguzashtini so'zlab berar ekan, shoh tinmay

ko'z yoshlarini to'kar edi. Hukmdor uni o'ziga do'st tutinib, tun-u kun hamdam-u musohib edi. So'ng ko'pdan ko'p xazinalar berib, Mallu qizini unga nikohladi va Taroz, Darbast shaharlari va bir necha o'lkaning voliyiligini unga topshirdi. Shoh amri bilan Mallu va Jaypur qatl etildi.

*Xushdurur bog'i koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli.*

Musofirning bu afsonasidan shoh Bahrom xursand bo'ldi. Mehmon ham Taroz shahridan bo'lib, Mas'ud naslidan ekan. Shoh uni o'ziga hamdam qilib olib, boyliklar bilan birga Taroz mulkini ham tortiq qildi. Shunday buyruqlarni bergach, xotirjam bo'lib uyquga ketdi.

* * *

Chorshanba kuni tong otgach, shoh Bahrom nilufar rangidagi kiyimlarni kiyib, nilufar qasrini o'ziga manzilgoh etdi. Qo'liga feruza jomni olib, undan la'l rangli may ichishga kirishdi. Nilufardek libos kiygan oy yuzli dildor quyoshdek bo'lib jahonga zeb berdi. Bahrom oqshom tushguncha nilufariy jomdan may ichib, bazmni tark qildi-da, uxlash istagini bildirdi. Mulozimlar unga joyni hozirlab berdilar, so'ng har kungidek yo'lga chiqib bir sayohatchini uchratdilar-da, qasrga olib keldilar. Parda ichidan: «Musofir afsona aytishga kirishsin», – degan ovoz kelgach, musofir shohni duo qilib, o'z hikoyasini boshladi.

Beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning dostoni

Adan mamlakatida bir qaroqchi bo'lib, odamlarga ko'p yomonliklar qilardi. U dengiz qirg'oqlarini o'ziga manzil qilib olgan bo'lib, faqat sohillardagina emas, balki dengizda ham yo'lto'sarlik bilan shug'ullanardi. U yangi oyga o'xshagan bir necha tez yurar kemachalar yasatgan bo'lib, ular doim jangga tayyor bo'lib turardi. Qaroqchi bu kemachalarni yashirin joylarda saqlar, har qaysi kemaga bir nechtadan yo'lto'sarni biriktirib qo'ygan bo'lib, ulardan bittasi baland daraxt ustiga chiqib olib, dengizni doimo kuzatib turar, ko'zi biron kemaga tushsa, darhol pastdagi kema ichida kutib turgan qaroqchilarni ogohlantirar, ular esa kemacha bilan tez suzib ketar, ko'ringan kemaga yetib borib, molini talar, odamlarini esa halok qilishardi. Qaroqchilar rahbari esa dengizda nahangdek, o'rmonda esa sher-u yo'lbars kabi jang qilishga mohir bo'lib, xalq uni Jobir deb atardi.

O'sha dengizdagi orollardan birida «Behisht saro» deb atalgan shahar bo'lib, uning shohi Navdar ismli saxiy va ma'rifatparvar, har ishda nodir-u qodir kishi edi. Uning go'zal bir qizi bo'lib, odamzod unday parivashni hargiz ko'rmagandi:

*Qadikim naxli sarfarozi¹³ kelib,
Husn bog'ida sarvi noz kelib,
Zulfidin sunbul aylabon yuz pech¹⁴,
Og'zidin g'uncha aytmay so'z hech!
Orazi mash'ali jahon afro'zi¹⁵,*

¹³ Sarfarozi – mag'rur.

¹⁴ Pech – buralish.

¹⁵ Jahon afro'zi – olamni yorituvchi.

*Partavi¹⁶ shu'lası kelib jonso'z¹⁷.
Sochi aylab kamand bo'lmoq fan,
Mehr bo'yniga tortar erdi rasan¹⁸.
Yuziga mehr bandavu oti Mehr,
Uyrulub mehridek boshig'a sipehr.
Bahrg'a noz ila chu ko'z solibon,
Dema ko'lok¹⁹, bahr qo'zg'olibon.
Bu sifat mehri olam afro'ze,
Mehr yo'q, shu'layi jahonso'ze.*

Ana shunday go'zal qiz bir kuni dengizda sayr etish, shamolning esishi-yu, suvlarning mavj urishini tomosha qilishni istab, mulozimlar-u dugonalarini birga olib kemalarga o'tirishdi. Maqsadlari o'zlari yashab turgan orol atrofini aylanib chiqish, ziyorat qilish edi. Nogahon bir teskari yel esib, kemalarni dengiz tomon surib ketdi. Shamol tobora kuchayib, dengizda to'fon ko'tarildi. Kemachilar: «Yaratganning o'zi yordam bermasa, halok bo'lishimiz muqarrar», – deb yoqalarni yirta boshlashdi. Shu tarzda shamol bir necha kecha-kunduz davomida kemalarni dengizda surib, Jobir qaroqchilari yashaydigan orolga yaqinlashtirdi. Kuzatib turgan nozirlari kemalarni ko'rishi bilanoq Jobirga xabar yetkazishdi. Jobir darhol boshqa qaroqchilar bilan tezyurar kemachalarga o'tirishib, ular tomon yeldek suzib ketishdi. Yetib borib, kemalar ustiga chiqib ko'p odamlarni halok qilishdi. Kemalarni o'z manzillariga olib kelib, tirik qolgan odamlar-u mol-dunyolarni

¹⁶ Partav – nur.

¹⁷ Jonso'z – jonni o'rtovchi.

¹⁸ Rasan – arqon.

¹⁹ Ko'lok – to'lqin.

qirg'oqqa tushirishdi. Qizlar ichidagi Mehrga ko'zi tushgan Jobir hushini yo'qotib yiqildi, bir dam o'lik kabi yotib o'ziga keldi-da, Mehrni ko'rgach, yana holidan ketdi. Bu holat bir necha bor yuz berdi. Oxiri qiz yuziga boqishga majoli yo'qligini anglab, parivashni bog' ichidagi qasrga olib kirishga buyurdi. Uning oldiga bir necha qizlarni qo'yishdi. Keyin omon qolgan barcha odamlarni bir kemaga o'tqazib: «Jonigiz kerak bo'lsa, tezlik bilan o'z yurtlaringizga ketinglar», – deb buyurishdi. Mehrning hamrohlari darhol yo'lga tushib, dengizda ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Mahvash orolda qoldi. Jobir uning xayoli bilan xursand bo'lib, visol umidi ko'ngliga kelmasdi.

Shu dengizdagi orollardan yana birida jannat monand, daryosi esa Salsabilga o'xshagan, havosi jannat bog'idagidek bir shahar bo'lib, mamlakati obod va hikmati yuksak bo'lgan No'mon degan bir shoh hokim-u voliy edi. Mamlakatining oti esa Yaman bo'lib, shoh adolatidan guliston-u chamandek edi. Uning odamizod ichra tengi yo'q bir farzandi bo'lib, yuzidan gul xijil, qaddidan esa sarv uyalardi. Barcha fazilat-u hunarlarda uning tengi yo'q edi. Yuzi quyoshga o'xshagan bu yigitning oti Suhayl bo'lib, Mehrga ko'ngil qo'ygan, Mehr ham uni sevar edi. O'z yoriga vola-yu zor, vasliga xaridor bo'lgan oshiq hijron dog'ida kuyardi. U bir bog'ni o'ziga manzil qilib olgan bo'lib, u yerda xilma-xil daraxtlar va nilufar gullar serob edi. Nilufar gulini sevgani tufayli ham Suhayl o'z kiyimlarini shu rangdagi matodan tiktirardi. Kunlarning birida Suhaylning otasi Mehr bilan o'g'lining nikoh to'yini o'tkazishga ahd qilib bir necha kemalarga xilma-xil sovg'alarni ortib Suhaylni Mehrni olib

kelishga buyurdi. Yoʻl qirgʻoqdan yurilsa yiroq boʻlib, dengizdan borish yaxshiroq edi. Toʻfon Mehr kemasini dengizga surib ketgan joyga yetganlarida, xuddi oʻshandagidek kuchli dovul esib, Suhaylning barcha kemalarini bir-biridan ajratib tashladi. Toʻfon Suhayl tushgan kemani Jobir qarqochilari manzili sari surardi. Daraxtlar ustidagi nozirlar kemani koʻra solib, Jobirni ogohlantirdilar. U esa darhol tezyurar kemachasiga oʻtirib, Suhayl kemasi tomon suzib ketdi va koʻp oʻtmay undagi odamlar bilan jangga kirishdi. Suhaylga duch kelgan Jobir raqibining oʻziga qaraganda ham kuchliroq ekanligini, yengilishi muqarrarligini koʻrib, hiyla yoʻliga oʻtdi-da, kiyimlarini yechib, oʻzini suvga otdi va kema ostiga borib, yonidagi xanjar bilan uni tesha boshladi. Taxtani oʻyib, suv kirishi uchun yoʻl ochdi. Suhayl kema ostidan kirayotgan suv tobora koʻtarilayotganini koʻrib, suv yoʻlini toʻsishga urinsa ham foyda boʻlmadi. Oxiri kemaga suv toʻlib, kema ahli bilan birga chuqur dengiz ostiga gʻarq boʻldi. Shahzoda jonidan umidini uzib, suvda halok boʻlishga hozirlandi. Jobir baliq yutishga intilgan nahangdek, Suhayl oldiga suzib bordi-da, avvaliga uni oʻsha yerda oʻldirmoqchi boʻldi, lekin uning bir taxta pora ustida behush yotganini koʻrib, qoʻlidan tortib oʻz qayigʻida soldi-yu, qoʻl-oyogʻini bogʻlab, oʻz manziliga qaytmoqchi boʻlib turganida, nogoh shahzoda oʻziga kelib qoldi va oʻzining holatini koʻrib, notavonligidan afsus chekdi.

Dedi Jobirki: «Ey qoʻlumda asir,
Razm-u koʻshishda²⁰ qilmading taqsir.

²⁰ Razm-u koʻshishda – jang va shijoatda.

Men bu zavraqni²¹ suvg'a to surdum,
Ming seningdekni suvda o'lturdum.
Birida sencha ko'rmadim jur'at,
Jur'ating bo'ldi maxlasingg'a²² jihat.
Kim tengiz ichra boshinga yettim,
O'laringdin seni xalos ettim.
Qatlinga garchi tab' rog'ib emas²³,
Lek qo'ymoq dog'i munosib emas.
Kim agar banddin xalos o'lg'ung,
Bir shahi komrong'a xos o'lg'ung.
Bo'lmak o'lmas xalos domingdan
Bo'lmag'um emin intiqomingdan²⁴.
Ish hisobin shumora qilg'ungdur,
Qatl-u kining'a chora qilg'ungdur.
O'lmak avlo sanga kamand ichra,
Tirik o'lmoq valek band ichra.

Suhayl har qancha iltijo qilmasin, Jobir uni qo'yib yuborishni istamadi. Kemasini maskani tomon surdi-da, qasri yonidagi chohga tashlashga hukm qildi. Unga tushgan mahbus hech qachon qaytib chiqmasdi. Suhaylning a'zosidagi arqonlarni yechdilar-da, band bilan uning qa'riga tushirdilar. Kim u chohga tushsa, unga har kuni ikkita non va bir obdasta suv berilardi. Yuqorida dilbar-u, quyida bedil bo'lib, ikkovlari bir-birlarining ahvollaridan g'ofil edilar.

Jobir Mehr kemalaridagi odamlarni ozod qilib, o'z yurtlariga qaytarib yuborgach, ular bir necha kundan so'ng manzillariga yetdilar-da, barchalari

²¹ Zavraq – qayiq.

²² Maxlasingg'a – xalos bo'lishingga.

²³ Tab' rog'ib emas – istamayman.

²⁴ Intiqomingdan – qasos olishingdan.

nilufar rangida kiyinishib, shoh saroyiga borishdi va motam izhor qilishdi. Mehrning otasi ham jigar-go'shasidan ayrilgani uchun o'zi shu rangli kiyim kiyib, saroy ahliga ham shu tarzda motam kiyimi kiyishni buyurdi. Dengiz safariga ketganlar qaytib kelishgach, shoh ulardan bo'lib o'tgan voqealar, qizining ahvolini batafsil surishtirib, fig'on ko'tardi, uning ko'ziga jahon qorong'i bo'lib, iqboli quyosh botgandek ko'rindi. Achchiq-achchiq yig'lar ekan, o'z-o'ziga: «Bu xil yig'idan foyda yo'q. Uning o'rniga qizimni zolim qo'lidan qutqarish chorasini ko'rmog'im lozim», – deganicha, qo'lga qog'oz-u qalam olib, bo'lib o'tgan ishlar bayon qilingan maktub yozdi-da, shoh No'monga jo'natdi. Xat ichida yashirincha mana bu gaplar ham ta'kidlangan edi: «Bo'lib o'tgan voqealarning barchasi qazodan. Choramiz esa qasos olishdan iborat. Mehr mening jonim payvandi bo'lsa, senga ham farzand bo'lib edi. Uning dushman qo'lida bo'lishi ikkalamiz uchun ham nomusdir. Endi bu ishning chorasini ko'rib, lashkar to'plasak-da, o'g'ling Suhayl o'z qo'shinini sohildan boshlab borsa va Jobir manziliga yetib kelsa, men esa sipohlarimni dengizdan o'sha manzilga olib borsam, ikki qo'shin qaroqchilarni ikki yondan qamalga olib, zolimlarni yengsak-da, Mehrni ozod qilib, Jobir va uning qaroqchilarini jazolasak. Agar bu fikrimga qo'shilmasang, o'z taklifingni tezroq yozib yuborsang, yolg'iz o'zim chorasini qilsam».

Shoh No'mon bu maktubni o'qigach, voqeadan xabardor bo'lib, o'g'lining ham o'z maqsadiga yetisha olmaganini bildi-da, bu ikki ish motam ustiga motam bo'lib, Suhaylning taqdiridan xabar topolmay, iztirob chekib, Navdar nomasiga shunday

javob yozdi: «Mehr ahvoli bayon qilingan maktubingni o'qib, g'amga tushdim. Kuyib o'rtanishimdan foyda yo'qligini ham bildim. Suhayl o'z qo'shini bilan sohil bo'ylab yov makoniga yo'l olsin, deb yozibsan. Avval ayt-chi, qani Suhayl? Bundan olti oy muqaddam o'g'lim sening mamlakating tomon yo'l olgan edi, haligacha qaytgani yo'q. Shuning uchun xavotirda edik. Endi ma'lum bo'ldiki, u ko'zlagan manziliga yetib bormabdi. Endi sen qurug'likdan yo'l olsang, men esa dengiz bilan borib, o'g'limdan nishon topsam. Undan biron xabar topmasam ham sen aytgan manzilga yetib boraman. U qaroqchidan qasosimizni olib, jazosini beramiz. Endi falon kuni, falon soatda yo'lga tushishga ahdlashsak. Sen ham o'z va'dangga ko'ra yurishni boshlasang». No'mon belgilagan mulozim bu maktubni Navdar qo'liga topshirdi. U esa xatni o'qigach, safar muddatidan xabardor bo'lib sipoh to'plashga kirishdi va ko'rsatilgan muddatda ikki qo'shin yo'lga tushdi. Navdar sipohlari Jobir qaroqchilari hududiga yaqinlashar ekanlar, qalin o'rmonga duch kelib qolishdi. Shoh yovlarning pistirmalardan hujum qilishi oldini olish uchun qalin butalarni kestirib, qo'shin bilan birga ilgarilar edi. Bu o'rmon ichi kiyiklarga to'la bo'lib, ovni yaxshi ko'radigan Navdarning havasini keltirardi. Har tarafda ko'zga tashlanayotgan ohu ko'zli kiyiklar yaqinlashib kelganda, shoh ulardan ko'zlarini olib qochar, xayoli faqat sipohlarda edi.

Nogahon bir gulrang ohu Navdar oldidan o'tib qoldi, shu chog' shoh chiday olmay, uning ketidan quva boshladi. Ohu changal ichiga o'zini urgan edi, yo'l tor va chirmash bo'lgani uchun shoh o'ta olmay qoldi-da, o'q otishga tushdi, bir-ikki o'qi xato ketdi.

O'zini yo'qotib, dushman makonida yurganini ham unutilib qo'ydi. Yana o'hu ketidan quvib, qaroqchilar pistirmasi qo'yilgan joydan chiqib qoldi. Jobir bir necha joyga pistirma qo'ygan bo'lib, qaroqchilar biron kishini tutib olsalar, darhol uning huzuriga olib kelishardi. Qaroqchilar bir chiroylik kiyik ketidan quvib kelayotgan otliqni ko'rdilar-da, otlarini qamchilab, uning ketidan yugurdilar va yerga tushirdilar. Navdar ov qilmoqni orzu qilib, o'zi sayyodlar qo'liga tushib qoldi.

*Shoh tilar bo'lsa shohliq qilmoq,
Sipohidin kerakmas ayrilmoq.
Shohni derlar sipoh birlan shoh,
Shoh emasdur yo'q ersa anda sipoh.
Shohga xayl o'lsa fath aning ishidur,
Bir kishi Rustam o'lsa bir kishidur.*

Navdar dushmanlariga asir bo'lib qolgach, uning barcha kiyimlarini yechib olishdi-da, shoh ekanini bilishib, bir sheriklarini suyunchi olish uchun Jobir huzuriga choptirishdi. Qaroqchilar rahbari: «Uning ko'zlarini bog'lab, kemaga o'tqazing-da, qasrga eltib qamab qo'yinglar. Bu ishni shunday yashirin bir tarzda bajaringlarki, biron kishi fahmlamasin. Uy eshigini falon kishiga topshirib, qilgan ishingiz haqidagi xabarni menga yetkazinglar», – deb buyurdi. Shohni qasrga olib kelib, Jobir hukmini to'la-to'kis bajo qilishdi. Navdar qanday yerga kelib qolganini bilmas, sipohlari esa u bilan ne voqea yuz berganidan bexabar edilar.

Bu vaqtda No'mon o'z qo'shini bilan dengiz bo'ylab kelar ekan, ko'zlagan manziliga ikki kun-

chalik yoʻl qolganida, shamol koʻtarilib, toʻfon mavj urdi-da, kemalar har tomonga tarqalib, koʻp kishi halok boʻldi. Shoh tushgan kema toʻfondan uncha zarar koʻrmadi-yu, ammo shamol uni qaroqchilar oroli tomon surib ketdi. Jobir qoʻygan nozirlar kemani koʻrib, darhol xabar yetkazishdi. Jobir kemaga tezda yetib bordi-yu, undagi koʻp odamlarni oʻlik holida koʻrdi. Tiriklaridan boʻlgan voqealarni surishtirib, ahvolni bildi-da, kemani oʻz oroliga olib keldi. Shohni ham qirgʻoqqa olib chiqishib, kemadagi mollarni xazinalariga eltishdi, Noʻmonni esa yashirincha boshqa bir zindonga tashlashdi. Kemaning tirik qolgan odamlariga oʻz diyoralari tomon ketishga ruxsat berishdi. Ular koʻzda yoshlari bilan orolni tark etishdi. Navdar sipohlari ham shohni izlab topolmagach, oʻz vatanlariga qaytishdan boshqa choralari qolmadi.

Qaroqchi Jobir shodlikka toʻlib, har kuni bogʻ ichida bazm uyushtirar va Mehr yodi bilan ketma-ket qadah ichar, lekin u goʻzalning yuziga nazar sololmas, nurli ruxsoriga boqishga yuragi dov bermasdi. Mehr esa guldek yoqasini yirtib, nilufarzor ichida gʻamnok kezar ekan, dengiz mavji kabi koʻz yoshlarini toʻkar, yori hajridan qutulishni har qancha istamasin, buning chorasini topolmasdi. U choh ichida bir bandining azob chekib yotganini bilardi. Bir kuni: «Chohdan oʻsha bandini qutqarib olsam va unga Suhayl oldiga borishini iltimos qilib, zor-zor yigʻlab yolborsam, zora Suhayl ahvolimni anglab, meni qutqarish uchun bu tomonga yoʻl olsa», – deb oʻyladi-da, oʻzining ikki kanizi bilan qorongʻi uyga yashirincha kirib, choh boshiga keldi va pastga qarab: «Ey mashaqqat chekayotgan asir, men ham senga

o'xshagan bir bechoraman, sen kabi notavon asirman. Harakat qilib, seni bu qorong'i zindondan qutqarsam, mening iltimosimni qabul qilib bajarasanmi?» – dedi. Bu chog' Suhayl choh ichida betob yotar, kasallik uning holini xarob qilgan edi. Buning ustiga sevgilisi hajrida o'rtanardi. Notanish qizning ovozi eshitgach, iztirobi oshdi-da, o'ziga tasalli berib, nozaninga: «Ey farishtasifat inson, sen shunday yaxshilik qilsang, tanimda jonim boricha buyurgan ishingni bajarayin», – deb javob qildi. Mehr bu so'zni eshitgach, kanizlari bilan arqon tashlab bandini qorong'i uyga chiqardilar. Mehr yashirincha unga ko'p mehribonliklar ko'rsatdi, zanjir-u bandlardan ozod qildi. G'am chekib behol bo'lgan yigit yer o'pib: «Ey farishtasifat mahbuba, qiladigan hukming haqida ozgina so'zlab bergin», – deb so'radi. Mehr o'zining hayoti, otasi-yu mamlakati, Suhaylga bo'lgan muhabbati, dengizda chekkan tashvishlari-yu, Jobir qo'liga asir bo'lib tushgani, uning qo'lidan omon qolish sirlari haqida so'zlab berdi. Bu so'zlarni eshitar ekan, Suhayl goh-gohida o'zidan ketib qolardi.

Mehr o'z hikoyasini: «Men bu yanglig' asir bo'lib qoldim. Suhayldan boshqa biron odam meni qutqarishga kelolmaydi. Sen Yamanga yetib borsang-da, Suhaylga ahvolimni arz etsang. Lekin bu yerda yashirin bir sir ham bor. Biz seni bu yerda bir necha kun asrab, parvarish qilsak-da, sen ana shu sirni aytib, qasam ichib Suhaylni ishontirsang. Bu sirning mazmuni esa shundan iborat: «Men Jobir qo'liga asir bo'lgach, uzoqdan menga nazari tushdi-yu, xas-xashak kabi yerga yiqildi. Qachon meni ko'rmoqchi bo'lganida, shu holat takrorlanaverdi. Bu yerda qanchadan beri yashayotgan bo'lsam, u

bilan munosabatimiz shundan nariga o'tgan emas». Buni eshitgan Suhaylning ko'ngli taskin topdi, sevgilisining barcha so'zlariga ishonch hosil qildi-da, qancha harakat qilmasin, o'zini asray olmay dimog'idan o't chiqib, dilbarining oyog'iga yiqildi va faryod urib hushidan ketdi. Bu holatdan hayratga tushgan Mehr uning yuziga tikilib qarab, behush yotgan bu yigit Suhayl ekanini angladi, keyin u ham nola qilib, hushidan ketib yiqildi.

Ikkala kanizak ularning boshlarini ko'tarib, mehribonlik ko'rsatishgach, Mehr o'ziga kelib, qorong'i tushguncha Suhaylni shu uyda saqlashdi. Uyqu mahali o'ziga kelgan yigit o'z mahbubasi bilan jism bilan jondek yoki sarv bilan ishqpechondek bo'lishdi. Suhayl bir necha kun qasrda yashirincha Mehrning mehmoni bo'ldi. Taom bilan sharbatdan tani sihat topib, behol jismiga quvvat kirdi. Shu yerda yashar ekan, Jobirning Mehrdan ayriliqqa chidab yurganini bildi. Bir kuni Jobir bog'ni sayr qilib yurar ekan, Suhayl to'ng'iz bilan olishishga chiqqan sherdek uning ro'parasida paydo bo'ldi va:

*Dedikim: «Pahlovonliq ermas ul,
Kim kishi makr birla urg'ay yo'l.
Teshib el kemasini hiyla bila,
G'arq etib suvg'a bu vasila bila.
Qolmag'on chog'da kimsaning joni,
Tutubon band aylagay oni.
Sen agar zohir etting itlikni,
Men sanga ko'rguzay yigitlikni», -*

dedi-da, dushmaniga qarab hamla qildi. Hayratidan kuchi qolmagan Jobir u bilan olishishga har qan-

cha tirishmasin, Suhayl uni ko'tarib yerga urdi. O'zini bog'lagan arqon bilan qo'llarini mahkam qilib bog'ladi-da, o'zi yotgan choh ichiga tashladi. «Har kishi birovga choh qazisa, unga nogoh o'zi tushadi», – deb bekorga aytilmagan-da!

Suhayl o'z maqsadiga erishgach, Mehr bilan to'y bazmiga tayyorlana boshladi. Jobir xazinasini qo'lga kiritdi. Barcha xalq shodmon bo'lishib, shohga ta'zim qilishdi. Bazm tuzib, qo'lga qadah olgan Suhayl: «Jobir band etgan barcha odamlarni ozod qildim. Ularni bu yerga olib kelinglar, men qadah bilan shod etay», – deb farmon berdi. Bog' ichidagi ikki chohda faqat ikkita bandi borligini ko'rib, ularni bazmga boshlab kelishdi. Bularning biri Navdar, ikkinchisi esa No'mon edi. Ikki ota, ikki farzand bir-birlari bilan yig'lashib ko'rishdilar, so'ng o'tirib bir-birlari bilan so'rashib ketdilar. Ikki shoh xudo yo'lga kirib, mamlakatlarini Suhaylga topshirdilar. Barcha xalqlar shukr qilishib, o'z shodliklarini izhor etishdi. Suhayl bilan Mehr o'z maqsadlariga yetib, vasl topishdi. Mehr ham, yori ham nilufar rangidagi ko'ylaklar-u to'nlarni kiyib yurishardi, nilufar rangini xush ko'rgan quyosh ham o'z libosi uchun shu rangni tanladi.

*Har pari chehraki, mahvash erur,
Moviy o'lsa libosi dilcash erur.
Mehr kim gulruxi samoviydur,
Nilufarvash libosi moviydur.*

Musofir o'z hikoyasini tugatgach, pardador moviy pardani ochdi, shoh Bahrom ko'p in'omlar berib musofirni xursand qilgach, orom topib, uyquga ketdi.

Payshanba kuni shoh Bahrom sandalrang kiyimlar kiyib, sandalrang qasrga qadam qoʻydi. Uni sandalrang kiyimlaridan sandal hidi anqib turgan mahbuba kutib oldi. Bazm boshlangach, qadahlar davra boʻylab aylana boshladi. Kecha ichgan mayidan boshi ogʻriyotgan shoh qadahga qoʻlini ham uzatmadi. Lekin soqiy bosh ogʻrigʻiga qizil sandaldan dori hozirlab qoʻygan edi. Bazm kechga qadar davom etdi. Qorongʻi tushgach, gul yuzli goʻzal oʻz pardasi ortiga kirib ketdi. Shoh yana uyqu keltiradigan afsona eshitish istagini bildirdi. Mulozimlar yoʻl boʻyiga chiqib, soʻz dengizining kemachisi boʻlgan bir sayyohni boshlab kelishdi. Musofir shoh istagidan xabar topgach, avval uni yaxshilab duo qildi-da, afsonasini boshladi.

Oltinchi iqlim yoʻlidan kelgan musofirning rivoyati

Boxtar diyorida ikki kishi Xovar tomon yoʻlga chiqishgan edi. Ular tun-u kun sayr qilishardi. Birining oti Muqbil²⁵, yana biriniki Mudbir²⁶ edi. Muqbil pok, omadli, xalq eʼtiborini qozongan yigit boʻlsa, Mudbir qayerga borsa, yuzida baxtsizlik changi paydo boʻladigan inson edi. Yoʻlda borish-arkan, qoʻrqinchli bir vodiya duch kelishdi. Uni biladigan odamlar bu yerdan yurmasdilar. Ushbu vodiyning sabza-yu bogʻi tikon-u shoʻra, suvi-yu tuprogʻi esa neft-u oltingugurd edi. Tuprogʻidan badboʻy bugʻ koʻtarilib, oʻtdek shamoli kishi taniga urilar ekan, uni kulga aylantirib, koʻkka sovu-

²⁵ Muqbil – iqqolli, baxtli.

²⁶ Mudbir – badbaxt.

rardi. U yerda jonivorlarning yashashiga imkon ham yo‘q bo‘lib, kirib qolgan hayvon darrov halok bo‘lardi. Odamlar uni «Vodiy hamim», ya‘ni «Jazirama vodiy» deb atashar, harorati bu nomni isbotlab turardi. Bulardan ogoh bo‘lmagan ikkala hamroh yo‘l azoblari, balo dashtining uqubatlarini ko‘rib, cheksiz bu dashtni bosib o‘tishdan boshqa chora topisholmadi. Har qanday balo duch kelsa ham, chidashga ahd qilib, tavakkal qildilar-da, dashtda o‘z safarlarini davom ettirdilar. Harorat alangasi kuchayib borgan sari Mudbirning besabrligi orta borardi. «Bu qanday havo bo‘ldi? Bunday dashtni yaratishning nima keragi bor edi?» – deb shikoyat qilar, behush mastlar kabi: «Bu yerda suv yaratish qiyinmidi?», – deb nola chekar, har bir so‘zi Tangriga e‘tirozdan iborat edi. Buning ustiga doim hamrohiga: «Men bechoraga sendek yo‘ldosh hamroh bo‘lmagani yaxshiroq edi. Qanday shum kunda senga yo‘liqdimki, shunday yomon xosiyatlarga duchor bo‘ldim», – deb ta‘na qilgani qilgan edi.

Muqbil esa xudo yodi bilan mashg‘ul bo‘lib, zikr-u tasbihdan bo‘shamasdi. Mudbirga nasihat qilishdan charchamas, lekin bu pandlardan foyda yo‘q edi. Muqbil barcha azoblarga bardosh berib, dashtdan chiqib oldi. Dasht ko‘zdan yo‘qolgach, ular dard-u balo dengiziga duch keldilar. Hamrohidan bezor bo‘lgan Muqbil undan ayri-lishni istagan edi, Mudbir qilgan ishlari, gapirgan so‘zlaridan tavba qilib, hamrohini bundan buyon sabrli bo‘lishiga ishontirdi. Muqbil uning qilgan ishlarini, noto‘g‘ri so‘zlarini unutdi.

Ikkovlari dengiz qirg‘og‘iga kelib, u yerda bir kemani ko‘rdilar, har tarafni izlab, kema egasini

topdilar-da, haqini to'lab kema ichiga kirdilar. Kemachi ikkovlariga bitta sandal berdi. Bir necha kema bir tomonga qarab suza ketdi. Kema qushdek tez suzib borarkan, Mudbir yana oh-voh qilib, bema'ni so'zlarni aytishga tushdi. Muqbil bo'lsa tasbih-u ibodat bilan band edi. Hamrohiga yana nasihat qila boshladi. Mudbir esa uning gaplariga parvo ham qilmay, kufr so'zlarni aytishdan tinchimasdi. Uning bu so'zlaridan qattiq g'am chekib, azoblanar ekan, Mudbir Tangriga xitob qilib «Ishlaringda hech tartib yo'q. Qum-u dashtingda odam suvsizlikdan iztirob cheksa, bahr va to'lqinlaringda bu qadar beboshlik. U yerdagi yetishmovchilig-u, bu yerdagi ortiqchalikdan aql-u hushini yo'qotmoqda», – deb nido qilardi. Uning bu xil shum so'zlaridan yanada ko'proq chayqalib, to'fon yanada kuchaydi. To'lqinlar baland ko'tarilib, katta-yu kichik kemalarni har tomonga surib tashladi, anchasi suvga g'arq bo'ldi.

Ikki hamroh bir qayiqda qolishdi. Muqbil tavba-tazarru' qilib, Tangridan o'z panohida asrashini iltijo qilar ekan, uning bu duolari ta'sir qilib, shamol tindi va dengiz taskin topdi. Qayiq dengizda tinch suzib borarkan, bir manzil ko'zga tashlandi. Uning rangi osmondek ko'k bo'lib, u tomondan yoqimli bo'y esib turardi. Bu sandal hidi bo'lib Masih nafasidek jonlarga oro berardi. Undan rohatlangan Muqbil shukrona sajdasini ado qildi-da, qayiqni o'sha qirg'oq tomon surib, ko'p o'tmay, u yerga yetib bordi. Qirg'oqda baland bir daraxt o'sar, barglari keng maydonga soya solib turardi. Uning tanasida katta bir kavak bo'lib, u yerda tiniq bir chashmadan suv chiqib, dengizga quyilardi. Ikki hamroh o'sha manzilda

orom olmoqchi bo'lib, qayiqni bir ildizga bog'ladi-
lar-da, Muqbil daraxt kavagiga ko'zi tushgach,
qiziqib uning ichiga kirdi. Suv ichmoqchi bo'lgan
Mudbir ham uning ortidan kirib keldi. Chashma
boshida bir tosh bo'lib, unga xat yozib qo'yilgandi.
Ikkovlari u xatni o'qishga tushishdi. Unda: «Kimki
bu manzilga kelib, ushbu ajoyibotni tomosha qil-
sa, shuni bilsinki, bu daraxt sehlidir, uni «San-
dali simiyo», ya'ni «Sehrlil sandal» deb atashadi.
Chashmadan suv ichgan har qanday odam o'z
chanqog'ini qondiradi. Agar u kishi to'g'ri, pok
inson bo'lsa, bir oygacha xursand bo'lib, yeb-
ichishga muhtoj bo'lmay yuradi, yolg'onchi bo'lsa,
uch kun o'tgach, suv va taom istab qoladi. Bu
chashma suvidan bahramand bo'lgan odam key-
inchalik yolg'on so'zlasa, o'sha ondayoq qorni yo-
rilib, halok bo'ladi. Bu aytilgan so'zlar suv ichish
haqida edi. Chashma ichiga tushishning ham o'z
xosiyatlari bor: yolg'onchi bu suvga tushsa, o'sha
ondayoq oyog'i kuyadi. Rostgo'y odam tushib,
ko'zini yumib, qulog'-u burnini ushlab sho'ng'isa,
boshini chiqargach, shunday narsalar ko'radiki,
ularni aytib ham bo'lmaydi. Lekin bir sho'ng'ig-
an odam o'zi ko'rganlarini yana bir ko'rmoqchi
bo'lib, yana sho'ng'isa, suv pasayib ketadi-da,
sho'ng'iy olmaydi», – deb yozilgan edi. Xatni o'qi-
gan Mudbir bir-ikki hovuch suv ichib, yolg'on va
behuda so'zlashni bas qilmoqchi bo'ldi. «Bundan
keyin yolg'on so'zlashni tark etdim. Shu ahdimni
buzsam, o'linga ham roziman», – dedi-da, chash-
ma suvidan ichdi.

Muqbil Yaratganga shukrona aytib sajda qil-
di-da, keyin suvdan ichdi-yu, chanqog'ini bostir-
di. Mudbir suv ichiga tushmoqchi bo'lib, oyog'ini

tiqqan edi, qaynoq suv oyog'ini kuydirdi. Muqbil lungi bog'lab, suv ichiga tushdi-da, unda o'z ak-sini ko'rib, suv ichiga sho'ng'idi. Boshini chiqarib qaragan edi, chashma suvini emas, balki zilol suvga limmo-lim to'lgan hovuzni ko'rdi. Uning ichlari tartib bilan terilgan sandalrang sof tosh-lardan bo'lib, atrofi Eram bog'ini eslatar, u yerda esa, haram kabi chiroyli bir bino qurilgan edi. Hovuzdan chiqish uchun oyoq qo'ygan Muqbilni bir necha kumushtan qizlar qo'llarida top-toza matolar, tan quritish uchun esa ipak sochiqlar olib kelib yigitning qo'liga berishdi, sochiqlar bilan tanasini quritishdi. Ustiga sandal hidi kelib tur-gan xilma-xil kiyimlar kiydirishib, boshiga salla o'ratishdi-da, qo'lidan ushlab, sandal qasrga olib bordilar. Muqbil atrofga hayrat bilan boqarkan, o'zini boshqa bir olamga kelib qolgandek sezardi. Es-hushi og'ib qasr ichiga kirgach, hamma yog'i sandaldan ishlangan, yoqimli atir hidi ufurib turgan keng xonaga ko'zi tushdi. Sandaldan ishlangan taxt javohirlar bilan bezatilgan bo'lib, uning ustida quyosh yuzli bir pari paykar go'zal o'tirganini, atrofida esa sahar paytidagi yulduzlar kabi sohibjamol kanizlar tizilib turishganini ko'rdi. Muqbilning ko'zi u diloroga tushgach, qoni qurib, rangi sarg'aydi-yu, yiqilib hushidan ketdi. Gul yuzli sarvqomat go'zal uning oldiga kelgach, yoqimli atridan o'ziga keldi-yu, yana ko'rib o'zini yo'qotdi. Mahbuba shirin so'zlari uni xursand qilgach, yigitning ko'ngli qaror topib, o'ziga keldi. Go'zal qiz unga yondashib o'tirganida, Muqbilning shavq o'ti belidan oshib, yana sabr-u qaroridan ayrildi-yu, ko'ksini pora qilishiga sal qoldi. Mah-vash uni qo'lidan tutib taxti tomon olib borib,

o'tirishni taklif etdi. Muqbil yer o'pib: «Bunday joyda o'tirishga haddim yo'q», – desa ham, parivash taxtda yonma-yon o'tirib, taom yeb, sharbat ichdilar. Keyin bazm boshlanib, jomlarda boda keltirildi. Bir diloro parivash sandal hidi anqib turgan jomni ularga uzatgan edi, mahbuba bir-ikki qultum ichib, keyin jomni Muqbilga tutdi. U o'zini zo'rg'a qo'lga olib, mayni oxirigacha sipqordi. Qadah davrada to'xtamay aylanar ekan, Muqbilning kayfi oshib, devonalarga o'xshab behijobona so'zlarni ayta boshladi, keyin esa nojoiz harakatlarga o'tdi. Gul yuzli go'zal Muqbilga qarshilik qilmay, qo'lidan qo'lini olmay o'tirardi. Yigit oxiri chiday olmay qizga: «Meni qiyin ahvolga solib qo'yding, rahm qilib dardimga davo qilgin, vasl bilan hojatimni ravo qilgin!» – deb iltijo qila boshladi. Parivash bu so'zlarga: «Bugun shuncha may ichib, hushimizni yo'qotgudek mast bo'ldik. Ertaga katta bir to'y qilib, nikoh o'qitaylik. Keyin o'z murodingga erishasan», deb javob qaytardi. Muqbil uning bu so'zlariga e'tibor bermay, qanday bo'lsa ham o'z maqsadiga erishmoqchi bo'lib, nojo'ya qiliqlar qila boshladi. Shunda mahbubasi «Agar o'zingni to'xtata olmayotgan bo'lsang, biron sarvqomat kanizimga aytay, tonggacha sening yoring bo'lsin», dedi. Muqbil o'z maqsadi haqida boshqa og'iz ochmadi. Parivash unga bir kanizagini hamog'ush etdi, ikki eshik og'asiga ishora qilgan edi, yigitni arang turg'izib, alohida xonaga olib borib yotqizdilar.

Quyosh nurlari yoyilib ketganda uyqudan uyg'ongan Muqbil o'zining kechagi qilgan ishlarini eslab, xijolat chekdi-da, hovuz oldiga borib, cho'milmoqchi bo'ldi, sandalrang lungini beliga

bog'lab, suvga tushib sho'ng'idi, keyin boshini ko'tarib atrofga qaradi-yu, o'zining sirli buloq ichida turganini ko'rdi. Ko'zlariga ishonmay, yana bir necha marta suvga sho'ng'idi, lekin har safar boshini ko'targanda o'zini yana o'sha buloq ichida ko'raverdi. O'z mahbubasi visoliga yetisha olmaganidan iztirobga tushgan Muqbil nima qilishni bilmas, Mudbirga esa o'z ahvolini aytishni lozim ko'rmasdi. Shu payt ko'zi yana buloq ustidagi toshga tushdi. Uning burchagida yana bir xat yozilgan bo'lib, Muqbil oldin e'tibor bermagan ekan. Unda: «Kimki bu simiyoni ko'rib, suvga sho'ng'igach, yuz baloga duch kelgan bo'lsa, qaytib chiqqanidan keyin bu yerda turmay, tezda suv orqali jo'nab ketishi kerak. Aks holda uni dev yoki nahang o'ldiradi», – deb yozilgandi.

Muqbil xat mazmunini anglab: «Hayotim xafv ostida qolsa ham bu yerda qolaman, bunaqa hayotdan o'lganim yaxshiroq», – dedi. Ammo yana fikr yuritib, jonining azizroq ekanini o'yladi-da, ketishni lozim topdi. Qayiqni yechib hamrohi bilan birga dengizda suza ketishdi. Mudbir ham-safarining holatidagi o'zgarishlarni ko'rib, uning sababini bilishga intilsa ham, Muqbil unga hech narsani oshkor qilmadi. Qayiqda o'y surib o'tiraverdi. Ikkovlari Haqdan panoh so'rab, qayiqni haydab borisharkan, Muqbil hajr o'tida qiynalar, Mudbir holini so'rasa javob qilmas, chunki uning g'ami sharh etardek emasdi. Ba'zida unga qarab: «Ey do'stim, bu savolingga javob berishimni kutmagin. Holimni senga aytmayotganimning sababi uni o'zim ham bilolmayotganimdandir. Holimdan malolat chekayotgan bo'lsang, sen haqlisan, men esa bundan xijolatdaman!

*Qilsa bexudlug'um seni ranjur,
Ne deyin, chunki borsen ma'zur.
Nafasingni menga diloso qil,
Lutfila nechakim muvosso qil.
Baxtdin kom agar bo'lur hosil,
Bo'lsa bir kun maqomimiz sohil.
Hajrima xotiringni shod aylay,
O'pib ilgingni xayrbod aylay», -*

derdi-da, qayiq ichida yana fig'on qilardi. Mudbir hamrohining bu holatini ko'rgach: «Chashma atrofida turli jinlar bo'ladi, deyishardi. Muqbilning majnunlarcha xatti-harakatlari ularning ta'siri oqibatimikan», - deb o'ylardi. Shu chog' dengizda katta bir kemani ko'rib qolishdi. Shamol qayiqni o'sha kema tomon surib ketdi. Uning yoniga yetib borib, ikkovlari to'lqinlar xafvidan g'am chekmaslik uchun kemaga chiqishdi. Kema ahlining barchasi o'lgan bo'lib, bironta ham tirik odam qolmagan edi. U sandal daraxti yog'ochlari bilan to'la ekan. Voqea shunday bo'lgan ediki, Xovar Xusravining pariga o'xshash bir qizi bo'lib, shohning hayoti u bilan baxtiyor edi. Uning bir dardi bo'lib, tabiblar har qancha davo qilsalar ham shifo topisholmagandi. Faqat sandal isigina unga foydali bo'lib, bosh og'rig'ini qoldirardi. Shuning uchun shoh qiziga atab sandal yog'ochidan qasr qurishga buyurgandi. Toki farzandi u uy ichida yashab, uning sog'lig'iga davo yetkazsin. Bu farmon olamga tarqalib, savdogarlar Hindistonga sandal tashish bilan band bo'lishdi. O'sha xushbo'y sandalli imorat bitgach, savdogarlar kechasi-yu kunduzi shu ish bilan mashg'ul ekanlar, dengizdagi bir girdobga duch kelib qolib, undan

chiqib ketolmay, ovqatlari tamom bo'lib barchalari halokatga yuz tutgan edilar.

Bu mahal dengizda kuchli shamol ko'tarildi-da, to'fon boshlanib, shu joyni yel raqqosdek o'ynatib, kemani girdobdan chiqarib yubordi.

Kema ichidagi ikki hamroh ham o'z ishiga mashg'ul bo'ldi. Muqbil o'z dardi bilan band bo'lib, bir chekkada oh-u fig'onini davom ettirsa, Mudbir o'lganlarni kemadan suvga tashlash, kema molini o'z ixtiyoriga olish bilan band edi. Kema molini ham, kemanding o'zini ham o'ziniki deb bilib, hamrohi holiga e'tibor ham qilmasdi.

Shu payt uzoqda sohil ko'rindi. Kema sohilga yetib borgach, Xovar diyoriga kirib kelganlari ayon bo'ldi. Mamlakat shohi shu kuni tomoshaga chiqqan bo'lib, daryoni kuzatardi. Yangi kelgan kemaga nazari tushib, a'yonlariga: «Kema ahlidan biron kishini huzurimga olib kelinglar, kimga tegishli ekanligi, qanday mollar keltirilganini bilayin, so'ng uy tomon ketayin», – dedi. Mulozimlar kemaga ko'tarilib, unda biri shod, ikkinchisi esa g'amgin ikki kishini uchratishdi. Shoh so'zini eshitgan Mudbir u tomonga tez-tez yurib ketdi. Shoh qoshiga kelib yer o'pib, duo qilgach, hukmdorning o'z holati haqidagi savoliga: «O'zim savdogarman, ishim tijoratchilik, bu safarda hech kim omon qolmadi. Barcha xodimlarim vabo kasaliga uchrab halok bo'lishdi. Bu sohilga esa bir men-u, bir Muqbil otliq qulimgina yetib keldik», – deb javob bergan ham ediki, qorni shisha boshladi. Undan libosi yirtilib, ko'ksi ham chok bo'ldi-yu, yiqilib jon berdi.

Shoh bu holatni ko'rib, hayratdan qotib qoldi. Bunday ishga hech ham duch kelmagan edi. Notavon Muqbilni olib kelishlariga farmon berdi-da,

uni ko'riboq ko'nglini shodlik egalladi. Jon bergan hamrohini undan yashirib turib, Mudbirdan so'ragan savollarini Muqbilga ham berdi. Muqbil o'zining ko'rgan-bilganlarini birma-bir shohga gapirib berdi. Shoh dediki, kema va undagi yuklar davlat xazinasiga beriladi. Muqbil aytgan barcha gaplarning chinligi shohga ma'lum bo'ldi. «Sening rostgo'yliging ko'nglimizni maftun qildi, nimani istasang, aytgin», – deb so'radi. Muqbil dedi:

*Shohning umr-u johin istarman,
Charx avjida komin istarman.
Yana matlub xalq ibodatidur,
Kim ulus mujibi saodatidur.
Shoh agar qilsa, bandasin ozod,
Tun-u kun aylagum duo bila yod».*

Muqbilning bu oqilona va yoqimli so'zlari xush kelib, zebo chehrali va xushso'z bu yigit shoh ko'nglida mehr uyg'otdi. Unga shoh vazirlik unvonini berdi. Bir necha vaqt xizmat qilgach, davlat humoyi boshiga soya solib, qizini nikohlab berdi-yu, uni farzand qilib oldi. Muqbil bunga e'tiroz bildirgan bo'lsa ham, uni o'z ixtiyoriga qo'ymay, katta to'y qilib, ko'z qorachig'ini unga juft qilib berdi. Boshdan oyoq sandalbo'y kiyimlar kiydirishdi, chunki parivash shuni istagan edi. Keyin ularni qasri sandalga olib bordilar-da, guli sumansoni o'z mahbubiga topshirdilar.

Muqbil kelin chehrasiga boqib, hayratga cho'mdi. Chunki u o'zi chekkan azoblarning sababchisi edi. Qasr ham, saqf-u ostona ham, taxt-u ofati zamona ham aynan suv ostida ko'rganlarining o'zi edi. Hayrat o'ti dimog'iga tutun yetkazib,

bu o't uning vujudini nobud qilib, oh-u afg'on chekib yiqildi, joni esa chiqay deb turardi. Shu chog' dimog'iga sandal isi esib, ko'zi charog'i yoridi. Ko'zini ochgach, yana ahvolni ko'rib, nola chekib behol bo'lardi.

Uning bu holatini kuzatayotgan mahvash ham unga mehribonlik ko'rsatib, ko'nglini olardi. Oxiri o'ziga kelib mahvash visoliga yetishdi. Lekin go'zal mahbuba ko'rganlaridan lol bo'lib yurardi, bir kuni: «Sening hayratli ishlaringdan men doim lolman. Voqealar sababini aytib bergil», – deb iltimos qildi. Muqbil rost so'zlashdan boshqa chorasi bo'lmagani uchun bor ko'rganlarini bekam-u ko'st sharhlab berdi. Bularni eshitgan parivash tabassum qildi-yu, shunday deb so'z boshladi: «Taqdir meni go'zal qilib yaratgach, husnim haqidagi so'zlar jahonga tarqaldi. Mening koshonam oldidan o'tib qolgan jinlar shohi husninga shaydo bo'ldi-yu, qasrda jinlar shovqin-suroni boshlanib, men devona bo'lib qoldim. Shoh buni ko'rgach, tabiblarni chaqirtirib, dev-u parilarning sehr-u ziyonidan meni xalos qilishga kirishishdi. Ular daf bo'ldi, lekin eshitishimcha, jinlar shohi g'amimda yana devona bo'lib, dengiz ichida sehrli manzara bunyod etibdi. Sandaliy qasr atrofida bog' yaratib, undagi sandaliy taxt ustida mening timsolimni o'tqazib qo'yibdi. Sen hovuz ichida ko'rgan narsalar naqshlardan iborat bo'lib, uni ko'rgan xas-ta odam orom topar ekan. Sen u yerda bo'lgan chog'ingda mening tasvirimga shaydo bo'lgansan. U yerda timsolimga oshiq bo'lgan eding, bu yerda Haq seni visolimga yetkazdi».

Shu so'zlarni eshitgach, Muqbilning mushkul-lari bartaraf bo'ldi-da, mahbuba xayolidan ko'ngli

yayrab, sandaliy qasrda baxtli bo'ldi, kiyimini ham sandaliy rang qildi.

*Sandal osoyishi ravon angla,
Atri oning hayoti jon angla.
Sandal isinda tek turub bo'lmas,
Mushkni kimsa yoshurub bo'lmas.*

Donishmand musofir o'z afsonasini tugatgach, shoh sandal bo'yli nasimdan orom olib uyquga ketdi.

* * *

Juma kuni shoh Bahrom oq ipakdan kiyimlar kiyib, nurafshon quyosh misol olamni mehri nuri yoritib, oq gumbazli saroy tomon yo'l oldi. U yerni manzil qilgan chinlik go'zal ham shu rangdagi kiyimlarda uni kutib oldi. Shoh fil suyagidan ishlangan oppoq taxtga chiqib o'tirgach, dilbari ham uning yonida orom topdi. Bazm-ishratga yig'ilgan majlis ahlining barchasi ham oq libosda edi. Bir gul yuzli parizod kelib, chiniy qadahda may tutdi. Shoh oqshomga qadar har kungidan ko'proq may ichdi. Quyosh o'z nurlarini yashirgach, shoh uyqu istagini bildirdi. Oq uy ichiga joy solingach, mulozimlar yo'lga chiqib bir musofirni boshlab kelishdi. U shoh Bahromni duo qilgach, o'z hikoyasini boshladi.

Yettinchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofirning hikoyasi

Men o'z ko'rganlarimni hikoya qilib bermoqchiman. Xorazm mamlakati mening diyorum bo'ladi.

San'atim soz chalmoq bo'lib, hech kim musiqa ilmini menchalik bilmaydi. Doimiy ishimi elga ta'lim bermoq bo'lib, hozirda ustozlik qilayotgan ko'pgina kishilar mening shogirdlarimdir.

Nogahon xalq ichida: «Xorazmga bir xitoylik savdogar hurvash kanizi bilan kelayotgan emish. Xojaning mol-u dunyosi el gumon qilganidan ham ko'p emish. Uning kanizi esa nihoyatda sohibjamol bo'lib, barbat asbobini qoyillatib chalar va g'oyat yoqimli ashulalar kuylar ekan», – degan xabar tarqaldi. Bu xabar xalqni beqaror qildi. Bir necha kundan so'ng esa xoja ham yetib keldi. Xorazm ahli o'z eshitganlarining qanchalik to'g'ri ekanini o'z ko'zlari bilan ko'rishni istab, uning istiqboliga chiqishdi. Xoja aytilganidek boy bo'lib, zuhd-u taqvoni shior qilib olgan ekan. Aslida xojaga farzand sanalgan oy yuzli go'zal kanizak esa parda ichida, yuziga oq niqob tortib o'tirardi. Faqat yuzidagi niqobigina emas, balki kiyimlari ham oq bo'lib, shu rangdagi kiyimlarni xush ko'rarkan.

U kanizak har kuni ikki qatla, subh va shom paytlarida parda ichida o'tirib chang chalib, kuyga hamohang ashulalar kuylar, ularni tinglayotgan odamlar o'zlarini yo'qotib, oh-u nola qilishar, har kuni bir g'amnok shu tarzda halok bo'lardi. Bu gaplar shohga ham yetib bordi. Ularni o'z saroyiga taklif etishga jur'at qilolmagan shoh o'z kiyimlarini o'zgartirdi-da, odamlar orasida turib kuy va ashulalarni tingladi-yu, u ham kanizakka shaydo bo'lib qoldi. Qizning kuy-u navosidan uning husn-u jamolini anglagan hukmdor mahvashga uylanib, xojaga farzand bo'lishni istab xomtama bo'lar ekan, oraga dallolalarni qo'yib, xojaga o'z istagini bildirdi. Lekin xoja: «Shoh o'z orzusini bayon qilib,

boshimni ko'kka yetkazdi, lekin bu borada mening tole'yim yo'q ekan. Gap shundaki, bu mahvash sanam turmushga chiqishni aslo istamaydi, Haq uni juftidan toq qilib yaratgan», – deb javob qildi. Shoh o'z istagini yana bir necha bor izhor etdi, lekin xoja har safar oldingidek rad javobini berardi. Oxiri ishqdan halok bo'lishiga ishongan shoh beqaror bo'lib, g'azablandi-da, zulm qilishga bel bog'ladi. Bir qancha sipohlarini xoja uyiga borib, kanizakni bor yuklari bilan saroyga olib kelish uchun yubordi. Ular shoh farmonini bajarib, kanizakni saroyga olib kelib, qasr ichiga tushirdilar. Shoh xursand bo'lib, go'zal sanam huzuriga yo'l oldi. Bundan xabar topgan kanizak changini qo'lga olib, shunday ashula ayta boshladiki, uni eshitgan shoh o'zidan ketdi, kimning qulog'iga eshitilgan bo'lsa, yiqilib uyquga ketaverdi. Saroy ahlining barchasi shu tarzda mast bo'lib, uxlab qolgach, kanizak o'z uyi tomon yo'l oldi.

Shoh va uning sipohlari uyg'ongach, ahvoldan ogoh bo'lib, kanizakni yana saroyga majburlab olib kelishdi, u esa yana chang chalib va ashula aytib, barchani uxlatib qo'ydi va yana o'z uyiga borib, parda ichida orom ola boshladi. Shoh yana bir necha bor shu ishini takrorladi, lekin har safar shu holat yuz beraverdi. Oxiri shoh o'z ishidan pushaymon bo'lib, xoja huzuriga keldi-da, uzr so'rab, u bilan ota-o'g'il tutindi, parivashdan ham kechirim tilab, og'a-singil tutindi. Shundan so'ng xoja jannatmonand bir bog' yasab, unga baland bir qasr soldirdi. Uning yoniga esa ibodat qilish uchun bir hujra qurdirdi. Gul yuzli go'zal u yerda oppoq kiyinib ibodatga mashg'ul bo'lar, tong otguncha Tangriga munojat aytib, birovning

umidi bilan yashar, lekin u odamning kimligini hech kimga ayon qilmasdi. Subh bo'lgach, firoq haqida kuy chalib, ashula aytib, eshitganlarni zor yig'latar, shomgacha toat-ibodat qilib, shomda yana o'z kuy-u ashulasini davom ettirardi. Parda tashqarisida o'tirgan odamlar nola-yu oh chekar, shoh ham goh-gohida shu yerda o'tirib, kuy va ashuladan hushini yo'qotar edi. Xoja dasturxon tuzab, imkoni boricha shohga takalluf ko'rsatar, ziyofat qilib ko'nglini xushlardi.

Men u shaharning nag'masozi, bazmlarning dostonnavozi edim. Kunlarim kuy va ashula bilan o'tardi. Men aytgan kanizak o'z kuy va qo'shiqlarini boshlagach, ishlarim yurishmay, elning e'tiboridan qola boshladim. Shunda o'z ahvolimga chora o'ylab topdim-da, xoja dargohiga yo'l oldim. U mahvash huzurida ekan, uzoqroqdan faryod chekdim. Ikkovlari ovozimni eshitib, faryodim sababini so'radilar. Men: «Sizlar menga zulm qildinglar», – deb javob qildim. Ular yana: «Ey mazlum, bizga tuhmat qilma, biz zulm qilishga o'rganmaganmiz. Balki bizni kimlar bilandir adashtirayotgandirsan?» dedilar. «Undoq emas, so'rasangiz, nima qilganingizni aytib beray, insof qilsangizlar, biron chora topib berarsiz, bo'lmasa, so'zimni yolg'onga chiqararsizlar», – dedim. Ular «Ayt!» – deyishgach, duo qilib, keyin o'z ahvolimni shoshilmasdan birma-bir aytib berdim. Ular so'zlarimni kulimsirab eshitdilar. So'ng men o'z istagimni bayon qilib: «Ruxsat bersangizlar, men bir necha fursat huzuringizda bo'lib ta'limingizni olsam. Men ojiz bo'lib ko'rinsam ham, musiqa ilmida ancha mashhurman. Bu mamlakatdagi ko'plab taniqli sozanda-yu hofizlar mening sho-

girdlarimdir. Aflotun ham soz chalishda menga teng kelolmaydi. Men bu yerda sizlar ayon qilgan ishlarning mohiyatini aytib berishga ojizman. Bu tarzda ashula aytib, eshituvchilarni goh o'ldirib, goh tiriltirishni hech kim ko'rmagan. Shu tufayli mening ishlarim kasod bo'ldi», – dedim.

Xoja va uning qizi mening so'zlarimni tinglab, xor-u zorligimga achindilar, shekilli, menga yaxshilik qilishdi. Xoja menga qarab: «Biz bilan hamkorlik qilishing, soz bilan mehribonimiz bo'lishing yaxshi, albatta. Lekin bir masala mushkulroq: gul yuzli sarvimga nomahramning xizmat qilishi ham, yaqinroq borishi ham mumkin emas», – dedi. Men unga: «Hunar umidi bilan men o'zimni mahram aylaganman, sizni bu xil g'amdan qutqazish uchun erkakligimdan voz kechganman», – dedim. Ikkovlari hayrat bilan boqishdi-da, mening rost gapirayotganimni taftish qilib, ishonch hosil etishdi. Keyin menga ko'pdan ko'p iltifot ko'rsatishdi. Men parda oldida xojaga hamdam bo'lib, parda ichida esa u mahbubaga sirdosh bo'lib xizmatlarini qilib, ularning ko'nglini olardim. Oy yuzli go'zal kuylar ekan, meni bir narsa hayron qoldirardi: uning barcha ashulalari ayriliq dardiga bag'ishlangan edi. Yana bir holatdan ham xabardor bo'ldim: u ba'zan parda ichida yashirincha yig'lar edi. G'ami kuchayib ketgan paytlarda men bilan mahram sifatida suhbatlashib, xayoliga kelgan ayrim so'zlar ma'nosini mendan so'rardi, men esa bilganimcha javob berardim. Ba'zida uyquusi qochsa, menga: «Afsona aytib bergin», – deb iltimos qilardi-da, rivoyatda ayriliq haqida gap borsa, beixtiyor yig'lashga tushardi. Bu holat haqida fikr yuritib, parivashning birov ishqida majnun

ekanligiga, unga zor-u mahzunligiga ishonch hosil qildim. Ichiga botib azob berayotgan hajr tikani zardoblarini ashulasi bilan tashqariga chiqarib tashlar ekan. Tun-u kun kuylamasa, alanga uni pinhona kuydirar ekan. Shularni aniqlagach, parivashni qiynayotgan dardning mohiyatini bilishga intildim. Har xil mavzularda u bilan suhbatlashar ekanman, bir kuni savol berishga ruxsat olib, uning birov ishqida yonib, hajrida oʻrtanayotganini sezganimni aytdim-da:

*«Manga bu gʻamni oshkor etsang,
Meni bu sirda rozdor etsang.
Toki boʻlgʻay hayotim imkoni,
Kimsa mendin eshitmagay oni.
Lek mumkindurur davo qilurum,
Saʼy etib hojating ravo qilurum», –*

dedim. Soʻzlarimni tinglagan gulrux biroz oʻylanib qoldi-da, soʻng: «Mening holatimni toʻgʻri anglab-san. Faqat iltimosingni aytmasang yaxshiroq boʻlardi. Chunki uni eshitishdan senga foyda yoʻq. Yurak sirlarimni anglashga juda ham qiziqayotgan boʻlsang, ikki ishdan biriga rozi boʻl: yo bu ishdan voz kechgil yoki dardimdan ogoh boʻlgach, bu yerdan bosh olib, boshqa mamlakatga ketishga rozi boʻlgin», – dedi. Bu soʻzlardan vahimaga tushib, bir necha kun gʻamgin boʻlib yurdim-u, keyin sabr-qarorsiz boʻlib, uni oʻz xonasida yolgʻiz uchratdim-da: «Sen chekayotgan dardni bilishga boʻlgan qiziqish menga tinchlik bermay, devona qilay deyapti. Mayli, soʻzlaringni eshitib boʻlgach, boshimni olib qayoqqa desang ketishga ahd qildim», – dedim. Mahvash: «Bu soʻzlaring qiziq

bo'ldi-ku, chunki sen o'z-o'zingga balo tilayapsan. Ahd qilgan bo'lsang, shaharda turmasdan bosh olib ketishingga qasam ichgin», – dedi. Men uning aytganini bajo qildim. Shundan so'ng mahvash o'z ahvolini hikoya qilishga tushdi:

«Men chekayotgan dard sabablarini so'rayapsan. So'zni avvalidan boshlamasam, g'amim senga yaxshi ayon bo'lmasligi mumkin. Bilginki, mening diyorum Chin mamlakatidir. O'sha yerda tug'ilib o'sganman. Bolalik paytimda ikki shohning o'zaro urushi tufayli men asirga tushib qoldim. Meni cho'rilikka sotishayotgan paytda xoja xaridor bo'lib sotib oldi. U meni yaxshi ko'rishining sababi shuki, men uning sotib olgan kaniziman. Xojaning farzandi yo'q edi, shuning uchun u meni o'z farzandidek e'zozlardi. Mening ovozim yoqimli, so'zlarim muloyim bo'lib, dilkash qo'shiqlarni kuylardim. Bundan xabardor bo'lgan xoja musiqa ilmining atoqli ulamolarini, mohir sozanda va xonandalarni uyga chaqirib, bir necha yil davomida mening iqtidorimni kamolotga yetkazdi. San'atim ovozi jahonga tarqalib, changimning shuhrati osmonga yetdi. Buning ustiga beqiyos husnim ovoza ustiga ovoza bo'ldi. Qancha-qancha badavlat kishilar menga ega bo'lish uchun behisob mol-u xazinalar taklif qilishdi, shunchalar ko'p mablag'lar to'kdilarki, oqibatda xoja o'z farzandini kanizga aylantirdi. Xaridorlarim ko'paygani sayin bozorim ham shunchalik qizirdi.

Shu paytlarda Chinda mohir bir naqqosh bo'lib, ismi Moniy edi. U mening suratimni yashirincha chizib, safar chog'ida bir shahanshohga ko'rsatibdi. Shoh suratga shaydo bo'lib, kanizakni sotib olish uchun Chinga bir necha uddaburon kishilar-

ni jo'natibdi. Ular xoja istagancha Xitoy xirojini to'lab, meni o'z yurtlariga olib ketdilar va yo'lda tez yurib shoh huzuriga yetkazdilar. Visolimga erishgan shoh benihoya xursand bo'ldi.

*Andoq o'ldiki, mensizin bir dam,
Tiyra erdi anga yorug' olam.
Umridin hosili jamolim anga,
Balki umri abad visolim anga.
...Mensizin yo'q edi dame komi,
Kom yo'q, xotirining oromi.
Bo'lmasam hamroh urmay ul bir gom,
Men navo chekmay, ichmay ul bir jom.
Men qayu nag'makim, ado aylab,
Ul chekib oh-u jon fido aylab.
Olmayin ko'z dame jamolimdin,
To'ymayin bir nafas visolimdin.*

Shoh qanchalik menga moyil bo'lsa, mening ko'nglim ham unga shunchalik moyil edi. Oqibatda shoh davlat-u sipohlarini unuta boshladi. Bir kuni u may ichib, bir kiyikni ko'rdi-da: «Qanday qilib o'ldiray?» – deb mendan so'rab qoldi. Men: «Oldin qo'lini bog'lab, so'ng uzoqdan turib o'ldirgin», – dedim. Shoh uni men aytganimdek qilib o'ldirdi. Uning bu ishini hech kim bajo qilolmasdi. Bu mahorati uchun jonimni fido qilsam arzirdi. Men baxtiqaro esa buning o'rniga shunday bema'ni so'zlarni aytibmanki, buning uchun yuz parcha qildirsa ham haqli edi. Shunda ham o'ldirmay, meni bir biyobonga tashlatibdi va qahr-lanib mast holda shaharga yo'l olibdi.

Ikki kecha-kunduz o'tgach, sotib olgan xoja meni sog'inib, ko'rish uchun Xitoydan safarga

chiqqan ekan. U Xorazmga tezroq yetib borish uchun ikkita quli bilan kechasi-yu kunduz yo'l bosar ekan, tun paytida oti yo'ldan chiqib men yotgan dasht-u biyobonga borib qolibdi. Xojani uyqu bosib, otdan yiqilibdi-da, uxlab qolibdi. Ko'zini ochganda atrof yorishib ketgan ekan. Yonidagi yuz qadamcha yo'lga nazar tashlasa, ko'ziga bir qora ko'rinibdi. U qo'l-oyog'i bog'langan odamga o'xshab yotganmish. Xoja yaqin kelib qarasa, sochlari bilan bog'lab tashlangan bir ayol ekan. «O'likmikan, tirikmikan?» – deb, qo'l-oyog'ini yechib qarasa, yuzida qoni qolmagan bu ayolning bo'y-u basti, ko'z-u qoshi menga o'xsharmish. Oyog'iga tushgan sochlari-yu, zaqani va lablaridagi xoli ham meni eslatarmish. Xoja o'zining sog' yoki mastligini-yu, uyqudami, uyg'oqligini bilmay hayratlanib, xayol surib o'tirarkan, uzoqda bir karvonning qorasi ko'rinibdi. Bir qulini o'sha tomonga yo'llab karvonni chaqirtiribdi-da, odamlarni shu yerga tushiribdi. Karvon ahli ichida meni ko'rish uchun kelayotgan bir necha dugonam ham bor ekan. Xoja ularga meni ko'rsatgan ekan, nishonalarimdan meni tanishibdi va yoqalarini yirtib, oh-faryod ura boshlashibdi. Meni o'lgan deb o'ylagan xoja-yu dugonalarim meni ko'z yoshlari bilan yuvib, qimmatbaho ipakdan kafan bichib, unga kofur (oq xushbo'y modda) sepishib, ipak bilan o'rab, gulob bilan xushbo'y qilishibdi. Gulob hididan o'zimga kelganimda, hamma yuzlarini iyagimga surtishib, dimog'imga yaxshi islar tutishibdi. Ko'zimni ochsam, ularning har biri boshim ustida har xil so'zlarni aytib turishardi. Shunda men ularga qarab: «Bunda turmay tezlik bilan jo'nab ketinglar, chunki bu

vodiy ofat manzilidir», – dedim. Shunda meni bir kajavaga o'tqazib, og'zimga sharbat tutishib, xushbo'y ko'katlar bilan quvvat berishib, ikki kecha-kunduz yo'l yurdilar. Mening ham sihatim yaxshilandi. Tuyalar charchagach, xoja bir chashma oldida karvonni to'xtatdi. Ko'm-ko'k yaylovda koshona yasab, taxt qurib, uning ustida menga orom berdilar. Xoja oldimga kelib boshimdan o'tgan voqealarni so'radi, unga barchasini aytib berdim. Xoja birdan boshini ushlaganicha jim o'tirdi-da, yana bir on boshini quyi soldi.

Men uning ahvollarini so'radim. U ham o'z qissasini aytdi va mendan «Endi nima qilmoqchisan?» – deb so'radi. Men: «Garchi shoh o'z kaniziga g'azab qilgan ekan, men bunga sazovor edim. Shoh qahr qilgan bo'lsa ham, u o'ldirgan odamni Tangri asradi. Kishi o'lganga tig'urmaydi, bir o'likni ikki bor o'ldirmaydi. Sizlar meni o'ragan kafanni kiyib, uning dargohiga borsam-da, ven qilgan gunohlarimning jazosini tortdim. Xudo menga yangidan jon ato qildi, uni ham shohga fido qilishni istab, bu yerga keldim. Qatl qiladigan bo'lsa ham, afv qilishni istasa ham men bandasiman. Aybim bo'lsa, o'zi panohim, uning karam-utulfi esa mening orzuyimdir, deb aytsam, hech shubha yo'qki, shoh afv etib, benihoya yaxshilik ko'rsatadi», – deb javob qildim. Bu so'zlarimni eshitgan xoja-yu xalq faryod urib: «Bu xohishing xatodir, yo esingdan ayrildingmiki, bo'lmag'ur gaplarni aytyapsan. Birgina so'zing uchun qoningni to'kkan shohga joningni fido qilishing nimasi? Shoh kuydiruvchi bir shu'ladir. Har kimga bu shu'la tegsa, uning kuyib kul bo'lishi muqarrar. O'z ixtiyori bilan o't ichiga kirmoq esa o'zini kuy-

dirishdan boshqa narsa emasdir. Biron narsadan ranjib, g'azab o'tida yonayotgan shohdan qancha uzoqqa qochilsa, shuncha ofat kamroq bo'ladi. G'azabi tinchigach, senga ravo ko'rgan ishidan pushaymon bo'lganligi haqidagi xabar har tarafga tarqaladi. Afsuslanayotgan bo'lsa, uning huzuriga borish oson bo'ladi. Qilgan ishini to'g'ri deb bilayotgan bo'lsa, joningni qutqargan bo'lamiz, xolos», – dedilar. Xoja bu so'zlarini tugatgandan so'ng barchalari maslahatlashib: «Hozircha biron tomonga qochib bormoq kerak», – degan fikrda to'xtashdi. Eng uzoq manzil Xorazm edi, shuning uchun o'sha tarafga qarab yo'l oldik. Men bu shohdan shu tarzda ayrilgach, hajrida tirik qolmasligimni bildim, o'zimni o'lgan deb gumon qildim, zero hajr o'lim bilan tengdir. Shu tufayli menga libos bo'lgan kafanni kiyib yurishni odat qildim. Visolidan ayrilganim uchun kafanim oq libosdir.

Bu shaharga yetib kelgach, shu yerga tushdik. Sen bo'lib o'tgan barcha ishlardan ogohsan. Bu yerning shohi oldida yolg'on so'zlashim, uning diliga yuz xil iztirob solganimni ko'nglim xohishi deb bilmagin. U valine'matimga vafo ifodasi edi. Senga sirlarimni oshkor qildim. Sen ham menga bergan va'dang ustidan chiqqin-da, bu diyorda turmay tezroq ketgil».

Men bu xil so'zlarni eshitgach, sarvi gulrux bilan xayrlashdim-da, mamlakatma-mamlakat yurib, qadam ba qadam yo'l bosgan bo'lsam-da, bu sirni hech kimga aytmadim. Shoh: «Afsona ayt!» – deb hukm qilgach, bundan yaxshi afsonani topolmadim. Xususan, bunday kofuriy rang (oppoq) qasrni ko'rib, firoq ichida iztirob chekib, oq kiyim kiyib olgan, yo'q, kiyim emas, oppoq kafan

kiyib, unga kofur sepib olgan hurvash go'zal yodimga keldi. Olamning ajoyiboti bo'lgan u sohib-jamol bu qasrga juda munosibdir».

Qissa aytuvchi musofir o'z so'zini tugatgunga qadar g'oyib bo'lgan mahbubasidan nishon topgan Bahrom yuz marta hushini yo'qotib, yuzdan ortiq o'lib tirilgan edi-yu, ushbu afsonadan o'lib, shu afsonadan tirilgan edi. Hikoyachi o'zining fig'onidan ogoh bo'lib qolsa va bir nafas afsonasini to'xtatsa, boshqa voqeaga o'tib ketishi mumkin, degan xayolda nola qilishdan o'zini zo'rg'a asrab turardi. Musofir afsonani oxirigacha aytib tugatgach, shoh otashin fig'on tortib, o'z oldiga uni chaqirdi-da, qattiq quchoqladi-yu, ruhining bulbuli uchgandek o'lgan kishiga o'xshab o'zidan ketdi. Bunday afsonani eshitib, behush bo'lgan odam yana o'ziga kelib nima ham qila olardi?!

* * *

Shoh Bahrom o'zining g'oyib bo'lgan mahbubasidan nishon topgach, sahargacha beqaror bo'lib, chala so'yilgan hayvondek azob chekdi. Shavq o'tida o'rtanayotgan shoh sabr qilishga chiday olmay, iztirobda o'zini u yoqdan bu yoqqa urardi. Sal tinchlansa, musofirni o'z qissasini takrorlashga undar, hajr dardida qiynalsa ham, visol umidi bilan orom topardi. Shu tarzda oqshomni tongga uladi. Subh kulgusi olamga yoyilib, quyosh shu'lalari jahonni yoritgach, shoh avvaliga Dilorom manzili - Xorazm tomon darhol yo'lga tushish istagini bildirdi. Lekin davlat arkonlari bo'lgan amaldorlar bir necha kun sabr qilish zarurligini uqdirib: «Shohning zaifligi davom eta-

yotgan bu kunlarda uzoq safarga otlanish to'g'ri bo'lmaydi», – deyishdi. Tabiblar ham: «Tog' qancha ulug'vor bo'lsa ham, viqor-u sokinlikni odat qilgan. Agar u harakatga tushsa, qiyomat oshkor bo'ladi. Shuning uchun bir necha kun bu g'amga chidab, orom olgin-da, olamni buzmagin», – deb maslahat berishdi. Keyin xojaga:

*«Kim bu yanglig' xabar eshittuk jazm,
Ki bor emish makoningiz Xorazm.
Bu xabardin agarchi bo'lduk shod,
Yetti yuz nav' bandimizga kushod.
Lek holatni anglagan hangom,
Tutmangiz anda bir nafas orom.
Kecha-kunduz demay xirom qiling,
Uyquni biz kabi harom qiling», –*

degan mazmunda maktub yozib, tezkor choparlar qo'liga topshirishdi. Shoh ushbu xat ichiga o'zining dil so'zlari bitilgan maktubni ham yashirincha qo'shib qo'ydi. Unda Bahrom o'zining Diloromga bo'lgan samimiy muhabbatini izhor etib, tezroq kelishini iltimos qilgandi. Shoh o'zining Xorazmga borolmayotganini manmanlikka yo'ymaslik, balki o'zining og'ir betobligi tufayli safarga chiqa olmaganini tushunishini iltijo qilib:

*«Bo'yla majruh-u notavondurman,
Notavon jism-u, xasta jondurman.
Kel-vu o'lg'on tanimga jon bo'lg'il,
Jismima moyayi ravon bo'lg'il»*

kabi ta'sirchan so'zlarni yozgan edi.

Yana Xorazm shohiga ham maktub yozib, unda xojaga Xorazmning bir yillik molini berib, uni tezlik bilan o'z tomoniga jo'natishi buyurilgan edi. Choparlar shamoldek tez yurib, Xorazmga yetib bordilar-da, xojaning bog'ini topib, maktubni qo'liga tutqazdilar. Xoja uni olgach, sajda qilib, Diloromga yo'llangan xatni ham egasiga topshirib, ikkovlarining boshlari osmonga yetdi. Xorazm shohi esa o'ziga yuborilgan maktubni o'qib, darhol Bahrom buyrug'ini bajo qildi: xazinadan tegishli mablag'ni olib, xojaga yetkazdi. Xoja-yu Dilorom yanada shodlanishib, Bahrom taxti tomon yo'l oldilar-da, tez yurib ko'zlagan manzillariga yaqinlashdilar.

Karvon bilan shahar orasida bir manzil masofa qolganida shoh kechasi, barcha uxlayotgan mahalda yashirincha o'z gulchehrasi tomon yo'l olib, saharda karvon qo'ngan joyga yetib keldi. Bu payt karvon ahli shirin uyquda edi. Chashma boshida katta bir chinor bo'lib ichida g'ordek kavak ko'rinib turardi. Chashma oldiga qurilgan chodir uy ichida esa Dilorom uxlab yotardi. Shoh otini bir toshga mahkam qilib bog'ladi-da, chinor tomon yurdi. Keyin chinor bag'ridagi g'orga qadam bosib, u yerdan Diloromga nazar tashladi. Ko'p o'tmay, parivash ham uyg'onib ketdi va oldin Tangriga shukrona aytib sajda qildi-da, keyin qo'liga changni olib oshiqona ashula boshladi. Unda Dilorom shoh firoqidan nola qilib, uning ishtiyoqidan oh chekardi. So'ng u chashma oldiga borib, yangi bir ashulani kuylay ketdi. Shoh dildorining har bir ashulasini tinglar ekan, ko'zidan g'amli yoshlarini oqizib, o'zidan ketardi. Dilorom esa boshqa bir ashulani kuylarkan, shunday fig'on chekardi:

*«Ki bu yo'l ne balo uzog' o'ldi,
Tobidin dog'im uzra dog' o'ldi.
Yetti og'zimg'a ranjdin jonim,
Qolmadi g'am yemakka imkonim.
Umrnin noumid bo'ldim lo!
Mehnati hajr ichinda o'ldim lo!
Ul kun o'lg'aymu, ey sipehri daniy,
Ki solib shoh xizmatig'a meni.
Qulog'ig'a so'zumni yetkursang,
Ayog'ig'a ko'zumni yetkursang.
Vasldin hosil o'lsa darmonim,
Bo'lmag'ay o'lsam o'zga armonim!»*

Bu xil ashulani eshitgan shoh oh tortib, yoqasini yirtdi. Daraxt bag'ridagi g'ordan yuz nola-yu fig'on bilan yugurib chiqdi-da, borib o'zini yorining oyog'iga tashladi, go'yo oftobga sig'inuvchi kishi quyoshni ko'rib sajda qilgandek bo'ldi va parini ko'rgan devonadek hushini yo'qotib yiqildi. Bu holatni ko'rgan parivash hayratdan lol bo'lib turardi. Keyin shoh oyog'iga ko'zidan durlar to'kib, oyog'ini o'pgach, u ham o'zidan ketdi. Yer ustida ikkovi bexud bo'lib o'zlariga kelmay yotishardi. Quyosh olamga o'zining nurli ipaklarini yoygach, karvon ahli uyg'onishib ularning ahvollaridan xabardor bo'ldilar va ikkovining boshi uzra to'plandilar. Xoja bu ajoyib holni kuzatar ekan, ularning boshlariga iqbol qushi qo'nganini bildi, keyin odamlarni tarqatib bir oq chodir olib keldi-da, ular yotgan yerga o'rnatdi. Ikki dilxoh o'zlariga kelishgach, nimalar haqida suhbatlashganlaridan men ogoh emasman, chunki ularni o'z og'ushiga olgan yotoqxonaga elgina emas, sahar nasimi ham sirdosh bo'lolmasdi. Xullas, shoh murodiga yetdi, u xursand bo'lib xo-

jani o'ziga maxsus vazir etib tayinlab, savdogarlik ishlaridan qutqardi. Odamlar vaqtni g'animat bilib shahar tomon yo'lga tushdilar.

* * *

Shoh Bahrom shaharga qaytgach, jismi tamomila sog'ayib, yana bazmlarga berilib ketdi. U har haftaning yetti kunini yetti rango-rang qasrda o'tkazib, mahvash dildorlari qo'lidan may ichishni odatga aylantirdi. Qasrlardagi gulchehralar unga aziz bo'lsalar ham, u o'z mahbubasi Diloromni barchasidan ko'proq sevardi. Shoh bir necha yilni shu tarzda bazmlar bilan o'tkazdi. Lekin podshoh uch yuz yil davr-u davron sursa ham, barcha taxtlarni egallab, butun jahonga hukmdorlik qilsa ham, yetti osmon gumbazida orom olib, Mirrix (Mars) sayyorasi uning dargohida eshik og'asi bo'lib xizmat qilsa ham, hamma narsani qoldirib ketishi kerak bo'ladi. Shoh Bahromning ham barcha murodlari hosil bo'lgach, hayoti shunday natija bilan tugadi. U yetti qasrda to'xtovsiz may ichar ekan, qaysi manzilda bo'lsa ham gul yuzli sarvdek go'zal yori Dilorom unga hamrohlik qilardi. U o'z changini yangratib, qo'shiq kuylab shoh ko'nglini shod etardi. Bahrom ovga chiqqan mahalda ham mahbubasi ot ustida chang chalib, ashula aytib borardi. Xonandasi ham, soqiysi ham, umriboqiysi ham Dilorom edi. U shoh bazmlarining bezagi bo'lib hukmdorni xursand etar, Bahrom aysh mahalida ham, toat paytida ham sevimli mahbubasini bir soat ko'rmay turolmas edi.

Bir kuni shoh nihoyatda keng bir maydonda ov qildi. U yerda hayvonlar yulduzlardek son-sanoq-

siz bo'lib, qochish yo'llari ham berk edi. Ovchilar ham, ovlanuvchi hayvonlar ham g'oyatda ko'p edi. Keng o'tloq otliqlarga to'la bo'lib, ular bir necha qator davra hosil qilishgandi. Ov qilinadigan joyning doirasi uch yog'och, ovchilar esa o'n besh saf edilar. Ov boshlangach, ko'm-ko'k o'tloq hayvonlar qonidan lolazorga aylandi. Bu qonlar sel bo'lib oqardi.

Shoh Bahrom rahm-shafqatni unutib, ko'plab hayvonlarni o'ldirar ekan, yonidagi mingga yaqin mergan yigitlar ham undan kam ov qilmaslikka tirishar edilar. Safdagi otliqlar yomg'irdek o'q yog'dirishganda, hayvonlar qay tomonga yugurmasinlar, qochib qutula olmasdilar. Ovchilar necha o'n minglab begunoh hayvonlarni rahmsizlik bilan o'ldirar ekanlar, kiyimlari qop-qora qonga bo'yalgandi. U manzilda go'yo qondan bir guliston paydo bo'lgandek edi.

Bu manzildagi o'tloqning osti balchiq va suvdan iborat bo'lgan botqoqlik ekan. Uning yuzini chang-to'zon bosgach, yomg'ir yog'ganida, u yerdan o't-o'lanlar o'sib chiqqan, keyin o'rmonga aylangan, daraxtlar ildiz otib, botqoq ostini qotirib qo'ygan ekan. Ov vaqtida oqqan qonlar o'tloq ostiga singigach, botqoqlik suviga yetib borib, unga qo'shildi-da, balchiq paydo qilib, ovchilarning beligacha yetib bordi. Otlar ham balchiqqa bota boshlashdi. Shu payt quyosh yuzini bulutlar to'sdi-da, qattiq yomg'ir yog'a boshladi. Go'yo Nuh to'foni yuz berganga o'xshardi. Ov maydoni odamlarga to'lib ketgach, yerning yuki og'irligidan egilib, yuz ming balchiq ostiga kirib ketdi. Barchalari ovga borib, ov qilish joyidagi tuzoqqa ilindilar. Sher bilan jayron, ya'ni Bahrom bilan Dilorom ham shu

tuzoqqa tushib qoldilar. Ikkovlari ham qutulish imkoni yo'qligini anglab, bir-birlari bilan mahkam quchoqlashganlaricha balchiq ostiga kirib ketdilar. Shuncha behisob lashkarlar chumolilardek to'olon ko'tarishdi-yu, barchalari chumolilardek yer ostiga ravona bo'lishdi. Bu g'azabkor sipohlar chumolilardek yer ostiga kirishgan ekan, Sulaymon ham ravona bo'lmay qolmadi.

Barcha olam ahlining oqibat boradigan joyi go'r (qabr) dir. Uning ismi ham Bahromi Go'r edi. Ajdarihoga o'xshaydigan bu razil dunyoning doimiy odati odamlarni yutishdan iborat. U ana shu odati bo'yicha yuta olganicha xalqni yutdi. Lekin uning yutishida bir qonun mavjud bo'lib, u bir yoki o'n, yuz yoki ming kishini yamlardi. Lekin bu jihatdan qaraganda, Bahrom ishi boshqacharoq yuz berdi, ya'ni bu dahshatli ajdaho uni shuncha obro', xazina, jahonga sig'magan sipohi bilan bir damda shunday yutib yubordiki, undan hech kimsa xabar topolmay qoldi.

*Alloh – Alloh! Ne ajdahodur bu,
Ajdaho demakim, balodur bu.
...Toki jondin erur nishon kishig'a,
Andin ermas dame amon kishig'a.
Jonni olg'on bila dag'i qo'yimas,
Tanni yutqon bila dag'i to'yimas.
Jismi xokini xokisor aylar,
Ko'kka ajzosini g'ubor aylar.*



SADDI ISKANDARIY



ISKANDARNING YOSHLIGI

Uzoq tarixdan beri Eronda peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar hamda sosoniylar deb atalgan sulolalar hukmronlik qilib kelishgan bo'lib, barchasini qo'shganda ularning hukmronligi 4 336 yil davom etgan. Hikoya qilinayotgan vaqtda, eramizdan avvalgi III asrda shu mamlakatda Doro nomli shoh ulkan Eron mamlakatini boshqarar, qo'shni davlatlar unga bo'ysunib, har yili xiroj to'lab turishardi.

Rum davlati shohi Faylaqus Iskandarni bir vayrona ichida endigina tug'ilib yig'layotgani, onasi esa vafot etganini ko'rib, uni o'ziga o'g'il qilib oladi va har tomonlama parvarish qilib, mamlakatni idora qilish salohiyatiga ega bo'lgan davlat arbobi sifatida yetishtirishni saroy a'yonlariga topshiradi. Naqumohis degan donishmand alloma uni Faylaqus tayinlaganicha parvarish qila boshlaydi.

Iskandar shunday qobiliyatli bola bo'lib chiqdiki, ustoz bergan ta'limning o'n marta ko'pini tez o'rganib olardi. Ko'pdan ko'p bilimlarni egallagan shahzoda harbiy bilimlarni ham jahd bilan o'rganib boshladi. Uning otgan o'qlari yulduzlarning ko'zlarigacha borib yetar, kamandi o'qlari bilan falak qal'asi devor-u burjlarini buzib tashlar, gurzi ishlatishni mashq qilib olgach, qattiq toshlardan osmongacha gard yetkaza olardi. Xullas, harb sohasida hech kim yeta olmaydigan darajaga erishib, el orasida mashhur bo'ldi.

Bu payt otasi ancha qarib qolgan bo'lib, hayot bilan vidolashish davri yaqinlashib qolgandi.

Qaddining egikligidan xalq uning tuproq sari yo'l olayotganini anglardi. Jismini kasalliklar egallagan chog'da Iskandar shohlik ishlarini boshlashga tayyor bo'lib edi. Faylaqus o'limi muqarrarligini sezib, toj-u taxtini Iskandarga topshirdi. O'g'liga taxtini topshirgach, o'zi taxta ustiga yo'l oldi. Go'yoki daraxt ikki shox berdi-yu, biridan taxta tobut, ikkinchisidan taxt yo'ndilar.

Iskandar otasi o'limini ko'rib, jahonni tark etishiga oz qoldi. Otasining qilgan vasiyati unga dalda bo'lib, bu niyatidan qaytardi. «Mulkinga begonani qo'ymagil, harimim aro hech bir nomunosib inson qadam qo'ymasin. Seni istab topganimdan murodim shu ediki, qachon olam bilan xayrlashsam, mening o'rnimni egallasang, mening nomim shuhratim yelga sovrilmaydi», – deb ta'kidlagan edi otasi.

Bu so'z Iskandarning yodiga kelgach, ota pardasiga xursandchilik yetkazishga ahd qildi. Pokiza zilol suviga xas-xashak tushirishni ham o'ziga uyat bildi. Otasi motamini tugatishgach, taxt bilan muhri uzukni munosib ko'rib, otasining taxtiga chiqib o'tirdi. Xursandchiliklar qilindi, jomlar ko'tarildi.

Soqiy, g'amni unuttiruvchi javhariy maydan ber, ki undan simirsam, g'amim qolmasin, ota azasidan g'amim qolmasin.

Mug'anniy, shodlik sozini boshla, u bilan shodlik navosini chal.

Faylaqus o'rtadan chiqib, Iskandarga toj-u taxtini berib ketdi.

Iskandar – adolatli hukmdor

Iskandar olamning eng pok kishilaridan, bilim ichida ham yagona allomalardan edi. Unga toj bilan taxt ma'qul kelmay, bu tashvishi oldida g'oyatda malolatli edi. Agar ota vasiyatlariga qarshi borib, o'z ko'nglini shod etay desa, diliga xush kelmasdi. Ko'p o'ylab, fikrlab ko'rgach, xalqni yig'ib, bir anjuman tuzdi, unga mamlakatning barcha obro'li, donishmand kishilari yig'ildi. Shunda Iskandar g'oyatda yoqimli so'zlarni aytdi:

«Ey mamlakatingiz Rum bo'lgan qavmim, oliynob, boy-badavlat bo'lsangiz ham, Tangriga men kabi bir bandasiz. Men siz kabi emasman, sizlarga qaraganda zaifroqman, chunki yoshroqman, otasiz, g'am chekkan bir kimsasizman. Alloh otamni lutf aylab, bu o'lkaga podshoh qilgan bo'lsa, u, bu ishga sazovor edi, bu yukni ko'tarishga quvvati ham yetarli edi. Ajdodlarim ham bu mulk ahliga hukmronlik qilishgan bo'lsa, ular ham taxtlariga munosib, qudratli va baxtiyor kishilar edilar.

Men esam bag'oyat kuchsiz, davlatni boshqarish ishiga tayyor bo'lmagan bir yigitman, bu ishga kuchli, qudratli, mendek zaif bo'lmagan kishi kerak. Axir, sher tortgan yukni chumoliga tortishi osonmi? Filning yukini pashshaga ortib bo'ladimi? Shohlik qilishga mening niyatim ham yo'q, bundan voz kechsam ham, uzrliman. Men o'z fikrimni aytdim, bu ishda nimalardan tashvishlanayotganimni gapirib berdim.

Siz endi o'zingizga boshqa shoh toping, bu o'lkaga olampanoh toping.

U har bir ishda zamon ahlining munosibi, shohlig' ishiga loyiq inson bo'lsin. U quyoshdek qudratli, mehrga boy-u, fikri tiniq, adolatda fasli

navro'zdek, siyosatda jahonni kuydiruvchi chaqmoqdek, har qanday dushmanga qarshi chora topa oladigan, kezi kelganda qattiqqo'l, ayni chog'da elparvar bo'lsin. O'shanday odamga davlatni topshiring, boshini toj bilan bezating. U ehson bulutini yog'dirib, mamlakat bo'stonini bog'i Eramdek bezatsin. Dushmanlar holini parishonhol qilib o'tga qilich selidan suv ursin. Zo'ravonlarning birontasi raiyatga sitam qilsa, bunday zo'ravonlar qo'lini qirqtirsin. Musofirlar uchun yo'llar doim ochiq bo'lsin, qaroqchining qorasini ko'rgizmasin. O'g'rilarning yo'llarini o'tolmaydigan qilib, qo'lini qisqa qilsin.

Zulm ta'limini berishni mutlaqo yo'qotsin. Haq buyurgan hamma narsalarni bajarib, rost so'zlovchi odamlar qo'lini uzaytirsin. Zolimlarga yo'l bermay, elga tinchlik-totuvlik yetkazsin». Ochiq yuzli shoh so'zini tugatgach, odamlarning har tomondan qichqiriqlari eshitildi.

«Ey odil shahanshohimiz! Nega bizni faryod chektiryapsan? Elga adolatingdan yetar chog'da bunday zulmni ravo ko'rding? Shunday so'zlarni so'zlayapsanki, bu xalq bag'rini qonga aylantiryapti. Bu so'zlarni aytganingdan ko'ra qonimizni oqizgil-u, yo'lingda jonimiz fido bo'lsin. Sen bu el boshiidin yiroq bo'lguningcha, ular jonlaridan yiroq bo'lsalar yaxshiroq-ku! Sening so'zlaring jon bag'ishlovchidir, ular bizning hammamizni baravariga o'ldirishiga oz qoldi-ku!

Sening saltanatni tark etishing haqida so'z bo'lishi mumkinmi? Sening o'rningni egallovchi zot bo'lishi mumkinmi? Bugun olam ichida falaklar siridan sen ogoh bo'lmagan ilmlar topilmaydi. Buni faqat Rum ahligina emas, jahon xalqi ham yaxshi biladi. Falak quyoshi – sening munavvar

chehrang. Jahon sen kabi shohni, quyosh tal'at, Mushtariy nurli hukmdorni ko'rmagan. Go'yoki yuzing adlidan gul bilan xurshiddan atr-u nur yog'ilib turgandek. Sening vujudingda aqlga do'stlik ko'rinib turibdi, jamolingda esa jahondorlik ayon. Sening zoting aro bu himmatki bordir, sanga Rum sultonlig'i ordir.

Biz bilamizki, bu mamlakat ham senga kam, umidimiz borki, butun jahon sening qo'lingga tushgay. Osmon avzoyidan ochiq va yashirin Jahon senikidir degan hukm yozib qo'yilibdi.

Yana boshqa hukmdorni farmon beruvchi qilmagil. Jahon ahlini benavo qilmag'il. Agar sen bu ishni qabul qilmasang, bu mulk ahli faryodiga yetmasang, merosxo'rlik mulkingga boshqani qo'yib, uy ichiga begonani ravo ko'rsang, bu baloga ne qilarimizni bilmay, barimiz vatanni tashlab ketishni ixtiyor qilamiz. Har mamlakatda gadolikka tushsak, bu mojaroni Xudo sendan so'raydi».

Iskandar ularning bu xil alomatlarini, alomatlari emas, qiyomatlarini ko'rib, aytgan gaplariga pushaymon bo'lib, el holini ko'rib ko'ngli buzildi. Ham tobelarning yaxshi niyatlari, ham otasining vasiyatlari unga kuchli ta'sir ko'rsatdiki, uni o'zgartirishning iloji qolmadi. Ko'ngli haddan tashqari buzildi-yu, xalq iltimosini qabul qildi.

Shahzoda rozilik bergach, Arastu tezgina o'rnidan turdi-da, Iskandar boshidagi tojni olib, boshi ustida baland tutdi. Arastu uning bir qo'lidan, dono Balinos yana bir qo'lidan ushlab, shohga madh-u sano aytishib, uni taxt ustiga chiqardilar. Iskandar qadamidan taxt ulug' poya topib, quyosh boshi ustiga baxt soya soldi. Arastu bilan Balinos emas, go'yo Xizr bilan Ilyos edilar. Iskandarni taxtda ko'tarib olib

kelisharkan, hamma odamlar yonlaridagi pullarini uning boshidan sochishar edi.

Xalq shodligi nihoyasiga yetgach, Iskandar xursandlik bilan taxtidan tushdi-da, salqin xonaga kirib, kichik bazm tuzib, may ichdi. Shoh va aholi o'rtasida turli masalalar bo'yicha savol-javoblar bo'ldi. Odamlar chiqib keta boshlagach, shoh ko'zini uyqu bosdi. Yarim kechada sajda uchun turib, ko'zidan shodlik yoshlari oqib ibodat qildi.

Quyosh chiqib, chor atrofni yoritgach, yulduzlar ko'zdan yo'qoldilar. Iskandar yana taxtiga chiqib o'tirdi. Chor atrofni yana odamlar o'rab oldilar. Yig'ilganlarga qarab shoh shunday nutq so'zladi:

«Ilohim menga xalq ahvolini so'rash huquqini berdi. Ichingizda kimning menga iltimosi bo'lsa, o'z ahvolini arz qilsin. Qoshimda so'zini aytar ekan, meni bir o'ziday gumon etsin. Taxtim dahshatidan ham, tojimdandan ham aslo qo'rqmasin. Meni shoh deb iztirob chekmasin, hamma gapini to'liq so'zlasin».

Xalq arzi hol aytishni boshladi, shoh sahardan qorong'i tushgunga qadar ularning dardiga davo qildi. Odam o'ldirganning bo'yniga urib, qo'lni kestirganning qo'lini kestirib, mazluma-yu mushtoqlarga non berib, bechoralarga rahm qilib, zolim ahlini yerga past qilib, zulm ahlini yerga bosh qo'ydi. Zulm ahlining boshini past qilgan shoh yaxshi qiladi: jafokor jafokorni boshi egik holda ko'radi.

Shu tarzda yarim kungacha el so'zlarini eshitib choralar ko'rdi. Otasi zamonida qaysi ish xaloyiqqa ozor bergan bo'lsa, ularni el boshidan daf etdi. Oldingi shohlar rasm etgan xalq manfaatiga qarshi ishlar, ba'zi qonunlarni bekor qildi. Hamma sohada adolat bilan ish ko'ra boshladi. Raiyatning ehtiyojini hisobga olib, ikki yil ularni barcha xiroj-

lardan ozod etdi. Hamma xodimlarni qattiq intizom bilan ishlashga o'rgatib, yomonlarni jazolab, ish o'rnidan pasaytirib turdi. Yaxshilarni tarbiya qilib, nochor va majruhlariga yordam berib turdi.

Yana narxlar bilan ham shug'ullanib, qimmat sotuvchilarni tanbehlab turdi. Tarozining ikki boshini tekislab, muhr bilan toshini temirdan yasattirdi. Qari - o'lchash asbobi ham shu tarzda temirdan ishlanib, xalq gazmollarni aldanib kam olishdan qutuldi. Katta tarozuni ham ixtiro qilib, olibsotarlar o'rtasidagi janjallarga barham berdi. Halollikni ta'minlaydigan choralar qo'llab, o'g'rilik, egrilik yo'llarini to'sib tashladi.

Yo'llarga qorovullar qo'yib, yo'lovchilarni har turli xafv-xatardan qutqazdi. Adolat qo'lini shunday baland tutdiki, kiyik arslondan qo'rqmaydigan bo'ldi. Tustovuq bilan qarchig'ay yonma-yon yotardi. Oz vaqt ichida Iskandar shunday choralar ko'rdiki, adolatdan Rum ahli boyib ketdilar.

*Shahekim, adolatdur oning ishi,
Teng ermas anga shohlardan kishi.*

Yosh, adolatparvar shoh mamlakatni obod qilish uchun yana ko'p ishlarni bajardi. Hokim ko'p yillar davomida o'rgatgani kabi u adolat havosini yaxshi bilib olgandi. Unga adolat ham, shijoat ham, hikmat ham yor edi. Quyoshdek olam uzra bayroq ko'tarib, jahonda shunday ishlarni qildiki, hech kim bu jahonda bajargan emasdi. Shunday mo'jizalarni yaratdiki, ko'plab jahondorlar uning qudrati oldida mag'lub bo'ldilar. U qilgan ishlarni aytib tugatish uchun asrlar ham yetmaydi. Barcha qilganini aytib ham bo'lmaydi, so'z boshlagan bu

aytilganlarni tugatishga ham ojizlik qiladi. Yaxshisi, bo'lib o'tgan hodisalarni qisqartirib bayon qilingani durust. Shu yo'lni tutsam, maqsadimni amalga oshirgan bo'laman.

Iskandar – buyuk sarkarda

Hamonki, Iskandar burun Rum taxtiga shoh bo'lgan edi. Dushmanlarini halok qilib, borgan yerlarini dushmanlaridan pokladi. Keyin jahonni ochmoq, yer-u dengizlarni o'rganish uchun qo'shin bilan yo'lga otlandi. Avval qasos olish uchun Mag'rib zaminga yurish qildi. Zangibor ahlini yengib, keyin Doro bilan to'qnashdi. Undan ustun kelgach, Farang mulkini fath ayladi. U mamlakat eli taslim bo'lgach, Qrim bilan Andalus o'lkalari ustidan g'alaba qozondi. Misr mulkini fath etib, taxtiga o'ltirdi. Bu mamlakatning ob-havosini yoqtirib qolib, Iskandariya shahrini bunyod etdi. Zardushtlar dafig'a kurash ochib, ularning o'tlarini suv bilan barbod qildi. Iroq va Ajamga yo'l ochib, u yerlar ohangidan navo topdi. Iroqi Arabga ot surub, u o'lkalarning xalqlarini o'z qadamidan bahramand etdi.

Shom-u Halab o'lkalarini egallab, g'alaba qozondi. Suhayl kabi Yaman sari yo'l olib, aqiq toshlaridan bahramand bo'ldi. Yer o'pmak maqsadi bilan Makka tomon yurdi, uni qabul qilish uchun Makka eshigi ochildi. Sohildan ancha yurib, yana Fors fathi uchun jang qilib g'olib bo'ldi. Bu ishlardan so'ng shimol sari yo'l oldi, Xorazm mamlakatini ham qo'lga kiritdi. Shundan so'ng Iskandar dashti Qipchoq, Saqsin-u Saqlab, Os-u Rus, Cherkas-u Gurji mamlakatlarini egallab,

barcha xalqlarini o'ziga qaram qilib oldi. So'ng hukmdor Sharq tomon yo'l olib, Farxorni xarob qilib, keyin Movarounnahrni bosib oldi va bu yerda Samarqand shahrini bunyod etdi, Chigil bilan Yag'mo o'lkalarini zabt etgach, Chin tomon safar ayladi. Hind mamlakatini ham egallab, barcha butxonalarni vayron qilib, keyin Janubga yo'l soldi. Sind daryosini kechib o'tib, Kirmon, Kech-u Mukron yurtlarini kezgach, so'ng Xurosonni zabt etib, bu yerda Hirot shahriga asos soladi.

Isfahon dashtida Ray shahrini egallagach, shu bilan jahonni fath etish bo'yicha maqsadiga yetib, bamaylixotir Rum mamlakatiga yo'naladi, bir qancha vaqt u yerda yashab, qilgan ishlaridan ko'ngli to'lmay, ulug' inshootlar qurishga bel bog'lab yana safarga chiqadi.

Uning g'aroyib ishlaridan biri rabotlar qurish, yerni yig'och o'lchovi bilan o'lchash bo'ldi. Ya'juj va ma'jujlar elida uzunligi o'n ikki ming qarini bir yig'och hisoblab o'lchov sifatida qo'llay boshladi.

Keyin dengiz safariga o'tlanib minglab kema yasatib, necha yil suv ichida okeanlar, dengizlarni kezib, ularni o'lchatdi. Muhit (Tinch okeani) markaziga yo'l ochib, suv ostini ko'rish uchun maxsus shisha idish yasatdi. Shishaga kirib, uning og'zini berkitdi-yu, necha ming qari arqon uchini shishaga ulab, dengizni tomosha qilib qaytdi.

Iskandar va Doro

Iskandar bilan bo'lgan ajoyib ishlardan biri uning Eron shohi Doro bilan bo'lgan munosabatlari edi. Doro jahon shohi ekanligida, Faylaqus Rum mamlakatining hukmdori bo'lib, u ham boshqa

hokimlar qatori har yili zarur xirojni o'z vaqtida hech qanday vaj-bahonasiz to'ldirdi. Xiroj miqdori muqarrar bo'lib, tuxum ko'rinishidagi ming oltin edi. Faylaqus vafotidan so'ng bu xirojni Doroga o'z vaqtida yetkazish vazifasi ham o'z-o'zidan Iskandarga o'tgan edi.

Rum mamlakati ikki-uch yil davomida Zang shohi bilan qattiq janglar olib borganidan Doroga yuborishi kerak bo'lgan mablag'i yetarli emas edi. Xirojni o'z vaqtida yubormasa, Iskandarga Doroning dushman bo'lib qolishi aniq edi. Xiroj yuborish vaqti yetganida, Doroning maxsus navkari kelib, olib ketilishi kerak bo'lgan oltinlarni talab qildi. Shoh uni huzuriga chaqirtirdi. Kirib, ta'zim qilib, Iskandarga sajda bajo qilgan navkar duo qilib, yerga qarab o'tirdi. Iskandarning ko'rinishi navkarga vahm solib qo'ygan edi. Iskandar vakildan: «Doro shohi komron xushmudur? Anga mulk oyini dilkashmidur (Mamlakat ahli u kishidan xursandmilar?)» – deb so'ragan edi, navkar o'rnidan turib javob berdi. Iskandar: «Kelishingdan maqsadingni ayt, Doro ne degan bo'lsa to'la-to'kis aytaver», – degach, navkar: «Ey shahanshohi oliymaqom! So'zimni so'rating, javob bersam, senga farmon bergandek bo'lib qolaman. Malik Faylaqus Rum ahliga shoh bo'lganda, har yili ming oltin tuxumni xiroj qilib to'lashga va'da bergan edi. Uch yildan beri o'sha xiroj yuborilmayapti. Shu uch yillik xiroj yuborilsa, do'stligimiz yana rivojlanaverardi. Agar bersalaringiz, hisoblab ko'rib olib ketay, bo'lmasa, qanday javob aytsalaringiz, shuni yetkazaman», – dedi.

Iskandarga bu so'z qattiq botdi, g'azabi kelganidan so'zlari ham darg'azab chiqdi. Yuzi rangidan o't nishoni ko'rinib, xuddi butun jahonni yondirib

yuboradigandek bo'lib, yana bir lahza boshini quyi solib, u o'tga hikmat suvini urdi. Ilmi, aql-u kamolining ko'pligi g'azab askarlarining andishasini rad qildi. So'ng shoh so'zga og'iz ochib, boshini ko'tardi, navkarning so'zlariga javhar durdonalari bilan javob berib, shunday dedi:

«Doroga mendan salom ayt! Salomdan so'ng mening ushbu javobimni yetkaz! Shohlikning baqosi yo'q, fano oxiratdan boshqa natijasi yo'q. Bugun ertalik umr uchun ranj chekmaki, albatta, ganj uzra ganj qo'ygaysan, xolos. Sen haddan ortiqcha xazinalar yig'ding. Ular sen uchun haddan tashqari ranj olib keldi. Senga ham, bizga ham bu xazinalardan foyda yo'q. Tuxum tilab ko'p mehnatga urinaverma. Tuxum tug'adigan qushlar allaqachon uchib ketib bo'lgan.

Sening ishing kuchsiz shohlar bilan tushgan, meningdek kishi bilan tushmagan. Oqillik xursandlik olib keladi, zo'ravonlik esa bekorchi tama, xolos. Bekorga oramizga xusumat solmagin. Urush bo'lsa, mol-u davlating menga panoh bo'ladi, deb o'ylama. Sipoh senda ko'p, menda ozroq bo'lsa, oz-u ko'pga berguvchi yolg'iz Allohdir».

Bu so'zlarni eshitayotgan navkar suv bo'lib ketdi. O'rnidan turib, na o'lik, na tirik bir holda vataniga yo'l oldi. Otda tez-tez yurib, Doro huzuriga yetib bordi-da, Iskandar javobini shohga yetkazdi. Javobini eshitgan Doro tamoman hayratda navkardan so'radi: «Har kim bu bo'lmag'ur gaplarini eshitsa, devonaning so'zlari bo'lsa kerak, deb o'ylaydi. Yo bu so'zlarini so'zlayotganida mast edimikanki, gapirayotgan chog'da o'zini unutgan bo'lsa, yo hali aqli kirmagan yosh bola u, chunki so'zlaridan aql isi kelmayapti. Men uni telba yo

mast fahm etdim. Yo bo'lmasa, aqli kirmagan yosh bola, deb o'yladim. So'zlari ma'nosini uqib ko'raylik. Shukuhi bilan savlatidan biron belgi topolmadim. Uning fikri o'ylamay aytilgandur».

Bu so'z Doroni shu qadar diqqat qildiki, g'azab o'ti qaynab, bu o't davronga o't solgandek, yo'q, yo'q, butun falakka o't solgandek bo'ldi. Maktub keltirgan vakilni bog'lab, chuqur zindonga tashladilar.

«Mening nevaram tengi, ota-onalari saroyimda xizmat qilib yurgan bu go'dak shunday so'zlarni aytishga jur'at qilibdiki, ularni so'z deb hisoblab ham bo'lmaydi. Mendan ham, elimdan ham uyalmay, bu so'zlarni bitgan ekan, uni daf etishim va uning kim ekanligini ko'rsatib qo'yishim kerak. Shunday javob berayki, har bir buzuqi bu javobni yodidan chiqarmaydigan, uni eslaganida es-hushi o'ziga keladigan bo'lsin».

Avvalo, so'zamol bir odam topib, o'zining o'tkir o'roqdek, yo'q olmosdek so'zlarini aytib, «chavgon-u go'y» bilan bir idishda kunjut berib yo'lga uzatdi-da, sabrsizlik bilan kuta boshladi. Doro yuborgan vakil uzoq masofani bosib o'tib, qizil tilini o'z boshiga ofat qilib, Iskandarga o'zining kimligini bayon qildi. Shoh buyurgach, qosid elchini saroyga kiritishib, hukmdorga ro'para qildilar. Shahanshohga ko'zi tushgan vakil aytmoqchi bo'lib turgan so'zlarini ham unutdi. Jismidagi jon zaiflashib, yer o'pib, duo qildi-da, xatdagi gaplarni so'zlay boshladi. Shoh dediki: «So'zingning barchasini arz qil, dilingdagi barcha gaplarni aytaver!».

Elchi shoh oldida bosh qo'yib dedi: «Joningga haqdan ming tuman maqtov bo'lsin. Sening oldingda so'z aytishga haddim yo'g'-u, senga

Doro soʻzlarini yetkazishga majburman. U nima degan boʻlsa, aytay. Yoʻq desang, qayerdan kelgan boʻlsam, qaytib ketayin».

Iskandar uning gapini tinglab: «Keltirgan soʻzlari muhim boʻlsa kerak», – deb oʻyladi. Elchi xatni oʻqiy boshladi: «Xiroj degan qadimgi rusumimiz bor. Otang tirikligida bu xizmatni oʻz vaqtida bajarib keldi. Sen uning oʻrnini egallagach, otang yoʻlidan borishing kerak edi. Ammo sen itoat qilishni, otang yoʻlidan borishni istamading. Qarzingni eslatib, qoshingga odam yoʻllasam, hadding boʻlmagan soʻzlarni aytib yuboribsan. Lekin yoshing kichik boʻlgani uchun, boshing haligacha toshga tegmagan uchun bu ish bilimsizligingdan, senda jaholat koʻp-u, aql ozligidan, deb bildik. Shuning uchun seni kechirdik. Endi oʻsha pullarni olib, qoshingga kelasan-da, ostonimni oʻpasan. Agar vahmdan qoʻrqsang, buyrugʻimni bajarmasang yoki yana ilmsizliging, oʻjarligingni davom ettirsang, oʻzingning hali ham yoshligingni unutmagan boʻlsang, senga munosib narsa yubordim, undan boʻyun toblama», – dedi-da elchi bir chavgon bilan bir toʻp keltirib, shoh roʻparasiga qoʻydi va gapini davom ettirdi: «Agar goʻdakliging hali ham davom etayotgan boʻlsa, senga goʻy-u chavgon munosibdur. Bu ikkisi boshqa-yu, davlat ishi boshqa ish. Agar aybingni tushunib yetib, kechirim soʻramasang, men bilan nizo qilishni xohlayotgan boʻlsang, jahlingni qoʻyib, oʻz joningga rahm qil. Sipohim hisobini shu kunjudcha bil!» – deb elchi oʻrnidan turdi-da, borib oʻzi keltirgan yuklar ichidan bir idishni keltirdi va ogʻzini ochib, ichidagilarni yerga toʻkib dedi: «Shohdin har kim qoʻrqmasa, sipohini bu kunjuddin qiyos etsin». Soʻzini tugallagan elchi javobni kutib yerga

boqib turardi. Uning gaplarini nihoniy tabassum bilan tinglagan Iskandar asta soʻz boshladi: «Doroyi davron shohi pokzod ajab soʻzlarni izhor aylabdi. Soʻzlashda ixtiyorini yoʻqotib, ajab hikmatlarni os-hkor aylabdi: shohlarni oʻzining bandasi deb atabdi ulugʻlarning ulugʻi, bu guruhni Iloh oʻz lutfi bilan ulusga shoh qilgan. Ularni oʻziga banda deb xitob qilish yaxshi emas. Ularning qulligʻi haqqa odatdir, agar Tangri bandam desa chin erur.

Yana ul meni: «Mast, telbalik zanjirigʻa poybast bola», – debdi. Bu uch soʻzga oʻzi javob berishi kerak. Chunki bu soʻzlari kufrga tengdir. Boʻlmasa, ikki obroʻli shohlar mamlakat uchun nizo etsalar, biri boʻlsa farzand ulugʻ bir kichik, bu soʻz demas oʻlsa ulugʻda bilik. Qoʻtonni¹ katta qushlar soniga kiritamiz, lekin uning sungʻur² oldida ne joni bor?

Yana bir narsa: shoh menga ehson qilib goʻy bilan chavgon yuboribdi. Bunda ham nozik bir maʼno bordir. Yer yuzini dumaloq deb bilgan shoh uni goʻy (toʻp)ga oʻxshatibdi-da, uni menga butunisicha tutibdi. Demak, Haq olamni menga beribdi. Qoʻlimga chavgonini olganim esa shoh menga maydonini tutibdi, ochiq qoldiribdi, degan maʼnoni bildiradi. Shoh yuborgan bu sovgʻalardan mamnunman.

Bu kunjudki, u yuborgan ekan. Ramzini bayon aylasam, ularni shoh oʻz sipohlariga qiyos qilibdi. Mening sipohimni esa qushlarga oʻxshatib, ularga rahbarlik qilish uchun hali yosh ekanligimga bashorat qilibdi». Shundan soʻng Iskandar shu kunjut hisobiga yaqin boʻlgan qushlarni haydab shu maydonga olib keltirgan edi, ular bir pasda

¹ Qoʻton – oq turna.

² Sungʻur – lochin.

donlarning barchasini bir dona ham qoldirmay yeb bitirishdi.

Elchi Iskandarning bu qilayotgan ishlarini kuzatarkan, xijolatdan nima qilishni bilmasdi. So'ng Iskandar buyurdi: «Endi Doro qoshiga borib, eshitgan javobingni yetkiz, men aytgan so'zlarni unga ham ayt».

Elchi bu so'zlarni tinglagach, oyog'i bilan kelib, boshi bilan chiqib ketdi. Doroning vakili o'z manziligiga yetib borgach, Eron hukmdoriga Iskandar so'zlarini uzundan uzoq so'zlab berdi. Doro bu javobni eshitib, jismiga g'azab o'tidan isitma tushib, yonar o'tga aylandi. To'xtovsiz yuraverish uni chaqmoqdek qilib qo'ydi. Goh davronni la'natlar, yer-u ko'kka ta'na-yu shitob etardi. Bu hayajonlar ta'sirida lashkar to'plashga farmon berdi. Rum, Zangibor-u, Farangdan, Eron-u Turon, Chin-u Mashriq zamin, Janub-u Shimol – jahonning to'rt tomonidan ikki yil davomida yer sathiga sig'maydigan shuncha sipoh yig'ildiki, ularning bu qirg'og'idan u qirg'og'ini ko'rib bo'lmasdi. Barcha qo'shin va'da qilingan, tayinlangan manzilga to'planishgach, shoh ular tomon yo'l oldi. Sipohlar tomon nazar tashlagan shohning o'ch olish o'ti yanada alangalanib ketdi.

El shohlari, iqlim valiyolari ketma-ket sovg'a-yu salomlar bilan kelib turishar, barchalari Doro xizmatiga tayyor turishardi. Doro o'zi uchun solingan saroyda qurilgan baland taxtga chiqib o'tirdi. So'ng: «Mulk sultonlarining barchalari kelib, yer o'psinlar-da, salom bersinlar, bu ularning ehtiromlari sanaladi», – degan buyruq berdi.

Yarim kungacha sultonlar qalin qo'shin orasidan o'tib salom berishdi. Ularning ichida eng sharafli mansabdor shoh-u sultonlar bo'lib, Xitoy-

dan Mangu qoon, Hind elidan Qoraxon, Misrdan Varqau Bosh, Dasht elidan Temurtosh, Xovaron mulkidan Farangis, Shirvon mulkidan Davali kabi yuzlab buyuk zotlar bor edi. Ular olib kelishayotgan sovg'a-salomlar, qurollar, jang yarog'larini hisoblovchilar yuz yil shitob bilan ishlaganlarida ham ularning sanog'iga yetolmasdilar.

Sipohlarni manzillarga tarqatishgach, lashkarboshilarni ichkariga taklif etdilar. Atrofini shoh-u sipohdorlar, ulug'lar har tomondan o'rab o'tirishgach, Doro o'z so'zini boshladi: «Bunchalar sipoh to'plashimizga sabab bu ediki, Rumdan Faylaqus jahon bilan xayrlashgach, uning o'rniga majnunvash, o't-u suvdek sarkash o'g'li taxtga o'tirgan edi. Mana, uch yil bo'ldi, xiroj to'lamay, toji bilan xursand bo'lib yuribdi. Xiroj to'lamaslik sababini surishtirish uchun yuborilgan vakilimizni o'sal qilib qaytaribdi. Bema'ni so'zlarida biror aqli so'z yo'q. Yana vakil yuborib, pand-nasihat qildim, foydasi bo'lmadi. Adabsizlik bilan qilgan javoblari meni darg'azab qildi. Beodobona so'zlarini eshitgach, uning qulog'ini burab qo'yish maqsadida askar to'plash uchun har tomon odamlar yuborildi».

Shohlar o'rinlaridan turib, yer o'pib dedilarki: «Uning holini tang qilish uchun yurish qilish hojat-midi? Shuncha askar o'rniga bir qulni yuborsangiz ham bo'lardi-kul».

Shoh dediki: «Shuncha lashkar yig'ishimizdan maqsad Rumni oromgoh qilmoq, uning hududiga Zangibor-u Farangni ham kiritish fikrini o'ylayapmiz. Bir necha kun bu yerlarni tavof qilib, keyin qaytsak ham yomon bo'lmaydi».

Shoh bu soʻzlarni aytgach, barcha rozi boʻldi. Hammalari shoh soʻziga amal qilib, manzillarini aniqlab, Rum sari yoʻlga tushdilar.

Bular koʻchma-koʻch boʻlib Rum sari borayotganlari haqidagi xabar Iskandarga ham yetdi. U ham gʻofil qolmaslik uchun yov tomonga doim lashkar yoʻllab, ahvoldan xabar topib turardi. Nima zarur boʻlsa, fahm bilan joyiga qoʻyardi.

Iskandar oʻz askarlarini shunday tayyorlagan ediki, olam sipohi kelsa-yu, ularning har biri Rustam kabi pahlavon boʻlsa, yov oldiga somon toʻplanganida, yetishishi bilan sovurilgan somon kabi boʻlardi.

Doro murosa-yu madora chogʻiga fursat qolmaganini angladi-yu, butun askarlar bilan ilgari yurib, dushman lashkarlariga qoʻrquv solmoqchi boʻldi. Dushmanlar orasi oʻn manzil boʻlib, ikki yondan ham qoʻshinlar ehtiyot boʻlib borishardi. Urush boʻladigan joyga esa bir kunchalik yoʻl qolgan edi. Ora yerda togʻ boʻlib, ikki yonida ikki dasht ham bor edi. Ikki dashtda ikki dushman eli joylashgan. Hatto yel ham ular orasidan yoʻl topolmasdi.

Iskandar sipoh atrofini aylanib, mustahkam xandaq qurdirardi. Koʻngli tinch boʻlib, yuz tigʻzan kamonchini oʻzi bilan birga oldi-yu, ul lashkar bilan togʻ ustiga chiqdi va oʻsha yerdan yov qoʻshinini tomosha qilmoqchi boʻldi. Qarasaki, yer yuzini sipoh tutgan, togʻ-u tekis yer qorayib yotardi. Odamlar harakat qilishga ham yoʻl topisholmasdi. Osmonni tutun-u gard tutib ketgan edi. Iskandar yov askarlari ichida boʻsh joy qolmagani uchun ularning sonini ham aniqlay olmadi va chuqur oʻylanib qoldi. Xayolida: «Ikki tomon urush boshlashsa, ular zichligi tufayli bemalol urusholmay-

di ham. Bu yerdan ketishning ham imkoni yo'q, aylanib o'tmoqchi bo'lsam ham foydasi yo'q».

Donishmand shoh shularni o'ylab turgandi, bir tosh ustida ikki kabutar ko'rindi, ular bir-birlari bilan ayovsiz urishar edilar. Birining jussasi zabardastroq, yana biri past bo'yli bo'lib, kuchsizroq edi. Kattasida qancha quvvat bo'lsa, kichigida shuncha zaiflik sezilardi.

Iskandar bu kuch-u zaiflikni ko'rib, o'zi bilan Doroga nisbat berdi. Shu payt nogoh havodan bir burgut pastlab kelib, chaqqonlik bilan kattasini ushlab olib, uchib ketdi. Go'yo u kaptar bu orada yo'qdek edi. Iskandar bu holdan xushdil bo'ldi, kuchiga kuch qo'shildi. Unga dushmanlik qilayotgan yov yengilib, lekin o'zga yerdan shikast topishini sezdi. Bu ishdan o'ziga dalda berib, yovning qadri past bo'lishini bilib, sipohi tomon yurdi, go'yo jonsiz badanga jon kirgandek bo'ldi.

U tog'dan navo topib uyg'ongandek, quyosh nurlarini tog' ortidan socha boshlagach, bir zamon hamma yoqni dud bosgandek bo'lib turdi-yu, narigi dashtdagi Doru o'z dargohida g'alaba shodiyonasi xayoli bilan band ekan, ko'ziga Iskandarni hech ilmas, qazodan ne hol bo'lganidan bexabar edi. Sarkardalari:

*«Gar shah hukm etsa, bevahmu bim,
Erurmiz anga har birimiz g'anim».*

Biri derdi: «Ko'rgach qaro qochqusi».

Biri debki: «Uzr eshigin ochgusi».

Iskandar lashkarlari esa ertaga o'lguncha urushishimiz kerak, ularni, albatta, mag'lub etishimiz zarur, degan qat'iy fikrda edi. Shoh bo'lsa, ko'zidan

uyqu qochib, elga yaxshi soʻzlari bilan madad berib, gʻalabaga ishonch hosil qilib, qoʻrqayotganlarga umid bagʻishlardi. Sipohlari esa tinmay sovut, dubulgʻa, nayza kabi urush qurollarini yasash bilan ovora edilar. Ikkala tomon uchun ham tunning oʻtishi qiyin boʻldi. Quyosh togʻlar ortidan oʻz jamolini koʻrsatgach, ikkala maydonda harakat boshlanib ketdi. Sipohlar harakatidan yer zilzilaga duch kelgandek boʻldi.

Doro Iskandarga qarshi qoʻshinini rostlardi. Sipoh emas, balki bir qonxoʻr daryo, xuddi falak dengiziga oʻxshab ketardi u. Bu lashkarning bir chekkasi gʻarbda boʻlsa, ikkinchisi sharqda edi. Qoʻshinni turli usullarda toʻqqiz marta qaytadan tuzib chiqdi.

Qoʻshinning oʻng qanotida Mashriq zamin sipohlari oʻrin olgan boʻlib, bu lashkar Chin sarhadidan Samarqandgacha choʻzilgan edi. Ularning yonida yuz ming oʻzbek bilan moʻgʻul saflangandi. Yuz ellik ming qalmoq ham ular bilan yonma-yon turardi. Barchasi olti yuz ming sipoh boʻlib, barchasi ham urush ishini hunar qilib olgan edi.

Yetti rang zarbof kiyim kiygan Chin sipohlari jangga hozir boʻlib turar, ular ichida koʻplab zirhli temir kiyim-sovut kiyganlari ham ancha edi. Ular bilan safdosh boʻlib Mangʻit, Movarounnahrdagi 10 shahar eli saflanishgandi.

Qoʻshinning soʻl qanotida Magʻrib eli saf tortgan boʻlib, temir kiyimlari, nayza-yu, qalqonlari, dubulgʻalari sariq rangda edi. Arab otliqlari qirq ming uchqur ot ustida magʻrur turar, ular qora ipaklardan kiyim kiyib olishgan edi. Hatto bayroqlarigacha qora rangli edi. Soʻl qanot ham 700 000 sipohdan tashkil topgandi.

Doro qo'shinining hujumchi ilg'or qismi – hirovul yetti yuz ming kishidan tashkil topgan bo'lib, bari oq kiyimdagi dashti Qipchoq eli, Xorazm ahlidan tuzilgandi. So'l qo'shin markazidagi saflarning har biri yuz ming nafardan tashkil topgan bo'lib, barchasi shohga yaqin odamlardan bo'lgani uchun yashil kiyim kiyib olishgan, Doro ham ular ichida edi.

Narigi dasht tomonda esa sherdil Iskandarning qo'shinlari urush tadorigi bilan band edilar. Shoh o'ng qanotga farang askarlarini belgiladi. Ular dushmanning qalin ko'p ekanligini bilishmas, bilsalar ham ularni ko'zga ilishmasdi. Guharrang kiyim kiyib olgan faranglar yetti baxmal kiyimga o'ranishgan edi. Ulardan 100 000 tasi g'oyat kuchli jangchilar sanalardi.

So'l qanotini Iskandar Bartos-u Rus sipohlariga ishonib topshirgandi. Ularning o'zlari ham, otlari ham temir kiyimlarda edi.

Hirovul markaziga esa habash sipohlar qo'shilgandi. Temir qalpoqlariga esa o'tag'a o'rnida shahparlar o'rnatilgan. Qo'shin markazi esa rumlik pahlavonlarga topshirilgandi. Qizil yuzli bu yigitlar o'zlarini yovga yanada dahshatliroq ko'rsatish uchun yo'lbars, qoplon, sher terilaridan ustilariga tashlab olgandilar. Rum shohi o'z lashkarlari bilan birga Eron qo'shini turgan maydonga qarab yo'l oldi. Qo'shin jilib borarkan, karnaylar, nog'oralar olamga na'ra solar, hilpirayotgan ipak bayroqlar jilvagar bo'lib, ajoyib manzara hosil qilgan edi. Ikki sipoh bir-biriga yaqinlashgach, avval shunday suron soldilarki, olamga g'alayon tushgandek bo'ldi.

Bir lahza suron tingach, chang-to'zon asta-sekin pasayib, xaloyiqqa jang maydoni ko'rindi va Doro lashkarining oldingi qismi namoyon bo'ldi. Endi

nima bo'lishini sipohlar ikki tomondan tomosha qilib turishgan ham ediki, Iskandar qo'shinning oldingi safidan bir pahlavon jang maydoni sari ot choptirib ketdi. Uning o'ng qo'lida uzun bir nayza, egnida esa la'l rang qalqon osilib turardi. Oq ipakdan yengil to'n kiyib olgan pahlavon maydon o'rtasida to'xtab gap boshladi. U, avvalo, o'z podshosi Iskandarni duo qildi: «Yovi ustidan zafar qozonsin!» – deb iltijo qildi-yu, hamma yoqqa bir-bir qarab olgach, baland ovoz bilan shunday deb hayqirdi: «Meni Boriqi Barbariy deyishadi. Burun men shoh Doroga qul edim. U meni nazariga ilmay, ko'p xafa qildi va menga ko'p yomonliklar ko'rsatdi. Shohga qilgan iltijolarim ham javobsiz qolib ketdi. Ijizat so'raganim uchungina qahr aylab tayoqlatdi. Doro menga shuncha zulm-u shikast qilgan edi, men Iskandarparast bo'ldim-u, dargohiga panoj istab bordim. U menga ko'plab lutf-u karam qildi. Men haqini olib, ishini bajarmaganimdan sharmandaman.

Bugun bu maydonga azm qilibmen, ikki ish uchun kin-u razm aylayman: biri ulkim, shohimga bandalik qilib, o'zimdanda sharmandalikni daf etay. Yana biri o'lim rasmini tuzib, Doroga ham ko'rsatay. Qilgan jangimga moyil bo'lsa, murodim hosil bo'ladi».

Boriq so'zini tamom qilgan ham ediki, Doro tomonidan bir qotilvash o't kabi lovullab chiqib keldi. Otining jig'asidan bosh-oyoq ko'k temir ichidagi filga o'xshardi. Uning qo'lidagi nayza xodadek kelardi. Uni sipohlar sheri darron – yirtqich sher deb atashar, odamlar esa Harron deb bilishardi. U jang maydoni rasm-rusumini bajarib bo'lgach, shohga duo ayladi-da, Boriq tomonga yugurdi. Boriq ham uni chaqmoqdek kutib oldi. Ikki pahlavon chirmashib, ancha olishdilar. Uch yuz

oltmish olti marta nayzalar bir-biriga tegmagach, oxir Boriq o'z nayzasi bilan uni urib tushirdi va juda uzoq masofaga otib yubordi. Keyin bo'yniga sirtmoq solib shoh oldiga yetkazdi.

Iskandarga bu hol shodlik keltirdi. Boriq yana yer o'пти-yu, maydon tomon yelib ketdi. Yana bir polvonni talab qilar ekan, boshdan oyoq temir kiyingan, kichkinagina otga mingan mo'jaz bir sipoh jangga kirdi. Oti Shaydo bo'lib, Harronga qarindosh edi. U beqaror bo'lib, Boriqning yo'lini to'sdi. Boriq ham alam bilan unga tashlandi. Ikkovi ham nayzalarini bir-birlariga ro'baro' tutishib, ot ustida shamoldek yelisharkan, g'alaba yana Iskandar tomoniga hal bo'ldi. Barbariy uni ham nayzaga sanchib, shoh oldiga olib borib tashladi.

Barbariy yana maydonga chiqib, o'ziga raqib tilardi. Shu kuni Barbariy to'qqiz pahlavonni asir qilib oldi. Yana unga qarshi hech kim chiqmadi. Boriq o'z o'rnida turaverdi. U Doroga ta'na qilib: «Biron odam chiqsin», – deb shitob qilgan edi, Doro tarafidan bir pahlavon maydonga qarab ot surib chiqdi. U fildan ham zo'r filtan, qomati bo'lsa karkidondek kelardi. Ikki ko'zi ikki olmosdek, doirasi qon to'la tosdek edi. O'zi Mag'rib zaminidan bo'lib, urushqoq bir qabiladan edi. Qaysi podsho olamga shoh bo'lsa, shu qabiladan sipoh chaqirib, dushmanlarini tezgina daf etardi.

Jangchilar Boriqdan xavotirda edilar. Ikkov pahlavon ancha qattiq olishdilar. Boriq bu pahlavongacha to'qqiz kimsa bilan olishib, jangda yengani uchun qo'li ancha toliqib qolgan edi. Shu payt belida og'riq ham paydo bo'ldi. Raqibi payt poylab turib, uni o'ng qo'li bilan mahkam tutib, chap qo'li bilan esa g'animini ko'targanicha Mag'rib tomon

olib ketdi. Shu ketganicha ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bu holni ko'rib turgan Iskandarning ko'ngli buzildi, lekin Doro xursand edi. Mag'ribiy o'zi yenggan raqibini o'z huzuriga olib kelib tashlamaganiga hayron edi u.

Qosh qoraygach, yana ikki tomondan taloya – navbatchi sipohlar atrofni kuzata boshlashdi. Doro o'z qarorgohida zo'rma-zo'r ichkilik icharkan, ertaga nima bo'lishini o'ylardi. Ikki lashkar uyquga ketgan chog'da Iskandar ibodat qilib o'tirarkan, ikki chaqqon sipoh kelib, uning qo'liga noma tutishdi. Shoh xatni ochib o'qisa, o'z dardining chorasi yozilgan ekan. Doroning yaqin amaldorlaridan ikki kishi uning zulmidan to'yib, o'lim xafvi ostida ekan. «Doro bizni o'ldirmasdan burun biz uni bir yog'lik qila qolaylik», – deb uni yashirincha qatl etishga kelishishgan ekan. Iskandar nomani o'qib, bu dushmanlarimning makr-u firibi bo'lmasin yana, deb xatga javob bermadi. Indamadi-da, otiga minib chiqib ketdi, ertasiga ertalab qotillar o'z va'dalarini bajarib, Doroning ikki yonidan qilich urdilar. Biri Doroning boshiga ham qattiq urdi. Doro kesilgan daraxtdek yiqildi, Doro qo'shinida notinchlik boshlandi. To's-to'polon kuchaydi, Iskandar otidan tushib, Doro yoniga keldi. Qarasa, raqibi qop-qora qonlar ichida yotibdi, Iskandar Doroning boshini o'z qo'yniga qo'ydi-da, ko'z yoshlarini to'kib turgan edi, Doro ko'zini biroz ochib, ustida kim turganini ko'rди-yu:

*Marhabo, ey shohi navjavon,
Jahon uzra ham shoh-u, pahlavon
Atodan o'g'ul bo'lmag'on sen kibi,
Aduv uzrini qo'lmag'on sen kibi.*

Agar boshimni kesish uchun kelgan bo'lsang, muhlat ber, senga bir-ikki so'z ayta olay», – dedi.

«Men bu ishlardan xabardor bo'lsam ham, rozilik bermagan edim», – dedi Iskandar. Doro: «Mening uch so'zim uch nasihatdir. Avvalo, be-gunoh holda menga qilich sanchgan qotillarimni jazolagin. Ikkinchisi: qarindoshlarimni jazolama, uchinchisi, qizim Ravshanakni o'z nikohingga ol!» – deb xayrlashdi. Keyin motam tutishib, shohona bir tarzda Doroni dafn qilib, urushni to'xtatishdi.

Doro vafotidan so'ng to'plangan lashkarlar birin-ketin o'z vatanlariga qayta boshladilar. Iskandar Doro taxtiga o'tirib, uning vasiyatlarini bajarishga kirishdi. Burun shoh Doroga aza tutdi, Doroni o'ldirgan ikki qotilni ham so'roq qilib, ikki dorga oyog'idan ostirdi va elga ularni toshbo'ron qilishga farmon berdi. Keyin badanlarini kuydirishga, kullarini esa osmonga sovurishga buyurdi. Elga shodlik qilishga ruxsat berildi. Ravshanakka noma yozilib, azani to'xtatishi, to'yga rozilik berishi so'raldi.

Iskandar Doro taxtiga o'tirdi. O'zigacha hukmdorlik qilgan ming uch yuz yil davomida o'n to'rt olampanohning Doro qal'asidagi 180 xazinasini tekshirishib, shoh devonidagi xazina daftarini olib boruvchi amaldor bilan hisob-kitob qildilar-da, barcha xazina molini jamlab shoh huzuriga olib keldilar. Shoh xazinalar hisobini ochiq holda elga bayon qilishni buyurdi. Ro'yxat o'qilganda, barcha odamlar hayron qoldilar. Shoh farmoniga itoat qilib ularni saroydagi asosiy xazinaga tashishdilar. Ikki yilgacha shahardagi xazinalar mulki saroy xazinasiga tashildi. Bu hali bor mulkning choragiga to'g'ri kelardi. Keyin shoh farmoni bilan qolgan mol-mulknini o'z joyida qoldirib, yaxshilab berkit-

dilar. Qolgan mulk hisobchilar sanog'iga ko'ra yetti yuz ming tuman ekanligi ayon bo'ldi. So'ng shoh sipohlarining har bir guruhi, sipohdorlar, navvob-u hojiblar qanchadan oylik olishni aniqlab jamlashni buyurdi. Ularning miqdori ham saroy belgilaganidan ancha ortiqligi ma'lum bo'ldi. Oylik uchun belgilangan pulning yarmigina sipohlar qo'liga yetib borar ekan. Shoh bu ahvoldan xabar topgach: «Maosh barcha sipoh ahliga barobar qilib berilsin», – degan buyruq bo'lib, ular xarajatlari uchun yetarli maosh ola boshladilar. Sipohlardan tashqari 600 000 yordamchi ishchilarning maoshlari ham shu tarzda ko'paytirildi. Barcha sipohiyalar shohning: «Manga ganj havas emas, sipoh-u raiyat manga ganj», – degan so'zlaridan nihoyatda quvonib, shodlanishardi. «Xazinadan elga naf yetmasa, undagi la'llardan oddiy tosh afzaldir. Agar tosh zarar keltirmasa, xazinadagi boyliklardan elga yuz xatar bordir. Agar shoh xazinasi foyda bermas ekan, jahon ahli uning sarbasar dushmanidir. El xazinadan foydalanar ekan, jahonni zabt etmoq ham oson bo'ladi», – dedi Iskandar.

Kashmirdagi Mallu ehrlarining fosh etilishi

Shundan so'ng Iskandar Eron elini o'zidan rozi qilib, jahonni fath etishga bel bog'ladi. Avval donishmand, turli soha olimlarini to'plab, har qaysining fikrini eshitdi. Barchalari ilmdan chuqur xabardor bo'lib, harbiy ilmlarni yaxshi bilishardi. Shuning uchun ularni harbiy bo'limlarga boshliq qilib, ma'lum viloyatlarni egallashni topshirdi. Biri Hind, biri Chin, biri Kashmir, biri Misr, yana

biri Bag'dod-u Baytulharam kabi qator o'lkalarni egallash uchun yuborildi. Har bir boshliq qo'liga maxsus noma yozib berilgan bo'lib, ularda Iskandarning Eron taxtini egallagani ta'kidlangan, har qaysi shohga o'z huzuriga kelib xiroj yuborishi, Iskandar shohligini qabul etishi, shunda uning mamlakat-u xalqi bu ulug' davlat himoyasida bo'lishi, aksincha, taqdiriga yozilganini ko'rishi ogohlantirilgan edi.

Jahondagi Sharq mamlakatlarining ko'plariga yuborilgan maktublarni olgan shohlarning aksariyati Iskandar takliflarini qabul qilib, tobelikka rozi bo'ldilar. Faqat uch kishi bu taklifni qabul qilmadi. Ulardan biri Kashmir shohi Mallu ibn Mabok bo'lib, u Iskandarga quyidagicha maktub yo'lladi: «Agar Iskandar olam shohi bo'lsa, mening mulkim esa dunyoda yakka-yagonadir. Tangri menga uch ish nasib etgan: biri ulki, mulkimni g'oyat mustahkam tog'lar, o'tib bo'lmaydigan baland qo'rg'onlar o'rab turadi. Uning ustiga mulkimning chor atrofni daryolar ham muhofaza qiladi. Ikkinchidan, mening shuncha afsungarim borki, falakdan yetgan har qanday balolarni ham daf qila oladi, yumronqoziqni sheri jayonga, kalamushni dasht yo'lbarsiga aylantira oladi. Agar Iskandar olam elini yig'ib kelganda ham, shunday qattiq shamol esib turadiki, somondek barchasini uchirib yo'q qiladi. Uchinchidan, u agar qasos olmoq bo'lib yurtimga bostirib kelsa, bu mulk ichida shunday bir buyuk tog' borki, baland tog'lar ustiga qurilgan tog'ga o'xshaydi. Uning jismi mis bilan qo'rg'oshin, qalay bilan birinj qotishmasidan burungi ilm ahli yasagan tilsimdir.

Yana bir siri shuki, shahar ichida nihoniy bir naqb qurilgan bo'lib, u yerga tushgan shoh tilsim

boʻlgan bir fanni oʻrganib chiqadi. U fanni oʻrgan-
gan el istalgan dushmandan oʻt va yel oʻgʻiray
oladi. Oʻsha makonda agar birdan yel esmay qolsa,
tezda halok boʻladi. Bu oʻlka ichra kimsaning joni
bor ekan, yel tursa yashashiga imkon qolmaydi.
Gar oʻt boʻlmasa, odamzod yemak ham hoziray
olmasligi aniq. Shularni hisobga olsa, Iskandar
boshqa bir makon sari yoʻl olgani maʼquldir».

Hindiston shohi Roy boʻlsa bunday javob qay-
taribdi:

«Shoh Doro Iskandar bilan urush yarogʻini
qilmoq uchun hamma shohlarni chaqirtirganida,
yoʻl yiroqligiga qaramay men Rum chegarasiga
endigina yetganimda, bu falokatlarni yuz berdi. Biz
biyobonda qolib ketdik. Yarogʻ-u sipohlarimizning
bari barbod boʻldi. Urushgan navkarlarim halok
boʻldi, qolganlari asirlik jabrini tortdilar. Men esa
necha oy biyobonni joy qilib yurtimga qaytgun-
imcha, xalqim qatli omga uchrab, oʻn ulushdan
bir ulushi qolibdi. Qaro rangni bu elda qadimdan
kiyish odat demang, ana shu voqea tufayli mulkim
qaro kiyib, motam tutyapti. Iskandar tufayli elim
shuncha azob chekdi. Endi ikki-uch yil sabr qilin-
sa, zamon tinchlansa, keyin xirojni toʻlasak. Men
ham u bilan koʻrishgim bor. Lekin ikki-uch yilsiz
bunday taklif aylasa, men koʻp malolat cheka-
man. Lutf etsa, bu maktubimni qaytarmaydi,
nima boʻlsayam, Haqning peshonamga yozganini
koʻraman. Men soʻzimda uning hurmatini tutdim.
Shunga koʻra u ham izzatini asrasa kerak».

Chin shohi esa yana boshqacha javob qildi:
«Iskandarning yuborgan maktubi kuchli zahardan
achchigʻdir, qilichdan oʻtkir. Oʻz vakilini bu tomon
joʻnatgan kuni chuqur oʻylab koʻrmas yozibdi bun:

Sipohim qalin, mamlakatim to'q, mening undan kam tomonim yo'q. Shoh boshqa bir shohga o'zini «hakim-u dono» deb yozishi to'g'ri emas. Bunday so'zlar aqlga sig'maydi. Maktub so'zlarini ham katta-katta qilib yozishi shohga nisbatan hurmatsizlik. Lekin men xatimni yirik harflarda bitmayman. Uning oldiga borishni istamayman. Agar askar tortib kelsa, shahrimga kirib olib, eshikni berkitganча o'tiraveraman».

Bu uch mamlakat shohining javoblarini boshdan oyoq gapirib berdilar. Iskandar o'z mak-tubiga binoan huzuriga yetib kelgan shohlarga yaxshiliklar ko'rsatib, shohona majlislar tuzib, kutib olgandi. Haligi uch shoh javobini eshitgach, ularga askar to'plab boray dedi-yu, lekin qish fasli boshlanib qolgan edi. Odatda, shohlar qish faslida yurish boshlamaydi. Bu qish shu yerda qolishni ma'qul ko'rdi-da, Qorabog'i Arron sari yo'lga tushdi.

Iskandar Qorabog'i Arronni o'ziga oromgoh qilganidan so'ng, xayoli asosan jahongirlik bo'lib qoldi. Hikmat ahlini qayta-qayta yig'ar, Xudodan jahonning fath etish baxtiga musharraf etishini to'xtovsiz tilar edi. Sipohlari tutgan joylarni aylanib chiqar ekan, ularga bardamlik tilar edi. Quyosh tobora ko'tarilib olamni isitgach, shoh butun dashtni to'ldirgan lashkari bilan yaxshi bir soatni belgilab qishloqni tark etdi-yu, Sipohonga qarab yo'l oldi, undan o'tib Xurosonga yuz tutdi. Bu payt butun Eron zamin uning qo'l ostida edi.

Xuroson havosidan shoh juda xursand bo'ldi, bu o'lka juda keng bo'lib, yeri o'zga iqlimlardan yoqimliroq edi. Ko'kalamzorlaridan ko'plab chash-malar otilib turar, daryolar shovullab oqib turar,

barchasi ko'nguldagi g'uborlarni qoldirmas, yana to'rt daryosining ovozi osmongacha yetib borardi. Anhorlari xuddi jannatdan chiqib kelayotgandek edi. Hirmand, Zobulistondagi daryo, Nimrud, Darjaz daryolarining har biri g'oyat go'zal va jonbaxsh edi. Balx shahrini ham go'zal anhuri bezatib turar, bu shaharni Hushang qurgan bo'lib, Ibrohim Adhamning ham pokiza qadamlari tekkandi. Yana biri Murg'ob suvi bo'lib, u ham jannat suvlarini eslatardi. «Bu yer jahon gulshani ekan», – deb baholagan shoh nahr bo'yida shahar yaratib, unga Hirot ismini berdi.

*Xuroson badandur, Hirot jon anga,
Hiriy jon, badandur Xuroson anga.*

Iskandar Xurosondan chiqib, shimol tomon manzilma-manzil yurib borarkan, jannatmonand, gullarga to'la, suvlari jannatdagidek katta bir vodiya duch keldi, Iskandar uni Movarounnahr deb atadi, chunki sharqida Sayxun, g'arbida Jayxun daryolari oqib turarkan. Ularning har biri Arasga teng o'n-o'n besh o'lkani sug'orib turardi. Ayniqsa, Ko'hak daryosi jannat soyi ekaniga shubha yo'q edi. Uning yonida shahar barpo etib, Samarqand deb atadi.

Samarqand shahri qurilishi tugallangach, Iskandar Kashmir sari yo'l oldi. Shaharga yaqinlashib, dashtining barcha daraxtlarini kesib tozalashgach, oldilarida osmonga bo'y cho'zib turgan, toshli tog'lar orasida juda uzun qilib ishlangan yo'l chiqdi. Uzoqligidan unga oyoq surmadilar. Qof tog'idek buyuk tog' oldidan yo'l bor ekan, Kashmir xalqi shu yerda tog'ni tog'ga ulashib, Kashmirga kirish yo'lini bekitishgan ekan. Ganch

bilan toshdan yasalgan temir darvoza tepasiga shaharni himoya qilish uchun yopiq burchakli burjlar bilan shinakli devorlar ishlatishgan ekan. Qal'a ichida ikki ming afsungar, hiylagarlar joylashgan bo'lib, ming qari³dan hech kim darvozaga yaqin kelolmas, agar o'sha tomonga qadam qo'ysa, oyog'i sustlashib yurolmay qolar, ot bilan bormoqchi bo'lsa, tovoni ko'chib tushar, shu joyda ketolmay qolib ketar ekan.

Sipohlar bular haqida eshitganlarini Iskandarga birma-bir so'zlab berdilar. Shoh ularning gaplariga parvo qilmay, Arastuni olib o'sha tomon ravona bo'ldi. Ishonmay, uzoqdan kuzatdi-da: «Bu Kashmir ahlining afsuni bo'lsa kerak, nima qilib bo'lsa ham shahar devorlari va burjlarini buzib tashlash lozim», – dedi. Keyin sipohlarini olib kelib shahar devori atrofiga tushirdi, ziyoni bo'lmasmikan deb yurgizib ham ko'rdi. Ko'ngli xotirjam bo'lgach, huzuridagi 500 olimdan o'ntasini chaqirib, Falotun, Arastu, Balinos, Arashmidus, Shaminos, Qilinmun, Volis, Farfurnus, Suqrot, Hurmus kabilarni chorlab: «Bu Kashmir elining afsuni, unga qanday tadbir qilamiz?» – deb so'ragan edi, ular maslahatlashib: «G'am yemang, buning ishi biz uchun oson, shoh iqbolini Tangri yarlaqasin. Bu nayranglarga shikast yetkazib, barini past qilganimiz bo'lsin. Ikki-uch kun muhlat berilsa, ularning sehrini boshdan oyoq buzib tashlaymiz», – deyishdi. Iskandar ularning so'zlaridan xursand bo'lib, ish boshlashga ruxsat berdi. Olimlar shohni duo qilib, ishga kirishib ketishdi.

Ular ishga kirishib, necha ko'ra-yu damlarni qizitishib, avval turli metallar: temir, po'lat,

³ Bir qari – 75 sm.

qo'rg'oshin, mis, jez va boshqalarni aralashtirib to'p ko'rinishidagi bir buyum yaratdilar. Falakka o'xshagan yum-yumaloq bu asbobning ichi bo'sh edi, uning ichini porox kabi portlovchi dorilar bilan to'ldirdilar. Necha xil ash'yolarni aralashtirib, to'p ichiga soldilar. Temir to'pdan ikki teshikcha orqali pilik kirgizib, odam boshi yoki urushda otiladigan ra'd toshiga o'xshatdilar. Uning piltasiga o't yoqib, osmondan tushiradilar. O'q uchib borarkan, piltasi yonib borib yashirin moddaga o'tadi, keyin portlab temir to'p necha parcha bo'lib, shu payt undan kuchli ovoz, shu'la, ajib tutun, hid chiqib, ovozi sehr asbobini buzib, o'ti darvozani ochib yuboradi. Qorasi dushmanlar yuzini kuydirib, qora qiladi. Isidan hidlaganlar esa fusun ilmini unutadilar.

U ajoyib tilsim tayyor bo'lgach, hamma olimlar yana bir bor yig'ildilar, qurolning barcha belgilari va bo'lajak natijalarini ayon qildilar. Shoh bu ajoyib ishdan shod bo'lib: «Shunday tilsimni tayyor qildingiz, boshlashingizga nima to'siq bo'lib turibdi?» – deb so'radi. Qurolni sinab ko'rishga shoh ham qiziqayotganini sezgan donishmandlar: «Hukmingizni kutyapmiz, xolos», – deb javob berishdi. Shoh o'tlanib, o'zining barcha sarkarda-yu a'yonlari bilan darvoza tomon yo'l oldi. Ra'd asbobini sozladilar, tilsimni keltirib, ra'd yoyiga toshdek qurib, to'p piltasiga o't tutashtirdilar, Doruga o't yetgach, u osmonga ko'tarildi va uchib borib dushman sipohlarining o'rtasiga tushdi. Aytilgan to'rt ish yuz berdi: avval kuchli sado-yu qo'lansa hid tarqaldi, keyin o't bilan dud keng yoyildi va o'ti qal'ani kulga aylantirdi. Dudi fusungarlar yuzini qaro qilib, isi ularning afsunlarini xotirlaridan o'chirib tashladi.

Haligi to'p otilgach, Malluga darhol xabar qildilar. Mallu Iskandar bilan jang qilish uchun kuchi zaifligini sezdi, darvoza va qal'ani zabt etilganini angladi, o'zini hayron, elini parishon holda ko'rdi. Mamlakati ichra qaror yoki manzil topa olmay, yerosti yo'li bilan boriladigan naqb atrofiga bor boyliklarini to'play boshladi. O'zi bilgan qora tog' ustiga makon qurdirib turar ekan, shu chog'da Iskandar qo'rg'onga hujum qilishni buyurdi, lekin olimlar: «Bugun bormaganimiz yaxshi, chunki oldingisidan chiqqan tutun tarqamasa, u tomonga yaqinlashib bo'lmaydi», – deyishdi. Bu so'zlarni eshitgan Iskandar o'z qarorgohiga qaytib keldi va aysh-ishrat bilan shug'ullana boshladi. Olimlarga ko'pdan ko'p ehsonlar berdirdi. Tong otgach, qal'a ichiga sipohning kirishiga buyruq berdi. Sipohlar tiqilishib, yetti kun davomida darvozadan kirdilar. Shahar xalqi Iskandarni xat-u shikoyatnomalarga to'ldirib tashladi.

«Bu diyoy Malluda bo'lgan zamon bu qullarda hech ixtiyor yo'q edi. Xizmat qilganimiz qilgan edi. Uning shavkatidan qutildik, endi ne desang, bandangmiz!

*Yorug' aylasang mulk-u vayronamiz,
Fidodur senga mol ila jonimiz.*

Barchamiz yuzingni bir ko'rish armoni bilan yashayapmiz», – deb yozilgandi u maktublarda. Iskandar xat yozdirdi va viloyatlarga jo'natdi. «Sizlar bu yerga kelishga ovora bo'lmang. O'z yurtigingizda farog'at qila bering. Mening o'zim yurtigingizga boraman. Meni duo qilib, Haqqa toat qilib yuravering», – deyilgandi maktublarda.

Iskandar o'zining ushbu maktublari tayinlangan manzillarga qadar yetib borguncha qo'rg'on ichida Mallu tomonidan qurilgan tarabxonona - shodlik, bazmlar o'tkaziladigan shohona qasrni uning atrofiga qurilgan ajoyib bog'ni ko'rib, bu gulshanga «Jannatoso» deb nom qo'ydi. Barcha lashkarlar ham, a'yonlar-u donishmandlar ham «Jannatoso»dan bahramand bo'lishdi. Iskandarga «Jannatoso»da shoh manzili tayyorlatdi. Xalq bu yerga oqib kela boshladi. Shaharda yangi hayot boshlandi. Shoh barcha odamlarni shod etib, buzilgan ko'ngillarni obod ayladi. Shoh hukm qildiki: «Hech kimning biron narsasiga tajovuz qilinmasin, Iskandarning biron navkari yo a'yoni ulardan biron nima tama qilsa, bo'g'zidan osilsin!».

Shahar xalqi moli omon berishgach, boshqa muhtojlarning ishi ham hal bo'ldi. Hech kimdan hech kimga g'am yetishmas, bir kishi boshqasidan asossiz bir dirham ham ololmasdi. Iskandar esa aysh uchun toza maylardan ichib, Kashmir mulkini sayr etib yurardi. Ko'pdan ko'p g'aroyibotlarni ko'rib hayratlanardi. Jumladan, bir may kosasi ko'rdiki, nihoyatda kamyob. U jom xuddi daryodan suv olgandek to'la turardi. Mallu qochib ketayotgan vaqtda uning bir xazinachisi mulki ichidan olishgan ekan. Boshqa tuhfalarni qal'aga olib kirishganda bu jom qolib ketibdi. Uning ajoyibligi shunda ediki, jomdan har qancha ichgan bilan mayning kam bo'lmasligi aytilgan edi. Jamshid-shoh olamni egallaganda hikmat ahli olimlarni to'plab ikkita tilsim jom ishlatgan ekan: biri getinamo, biri ishratfizo. Getinamo jom ko'pchilikka ma'lum, shuning uchun bunisini ta'riflay qolay. Undagi may tamom bo'lmaydi, mazali may kamaymaydi,

egri turganda ham uning ichidagi may to'kilmaydi. Uni tortib ham olib bo'lmaydi. Barcha bu ajoyib jomni tomosha qilishardi.

Mallu o'zining tosh qo'rg'oniga qamalib olganidan so'ng Iskandar uning taxtini oldi va el-ulusga yengilliklar va'da qildi, Kashmir xalqi uning lutf-u ehsoniga umid qila boshladilar, shoh Mallu ahvolidan xabar so'ragan edi, uning Iskandardan qo'rqib, falon qal'a ichida berkinib, qo'rqib o'tirgani, har xil sehrlar haqida o'ylayotganini aytib berishdi. Iskandar yana saroy ahlini to'plab: «Kashmir toza gulzordir. Havosi lekin garmselli ekan. Doimo jonparvar nasim esib turadi-yu, bu gulshanda to'xtalmas ekan, bu ahvolda uning guli o'tga va sunbuli qop-qora dudga aylanadi. Qiziqki, dahr otashfishon-u, lekin kimsa o'tdan nishon topolmaydi. Bu uqubat bo'lib, xalqqa azobdur. Suhbatgina emas, balki umuman yashab bo'lmaydi. Bunga biron chora mumkindir, bo'lmasa, bu yerdan tezroq jo'nash lozim bo'ladi», – dedi.

Donishmandlar bu so'zlarni eshitgach, duo qilishib: «Agar shohga bu ish muddao bo'lsa, biz uning makrini daf etamiz, uning barcha sehrlarini biz yo'q qilamiz, shoh ko'ngli bundan g'amga to'lmasin, chorasi oson. Shoh o'n kungacha muhlat bersalar bo'ladi». Shoh: «O'n kungacha xalq o't va shamoldan qiynalib qolishadi-ku!» – degan edi, Aflotun podshoning qayg'urayotganin ko'rib: «Men uch kun davomida bir tadbir qilib, ahvolni yengillashtirib turaman», – dedi. Iskandar bu so'zdan xursand bo'ldi. Bu holatda yel to'xtab, do'zaxdek issiq boshlandi. Oshxonada ishlovchilar nolon bo'lishib, «Olam aro o'tdan boshqa vujud yo'q, ne cho'g', ne shu'la, ne uchqun, ne dud. Tosh-

dan o't chiqarisharkan», – deb unga temir ursalar, shu'la ham chiqmayapti, o't o'rniga suv chiqyapti. Ovqatni tayyorlashimizda bir sir bormikan desak, biz aybdor emasmiz».

Keyin o't-u yel masalasida shunday qiyinchilik boshlandiki, o't issiq dam erdi-yu, yel sovuq oh. Tandir kunduz qizarmaydi, kechasi esa shamda shu'la ko'rinmaydi. Ozgina yel esgandi, o'chmagan biron chiroq qolmadi. Uch kun davomida qo'llar engaklarga sutun bo'lib qolaverdi.

To'rtinchi kuni Aflotun uyiga shoh, a'yonlar va sarkardalar kirib bordilar. «Mana, uch kun o'tdi, xalq o't va shamol yo'qligidan nihoyatda qiynalib ketdi. Yana shu xilda davom etsa, el bu azoblarga chidolmay qoladi», – dedi Iskandar. Olim javob berib: «Bugun ham bergan va'damizga kiradi. Lekin ertadan hamma narsa o'z o'rniga tushib, xalq qiyinchiliklardan qutuladi», – dedi. Shoh va a'yonlar bu so'zlardan ko'ngillari taskin topib, oromgohlariga yo'l oldilar.

O'tni to'xtatish masalasi mana bunday bo'lgan edi: Jomosb degan donishmandning kitobida: «Iskandar davrida u jahon fathiga otlangan vaqtda olam mamlakatlarini egallab borarkan, Kashmirni bosib olishda bu shaharning begi Mallu berk qo'rg'onga berkinib olib, odamlardan shamol bilan o'tni yashiradi. O'sha yerdagi bir tog' ichida toshdan bir uy yasab, tilsim qilib qo'ygandi. Yelni shu uyga qamasa, xaloyiqning dushman askarlarini daf qilish oson bo'ladi. Shamol avval betartib esib, undan xalqqa ziyon yetardi. Shamolni haligi uyda bekitgandan so'ng bu mamlakatga kelganlar haligi uy derzasiga qarshi turib Kashmir shahriga to'g'ri boqishsa, yoqimli shamoldan bahramand

bo'lishar, derazani berkitib qo'yilsa, shamol chiqa olmay qolardi.

Qal'adagi bir choh – chuqur bor bo'lib, uning og'zi tor-u, tagi keng edi. Chuqur tagida bir otashkada bo'lib, u Kayumars davridan qolgan edi. U yerda shunday bir tilsim mavjud edi: odam shaklidagi bir haykal doim o'tni yelpib, haroratni kuchaytirib turardi. Uning oldida dam bila ko'ra yasalgan bo'lib, ko'ra jismida olov puflaydigan nay o'rnatilgan bo'lib, haligi haykal asbob orqali o'tni doim tezlashtirib turardi. Choh og'zidan uchqun va tutunlar chiqib, xalq undan issiqlik olib turar, bu mamlakatdagi o't manbayi, ne o'tkim, quyosh manbayi ham shu edi. Lekin bu o'tlar kishi ko'ziga ko'rinmay, quyoshga o'xshab yer ostiga kirib ketardi. Bu tilsimni yo'q qilish uchun, bu ish Aflotunga havola, avval naqb boshini topib, u yerda chodir tikib o'tirish kerak. Keyin naqb boshini ochib, ichkariga qarab 17 qadam yurish darkor. O'n yetti qadamni bosish chog'ida ikki yoniga yaxshi nazar tashlab borish kerak. Har tomonda yel yo o't rasmi chizilgan taxtachalar turadi. Har bir lavhni zarb bilan qattiq tepsa va lavh devor ichiga kirib ketsa, biri yel yo'lidir, biri o't yo'li. Devor buzilgan zamon tezlik bilan tashqariga qochish zarur. Chunki o't bilan yel qo'shilishib, chirpirak bo'lib aylanib, aniqlangan yo'llarni ham vayron qiladi. Ikki kavakdan chiqib kelgan o't va yel qal'a ahliga shunday ziyon ko'rsatadiki, kimga tegsa, nobud qiladi, imoratlarni pastlashtirib, tik yog'ochlarga shikast yetkazadi. Elining o'lmay tirik qolishi bo'lmagan xayoldir.

O't chohdan chiqqandan keyin, lovullab, qal'ani kuydirishga tushadi. Faqat qal'a ichiga, ro'parasi-

gagina emas, burj-u devorlariga ham tutashadi. Toshi shuʻladan shunday qizib ketadiki, ichkarida qolgan xalq tosh kaboblarga aylanadi. Yoʻldagi lavhlarni ushatgan hakim bir qancha vaqt tashqarida turishi kerak.

Agar yel qalʼaga qarab yelib, shaharga tez yetishsa, lavhalar bilan tomlarni toʻsish, mustahkamlash kerak. Oʻt bilan yel tinchisa, ikkisidan kuch-u mador ham ketadi-da, yana oldingi yel oromi, oʻt sharori qaytadi», deb yozilgan ekan.

Aflotun bu soʻzlarning barchasini Iskandarning bir oʻziga mukammal soʻzlab berdi. Shoh hayratda qolib, donishmandga tahsin aytdi, ehsonlar berdi. «Bu ishlarni bajarish yoʻllari topildi. Endi nima qilamiz?» – deb soʻradi Aflotundan. Donishmand shohni duo qilib: «Sen lavhlarni birinchi boʻlib sindirasan. Bu sening shohlik, jahon pahlavoni sifatidagi huquqing. Bu ish bandini yechish sendan boshlansin», – dedi.

Shoh donishmandga tasanno aytdi, kechasi boʻlishiga qaramay Aflotun bilan bir necha sipohni birga olib yoʻlga tushishdi. Naqb boshiga yetishgach, ichkari, yerosti yoʻliga tushib, ancha yurishdi. Yoʻlning ikki yonida ikki lavh osigʻliq turardi. Aflotun lavhlarni shohga koʻrsatib: «Vaqt ketyapti, boʻlaqol tezroq!» – dedi. Iskandar lavhlarni koʻrib shodlandi-da, Haqni yodiga olib turib, ikki lavhni zarb bilan tepdi-yu, ular yemrilgach, darhol tashqari chiqdi. Ikkovlari koʻzlarini qoʻrgʻonga tikib turardilar, biroz oʻtgach, oʻt qalʼadan osmonga otildi. Yana bir nafas oʻtmay shamol ham yetib borgach, shunday kuchli yel qoʻzgʻaldiki, yel goʻyo olamni buzay derdi, ikkovlari yana naqb ichiga tushishib, ganj-u gʻisht bilan yel yoʻlini toʻsib

tashladilar. Shoh bilan olim tashqari chiqishgach, qo'rg'on tomondan dod-faryod eshitdilar. O't bilan yel qo'rg'on xalqini har tomon parishon qilib halok etibdi. Malluning farzandlari ham, xotinlar ham yarim kuygan holda chiqib kelishdi. Iskandar sipohlari ularni o'tdan ozod qildilar. O't va yel hujumidan juda ko'p odamlar halok bo'libdi. Faqat Mallu ibn Mabok degan kishigina omon qolibdi. Yana Feruz degan o'g'li va nihoyatda sahibjamol bir qizi bor edi. Uning haqida yana keyinroq so'zlashamiz.

Mallu Iskandar qoshiga kelib, yer o'pib, bosh qo'ydi, boshini ko'targach, yosh to'kib iltijo qildi:

*«Shoho, qoshingda gunohkormen,
Jazo har ne qilsang sazovormen.
Chu men bandamen, bu ikki bandazod,
Alar afvin aylab meni ayla shod.*

Iskandar: «Bu azoblar bizdan emas. Sen o'z boshingga tez tig' tortding. Bu dam tuproqqa yuzing surib, kechirim so'rayapsan-u, seni afv qildim. Tuzalganingda kishvaringdan xirojni mukammal to'lab turishingga ishonch hosil qilib mulkingdan chiqib ketaylik. Farzandingni senga o'rinbosar deb tayinlaylik. Qizing ham bor ekan, uni o'zimizga qalliq qilaylik», – dedi.

Mallu bu so'zlardan juda xursand bo'lib, joni uzildi. Iskandar Malluni shohona dafn ettirdi. Shoh ko'pdan ko'p ziyofat qilib, bu mamlakatdagi tabarruk joylar, qadimiy mozorlarni ko'rsatishni buyurdi. Mozordagi Mallu xonadoni qabrlariga yetishgach, u yerdagi xilxona atrofiga devorlar qurdirdi, chiroyli gilamlar soldirdi. Iskandar

Feruzni tilatib, bu olam foniyligini uqtirdi-da, shunday dedi:

*Senikim bu mulk uzra shoh ayladim,
Bu kishvarda kishvarpanoh ayladim.
Kerak lutf-u ehson shior aylasang,
Adolat yo‘lin ixtiyor aylasang.
Raiyatg‘a sendin yetib shodlik,
Mamolikka yuz qo‘ysa obodlik.*

Feruz ta‘zim bilan Iskandarning barcha so‘zlarini qabul ayladi.

Iskandar Kashmirni Feruzga topshirib, boshiga toj qo‘yib, u to‘lashi kerak bo‘lgan xiroj miqdorini belgilagach, unga «Ikki oyda o‘z o‘lkang ishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygin, shu muddat ichida sipohlarni ham jam etib tegishincha, zarur bo‘lganicha yo‘l xarji berib tur. Boshqa ishlar bilan chalg‘imay, bizga, tezda Hindistonga yetib ol», – deb tayinladi.

Iskandar Hindistonda

Bu so‘zlar bilan uni xursand qilib, singlisi Mehrnozni ham to‘qqiz parda ichiga kiritib, Hindiston sari yo‘l oldi. Barchalari shitob bilan tez yurib manzilma-manzil borishar ekan, uning fathini hosil qilib, yomonlardan ofoqni pok etib, yaxshilarni shodmon qilib, o‘jarlarni bo‘ysundirib, dashtini adlidan bo‘ston qilib borisharkan, Hindistonning barcha ahli bu voqealarni eshitib xabardor bo‘ldi. Ular Iskandarning Kashmirda qilgan ishlaridan voqif bo‘lgan tilsimotlarini fath qilib, Kashmir xalqiga qilgan munosabatlarini eshitgan edilar. Uni yengishga kuchi yetmasligini bilgan hind

shohi sovg'a-salom, tuhfalar, to'qqiz-to'qqiz matolar, zabardast to'qqiz-to'qqiz, ba'zi rivoyatlarga ko'ra 39 fil, har birining tani tog'dek, katta tosh uchida yana bir yakpora tosh, undan bosh ko'rinib turar, ikki tomonida ikki bodbon – yelkan bo'lib, har xartumi katta ilon, yo'q ajdar misoli bo'lib, jismiga har lahza o'ralib turardi. Chinor-u minorlarni xartumi bilan yiqita olardi. Xartumi atrofidan ikki tish chiqqan bo'lib, ularning har biri falak eliga ofat edi.

Har biri uzra ajoyib bir taxt qurilgan bo'lib, ichida to'qqizta baxtiyor hind o'tiradi. Har birining libosi qizil yo sariq, xuddi ularni bahor bilan kuz shu rangga bo'yagandek. Haligi fil yurganida, taxt ichidagilarga uyqu harom bo'ladi. Uning yonida filcha ham bo'lib, dev bolasiga o'xshaydi.

Otlar ham fillardek yasatilgan bo'lib, har xil matolar yopilgan, ustida nayzali hindu o'tiradi. Yana qancha shirinso'z to'tilar, zumurrad va la'l minqorli qushlar, zebo jamolli tovuqlar barchasi shohga sovg'a edi. Sovg'alardan keyin ko'plab donishmand allomalar qadam tashlardi.

Shoh allomalariga qarab dedi: «Men shohga kamtarin bir qulman. Uning bilan jang qilishni o'ylaganim ham yo'q. Ul zotdan maktub kelganda, uzrli bo'lganim uchun shohlar yig'iniga borolmadim. O'sha kunlari qattiq kasal bo'lib qoldim. Agar shoh lutf aylab ko'rgani kelsa, xalq ichidagi obro'yimni ko'taradi. Mening esa boshim ko'kka yetib, jonim boricha quli bo'laman. Agar Tangri ko'rsatmasin, qahr qilib, do'stlik mayi ichiga zahar quyadigan bo'lsa, siz shafolat qilingki, gunohimdan o'tsin».

Nihoyat, hind shohi yuborgan sovg'a-salomlar, hurmatli zotlar Iskandar turgan manzilga o'rdaga yetib borishdi. Avval arkoni davlatlar, keyin ahli

hikmat huzuriga kirib bordilar. Iskandar hurmat-ikrom bilan kutib olib, ular bilan so‘rash-gach, taxtidan tushib, har biri bilan ko‘rishib, har qaysisiga iltifot ko‘rsatdi. Shoh shundan so‘ng taxtiga chiqmay, yerga takallufsiz o‘tirdi-da, har bir amaldor-u olimga o‘z lavozimu ilmiga mos joy ko‘rsatib o‘tqazdi. Ular o‘zlarining yo‘lda qiynalmaganliklarini aytib, burun shohga duo qildilar va uning kechirishini so‘radilar. Iskandar: «Siz nimani iltimos qilsangiz, ularni bajarish bizga farzdir. Shohingizning gunohi oz, ko‘p bo‘lganda ham uning uzrini qabul qilgan bo‘lardim. Hind xalqining gunohi ozmi, ko‘pmi, bundan qat’iy nazar, barchasining gunohidan kechdim. Ulardan jazolash, o‘ch olishdan qo‘limni tortdim. Inoyatimga ishonib, saroyimga kelsin, men uning boshiga toj qo‘yib, baxtli qilay.

Sizlar ham qadam ranjida qilib, bu yon kelib, meni xushdil-u bahramand etdingiz. Bir mamlakatga bir shoh kirganda qadimiy rasm-rusumga ko‘ra eldan moli omon qabul qilinardi, bu eldan shuni talab qilmasinlar. Shoh xizmatni boshlagach, bu kishvar xirojini qabul qiladi. Xaloyiq boshidan ehtiyojlarni yo‘qotish uchun ikki yillik xirojni kechirdik».

Iskandar xalqqa va podshoga bu xil yaxshiliklarni ravo ko‘rganidan el behad xursand bo‘ldi va unga uzoq umr, baxt va saodat tilab, shohni kafan kiydirib va bo‘yniga qilich ostirib, olampano huzuriga olib kirdilar. Iskandar Hind shohining ahvolini ko‘rgan zahotiyiq uning holatini man qildi, chunki u bu jazoga loyiq ish qilgan emasdi. Bir shahar xalqi ikkinchisidan yengilsa, butun millat shu holda kelib g‘olib hukmdordan

uzr soʻrashi mumkin edi. Iskandar muruvvatli shoh boʻlgani uchun ham tigʻ bilan kafanni darrov oldirib tashladi. Shohona kiyim va qurollar keltirib, qayta kiyintirishdi. Shoh uni hurmatlab quchoqlashib koʻrishdi. Hind Royi Iskandarning oyogʻini oʻpishga intilgan edi, shoh unga hurmat koʻrsatib, yuqoriroqdan koʻtarib oldi va ikkovlari quchoqlashib koʻrishishdi. Hind shohi olib kelgan sovgʻalarini Iskandarga tutdi. Iskandar uning oʻtirishiga joy koʻrsatdi va shohona qonunlarga koʻra mehmon bilan suhbatlasha boshladi. Shu bilan mezbon koʻnglidagi vahmga barham berdi va andishadan qutulirdi. Shohning bu xil iltifotini koʻrib, hind Royi oʻrnidan turib, iltimos qilib qoldi:

«Hind kishvarida gʻaroyiblar koʻp. Bu yerning qishi nihoyat moʻtadil. Issigʻ ham, sovuq ham boʻlmaydi. Harbiy yurishlar vaqti ham shu davrda maqbul boʻladi», – dedi. Iskandarga bu taklif xush kelib, qishni Hindistonda oʻtkazishga rozilik berdi. «Dehlida oʻtkaza qoling qishni», – deyishgan edi, shoh: «Shaharga sipoh sigʻmaydi», – deb shahardan tashqarida alohida manzil-makon qurish uchun koʻrsatma berdi. Hind Royi yana dediki: «Shoh hukm aylasa, ishlarni tezlashtirish, tezroq tugallash uchun qurilayotgan shaharchani koʻrishga vaqti-vaqti bilan borib, qilinayotgan ishlardan xabardor boʻlib tursam, boʻlmasa koʻnglim tinchimaydi, dam-badam bezovta boʻlaman», – degach, bu soʻz shohga ham xush keldi-da, tez yuruvchi, karkkoʻzli, filtan naqshli egar otlarni hozirlab, Hind mulkini oʻzi ham aylanib kelishga yoʻl oldi.

Hind shohi Roy oʻz oʻlkasi koʻchalaridan borar ekan, aholi uning oʻlimdan qolganidan xursand boʻlib, beadedad duolar qilishdi. Roy elni xushdil

aylab, Iskandar buyurgan shaharchani qurishga berilib ketdi.

O'sha mintaqada Nigor degan o'rmon bo'lib, hayratlanarli darajada go'zal edi. O'rmondan doim anbar nasimi esib turar, tuprog'idan ham anbar isi anqib turar, sandalu, obnus, sandarus, shabah kabi xushbo'y daraxtlar u yerda serob edi. Nasim esganda hammayoq sandal daraxti isiga to'lib ketardi. Daraxtlarning har biri osmonga bosh tegdurib turar, daraxt barglari orasidan hatto quyosh ko'rinmasdi. Chinor, dorchin, zaytun, tok bir-birlarini bezab, o'rmonga ajab manzara bag'ishlar, xilma-xil qushlarning qichqirishlari ajib musiqalar hosil etar, to'tilarning bir xil navi har bargni ko'kimtir qilib, har daraxtni Xizr payg'ambarga o'xshattirgandi. O'rmondagi qizil, yashil, gulnor ranglari bo'stonlarni hayotbaxsh qilib bezagan edi.

O'rmon ov uchun ham qulay bo'lib, kiyiklar tog'larda ming-minglab sakrab yurishar, marallar shakar qamishlar o'sgan o'tloqlarda ko'p bo'lgani uchun har qaysining oyog'iga asal yopishib qolgandi. Dengizida bo'lsa oq baliqdan ko'pi yo'q, o'rmon atrofida har xil katta va kichik qushlarning inlari mo'l bo'lib, ularni istagancha ov qilish mumkin edi. Shaharcha ochiq yerda barpo qilinayotgani uchun gullar mo'l-ko'l ekilgan bo'lib, dilni o'ziga maftun etardi.

Hamma ishlar bitgach, hind Royining o'zi Iskandarni qo'shini bilan shu yerga boshlab kelib doira qilib ishlangan qarorgohga tushirdi. Shoh bu yerda chor atrofni bemalol kuzata olardi.

Hind Royining qilayotgan g'amxo'rliklaridan juda xursand bo'lgan Iskandar qishi bilan boshqa

barcha ishlarni yig'ishtirib, aysh-ishrat bilangina mashg'ul bo'ldi.

Iskandar Kashmirda qishni o'tkazar ekan, uning ajoyib latofati, g'aroyib imoratlari, sehrli tilsimlari tomoshasiga tez-tez borib turardi. Hammomda ko'proq bo'lar, Roy qasrida sozanda navozandalar ishtirokida ziyofatlar uyushtirar, gohida o'rmonni ko'ngli istab, yo'lbars va sherlarni, ba'zida fil-u kark o'ldirib, gohida daryo bo'ylab qayiqda sayr etib, goh oq baliq ovlab, do'stlari bilan sho'rva qilib ichishib, goho shakar qamishzorda yurib, nayshakarni gazak qilib may ichishib, ba'zan ilm ahlini saroyga to'plab, ilm majlisi qurishar, turli kitoblar mazmuni haqida bahs yuritishardi. Kitoblar-da noma'lum, majhul o'rinlarni ma'lum qilish ayniqsa zavqli kechardi. Kecha-kunduzlar shunday o'tib, bahor fasli ham boshlandi. Quyosh olamni o'zining nurlari bilan munavvar aylagach, shoh yana ketish yig'inini yig'di va bu safar Xitoy bilan Chin azmini ixtiyor etdi. Yana harbiy harakatlar boshlanib, Chin chegarasiga bayroq tikildi.

Chin mamlakatidagi muzokaralar

Bu vaqt xoqon Iskandarning Hinddan Chin tomon yo'l olganidan xabar topdi. U ko'pdan ko'p lashkar to'plagan, son-sanoqsiz qurollar ham tayyorlab qo'ygandi. Lekin xoqon darhol dushmanlik ishiga kirishmay, xusumat boshlamay turib, sulhdan urushga sabab bo'lgan masalani tinch yo'l bilan hal qilish, shunga raqib tomon ham ko'nsa, do'stona munosabatlar oshkor qilib, raqibni tinchgina jo'natib yuborish yo'lini ma'qul ko'rardi. Ish bu bilan hal bo'lmasa, urush boshlashga majbur bo'lardi.

Shularni o'ylab xoqon oldin dono bir odamni elchilikka yubordi. Elchiga o'zi o'ylab qo'ygan ishlarni belgilab kelishini topshirdi. Qosid elchi bilintirmay kelib, shoh saroyiga nazar solib kuzatdi. Sipohlarning ko'rinishi, so'zlari, chodirlari oddiygina ekanini ko'rdi-da, hamma narsani kuzatib chiqqach, Chinga, xoqon dargohiga qaytishni o'ylayotganda, uni kuzatib yurgan sipohlar shohga xabar berdilar. Elchi yer o'pishga o'tdi. Shoh boshqa kiyimda har xil ishlar bilan mashg'ul bo'lgan holda uni kuzatardi. Uning aqlli, hushli odam ekanini ko'rdi-da, xotirjam bo'lib: «Endi gaplaringni gapiraver», – dedi. Elchi shohni duo qilgach, xoqon deganlarini birma-bir bayon qila ketdi: «Xoqonim ta'kidlashicha, shoh bu kishvar sari quyoshdek yuzi bilan nur taratib keldi. Buning ma'nosi ne edi?

Fikring do'stlik esa, do'stlik bunday bo'lmaydi, bu xil ishni do'stlik deb atab ham bo'lmaydi. Sen, ulug' shoh katta qo'shin bilan bizning mulkka kirib kelib, mamlakatimizni tomosha qilyapsan. Muddaong dushmanlikmi yoki bizdan yomonlik ko'rib, raqiblikni ma'qul ko'rdingmi?

Sening ilgari xiroj uchun kelgan elchingni uzr aytib, tirik qo'yib yubordik. Degan ekansanki: «Doro o'lib, taxt menga qoldi». Deb erdimki: «Doro bilan mening o'rtamda tinchlik, kelishuvchilik munosabatlari barqaror edi. U meni yenggan emasdi, menga to'lanadigan xirojni belgilab bermagandi. Agar sen shunday qilmoqchi bo'lsang, ikkalamiz yolg'izlikda o'tirib, bu masalani hal qilib olaylik. Bu ishga rozi bo'lmasang, qazo mening peshonamga yozganini ko'raveraman-da.

Oldin ham shu soʻzlarni aytgandim, hozir ham shu soʻzlardan qaytmayman, bulardan boshqa soʻzim yoʻq mening.

Agar senga ham soʻzlarim maʼqul kelsa, sulh tuzib, gapingning oʻzi sulh bitimi oʻrniga oʻtadi. Agar yomonlikka yuz burib, dushmanlikni maʼqul koʻrsang, mening ham bu ishda kamchiligim yoʻq. Sipohlarimning son-sanogʻi yoʻq. Yaroqlarim ham yetib ortadi. Butun mamlakat, hatto, ayollargacha oxirgi joni qadar jang qiladi. Ammo ikki tomon urush qilarkan, zafarning qaysi tomonda boʻlishini bilib boʻlmaydi. Kim gʻolib boʻlishi maʼlum emas ekan, peshonamizga ul harf yozilmagan ekan, kishi urushdan uzoq boʻlgani ehtiyotkorlik jihatidan yaxshiroqdir».

Elchi bu soʻzlarni aytib boʻlgach, javob istab yerga koʻz tikdi. Iskandar bu soʻzlarni tabassum bilan, fikr yuritib eshitar ekan, dedi: «Agar shohlik hurmatida, jahondorlik rasm-u oyinida men bilan Doroni Xoqoni Chin bilan teng tutar ekanlar, bu uncha toʻgʻri emas. Kimsa ogoh boʻlsa, biladiki, mulk bilan shohlik agar shohning mulki bilan belgilansa, mening kishvarim ikki Doronikichalik bor. Agar gap shijoatda boʻlsa, bundan ham xabar topgandur. U bilan urushishga toʻgʻri keldi, koʻrdikki, uning shavkati menikining oʻndan biricha edi. Uni shunday ojiz qildimki, xalqi uni butunlay koʻrmaydigan boʻldi. Men gʻolib edim, Alloh oxiri menga nusrat berdi.

Agar Xoqon shu sirlarni, ogʻir soʻzlarni unutmoqni istasa, oʻzini buyrugʻimga boʻysundirsin, oʻzining uzri, sabablarini himoya qilsin. Iloji boricha unga rioyat qilay, hurmatini joyiga qoʻyay. Buni qoʻllab-quvvatlamasa, urush kunini boshiga solay.

Nima degan bo'lsam, rostdir, rost so'zlamak men uchun odatdir. So'zim tugadi, endi tezda qayt-gil-da, unga bu so'zlarimni aniq qilib tezroq ayt.

Sen borarkansan, men ham asta yurib bo-raveraman. So'zlarimga xoqon javobini ertaroq olib kelolsang, ikki tomonga ham savob bo'ladi. Buyrug'imdan bo'yin toblasang, ko'ramiz, falak ne o'yinlar ko'rsatarkan?».

Elchi bu so'zlarni eshitishi zamon hayajonga tushganicha jo'nab ketdi. Saroyga yetgach, Iskandar so'zlarini xoqonga so'zlab berdi. Xoqon Iskandarning o'zi o'ylaganicha jasoratli ekaniga ishonch hosil qildi va urushishga mardona bel bog'ladi, Iskandarning yetib kelish vaqtini hisobladi. Yetti, yo'qki, yetmish otasining yurtidan, butun Xitoy mamlakatidan askar yig'mish edi. Sipohi osmon yulduzlaridan ham ko'proq, sahrodagi qumdan ham soni ortiqroq edi. To'qqiz yuz ming kamondan o'q otuvchisi, yana shuncha qilichboz jangchisi bo'lib, barchasining kiyimi zarhal-u zarbof edi. Har qaysi o'qchi va xanjarboz temir kiyimlarda bo'lib, shuncha sipohlar bilan Chin xoqoni Chin shahridan chiqib keldi-yu, dushmandan oldinroq ulgurish uchun sipohlarni tezda tushirib, xandaq qazdirishni boshladi. O'z sipohining chor atrofi-cha xandaq qazdirdi. Uning, xandaqning davri 15 yig'och bo'lib, ichi metinlar bilan mustahka-mlangan. Ko'pdan ko'p arava ham tayyor bo'lib, ular ustiga to'ralar⁴ o'rnatilgan, aravalar bir-bi-riga bog'langan bo'lib, ularning ketidan nayzali va o'qotar sipohlar tizilgandi. Xandaqlar oldiga mustahkam mo'ndu sanchiqlar tiqib qo'yilgandi.

⁴ To'ralar – hujum qilish uchun mo'ljallangan va to'rt tomoni o'ralgan harbiy qurilma.

Chin qo'shini sipohlarni shu tariqa bekitib, dushman ustiga qo'qqisdan hujum qilish usulini qo'llashga tayyorgarlik ko'rib turardi. Qarshi tarafdin asta-sekin Chin qo'shini tomon yaqinlashib kelayotgan Iskandar qo'shini ham yashirincha, o'zini bekitib qadam tashlarkan, uzoqdan Xoqon lashkarlarining qorasi ko'rindi. Sipohini tezgina tuzgan Iskandar suron solib jangga kirishdi. Iskandar qo'shinining birdan yaqin yerdan paydo bo'lib, qattiq suron solib hujum qilishi Chin sipohlarini vahimaga solib qo'ydi. Oqshomda ikki sipoh orom olib yotarkan, qorong'i tushgani uchun ikki tomondan taloya⁵ qo'shinlar tinchini himoya qilardi. Yazaklar – kecha qorovullari tez-tez paydo bo'lib, adashgan o'qlarga ham duch kelib turishar, Iskandar ertagi bo'ladigan jang haqida fikr surib, xilma-xil rejalar tuzar ekan, hikmat ahli uning oldiga borib: «Erta-yu indin sabr qilish kerakka o'xshaydi, dushmanga sezdirib turib, jangni to'xtatib turish lozim. Sayyora-yu sabobotlar vaziyati shuni taqozo qiladi. Ikki kun sabr qilib, keyin uchinchi kuni hujum qilsa, shoh dushmanni mag'lub etsa, ajab emas», – dedilar. Iskandar bu so'z bilan taskin topdi-yu, yuragidagi tashvishni unutilmasdi. Chin xoqoni ham ko'nglidagi notinchlikdan qutulolmasdi. Ish shu yerga yetdiki, el ichida shunday vahimali gap-so'zlar boshlandi: «Bu nomi chiqqan jasur shoh, yuragi qoplon, shukuhda bir sher jahongirlikni havas qiladigan bo'lsa, shu vaqt ichida bir necha yirik mamlakatlarni fath etdi. Bizning kuchimiz Doronikicha emas, unda bo'lsa bizga qaraganda o'n baravar savlat-u shukuh bor.

⁵ Taloya – tunda qo'riqlovchi sipohlar.

U sohibqiron ham, pahlavon hamdir. Bunday kishi bilan jang qilishga kirishmoq bema'nilik bo'ladi. Birovkim, unda aql da'vosi bo'lsa, o'zini o'ldirishning ne ma'nosi bor? Yo'q, o'z joniga ham, xalq joniga ham, ne jon, balki nomus-u origa ham ziyon bo'lishi turgan gap. Agar shohga mute' bo'lsa va xiroj to'lashga rozilik bersa, Iskandar toj-u taxtni xoqonga qoldiradi.

Mallu unga ne yomonliklar qilmadi. Bugun esa o'g'li Feruz obro'li, o'ziga ishongan hukmdor bo'lib o'tiribdi. Itoatkor bo'lgani uchun Royi Hindning Hindistonday mamlakati bor. Agar xoqon ham uning qoshiga borsa, mamlakat tojini boshiga qo'yar. Uning xizmatini qilsa, mamlakatining barisini qaytarib olar. Boshqacha yo'l tutsa, keyingi pushaymonligining foydasi bo'lmaydi».

Xoqonning amaldor-u a'yonlari, lashkarlar-u xizmatkorlari ham shu fikrni ta'kidlashardi. Birov unga xos mahram bo'lib, Xoqon bilan sirdosh edi. Bir zamon xoqonning xilvat o'tirganin ko'rdi-da, oldiga kirib zor-zor yig'ladi. «Elimiz boshiga og'ir tashvish tushibdi», – deb xalq orasidagi gaplarni birma-bir gapirib berdi. So'zini tugatgach, dedi: «Ey shahriyor, senga hamisha baxt yor bo'lsin. Ma'lum bo'lgan gaplarni senga aytib berdim, inon-sang, bu holatga bir fikr qilarsan, ishonmasang, o'ylab ko'rib, bir chora toparsan».

Xoqon bir oz o'ylab, do'stining so'zlari haqiqatga yaqinligiga ishonch hosil qildi. O'zi o'ylagan choraning to'g'riligiga, xalqi ham shu xil tadbirni qo'llashiga inondi. Kutilayotgan jang xuddi chin-ni bilan temirni urishtirishga o'xshaydi. Chinni parchalanadi. Xoqon shularning barchasini o'ylab uxlayolmay chiqdi.

Quyosh chiqmay turib o'z fikrining to'g'riligiga yana bir marotaba imon keltirdi. Aql ko'ngliga bir fikr soldi.

Erta tong mahali bir xos mahramni chaqirtirdi-da: «Mening oromgohim oldidagi odamlarni uzoq-roqqa sur. Deraza pardasiga ham yaqin keltirma. Baland ovoz bilan: «Bugun shoh elni qabul qilmas ekan!» – deb aytgin-da, oqshomgacha bu eshikni asra. Mendan xavotir olma. Men yarim kechada kelsam kerak, o'shanda chiroqni yoq. Agar kelmasam, o'z o'rnini solib yotaver. Lekin mendan ne voqea yuz berganini so'rama!». Shoh uyga kirib, kiyimlarini almashtirib, elchilar kiyimlarini kiyib oldi. Mahramiga aytdiki: «Deraza pardasi yoniga bir ot olib kel!». Otni tayyor qilib keltirishgach, deraza pardasiga yaqin kelib, otga mindi.

Qorong'ida sipoh chegarasidan chiqib, darvozabon oldiga yetdi-da, muhim bir naqshni ko'rsatib: «Meni chiqarib yuboringlar, muhim ish bilan ketyapman», – dedi. Darvozabonlar nishonaga ishonib, chiqarib yubordilar. Xoqon yuz ming xayol bilan borardi. Osmondagi yulduzlar birin-ketin ucha boshladilar, quyosh ko'rindi, nihoyat, u Iskandar qarorgohiga yetib bordi. Uning kelgani haqida shohga: «Nihoyatda go'zal bir elchi kelibdi. Boshdan oyog'igacha nur, odam surati bilan kelgan farishta», – deb xabar yetkazdilar. Iskandar: «Ehtirom qilib, taxtim oldiga joy soling. Bu kecha ajoyib bir tush ko'ribman. Quyoshdek bir narsa nur sochib turar, yana bir quyosh ham ko'rinib turardi. U kelib oldimda bosh qo'yar edi, kishi mundaq ikki quyoshni hech qachon ko'rgan emas».

Yana hikmat ahlining kitoblarida:

*Navodir edi bu ikki kunda ko'p,
Ki zohir bo'lar dedilar munda ko'p.*

Ular aytgan nodir ishlarning biri shu bo'lsa, ajab emas. Shu so'zlarni aytgach shoh: «Yuring, siz aytgan kimsani ichkari kiriting», – dedi. Mulozimlar tashqaridagi mehmonni ichkariga olib kirdilar. Elchi shohdan uzoqroq turib ta'zim bajo qildi. Iskandar uni o'z oldiga chaqirib quchoqladi. Baxtdan bu bashorat yetib, shoh elchiga «O'tir!» deb ishorat qildi. Elchi shoh oldida o'ziga tayyorlangan joyiga o'tirgach, Iskandar savol berdi: «Qanday so'zung bo'lsa, boshlayver, ne sirni aytsang, bizga tushuntirib qo'y!». Elchi shoshilmay so'z boshladi: «Nekim hukm qilsang, jonim ustiga, lekin Xitoy xoni, Xoqoni Chin tadbiri royiga yuz ofarin. Menga necha sharif so'z aytgandilar. Podsho bilan elchi oldidagi so'zlarni hamma ham eshitaverishi mumkin emas. Yana xoqonim degandilarki, elchi-yu shohgina xilvatda suhbatlashishlari ma'qul. Savol berilsa, sen barchasiga javob qila olasan. Shunday bo'lmasa, o'rningdan turgil-u, seni bandi qilsalar ham, dam urmagil.

Saroy xalqi gumon qilishsa, oyog'ingga band solishsin, qo'lingni kamand bilan boylashsin. Iskandar o'z oldiga o'tkir qilich qo'ysin-u, keyin sen savollariga javob ber. Mendan xafvingiz bo'lsa, oyoq-qo'limni bog'langiz».

Iskandar elchining bu so'zlaridan xursand bo'lib, «Boringiz, hammangiz chiqib ketingiz. Shuning uchun band aylamoqqa hojat yo'q. Popishaklar odati lochinga mos kelmaydi», – dedi. Lekin hikmat ahli iltimos qilishib, elchining oyog'ini bog'lab qo'yishdi, qo'lini ham bog'lashdi, shoh

oldiga qilich ham keltirib qo'ydilar, keyin ular shoh bilan elchidan ancha nari borib turdilar. Shoh bilan elchi oldi xilvat bo'lgach, shoh oldingi so'zlarini qaytardi. Elchi aytdiki: «Ey pokiza shoh! Huzuringdagi elchi Chin xoqonidir. Ayog'imda band-u, qo'limda band, na ilgimda tig'-u, na ko'nglimda kin. Bu ish boisi necha sur'at edi, ki bu nav' kelmak zarurat edi». Iskandar hayron bo'lib so'radi: «Ey Chin-u Xitoy sipohdori, nechuk shohlar bunday xato qilishibdi. Dushmaniga o'zini bunday asir qilib berish, o'z oyog'i bilan kelib, bu ahvolga tushishga nima sabab bo'ldi ekan? Avval shu savolimga javob bering-chi!».

Xoqoni Chin fikr qilib dedi: «Ey dunyo mulki-ning egasi! Boshimga mushkil ish tushgan edi, bu kelish shuning iloji bo'ldi. Senga e'tiqodim, ishonchim bor edi. Sen aqlli, mard, himmatli pahlavonsan. Zolimlik sening shioring bo'lmaydi. Boshqa dushmanlaring senga qarshi qo'shin bilan chiqishib xato qilishdi, uzr so'rashganda, ularning hurmatini ham joyiga qo'yding. Men sening oldingi ishlaringni yodda tutgan holda o'zimni shunday kamtar va behol qilib taxting oldiga keldim, arzi holimni aytdim.

Iskandar unga ofarin aytib: «Juda to'g'ri ish qilibsən. Yana so'zing bo'lsa, izhor qil», – dedi.

Xoqon uni yana bir duo qilgach, dediki: «Bu yerga kelishdan maqsadim, sen bilan yuzma-yuz, yonma-yon o'tirib, qoshingda dilimdagi so'zlarning barini aytmoqchidim. So'zim shuki, shohdan kelgan elchiga aytgan javobimdan podshoh ranjigan. Shunga uzr so'ragani keldim. Ortiq so'z demayin: gunohkorman, o'limga sazovorman. Aybimni bilib turib, xor bo'lib oldingga keldim Agar afv qilib shod

etsang ham, sening xulqi lutfingga mos ish bo'ladi. Agar tig' tortsang ham, jonim fido».

Iskandar: «Ey baxtiyor shoh! Menga sen ma'qul javob aytib eding. Do'stlarim ham, begonalar ham ahamiyatli maslahatlar berishgan edi, lekin men o'zimni puxta tadbirlik sanab, jahonni fath etmoqqa azm ayladim. Dushmanini yenggan har bir g'olib shoh shunaqa fikr yurgizadi. So'zimda xatolarni endi anglayapman».

Xoqon shohni yana bir duo qilib, so'z boshladi: «Olam ahli senga tobe bo'lsin. Ne kishvarni ochmoqqa qadam urgan bo'lsang, o'sha mamlakat senga osonlikcha mag'lub bo'lmadi. Mallu ne nayrang-u afsunlar qilmadi?! Sen esa uning boshidagi tojni o'g'liga kiydirding. Uni lutfingdan bahramand etib, ota mulkiga shoh qilding. Meni dushmaning deb xayol qilarding. Shuning uchun o'zimni bunday selga oyoqosti qildim. Xayolimga keladiki, bu xil hech kim qilmagan ish uchun nima yaxshilik qilarkansan?».

Iskandar dedi: «Ko'nglingni jam qil. Ikki dunyoda sen ota, men o'g'ilman. Nima desang xizimatingda bo'lay, seni taxtinga o'tqizayin. Farzanddek oyog'ingni o'pib, Faylaqus tirildi, deb e'lon qilay. Sen shoh bo'l-u, men senga sipohdorlik qilayin. Bularni istamasang, nimani xohlasang, men unga yordam beray».

Xoqon shod bo'lib, ko'p-ko'p duolar qildi, ko'zidan yoshini tiya olmay, shukr tuprog'iga boshini qo'yib, dedi:

*«K-ey, shahanshoi gardunsarir,
Sariringga yo'q avji gardunnazir.
Hamisha jahonpahlavon bo'lg'asen,
Jahon ahlig'a komron bo'lg'asen.»*

*Bu himmatki bermish sanga beniyoz,
Erur shahlig'ingg'a jahon mulki oz.
Demon loyiqing ikki olam edi,
Ki o'n bo'lsa erdi, dag'i kam edi.*

Sen ota va o'g'illik so'zini aytding. Men bu so'zlarni gumon ham qilmagandim. Meni bunday oliy maqomga ko'tarishingni xayolinga ham keltirmagan edim. Garchi senga mendek ota yaramasa ham, ammo bunday demoq men uchun xato bo'lurdi. Sadafning otasi gavhar bo'lsa, gavhar zotining sharafi kamayib qolarmidi? Bu ehsoningga garchi loyiq bo'lmasam-da, sadaf bilan dur holidan yo'q deya olmayman.

Va lekin boshqa so'zlarni ham ayon qilding, ular ham hozir aytganimizcha bor. Kelishdan maqsadim, sen bu sirni elga fosh qilmagil, elchilarga qilinadigan mulozamat bilan bugun shom bo'lgach uzat. Elingga: «Bu kelgan elchi yarashish haqida gapirgan edi, qabul qildim», – deb e'lon qil.

Tong otgach, qoshinga elchi yuborib, meni dargohingga taklif et, men ham sening chaqirig'ingga amal qilgan bo'lib kelay. Meni ko'rganda, el ko'rgandek ta'zim ayla, ota-bobolarimizdan qolgan mamlakalarimizni birga qo'shgandek bo'laylik.

*Ulus ichra e'zoz qilg'il meni,
Ato, deb sarafroz qilg'il meni.*

Xiroj haqida sen yuborgan maktubda aytilgan edi, shuning uchun xiroj haqida indamay qo'ya qol. Xiroj istamaktan maqsad mol esa, dur-u la'l bizda behaddur. Qachon zarur bo'lsa, ulardan mo'l-ko'l to'kib tashlayman. Necha vaqt bo'lsa ham, sening

manziling kishvarimizning istalgan gulzorida bo'lsin. Bu yerda sen istagancha istiqomat qil, jo'nash vaqting tayin bo'lgach, uzatish odatimizga ko'ra sen bilan xayrlashaylik. Bu yashirin so'zlarimni ham bajargin. Bu xil ishni o'zim o'ylab topdim», – dedi.

Iskandar Xoqonning barcha so'zlarini qabul qildi va shu tarzda ishni amalga oshirdi. Xos xizmatkorlarini chaqirib dedi: «Burun qo'llaridan arqonni oling, keyin oyoqlarini banddan bo'shating. Yaxshi so'zlarga usta ekan. Dengiz bilan kon orasiga sulh soldi, ya'ni mening bilan Xoqon orasiga sulh soldi. Shohona to'nlar kiydiring, muncha pul berib, ol-dimga keltiring».

Shoh buyrug'i darhol ijro etilgach, Iskandar elchiga: «Kechgacha shu yerda damingni ol-da, qorong'i tushishi bilan yo'lga ravona bo'l», – dedi. Elchi mehmonxonada kechgacha dam oldi-da, yuzidan niqobini olmay, Chin chegarasigacha shu tarzda bordi. Oy chiqqach, tog' va dasht bo'ylab, oldin yuborgan elchisi bilan birgalikda ketishdi. Shoh o'z chodiriga yetib borgach, otni sherigiga topshirib, shohparda ichiga kirdi.

Tong payti Iskandar odamlarni chodiri atrofiga yig'di-da, farmonni tez bajaruvchi bir navkariga: «Xoqon sari borib, mendan salom ayt va ginani qo'yib, sulhga kirishgil.

*Agar yaxshibiz, gar yomonmiz bukun,
Sening mulkingga mehmonmiz bukun.
Turib kelki, biz kinadan toqbiz,
Bag'oyat jamolingga mushtoqbiz.
Yaqinkim bu so'zni qabul aylagung,
Niyoz ahli sori nuzul aylaging», –*

deb ayt», deb tayinladi. Iskandar soʻzlarini tugallashi bilanoq elchi ot choptirib ketdi. Xoqon sipohiga yaqinroq yurib, oʻzining elchi ekanini oshkor qildi va nima uchun kelganini anglatdi. Bu gap Xoqonga eshittirilgach, elchini chodiri ichiga chaqirdi va unga savol berdi:

«Kelmagingdan maqsading nimadir?».

Elchi Iskandar tayinlaganlarini toʻla-toʻkis gapirib berdi. Xoqon bu hayotbaxsh soʻzlarni xursand boʻlib tingladi-da, dedi: «Oldin bizga qasos olmoq maqsadi bilan gaplashgandi, shu tufayli bizga sipoh tortmoqchi ham boʻldi. Endi muloyim soʻzlabdi, bu soʻzlar bizga yoqib tushdi. Endi oʻrtamizda ginaxonlik qolmadi. Sen tez qaytib borsang, bunga yanada aniqroq ishonamiz», – dedi. Elchi: «Oʻzingiz borsangiz, bu soʻzlar yanada ravshanlashadi», – dedi. Xoqon kulimsirab, Iskandar tomon borish uchun ot hozirlatdi. Buni koʻrgan Chin sipohi xafvdan omon topayotganidan xursand edi. Hamma yirik amaldorlar shohga ergashdilar. Xoqon hamma oʻz oʻrnida qolishini aytib, yuztacha gulroʻy Xitoy qizlari va mingtacha yaxshi xislatli qiz va ayollarni oʻzi bilan birga olib, Iskandar qarorgohi tomon yoʻl oldi.

Iskandar tomonidan ham shohlar-u donishmandlar birga borishardi. Xoqonni hamma yigʻilganlar qizgʻin kutib olishdi. Shoh ostonaga yaqin borgach, Xoqon otidan sakrab tushdi, gilamga oyoq qoʻyishi bilan Iskandar ham ichkaridan chiqib keldi. Ikki tomondan qoʻl ochib koʻrishdilar, goʻyo xurshid bilan moh uchrashgandek boʻldi. Ikki olam ota-oʻgʻildek koʻrishgach, ikki olam qoʻshilgandek boʻldi. Yana quchoqlashib koʻrishishgach, Iskandar oʻz taxti tomon yurdi. Bir qoʻli bilan

Xoqon qo'lini ushlab kelarkan, unga shoh taxt yo'lini ko'rsatib borardi. Xoqon andisha yuzasidan kechga qolgan edi, shoh uni qo'ymay taxtga olib chiqdi. Oyog'ini taxtga yetkazib, avval uni o'tqazib, so'ng o'zi o'tirib, va'da qilishgancha suhbat qurib, muloyim-muloyim so'zlab, Xoqonga ba'zan ota-o'g'illik munosabatini ishlatib qo'yishardi. Biror gap aytmoqchi bo'lishsa, bir-birlarining qo'llaridan tutib gapirishardi. So'zlar tugagach, bakovul kelib shohona dasturxon yozdi, quyosh shaklidek nonlar qo'yildi. Dasturxonlarga qo'yilgan taom olamga sig'masdi. «Chin xalqi bu xil muloqotimizdan xabar topsa edi, muhabbat tariqidagi isbotimizni yaxshiroq tushunib yetardi», – dedi Iskandar. Bu so'zdan xursand bo'lgan Xoqon ham o'rnidan turib, Iskandarni maqtab ketdi. Iskandar sariq rangli mayni Xoqonga uzatib, o'zi qizil mayni tanladi.

Ko'p o'tmay Xoqon Chin shahriga qaytdi va uzluksiz bazmlarga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Saroyda davlat ahlini to'plab: «Bu baland martabali shoh olam yuzini tamomila fath qildi, jahonning qancha-qancha shohlarini o'ziga banda ayladi, qachon bizga bunday mehmon bo'lib kelib, men bilan taxti ustida suhbat qurib, otalikka qabul qiladi, o'g'il sifatida shafiqim bo'ladi, deb o'ylabmiz. Bilasizlarki, biz bilan jang qiladigan bo'lsa, xalqimizning changini osmonga to'zitgan bo'lardi. Uni qay tarzda mehmon qilamiz, shu haqda fikrlaringizni eshitsam», – dedi. A'yonlar:

*Bu shoheki bor emdi mehmonimiz,
Gar olida bo'lsa, fido jonimiz, –*

deb ixtiyorni Xoqonga topshirdilar. Shundan keyin o'zaro maslahatlashib, Chin xalqiga azaldan odat bo'lgan mehmondorchilik usuli to'qqiz-to'qqiz taqdim qilishga kirishdilar. Eng yaxshi, chiroyli, yuguruk, har xil zarboflar yopilgan 9 ming tulpor ot, har biri filga teng dur-u, la'l-u, feruza munchoq taqilgan bezakli 9 ming tuya, tezyurar, bezatilgan 9000 xachirda ipak, shoyi kiyimlar, xitoyi pardalar, 1000 ta eng go'zal yonoqlari gul-gul-u, mijalari tikan, qobog'lari keng-keng-u, og'izlari tor eng go'zal Xitoy parivashlari, bulardan tashqari yana ikki ajoyib sovg'a, biri-quyoshsimon jomi Jamshiddek ko'zgu, uni oddiy xalq «Oyinayi Chin» deb atardi. Uning ikkala yuzi ham kundek yorug' bo'lib, donishmandlar uning bir tomonini shoh oldiga ikki kishi da'vogar bo'lib kelganida qo'llardilar. Bunday chog'da jom guvoh o'rniga o'tar, ya'ni kishining so'zi chin bo'lsa, uning yuzi ko'rinib turar, yolg'onchining yuzi ko'rinmay qolardi.

Ko'zguning yana bir tomonidan shoh ziyofatlaridan foydalanilardi. Yig'inda ichkilik ichayotgan har bir kishi unga qarab-qarab tursalar, mast bo'la boshlagan odamning yuzi buzuq, uzun, qiyshiq, kichik yoki katta bo'lib ko'rinar, bu holatni ko'rgan odam hushiga kelib, darrov may ichishni to'xtatishi lozim edi.

Yana bir sovg'a jahon ofati, yo'q-yo'q, jahon ofati emas, jon ofati bo'lgan g'oyat chiroyli, go'zal kanizak, uning ikki zulfi Xitoy mulkida g'avg'o solib, ko'zi Chin diyorida buzg'unlik chiqarayotgan, ikki chiniy zulflari mushkin tanob bo'lib, ularga mushk suvi sepilgan, qoshi mushkin hilol-u, undan oy xijolatda qolar, saroyda bazmlar uyushtirilsa, elni nag'masi aql nutqini, o'zi elni

behol etib kuylardi. Ovozi bilan barbat sozini chalsa, biri odamlarni o'ldirsa, ikkinchisi tiriltirardi. Urushlarda ham ishtirok etsa, hamma raqibidan ustun kelar, bunday bahodir qizni jahon tarixida hech kim eslolmasdi.

Aytilgan to'qqiz tuhfani Iskandarga tayyor qilganlaridan so'ng, barcha shahar ahli uni kuza-tishga chiqdilar. Xoqon o'z qasridan bir yig'och masofacha eng toza Chin gilamlarini to'shatgan edi. Har o'n qadam yurilganda shoh Iskandarga bir ajoyib sovg'a hadya etar, dur-u la'lni ko'p ishlatardi. Iskandar yo'lga shuncha mushk sochgan ediki, uning hidi osmonga qadar yetib borgandi. Ana shunday savlat-u shuhrat bilan Iskandar Chin diyorini baxtiyor kezib borardi. Yo'llar rayhon-u binafsha, nargis-u lola, sabza kabi xilma-xil gullar bilan bezatilgan edi. Yo'lda to'rt burchakli bir ajib qasrga duch keldilar. Xoqon shohga oltin taxt uzra joy berdi. Ikkovlari ota-o'g'il kabi yaqin o'tirishib, suhbat qurdilar. Iskandar barchani qulay yer topib o'tirishga taklif etdi. Barcha o'z joyini egallagach, Xitoy go'zali o'rnidan turib, o'zi ichdi-da, keyin kavсар suvini shohga tutdi. Shoh ham, Xoqon ham u maydan huzur qilib ichishdi, qadah davralarda uch-to'rt martadan aylantirilgach, el kayfi xushnud bo'la boshladi. Musiqachilar kuy boshlab, ashulachilar ham o'z san'atlarini namoyish eta boshlashdi. Bazm oxirlab qolganida gazaklar olinib, o'rniga osh keldi. Oshlar to'qqiz ming otning to'shidan pishirilgan edi. Yuz mingdan ko'proq qo'y go'shtidan hozirlangan mazali taomlar ham mehmonlarga taqdim qilindi. Keyin Iskandar-u Xoqon taxtdan turishib, hadyalarni olib, joylashib yo'lga tushishdi. Xoqon Iskandarga

yoqib qolgan ko'zgu siri haqida so'zlab borardi. Keyin Iskandar qo'shiniga yetib olishdi-yu, Xoqon bilan birga Chin saroyi tomon yo'l olishdi.

Xoqonning Iskandarga bo'lgan mehri tobora ortib borardi. Qish mavsumi ham yaqinlashib qoldi, bunday paytlarda uzoq masofalarga, ayniqsa, harbiy yurishlar qilish maqbul ko'rinmaydi. Xoqon ham Iskandarning shu yerda qishlashini istardi. Iskandar Xoqon iltimosini qaytarolmay, qishni Chin kishvarida o'tkazishga qaror qildi. Xuddi quyosh bilan oy hamnafas bo'lishgani kabi, ikkovlari goh ovga chiqishar, ba'zan ko'pchilikni yig'ib bazm-u ziyofatlar uyushtirishar, goh olimlar bilan ilm-fanning xilma-xil masalalarida bahslashar edilar. Xoqonning hadyasi bo'lgan ko'zgu hamisha Iskandarning yonidan jilmasdi. Taxtda o'tirganda ham, ko'zguni yuziga eltib qaragani-qaragan edi. Bazmlarda ham doimo ko'zguni hamma ko'radigan bir joyga qo'ydirardi. Iskandar o'zi maftun bo'lgan bu ko'zgu sirini fahmlashga har qancha intilsa ham, uhdasidan chiqmasdi. Bir kuni o'ylanib qoldi: «Bu ajoyib tilsimni bu sirdan xabardor bo'lgan bir qobiliyatli olim yasagan. Men doroyi charxi baland, hikmat ilmini biluvchi hukmdor bo'lsam-u, xizmatimda necha yuz donishmand, har bir sohaning donosi bo'la turib, har biri bilim olamin-ing ustozini bo'la turib, bundan ham ajoyibroq asbob yasay olmaymanmi?» – deb o'yladi-da, bor olimlarini yig'ib, ularni ikki bo'lakka bo'ldi-da, Aflotun-u Suqrot bir bo'lib, Arastu-yu Buqrot bir bo'lib, Xurmus bilan Balinos, Arshimidus bir bo'lib ishga kirishdilar, Iskandar doimo ulardan xabar olib turdi. O'sha qish ichida olimlar ikki ajoyib sirli asbobni bitirdilar. Butun saroy ahlini

bazmga to'pladilar-da, ularga usturlob-u ko'zguni namoyish qildilar. Ularning biri usturlobda to'qqiz charx taqsim bo'lsa, ikkinchisida ko'zguda yetti iqlim ayon ko'rinib turardi.

Xoqon bu ikki ajoyibotni ko'rib, hang-mang bo'lib qoldi. Iskandarga tahsin aytib, dediki: «Bu ko'hna falak sendek shohni ko'rmadi. Sensiz toj ham kerak emas, taxt ham, mulozimlarning bari senga loyiq, bilim ichra barchasi senga muvofiq. Zotingiz bu olam ahlidak emas, ismingiz, iloho, olamda mangu tursin!». Bu ikki asbobni yasashga hikmat eli mehnat qilgan bo'lsa, shohdan quvvat, mol-u ganj, bular yetishmay qolganida, Yunon-istondagi yerlardan tushadigan mablag'lardan ham foydalanildi. Xoqoni Chin ham guhar, durri aminni ayamadi.

Nozmehrning nozi

Olimlar yasagan har ikki asbobdan ko'ngli nihoyatda xush bo'lgan Iskandar har kuni bazm tashkil qilib, saroy a'yonlari davrasida may ichib, orom olardi. Doroning qizi Ravshanak bilan Malluning qizi Nozmehr doim uning huzurida bo'lib, shoh shodligiga shodlik qo'shishardi. Lekin Iskandar davlat ishlari bilan band bo'lib, to'y qilib, ularning ikkovini nikohlab olishga fursat topolmay kelardi. Shu kunlarda uning diliga ushbu orzuni amalga oshirish istagi tushdi-da, a'yonlarini chorlab, shohona to'y tayyorgarligini ko'rishga farmon berdi. Bundan behad xursand bo'lgan barcha a'yonlar-u mulozimlar tezda ishga kirishib, butun Chin mamlakatini behad-u bepoyon to'yxonaga aylantirishdi. Bir necha kun-

lik shodiyonalar boshlanib, Chinning butun xalqi rosa xursandchilik qilishdi.

Iskandar Ravshanak va Nozmehr og'ushida o'z murodiga erishdi. O'sha davr rasm-rusumlari-ga muvofiq Doroning qizi Ravshanak saroydagi barcha ayollar, shu jumladan, shoh haramidagi barcha malikalarga ham farmonravolik mahdi ulyo vazifasiga tayinlangan edi. Shu jihatdan u har haftada ikki kecha hukmdor bilan birga bo'lish huquqiga ega bo'ldi. Nozmehr mavqe' jihatidan undan bir pog'ona past o'rinda bo'lib, Iskandar bilan haftada bir kechagina birga bo'la olardi. Shuning uchun ham u Ravshanakka hasad ko'zi bilan qarar, Doro qiziga qaraganda yoshroq va go'zalroq bo'lganidan foydalanib, Iskandar ko'nglini o'ziga ko'proq jalb qilib, uning mehr-muhabbatini egalashga intilar edi, Iskandar uni Ravshanakka qaraganda ko'proq sevsam ham, lekin saroy ahli oldida o'z muhabbatini ayon qilishdan o'zini tortib kelardi. Bundan bexabar Nozmehr shoh Ravshanakka har boqqanida ko'zidan yosh to'kardi.

Bir kechasi, Nozmehr navbati kelganida, Iskandar o'z sevgisini izhor etishni niyat qilib, uning xonasiga kirib keldi. Malika shahanshohni ehtirom bilan kutib oldi-yu, lekin ichki iztirobi uning chehrasidan, xatti-harakatlaridan sezilib turardi. Shoh ardoqli yostiqdoshining kayfiyatini ko'tarish uchun har qancha urinmasin, Nozmehr so'zlashishni ham istamas, Iskandarning mehri-bonchiliklari, shirin so'zlariga nozi bilangina javob qaytarardi. Buning sari shohning toqati toq bo'lib, ishq tobora ziyoda bo'lar, o'z sevgili malikasining fe'li sabablarini tushunolmay, qalbi ishq o'tida

o'rtanardi. Oxiri chiday olmay, Nozmehrga mu-
loyimlik bilan murojaat qildi.

*Tazallum bila dedi: «Ki ey nozanin!
Nedin bizga qilding ayon bo'yla kin?
Ne jurm ettim erkin meni xoksor,
Ki ko'nglungga o'lturdi mendin g'ubor?
Vafu aylagilkim, jafokor emon,
Bu zulm aylamakka sazovor emon,
Chu men ishq aro o'zgum, o'lturmagil,
Qatilingg'a tig'i jafu surmagil,
Niyozimga boq, asru noz aylama!
Taaddi ko'p-u lutf oz aylama!»*

Iskandarning bu so'zlarini eshitgan Nozmehr kinoya bilan: «Shoh o'z dilbari bilan ayshini davom ettiraversin. Uning munosib ko'rgani Doroning qizi bo'пти. Kanizi hindlar avlodidan yoki Kashmir ahlidan bo'lsa, u, shohga loyiq bo'larmidiki, o'ziga yaqin tutib, o'ziga hamsuhbat aylasa?» – deb javob qaytardi.

*Dedi shohki: «Ey xasta jon ofati!
Demay xasta jonkim, jahon ofati!
Kinoyat tariqini bir dam unut,
Qilib rahm, bedod tarkini tut,
Menga Ravshanak ta'nini qilma ko'p,
Ul ishta ko'zungga meni ilma ko'p.
Meni anda ma'zur tutsang bo'lur,
Zamiringni masrur tutsang bo'lur.
Ki vojibdur ehtiromi aning,
Nedinkim, biyikdur maqomi aning.
Erur Bahmaniy tojining gavhari,
Yana Kayqubodiy sipehr axtari.»*

Bu soʻzlardan qoniqmagan Nozmehr oʻz dilidagi dardlarni birma-bir ocha ketdi:

*«Bu soʻzning muhabbatga ne daxli bor?
Ki ishq ichra shohlikka yoʻq eʼtibor!
Nasab birla boʻlsa, anga shohliq,
Hasab birla yetmish manga mohliq.»*

Uning toji mamlakat xiroji hisoblansa, toj ahl-lari mening oldimda boshlarini yerga qoʻyadilar. U Jamshid avlodidan ekanligi bilan faxrlansa, men husnda quyoshdan ham or qilaman. Agar u oʻz aqli bilan afsona boʻlgan esa, menga yuz aqli donish-mand devona. Agar u jonlarni kuydirishni oʻziga odat qilib olgan boʻlsa, men jahonga oʻt qoʻyishni oʻrganganman. Agar u dam-badam xalqni oʻldirib tursa, men tiriltirish ilmidan ham xabardorman.

Uning zulfi ilonni afsun qilolsa, mening afsunim ajdahoni behol qila oladi. Qoshim yoyini kim xayol aylasa, uyatdan koʻziga hilol ham koʻrinmay qoladi.

*Erur kiprigim oʻqiga jon hadaf,
Nishona otargʻa magar chekti saf.
Koʻzumga qachonkim, boʻlur uyqu kom,
Boʻlur olam ahligʻa uyqu harom.
Labim laʼlikim, javhari jon erur,
Su ul laʼl aro obihayvon erur.
Yuzumda dema siymdin gʻabgʻabe,
Ki oy ichra xurshidvash kavkabe.»*

Jamolimdan quyosh oʻrtanib, tanim kumushi simobga titroq soladi. Lekin shuncha gaplarimdan ne foyda, axir mening asallarim shohga achchiq boʻlib tuyilgan-ku! Ayriliqdan azob chekkan bir

oshiq: «Oz baxt ko'p husndan yaxshiroq», – deb juda to'g'ri aytgan ekan. Mening shohdan shikoyatim yo'q, o'z yo'lini topolmagan baxtimdan shikoyat qildim, xolos».

Go'zal malikaning bu dilni o'rtovchi so'zlari, uning ishqi shohga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Jonini dilbar kalomiga fido qilib, malikani qo'yniga tortdi-da, qo'llarini uning yelkasiga tashlab, ohuni tutib olgan sherga o'xshab, o'z o'ljasiga mehribonlik ko'rsata boshladi.

Iskandar bir necha kun shu xonada sevgilisi Nozmehr huzurida aysh-ishrat bilan shug'ullandi. Umri bu yerda bekor o'tayotgani xayoliga kelib, yana bilim taxtiga yo'l oldi. Jahon mamlakatlarini egallaganda, Mag'rib zamin olinmay qolgan edi. Sipohlarga turli ne'matlar, in'omlar hadya aylab, yangi safar haqidagi farmonni e'lon qilib jar soldi. Keyin Xoqon bilan xayrlashib, unga Chin va Xito mamlakatlarini topshirib, lashkarni Mag'rib mamlakatlari tomon boshladi. Xoqon ham bu yurishda ishtirok etish istagini bildirgan edi, Iskandar rozi bo'lmay, ko'p yashirin so'zlarni aytib, uni qaytardi.

Hindistonning janubi tomon yo'l olgan Iskandar hind Royiga ham ijozat berib, uning izzat-ikromini joyiga qo'yib xayrlashdi. Rum qo'shini Mag'rib sari yurib borar ekan, Gajrotdan o'tgach, bahri Ummon sohiliga chiqdi va bir necha kun sohilda dam olgach, kemalarga o'tirib, Jazoyir tomon suzib ketdilar. U yerga yetgach, sohilda bu mamlakatni egallagach, yana goh dengiz, goh cho'l-u dashtlardan o'tib, oxiri Mag'rib zaminiga yetdilar. Bu o'lkada bir qator ajoyibotlarga duch keldilar. Ulardan biri it kabi jonivorlar makoni bo'lgan dasht edi.

Ularning har birining ko‘rinishi, oyog‘-u qo‘llari ham chumolinikiga o‘xshardi-yu, har birining kuchi yirtqich bir shernikicha bor edi. Ular ichiga kimki ot surib kirsam, barchasi yopishishib, bir damda parcha-parcha qilardilar-da, yeb qo‘yardilar, yer ustida bir qatra qoni ham qolmasdi.

Bir necha sipohining shu tarzda halok bo‘lganini ko‘rgan Iskandar: «U yoqqa hech kim ot surib bormasin!» – deya farmoyish berdi. Sipohlar deydishardiki: «Bu bir yerdirki, tuprog‘ining o‘zi jonni titroqqa solyapti. Bu vodiy nari borsa bir yig‘och keladi. Undan keyingi vodiy esa pokiza, Bog‘i Eram kabi sof vodiydir. U yerda mo‘rlardan orom topgan, ularning hisobiga shodiyona qiluvchi bir qavm yashaydi. U qavm Tangrining balosi, jahon mol-dunyosining ajdahosi. Har birining qiyofasi bir pora tog‘, bu jonivorlar esa ular uchun chumolidek keladi, xolos. Ularning tilini ham hech kim tushunmay, nima deganini anglamay turaverasan.

Bu elning uyqusi ham ko‘p qiziq. Ular o‘n kun uxlaydilar, o‘n kundan keyin uyg‘onib o‘z holatlariga qaytadilar. O‘n kundan so‘ng yana uxlashga kirishishadi, mo‘rlar ularni qo‘riqlashadi. Bu mo‘rlar tufayli jonlari omonda, chunki mo‘rlar ularning xazinabonlari sanaladi.

Iskandar devori («Saddi Iskandariy»)ning qurilishi

Iskandarning lashkarlari otlarini chumolisi-monlar tomon surib borishgach, shoh atrofni kuzatib, hamma sir-sinoatdan voqif bo‘ldi. Tezda donishmandlarini yig‘di-da, ular bilan maslahatlashib fikrni bir joyga qo‘ydilar. Askarlarning eng

qo'rqmas, jasurlarini qo'shin oldiga qo'yamiz-da, barcha chumolisimonlar uyg'onishi bilan ular ustiga shiddat bilan tez ot choptirib borib, ularni qirib tashlaydilar. Kun yorishmasdanoq sipoh bilan shahar jahon mo'rdek qorong'i ekanida, maydondagi qorong'i joyni topdilar. Uyqudan uyg'ongan chumolisimonlar tarqalishib ketishgancha, daladan biron chuqur bo'lsa, talashib, bir yerga to'planib qolishmasin deb, bekinib olishdi.

Quyosh ko'tarilgach, Iskandar tomonidan puxta o'ylab terib qo'yilgan sipohlar chumolilarga o'xshab ularga hujum uyushtirishdi. Maydonni yana sipohlar suroni-yu do'mbiralalar ovozi tutib ketdi. Sipohlar shaxd ila olishib, ko'p o'tmay barisini qirib tashladilar.

Chumolisimonlar sahrosidan o'tishgach, dasht yuzida yana boshqa vahshiylar askarlariga duch kelishdi. Bor maydonni vahshiylar saflari egallab olgan, bari devsifat, zanjirlar bilan bog'lab qo'yilgan, g'ulvash devlardek, lekin devlarni o'ldira oladigan ko'rinishda, quvvati karkdek, o'zi filtan, go'yo Ahramanning o'zginasi. Ko'zi yashil, soqoli sarig'-u yuzi qora, barchasining manglayidan to'ng'iz tishidek shox chiqib turibdi. Kiyimlari qulon-u kiyik charmidan, ularning eti esa doimiy ovqatlari. Qo'llarida haddan tashqari katta daraxt novdalari, sutun kabi og'ir shoxlar, ularning uchiga temir uchliklar qoplangan. Ularning askarlari qatori ming vahshiy dev bilan to'ldi.

*Biri kirdi maydon aro kin ila,
So'z aytib o'zi bilgan oyin ila.*

U qonini to'kish uchun o'ziga qarshi chiqa oladigan jangchini talab qilardi. Bu yondan tag'in pahlavon tanli jangchi maydonga tushdi. U shoh oldida ko'p janglar qilgan, sherlarga ajdarlardek bas kelgan zabardast yigit edi. G'animi ham uning sari mayl qildi. Katta toshga toshqin soy urilgandek bo'ldi. Yetishishgach, bir kishiga aylanib qolgandek olisha boshladilar. Bir-birlariga ayamay zarba urardilar, lekin chaqqonlik tufayli barchasi rad bo'lardi. Oqibatda o'jar vahshiyzoda uchi qayirilgan gajaklik sutun bilan raqibi boshini pastga egib, keyin qo'llarini bog'lab, otini gajak bilan tortqilaganicha o'z lashkariga topshirdi va yana jang uchun talabgor chaqira boshladi. Yana bir yigit Iskandar tomonidan maydonga ot surdi. Uning laqabi Qahqaro, yeri Qirvon, asli Mashriq zaminidan edi.

Qahqaro jangga kiringach, vahshiyga ot soldi, unga Ahraman e'tibor bermadi. G'azab o'ti kuchaygach, qattiq jang boshlandi. Qahqaro otdan yiqilgach, tuproq ustiga tushdi. Qahqaroni ham raqib bog'lab, o'z lashkariga topshirdi, keyin yangi g'anim istab baqirishga tushdi. Devsifat yigit oldiga kim kelsa, asir tushirib olaverdi. Yana yangi raqibni chaqirgani-chaqirgan edi. Uning baqirishlari, suroni rumliklarni qo'rqitib qo'ygani edi. Bu ishlar shoh ko'ngliga tob soldi-yu, ko'nglida qo'rquv paydo bo'lib, iztirob cheka boshladi. Lashkarlariga buyruq berayin desa, naq o'limga majbur qilgan bo'ladi.

Bu holatda yuziga niqob to'sgan bir chaqqon, quyoshdek qalqon tutgan, qo'lida o'rilgan kamand bir pahlavon shoh oldiga yaqinroq borib, o'z so'zlarini aytdi-da, vahshiy sari ot choptirib ketdi. Uni

shoh ham taniy olmadi, sipoh ham. G'amidan el pinhona oh chekkanicha: «Bunday chiroyli yigit ham, ming darig', bu vahshiydan tig' yeydigan bo'ldi-da», – deganicha alam chekib qolaverdi.

Lekin u raqib devangir bilan g'azabga to'lgan holda olisharkan, oti shitob bilan aylanib, Ahraman joniga iztirob solib qo'ydi. Raqibini charchatib, aylantirib-aylantirib yerga urdi va shoh sari sudrab ketdi. Shoh oldiga yetib borgach, sherdek yerga sakrab tushdi.

Shoh bu ishdan ko'ngli quvonchlarga to'ldi. Dilidagi dardi ko'nglidan bir ondayoq yo'q bo'ldi. Bu payt ichida haligi niqobdor yigit o'z o'rnini egalab, safni to'ldirgan edi, shoh qo'llarini razmgoh gardidan yuvib, najotkor pahlavonni darhol topib kelishga buyurdi. Devkash yigit eshikdan kirgach, avval majlis ahliga madhiya aytdi, Iskandari Faylaqus uni bo'ynidan quchib, inoyat oshkor aylab, boshiga javohir sochib, ko'p lutf-u karamlar etdi. Dedi: «Ey aduvband, vahshiyshikor, vahshiy ovlovchi!

*O'zingni ayon qilki, kimsan, ravon,
Ki shavqing sening bizdin oldi tavon?»*

Shunda haligi jangchi boshidan niqobni oldi. Bu o'sha sho'xi chiniynajod o'sha chobuki hurzod edi. Uni shohga tortiq etgan Xoqon maqtovini keltirib:

*Ki: Husn ichra xurshidi tobon erur,
Yana Zuhra yanglig' xushilhon erur.*

Bu gaplarni qo'ya turaylig-u, u jang maydonida shijoatli sipoh hamdir», – degan edi.

O'shanda maqtalغان bu qizning xuddi shu sifati Iskandarga yoqmagan edi. Uni husni behad-u poyon edi, lekin jangovar fazilati pinhon edi. Bugun o'z ko'zi bilan ko'rdiki: go'zal jangga kirib, dushmanini asir etdi. Tangri qudratiga yuz ofarinki, uning lutfi g'alabani bizga tuhfa qildi.

*Dedikim: «Jamoliga yopsun niqob,
Chunki tun oqshomda ko'rinmas oftob.
Qorong'uda turmay, uyga jo'nasin,
Shoh uyqusin anda xarob aylasin!»*

Qiz shu zahoti sham kabi shabistonga kirdi, go'yo sarv bo'stonga kirdi!

Shoh majlis tuzdirib, jom ko'tardi, keyin tutqunni majlisga olib kirishni, u bilan suhbatlashmoqchi ekanini aytdi. Ko'p o'tmay, qo'llari bog'liq devkashni majlisga olib kirishdi. Shoh buyrug'i bilan, avvalo, ko'p taom keltirishdi, yigit to'yib yeb oldi. Keyin bir necha jom qizil may bilan mehmon qilishdi. U bir jomni, yana birini esa mezbon ichdi. Bu shohning lutfidan xursandlik ifodasi edi. Yana Kayoniy shoh katta qadahlarda jom tutdi va bu bilan devkashni rosa xursand qildi. Shoh har bir in'om qilganda, asir har lahza bosh qo'yardi. Uni may beixtiyor qilgach, yer o'pib, so'z boshladi: «Men vahshiyman biyobonixod, atodin ato vahshiy-u vahshzod.

*Yo'q andoq tilimkim, sanong aytsam,
Sen etgonga loyiq duong aytsam.*

Lekin pinhoni yaxshi so'zlar dilimda yuribdiki, deyin gar desangkim, «De oni manga».

Shoh dediki: «Har ne kalomingni ayt, kalomingni, nomingni ayt».

Davangir asir dediki: «Sendan shuncha lutf-marhamat koʻrdimki, uni evazlashga ojizman. Lekin qoʻlimdan shugina ish keladiki, oldingda oʻlguncha ish qila bilaman. Endi yoningdan ayrilmayman, ziyoningga ish qilmagʻayman, lekin bilki, men bu ulus xoniman, tun-u kun ularning nigohboniman. Chumolilardek behisob sipohingni koʻrgach, aholimga, fuqarolarimga qarshi zoʻr dushman kelayotganini anglab, ularning jafosini oʻzimga olib, maydonga oʻzim kirdim. Boʻlib oʻtgan hamma ishlarning tomoshasini oʻzing koʻrding.

Senga asir boʻlib tushganim ham mening baxtim boʻldi. Menga siyosat qilichini surib oʻldirmading. Yana menga shuncha inoyatlar qilib, benihoyat yaxshiliklar qilding. Endi ijozat bersang, boray, biror ishing chiqib qolsa, bir ishingga yaray. Meni sogʻinib qavm-u elim motamdudur. Boʻlgan soʻzlarni aytib, barini gʻussadan ozod qilay», – deb ruxsat soʻradi. Bukilib yer oʻpdi, xuddi mast fillardek zoʻrgʻa oʻrnidan turib oldi. Shohning bu qilgan ishiga har kim har narsa deb ajablanar, har kim oʻz koʻnglida bir soʻzni aytardi. Hikmat ahli ham shohning bu ishidan hayron edi, chunki bu ish haqiqatan ham ajoyib ish boʻlgan edi. Lekin shoh xandon-u xushhol edi.

Bir necha zamon oʻtgach, eshik ochilib, ul vahshiy kirib keldi va oʻzi tutib asir qilgan pahlavonlarning barchasini olib kelib shohga tutdi. Yerga yuzini qoʻydi. Shoh uning bu ishidan xursand boʻlib, yana oshkora koʻp iltifotlar koʻrsatdi. Asirlar qutulib, yana shoh bazmiga xos boʻldilar. Shoh asirlarga qarab turib, bir mahal Boriqi Bar-

bariyga ko'zi tushdi. Mehribon shoh bari asirlarni, jumladan, Boriqni ham quchoqladi. O'sha tun barchalari mast bo'ldilar.

Iskandar mag'rib mulkini batamom egallaganidan so'ng, har xil rangdagi bu nodir ellar asir hisoblandilar. Shohga bo'ysunib, qul yo cho'ri maqomida shoh xizmatini bajara boshladilar.

Shoh o'zi ko'rgan chumolisimonlarni halok qilish uchun dedi: «Otlanib xalq bevahm-u bok tuzub charga solsunlar ul nav' mo'r, ki ul dasht aro qolmasun mo'r».

U to'daning vahshiyarlari iltimos qilib dedilarki: «Ey shahi gardunasos! Ey ulug' shahanshoh! Agar ular tirik qolmasalar, biz qo'riqchilarsiz qolamiz. Bizning uyqumiz og'ir, o'n kecha-kunduz hushyor bo'lsak, yana o'n kecha-kunduz uyqudamiz. Chu uyquga borsak, ular bizga qo'rg'ondirlar».

Shoh bu so'zlarni eshitib, barmog'ini tishlab qoldi. Chumolisimonlarni qirib tashlash haqidagi farmonini bekor qildi. Yana yurib, oltin va kumushdan bo'lgan ikki tog'ni ko'rgisi keldi. Haligi qavm ahli duo qilib dedilar: «Bu muddao ham esdan chiqarilsa yaxshiroq. U tegraga bormoq mumkin emas, oson emasgina emas, balki imkon emas. U ikki tog'ga o'n kunchalik yo'lni bosib boriladi. Sen so'rayapsan-u, u joy bizga yaqinroq bo'lsa ham, lekin ko'rganimiz yo'q. Biz ham uni ko'rib, murod topganimiz yo'q, bizdan ulug'lar ham undan yod qoldirishmagan, ya'ni ularning ham ko'zlari tushmagan. Nedinkim, yo'lida xatar ko'pdurur, yuz urgan kishiga zarar ko'p turur.

Yetti kunchalik yo'lida suv topilmaydi, bitgan o'tlari bari og'uning o'zi. U yerlarga issiq havo hujum qilganda, nasim esgach, har narsani eritib

yuboradi. Ajdaho o'z joyida bo'lmagan paytlardagina havo mo'tadil esadi. O'zi kichkinagina, afi'ja'fariy, ya'ni zaharli qora ilon, shundoq ilonlar borki, odam bir ko'z solish bilan halok bo'ladi». Shoh bu so'zlarni eshitgach, u yon borishdan ham voz kechdi. Dediki: «U tomonlarga borishdan maqsadim, tomosha qilib xursand bo'lish edi. Oltin-kumush maqsadim emasdi».

Keyin shoh devkashlarni uyiga jo'natib yubordi, bir nechasini esa eshikda shukuhi mahobat uchun xizmatga qoldirdi-da, yana shimol tomon yurishga bel bog'ladi. Dengiz oralab, tog'-u biyobon bosib Rum azmi bilan tez-tez yurib borardi, goh yo'lda Chin go'zali bilan suhbatlashib, shavqi oshardi. Ruslar, faranglar diyori G'arbi shimolni qiynalmay kesib o'tdi. G'arbi Shimol oralig'ida o'sha yerda yashovchi aholi iltimosnoma bilan keldi: «Jahon mulkiga obodlig' berding. Jahon ahlidan adl bilan shodlik yetmagani bizning diyori ahligina qoldi!» «U o'lka nega xarob?» – so'radi Iskandar. Dedilarki: «Bu mulkning bir sari hamono erur Qirvon sarhadi».

O'sha taraflarda bir buyuk tog' bo'lib, u tog'dan nari ofat, narisi esa zulmat keladi. Tog'-u zulmat o'rtasida bir vodiya bo'lib, shu yerda yo'l ham tamom bo'ladi. Bu joy ya'juj to'dasiga makondir. Ular ya'juj emas, balki yuz tuman ming balodir. Ularning qiladigan ishlarini tilga ham olib bo'lmaydi. Xalqqa ko'p zulm ulardan yetadi.

Ularning qaddi bo'ylab parokanda sochlari yoyilgan, biri bir qarich bo'lsa, yana biriniki o'n quloq. Quloqlari ikki yoqdan chiqib yopishib qolgan, tirnog'lari dev barmog'ining o'zi. Yuzlari rangi behad sariq, ko'zi maymun ko'zining o'zi. Burun

ichlarini tili bilan tozalaydi. Shu ishni qilgach, o'zi g'oyat shodlanadi.

Og'izdan to'ng'izdek ikki tish chiqqan bo'lib, ular bilan bermalol yer qazimoq mumkin. Qaysi yerga ularning tishlari tegsa, qiyomatgacha o'sha yerdan giyoh bitmaydi, hammasining og'zi iyagida. Erkagi-yu ayolining ikki ko'kragi osilib turadi.

Ular yilda ikki qatla tog' ichidan chumolidek chiqib, bizning shahr-u vodi yari yoyilib, ne qilish mumkin bo'lsa, bema'niliklarni qilib, bizni vatanimizdan haydab yuborishmoqchi bo'lishadi. Vodi yda nima topsa talon qiladi, odamlarni ushlab olsalar halok qilishadi, etini talashib yeyishadi. Yuk tashiydigan hayvonlarga ortib, o'liklarni ham uylariga yetkazdirishadi. Keyinroq yeyish uchun zaxira tayyorlashadi. Har qancha ovqat yegan bilan hech to'yishmaydi, to'ysa ham bir dona qoldirishmaydi. Hamma bilganlarimizni, arzimizni shohga aytdik».

Shoh dediki: «U yaramas to'da qachon siz tomonga keladigan bo'lsa, biz ulardan avvalroq chorasini topib qo'yamiz». Dedilar: «Bu tomonga hujum qilishganda butun dunyoni qorong'ilashtirib yuborishadi. O'sha qora gard oshkor bo'lganda bizning ham kunimiz qora bo'ladi». Shoh: «Qachon bu ish sodir bo'ladi?» Dedilar: «Bir necha kun o'tgach».

Shoh ularni yo'q qilish chorasini o'ylab, tushishga manzil qidirib, o'sha o'tloqdan topdi. O'sha yerlilar dedilarki: «Necha marta chora izlab topolmaganmiz, shohimiz maskan qilmoqchi bo'lyapti. Bu yerda, qilmasin, chunki ular jahon elidek emas. Ulardan biri yetsa, bir zumda ne yuz-u, ming bo'lib ketishadi. Hammasi darg'azab bo'lib, bir pasda yetib keladi».

Shoh dediki: «Sizlar qayg'urmangizlar, lekin bu o'lkada turmangizlar. Bu yerdagi barcha narsalarni tashib ketinglar, biron arg'amchi ham qolmasin. Tangriga tavakkal qilib, ularni fikrini aylay, nechukki bilay».

Aholi o'z joylarini qoldirib ko'chishdi, lekin shoh ko'chmadi. U o'zi turgan joy atrofiga chuqur ochiq handaq qazdirdi. Farang, Rus, Shom-u Rumga odamlar yuborib, ulardagi eng usta korgarlar, mis, birinch, temir, qo'rg'oshin, tol, ko'mir oldirib keltirdi. O'zi har kuni qal'a atrofini aylanib yurardi. Ikki ming tosh teruvchi kamar uzra o'tish uchun taxta tosh tayyorladi. Pahlavonlar shaharning ikki devori ichida Farhoddek qattiq tosh kesishar, bog'larni to'sish uchun tosh devorlar kesib tayyorladilar. Ularning soni ham sanoqsiz.

Hamma kerakli narsalar hozir bo'lgach, quyuq to'zon ko'rindi. Bu ya'jujlar kelayotganining belgisi edi. Ya'jujlar va Iskandar qo'shini jangi og'ir kechdi. Ya'jujlar qirilib, qochganlaricha ko'plab rumliklarni nobud qilib, jangchi va otini ham yedilar. Ya'jujlar ikki tog' oralig'iga qochib ketishdi. Ikki tog' orasining eng yaqin yeri 10 000 qari (7 km 500 m) edi. Munajjimlar muayyan soatni topib berishgach, shoh ot ustida turib yerga rang to'kish va har soatda uning rangini o'zgartirib turish haqida topshiriq berdi. So'ng ming o'ra tayyorladilar. Ikki tog' orasiga qurilayotgan devor to'siq balandligi 150 m ga yetdi.

Uzunligiga 10000 qari (7 km 500 m) edi, eni 500 qari bo'ldi. Ishchilar kecha-kunduz tinmay 6 oy og'ir ishni kunduzi-yu kechasi bajardilar. Aholining devorning ikkinchi qavatiga chiqishi uchun ikki zina qoldirildi. Qal'a ustiga burjlar qurib, ular-

ni temirlar bilan bog'lab tashlashdi. Chumolilar yetib kelib tish-tirnog'lari bilan chiqmoqchi bo'ldilar-u, shoh: «Toshbo'ron qiling», – deb buyruq berdi. Juda ko'plari toshlardan o'lgach, oxiri chiday olmay chekindilar. Yer ahli boshiga har zulmkim surdilar, falakdan bariga evaz ko'rdilar. Shunday qilib, donishmand shoh ya'juj dafi uchun ham sad chekdi. Bir necha kun shu yerda turishgach, Rum taxti tomon yurdilar.

Iskandarning ummon va dengizlardagi ilmiy kashfiyotlari

Iskandar olamni tamomila o'ziga bo'ysundirgach, Rum shahrida bir necha kun orom olib, charchoqlarini chiqardi-da, aysh-ishrat, ov qilish kabi mayishatlar bilan shug'ullandi.

Iskandar dam olish bilan fikran band bo'lsa ham, uning xayoli azaliy orzusida, ya'ni dengiz sayrida edi. «Yer yuzidagi bor ajoyibotlarni, ularning tabiatini o'rgandim. Lekin hali dengiz sayli nasib etmadi, u yerda ne sirlar mavjudligi bilan oshno bo'lmadim. Sohillarda ajoyib narsalar ko'p deyishadi. Bahor yer yuzida go'zalliklar ko'p bo'lgani kabi dengiz ichidagilari son-sanoqsizdir.

Bu yumaloq shaklni jahon deyishadi, lekin uning aksari suv ichida yashirindir. Quruqlik yeri o'ndan bir ham emas, lekin el buni yaxshi bilsalar ham nishon bermaydilar.

Jahon menga bo'ysunar ekan, undagi barcha narsa mening ixtiyorimda ekan, bu narsalardan bexabar qolsam, oddiy bir kishi bilan mening bu sohadagi bilimim teng bo'lsa, farqimiz nima-da bo'ladi? Agar baxtim menga hamrohlik qilib,

quruqlikni Xizr bilan zabt qilgan bo'lsam, bu dam Ilyos bilan yo'lga otlansam ne bo'lg'ay? Ko'nglimda uyg'ongan bu havasni hech narsa daf qilolmaydi.

Shunday xulosaga kelgan Iskandar o'z donishmandlarini chorlab, ilm majlisi o'tkazdi-yu, yashirin dil so'zlarini ayon qildi. Dengiz ichida nimalarni ko'rish, nimalarni tekshirish maqsadini bir-bir aytib berdi. Ba'zi olimlar Iskandarni bu xil fikrdan qaytarishga intildilar, ba'zilar jim turaverdilar. Keyin barchalari Allohni duo qilishib: «Bu muddaoni ko'nglingga Haq solibdiki, umidimiz, o'ylagan ishlaringning amalga oshishiga ham o'zi hamkor bo'lg'ay». Saroy ahli istasa ham, istamasa ham shoh xohishini ma'qullashga majbur bo'ldi. Xalqining safar ishiga roziligini bilgan Iskandar: «Hamma hunarmand kishilar o'z sohasi bo'yicha tez orada uch ming kema hozirlashga kirishsin!» – deb buyruq berdi. Ulardan 1 000 tasi faqat shohgagina xos, ya'ni faqat uning ixtiyorida bo'ladidi, yana 1 000 tasi arkoni davlat uchun belgilanadi. 800 tasi sipohiyalar-u, 200 tasi savdogarlarga beriladi. O'ziga 1 000 tasini belgilagan edi. Yana 200 ta kemaga dengizni o'lchash uchun kerak bo'lgan tanob-u arqonlar, yana 200 tasiga tuyalar, tuyakashlar, yana 100 tasiga tez yuruvchi kemachalar yuklangan edi.

O'n-o'n besh ming najjor-u binokor, yana ikki-uch ming kishi har kuni ishlovchilar – barchalari Rum daryosiga tushdilar. Uch yildan ko'proq vaqt o'tib, uch mingdan ortiq kema dengiz ichiga kirib bo'ldi. Kemalarda barcha kerakli sipohlar, hunarmandlar, oziq-ovqat mahsulotlari taxt turardi.

Iskandar ot ustiga chiqdi, ahli Rim uning orqasidan ergashdilar. Xuddi kuchli sel tepalikdan daryo

sari oqib kelgani kabi, odamlar o'z uylaridan sohil sayin oqib kelardilar. Donishmandlar usturlob bilan kunning eng yaxshi soatini topishdi-da, shoh xalqi bilan xayrlashib: «Ey qavmim, siz barchangiz hurmatimni sadoqat bilan qildingiz. Endi esa men bilan ayrilish alamini chekyapsiz. So'zlarimni yaxshilab eshiting: necha vaqt menga ko'z tuting. Mulk, mol-dunyoga voris bo'lib qoluvchi narsalarni tayinlab, belgilab qo'ydim. Mening yozgan raqamlarimdan birov chiqa ko'rmasin. Hadislarimni ko'nglingizga joylab olib, salomat bo'ling, yaxshi qoling. Duoda bizni goh-gohida yod etib turinglar. O'z xizmatigizni yaxshi bajaringlar!».

Bu so'zlarni eshitgan xalqning faryodi, shovqin-suroni osmonga yetdi. Shohning mehribonlik bilan aytgan so'zlarini eshitgan ahli Rum yuzlaridan yosh daryosini oqizib, uni ko'pdan ko'p duo qildilar: «Agar bahr-u bar aro qilsang maqom, necha kim firoqingda g'am yegabiz, ne yoroki, yaxshi-yomon degabiz. Bisoti tarab jilvagohida bo'l, qayonkim esang, Haq panohida bo'l.

*Ne amr etganing toki bor jonimiz,
Tag'oful qilurg'a ne imkonimiz.
Chu bizdin duo aylading muddao,
Ne ish ilgimizdin kelur, juz duo!».*

Safar chog'i ob-u havo yetishgan kunlarning birida Iskandar Suqrotga murojaat qilib: «Dengiz yurishini boshlasak, xato bo'lmasmikan? Sen bu muammolardan yaxshi xabardorsan, sendan iltimos qilib so'raymiz. Sen bizga peshvolik qilasan. Agar elni qayoqqa boshlasang, hammamiz donishing payravi bo'lamiz», – dedi. Suqrot ularning

shartini qabul qilib, yo'l boshladi. Bir to'lda olimlar Jazoyir tomondan yurishni ma'qul qildilar. Bir necha kun shu suvda yurildi.

Yana bir kuni Iskandar barcha donishmand-u allomalarni yig'ib, dedi: «Dengiz kayfiyatini aytingiz. Ki ne vaz' iladur yer ila dengiz?» Donolar bir necha zamon tafakkur dengiziga botdilar-da, dedilarki: «Suqrot bayon qilsun. Chunki u hikmat ahlining ustodidir, zamiri xirad hikmatobodidir». Keyin Suqrot bu savolga shunday javob bera boshladi: «Yer jismi yumaloq shaklda. Yaratuvchi uni kurra shakliga kiritgan. Lekin ul kurra suv ichida nihon bo'lib, ochiq qismini jahon deb ataydilar. Unda shaharlar, tog'lar, qir, sahro, dala, dashtlar joylashgan. Ammo uni suv ihota qilib turadi. Biroq yetti iqlim ochiq qolgan. Ammo ular ham tamom ochiq emas, balki har tarafdin dengiz bilan o'ralgan. Muhiti charxpalaksimon bo'lib, uning atrofiga yetti daryo, 16 dengiz bor. Bulardan tashqari yuztacha daryo bor. Har birining o'zgacha ismi, xalq shu nomlari bilan taniydi ularni. Nechukki, Ko'hak, yo'qsa rudi Hirot va yo Nil yo Furot. Ulardan jahon obod bo'ladi, dengizlar boshlanishi nuqtasi ham shular.

Haligi yetti daryo ko'plab orollarni o'z ichiga oladi. Hammasi Muhit bahridan ayriladi. Muhit olti yuz orolli, olti daryodan biri Bahri Rum. Unda ham 600 orol bor, Bahri Mag'rib shimoli sharqisi obod, ul suvda 1 000 orol mavjud.

Uchinchisi Bahri Zang-u Habash. 1300 orolni o'z ichiga oladi. Hisobda to'rtinchisi Bahri Hind bo'lib, janubida bir soy bor, oti Sind. Beshinchi dengiz keldi Daryoyi Chin. U suvda ham orollar va yarim orollar ko'pdan ko'p. Oltinchi Nil, ikki

mingga yaqin oroli bor. Yettinchi suv Mashriq suvi bo'lib, tuman ming kema suzib yuradi. Unda o'n ikki ming orol bor. Buning birla o'n oltita, vassalom. Bulardan boshqa yana Hazar dengizi ham bor, suvi vahimali, ayniqsa, shamol paytida. Unda ham orollar ko'p bo'lib, hadsiz-hisobsizdir. Muhit bularning barchasining manbayidir. Lekin uch tomoni quruqlikdadir. Ular juda chuqur bo'lib, osmon unga tushsa, botib ketadi. Lekin ularning orollari yo'q. Ammo katta jussali jonivor shu suvda suzib yuradi.

Dengiz ishi asoslarini aytib o'tdim, lekin uning yanada nozik tomonlarini sayr etib ko'rganda puxtaroq anglash mumkin».

Iskandar Suqrot suhbatidan xursand bo'lib, unga minnatdorchilik e'lon qildi. Oldin yetti daryo ichiga kirish, so'ng Muhit sari azm qilishga ahd qildi.

Iskandar dengiz kayfiyati, turlari, nomlari, orollari tabiatini bilib olgach, Suqrot dan so'radiki: «Suvda ko'p suzib, juda hadisini olibsan. Iltimosimiz: bu uzoq va mashaqqatli safarga ham o'zing peshvolik qilsang. Barcha mallohlar-u sayyohlar sening so'zing bilan ish qiladilar. Sen bizni qayoqqa boshlasang, sening so'zing so'z bo'ladi».

Suqrot qabul qilib yo'l boshladi, ulus u boshlagan yo'ldan chiqmay ehtiyotlik bilan suzisha ketdi. Ilyosning ruhi hamroh bo'lib, kemalarni qushdek uchirib ketdilar. O'zlariga ma'lum bo'lmagan Afranj-u Rum daryosidan ham omon-eson chiqib oldilar. Hamma kemalarning ahllari qattiq harakat qilib, Orollar o'lkasini fath etishga kirishdilar. Bir necha kema o'lkaning hududi, qirg'oq uzunligini o'lchash bilan band edi. Baland tog'li yoki cho'qqili orollar duch kelsa, balandligini aniqlash ancha

qiyin bo'lar, orol atrofini esa kema bilan aylanib chiqib o'lchab olar edilar. Orol da yo'llar bo'lsa, tanobchilar usuli bilan uzunligini aniqlar edilar. Bir kema ichidagi o'lchash hisobotlari to'plansa, 12 000 qari chiqdi.

Dengiz masofasini aniq qilib o'lchash uchun bir kemani langar toshi bilan mahkamlab, ipining yana bir boshini ikkinchi bir kema tortib ketar, o'lchov tugagach, unga langarni tushirib, bu yog'idagi, o'lchov boshlanishidagi kemachilar esa langarni chiqarib, oldingi kema tez yurib, belgilangan masofada to'xtab, yana tanobni tortib, bir kema turib, ikkinchisi tortib shu tarzda kemalar almashinib, har almashuvdagi masofa aniqlanib, yozilib borardi. Biron orolni o'rganguncha, hisobchilar olingan ma'lumotlarni qo'shib, ko'paytirib har tomonlama ma'lumotni tayyor qilib qo'yishar, shu dengiz, yo orol haqidagi to'liq ma'lumotlarni o'sha ondayoq Rumdan keltirilgan uchqur kabutarlar oyog'iga mahkam qilib bog'lashib, uchirib yuborishar, xatlar Rum xalqiga yetib borib, shohning qilgan va qilayotgan ishlaridan mukammal ma'lumot berib turardi.

Dengiz yo'llaridagi jami 12 000 orol va yarim-orolni hakimlar har jihatdan o'rganishar, hatto mahalliy aholi tilini ham o'zlashtirar edilar. Muhit dengizi ham atroficha o'rganilgach, hujjatlar xat tashuvchi kabutarlar orqali yana to'xtovsiz Rumga jo'natildi.

Iskandar ilmiy ishlar bilan 12 yil shug'ullandi. Endi Farang dengizigina qolgan edi. Shoh bir orolda makon qurib, dam olishga ruxsat berdi.

Ushbu buyruqdan shodlikka to'lib-toshgan sipohlar o'z vatanlari tomon yo'l oladigandek xur-

sand bo'lib ketishdi. Lekin shoh kitoblar, hisob-kitoblar yuklangan bir kemani olib keldi. Sipohlar kitob va qog'ozlar solingan sandiqlarni tozalashdi. Qog'ozga nam o'tsa, raqamlarni o'qib bo'lmay qoladi deb, qo'rqishgan edi. Sandiqlarni birma-bir ochib qarashsa, qog'ozlarga nam o'tmabdi. «Olingan daftar-u qog'ozlardagi yozuvlarni hisobchilar hisoblab ko'rishsin», degan farmon berilgach, hisobchilar hisobdan o'tkazdilar. Olimlar u sonlarni yana bir tekshirib, bu kitoblarni shohga taklif etdilar. Shoh tavakkal misolida bir-ikki daftar hisoblarini tekshirib ko'rdi va qoniqish hosil qildi.

Iskandar hamma hisob-kitoblarni ko'zdan kechirib, ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilgach, shunday xulosaga keldi:

*Ki bo'lsa kema suvda sur'atnamoy,
Safar qilsa to'qqiz yilu yetti oy.
Hamul bahri a'zamni bir davr etar,
Qayu yerdakim suvga kirmish, yetar.
Ayon bo'ldiki uch yilu bir nima,
Bo'lur suv aro sayr qilsa kema.
Muhitiga markazki beishtiboh,
Erur bahri a'zamga ul nuqtagoh.
Yaqin borur ul yon azimat chog'i,
Iki yilchiliq yo'l-u kamrak dog'i.
Yana kelmagi dog'i oncha bo'lur,
Azimatda borg'on zamonda bo'lur.*

Iskandar to'rt yillik yaroq qilib, Muhit o'rtasiga ittifoq bilan safar qilishni buyurdi. Shoh yana anjuman tuzib, o'z xalqining safar chog'ida o'ziga qilgan sadoqati, shijoati, jonbozliklari haqida anchagina shirin so'zlar aytib: «Men ularni 13

yil qiynab kelyapman. O'tgan vaqt ichida qanchadan qancha chiroyli, ajoyib joylarni ko'rib bahra olmadik, suv olamining qancha sirlaridan voqif bo'lmadik. Dengizlarning barchasini tashqi tomondan tamosho qildim. Yagona bir armonim shu bo'lib qoldiki, dengizda ikki yil borishga, ikki yil qaytishga vaqt sarflasak, Olam dengizining markazi bo'lmish Muhit dengizining markaziga yetib boramiz. Faqat bir tilagim hammalaringizni Rum sari qaytarib, bir qism 300 tacha lashkar va donishmandlar bilangina bormoqdir. Bu yerda sizlar qiladigan ishlar qolmadi», – deganida butun kemadagilar suron ko'tarishib, hamisha shoh bilan birga bo'lishga hozir ekanliklarini ta'kidladilar. Shunda shoh bo'lmasa boshqacharoq bir yo'lni tavsiya qildi. Shoh o'z elini uch guruhga bo'ladi. 2 000 jangchi shoh amri bilan vataniga qarab yo'lga tushadi.

Shoh yana 700 kemani o'zi bilan olib qoladi. Qolgan ana shu xalqqa dediki: «Sizlar to'rt yil davomida mana shu orolda meni kutasizlar, Rumdan ko'p mol-dunyo olib kelasizlar. Xudo xohlasa, 4 yil o'tgach eson-omon sizlar bilan ko'rishib, vatanga birga qaytamiz. Agar yo'lda menga biron xatar yetsa, dengizga cho'ksam, daryo to'fonlari halok qilsa, bu yerda yana kutishni davom ettirmay, xat yozib qoldirasiz-da, vatanga jo'nayverasiz». Iskandar yo'lga tushib suvda suzib borarkan, necha ming kishi xuddi dengiz ilmi bilan yillar davomida shug'ullangandek yakdil-u hamjihat mehnat qilishardi. Shoh kema ichiga kirib kelgach, undagi ishlar yana jonlashib ketdi. Odamlar tun-u kun beorom, yemay-ichmay uxlashni unutib qo'ygandilar. Kecha-kunduz dengizni

kuzatsalar ham, suvdan chiqib suvga botayotgan quyoshdan boshqa narsa ko'rinmasdi. Daryolar-da kezishgan chog'da ba'zi yerlarda suvning o'ta chuqur emasligi tufayli har xil baliqlar, xilma-xil baliq ko'zlari ko'zga tashlanar, ko'zi o'tli hayvonlar kemalarga hujum qilib kelar ekan, u ko'zlarning tutashidan yog'ochlar yonib ketmasmikin, deb vahm qilardilar. Dengizda po'rtana ko'tarilganda, kema uchi avval ko'tarilib, so'ngra pastga inib vahimali o'y uyg'otardi. Askarlar dengizning betartib harakatidan o'zlarini arang tutib turisharkan, Iskandar ham bo'sh kelmaslikka tirishar, shu tarzda goh o'ziga taskin berib, goh tinmayin kema ichida yurib og'ir damlarni kechirardi.

Vaqt bu yanglig' o'tib bir yil-u to'qqiz oy deganda dengiz markaziga yaqinlashib qolishdi. Iskandarga: «Ey odamzod, maqsadingga yetding, uning orzusida yillar kezgan eding», – degan nido eshitildi. Kema turgan suvning Muhit markazi ekanligi Ilyos-u Suqrotga ham ayon bo'lib darhol Iskandar qoshiga yetib kelishdi. To'rtovlari maslahatlashib bu joy Muhit markazi ekanligiga shubha yo'qligi haqida uzil-kesil bir fikrga kelishdi. Kemalarni harakatdan to'xtatish uchun ularning bodbonlari – yelkanlarini tushirdilar. Iskandar eliga dediki: “Endi sizlarning har qaysingiz bilan xayrlashaman. Men dengiz ostini ko'rishni havas qilgan edim. Endi shu muddat keldi. Murodimni tomosha qilish uchun suv ostiga tushmoqchiman”. Bu yerda rivoyatning shu o'rne haqida ziddiyat, qarama-qarshilik bor. Emishki, shoh bir sandiqsimon shisha idishning ichiga kirib, bosh tomoniga arqon bog'lashib, kemadan tortib turishgan emish. Ehtiyotlik bilan u shishani suv ichra

solibdilar. Shoh shisha ichida bir necha oy qolib, dengiz osti holini: ming xil baliqlarning ko'rinishlari va yashash sharoitlarini tomosha qilganmish. Yuz kun o'tgach, keyin shishani yuqoriga tortib olishibdi. Bu hikoyatgina bo'lsa kerak, shunday voqealarning yuz berishiga aql bovar qilmaydi. Mening fikrimcha, bu hodisa shunday yuz bergan: tarixiy olimlar Iskandarni ham nabiy, ham valiy deb atashadi. Uning tani riyozat topmish edi, sayr ishlari tugallangach, suluk ishi ham tamom bo'ldi. Valiylıkdan o'zini xabardor topib, nubuvat maqomi ko'zini yoritdi. Ko'zi ul shu'ladan nurli bo'lg'ach, qayon boqdi ko'rđi, nekim bor edi qancha sirli ishlar unga oshkor edi. Suv ichida tomosha qilib yurarkan, yer yuzidagi jonivorlar ham unga aks etib ko'rinib turardi.

Iskandar dengiz kezarkan, bahr shohi unvoniga ham ega bo'ldi. Butun jahon uni hokim-u valiy-u payg'ambar-u muzaffar shoh sifatida tanidi.

Kema qaytar ekan, juda tez sur'at bilan suzib borar, ikki yillik yo'lni bir yilda bosib o'tishardi. O'zining jonajon poytaxti Rumga eson-omon yetib borgan Iskandar suv ichida yana bir kun qolmoqchi edi, lekin jismi zaiflashib kuchi qolmadi. Hamma bilan bir-bir ko'rishgach, jismi betob bo'lib, xayoliga keldiki: «Ketmak kerak, bu jahon tarkin etmak kerak».

Bu payt havo juda qizib ketgan, yerlarni suv sepib ham sovutish qiyin edi. Shunchalik issiq ediki, yerga oyoq qo'yg'an odamning oyog'i yerga yetgach, yonib ketishi aniq edi. Iskandar saman otini surib borarkan, issiq jismini madorsiz ayladi. Otda yurish imkoni yo'qligidan maysazor ustiga tushdi. Yerdagi shamoldan maysalararo orom olmoqchi

edi u. Kasallik ancha kuchaygan, jismini isitma o'rtar edi. Joy qilish uchun o'rin tayyorlashgacha ham chiday olmadi. Biyobon shunday qizib ketgan ediki, birov shohga o'z qalqoni bilan soyabon qilib turdi. U ham sipohdorlik qilgan mahalda qalqonni zarkor qilib yaratgan ekan. Shoh taqdiri nomasida uning hayoti tugallanarkan, unga yer temir, samo oltin bo'lib ko'rinadi deyilgandiki, ish yaqinlashib qolibdi. Ko'zdan yosh to'kib, qayg'u bilan jondan qo'lini yuvdi.

Iskandarning vafoti

Bu ishlar Iskandarga ayon bo'lgach, u o'z hayoti quyoshiga tutilish vaqti yetganini sezdi. Aniq bildiki, ketmak chog'i yetibdi. Shunday mahzun kunlarda ajal jomidan zaharli ovqat yeb-ichib turarkan, onasi yodiga tushdi. Ko'zini ochib, elga nigoh tashlab, ajal yeliday bir sovuq oh tortdi. Kotib chaqirtirib, onasiga xat yozmoq uchun qog'oz-u qalam so'radi. Kotib qog'ozni tayyorlagach, unga shu so'zlarni yozishni buyurdi:

*Ki, bu safhakim, nomayi dard erur,
Raqam anda hangomayi dard erur.
Birov hamdidindur bidoyat anga,
Ki yo'q ibtidou nihoyat anga.
Mufizi ato, balki xalloqi jud,
Xaloyiqqa bergan adamdin vujud.
Badan ichra jon javharin solg'uchi,
Yana oxir o'z berganin olg'uchi.
Tengiz ichra itkanga ham rahbar ul,
Biyobonda o'lganga ham yovar ul.
Gadolig'ni shohlig'din etgan aziz,*

*Jahon shohlari ollida bir pashiz.
Chu haq shukru hamdin ado aylabon,
Vasiyat bu nav' ibtido' aylabon.
Ki: «Mendinki, yo'q mendek ozurdaye,
Ajal xayli ilgida pajmurdaye.*

Senga, vayron bo'lgan tanimning joni, vujudim kumush la'lining koni, so'zim shuki, ayriliqlar, uzoqliklar tufayli senga ko'p azob-uqubat yetkazdim. Boshimga olam ochmoq degan orzu tushib edi, u xayolim boshdan oyoq xom ekan. Aslida jasadimga hush kirgandayoq, aqlim kira boshlagan bolalik chog'larimdanoq senga o'g'illik qilishni, doimo xizmatimga bo'lishni o'z burchim deb bilsam bo'lmasmidi? Bunday baxtga charx hasad qildi, endi so'nggi chog'da o'zimni o'ldirishimdan ne foyda?

Qazoning boshimga solgan ishlaridan xabar topsang, mening roziligimni ham e'tiborga olgin: motamimni tutib oh-faryod ko'tarmagil. Jahonni g'am tunidek qaro qilmagin, ichingni quyoshdek aslo kuydirmagin, yoqangni tongdek chok qilmay, oq sochlaringni sarig' yuzing uzra yoymagil, boshqa onalar kabi yuzingni tirnamagil. Sabr qilishga toqating yetmasa, quvvating chidam bera olmasa, katta bir ehson yig'ini tuzgin-da, chor atrofga xabar berib, jamoatni chorlagil. Behisob va xilma-xil taom tayyorlagil-da, hammaning oldiga osh torttirgil. Mehmonlar ovqatga qo'l urmoqchi bo'lganlarida, marosimni boshqarayotgan kishiga: «Bu oshdan olamda biron yaqini yoki qarindoshi tuproq ostida bo'lmagan kishilargina yesin», – deb aytir. Shundan keyin e'tibor berib qaragin-chi, biron kimsa ovqatga qo'l urarmikan? Oshga kimdur

qo'l uzatsa, mening o'limimga yig'lab, aza tutib, iztirob chekkil. Agar hech kim ovqatga qo'l urma-sa, taomlardan hamma yuz o'girsas, biron kishisi tuproqdan o'rin olmagan inson jahonda yo'qligi shu xilda ma'lum bo'lgach, sen ham bu ishdan voz kechgil. Bu sohada bor olam eliga hamdard bo'lgin-u, mening g'amimda anduh-azob chekish-dan voz kechgil. Sen ham ulardek bandasan. Haq rizosiga rizomand bo'l, qazo ne qilsa ham, xursand bo'l. Men yaxshi bo'lsam ham, yomon bo'lsam ham umr omon bermay olamdan ketyapman, vaqting bo'lsa, bir necha kun Haq yodini ko'nglingdan chiqarmay:

*Bu o'lgan g'aribingni yod aylagil,
Duo birla ruhini shod aylagil».*

Kotib Iskandarning bu maktubini kechiktir-may uning onasi qo'lga topshirdi. Chunki shoh: «Vaqtни kechiktirmay, tun-u kun ot yeldirib, bu maktubni onamga yetkazing. Quyoshimni qora bulutlar yopganida, boshim ustida ko'p iztirob chekib, jahonni aza bilan xarob qilmang. Meni tobut ichiga joylab, kecha-kunduz to'xtovsiz yu-rib, bor kuchingiz bilan harakat qilib, Iskandarni Iskandariyaga yetkazing. U yer tiriklikda vatanim bo'lgan edi, o'lim paytida ham u shahar mening mozorim bo'lsin.

Agar na'shim ustida to'plansangiz, u chog'da albatta bir qo'limni tobutdan chiqarib qo'yinglarki, odamlar hayrat emas, ibrat ko'zi bilan boqib, bu panja barmoqlari saf chekib jahon mamlakatlarini, barcha quruqlik va dengizlarning la'l va gavharlari-ni egallagan edi. Endi ajal qo'li jo'nash nog'orasini

chalib, bo'yniga o'lim arqonini solganida, jahondan shal insonning qo'li misoli, chinor ilgiga o'xshab ketib boryapti. Kinga bilim madadkor bo'lsa, jahondan qo'lini yuvishi ham shunday oson bo'ladi, deb tushunsin».

Shu yerga yetganda shohning so'zi tugadi, keyin ko'zini yumdi. Foniyl mulkni jasurlik bilan, tez egallagan edi, endi baqo mulkin olgali jazm qildi. Hikmat ahli kitoblardek qaro kiydi, falak bo'lsa, bu ishi bilan qiyomat kunini oshkora ayladi. Negaki, jahonning bor xalqi oh-u noladan shovqin-suron ko'tardi. Shunday qiyomatki, go'yo osmon yerga, yer ko'kka ko'tarildi. Falak bilan yer birday chayqaldi.

Keyin odamlar Iskandarni mahofaga yotqizib, mahkam bog'lab, na'shini aytganidan ham chiroyli bezatishib, jahonshohi vasiyatlarini yoddan chiqarmay, xorlik bilan faryod-u fig'on qilib ovoz chiqarmay, na'shi tartibini o'zi aytganday shaklda yasab, saroy sari yo'lga tushdilar.

Burunroq bir kishidan nomani berib yubordilar. Onasi voqeadan xabar topib, Rustamdan ayrilgan Zolday behol, hushini yo'qotgan holda o'tirar, ko'ksini chok-chok tilishni istasa ham, bu g'amdan o'zini halok aylashni istasa ham, lekin o'g'li yuborgan maktub mazmuniga boqib, shu bilan joni mahzuniga tasalli berib o'tirardi. Iskandar nimanikim yozsa, uni eshitish foydali ekanligini u yaxshi bilardi. Lekin o'zining alamiga qanday chora topishni bilmay, qalbidagi o'tdan jahon o'rtashini, jahongina emas, to'qqiz osmon o'rtashini tilar edi u. Lekin shoh so'ziga sadoqat, uni so'zsiz ado qilish uni zo'rg'a saqlab turardi.

Tobut uning tomon yaqinlashib kelar ekan, tog'lar, dashtlar qora rang ostida qoldi. Odamlar

na'shni bo'yinlariga olishdi, buni ko'rgan onaizor aso tutib, belini qattiq bog'ladi-da, ichidan bir o'tlig' oh tortdi. Uyatdan falak boshini quyi soldi. Yiroqdan o'g'li tobutini ko'rgan ona falakdan shunday faryod eshittiki, u malika saroyigacha yetib bordi. Zo'rg'a-zo'rg'a tobutga yetib olgan ona un chekib, oshuftahol faryod qildi: «Xush kelding, ey aziz mehmon, ushbu qarigan kaniz qurboning bo'lsin. Bu saroy senga loyiq emas edi, bizni g'urbatga tashlab ketding. Jannat bog'i bo'stonini munavvar aylab, farishtalarning qorong'i kechasini yoritding.

Manga falak zulm qildi: bu yo'lga sendan burun tusha olmadim, senga jannat ichidan o'rin tayyorlay olmadim. Charx ajoyib bir o'yin ko'rsatib quyosh botdi-yu, charxning keksa kampiri omon yuribdi. Qazodan bu ish yuz bergach, balo seli vayron jismimni halok qildi. Koshki edi oq sochimni yoyib, goh o'zinga kelib, gohida ketib qo'llarim bilan yoqamni chok qilolsam edi. Ustinga qora kigiz tashlab, bor ovozim bilan nola chekolsam edi. tobuting oldida zaif jonimni berib, jismimni jisming ustiga tashlay olsam edi. Falak zulmidan ko'nglimni bo'shatib, o'g'il kabi ona ham borsa edi. Motam tutib, oh-faryod chekolmayotganim, jonimni berib, orqangdan yetib borolmayotganim men uchun jonim dardi kulfat-u alam iztirobi bo'lib qoldi.

Yozgan nomang sendan burunroq manga yetib keldi-yu, ne ishlarni iltimos qilgan bo'lsang ular menga uqubat bo'ldi, lekin hukmingni bajarmaslikka haddim bormidi? Chunki bu so'zlar Xoqon-u qaysar so'zi emas, balki Iskandar so'zlari edi. Tanim qutichasidagi pok gavhar qani, quruqlik va suvlar shohi Iskandar qani?».

Ana shunday soʻzlar bilan ona oʻz oʻgʻlini oxirgi yoʻlga kuzatdi. Xaloyiq ichida oh-faryod koʻtarildi. Barcha aholi afgʻon-u oh tortib kelardilar. Tiya tuproq bagʻrini oʻyib, ul tuproq ichiga quyoshni yoshurdilar. Bu olamdagi eskidan qolgan rasm quyoshning tuproqqa botmogʻidir. Ravshan tanini qora tuproqqa topshirib, madfanini yasab, yuz tuman zeb ila sipehr atlasini qabrpoʻsh etdilar. Necha figʻon-u oh ayladilar. Har qancha figʻon qilib osoyish topmay, ranj-u alamlarga davo topolmay, koʻngillardagi havas tikanlarini sindirib, barcha el oʻz koʻngillarini tindirdilar.

Iskandar hayotni tark etgach, onasiga butun koinot qaro boʻldi. Shoh yozgan vasiyatnomaga toʻla amal qilgan iffatli Bonu jahon ahlidan hech kim bajara olmagan ishni ado etdi. Bundan voqif boʻlgan barcha yaqin kishilari unga ofarin aytdilar. Dafndan soʻng barchalari undan hol soʻrashga keldilar. Uning maskani Iskandar mozoriga aylangandek edi. Birin-ketin yetti daryo, yetti dengizdek boʻlib, oʻgʻlining eng yaqin yetti hamrohi olimlar undan hol soʻrab, nasihat qilish uchun tashrif buyurdilar va navbatma-navbat dil soʻzlarini Bonuga izhor etdilar. Ona ularning hurmatlarini joyiga qoʻyib, avval ularni oʻltirtirib, keyin oʻzi oʻtirib, sukut qildi. Olimlar ham biroz sukut saqlashgach, barchadan burun Aflotun soʻz boshladi: «Bonu davrondan ogohdir, bilim ichida davr ahliga shohdir. Bizlarning pand-u nasihatimiz Sizga hojat emas. Faqat birgina duoni izhor etmay qololmaymiz:

*Guhar choʻmsa, daryogʻa boʻlsun hayot,
Quyosh botsa, gardungʻa yetsun sabot.*

Shoh o'z vasiyatida barchani sabr qilishga da'vat etgan edi, ularni ortig'i bilan ado etdik. Bugun u olam ahlining yagonasi, pahlavonigina emas, yuzta sher qudratiga ega bo'lgan mard sifatida mashhurdir. Shunday o'g'il qazoga rizolikni ayon etdi. Umidimiz shuki, bu dard-u azoblarning har biriga Xudo mingtadan mukofotini bergay».

Aflotun o'z kalomini tugatgach, Suqrot shunday dedi: «Ey yetti iqlimning Bonusi, o'g'lingdan ajraganingdagi holatingni Yaratganning o'zi ko'rib turibdi. Aqldan uzoq bo'lgan kishigina senga nasihat qilishi mumkin. Lekin aqlli kishi Tangridan kelgan barcha narsadan xursand bo'ladi.

*Sening bu tariqing erur barkamol,
Ki Haq bermasun donishingg'a zavol.*

Suqrot o'zining hikmatli so'zlarini tugatgach, Balinosga navbat yetdi. U ta'zim bilan duo boshlab, ko'zlarini yerga qadaganicha duosini tugallagach, dedi: «Barcha elga yaxshi ayonki, ayriliq dardi g'oyatda og'irdir.

*Sening royinga nuri tahqiq erur,
Haq ehsonidin oncha tafviq erur,
Ne shoista ishga qilursan shuru',
Ne shoista ermas, etarsan ruju'.*

Balinos so'zlarini tugatgach, Buqrot o'z nutqini shunday boshladi: «Ey alam tortishda ham muloyim onajon! Sening zotingga muloyimlik xosdir. Haq sabring ipini uzun qilgan, shu uzunlik doimo mo'l-ko'l bo'lsin. Bilasanki, har bir iltirob chekayotgan inson oxiri tinchlanib qoladi. Go'y

chavgonidan tezroq yugursa ham, o'yin oxirida tinchib qoladi. Odam ham shunday tabiat sohibi, olamning barcha xalqi ham shunday xususiyatga ega. Kimga azaldan aql yor bo'lsa, uning to'g'ri fikrlashiga madadkorlik qiladi.

*Seni, yuz tuman shukrkim, kirdigor,
Xirad ganjidan ayladi komgor».*

Buqrotidan so'ng Xurmus duo bilan so'zga og'iz ochdi: «Ey gulidan ayrilib, kuzga duch kelgan bog', yorug' nuridan judo bo'lgan chirog'! Bilasanki, bog' ichida gul ochilsa, bog'bon oxiri undan ko'nglini uzadi. Chirog' har qancha majlisni yoritisa ham, oxiri qorayib qoladi. Olamning xosiyati shunday. Buning uchun iztirob chekish foydasiz, foydasizgina bo'lmay, ziyon ham keltiradi. Senga Tangri bilimdonlik baxsh etgan. Shuning uchun bizning nasihat qilishimiz, chiroyli so'zlar bilan pand berishimiz ortiqcha ishdur».

Xurmus so'zini tugatgach, Farfunyusga navbat yetdi. U dedi: «Ey hikmat ilmidan bahramand ona! So'zing gavhar-u, gavharing qadrlidir. Bugun sen dur-u gavharidan mahrum bo'lgan ulug'lik koni dengizisan. Lekin Xudo o'z duridan judo bo'lmagan biron daryoni yaratganmi? Qaysi kon bag'ri o'yilib, o'z gavharidan judo bo'lmagan?»

Aql seni shunday ulug'vorlikka erishtirganki, fe'lingning barchasi olam ahliga maqbuldir. Bu senga Haq bag'ishlagan saxovatdirki, uning uchun ko'pdan ko'p shukr qilmoq zarurdir».

Olimlarning so'zlarini Arastu yakunladi: U dilini tirnayotgan alamlardan tinmay ko'z yosh to'kar ekan, shunday dedi: «Bu voqea sababidan

ko'zlarimdan durlar to'kilib, ko'p so'zlarimni ayta olmayapman. Senga pand berish xohishim emas, balki menga yuz kishi pand berishi kerak. Istagim, Sening dard-u g'amingni so'rash, cheksiz motaming dardkashi bo'lmoqdir.

Netayki, so'rashga tilim lol-u, ahvolim oshuftadir. Bu g'amda Haq Bonuga madad qildiki, barcha undan saboq olishi kerak.

*Ki bizlarcha ham iztirob etmadi,
O'zin dard o'tig'a kabob etmadi.
Ichi g'unchadek tah-batah qon bo'lub,
Vale xalq aro og'zi xandon bo'lub
Demas so'z tiliga murur etmayin,
Xayolig'a balkim xutur etmayin.
Ki Haq ortuq etsun bu iqbolini,
Humoyun qilib har nafas folini.*

Olimlar Bonu g'amini so'rab, o'ziga keltirdilar, yashirin yaralariga malham surdilar. Dardiga shu xilda davo qilishgach, Bonu o'ziga kelib, ulardan uzr so'ragandek yetti kon ustiga shunday ganj to'kdi:

«Sizlar menga qaraganda ham ko'proq motam tutyapsizlar. Iskandarning g'ami sizga ko'proq alam solyapti. Chunki uning kimligi sizlarga yaxshiroq ma'lum edi. Kamoloti har biringizga quyoshdek ravshan edi. Safar vaqtida sizlar unga yor bo'ldingiz, xatarlar vaqtida siz yor-u g'amxo'rlik qildingiz. U sizlarning shohingiz emas, balki ardoqli do'stingiz edi. Har biringiz uning uchun ikki jahondan ortiqroq edingiz. Ul yoringiz sizni tashlab ketganidan g'amginmisiz, undan ayrilib motam qilyapsizmi? Haq bu g'amingizdan o'zi qutqarsin, qattiq motamingizni o'zi daf aylasin.

Iskandardan agar barchamiz ayrilgan bo'lsak-da, lekin bir-birimizga hamdardmiz.

Mening umrim yana davom etadigan bo'lsa, og'zimga sukut solib, hech ham so'zlamayman, degan edim. Sizlarning hamdardligingizdan ta'sirlanib, beixtiyor so'zladim», – dedi.

*Navoiy, jahondin vafu istama,
Tutub benavolig', navo istama.*

NAVOIY O'Z «XAMSA»SINING TUGALLANISHI HAQIDA

Menga podshoh qo'li yetakchi bo'lib, bu panja bilan zo'r imtihon qildi. Uni panja emas, qattiq tosh deb, tosh ham emas, yaxlit po'lat degin. Panja kuchini sinash uchun panja soldim-u, u panjaga teng kelolmay azob-u ranj chekdim. U donolar «Panj ganj» («Besh xazina») deb nom qo'ygan «Xamsa»yi ganjsanj¹ edi. U noyob durlar xazina si, oftob panjasi bo'lgan «Xamsa» edi, kimki unga zo'rligini ko'rsatgan bo'lsa, kuchi yetmay, qo'li shikast topdi.

Mening qo'lim ham behad zaif bo'lib, u panjaga teng kelolmasdi. Qo'limdagi quvvat ham, panjamdagi kuch ham panjalar bellashuviga imkon bermasdi. Boshlagan bu ishdan voz kechishga himmatim yo'l bermas, kuchanib ishlay desam, quvvatim yetmasdi. Panjamga hasrat bilan boqib, bu panjamni u panjamga urib, aql-u hushimni yo'qotib xayol surar ekanman: Surush – baxtiyor farishta²ning to'satdan nidosi qulog'imga chalindi:

«Ey ojizlik va yolborish dengiziga g'arq bo'lgan, dardiga bir chora qiluvchi topilmagan inson! O'rningdan turgin-da, pir dargohiga yetib borgin, yuzingni uning ogoh joniga qarat va uning ko'nglidan do'stlik, buyuk himmatidan madadkorlik tilagin. Chunki ochilishi qiyin bo'lgan har bir qulfga buyuk donishmandlar duosi kalit bo'la oladi».

Bu so'zni eshitgach, pir ostonasi tomon yo'l oldim. U jannatiy makonga yetib borib, sajda qil-

¹ Ganjsanj – xazina o'lchovchi.

² Surush – farishta Jabroyil.

ganimda, ostonasi tuprogʻidan koʻzim ham, koʻnglim ham yoridi. Eshikka qoʻlimni urishga jurʻat qilolmay turar ekanman, u oʻzidan oʻzi ochilib, «Niyoz ahli³ kirsin!» degan ovozni eshitdim-da, taʻzim bilan ichkari kirdim. Pirga dardimni qay tarzda bayon qilishni bila olmay, gung-u lol boʻlib turar ekanman, koʻnglimdagi dardlarimni pirning oʻzi soʻzlay boshladi: men uning aytganlarini tasdiq qilgach, u, avvalo, ishimning bitishi uchun duoga qoʻl ochdi-da, soʻng barcha hojatimni ravo qildi.

*Dedikim: «Bu bir ish edi qilgʻuluq,
Bu aytilmagʻon nukta⁴ aytilgʻuluq.
Bu soatgʻa mavquf⁵ erdi ekin,
Bu dam tengri tafviq berdi ekin.
Agarchi yetishti malolat sanga,
Vale oxir oʻldi havolat⁶ sanga.
Kim ul ganjlar boshigʻa yetgasen,
Tilismotini dogʻi fath etgasen.*

Olamga nazar solib koʻrdikki, turklar orasida bu kabi ulugʻ ishga qoʻl urish uchun zarur boʻlgan kishini topish qiyin. Turklar ham, ajamliklar ham bunday ishga hayrat bilan qaraydilar. Olam ahli oʻn kun tinmay mehnat qilganlarida ham besh baytli bir gʻazalni yozib tugatolmaydilar. Masnaviygoʻylar esa oʻn yilda ming bayt sheʻr bitishning uddasidan chiqolmaydilar.

Bu oʻrmonda ikkita sher boʻlib, bu dengizda ikkitagina shijoatli, jasur nahang bordir. Oʻrmon-

³ Niyoz ahli – iltimos bilan kelgan kishilar.

⁴ Nukta – maʼnosi chuqur va chiroyli soʻz.

⁵ Mavquf – toʻxtatilgan.

⁶ Havolat – topshiriq.

ga kirish uchun sherlar jang qilishi, dengizda esa qo'rqmas nahanglar olishuvi kerak. Bu kunlarda tez va nozik fikrlovchi faqat sensan. Musallam⁷ so'zing ravon, so'z ichra go'yo bir pahlavonsan. Ravon qalamingga shunchalik ishonch borki, so'z aytganda shunchalik obi hayot yaratadiki, uning Xizrvash suvidan butun koinot to'yadi. Bu ishni bajarish senga nasib etgan ekan, sen uning uddasidan chiqa olishingga umid qilamiz. Tur endi, ishing haqida o'ylagin-u, xayol ahli zebi jamoli haqida fikr sur. Sen bu ishingda hushyorlikni unutmasing kerak, biz esa duo bilan senga madadkorlik qilg'umizdir».

Men notavon bu so'zlarni eshitgach, o'lik jismimga jon kirgandek bo'ldi. Yer o'ptim-da, uy tomon yo'lga tushdim. Ko'nglimda o'ylagan dostonlarni yaratishga jazm qildim. Xonamga kelgach, qalamim uchini sozlab, so'z xazinalarini birin-ketin tera boshladim. «Hayrat»⁸ga ko'nglim qiziqib, unga el-ulus hayratini uyg'otdim. «Farhod» haqida o'y surib, teshavor usta bo'lib, tog' tekisladim, «Majnun» afsonasini qalamga olib, barcha xalqni junun shaydosiga aylantirdim, «Sab'a»ga ta'bim yaqin bo'lib, yetti charxdan ofarin eshitdim, tilimga Iskandar nomini olib, doston otini «Saddi Iskandariy» deb atadim.

Bu mahvashlar jamollarini sarv niholi kabi bezatgach, latofatda yuz a'lo jannat, har birining ichida ming go'zal hur o'z aksini topdi. Bu besh xazinani ochgach, ularni qog'ozga tushirdim, keyin yozganlarimni juzvdon⁹imga solib, himmat

⁷ Musallam – inkor qilinmay ma'qullangan.

⁸ «Hayrat» – «Hayrat ul-abror» dostoni.

⁹ Juzvdon – kitob, qog'ozlarni solib yuriladigan charm yoki matodan tikilgan jild.

bilan menga madadkorlik qilgan ulug' pirim oldiga olib borib ko'rsatishni ko'nglim orzu qildi. Huzuriga borib ta'zim bajo keltirish va ishim tugagani haqida ul zotga xabar yetkazish to'g'risida xayol surib borar ekanman, «Xamsa» yaratgan qalam sohiblarining mehnatlarini esladim.

Bu asarni yozishga bel bog'lagan ulug'lar uni tugallash uchun uzoq umrlarini sarf etdilar. Nazm ahlining ustodi bo'lgan Nizomiy o'z xazinalarini, xazina emas, ixtirolarini eldan uzoqroqda yashab, yarim umrini zahmat chekib, qon yutib yaratdi. Besh xazina kalidini qo'lga kiritgach ham bu asarlarni tahrir qilish uchun yana ancha vaqt sarfladi. Ko'p umrini bag'ishlab, bu ajoyib yoqimli kitobini tugalladi. Necha podshohlarning g'amxo'rligi bilan bu davr ichida u xalq xizmati bilan shug'ullanmay, faqat shu asarni yozishdan boshqa narsani xayoliga keltirmay, faqat orada qirqta arbain bitib, shu besh xazinaning sohibi bo'ldi.

Hindcha taxallus olgan, asli o'zi turk bo'lgan Xusrav ham Ajamdan Arabgacha bo'lgan mamlakatlarni so'z bilan qo'lga kiritdi. Bu mustahkam qo'rg'onlar eshigini ochguncha, ancha afsonalarni qisqaroq bayon qilgan bo'lsa ham, ko'pgina vaqtini faqat shu dostonlarni yozish bilan o'tkazdi. Ularga o'z hayotining o'n besh, kamida o'n yilini baxshida etdi.

Yana kimlar shu sohada qalam yuritgan bo'lsalar, ular sarflagan vaqtni yuqorida aytilganlarga qiyos qilib bilib olsa bo'ladi.

Sen esa ko'proq zahmat chekish, elga xizmat qilishdan bo'shamas eding. Tongdan oqshomgacha el dardini tinglash, ularga yordam berish bilan

band bo'larding, ba'zida odamlardan o'zingga malol keluvchi so'zlar eshitarding. Xalq g'avg'osidan tinmas, qulog'ing xaloyiq shovqin-suronidan tinchimasdi. Shunday qiyinchiliklarga qaramay, o'z asarlaringni bitishda g'ayrat ko'rsatib, ikki yildan ko'proq vaqtda o'z «Xamsa»ngni nihoyasiga yetkazding. Mohir bir hisobchi g'ayrat qilib, besh dostonni yozish uchun ketgan muddatni hisoblab chiqsa, jami olti oy ham bo'lmaydi. Bu nazm tezda tugallangan bo'lsa, uning yana bir tomoni turkiy tilda yaratilganidir. Lekin kitobning har qancha e'tiborli jihatlari bo'lishiga qaramay, talaffuzda ba'zi kamchiliklari ham yo'q emas.

Albatta, o'zingning so'zingni o'zing yaxshi ko'rasan, chunki o'zing yozgan so'zlar-da ular: shuning uchun ham oldingda qimmatli bo'lib ko'rinaveradi. So'z xuddi o'zingning farzanding bo'lib tuyiladi, chunki farzand joningning payvandi-da! Boshqalarga nopisand bo'lgan so'zlar ham kishining o'zi oldida bebaho bo'lib ko'rinishi muqarrar. Boyqushning bolasi qanchalik xunuk bo'lmasin, uning oldida xushjilva tovus bo'lib ko'rinadi. O'zingga ma'qul bo'lgan so'zlarni el ham pisand qilarmikan? Donishmand pirim yozgan kitobimni nazardan o'tkazib, asarim nuqsonlaridan meni voqif qilsa qani edi?

Bu kitobni avval aytgan ulug'larning yuzlariga ajal allaqachon o'z niqobini yopgan. Ulardan har birining ruhi jannat bog'ida shod bo'lyapti, deb umid qilaman. Dono pirim bulardan ham xabar topib, meni ham boxabar qilarmikan? Shunday xayollar bilan pirim manziliga yetib bordim, ostonasini o'pib, juzvdonimdan «Xamsa»ni chiqardim-

da, yozganlarimni ko'rsatib, barchasini uning oyog'iga nisor qildim! Kemam daryoda borar ekan, pirim qo'lini ulardan biriga uzatdi-yu har bir varag'ini ochib, nazar tashlar ekan, yuziga tabassum yoyilardi.

Biron so'z haqida savol bersa, javobini berganimdan so'ng, zavqlanar, goh tahsin-u, goh duo qilar ekan, har bir so'zidan shodlikka to'lib murodim hosil bo'lardi. Yozganlarim haqida fikrini aytar ekan, men ikki ko'zimni yerga tikib turardim. So'zimni eshitar ekan, yuzi bo'stondek ochilib, yengini mehribonlarcha egnimga tashladi. Shunda o'zimdan ketgandek bo'ldim-u, qiziq bir holat yuz berdi: to'satdan o'zimni ajoyib bir bo'ston ichida ko'rdim, bog'-u guliston aro gasht qilib yurgan emishman. Bog'i Eramda sayr qilgan har bir odam ham ushbu jannatmonand bog'ga orzumand emish. El Baytulharamni tavof qilgan kabi men ham chamandan chamanga o'tib shodlanar emishman. Bog' ichida ko'pgina kishilar halqa qurib, shirin suhbat qilishar ekan. Ulardan biri chamanda men kezib yurgan joyga qarab yurib oldimga keldi. Shoirona qiyofali dilkash va sohibjamol bu kishi salom berib, men bilan so'rashgach: «Bu baxtiyor va quvnoq odamlar sening ham suhbatimizga qo'shilishingni istamoqdalar», – dedi. Uning taklifini qabul qilib, o'sha tomon yurdim. Yo'lda borarkanmiz, hamrohimga o'zimni tanishtirib, suhbatdoshlarning kimlar ekanligini so'radim. U dediki:

«Ular masnaviy nazm qilgan shoirlar guruhidir. Xususan, ulardan bir nechtalari «Xamsa» yaratgan, «Xamsa»dagi konlar xazinasini ochgan

donolardir. Ularning barchalari shu yerda, senga mushtoq bo'lib turibdilar. Sen mening kimligimni so'rading. Kaminaning oti Hasan bo'lib, xalq Dehlaviy deb ataydi».

Bu so'zni eshitgach, jismimga isitma tushdi, ko'nglimni ham iztirob egalladi. UZR so'rab, hamroh bilan quchoqlashib ko'rishdim. Yo'lda borar ekanmiz, Hasan to'dadagi shoirlar nomini birma-bir aytib, har birlarini alohida-alohida talqin ham qilib berdi. Uch kishi majlis raislari ekan, hamroh ularning ishlarini ham sharhlab berdi. Dediki: «O'rtadagi yoqimli chehrali nuroniy pir hazrati Shayx bo'ladilar, ogoh bo'l, hurmatini e'zozlab, oyog'iga boshingni qo'y. O'ng tomonidagi donishmand unga payravlik qilib «Xamsa» yozgan Amir Xusravdirlar. Yana bir yonlaridagi esa sening piringdirlar. Ularning ikki yonlaridagilar qavmlaridir. Barchalari bilan hurmat saqlab ko'rishgil, so'zlaganingda ham odob saqlashni unutmagil!».

Hamrohning barcha aytganlarini qabul qildim. Majlis ketayotgan joyga yuz qarichcha masofa qolganda, bazm ahli o'rinlaridan turdilar va meni kutib olish uchun kela boshladilar. Men ham qadamimni tezlashtirib, ularga ro'para bo'ldim. Hamroh birma-bir ul to'dadagilarning otlarini aytib, ko'rishayotganimda ham yonimda turdi. Sa'diy, Firdavsiy, Unsuriy, Sanoiy, Xoqoniy, Anvari... «Barcha ko'rishganlarim nomlarini batafsil tilga olsam, so'z uzayib ketadi».

Hammalarining qo'llaridan o'pib e'zozlagach, ular meni yonlariga olib, kelgan taraflariga qarab yurdilar. Supada Shayx va uning payravi, ya'ni Nizomiy bilan Xusrav, shuningdek, bizning piri

mahdumimiz o'tirishardi. Biz yaqinlashganimizda, ular ham o'rinlaridan turib, biz tomon qadam tashladilar. Xusrav va pirim Shayxdan burunroq yurib kelishardi. Men ham ular tomon yugurdim. Pir o'z ixtiyori bilan qo'limni tutib, hamrohi bilan ko'rishtirdi. Men ko'zlarimdan yosh to'kib, qo'llarini va oyoqlarini o'pdim. Jomiy bilan Xusrav ikki qo'limdan ushlab Nizomiy sari boshladilar. Men, g'am asiri qo'limga olam tushganidan ko'z yosh to'kardim. Ikki qo'limga ikki jahon kirgan edi. Muborak Shayx bilan ko'rishib, oyoqlariga boshimni qo'ydim, tuprog'ini o'pib, ko'zyosh selini to'kdim, buni ko'rib turgan to'qqiz falak menga rashk qilardi. Shayx mehribonlik bilan boshimni yerdan ko'tarib, qaytib borib o'z joyiga o'tirdi. Meni esa kutilmagan baxt bexud qilib qo'yan edi. Shayx ikkala do'sti bilan o'rinlashdi, men esa xijolatlik bilan qaddimni bukib turardim. Barcha guruh ahli o'z o'rinlarini egallashgach, menga ham o'tirishga ishora bo'ldi.

Shayx muloyimlik bilan so'z boshlab, avval ahvolimni shafqat bilan so'radi, men javob berarkanman, hurmatini qilib yer o'pdim. Keyin yana dedi: «Ey olam ahlining yagonasi, falak seni el ichra nodir aylab, jahon nazmi sohasida qodir qildi. G'azal yo'lida shunday yurishlar qildingki, she'r ahliga so'z aytish harom bo'ldi. Nazming jahondagi mamlakatlarni, jahon emas jon mamlakatlarini tutib ketgan edi, masnaviyga shitob qilib, qalamingdan sof durlar to'ka boshlading. Shunda ajoyib ish yuz berib, nazming el nazmiga shikast bera boshladi. So'zda menga tatabbu' qilarkansan, necha bor iltijolar aylading. Chunki men «Xam-

sa»da: «Har kimki, men bilan bellashishga umid qilsa, so'zim o'rog'idan keskir tig' yasab, u tig' olmosi bilan boshiga uray!» – deb ogohlantirgan edim. Ko'p odamlar bu so'zlarimga da'vo qilmoq uchun kurashishdi. Shu da'vo yo'lida boshlarini fido qilmoqchi ham bo'lishdi. Farzandim Xusrav Allohga iltijo qilgach, u ganjlar sirini topa oldi. Yana bir, ikki, uch odam qiynalib mehnat qilib, o'z nasibalariga erishdilar.

Sen bu yo'lga qadam qo'ygach, o'zingni un-utib, bor xayolingni shu ishga berding. Baland martabang tog'cha bo'lsa-da, maqsading oldida tufrog'cha ham bo'lmadi. Farzona Jomiy kabi pir tanlab, Nizomiy singari madadkor topib, poklik bilan bu ishga qo'l urgan chog'ingda poklar ruhi oldingda yo'l ochib berdi.

Sahar vaqtlarida ruhimni duo bilan yod etmay turib, yozuvingni boshlamasding, faqat meni emas, balki bor nazm ahlini pok duo bilan tilingga olib, hurmating bizlarga behisob bo'lib, biz ham senga adadsiz madad qilib turdik. Bo'lmasa, ikki yilda bir «Xamsa» tugatmoq xomxayoldan boshqa narsa emas edi.

«Xamsa»ngdagi beshta xazinaga to'ldirilgan gavharlarni ado qilib bo'lmaydi. Ulardagi dur-u la'llar barcha ko'zdan yashirin bo'lib, duridagi iplarni ham, la'llaridagi teshiklarini ham ko'rmoq ilojsiz. Haq taborak senga bu durlarni bergan ekan, umid shuki, ular muborak bo'lg'ay.

Har bir kishi sen kabi kirishsa, evaziga shunday natijaga erishishi mumkin. Lekin shuncha ma'nolar xazinasini Haq yashirincha senga bergan ekan, qayerda shunday holatga duch kelsang, bilgilki, uning

sababi ikki ishdir: biri shuki, sen ham iltijo qilishga e'tibor berding, sirlar ahli seni qabul ayladilar va rag'batlantirib turishga harakat qildilar, barchalari himmat bilan senga madad ko'rsatdilar. Yana biri shuki, ilm-u hunar ahli har nima qilsa, lof uradi-yu, ishni murabbiy qiladi. Hunarparvar ish buyuruvchi bo'lsa, hunarmand lof urguvchidir. Sening shohing sohibkamol bo'lib, oldida mulk-u mol qadrsiz edi. Unga men aytgan ikki ish nasib etgan edi. Uning ajoyib zamonida ajoyib ishlarning yuz berishi ajablanarli emas. Xalqqa chorasoz, mehribon shoh xaloyiq fozili Shohi G'oziydur. Tangri uning davlatini barqaror, martabasini yetti osmondan ham yuqori, buyuk qilsin. Zero, uning zamonida sendek kishi dunyoga keldi. Sening ishing esa odamzod qila oladigan ish emasdir».

So'z shu yerga yetganda, men beixtiyor o'rnimdan turdim-da: «Shohga hamd-u sano aytdingiz, endi davlatiga ham duo qilsangiz», – deb iltimos qildim.

Sirlar donosi Mir Xusravga qarab: «Sen Shohi G'oziyga madh aytuvchisan. So'zingdan ba'zi baytlar yodidadir, asarlaring muborak xislatidadir. So'zlaringdan ko'ngli ta'sirlanib, nafasingdan duo ham unga asar qiladi. Duo qilginkim, olimlar-u donishmandlar «omin» desunlar, biz ham «omin» deylik», – dedi. Davradagi she'r ahliga murojaat qilib, yana shunday dedi: «Sizlar shoirsizlar, u esa xushtab' shohdir. Farzand Xusrav duo aylasa, uning tilaklarini Haq ravo qiladi. Barchangiz dil-u jon bilan «omin» dengiz. Ko'zdan oqqan yoshlarimiz bilan duo qilaylik».

Bu so'zlarni eshitganlar ma'qullagach, hamma himmat bilan shohga qilingan duoga «omin»

dedilar. Soʻz ustasi Xusrav oʻrnidan turib, duosini shunday boshladi: «Yo rab, to olam bor ekan, odam zoti ham boʻladi. Taxti hukmiga olam kirib, jinsi odamning barchasi bandasi boʻlsin. Qiyomatgacha davlati barqaror boʻlib, kunlari hamisha shodu xursandlik bilan oʻtsin. Adolatidan jahon ahli, xususan, fazl-u kamol ahli tinch-omon yashasin». Shunday duo tugallangach, barcha ilm ahli qoʻllarini yuzlariga surtdilar. Ahli savob qilgan duoni, ajab yoʻqki, Haq mustajob qilgaydir.

Duo tugagach, qoʻynimdan «Xamsa»ni chiqarib, qora tuproqqa oʻzimni tashlab, yigʻlab, shunday iltijo qildim:

*«Bu zodayi xotiri xastani,
Koʻnguldin takallumga payvastani.
Ki himmat tutub ehtimom ettingiz,
Demasmenki, men, siz tamom ettingiz.
Karam birla tufrogʻdin ham oling,
Inoyat qilib bir nazar ham soling.
Ki el xotirigʻa nuzul aylasun,
Ulus koʻngli oni qabul aylasun».*

Bu soʻzlarimni eshitgan Shayx tufrogʻ ustida yotgan asarimni qoʻliga oldi-da, Mavlaviy tomonga boqib: «Sen astoydil duo qilgin. Soʻnggi farzandimiz, bilim mazraʼidan hosilimiz soʻzga mohirdir. Bular uning zod payvandlari, barisi farzandlarimizning farzandlaridir. Sanga ham shogirdidir, ham murid. Sening duo qilishingga umidvormiz».

Mahdum duosini boshlagach, barcha yana ominga qoʻl ochdilar. Duosi koʻnglimga yoqimli, qalbimga quvonchli edi. Davra ahli «omin» deyishib,

men mahzunni shod ayladilar. Menga bunday olqish nasib bo'lgach, bu mo'tabar zotlarga sajda qildim. Ular: «Shohingga duo degaysen», – deb javob qildilar. Bu so'zdan ahvolim o'zgarib, o'zimga keldim. Qarasam, men borgan hujrada pirim ahvolimga hayron bo'lib turardi. Go'yo bu lahzada u egnimdan qo'lini olgan va xayolimni shu yerga yo'llagan edi. Oldida bosh egib, ko'zlarimdan yosh oqizib turardim. Pir mehribonlik bilan: «Ne ahvol yuz berdi?» – deb so'radi. Boshimni quyi solgancha: «Menda shunday bir hol yuz berdiki, uni sharhlash uchun tilim loldir», – deb javob qildim. U dediki: «Bu dam hech kimga berilmagan saodat senga nasib bo'ldi. O'rningdan turgin-da, Tangrining ehsoniga, behisob yaxshiliklariga shukr qil!» – dedi. Men yerni o'ptim-da, tashqariga qadam qo'ydim. Xuddi butun olam tamoman meniki edi. Men uchun «Xamsa»ni tugallash bir tomon bo'lsa, bu maqsad hosili yana bir tomon edi. Oxirida bu maqsudimga yetkazgan Tangrimga shukrimni qaysi yo'l bilan aytay? Alloh murodimga yetkazgan bu kunda bazm tuzib, bir dam xursandlik qilsam arziydi.

Soqiy, shodlik qadahini to'ldir, negaki ko'p fikrlashdan dimog'im quruqshab ketdi. Ko'zimni shu'lasini bilan munavvar qilay, dimog'imni isidan muattar qilay.

Mug'anniy, so'zimni tinglagin-da, hazin bir nag'mani sozlab xirgoyi qil, bir ohang bilan shunday kuylagilki, men bir dam orom olay.

Navoiy, Tangri maqsadingga yetkazib senga ajoyib bir navoni armug'on etdi. Tangri shukri navosini tilingga olib, yana navo istasang, shukr qil!

MUNDARIJA

Anvar Hojiahmedov. «BUYUK BADIY OBIDA» 3

NAVOIY O'Z «XAMSA»SINING YARATILISH
TARIXI HAQIDA..... 14

Hayrat ul-abror..... 17

Farhod va Shirin..... 105

Layli va Majnun..... 203

Sab'ayi sayyor..... 277

Saddi Iskandariy..... 387

NAVOIY O'Z «XAMSA»SINING
TUGALLANISHI HAQIDA..... 483

Adabiy-badiiy nashr

ALISHER NAVOIY

XAMSA

Muharrir
Ma'mura QUTLIYEVA

Musahhih
Madina MAHMUDOVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2016-yil 15-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 15.5. Shartli bosma tobog'i 26.04.
Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozi.
Adadi 44 221 nusxa. Buyurtma № 16-855.
Bahosi kelishilgan narxda.

«O'ZBEKISTON» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
100011. Toshkent sh., Navoiy ko'chasi 30-uy.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14;

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87

faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru



Alisher Navoiy (1441–1501)

G'azal mulkining sultoni, o'zbek adabiy tilining asoschisi.

1441-yil 9-fevralda Hirotida tug'ilgan. Zamondoshlari u haqida ko'pincha «Nizomiddin Mir Alisher» deb yozadilar. «Nizomiddin» – din, diyonat nizomi degani bo'lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, «mir» – amir demakdir.

Alisher avval Sabzavorda, so'ng Mashhadda yashadi. Bir munosabat bilan u 50 ming bayt, 100 ming misra she'r yod olganini aytadi. 15 yoshlarida o'z she'rlari bilan zamonasining mashhur shoirlari e'tiboriga tushadi.

1472–1476-yillarda birinchi devoni – «Badoye ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»), 1485–1486-yillarda ikkinchi devoni – «Navodir un-nihoya» («Nihoyasiz nodirliklar») maydonga keladi. 1481–1482-yillarda esa «Vaqfiya» asarini yozadi.

Buyuk mutafakkir 1483–1485-yillarda turkiy tilda birinchi marotaba 54 ming misralik ulkan obida – «Xamsa» asarini yozib tugatadi.

Navoiyning 1492–1498-yillarda tartib qilingan to'rt devondan iborat ulkan «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasini») she'riy kulliyoti shoirning turkiy tilda yozilgan deyarli barcha lirik she'rlarini o'z ichiga qamrab olgan. Shoir 7–8 yoshidan 20 yoshigacha bo'lgan davrni umrning navbahori deb hisoblaydi va shu davr devonini «G'aroyib us-sig'ar» («Yoshlik g'aroyibotlari») deb ataydi.

Alisher Navoiy 1501-yilda vafot etgan.

